


**N.E.Ibadullayev, M.X.Xamitov,
S.A.Abduxamidov, M.I.Daminov**

MINTAQAVIY TURIZM

O'quv qo'llanma



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«XALQARO TURIZM VA TURIZM SERVISI» kafedrasи

**N.E.Ibadullayev, M.X.Xamitov,
S.A.Abduxamidov, M.I.Daminov**

**MINTAQAVIY TURIZM
*O'quv qo'llanma***

SAMARQAND – 2018

N.E.Ibadullayev, M.X.Xamitov, S.A.Abduxamidov, M.I.Daminov
«Mintaqaviy turizm» O'quv qo'llanma. Samarqand. SamISI. 2018 yil.

Mas'ul muharrir:
i.f.d., professor I.S.Tuxliyev

Taqrizchilar:
g.f.n., dotsent M.R.Usmonov
i.f.n. F.U.Tursunov

Ushbu o'quv qo'llanma Samarqand Iqtisodiyot va servis institutining «Xalqaro turizm va turizm servisi» kafedrasida ishlab chiqildi. O'quv qo'llanmada talabalar «Mintaqaviy turizm» fanini mustaqil o'rganishlari uchun barcha o'quv-uslubiy materiallar mavjud.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 5610300 - «Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)» va 5610200 - «Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish» ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan. O'quv qo'llanmadan turizm bo'yicha kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari va turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar ham foydalanishi mumkin.

F-1-61. O'zbekistonning turistik-rekreatsion salohiyatini rivojlantirishda mintaqaviy geoaxborat tizimini shakllantirish loyihasi doirasida bajarilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalari asosida bajarilgan

KIRISH

Mamlakatimizda turizm sohasiga mustaqillikning dastlabki yillaridanoq asosiy davlat siyosati darajasida qaraldi. Soha rivoji uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim meyoriy hujjatlar qabul qilindi va bu ish hozirda ham davom etmoqda. Mamlakatimizda turizmning ravnaqi, uni yangi pog'onalarga ko'tarish, yurtimizni jahon turizm markazlaridan biriga aylantirish uchun avvalo huquqiy zamin yaratish lozim edi.

Mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoit yaratish, hududlarning turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, turizm tarmog'ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ'ibot qilish O'zbekistonning ijobjiy qiyofasini shakllantirishdagi muhim omillardan biri sanaladi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholiga xizmat ko'rsatuvchi sohalarning o'rni va roli g'oyat sezilarli bo'lib, bunda turizmning ahamiyati boshqa xizmat ko'rsatish sohalariiga qaraganda yuqori sur'atlar bilan rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda O'zbekistonda turizmni rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan masalalarga juda ham katta e'tibor berilib, uning turistik salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari shakllanmoqda va qaror topmoqda.

Mamlakatimizda turistik xizmat ko'rsatish sohasi mustaqillik yillaridan boshlab iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etildi, tashkiliy-huquqiy mexanizmi vujudga keltirilib, davlat tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ta'kidlash lozimki, turizm rivojida, ayniqsa, sohaning boshqaruvi tuzilmasi muhim o'rinn tutadi. Prezidentimizning 2016 yil 2 dekabrda Farmoniga asosan, yangidan tashkif etilgan Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyati, eng avvalo, nazorat va ma'muriyat chilik vazifalarini amalga oshirishga emas, balki turizmda tadbirkorlik faoliyatini kuchaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ya'ni qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, sayyoqlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan g'ov va to'siqlarni bartaraf etish, xizmatlar bozorida raqobatni rivojlantirish, litsenziyalash, sertifikatlash hamda boshqa ruxsatnomalar berish uning zimmasiga yuklandi.

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining «Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari» deb nomlangan uchinchi yo'nalishida turizm industriyasini jadal ravnaq toptirish bo'yicha dasturiy vazifalar belgilab berilgan. O'zbekistonda turizm salohiyatining yuqoriligi, uning milliy va hududiyl iqtisodiyot taraqqiyotidagi ustuvor o'rni va ahamiyati, turizm korxonalarining va

ular bilan bevosita bog'liq xizmat ko'rsatuvchi tarmoq sohalarining faolligi turizm majmuasi va uning infratuzilmalari shakllanishi va rivojlanishiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy turizm majmuasi va uning infratuzilmalari shakllanishi, avvalumbor turizmning innovatsiyaviy-investitsiyaviy rivojlanishi boshqarish modeliga va turizm tizimida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar rivojlanishiga tayanadi. Zamonaviy turizm majmuasi shakllantirishda uning ishlab chiqarish, transport, joylashtirish vositalari, axborot-kommunikatsiya va reklama xizmatlari, hamda moliya, kredit, sug'urta infratuzilmalari bilan bir qator infratuzilmalarning o'tni va ahamiyati juda yuqoridir.

O'zbekistonda turizm yangi soha hisoblanmaydi. bu soha qadimdan mavjud bo'lgan, faqat bizning oldimizda turgan vazifa milliy va mintaqaviy turizmnin yangicha strategiya asosida rivojlantirish va istiqbolini belgilash hamda mintaqaviy turistik resurslardan samarali foydalanish vazifasi turadi. Shu jumladan ta'kidlash joyizki Samarkand turistik mintaqasi Respublikada o'zining turistik salohiyati bilan yetakchi turistik mintaqqa hisoblanadi. Uning turistik resurslarini tadqiq qilish, ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ular asosida yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda xalq xo'jaligini isloh qilishning asoslari iqtisodiyotni boshqarishni takomillashtirish tamoyillarini mukammal ishlab chiqish bilan bog'liq hisoblanadi. Bu yo'nalishda azaliy rivojlanib kelayotgan xalq xo'jaligi tarmoqlarini jadal yuksaltirish albatta birinchi navbatdagi vazifalardir. Endi jahon integratsiyasida faoliyat ko'rsatayotgan respublikamiz xalq xo'jaligi rivojiga dunyoda yangi iqtisodiy istiqbolli, samarali yangi sohalarni kiritish zamon, vaqt talabidir. Bu yangi iqtisodiy tarmoqlardan eng muhim turizm sohasidir.

Jahon mamlakatlariда keskin rivojlanib borayotgan turizm iqtisodiyotda eng serdaromad soha hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir. Bu masalaning dolzarbli shundaki, turizm bozorining xalqaro rivoji o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib hozirgi kunda bu bozor munosabatlarini bilish, turizmni rivojlantirish muammolarini to'g'ri aniqlashni ta'lab qiladi. Chunki, xalqaro turizmni bilmasdan dunyo turizmi hamjamiyatiga, hamkorligiga qo'shilish va O'zbekistonda turizmni xalqaro va mahalliy darajada rivojlantirib bo'lmaydi.

Bugungi kunda juda tezlik bilan taraqqiy etib borayotgan dunyoda insonlar fikri, ularning harakatlari, hayotdan zavq olish yo'llari o'zgarib bormoqda. Insonlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazib, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyonи, xalqlarning urf - odatlari, qadriyatlarini bilishga intilmoqdalar. Bunday xizmatlarni turizm sohasi ko'rsatadi. Insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib,

yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. So'nggi asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizmning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

"Mintaqaviy turizm" fani mintaqaviy turizmning tasnifi, ularning turlari, ijtimoiy - iqtisodiy mazmuni, turistik resurslarning mintaqaga bo'yicha joylanishi, ularda turistik sayohat tashkil qilish usullari va ushbu resurslardan turizm faoliyatida samarali foydalanish kabi bir qator masalalarini qamrab oladi.

I-MAVZU. MINTAQAVIY TURIZM FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

- 1.1. "Mintaqaviy turizm"fanining turizm sohasini rivojlantirishdagi o'rni
- 1.2. Fanning maqsadi va vazifalari
- 1.3. Fanning boshqa fanlar tizimida tutgan o'rni
- 1.4. O'zbekiston mustaqillikka erishgach turizm sohasida amalga oshirilgan islohotlar

1.1. "Mintaqaviy turizm"fanining turizm sohasini rivojlantirishdagi o'rni

So'ngi yillarda turizmning tez sur'atlarda o'sishi va ta'sir doirasining kuchayishi dunyo mamlakatlari o'tasida aloqalarning rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Shuningdek, turizm jahon va milliy iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Turizm mintaqaviy daromadning o'sishi, infrastrukturaning shaktlanishi, yangi ish joylarini yaratish orqali bandlik muammosini hal qilish, davlatlar va mintaqalar o'tasidagi aloqalarni rivojlantirgan holda, mintaqaviy rivojlanishning barcha tamonlariga ta'sir etadi. Shunday ekan oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri mamlakatimizda mintaqaviy turistik resurslarni rivojlantirishdir.

O'zbekistonda xalq xo'jaligini isloh qilishning asoslari iqtisodiyotni boshqarishni takomillashtirish tamoyillarini mukammal ishlab chiqish bilan bog'liq hisoblanadi. Bu yo'nalishda azaliy rivojlanib kelayotgan xalq xo'jaligi tarmoqlarini jadal yuksaltirish albatta birinchi navbatdagi vazifalardir. Endi jahon integratsiyasida faoliyat ko'rsatayotgan respublikamiz xalq xo'jaligi rivojiga dunyoda yangi iqtisodiy istiqbolli, samarali yangi sohalarni kiritish zamон, vaqt talabidir. Bu yangi iqtisodiy tarmoqlardan eng muhim turizm sohasidir.

Jahon mamlakatlarida keskin rivojlanib borayotgan turizm iqtisodiyotda eng serdaromad soha hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir. Bu masalaning dolzarbli shundaki, turizm bozorining xalqaro rivoji o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib hozirgi kunda bu bozor munosabatlарini bilish, turizmni rivojlantirish muammolarini to'g'ri aniqlashni talab qiladi. Chunki, xalqaro turizmni bilmasdan dunyo turizmi hamjamiyatiga, hamkorligiga qo'shilish va O'zbekistonda turizmni xalqaro va mahalliy darajada rivojlantirib bo'lmaydi.

Bugungi kunda juda tezlik bilan taraqqiy etib borayotgan dunyoda insonlar fikri, ularning harakatlari, hayotdan zavq olish yo'llari o'zgarib bormoqda. Insonlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazib, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyonи,

xalqlarning urf - odatlari, qadriyatlarini bilishga intilmoqdalar. Bunday xizmatlarni turizm sohasi ko'rsatadi. Insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. So'nggi asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizmning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurishni o'zining asosiy maqsadi qilib belgilab oldi. Bu ishda turizm sohasi ham yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Turizm nafaqat o'tmisni o'rganish, o'zga xalqlar va etatlar bilan tanishish, ularning madaniy yodgorliklaridan bahramand bo'lish, shuningdek, u katta biznes hamdir. Mazkur faoliyatni yo'lga qo'yish esa mutaxassislarga bog'liq bo'lib, buning uchun malakali kadrlarni tayyorlash hozirgi kunning muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirishda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish universiteti, Buxoro, Urganch, Termiz Davlat universitetlari va respublikamizdag'i turizm sohasidagi kasb-hunar kollejlari o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar,

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 10 iyuldag'i "O'zbekiston Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 199-sonli qarori, 2015 yil 10 yanvardagi "Oliy ta'llimning Davlat ta'llim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 2001 yil 16 avgustdag'i 343-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 3-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'llim vazirligining 2015 yil 15 yanvardagi 12-sonli buyrug'i hamda Samarqand iqtisodiyot va servis institutining 2015 yil 24 yanvardagi 17-«F» sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida ishchi guruh professor-o'qituvchilari tomonidan, "Oliy ta'llim yo'nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatori"ga muvofiq quyidagi ta'llim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka talablari va o'quv rejalarini qayta ishlab chiqildi.

"5610300 – Turizm (xalqaro va ichki turizm)" va "5610200 – Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" ta'llim yo'nalishlari bo'yicha qayta ishlab chiqilgan O'quv rejasining umumkasbiy fanlari blokiga professor-o'qituvchilar tomonidan "Mintaqaviy turizm" fanini kiritish lozim deb topildi.

"Mintaqaviy turizm" fani mintaqaviy turizmning tasnifi, ularning turlari, ijtimoiy - iqtisodiy mazmuni, turistik resurslarning mintaqaga bo'yicha joylanishi, ularda turistik sayohat tashkil qilish usullari va ushbu resurslardan turizm faoliyatida samarali foydalanish kabi bir qator masalalarini qamrab oladi.

Ushbu fan mintaqaviy turizm fanining tasnifi, ularning turlari, ijtimoiy - iqtisodiy mazmuni, turistik resurslarning mintaqaga bo'yicha joylanishi, ularda turistik sayohat tashkil qilish usullari va ushbu resurslardan turizm faoliyatida samarali foydalanish masalalarini qamrab oladi.

1.2. Fanning maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi O'zbekiston mintaqasida joylashgan turistik resurslar turlari haqida ma'lumotga ega bo'lish, hamda ulardan turizm maqsadida samarali foydalanish bo'yicha bilimlar bilan ta'minlashdan iborat bo'lib, ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- “Mintaqaviy turizm” fanining maqsadi va vazifalari;
- mintaqaviy turizmnning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, ularning turizmni rivojlantirishdagi ahamiyati;
- mintaqaviy turizmdan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar;
- mintaqalarning turistik resurlari tasnifi;
- mintaqalarning turistik resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini baholash;
- mintaqalarda ekologik turizmni rivojlantirish resurslari va ulardan foydalanish;
- mintaqalarda ziyorat turizmi markazlari va ularni rivojlantirish resurslari;
- mintaqalarda qishloq turizmini rivojlantirish resurslari;
- mintaqaviy rekreatsiya resurslaridan foydalanishning ekologik-iqtisodiy xususiyatlari;
- turizm industriyasida raqobatbardosh omillar asosida Buyuk Ipak yo'li davlatlarining guruhlanishi;
- Markaziy Osiyo turizmi imkoniyatlarini tadqiq qilish;
- O'zbekistonni turistik rayonlashtirish xususiyatlari;
- Toshkent turistik mintaqasi;
- Samarqand turistik mintaqasi;
- Buxoro-Navoiy turistik mintaqasi;
- Xorazm turistik mintaqasi;
- Farg'onha turistik mintaqasi;
- Jizzax-Sirdaryo turistik mintaqasi;
- O'zbekistonning janubiy turistik mintaqasi;
- Qoraqalpog'iston turistik mintaqasi;
- mintaqaviy turizm infratuzilmalarini takomillashtirish yo'llari;
- mintaqalarning madaniy-tarixiy merosi, ulardan foydalanish va muhofaza qilish;
- mintaqaviy turizm asosida ekskursiya xizmatlarini tashkil etish yo'llarini o'rjanib tahlil qilish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqish kabilardir.

«Mintaqaviy turizm» fani «Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)», «Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish» ta'lim yo'nalishlarining 1 - bosqich bakalavrлari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quv mashg'ulotlari 2-semestrda,

46 soat ma’ruza va 48 soat amaliy mashg‘ulot hajmida olib boriladi.

Mazkur fanni o‘rganish «Turizm: nazariya va amaliyot», «Xalqaro turizm: tajriba va amaliyot», «Europereyting», «Ekskursiya xizmatini tashkil qilish», kabi fanlar bilan uzviy aloqada bo‘lib fanni o‘rganish jarayonida xorijiy davlatlar hamda respublikamizda nashr etilgan turizm sohasiga oid ilmiy, o‘quv, uslubiy qo‘llanmalardan hamda jurnal va gazetalardagi maqolalardan, internet saytlaridan, turistik firmalarning namunaviy marshrutlari, bukletlar va GPS yo‘l ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi.

1.3. Fanning boshqa fanlar tizimida tutgan o‘rni

Turizm inson hayoti va faoliyatining ko‘p sohalarini qamrab oladi. Shuning uchun turizmni o‘rganish psixologiya, antropologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot, geografiya, informatika, huquq fanlarini ta’limni o‘rganish bilan uzviy ravishda bog‘liq. Turistik resurslar yer sharining deyarli barcha burchaklarida, qit’alarida va mamlakatlarida mayjud. Turizm yo‘nalishi va to‘rini erkin tanlash sharoitida turizm tashkilotchilari turistik oqimlarni bilishi, istiqbollashi va xatto ularni boshqarishi kerak.

Psixologiya

Sayohat qilish uchun turist qaysi marshrutni tanlaydi, ushbu mavsumda qaysi mamlakat afzallikka ega bo‘ladi, turizmning qaysi turlari mashhur bo‘ladi? Turistik bozorda nimani taklif qilish foydali, o‘z turistik mahsulotini harakatini qayerga yo‘naltirish kerak? Mijoz xohishlarini yaxshi qondiruvchi to‘rni qanday qilib tuzish kerak? Bu savollarning ko‘pchiligiga inson psixologiyasi, uning harakatlari va qaror qabul qilish motivatsiyasi (sabablari) asoslarini o‘rganmasdan javob berish mumkin emas. Mijoz xohishi motivatsiyasini o‘rganmasdan va tushunmasdan turib, to‘rni to‘g‘ri tuzish va uni bozorda iste’molchiga taklif qilish, asosiysi mijoz xohishini turistik taassurot va emotsiyalarning ijobiy gammasini ta’minlab qondirishi mumkin emas. Kichkinagina uzilish ham puxta tayyorlangan va tahsil qilingan sayohatdagi ijobiy ta’surotni yo‘qotishga yetarli bo‘ladi.

Insonning turli holatlarda o‘zini tutish modelini, qaror qabul qilish sabablarini, dam olish to‘rini tanlash, asosiy va turdosh maqsadlari, sayohat yo‘nalishlari, hamkorlar va turistik firmani tanlashni yaxshilab o‘rganish kerak. Sayohatni amalga oshirish sabablar turlicha bo‘lib, u turist yoshi, intellekt darajasi, moliyaviy holati, jamiyatning u yoki bu holatiga tegishliligi va ko‘pgina boshqa omillarga bog‘liq. Turist bo‘lishga turli sabablar ta’sir qiladi: dam olish, bo‘sh vaqt, dunyoqarashni kengaytirish, notanish narsalarni bilish, ko‘ngil ochish, diniy, davolanish, qarindoshlar va do’stlarni ko‘rish va boshqa maqsadlar. Ushbu sohadagi keng qamrovli bilimlar bilan shugullanuvchi fan psixografiya deyiladi va uning uslublari

turizm marketingida ham kullaniladi.

Sayohatni tanlashda sabablarning o'zgarishi iste'molchi bozorida turistik mahsulotni taklif qiluvchi turistik firma uchun salbiy oqibatlarga olib keladi. Kayfiyat, moda, umumiy siyosiy-iqtisodiy holat va ko'pgina boshqa omillarga e'tiborsizlik paydo bo'lishi mijozlarni yo'qotish va turistik faoliyatda iqtisodiy qiyinchiliklarga olib keladi, chunki bu omillar turistik oqim yo'nalishini aniqlovchi va motivatsiya natijasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Sotsiologiya

Sotsiologiya - jamiyatshunoslik haqidagi fanlardan biri bo'lib, turizm sohasida esa u - insonni boshqa joyga borishga yordam beruvchi sotsial sharoitlarni o'rGANUVCHI fan bo'lib gavdalanadi. Inson hayotida turizmnini amalga oshirish uchun kamida ikkita muhim shart bajarilishi kerak: bo'sh vaqt va turistik sayohatni amalga oshirish uchun mablag'. Buning barchasi mamlakatda tinch siyosiy holat mavjud bo'lgan paytda amalga oshishi mumkin.

Turizm iqtisodiy munosabatlarda hosil bo'ladigan har qanday nomutanosibliklardan ta'sirlanadi. Jahan ijtimoiy hayotida katta voqeя yoki iqtisodiy tizimda o'zgarishlar sodir bo'lishi darxol turizm rivojlanishining holatiga va dinamikasida aks etadi. 1998-yil Rossiya moliyaviy inqirozi jamiyatni larzaga keltirdi. Osiyo krizisi ushbu hudud turistik bozoriga yomen ta'sir qildi va bundan turizmning dinamikasi 10% ga qisqardi. 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tufayli jahon turizmining oqimi 8% kamaydi.

Doimiy taraqqiyotda turizm sotsial xodisa sifatida qaratadi. Insonlarning xulqi ularning yoshi, millati, ijtimoiy holati, ma'lumoti, yashash joyi, madaniy qarashlarga bog'liq holda o'rGANILADI.

Hozirgi kunda sotsiologik tadqiqotlarga katta e'tibor berilmokda. Deyarli har bir katta tadbir, ko'tgazmada turistlar va tashrif buyuruvchilardan turli ma'lumotlarni to'plash maqsadida anketalash o'tkazilmoqda. Bu anketalar hozirgi va kelajakdag'i sayohatlar darajasini baholash uchun muhim ma'lumotlar olish imkonini beradi. Sotsiologik tadqiqotlar ma'lumotlari ma'lum bir iste'molchi bozorida turistik mahsulotning harakat qilish siyosati shakllanishida, bashorat va ko'rsatmalar ishlab chiqishda hamda bojxona va migratsion munosabatlar va qoidalar sohasida muhim siyosiy-iqtisodiy qarorlar qabul qilishda asos bo'lish uchun dastlabki baza hisoblanadi.

Iqtisodiyot

Turizm – bu iqtisodiyotning maxsus sohasi va inson faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi. Shu sababli turizm sohasida iqtisodiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatları o'zining mahsus qirralarida namoyon bo'ladi, umumiy qonuniyatlar o'zini xususiyligi orqali namoyon qilsa, xususiylik esa mazkur turistik tashkilotning aniq faoliyati orqali aks ettiriladi.

Turizm iqtisodiyoti aholining kattagina qismini turistik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida mazkur xo'jalik sohasini barcha darajalarida turistik mahsulotni ishlab chiqaradigan, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qiladigan kishilarning xulq-atvorini o'rghanadi.

Har bir turistik hudud, har bir mamlakat, har bir shahar va joy iqtisodiy foyda va daromad olish uchun mavjud turistik resurslaridan oqilona foydalanishga harakat qiladi. Har bir mamlakatda o'zining siyosiy qarashlari, iqtisodiyoti rivojlanishining yo'nalishlari, jamiyat an'analarining ko'p qirralari mavjud. Turistlarni jalg qilish uchun xatto juda qiziqarli bo'lgan ob'ektlar va xodisalar uchun ham xizmat ko'rsatishning mos darajasini, xavfsizlikni ta'minlovchi turistik qiziqish va ehtiyojni uyg'unlashtirib turuvchi turistik industriya va infratuzilma zarur.

Turizm sohasini rivojlantirishni ba'zan «*tilla tuxum qo'yuvchi tovug*» qa o'xshatiladi. Ammo, ushbu tovuq boqilmasa, tovuq tuxum qo'yishni tuxtatishi mumkin yoki tuxumlar hajmi va sifati buzilishi mumkin yoki tovuqning o'zi o'lib qolishi mumkin. Shunga ko'ra, turistik markazlar va hududlar nafaqat turizmdan pul ishlab qolishadi, balki turizm industriyasini barqaror rivojlantirishga, turistik mahsulotni ichki va tashqi bozorlarda harakat qildirishga juda katta miqdorda mablag'lar ajratishadi.

Barcha davlatlarda ham turizmga bo'lgan siyosat bir xil tuzilmagan. Masalan, Yaponiya orolidagi davlat, tarixiy yopiq jamiyatni ko'rgan va uzoq davr mobaynida keluvchi turistlarga e'tibor bermagan, hududi chegaralanganligi natijasida o'z fuqarolarini dunyo bo'yicha sayohat qilishga faol undadi. Xatto, mehmonxona xo'jaligi ham xorij turistlarini qabul qilishga yo'naltirilmagan, otellar past tabaqali aholi joylashishiga mo'ljallangan va inshoot gabariti va ship balandligi bo'yicha Yevropa standartlariga javob bermaydigan normalar bo'yicha qurilgan. Lekin, uzoq davr mobaynida turizmsiz ham rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyoti hayotiy kuch oqimining yangi manbasini tafab qildi. Yapon hukumati mamlakatga kiruvchi turizm konsepsiyalarini qaytadan ko'rib chiqdi va boshqa hududlardan mamlakatga turistik oqimlarni jalg etish maqsadida jahon turistik bozoriga milliy turistik mahsulotni chiqarish faoliyatiga 2 mlrd. dollarini ajratdi.

Yuqorida ifoda etilgan faoliyat Xitoyda o'zgacha amalga oshiriladi. Chiquvchi turistik oqim bu mamlakatda juda past, chunki davlatda ta'tilni har yili to'lash uchun huquqiy institut shakllanmagan va qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholining ko'p qismi xorijda sayohat qilish uchun mablag'ga ega emas. Tashqariga chiquvchi turizm yiliga 5 mln. kishidan ortmaydi. Bu ko'rsatkich umumiyligi aholisi 1 mlrd. 200 mingga teng bo'lgan mamlakat uchun juda past darajada. Lekin, keluvchi turizm tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Jahon turizm iqtisodiyotida Xitoy hozirgi kunda turizmning eng jozibador hududi hisoblanadi. Bu yerda turistik qiziqish ob'ektlari mavjudligi, turizm industriyasini rivojlanganligi va davlat siyosatining turizmga

ijobiy munosabatdaligi sabab bo'lmoqda. Xitoy turizm tashkiloti ekspertlari baholariga ko'ra, keyingi yillarda Xitoy jahondagi eng ko'p turistlar qabul qiluvchi mamlakatga aylanadi. 1998-yilda Xitoyga 65 mln. turistlar kelib ketishgan bo'lsa, 2010-yilda Xitoyga 125 mln. xorij turistlari kelishi rejalashtirilmokda. Bu esa xalqaro miqyosda juda katta ko'rsatgich hisoblanadi.

Geografiya

Hudud resurslarining turistik salohiyatini baholash geografik omillarga bog'liq. Geografiya fani - tabiiy-iqlimi, demografik ma'lumotlar, ularning o'zgarish tendensiyalari va istiqbollari, turizmnинг hududlararo va hudud ichida rivojlanishini batafsil rejalashtirish, ob'ektlar, turistik industriya, turizm sohasini investitsiyalashni rivojlantirishni rejalashtirish, turistik oqimlami, aholi bandligini va turizmdan tushuvchi daromadni rejalashtirish uchun juda zarur hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari

Rivojlanishning hozirgi bosqichida xo'jalikning har qanday tarmog'i kuchli axborot ko'magisiz ishlay olmaydi. Turli fan sohalari bo'yicha ma'lumotlardan turizm maqsadlarida ham foydalaniladi. Bugungi kunda turistik xizmatlarni bronlashda turli avtomatlashtirilgan axborot tizimlari muhim rol o'ynaydi. Turistik resurslar, turistik mahsutoilar ma'lumotlarining axborotlari turli xil hisob-kitoblar, ma'lumotnomalar, kataloglar, prospektlar, yo'l ko'rsatkichlar, jadvallar, *time-table* ko'rinishlarida ask etadi. Ko'pchilik turistik kompaniyalar o'z tarkibida nafaqat xususiy turistik agentligi, balki quvvatli axborot markazlari va nashriyotlariga ham egadirler. Masalan, Buyuk Britaniyaning Reed Travel Group turistik agentligi bunga misoldir. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, yo'l ko'rsatuvchi kitoblar turizmnинг o'zi rivojlanishidan ancha oldin ishlab chiqilgan. Tomas Kuk birinchi bo'sib turistik sayohatni tashkil qilgan paytda, Londondan Parijga sayohat qilishni amalga oshirish uchun yo'l ko'rsatuvchi kitoblar bor edi. Ko'pchilik yo'l ko'rsatkichlar 100 yillik tarixga ega.

Bugungi kunda ko'pgina axborot oqimlari SD - disklarda jamlangan. 1990-yillardagi kompyuter bilan ta'minlashdagи texnik inqilob turizm maqsadlari uchun kuchli avtomatlashtirilgan turizmní vujudga keltirdi.

Jahon Global kompyuter tizimlari – Amadeus (Yevropa), Sabre (AQSH), Galileo (Buyuk Britaniya), Gabriel, "Samoturagent", "Masterturagent", "IS-Rarus: Turagentstvo", "InTour Office", "Master-Tour", "Samo-Tour", "TourVin", "Turbo-tour", "Aist-2.5" va boshqalar yaratilgan va ular muvafakkiyatli darajada xizmat ko'rsatmoqda. Bu tizimlar axborot tashuвларини birinchi navbatda havo transportida hamda mehmonxona va boshqa xizmatlarni bronlashni tashkil qilishda keng tarqalgan.

Turistik axborotni rivojlantirishda yana bir juda katta turki internet global tarmog'i bo'ldi. Bugungi kunda deyarli barcha turistik firmalar o'z saytlariga va E-

mail elektron pochta orqali ushbu tarmoqqa chiqish imkoniyatiga ega. Tarmoqdan foydalanuvchilarning barchasi turistik xizmatlar haqida keng axborot olish imkoniyatiga egadirlar.

Turizmga javob beruvchi davlat tashkilotlari, xususiy kompaniyalar, turistik firmalar, otellar, turistik assotsiatsiyalar, tashuvchilar, attraksion xizmatini taklif etuvchi firmalarda katta axborot varaklari mavjud. Axborotni internet tarmog'iga joylashtirish umumiy holda kitob yoki buklet chiqarishdan arzon, axborot oson va tez ko'rinishini o'zgartiradi, yuqori sifatli rangli illyustratsion ma'lumotni ham uzatish mumkin. Axborot rivojlangan mamlakatlardagi foydalanuvchilarning keng doirasiga yetib boradi.

Xalqaro turizm huquqi

Turizm ko'pchilik mamlakatlar iqtisodiyotining muhim qismi sifatida, xalqaro aloqalarning tarkibi sifatida alohida huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Shuning uchun o'ziga xos tarmoq - turistik huquq tarkib topgan. Ko'pchilik mamlakatlarda rezident va norezident kompaniyalar uchun turistik faoliyat normalari va rivojlanish tamoyillarining asosiy konsepsiyalari turizm haqida milliy qonunlar bilan mustahkamlangan.

Norezidentlar faoliyati uchun odadta ma'lum cheklashlar mavjud. Turizm tashkilotchilari va turist-mijozlar munosabatlari tartibga solingan.

Xalqaro turizm ko'pgina konvensiyalar, xalqaro shartnomalar va bitimlar bilan tartibga solinadi. Dastlab turizm rivojlanishiga asos bo'lgan, dam olish va bo'sh vaqtning asosiy huquqlarini ta'minlash to'g'risidagi bitimga erishildi. 1948 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan inson huquqlari Umumjahon Dekleratsiyasining 24-moddasida shunday deyiladi: «Har bir inson ish vaqtini oqilona chegaralanishi va har yilga pullik ta'tilni olishi, dam olishi va bo'sh vaqt huquqiga egadir». 1966-yil BMT Bosh Assambleyasi bu shiorni tasdiqladi va kengaytirdi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Paketga imzo chekkan davlatlar har bir insonning «dam olish, bo'sh vaqt, ish vaqtini oqilona cheklash, davriy pullik ta'til hamda bayram kuntari uchun to'lov» huquqini ta'minlash majburiyatini bo'yngi olganlar.

Bu nizomlar turizm rivojlanishiga, xususan, xalqaro turizm rivojlanishiga tutki berdi. Xalqaro turizmning jadal rivojlanishi turistik faoliyatni tartibga soluvchi me'yorlar o'rnatish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Xalqaro turistik huquq tashkil topishining eng asosiy yo'nalishlaridan biri terminologiya va ta'riflar to'g'risidagi bitim tuzish edi.

Bugungi kunda xalqaro turizm o'z faoliyatini asosiy xalqaro kelishuvlarga binoan olib boradi: Gaaga (1989-yil, Gaaga, Niderlandiya) va Manila (1980-yil, Manila, Filippin) bitimlari, turizm vazirliklarining Osaka konferensiyalari yo'riqnomalari (1994-yil, Osaka, Yaponiya).

Hududiy qonunlar va me'yoriy aktlarni ham ta'kidlab o'tish muhim. Yevropa iqtisodiy hamjamiyati ushbu ittifoqqa kiruvchi mamlakatlar turistik faoliyatini tartibga solish bo'yicha bir qator qonunlar va me'yoriy aktlar qabul qilgan. Masalan, yagona vizali hudud, turistik xizmatlar shartnomasi to'g'risidagi Shengen shartnomasi (YEES Direktivasi №90/134 13-may 1995-yil. «Turistik agentlik va mijoz o'rtaida imzolanishi kerak bo'lgan namunaviy shartnoma», «Sayohat qilish shartnomasi bo'yicha Xalqaro Konvensiya», 1970-yil 22-oktyabrdagi FUAAV ning Bosh Assambleyasida qabul qilingan «Mehmonxona egalari va turistik agentliklar o'rtaida bitimlar tuzishga tegishli Xalqaro mehmonxona Konvensiyasi», Yo'llovchilar va ularning yuklarini xalqaro havo, avtomobil va dengiz transportida tashish alohida tartibga solingan. Havo transporti Varshava Konvensiyasi bilan (1929-yil Varshavada qabul qilingan), Avtomobilda passajirlar va yuklarni tashish Berlin Konvensiyasi bilan (1975-yil, Berlin), dengiz transportida passajirlarni tashish esa Afina Konvensiyasi bilan boshqariladi.

1.4.O'zbekiston mustaqillikka erishgach turizm sohasida amalga oshirilgan islohotlar

O'zbekistonda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qatorida turizm sohasining markazlashgan ma'muriy boshqaruvi tizimi 1971-1991 yillar davriga to'g'ri keldi. Bu davrda salbiy oqibatlar ham ko'zga tashlana boshladи. Qurilmay qolgan turistik-rekratsion maqsadidagi ob'ektlar sonining ko'payishi, mavjudlarida esa mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlarning sifati bo'yicha ko'plab e'tirozlar paydo bo'la boshladи. Ijtimoiy tadqiqotlarga ko'ra mehmonxonalar, turbazalar, dam olish uylari hamda pansionatlar tomonidan taklif qilinadigan 50 foizgacha bo'lgan barcha xizmatlar fuqarolarning notoziligini keltirib chiqargan. Joylashtirish va ovqatlanish xizmatlari bilan birga hordiq chiqarish va tibbiy xizmat ko'rsatish talab darajasida bo'lmagan. Turistik xizmat turlari va hajmi sezilarsiz va sifatsiz bo'lgan.

Mamlakatimizda turizm faoliyati mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi sifatida talqin qilinib, unga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Soha rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizmlar vujudga keltirildi.

Mustaqillikdan keyingi qator yillar davomida O'zbekiston Respublikasi prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining turizmga oid qarori, Turizmnii rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturlari qabul qilindi. Shuningdek, turli davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlik bitimlari tuzildi.

Hozirgi paytda turizm sohasining umumiy rivojlanishi va raqobatbardosh turistik mahsulot yaratish maqsadida, tarmoqda zaruriy islohotlar izchillik bilan

amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning turizm sohasidagi islohotlarni shartli ravishda beshta bosqichga ajratsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Birinchi bosqichda tarmoqda yangi boshqaruv tizimini shakllantirish, turistik biznesni yuritishga yordamlashadigan qo'shimcha biznes turlarini yaratish, sohaga xizmat qiladigan bank, audit, maslahat xizmatlarini tashkil etish, viloyatlarda turizm tarmog'ining mintaqaviy bo'linmalarini tuzish, xalqaro miqyosda turizm mahsulotini reklama qilish, xususiyashtirilgan turistik korxonalarini litsenziyalashtirish kabi masalalarga alohida e'tibor berildi. 1992 yilda respublikada «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi tashkil etildi va turizm sohasida barcha tashkiliy, boshqaruv hamda muvofiqlashtirish funksiyalarini amalga oshira boshladi. 1993 yilda «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi Butunjahon turistik tashkilotga (BTT) haqiqiy a'zo bo'lib kirdi va bu o'z navbatida xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. 1994 yilda BMT ning YUNESKO tashkilotining hamda O'zbekiston hukumatining tashabbusi bilan Samarcand shahrida Buyuk Ipak yo'llidagi shaharlarda xalqaro turizmni rivojlantirish bo'yicha Samarcand deklaratsiyasi qabul qilindi.

Bu bosqich mobaynida, ya'ni 1994 yilda ishlab chiqilgan «Turistik korxonalarini xususiyashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturi» chuqr tizimli - institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishda juda katta ahamiyat kasb etdi. 1994-1995 yillar mobaynida «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasining 87,8% turistik ob'ektlari xususiyashtirildi va davlat tasarrufidan chiqarildi.

Amalga oshirilgan o'zgarishlar turistlarni qabul qilish shaklini jadallik bilan rivojlantirdi. 1995 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Buyuk Ipak yo'llini qayta tiklash va xalqaro turizmni rivojlantirish» to'g'risidagi Farmoni¹ Buyuk Ipak yo'llida turistik mahsulotni tiklash borasida strategik harakterga ega bo'ldi. Bu o'z navbatida O'zbekiston turizmi sohasidagi islohotlarning ikkinchi bosqichini boshlab berdi. Natijada Buyuk Ipak yo'llidagi shaharlar va turistik manzillar ro'yxatga olindi, Imom-al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G'ijduvoniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom al-Motruziy, Mahmudi A'zam, Hakim at-Termiziyy, Hazrati imom, Shayx Shamsiddin Kulol, Burxoniddin Marg'unoniy, Buxorodagi Chor Bakrlari kabi allomalarimizning maqbaralari ta'mirlandi va ziyoratgoh majmualarga aylantirildi, Toshkent shahrida muntazam ravishda xalqaro turistik yarmarka tashkil etila boshlandi, mehmonxonalardagi xalqaro talablarga javob beruvchi o'rinalar soni 4,8 barobarga ko'paytirildi.

Turizm sohasidagi islohotlarning **uchinchchi bosqichida**, ya'ni, 1999 yil 15 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005 yilgacha bo'lgan davrda

¹ «Xalq so'zi» gazetasi, 1995 yil 3 iyun

O'zbekiston turizmini rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Buning asosida turizm sohasidagi bozor munosabatlari uzil-kesil yo'lga qo'yildi hamda dunyo bozori bo'yicha raqobatbardosh turistik mahsulot yaratila boshlandi, turizm tizimini boshqarishning markazlashtirilishiga chek qo'yildi. Ko'pchilik turistik ob'ektlar o'zlarini o'zları boshqara boshlashdi, xizmat bozorida raqobatlasha olmaydigan korxonalar yopilib, samarali ishlovchi yangi korxonalarga o'rın ochib berildi.

Turizm sohasidagi islohotlarning to'rtinchı bosqichi 2000 yıldan boshlangan bo'lib, bu davrda xususiy turistik tashkilotlar assotsiatsiyasiga va tashkil etiladigan boshqa turistik assotsiatsiyalarga asos qo'yildi (Gid-tarjimonlar assotsiatsiyasi, Mehmonxona egalari assotsiatsiyasi, Transportchilar assotsiatsiyasi) va «O'zbekturizm» Milliy Kompaniyasining bir qator vakolatlarini o'tkazish ustida izlanishlar olib borildi. Bu o'lkamiz turizm xizmatlar bozorida faoliyat yurituvchi korxonalarning yanada tezroq sur'atlarda rivojlantirishga yordam berdi.

O'zbekiston Respublikasining bu davrdagi amalga oshirilgan ulkan ishlarni hisobga olib, Islom konferensiyasi tashkiloti (OIK) tarkibidagi muassasalardan biri – Ta'lim, Fan va madaniyat masatalari bo'yicha Xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) Toshkentni 2007 yilda “Xalqaro islom madaniyati markazi”deb e'lon qildi. O'zbekistonning islom madaniyati va ilmi oldidagi, islom merosi va yodgorliklarini astrash va yanada boyitish borasidagi mislsiz xizmatlari uchun Toshkent shunday yuksak va faxrli unvonga sazavor bo'ldi.

Hozirgi vaqtدا, turizm sohasidagi meyoriy-huquqiy hujjatlarning asosini tashkil etuvchi eng muhim hujjat bo'lib O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risida”gi qonuni hisoblanadi. Ushbu qonun 1999 yilning 20 avgustida qabul qilingan va 22 moddani o'zida mujassam etgan. Ammo, bugungi kunda ushbu qonunning yangi qonun loyihasi ham ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2016 yil 2 dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qabul qilgan Farmoni tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiyotda birinchi marotaba turizm sohasiga strategik sektor maqomi berildi, natijada O'zbekistonda turizmning xorijiy hamda ichki turistlarga xizmat ko'rsatuvchi turdosh sohalarini va tarmoqlarini rivojlanishini ta'minlashda *miliy turizm sohasining yangi beshinchi bosqichi boshlandi*.

Ushbu Farmonda turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadlari va ustuvor vazifalaridan kelib chiqib, o'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasini, shuningdek 2017-2021-yillarda viloyatlarda Konsepsiyanı amalga oshirishga doir aniq chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasini tayyorlashda qo'yidagi *o'rta muddatli istiqbolda amalga oshiriladigan masalatarga* alohida e'tibor berildi:

- turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohami jadal rivojlantirishning yetakchi kuchiga aylantirish, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash, ish bilan bandlikni ta'minlash, aholining turmush darajasi va sifatiini oshirish;
- turizm industriyasi sub'ektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, turizmnинг rivojlanishidagi barcha to'siq va g'ovlarga barham berish, viza va ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish, turizm sohasida statistik hisobga olish tizimini takomillashtirish;
- turizm xizmatlarini tashkil etishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini-ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, hududlarda samarali, keng ko'lamlı hamda mazmunan boy yangi turizm yunalishlarini tashkil etish, turizm yunalishlari va turizm ob'ektlari bo'yicha yagona milliy reestrlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ichki va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- turizm faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni, birinchi navbatda, BMTning Butunjaxon turizm tashkiloti (YUNVTO), xorijiy mamlakatlarning turizm bo'yicha nufuzli xalkaro va milliy tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, turizm faoliyati amaliyotiga xalqaro va davlatlararo standartlar va hormalarni joriy etish;
- respublikaning barcha mintaqalarida zamonaviy jaxon standartlariga, turistlarning ehtiyojlari va talablariga javob beradigan turizm iindustriyasi ob'ektlarini - mehmonxonalarini va joylashtirishniig shu kabi vositalarini, umumiyoqatlanish ob'ektlarini, transport-logistika tuzilmalarini, axborot markazlarini, asosiy turizm yo'nalishlari bo'yicha yo'l-transport va muhandislik-komunikatsiya infratuzilmasini, yo'l bo'yи infratuzilmasini jadal qurish va rekonstruksiya qilish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investorlarni keng jalb etish;
- xalqaro turizm rivojlanishi tendensiyalarini va zamonaviy marketing vositalari qo'llanilishini hisobga olgan holda, raqobatbardosh turizm mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish, ularni ichki va xalqaro turizm bozorlarida targ'ibot

qilish bo'yicha strategiyani ishlab chiqish, turizm sohasida mamlakatning ijobiloy qiyofasini shakllantirish;

- turizm tarmog'i uchun malakali kadrlarni sifatli tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, turizm faoliyati sub'ektlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

Milliy turizm sohasining yangi beshinchi bosqichi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalish lari bo'yicha harakatlar strategiyasininguchunchi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishda turizm sohasini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlaridan biriga kiritilishi bilan boshlandi. Harakatlar strategiyasi turizm sohasini isloh qilishda farmonda belgilangan o'rta muddatli istiqbolda amalga oshiriladigan masalalarga alohida e'tibor berishni talab qiladi.

Bosqichlarga e'tibor berilsa mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq asosiy davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaraqlamoqda. Turizm sohasining rivoji uchun barcha zaruriy tashkiliy - huquqiy mexanizm vujudga keltirilib, muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va bu ish hozirda ham davom etmokda. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmga oid qator Farmonlari, Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Adliya vazirligining va boshqa mutasaddi davlat idoralarining yo'riqnomasi, ko'rsatma va tartiblari ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq etilmoqda.

Turizm sohasi bo'yicha 2014 yilda xalqaro anjuman Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) Butunjahon turizm tashkiloti ijroiya kengashining 99-sessiyasi aynan Samarqand shahrida bo'lib o'tishi ham bejiz emas. Bunga barcha asoslar mavjud bo'lib, hozirgi paytda butun dunyoda «Samarqand deklaratsiyasi» deb tan olingan hujjatni qabul qilgan Butunjahon turizm tashkilotining Samarqandda bo'lib o'tgan kengashida (1994 yil 5 oktyabr) shahar bir ovozdan «Ipak yo'llining yuragi», deb tan olingan edi.

Samarqand shahri 2014 yilda AQShning mashhur - "The Huffington Post" internet nashri tomonidan e'lon qilingan reytingga muvofiq sayyoramizning turistlar borib ko'rishi lozim bo'lgan 50 ta eng go'zal shaharlari qatoridan o'rinn oldi. E'tiborlisi, MDH davlatlari shaharlaridan ushbu ro'yxatga faqat Samarqand shahri kiritilgan.²

O'zbekistondagi turizm sohasining 2007-2017 yillar davomidagi rivojlanish dinamikasini O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari ko'rsatmoqda (1.4.1-jadval).

² Dunyoda-elliktadan biri //XXI ast.2014 y., 24-iyul., №29(557).

O'zbekiston Respublikasida 2007-2017 yillar davomida turizm sohasining rivojlanish dinamikasi

№	Ko'rsatkichlar nomi	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2017y.
1.	Turistik xizmatlar xajmi (mlrd. so'm. nominal narxlarda)	78,2	69,9	120,2	153,8	186,8	222,4	253,4	293,9	418,8
	(amaldagi narxlarda)	64,6	57,3	102,0	129,8	160,8	193,7	222,3	261,0	358,7
2.	Xorijiy fuqarolarga xizmat ko'rsatish (ming kishi)	903,1	933,3	1294,4	1055,4	1472,2	1946,6	2028,6	1938,0	2496,15
3.	O'zbekiston fuqarolarning chet elga chiqishlari (ming kishi)	1248,2	1611,4	1968,1	2065,6	3298,6	4154,0	4635,3	4225,9	4867,6

Manbaa: O'zbekiston Respublikasining turizmni rivojlantirish davlat Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Jadval ma'lumotlari bo'yicha O'zbekistondagi turizm sohasi muntazam ravishda o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda, faqat xorijiy fuqarolarga xizmat ko'rsatishko'rsatgichi 2010 yilda 2011 yilga nisbatan 41,7 ming kishiga kamayishi kuzatilgan, bu jahonda boshlangan moliyaviy-iqtisodiyinqirozining ta'siri bo'ldi. O'zbekistonda kelgusida turizmni rivojlantirish vazifalarini samarali amalga oshirish va xorijiy hamda ichki turistlarga xizmat ko'rsatuvchi turdosh sohalar va tarmoqlar rivojlanishi uchun vertikal diversifikatsiya asosida miliy turizm xizmat bozorini innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish yo'li bilan qulay sharoit yaratishda turistik xizmatlar hajmining bashorat ko'rsatkichlari bir me'yorda, katta tebranishlarsiz o'sishidan dalolat beradi.

Tayanch so'z va iboralar: mintaqaviy turizm, fanning maqsadi, fanning vazifasi, turistik resurslar, tarixiy obidalar, turizm xizmatlari, iqtisodiyotni rivojlantirish, turizm, xalqaro savdo, mehmonxonalar, psixologiya, antropologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot, geografiya, informatika, huquq, turistik xizmatlar ko'rsatish, turizm xizmatlarining eksporti.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. «Mintaqaviy turizm» fani nimalarni o'rgatadi?
2. Fanning maqsadi nimadan iborat?
3. Fanning vazifalarini ta'riflab bering?
4. «Mintaqaviy turizm» fani qaysi fanlar bilan bog'liq hisoblanadi va nima uchun?
5. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bosqichlari nimalarni ifodalaydi?
6. Turizm sohasi bo'yicha 2014 yilda xalqaro anjuman Birlashgan millatlar tashkiloti Butunjahon turizm tashkiloti (BTT) Ijroiya kengashining 99-sessiyasi nega aynan Samarqand shahrida bo'lib o'tdi?
7. O'zbekistondagi turizm sohasining 2005-2017 yillar davomidagi rivojlanish dinamikasini qanday o'zgarishlarni ko'rsatadi?

2- MAVZU. MINTAQAVIY TURIZMNING IJTIMOIY – IQTISODIY MAZMUNI VA UNING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Reja:

- 2.1.Mintaqaviy turizmning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiyotdagi ahamiyati
- 2.2.Mintaqaviy turizmning ijtimoiy mazmuni va uning jamiyatdagi o'rni
- 2.3.O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida mintaqaviy turizmning ahamiyati

2.1.Mintaqaviy turizmning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiyotdagi ahamiyati

Turizmni barqaror rivojlanishida turistik resurslarning iqtisodiy mazmuni yotadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda turizm milliy iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omili hisoblanmoqda.

Hozirgi davrda jahon xo'jaligida bu sohada band ishchi kuchining ulushi yildan – yilga oshimoqda. Butunjahon sayyoqlik va turizm kengashi (World Travel and Tourism Council) ma'lumotlariga ko'ra 1996 yil turizm sohasida 225 mln. ish o'rni mavjud bo'lgan bo'lsa, 2006 yilga kelib, yana 130 mln. ish o'rni ortdi. Hozirgi vaqtida turizm sohasida jahondagi mavjud har 10 ta ishchi kuchining biri band. Ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatgich yanada yuqori. Masalan, Ispaniyada turizm sohasida iqtisodiy faol aholining 8,3 foizi, Barbadosda – 10,5 foizi, Maltada – 15 foizidan ortig'i band.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Xalqaro turizm Barometri" ko'rsatkichlariga asosan, 2015 yilda xalqaro kiruvchi turistik oqimning o'sish darajasi 2014 yilga nisbatan 4,3 foizni tashkil etgan. Agar ushbu tendensiya saqlanib qolsa, 2030 yilda dunyo bo'yicha xalqaro turistlar soni 1,8 mlrd. kishiga yetadi. Shu sababli, turizm sohasi jahon iqtisodiyotining keyingi yuz yillikdagi rivojlanishini belgilab beruvchi tarmoqlar qatoriga kiritilgan.

Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o'zining munosib o'mniga ega bo'lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi.

Turizm turistlar ehtiyojini qondirishga qaratilgan faoliyatdir. Mutahassislar turistlarni 6 ta asosiy ehtiyojlarini ajratadi:

1. Rekreatsiya, dam olish;
2. Og'ayni va tanishlarini ko'rish bo'yicha;
3. Ish va professional maqsadlar bo'yicha;
4. Davolanish;
5. Diniy va ziyoratchilik bo'yicha;

6. Insonlarning jismoniy, iqtisodiy va ruhiy ehtiyojlaridan kelib chiqib va boshqa maqsadlar bo'yicha.

Yuqorida ehtiyojlarni qondirishga turistik faoliyatni **amalga oshirish** yotadi. Bu o'z navbatida iqtisodiy turizm hisoblanib, uni quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- turistik xizmatlarni ishlab chiqish;
- turistik mahsulotni shakllantirish;
- turistik mahsulotni sotish;
- turistik ehtiyojn ni qondirish.

Turizm iqtisodiy kategoriya bo'lib, davlatlardan kelgan turistlarga mahalliy xizmatni sotadi, o'z ishchilariga ish-joy sharoitini yaratadi, kirib kelayotgan valyutadan daromat oladi. Bir tomonдан turizm sohasi turistlarga bevosita xizmat qiluvchi tarmoqni taklif qiladi, ikkinchi tomondan turizm bozoriga yo'naltirilgan xizmat qilish va moddiy ishlab chiqarish kabi bir-biriga qo'shilgan tarmoqlarning o'zaro bog'langan tizimni belgilaydi.

Turizm – bu ishlab chiqarish va iste'molchining yakdil jarayonidir. Iste'mol obekti turistik tovar va xizmatlar hisoblanib, iste'mol davrida iste'molchining bu tovarlar va xizmatlar qoniqtirishi lozim. Bunda turizmnning iste'mol qiymati foydali buyumlar tovarlar, quaylik va tabiat manzaralari va xizmatning har xil usulidan kelib chiqadi. Turistik iste'mol bir tomondan tovarga va pullik xizmatga ega bo'lishi, ikkinchi tomondan tovarlar ko'rinishiga ega bo'limgan joy, yaxshi muhitni o'z ichig oladi. Turizmn iqtisodiy samarali keluvchi turistlar soni bilan bevosita bog'liq. Turistlar sonni oshib borishi bilan, turizm orqali kelayotgan daromad ham oshib boradi. O'z navbatida turistlar sonini oshishi turistik qiziqshni ortiradigan obektlarga, ya'ni turistik resurslarga bog'liqdir.

Turizmnning rivojlanishi davlat uchun ham juda foydalidir. Xususan u turizmnning rivojlanish evaziga o'z iqtisodiyotning yuksalishiga erishadi, davlat byudjetiga tushumlarning ko'payishini ta'minlaydi, tabiiy resurslarni asrab-avaylashga erishadi, mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga harakat qiladi va unga erishadi, xalqaro aloqalarga erishadi, madaniy aloqalar kengayadi, valyuta tushumi ko'payadi va h.k. Turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida turistlar qabul qiluvchi mamlakatga daromadni keltiradi, qattiq valyuta tushumini ta'minlaydi, aholini ish bilan bandlik darajasini oshiradi. Turistlarga xizmat qilish uchun mehmonxona kerak bo'ladi. Bu yerda ular ovqatlanishi lozim. Turli shou dasturlarda qatnashadilar. Bularning hammasi naqd pul, ko'p hollarda agar ular xorijiy turistlar bo'lsa, valyuta tushumining ko'payishini ta'minlaydi. Shu sababdan turistik resurslarning turizm faoliyatida iqtisodiy mazmuni oshib boradi.

Shunday qilib, turistik resurslar iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bularidan tashqari resurslar mamlakat hayotiga sezilarli

darajada ta'sir qiladi. Buning mahalliy aholi uchun ham katta foydasi bor. Ular ish bilan ta'minlanadi, turli millat, elat va xalq vakillari bilan muloqotda bo'ladilar va ularning turli an'ana va qadriyatlari bilan tanishadilar, doimiy daromad olib turish imkoniyati, mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega bo'ladilar, mahalliy aholi imkon qadar o'zlarining an'ana va qadriyatlarini namoyish qilish uchun uni saqlab qoladilar va unitilganlarini tiklaydilar.

Turistik resurslarning iqtisodiy ahamiyati yana shundan iboratki, mamlakat tabiatini ham turizmni rivojlantirish katta foyda beradi. Xususan, mamlakat ekologik barqarorlikni ta'minlash tadbirleri qo'llaniladi, tabiat resurslaridan turistlarning rohatlanishi uchun foydalanganadi, manzarali maydonlarning yaratilishi imkoniyatini tug'diradi, suv, havo, o'rmonlarning tabiiy holda saqlanishi uchun harakat qilinib, turistlarni jaib qilinadi.

2.2. Mintaqaviy turizmning ijtimoiy mazmuni va uning jamiyatdagi o'rni

Turizm bugungi kunda jahondagi eng ko'p foyda keltiruvchi sohaga aylandi. So'nggi yillarda uning jahondagi tovarlar va xizmatlar savdosining 10 % to'g'ri kelmoqda. Shuning uchun ko'pgina mamlakatlarda bu sohaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda ham turizmni rivojlantirishga davlat darajasida qarab, barcha imkoniyatlarni ishga solmoqda. Mamlakatimiz turizmni rivojlantirishning barcha imkoniyatlariga ega. Birinchi navbatda, turistik resurslarga boyligi buning tasdig'idir.

Albatta turizmni shakllanishi va rivojlanishi turistik resurslarning salohiyatiga bog'liqidir. Mamlakat qanchalik turli – tuman turistik resurslarga ega bo'lsa, turizmni rivojlanishi shuncha oson kechadi.

Turistik resurslarning turizmdagi ahamiyati uning ijtimoiy – iqtisodiy mazmunidan kelib chiqadi. Turizm ijtimoiy sohaning bir qismi bo'lib, uning asosiy faoliyatlarida iste'molchiga iste'mol jarayonida moddiy va nomoddiy muhitni yaratish uchun xizmatlar qilish, dam olish va faoliyat ishlarini o'zgartirish, almashtirish uchun sharoitlar yaratish, sog'liqni muhofaza qilishni ta'minlash, shuningdek, aholining umumiyl ma'lumoti va madaniy – texnik darajasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtida turistik resurslar orqali dam olishni tashkil qilish, insonning hayotiy kuchlarini tiklash, bo'sh vaqtidan unumli, to'g'ri foydalanish ta'minlanadi. Shuningdek, turistik resurslar shaxsning rivojlanishida, barkamolligida, sayohatchining intellektual darajasini oshirishda, asabiy holatini yaxshilashda, shaxs sifatida tavsifini berishda xalqaro, davlatlararo va shaharlararo munosabatlariiga ijobjiy ta'sir qiladi. Undan tashqari turistik resurslar turizmni ijtimoiy samaradorligini ta'minlaydi. Bu soha bevosita aholining ijtimoiy sohaga muhtoj qatlaminini, ya'ni maktab o'quvchilarini, nafaqaxo'rлarni, talaba –

yoshlarni, nogironlarni, keksa nuroniyalari kabi aholining shunday toifasini sayohat qildirish tushuniladi. Eng muhim ushbu sohaga qo'yilgan investesiya foyda uchun emas, balki ijtimoiy qo'llab – quvvatlash uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Aholining salomatligi va atrof-muhit sifati o'tasida bevosita va bilvosita aloqalar mavjud. Masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashilotining ma'lumotlariga ko'ra, aholi salomatligi 40-50% ularning iqtisodiy ta'minoti va yashash tarzi, 18-20 % atrof muhitning holatiga, 20-30% tibbiyy xizmat darajasiga bog'liq bo'ladi. Havoning ifloslanishi aholi salomatligining 43-45 % yomonlashuviga sabab bo'ladi. Zamonaviy gigiyena fani atrof-muhitning ifloslanishi aholi kasallanishining o'rtacha darajasi 20% ga oshishini aniqlagan. Bunday vaziyatda rekreatsiya faoliyati ijtimoiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning muhim tarmog'iga aylangan bo'lib, u aholining ishdan bo'sh vaqtidan foydalanishni yaxshilashga va dam olishini tashkil etishga xizmat qiladi. Rekreatsiya inson tamonidan yuqori baholanadigan va ijtimoiy natija beradigan keng yo'nalishni qamrab oladi. Unda dam olish va sog'lomlashtirish, bilish va ijod, odamlar va tabiat bilan tanishish, ta'lim va tarbiyani takomillashtirish va boshqalar birgalikda o'z ifodasini topadi. Bunday ehtiyojlarni qondirish, sog'lomlashtirish, umrni o'zaytirish, insonning jismoniy va ma'nnaviy darajasini oshirish, shaxsni barkomallashtirish, bilim va malakalarni oshirish va boshqa qator ijtimoiy natijalarga erishishga imkon beradi. Tabiiy omillarga asoslangan rekreatsiya faoliyati (turizm) shahar va qishloq aholisi orasida keng tarqalgan kasallikkarning ommaviy profilaktik vositasi hisoblanadi. U faqatgina ish qobiliyatini tiklashni va mehnat unumdarligini oshirishnigina ta'minlab qolmay, balki 20-50 % ga yurak-tomir, asab, nafas olish, oshqozon, suyak kasalliklari patologiyasi paydo bo'tishining oldini olishni ta'minlaydi.

Turistik resurslar xalq madaniyati, urf-odatlari, rusumlari, ma'nnaviyatini ko'rsatuvchi, belgilovchi milliy boylikdir. Xattoki, buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur "Bizni qudratimizni bilmoqchi bo'lsangiz, biz qurdirgan binolarga boqing" deb bejiz ta'kidlamagan. Ana shu qadimiy arxitektura yodgorliklari, madaniy obektlar hamda atrof-muhit, tabiatning qay ahvolda ekanligiga qarab o'sha joyning aholisining ma'nnaviy-madaniy darajasini belgilash mumkin.

2.3. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida mintaqaviy turizmning ahamiyati

O'zbekistonning qulay iqlim sharoitlari va o'ziga xos landshaftini inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyati ajoyib tog' tizimlari, gullagan vodiylar va ajoyib tog' daryolariga boy. Tog'ning toza havosi, yil davomida quyoshli kunlarning ko'pligi, ajoyib tog' manzaralari nafaqat O'zbekiston fuqarolarining,

balki Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi qo'shni mamlakatlarning aholisi ham tashrif buyuruvchi turizm obektlariga aylanishiga imkon beradi. O'zbekiston hududida mineral suvlarning turli xil turlari keng tarqalgan, mamlakatdag'i 300 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suv manbalariga ko'plab odam tashrif buyuradi. Hozirgi kunda bu manbalardan 121 tasi faoliyat yuritmoqda. Chimyon va To'rtko'l kabi tog' - chang'i sportini rivojlantirish mumkin bo'lgan bir qancha tog' maskanlari mavjud. Baland qorli tog'lar alpinizm, speleoturizm, daryo turizmi kabi turli tog' turizmi turlarini amalga oshirish imkonini beradi. Shifobaxsh giyohlarning ko'pligi turli xil ekologik turlar, turli giyohlar va o'simliklar yig'ish uchun turlarni tashkil etishga ikmoniyat yaratadi. Bu esa ko'plab chet ellik turistlar orasida qiziqish uyg'otadi.

Turizmning hozirgi holatini baholar ekanmiz, shuni qayd etish muhimki, O'zbekistonda infratuzilmaning rivojlanish darajasi chet ellik turistlarning ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Infratuzilmaning rivojlanmaganligiga raqobat va takomillashishni rag'batlantirish imkonini bermagan avvalgi ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sababchi hisoblanadi. Infratuzilma yetaricha rivojlanmagan taqdirda turistlar oqimini ko'paytirish va shunga mos ravishda valyuta tushumini ko'paytirish mumkin emas. Bundan keilib chiqqan holda infratuzilmaning ahvoli turizmning rivojlanishi va mamlakat imidjini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishmaguncha turizmga yetaricha e'tibor qaratilmagan. Respublikaning turistik salohiyati to'g'risda obektiv ma'lumotlar va reklama umuman bo'lmagan. Turistik imkoniyatlar sobiq strukturalarning tor manfaatlari orqali bir tomonlama yoritilgan. Natijada turizm, xizmat ko'rsatish va ko'ngilocharlik infratuzilmasi rivojlanmagan, turistlarga xizmat ko'rsatish darajasi past bo'lib, jahonning yetakchi turistik korxonalari bilan aloqalar ko'ngildagidek emas. O'zbekiston hududida turizm infratuzilmasi bir tekisda taqsimlanmagan. Toshkent shahri va viloyatida respublika turizm salohiyatining 36 % qismi jamlangan. Yirik infratuzilma salohiyatiga to'rt viloyat (Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm) va Toshkent shahri ega, Farg'ona vodiysi 19 % turizm infratuzilmasiga ega.

Turizmga faqat bo'sh vaqtida dam olish, uni faol o'tkazish usuli sifatida qaralishi ham uning o'ziga xos xususiyatlaridandir. Ko'p hollarda boshqa hududlarga sayr qilish, tomosha, o'rjanish kabi holatlar odamlarni xizmat safariga jo'natganda ham sodir bo'lishi mumkin. Lekin bu yerda maqsad ma'lum ishlari bitirishga qaratilganligi tufayli uni turizmga kiritib bo'lmaydi. Bunda bu narsaga urg'u berish kerakki, turizm bilan bog'liq tadbirlar odamlarning bo'sh vaqtida sodir bo'lishi lozim ekan. Xulosa qilib aytganda, odamlarimizning bo'sh vaqtini boshqa

joyda o'tkazishi (pul topish maqsadidagi harakat bunga kirmaydi) turizmga kirar ekan.

Turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida turistlar qabul qiluvchi mamlakatga daromadni keltiradi, qattiq valyuta tushumini ta'minlaydi, aholini ish bilan bandlik darajasini oshiradi. Turistlarga xizmat qilish uchun mehmonxona kerak bo'ladi. Bu yerda ular ovqatlanishi lozim. Turli tomoshalar qiladilar. Hammasi naqd pul, ko'p hollarda agar ular xorijiy turistlar bo'lsa, valyuta tushumining ko'payishini ta'minlaydi.

Turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy sohasi hamdir. Buning iqtisodiy samaradorligi bilan birga ma'nnaviy, ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda katta. Shu tufayli ushbu sohaga davlat alohida e'tibor berib ma'lum imtiyozlar ham belgilaydi. Odamlar bu imtiyozlardan faqat turist bo'lganliklari uchun foydalananadilar. Bu ham turizmning o'ziga xos xususiyati va katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatidan dalolat beradi. Imtiyozlar turistlarning bojxonalaridan o'tishda, soliq to'lashda, chetga chiqishda pasportiga ruxsat berishlarida, avia va temir yo'l transportlariga chiptalar olishda, ularni rasmiylashtirishlarda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekan. Bulardan tashqari turizm mamlakat hayotiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Turizmdan birinchi galda turistlar foyda qiladilar, ya'ni ularning dunyoqarashi kengayadi, jismoniy jihatdan sog'lomlashadi va ma'nnaviy boyligi ko'payadi, atrof muhitni idrok qilish bilan ulardan ta'sirlanish orqali rohatlanadi.

Turizmning mahalliy aholi uchun ham katta foydasi bor. Ular ish bilan ta'minlanadi, turli millat, etat va xalq vakillari bilan muloqotda bo'ladilar va ularning turli an'ana va qadriyatları bilan tanishadilar, doimiy daromad olib turish imkoniyati ega bo'ladilar, mahsulotlarni sotish imkoniyatiga ega bo'ladilar, mahalliy aholi imkon qadar o'zlarining an'ana va qadriyatlarini namoyish qilish uchun uni saqlab qoladilar va unitilganlarini tiklaydilar, mehmon kutishning jozibador an'analarini tiklash bilan birga mehmondorchilik an'anlarini takomillashtirib boradilar. Oxir oqibatda mahalliy aholining dunyoqarashi, madaniy saviyasi ham mutassil o'sib boradilar.

Turizmni rivojlantirish atrof muhitga ham katta foyda beradi. Xususan, mamlakatning biomaydoni asl holida saqlanishiga harakat qilinadi, ekologik barqarorlikni ta'minlash tadbirleri qo'llaniladi. tabiat resurslaridan turistlarning rohatlanishi uchun foydalanganadi, manzarali maydonlarning yaratilishi imkoniyatini tug'diradi, suv, havo, o'rmonlarning tabiiy holda saqlanishi uchun kurashiladi.

Turizm mahalliy aholi hayotiga ijobjiy hamda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
Ijobjiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ish o'rinalarini yaralishi;

- daromadni ko'payishi, mahalliy aholini yashash darajasini oshishi ;
- urbanizasiya jarayonini tezlashishi, shaharcha xizmat, infrastruktura, madaniyat tashkilotlarini rivojlanishi;
- ijtimoiy va madaniy jarayonlarin tezlashishi;
- mahalliy madaniyat o'choqlarning yaralishi, xalq ijodiyoti, an'analari, rusumlarini rivojlanishi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga talabni oshishi;
- mahalliy madaniy yodgorliklarni tiklanishi va muhofazasi;
- tabiiy komplekslarni kengayishi;
- mintaqqa jozibadorligini oshishi;
- mahalliy madaniy hayotni jonlanishi;
Salbiy xususiyatlari quyidagilar:
- malakasiz mehnat ulushining o'sishi;
- umumjamiat normasini buzulishi oshishi (ichkilik, fohishabozlik, bezorilik);
- oila "eroziysi" (oilaviy ajralishlar, yoshlarni hayotga yengil qarashi);
- mahalliy aholi va turistlar o'tasidagi kelshmovchiliklar va boshqalar.

Tayauch so'z va iboralar: Butunjahon sayyohlik va turizm kengashi (World Travel and Tourism Council), BMT, rekreatsiya, davolanish, turistik xizmatlar, turistik mahsulot, turistik ehtiyoj, turizm, turistik resurslar, ijtimoiy, iqtisodiy, ijobiy xususiyatlar, salbiy xususiyatlar.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Mintaqaviy turizmnинг iqtisodiy mazmuni tushuntiring.
2. Mintaqaviy turistik resurslarning iqtisodiyotdagi ahamiyati nimalardan iborat?
3. Mintaqaviy turizmnинг ijtimoiy mazmunini tushuntiring.
4. Mintaqaviy turistik resurslarning jamiyatdagi o'mni nimada?
5. O'zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy hayotida turistik resurslarning ahamiyati nimalardan iborat?
6. Turizmnинг mahalliy aholi hayotiga ta'sir ko'rsatadigan ijobiy hamda salbiy xususiyatlarini ayting.

3- MAVZU. MINTAQAVIY TURIZMDAN FOYDALANISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Reja:

- 3.1. Mintaqaviy turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish ahamiyati
- 3.2. Turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi barqaror omillar va ularning turlari
- 3.3. Turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi o'zgaruvchi omillar

3.1. Mintaqaviy turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish ahamiyat

Turizm sohasining resurslari har bir mamlakatning milliy boyligi bo'lib, ular davlat mulki hisoblanadi. Ammo ulardan bir qismi jahon ahamiyatiga molik ob'ektlar va yodgorliklar hisoblanib YUNESKOning «Jahon merosi» ro'yxatiga kiritilgan. Bunday ro'yxat har yili YUNESKO tomonidan o'rganiladi va yangilanadi, ro'yxatdagi ushbu tabiiy, tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat tomonidan muhofaza qilinadi, umumjahon ahamiyatidagi ob'ektlar va yodgorliklarni ta'mirlashga, saqlab qolishga BMT tomonidan tegishli mablag' ajratiladi. Bugungi kunda YUNESKOning «Jahon merosi» ro'yxatida O'zbekistonning 4 ta shahri va 31 ortiq tarixiy yodgorliklari o'rinn olgan.

Bugungi kunda O'zbekiston katta turistik resurslarsalohiyatiga ega bo'lib, uning hududida 7000 dan ortiq tarixiy-arkitektura yodgorliklari va go'zal tabiiy-iqlimiylar mavjud. Mamlakatimizda mavjud jami turistik-rekreatsion ob'ektlaridan Toshkent shahrida 144 tasi, Samarqandda 118 tasi, Buxoroda 201 tasi va -Xiva shahrida 310 tasi joylashgan bo'lib, ushbu turistik ob'ektlardan foydalananadigan turistik firmalar esa asosan markaziy mintaqalarda joylashganini ko'ramiz. Ammo, bugungi kunda ushbu turistik resurslarning 3/1 qismigina turizm uchun faoliyat ko'rsatmoqda, qolganlari esa turistik infratizimning shakllanishini va yangi turmahsulotlar tayyorlashni talab qilmoqda. Hozirgi vaqtida ko'pgina tarmoqlar kabi turizm industriyasini haim tez rivojlanib bormoqda. Turistik biznesni mavjud investitsiya, texnologiya, hamda malakali ishechi – xodimlar orqaligina shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun birinchi navbatda, turistik resurslardan samarali foydalanish zarur bo'ladi.

Jahon bo'yicha xalqaro turizmni rivojlanishi mintaqalar bo'yicha bir xil taqsimlanmagan. Albatta, bu o'sha mintaqaning turistik-rekreatsion resurslarga

qanchalik ega ekanligiga, undan tashqari turizm infratuzilmasi va industriyasi shakllanishi uchun shart- sharoitning qanchalik qulayligiga ham bog'liqdir.

Turistik resurslar asosiy tuzilishiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi:

- jozibadorligi, ko'rakamligi;
- iqlimi sharoiti;
- borish mumkinligi;
- ekskursion ahamiyati;
- manzarali tuzilishi;
- ijtimoiy – demografik tarkibi;
- qayta ishlab chiqarish darajasi;
- foydalanishga qodirligi;
- noyobligi va boshqalar.

Jadval 3.1.1.

O'zbekistonda turistik resurslarga bo'lgan talab va undan foydalanish

Resurslar	Mahalliy sayohatchilar talabi	Xorijiy sayohatchilar ning talabi	Resurs salohiyati	Foydalanish darajasi
Rekreasiya va ekologik turizm resurslari	past	yuqori	o'rta	past
Madaniy va etnografik turizm resurslari	o'rta	yuqori	yuqori	past
Tarixiy, me'moriy va arxeologik tanishuv resurslari	o'rta	yuqori	yuqori	o'rta
Diniy turizm resurslari	yuqori	o'rta	yuqori	o'rta
Yekzotik muhit va har xil sarguzasht resurslari	past	o'rta	o'rta	past
Servis sifati	past	yuqori	past	past

Yuqori jadvaldan ko'rish mumkinki, mamlakatimiz turistik resurslariga bo'lgan talab yuqoridir. Shu sababdan kelib chiqib, turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni har jihatdan tahlil etish o'ta muhimdir. Turizmnı rivojlanishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Asosiy omillarni ikki guruhg'a bo'lish mumkin. Bular, *barqaror* va *o'zgaruvchan* omillar.

3.2. Turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi barqaror omillar va ularning turlari

Barqaror (o'zgarmaydigan) omillar vaqt nuqtai nazardan kam o'zgarish harakteriga ega. Bu omillarga tabiiy-iqlimi, geografik, madaniy-tarixiy kabi omillar kiradi. Shular ichidan geografik omillarni tahlil etadigan bo'lsak, bu omillar sayyoqlik marshrutlarini to'g'ri tanlash, trasportning qulayligi, rekreatsiya resurslarining bahosi, turizmni mavsumga qarab rivojlanirish kabi jihatlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'z navbatida, geografik omillarni ikki guruhg'a bo'lish keng tus olgan. Bular:

- *tabiiy geografik omillar;*
- *iqtisodiy geografik omillar.*

Mintaqalarda xalqaro turizmni rivojlanishiga tabiiy sharoitning katta ta'siri bor. Hozirgi jamiyatimizning o'ta sanoatlashib borishi tufayli, insonlarning yovvoyi tabiatga bo'lган qiziqishi ortib bormoqda. Tabiiy geografik omillar ko'pgina jihatlar bilan baholanadi. Quyida asosiylariga to'xtalib o'tamiz.

Iqlim, turizmni davriyligiga ta'sir ko'rsatib, ayrim sohil bo'yи dam olish joylari yil bo'yи issiq iqlimga ega ekanligi (misol tariqasida Mavrikiy orollarini ko'rsatish mumkin) tufayli, uzlusiz turistlar bilan gavjum bo'lishiga olib kelgan. Tabiiy iqlim sharoiti turizm harakatini mavsumiy harakterga aylantiruvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Tabiatda ob-havoning o'zgarishi, tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanish hodisalari, tabiat injiqliklari turistlar oqimining keskin kamayishiga sababchi bo'ladi. Shu sababli turizmning eng rivojlangan mintaqalari yer sharining mutadil iqlim zonalariga to'g'ri keladi. Jumladan, O'rtayer dengizi, Qora dengiz, Karib dengizi, Adriatika dengizi, Boltiq dengizi, Yapon dengizi, Janubiy Xitoy dengizi qirg'oqlarida joylashgan mamfakatlarda turizm xalqaro ahamiyatga ega.

O'simlik va hayvonot olami ham katta qiziqish uyg'otuvchi omildir. O'rmontlar dam oluvchi va tabiat qo'yniga sayr qiluvchi sayyoohlarni o'ziga tortadi. O'rmon o'zining kislerodga boy zahirasi bilan, sog'ligini tiklovchilar uchun muhim turistik obekt hisoblanadi. Shu bois, botanika bog'lari, turli oromgohlar, milliy bog'lar sayyoohlarning gavjum joylari hisoblanadi. Xorijiy sayyoohlarni o'ziga ko'proq jalb qiluvchi omillardan biri - bu ekzotik (g'alati, ajoyib) hayvonlar yashaydigan joylar qo'riqxonalar, davlat buyurtmalari, milliy bog'lar, ov qilish uchun ajratilgan maxsus hududlardir. Bunday hayvonot va o'simlik dunyosining markazlari yuzdan ortiq bo'lib, Afrika, Osiyo, Yevropa, Avstraliya, Amerika (AQSH, Kanada) ning sayyohat qilish mintaqalari va hududlari hisoblanadi.

Suv resurslari hisoblangan okean va dengizlar, daryolar, ko'llar ham katta turistik imkoniyatlarga ega. Keyingi paytlarda dunyo okeani bo'ylab sayohatga chiquvchilar soni oshmoqda. Daryo va ko'llar ham o'ziga xos mikroiqlim xususiyatlari ega bo'lib, kishilarning asosan mavsumiy dam olishi, suv sporti, baliq tutishi uchun obekt vazifasini bajaradi. Shuning uchun hozirgi paytda ko'plab dam olish uylari ushbu turistik obektlarga qurilmoqda. Okean va dengiz suvlaringin cho'milishi uchun qulay bo'lgan qirg'oqlari tarkibiga quyidagi elementlar kiradi. Mikroiqlim, dengiz va okean suvlaringin quruqlikka tutash bo'lgan joylarida suvning harorati, chuqurligi, suv to'lqintari, ko'tarilishi, qaytishi, oqimlar, suvning shifobaxshligi, tozaligi, tiniqligi, dengiz suvi tagining relefi, suvdagi yirtqich qonxo'r baliqlar (akula) va hayvonlarning bor-yo'qligi h.k.. qirg'oq chiziqlarining tuzilishi, plyajlardagi qumlar va yotqiziqlarning sifati, rangi, shakkllari va qolaversa bir qator omillar ta'sir etadi.

Relief ikki xil ta'sir ko'rsatuvchi harakterga ega bo'lib, uning noqulayligi tufayli transport tarmoqlarini rivojlantirishga qiyinchilik to'g'diradi va turizm infratuzilmasini to'liq shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ikkinchisi tomondan, tog'li hududlar asosiy rekreatsiya resurslaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Tog'li, xush manzaralni, murakkab relief tuzilishiga ega bo'lgan o'lkalar turistlar oqimini o'ziga ko'proq jalb qilishadi. Murakkab tog' rel'efi landshafti estetik jihatdan tekistik, yassi hududlarga nisbatan turistlarni ko'proq jalb etish imkoniyatiga ega. Tog'li o'lkalar o'zining toza va sof havosi bilan ajralib, tog' sportini rivojlantirish imkonini tug'diradi. Shveysariya, Fransiya, Avstriya, Germaniya, Italiya, Chexiya mamlakatlari joylashgan dunyoga mashhur Alp sayyohlik kurortlari bunga tasdiq bo'ladi.

Iqtisodiy geografik omillarga turizmning moddiy texnika bazasi, ya'ni mehmonxonalar fondi, umumi ovqatlanish korxonalar (restoran tarmoqlari), sport inshootlari, tornosha va sayr qilish, dam olish, bir qator servis xizmati ko'rsatish obektlari ichki va tashqi kommunikasiya tarmoqlari avtomobil, temiryo'l, havo yo'llari, dengiz va daryo transporti, aloqa vositalari, Internet tarmog'i kiradi. Iqtisodiy geografik omillar mavjud resurslardan unumli foydalanishga ta'sir ko'rsatib, o'z navbatida quyidagilar orqali anilanadi:

- turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlar, mintaqalar, hududlarning iqtisodiy-geografik o'rni, joylanishi;
- sayyohlarni qabul qiluvchi mamlakat (mintaqa, rayon)ning umumiqtisodiy darajasi;
- ichki turizmn rivojlanish darajasi;
- urbanizasiya darajasi;
- turistlarni qabul qiluvchi mamlakatlarning mehnat resurslari bilan ta'mintanish darajasi (malakali kadrlarning soni, ularning tayyorgartlik darajasi);

- ma'lum bir hududda rekreatsion resurslarning qiymati, transport xizmatlari turi, oziq-ovqat mahsulotlarning narxi, mehmonxonalarda joylashish narxlari (xizmat ko'rsatish tarmoqlarini saviyasi);

- transport, aloqa vositalarining hududda tutgan o'rinni va holati bilan xarakterlanadi.

Yuqoridagilarning har biri o'ziga xos ahamiyatga ega. Misol uchun, iqtisodiy geografik o'rmini qulayligi, mintaqaning asosiy turistik bozorlar, dunyo transport tarmoqlariga nisbatan qulay joylashganligini bildirib, shu mintaqaga turizmini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda mamlakat va hududning *geografik o'rni* ya'ni uning dengiz va okeanga yaqinligi, qirg'oq chiziqlarining xususiyati, turli xil suv, avtomobil va temir yo'llar bilan kesishish joyi, tog'li va o'rmon manzarali joylarga yaqinligi, ular bilan ta'minlanganlik darajasiga ham bog'liq bo'ladi.

Xalqaro turizmning rivojlanishida madaniy-tarixiy shart-sharoitlar, etnik shart-sharoitlar bilan qushilib ketadi. Arxitektura obektlari, muzeylar, rasmlar galereysi, mahalliy musavvirlar ishlari, tarixiy yodgorlik, obidalari ham xorijiy turistlarni o'ziga jalb qiladilar. Tarixiy yodgorliklar va boshqa xalqlar madaniyatiga qiziqish xalqaro turizmning eng muhim stimullaridan biridir.

3.3. Turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi o'zgaruvchi omillar va ularning turlari

Davr mobaynida o'zgaruvchanlikka ega omillarga *siyosiy*, *ijtimoiy-demografik*, *moliyaviy-iqtisodiy* va *texnikaviy* omillar kirdi.

Turistik biznesni rivojlantirishda, mamlakatdagi siyosiy vaziyatning qay ahvolda ekanligi katta ahamiyatga ega. Chunki xalqaro munosabatlarning rivojlanganligi, xavfsizlik kasolati turizmni bir moramda rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki, mamlakatdagi ichki vaziyatning qay darajada turg'unligi ko'p hollarda xalqaro turizm oqimining yo'nalishini belgilaydi. Tabiiyki, davlatlararo turistlarni almashtirishda, mamlakatlar o'rtaсидаги o'zaro kelishuvchilik munosabatlari ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Odadagi diplomatik aloqalar, turizm sohasidagi kelishuvlar, shartnomalar, kommunikasiyalar va transport vositalaridan hamkorlikda foydalanish, turistik reklamalarni bir-birlari bilan almashtirish-bularning hammasi turizmning rivojiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy-demografik omillar. Dunyo mamlakatlarida demografik jarayonlar (aholining tug'ilishi, o'limi, tabiiy ko'payishi, aholi migrasiyasi kabilari) ham xalqaro turizm sohasining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yer sharining turli davlatlarida, hududlarida va mintaqalarida aholi sonining ko'payib borishi, ayniqsa shahar aholisi aglomeratsiya doirasining borgan sari kengayib borishi kishilarning

dam olishi va sayyohlikka chiqishni taqazo qiladi. Shu borada turizmning rivojlanishiga ta'sir etuvchi demografik omillarni quyidagicha ifodalash mumkin:

– dunyo xalqlaridagi bir-biriga o'xhashlik bo'lish umumiy tomonlari, ularning qiziqishlari h.k;

– ayrim malakaviy sohalaridagi kishilarning maxsus sayyohlik guruhda faol ishtirok etishning kuchayib borishi;

– turizm tarkibidagi Xotin-qizlar va yoshlar salmog'ining ortib borishi;

– xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan kurort va sanatoriyalar tarmog'ining ko'payib borishi, ularda davolanishga mail bo'lgan kasallar sonining ortib borishi;

– kishilarning atrof muhitga bo'lgan qarashlari, tushunchalar va munosabatlarning o'zgarib borishi h.k.

Turizm rivojlanishiga, har bir davlatning ichki iqtisodiy imkoniyati, barcha iqtisodiyot tarmoqlarining integrasiyalashuvi muhim ahamiyatga ega. Bu o'z navbatida aholini ishga doir harakatchanligini oshirib, xizmat turizmni rivojlantiradi. Odatda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda xalq ommasining turush farovonlik darajasi bir muncha yuqori bo'lganligi sababli, turizm harakati ommaviy tusga egadir. Ya'ni buning asosiy sababi ishchilarning oylik ish haqi miqdori, ularning tatil paytida oladigan tatil pulining ko'pligi, nafaqaxo'rлarning nafaqa pulining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy-demografik omillar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Turizm rivojlanishiga aholi sonining oshishi, asosan shahar aholisining ko'payishi ta'sir ko'rsatadi. Psixologlarning fikricha, shaharcha hayot shaklida, aqliy mehnatning ko'pligi, o'ta sanoatlashish, yovvoyi tabiatdan ayriligi shahar aholisini sayyohlikka intilishini kuchaytiradi. Undan tashqari aholi o'tasida o'ttacha umr uzunligini oshishi va tug'ilishning nisbatan pasayishi kuzatilmoqda. Shuning uchun turizm industriyasini tashkillashtirishda yuqoridagi holatlarni e'tiborga olish lozim. Ya'ni qo'shimcha medisina xizmati, diyetik ovqatlar, madaniy marosimlar, sayr qilishlarni oshirishga e'tiborni qaratish muhim sanaladi. Yuqoridagi omillardan tashqari xalqaro turizmni rivojlanishiga tashqi va ichki omillar ta'sir ko'rsatadi.

Chizma 3.3.1.

Turistik resurslardan foydalanishga salbiy ta'sir etuvchi omillar

Noqulay siyosiy ahvol	Ijtimoiy muhitning o'zgarishi
Mamlakat ichidagi va mintaqalaridagi hukumat va partiyalar o'tasidagi kelishmovchiliklar, davlatlar o'tasi - dagi iqtisodiy, harbiy sanksiyalar e'lon qilish, terrorizm va b.	Ksenofobiya, an'ana ahloqiy tuzilishlarning buzilishi, til va milliy o'zlikni yuqolishi va b.

Iqtisodiy rivojlanish ahvolining yomonlashuvi	Tabiiy va texnogen o'zgarishlar
Soliq, bojxona siyosati, xo'jalik faoliyatining huquqiy korxonalar, bank va sug'urtalashning chegaralanishi, birjalardagi aksiyalar kursining tushishi.	Turli talofatlar, zilzila, sovuq tushishi, AESlarda, kimyo zavodlarida avariylar, ekologik fojialar va b.

Manba: Tuxliyev N.T., Abdullayeva T. Natsionalniye modeli razvitiya turizma. T: GNI «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» 2006.

Yuqorida qayd qilingan barcha omillar turizmi shakllanishi va rivojlanishiga o'z ta'siriga ega. Shuning uchun bu omillarni tahlil qilish, ularning qaysi birlari asosiy ahamiyatga ega ekanligini aniqlab ish yuritish, o'z navbatida turistik resurslardan samarali foydalanishimizga olib keladi.

Tayanch so'z va iboralar: YUNESKO, «Jahon merosi», rekreatsiya va ekologik turizm resurslari, madaniy va etnografik turizm resurslari, tarixiy, me'moriy va arxeologik resurslar, diniy turizm resurslari, ekzotik muhit va har xil sarguzasht resurslari, servis sifati, barqaror, o'zgaruvchan, iqlim, o'simlik va hayvonot olami, suv resurslari, relef, siyosiy, ijtimoiy-demografik, moliyaviy-iqtisodiy, texnikaviy, omillar.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etishning ahamiyati nimada?
2. Turistik resurslar asosiy tuzilishiga ko'ra qanday tavsiflanadi?
3. Barqaror omillarning xususiyatlarini aiting.
4. Geografik omillarning turlarini aiting va ularni izohlang.
5. O'zgaruvchan omillarni tushuntiring va ularning turlarini izohlang.
6. Turistik resurslardan foydalanishga salbiy ta'sir etuvchi omillarni ating.

4- MAVZU. MINTAQALARING TURISTIK RESURLARI TASNIFI

Reja:

- 4.1.Turistik resurslar tushunchasining mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos xususiyallari
- 4.2.Turistik resurslar tasnifi va unga nisbatdan yondoshuvlar
- 4.3.Turistik resurslarning turlari

4.1.Turistik resurslar tushunchasining mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos xususiyallari

Turistik resurslarning turizmdagi ahamiyati uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunidan kelib chiqadi. Turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy soha hamdir. Shu tufayli ushbu sohada nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy samaradorlik masalasini ham qarab chiqishni taqozo qiladi. Chunki turizmning iqtisodiy samaradorligi bilan birga ma'nnaviy, ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda katta. Shu tufayli ushbu sohaga davlat alohida e'tibor qaratib, ma'lum imtiyozlar ham berib kelmoqda. Bunday imkoniyatlar turizmning rivojlanishi uchun ham mukim omil ekanligidan dalolat beradi.

Turizmning rivojlanishini ta'minlash uchun uning har bir elementini, xususan, turistik resurslarning ham mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan ochib berishni talab qiladi. Masalan, turistik resurslarning ta'rifi xususida gap yuritadigan bo'lsak, hozirgi kunga qadar ushbu tushunchaga turlicha ta'rif berilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»gi qonunida turistik resurslar deb —«Tegishli xududning tabiiy-iqlim, sog'iomlashtirish, tarixiy-madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy-madaniy ob'ektlari majmui»ga aytilgan³. Rossiya qonunchiligida esa turistik resurslarga «Tabiiy-iqlimi, tarixiy va ijtimoiy-madaniy ob'ektlar, hamda dam oluvchilarning ruhiy va jismoniy talabini qondirishga, ularga ko'rsatishga qodir va boshqa ob'ektlar» kiritilgan⁴. M.B.Birjakov turistik resurslar deb - «Turizm jarayonida va maqsadida insonning talabini qondirishga qodir tabiiy-iqlimi, ijtimoiy-madaniy, tarixiy, arxitektura va arxeologik, ilmiy va ishlab chiqarish, manzarali va boshqa ob'ektlar yoki ko'rinishlarini hisoblaydi⁵. V.S.Senin turistik resurslarga - «Turistlar va ekskursantlarning jismoniy va ruhiy kuchini rivojlantirish va tiklashga ko'maklashadigan, ularni ruhiy ehtiyojini qondirishga qodir vaqtinchalik bo'ladijan mamlakatdagi (joydagi) tabiiy, ijtimoiy-madaniy va

³ O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni. // Xalq so'zi, 1999 yil 14 sentyabr.

⁴ Sevastyanova S.A. Regionalnoye planirovaniye razvitiya turizma i gosstichnogo xozyaystva: ucheb. posob.— M.: KNORUS, 2007. - 128 s.

⁵ Birjakov M.B. Vvedeniye v turizm. - izdaniye 9-ye, pererabotannoye i dopolnennoye. - SPb.: 2007. - 184 s.

boshqa ob'ektlar, alohida muhofaza qilinadigan hududlar hamda davolash-sog'iomlashdirish joylari va kurortlar» ham kiradi, deb hisoblaydi⁶.

Qayd qilingan olimlarning qarashlarini nazariy jihatdan tahlil qilib turistik resurslarga quyidagicha ta'rif berdik: *Turistik resurslar deyilganda, insонning jismoniy, ruhiy va aqliy kuchini tiklashi, intellektual salohiyatini rivojlanadirish kabi ehtiyojlari-ni qondirishga qaratilgan, turizm faoliyatini tashkil etishga asos bo'lувчи tabiiy, madaniy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa ob'ektlar tushuniladi.*

Turistik resurslarning mohiyati shundan iboratki, bu resurslar turistik mahsulot shakllanishiga asos hisoblanadi. Umumiy qilib aytganda, turistik resurslarga aniq hududda turistik faoliyatda foydalanish mumkin bo'lgan barcha yuqorida nomlari keltirilgan ob'ektlar kiradi.

Turizm, ta'kidlaganimizdek, nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohadir. Uning asosiy xizmati iste'molchiga iste'mol jarayonida ko'rsatiladi. Bu moddiy va nomoddiy ne'matlardan iborat bo'lib, turistlarning dam olishini, sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, turizm aholining umumiy ma'lumotini, savodxonligi va madaniy-ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turistik resurslar xalqlarning milliy madaniyati, urf-odatlari, rasm-rusumlari, ma'naviyatini ko'rsatuvchi milliy boylikdir. Ana shu qadimiy arxitektura yodgorliklari, madaniy ob'ektlar hamda atrof-muhit tabiatining qanday holatda ekanligiga qarab o'sha joy aholisining ma'naviy-madaniy darajasini belgilash mumkin. Shundan kelib chiqib hukumatimizning milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni qayta tiklashga, tarixiy obidalar, aziz qadamjolarni obod qilish kabi xayrli ishlarga katta e'tibor berayotganligi bejiz emas.

Hozirgi vaqtida turistik resurslar orqali dam olishni tashkil qilish, insонning hayotiy kuchlarini tiklash, bo'sh vaqtidan unumli, to'g'ri foydalanishni ta'minlash mumkin. Shuningdek, turistik resurslardan ogilona foydalanish shaxsning rivojlanishida, barkamolligida, sayohatchining intellektual salohiyatining oshishida, asabiy-ruhiy holatini yaxshilashda, shaxs sifatida rivojlanishida, xalqaro, davlatlararo va shaharlararo munosabatlarning ijobiy shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Undan tashqari, turistik resurslar turizmning ijtimoiy samaradorligi oshishini ham ta'minlaydi. Bu soha bevosita aholining ijtimoiy sohaga muhtoj qatlarni, ya'ni maktab o'quvchilarini, nafaqaxo'rлами, talaba-yoshlarni, nogironlarni, keksa-nuroniyalar kabi aholining shunday toifasini imtiyozli ravishda sayohat qildirish tushuniladi. Eng muhimni, ushbu sohaga qo'yilgan investitsiya faqat foya uchun emas, balki aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun


⁶ Senin V.S. Organizatsiya mejdunarodnogo turizma. - M.: Finans i statistika, 2004. - 379 s.

ham mo'ljallangan bo'ladi. Turistik resurslar birinchi galda turistlar uchun ma'naviy naf keltiradi, ya'ni ularning dunyoqarashi kengayadi, jismoniy jihatdan sog'lomlashadi va ma'naviy boyligi oshadi, atrof-muhitni idrok qilish bilan ulardan ta'sirlanish orqali rohatlanadi.

Bugungi kunda turizm jahondagi eng ko'p foyda keftiruvchi biznes turlaridan biriga aylangan. U bozor munosabatlarining ajralmas qismi bo'lib, danyoning ko'pgina mamlakatlarida tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan tarmoqqa aylandi. Turizm sohasi jahon xo'jaligining transport, aloqa, savdo-sotiqligini, qurilish industriyasi, qishloq xo'jaligi, iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari bilan chambarchas holda rivojlanib, jahon iqtisodiyotida o'z o'rniiga ega bo'lmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizga O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi malumotlariga ko'ra "ananaviy" turizm (tarixiy - tanishuv mehimondo'silik, tabiatni o'rganish, arxeologiya va b.) bo'yicha 13.1%, professional ish va xususiy maqsadlarda esa 86.9 % turistlar kelgan. Bu holat hozirgi kunda birmuncha o'zgargan (4.1.1-rasm).

Turizm faoliyatiga doir statistik ma'lumotlarni grafik ko'rinishi



4.1.1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2011-2016 yillar davomida xorijiy turistlarning tashrif buyurish dinamikasi (ming kishi)⁷

⁷ Davlat statistika qo'minasi va BMT Jahon sayyohlik tashkiloti metodologiyasi bo'yicha: uzbektourism.uz/uz-interaktivnye-uchugi/statistika

Ushbu ma'lumotlar tahlili ko'rsatadiki, 2011 yildan so'ng O'zbekistonga xorijiy turistlarning kelishi muttasil oshib borgan, 2016 yilda 2,027,035 ming xorijiy turist tashrif buyurgan. Ammo ekpertlarning bahosiga ko'ra, O'zbekistonning turistik resurslari yiliga o'ttacha 6 mln. kishini qabul qilish imkoniyatiga ega. Bu darajalarga erishish uchun turistik resurslardan oqilona, to'laqonli tarzda foydalanan choralarini ko'rish lozim. O'zbekistonning turistik salohiyati dunyo mamlakatlari orasida o'ttacha ko'rsatgichdan baland hisoblanadi. Demak, mamlakat eksportida va YAIMda turizmning ulushi yuqori bo'lishi kerak. Lekin hozirgi kunda mamlakatimizning YAIMda turistik xizmatlarning ulushi atigi 2% dan yuqori. Bu ko'rsatgich mavjud turistik resurslardan hamon samarali foydalana olmayotganligimizdan darak beradi. Ko'p turistik resurslar joylashgan mintaqaga iqtisodiyotida turizm boshqa tarmoqlar bilan bir qatorda rivojlanib, boshqaruvchi, yetakchi tarmoq bo'lishi lozim.

Hozirgi davrning muhim masalasi iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashdan iboratdir. Respublikamiz aholisining 60% dan ortiq qismini qishloq joylarida istiqomat qilishini inobatga olsak, turizm mehnat resurslariga boy hisoblangan qishloq joylarida yangi ish o'rinalarini ochish, qishloq aholisining farovon yashashini ta'minlashda asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Turistik resurslardan samarali foydalananish, ayniqsa, mahalliy aholi hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ijobiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- yangi ish o'rinalarining yaratilishi;
- daromadning ko'payishi, mahalliy aholi yashash darajasining oshishi;
- ijtimoiy va madaniy jarayonlarning tezlashishi;
- mahalliy madaniyat o'choqlarining yaratilishi, xalq ijodiyoti, an'analar, udumlarining saqlanishi va rivojlanishi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga talabning oshishi;
- mahalliy madaniy yodgorliklarning tiklanishi va muhofaza qilinishi;
- tabiiy sharoitda turli turizmga xizmat qiluvchi komplekslarning kengayishi;
- mintaqaga jozibadorligining oshishi;
- mahalliy madaniy hayotning jontanishi;
- turli mamlakatlardan kelgan turistlarga hududimizning va miliy urf-odatlarimizning o'ziga xos jozibadorligini ko'z-ko'z qilinishi va boshqalar.

Shunday qilib, turistik resurslarning nazariy masalalari, uning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'mi va aholi turmush darajasining o'nglanishidagi rolini ochib berish bugungi iqtisodiyotga oid fanlarning muhim vazifalaridan biridir. Mazkur masalaning nazariy jihatlaridan yana bir yo'nalishi turistik resurslarning turlari, ularning tasnifi va har birining mazmunini ham ochib berishdan iboratdir.

4.2.Turistik resurslar tasnifi va unga nisbatdan yondashuvlar

Mamlakatimizda turistik resurslar shu darajada ko'pki, ularni ma'lum belgilari bo'yicha tasnillab, bir tizimga keltirilmasa, mazkur muammoning yechimini topish va ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish biroz murakkablashadi.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatmoqdaki, turistik resurslar tasnifi bo'yicha olimlar or'tasida bir qancha yondashuvlar mavjud. Utardan polyak iqtisodchisi M.Truasi, fransuz iqtisodchisi P.Deferem⁸, rus iqtisodchisi T.T.Xristov⁹ va A.D. Chudnovskiyarning¹⁰ ushbu muammoning yechimlariga alohida to'xtalganlar. Bu borada mamlakatimiz olimlari ham o'zlarining qarashlarini ifoda etganlar¹¹.

Yuqorida qayd etilgan olimlardan M.Truasi turistik resurslarni uch guruhga bo'lishni tavsiya qilgan:

1. Tabiiy turistik resurslar, unga iqlim, havo, manzara, dengiz, ko'l, daryolar, tog'lar, o'rmon va boshqalar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu resurslami tabiiy-iqlimiylar deb atash mumkin.

2. Inson tomonidan yaratilgan turistik resurslar, ya'ni arxitektura binolari, yodgorliklar, madaniy ob'ektlar va boshqalar. Bular ekskursiya ob'ektlari hisoblanadi.

3. «Qo'shimcha» turistik resurslar, inson mehnati tomonidan yaratilgan ma'lum mintaqadagi barcha turistlarni qabul qiluvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar hisoblanadi. Bu resurslar orqali turistlarga xizmat ko'rsatish darajasini baholash mumkin bo'ladi.

Fransuz iqtisodchisi P.Deferem bu masalaga boshqacharoq yondashadi va barcha turistik resurslarni 4 ta guruhga bo'lishni tavsiya qiladi: *gidrom, fitom, litom va antropom*¹².

⁸Ekonomika i organizatsiya turizma. Pod redaksiyey I.A.Ryabovoy, Yu.V.Zabayeva, Ye.L.Drachevoy. M.: «Knorus», 2006. - 378 s.

⁹Xristov T. T. Religiozniy turizm: ucheb. posob. -- 3-ye izd., ispr. M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2007. - 288 s.

¹⁰Chudnovskiy A.D. Upravleniye industriyey turizma Rossii v sovremenix usloviyax. ucheb. posob. -- M.: KNORUS, 2007. - 416 s.

¹¹Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslami tahlif qilish va baholash. Samarkand, SamISI -2006. Soliyev A.S., Usmonov M.R. Turizm geografiyasи. -- Samarkand, SamDU, 2005. -131 b.

Turayev B.X. Teoretiko - metodologicheskiye osnovi razvitiya turizma. -T: izd. «Fan», 2008. - 166 s.

Tuxliyev J.S. va boshqalar. Turizm asoslari: O'quv qo'llama -- Samarkand, SamISI, 2010- 247 b.

Tuxliyev N.T., Abdulkayeva T. Menjiment i organizatsiya biznesa v turizme O'zbekistana. - T: GNI «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». 2006. - 368 s.


¹²Ekonomika i organizatsiya turizma. Pod redaksiyey I.A.Ryabovoy, Yu.V.Zabayeva, Ye.L.Drachevoy. M.: Knorus», 2006. - 379-380 s.

Gidrom – bunga suv bilan bog'liq turistik resurslar kiradi. Bu guruh tarkibiga ko'tl, daryolar, dengiz bo'yisi, muzliklar, mineral suv manbalari, sharsharalar va boshqalar kiradi. Misol uchun, mashhur Niagara sharsharasi, Amozonka daryosi, Ispaniyadagi dengiz bo'yisi plyajlarini kiritish mumkin.

Fitom – tabiiy turistik resurslar, buning tarkibi ikki turda bo'lishi mumkin: tabiiy ravishda yaratilgan (o'rmon, tog'lar, cho'qqilar, vulqonlar, tabiiy manzaralar) va inson tomonidan yaratilgan (milliy bog'lar, parklar).

Litom – inson tomonidan yaratilgan va o'zi yoki belgitariga ko'tra turistlar qiziqishini orttiradigan resurslar bo'lib, uning tarkibiga arxitektura yodgorliklari, qadimgi insonlar yashash joylari, ochiq osmondag'i muzeylar kiradi. Undan tashqari, litomlarga zamonaviy qurilmalar: ko'priklar, aeroportlar, sport majmualari va boshqalarni kiritgan.

Antropom – turistik qiziqishni orttiradigan barcha inson faoliyatি ko'rinishlarini kiritish mumkin. Antronom elementlariga insonning o'zi, uning hayoti, urf-odatlari, yo'qolgan yoki yo'qolish arafasida turgan, ya'ni milliy xalq bayramlari, folklor, milliy musiqa va kiyimlarni kiritish mumkin. Undan tashqari, antropomga sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari, o'quv dargohlari va ijtimoiy-maishiy ob'ektlarni ham kiritish mumkin. Agar P.Deferem tasnifiga e'tibor beriladigan bo'lsa, unda turistik resurslar elementlari o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin. Ya'ni o'sha bitta turistik elementning o'zi bir vaqtida bir necha guruhlarga kiradi (4.2.1-rasm).



4.2.1-rasm. Turistik resurslarning o'zaro bog'liqligi¹³

Misol uchun, fitomga kiruvchi nihoyatda go'zal Monserrat tog'i turistlarda diniy, ma'nnaviy, inson faoliyati arxitekturasi sifatida qiziqish uyg'otadi (Monserrat

¹³Ekonomika i organizatsiya turizma. Pod redaksiyej I.A.Ryabovoy, Yu.V.Zabayeva, Ye.L.Drachevoy. M.: «Knorus», 2006. - 381s.

monastri). Vatikandagi Avliyo Petr sobori arxitektura inshooti sifatida (litom) qiziqish uyg'otadi va unda o'tkaziladigan ibodat antropom turistik resurs xususiyatiga ega.

Rus olimi Xristov T.T turistik resurslarning 5 ta asosiy turlarini ajratgan¹⁴. Ularga *tabiyy-rekreatsiyali*, *ekskursiyali*, *iqtisodiy*, *infratuzilma* va *axborot beruvchi resurslarni* kiritgan. Bu resurslarni o'zi yana bir qancha guruhlarga bo'lingan. Masalan, ekskursiyali resurslar quyidagi guruhlarga bo'lingan: madaniy-tarixiy meros, ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy va etnografik resurslar. Bu turistik resurslar tanishuv turizmida keng qo'llaniladi. Bunda madaniy-tarixiy resurslar guruhiga yodgorliklar, turli tarixiy arxitektura obidalari kirsa, ijtimoiy resurslar guruhiga diniy bayram, marosimlar, insonlarning turli an'ana va rusumlari kiradi.

Infratuzilma resurs sifatida quyidagi guruhlarni o'z ichiga oladi: transport ta'minoti, joylashtirish tizimi, ovqatlantirish tizimi, suvenir mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish tizimi. Hozirgi kunda turizmning rivojlanishini turizm infratuzilmasining jadallahuvvisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki mavjud turistik resurslardan samarali foydalanishda bu resurslarning o'rni benihoyat katta. Axborot beruvchi resurslarga Internet tarmog'i, adabiy va tasviriy nashrlar hamda xalq etnoslari, afsonalari ham kiritilgan. Axborot tashuvchilar moddiy ob'ektlar – inson va uning ijodlari, nomoddiy ob'ektlar – turli axborot manbalari hisoblanadi. Diniy turizmda moddiy ob'ektlar bo'lib, monax va dindorlar, ekskursiya olib boruvchilar, hamda diniy markaz va shaharlarning fotosi, kartasi, sxemalarning hisoblanishini ta'kidlagan.

Yana bir rus olimi A.D Chudnovskiy turistik resurslarni tabiiy-hududiy turistik muassasalar asosida ularni *tabiiy-quruqlik* va *tabiiy-suvlik* resurslariga, ularni, o'z navbatida, *tabiiy* (qo'riqxona, daryo vodiylari va b.) *tabyly-antropogen* (bog'lar, milliy bog'lar va b.) va *noyob* resurslarga bo'lgan¹⁵. Turistik resurslar turli turistik dasturlar va marshrutlar yaratishga asos hisoblanadi. Ana shu nuqtai nazardan sayohatchilar maqsadiga ko'ra olim, resurslarni shartli ravishda 4 ta guruhga bo'lishni taklif etgan: kurortli; rekreatsiyali; diniy – madaniy; axborot – ish yuzasidan.

V.S.Bogolyubov va V.P.Orlovskayalar turistik resurslarda alohida ajralib turuvchi quyidagi asosiy belgilarni ajratishgan¹⁶: qulaylik; iqlimi sharoit; o'rganganlik darajasi; sayyoqlik ahamiyati; manzara va ekologik xususiyati; ijtimoiy – demografik xususiyatlari; potensial zahirasi; foydalanish imkoniyati va boshqalar.

¹⁴ Xristov T. T. Religiozniy turizm: ucheb. posob. --- 3-ye izd., ispr. --- M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2007. - 26 s.

¹⁵ Chudnovskiy A.D. Upravleniye industriyey turizma Rossii v sovremenix usloviyah: ucheb. posob. – M.: KNORUS, 2007. – 338-346 s.

¹⁶ Bogolyubov V.S., Orlovskaya V.P. Ekonomika turizma. - M.: Finans i statistika, 2005. – 151 s.

Turistik resurslarning tafsifi bo'yicha mamlakatimiz olimlari, jumladan, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, N.T.Tuxliyev, A.S.Soliyev M.R.Uzmonov va B.To'rayevlar¹⁷ o'z asarlarida qisman to'xtalishgan bo'lib, ular asosan mamlakatimizning turistik salohiyatidan foydalanish masalalariga e'tibor qaratishgan. Ammo turistik resurslarning tafsifi bo'yicha alohida tadqiqotlar olib borishmagan.

Umuman olganda, turistik resurslar tafsifiga turlicha qarashlar mavjudligi ushbu sohada yana mushohada qilishga undaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, turizm maqsadida turistik resurslardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Buning uchun ko'pgina qo'shimcha xizmatlar, ya'ni joylashtirish, ovqatlantirish, sayohat va transport xizmatini tashkillashtirish kabi xizmatlardan foydalanish orqaligina turistik resurslardan turizm faoliyatida foydalanish mumkin. Shu sababdan yuqorida tafsiflarda bir taraflama yondashuvlar mavjud.

Shunga ko'ra, biz turistik resurslarni asosiy ikki guruhga ajratishni lozim deb hisobladik, **birlamchi** (tabiiy, madaniy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy) va **ikkilamchi** (joylashtirish va ovqatlantirish ob'ektlari, sayohatni tashkil etuvchilar, transport xizmati, ko'ngilochar ob'ektlar, axborot resurslari, servis tarmog'i va qo'shimcha xizmatlar) turistik resurslar.

4.3.Turistik resurslarning turlari

Har bir turistik resurs turi bir qancha tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ular o'ziga xos xususiyatlarga ega (4.3.1-rasm).

Tabiiy turistik resurslarning asosiy ahamiyati shundan iboratki, insonlarning jismoniy va ruhiy qobiliyatini tiklashda foydalanish vositalari bo'lib xizmat qiladi. Turistlar asosiy ehtiyojlarini tabiatdan qondiradilar. Turistik faoliyatni tashkillashtirishda landshaftlar, iqlim, suv ob'ektlari, dengizlar, mineral suv va davolovchi botqoqlar asosiy resurs vazifasini bajaradi. Bu resurslar o'zi yoki inson tomonidan qayta tiklanishi mumkin. Bu resurslarni geografik, biologik, geologik va boshqa jihatlarga ko'ra baholash mumkin. Tabiiy resurslar sifatida alohida tabiat komponentlari yoki bir butun tabiat komplekslarini olish mumkin. Tabiiy resurslardan foydalanish darajasi mintaqaga ixtisoslashuviga ko'ra bar xil bo'lishi mumkin. Tabiiy turistik resurslar orasida asosiy orinni rekreatsiya resurslari


¹⁷ Pardayev N.Q., Abdabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. Samarqand, SamISI -2006. Soliyev A.S., Uzmonov M.R. Turizm geografiyası. – Samarqand, SamDU, 2005. –131 b.

To'rayev B.X. Teoretiko – metodologicheskiye osnovi razvitiya turizma. -T.: izd. «Fan», 2008. – 166 s.

Tuxliyev I.S. va boshqalar. Turizm asosları: O'quv qo'llanma – Samarqand, SamISI, 2010- 247 b.

Tuxliyev N.T., Abdullayeva T. Menejment i organizatsiya biznesa v turizme O'zbekistana. - T: GNT «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2006. – 368 s.


egallaydi, ular mamlakat aholisini, hamda xorijiy turistlarning dam olishi va davolanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.



Birlamchi turistik resurslar

Turistik resurslar

Ikkilamchi turistik resurslar



4.3.1-rasm Turistik resurslarning tarkibi¹⁸

Bunda *noyob tabiat yodgorliklari* asosiy turistik ob'ektlar hisoblanadi. Noyob tabiat yodgorliklari, bu – muhofaza qilinadigan ob'ekt turlaridan hisoblanadi. Kichikroq maydonlardagi tabiiy ob'ektlar «tabiat yodgorliklari» deb ataladi va muhofaza ostiga olinadi. Tabiat yodgorliklari tabiatning o'zgarishi va unda sodir bo'layotgan jarayonlar haqida ma'lum darajada aniq guvohlik beradi. Tabiat yodgorliklari ilmiy-tarixiy va madaniy-estetik ahamiyatga ega.

Umumiylar harakteriga ko'ra, tabiat yodgorliklari *geologik-geomorfologik, botanik, paleontologik, astronomik va landshaft yodgorliklariga* bo'linadi.

Geologik-geomorfologik yodgorliklarga nodir geologik tog' jinslari, karst voronkalari, relef shakllari, g'orlar, issiq suvli mineral buloqlar kiradi. Bular jumlasiga Kilsa (Qirqtog'da), Qorlug' (Ko'hitang tog'ida), Hazratidovut (Zirabuloq

¹⁸Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tog'ida), Amir Temur g'orlari, Zarafshon tizmasidagi karstlar kabilarni misol keltirish mumkin.

Botanik yodgorliklarga yuz yillik daraxtlar, yo'qolib ketayotgan relikt o'simliklar kiradi. Bu yodgorliklarga Surxondaryo viloyatidagi, Urgut tumanidagi ming yillik chinorlarni kiritish mumkin.

Peleontologik yodgorliklarga toshga aylangan organizm va qirilib ketgan hayvonlarning izlari qolgan joylar kiradi.

Landshaft yodgorliklariga ajoyib qoyalar, sharsharalar, daralar, ajoyib buloqlar, xushmanzara joylar kiradi. Bunga Ilono'tdi (Temur darvozasi) darasi, Ko'ksuv daryosidagi sharshara, Nurota va Urgutdag'i buloqlar, Katta va Kichik Chimyon soyligi, Oqtosh soyligi kabilar kiradi.

Astronomik tabiat yodgorliklariga yirik meteoritlar tushib izi qolgan joylar kiradi. Hozirgi kunda respublikamiz hududida 400 dan ortiq tabiat yodgorliklari qayd qilingan va muhofazaga olingan. Bundan buyon jamoatchilik kuchi bilan tabiat yodgorliklarini hisobga olish, uni haritasini yaratish juda muhim vazifalardan biridir.

Tabiiy turistik resurslar orasida tabiiy-davolash resurslari alohida o'rinn egallaydi. Bu resurslar davolash, sog'lomlashdirish va dam olish turizmni asosini tashkil etadi. Tabiiy turistik resurslar orasida landshaft, iqlim, suv resurslari omillari asosiy o'rinni egallaydi.

Tabiiy davolash resurslari tarkibida *tabiiy-iqlimiylar resurslar* va *gidromineral tabiiy davolash resurslari* alohida ahamiyatga ega.

Davolash turizmi, ya'ni kurortologiyada inson organizmiga iqlimning ta'siri masalalari yotadi. Iqlimiylar belgilar quyosh radiatsiyasi, atmosfera sirkulyatsiyasi kabilardan shakllanadi. Bunda inson uchun qulay harorat, havo namligi, tuproq holatini hisobga olib dam olish zonalarini shakllantirish lozim. Tabiiy gidromineral davolash resurslarida mineral suvlar asosiy resurs hisoblanadi. Mineral suvlar yer osti faol biologik minerallardan tarkib topganligi sababli insonni davolash xususiyatiga ega. Undan tashqari, davolash botqoqlari, noyob tabiiy davolash resurslari (tuz shaxtalari, gaz va bug'lar, issiq qum) inson davolanishini ta'minlovchi turistik resurstar hisoblanadi. Ammo bunday turistik resurslardan mamlakatimizda to'liq va samarali foydalaniyapti deb bo'lmaydi.

Mamlakatimiz mineral suv resurslariga boy hisoblanadi. Jumladan, Janubiy Olamushuk shaharchasi va Polvontoshda (Andijon viloyati), Buxorodagi "Citorai Mohi Xosa", Jizzax viloyatidagi Gagarin va G'allaorol shaharlarida, Muborak shaharchasida (Kashqadaryo viloyati), Oltinsoy qishlog'ida (Navoiy viloyati), Kattaqo'rg'on shahri Nagorniy temiryo'l stansiyasida (Samarqand viloyati), Toshkent shahri va viloyatida, Olmaliq temir yo'l stansiyasida, Ko'qon shahrida, Chimyon qishlog'ida (Farg'ona viloyati) sanatoriya-kurort, profilaktika

muassasalarida bu resurs turidan keng foydanilmoqda. Bu tizimni yanada rivojlantirish, bevosita hizmat ko'rsatish soxalarini, yani qulaylikni yaratish bilan bog'liqdir. Bu, o'z navbatida, yangi ish o'rinnarini ko'paytirish hamda aholi salomatligini oshirishga olib keladi.

Bundan tashqari, tabiiy turistik resurslarni quyidagi darajalarga ham bo'lish mumkin:

- foydalanish imkoniyati bo'yicha;
- ko'raklik darjasini bo'yicha;
- davolash-sog'lomlashtirish bo'yicha;
- tarixiy noyobligi bo'yicha;
- ekologik darjasini bo'yicha.

Madaniy-tarixiy resurslar. Ma'lum hududda turizmni rivojlantirishda u joyning tarixiy-madaniy resurslari potensiali asosiy o'rinni egallaydi. Turistik xizmatda madaniy-tarixiy resurslardan ko'p maqsadlarda foydalanish mumkin. Madaniy majmualarning jozibadorligi ularning tarixiy va tasviriy bahosiga, foydalanish qulayliliga bog'liq.

Madaniy-tarixiy ob'ektlar moddiy va ma'nnaviy turlarga bo'linadi. Moddiy ob'ektlar ishlab chiqarish vositalari va jamiyatnnig har bir tarixiy bosqichidagi boshqa moddiy qimmatliklarning yig'indisidan iborat. Ma'nnaviy ob'ektlar esa davlat va jamiyat hayotini tashkil etishda, adabiyot, san'at, fan, ta'limdag'i jamiyat yutuqlari, muvaffaqiyatlari to'plamidan tashkil topadi.

Madaniy-tarixiy ob'ektlar ichida yetakchi rolni tarixiy va madaniy yodgorliklar o'ynaydi. Ular o'zining yanada jozibadorligi va o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadi, shu sababli madaniy-tanishuv rekreatsiya ehtiyojlarini qondirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. ularning asosiy belgilariga bog'liq ravishda tarixiy va madaniy yodgorliklar 5 ta asosiy turga bo'linadi: *tarixiy, arxeologik, shaharsozlik va arxitektura (me'morchilik), san'at, hujjatli yodgorliklar* (4.3.2.-rasm).



4.3.2-rasm. Madaniy-tarixiy ob'ektlarining turlarga bo'linishi

Tarixiy yodgorliklari (obidalar). Ularga davlatning yetakchi shaxslari hayoti bilan bog'liq bo'lgan, xalq hayotidagi muhim tarixiy voqealar hamda fan va texnika taraqqiyotini bilan, xalq madaniyati va turmushi bilan bog'liq bo'lgan bino va inshootlar, yodgorlik joylari kirdi.

Arxeologiya yodgorliklari. Ularga ko'hna shaharlar, qo'rg'onlar, qadimgi turar joy qoldiqlari, ishlab chiqarish, kanallar, yo'llarning qoldiqlari, dafn qilingan eski joylar, tosh haykalchalar, toshdagi tasvirlar, qadimgi predmetlar, aholi punktlaridagi tarixiy-madaniy yodgorliklar kirdi.

Shaharsozlik va arxitektura (me'morchilik) yodgorliklari. Ular uchun quyidagi ob'ektlar yanada xosdir: me'moriy ansamblilar va komplekslar, tarixiy markazlar, kvartallar, maydonlar, ko'chalar, qadimgi shahar, harbiy-madaniy ma'morchilik inshootlari, xalq me'morchiligi hamda hashamatli (ulug'vor), tasviriy, amaliy-dekorativ (manzarali), shahar chetidagi landshaftlar bilan bog'liq bo'lgan asarlar kirdi.

San'at yodgorlik (asar)lari. Ularga hashamatli (monumental), amaliy-tasviriy va san'atning boshqa turlari kirdi.

Hujjatlari yodgorliklari. Ularga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hujjatlari, grafik ifodalangan hujjatlar, kino, fotohujjatlar va ovoz yozish, hamda qadimgi qo'lyozma va arxiv, folklor va musiqa yozuvlari, noyob nashrlar va hokazolar kirdi.

Turizm sohasining madaniy-tarixiy asosiga tarix, madaniyat va kishilarning zamonaviy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa ob'ektlarni ham kiritish mumkin, ya'ni: qishloq xo'jaligi, transport, teatrlar, ilmiy va ta'llim muassasalari, sport inshootlari, etnografik va folklor diqqatga sazovor joylar, hunarmandchilik, xalq urf-odatlari, bayramlari va h.k.

Ijtimoiy-iqtisodiy resurslar. Mehnat resurslari. Turistik mahsulot ishlab chiqarish jarayonida insonlarning jismoniy va aqliy mehnati ishlataladi. Bunda insonlarning sog'ligi va jismoniy kuchi, ma'lumoti hamda malakasi va bilim darajasi asosiy o'rinni egallaydi. Shu tufayli ular iqtisodiy omil sifatida katta ahamiyatga ega.

Turizm jahon xo'jaligida mehnat resurslarini ko'p talab qituvchi tarmoqlardan hisoblanadi. Turizm sohasidagi band ishchi kuchining o'ziga xos xususiyati shundaki, asosiy mehnat resurslari malakasiz hisoblanadi. Undan tashqari, turizm industriyasida yoshlar va chet et ishchi kuchidan keng soydalanitadi. Misol uchun Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida har bir uchinchi 16 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan o'smir turizmning xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi.

Butunjahon mehnat tashkiloti turizmda bandlikni 3 ta asosiy shakkilarga bo'ladi:

1. Mavsumiy ish, bunda asosan sayyohlik mavsumida turistlar soni bir necha barobarga oshib ketadi, shunda qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshadi.

2. To'liqsiz ish kuni, bunga asosan rivojlangan mamlakatlarning mehmonxona va restoran xo'jaligidagi band ishchi kuchlari kiradi. Turli mamlakatlarda to'liqsiz ish kuni bilan ishlayotganlar butun mehmonxona biznesida band ishchi kuchlarining 12 dan 52% gacha tashkil etadi.

3. Vaqtinchalik ish bilan bandlik (dam olish kunlari, ko'rgazmalar tashkil etish va h.k.).

Turizm salmog'ining yuqoriligi iqtisodiy tomondan daromadning oshishiga, yangi ish o'rinarini yaratilishiga hamda kichik biznesning rivojlanishiga turki bo'ladi. Turizm rivojlangan mamlakatlarda 50 %dan ortiq mehnatga layoqatli aholi turizm bilan bevosita bog'langan.

Turistik axborot resurslari. Sayohat vaqtida yoki unga tayyorgarlik ko'rishda turistlar ehtiyojidan kelib chiqib, ularga beriladigan ma'lum hudud, ob'ekt to'g'risidagi ma'lumotlar majmuasi turistik axborot resurslari hisoblanadi.


Mutaxasislar turistik axborot resurslariga turistik marshrutda joylashgan hamda tarixiy, ilmiy ahamiyatga ega ob'ektlar bo'yicha ma'lumotlarni kiritadi. Bundan tashqari, turistik ahamiyatga ega shaharlar, qishloqlar, tabiat manzarafari, ularga bog'liq afsona va qissalar, har xil adabiyotlar, haritalar, tasviriy albomlar, rasmlar, audio-video mahsulotlar ham kiritiladi.

Umuman olganda, hozirgi kunda turistlar uchun axborot asosiy o'rinni egallaydi. Chunki turist borayotgan joyi haqida qancha ko'p bilsa, sayohatini shuncha samarali o'tkazadi. Albatta har qanday turist ma'lum vaqt oraliq'ida iloji boricha ko'proq joylarga borishga harakat qiladi. Buning uchun u, albatta, tegishli ma'lumotlarga yetarli darajada ega bo'lishi kerak.

Turistik resurslar foydalanish xususiyatiga ko'ra **bevosita** va **bilvosita** turlarga bo'linadi. Bevosita turdag'i resurslarga turistlarni o'zları to'g'ridan-to'g'ri foydalanidigan tabiiy va tarixiy-madaniy resurslar kiradi. Bilvosita turdag'i resurslarga bevosita turistik resurslardan foydalanish asos bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy, moddiy, moliyaviy, mehnat, axborot beruvchi resurslar kiradi.

Bundan tashqari, turistik resurslar tuzilishiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi (4.3.3-rasm).

Tadqiqotlarimiz natijasida shunday xulosa qilish mumkinki, biz tavsiya qilgan turistik resurslarning tasnifi, ularning hamma qirralarini to'liq ifoda etadi. Mos ravishda, turistik resurslarning hammasi foydalanish, o'rganish va tadqiq qilish ob'ektiga aylanadi. Eng muhimmi, turistik resurslardan samarali foydalanish bo'yicha hududiy va Davlat dasturlarini tuzishda to'liq qamrab olinadi. Bunday tadbir, ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirini yumshatishga qaratilgan choratadbirlar ishlab chiqilayotgan hozirgi sharoitda o'ta muhimdir.



4.3.3-rasm.Turistik resurslarning tuzilishiga ko‘ra tavsifi

Tayanch so‘z va iboralar: turistik resurslar, YAIM, gidrom, fitom, litom, antropom, tabiiy-rekreatsiyali, ekskursiyali, iqtisodiy, infratuzilma , axborot beruvchi resurslar, birlamchi, ikkilamchi, geologik-geomorfologik, botanik, paleontologik, astronomik , landshaft yodgorliklari, tarixiy, arxeologik, shaharsozlilik, arxitektura (me’morchilik), san’at, hujjatli yodgorliklar, ijtimoiy-iqtisodiy resurslar, mehnat resurslari, turistik axborot resurslari.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Turistik resurslarning mohiyati nimadan iborat?
2. Turistik resurslar tasnifiga qanday yondoshuvlar mavjud?
3. Turistik resurslarning qanday turlari mavjud?
4. Tabiiy turistik resurslarning xususiyatlarini aytинг.
5. Ijtimoiy-madaniy turistik resurslarning xususiyatlarini aytинг.

5- MAVZU. MINTAQALARING TURISTIK RESURSLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH

Reja:

- 5.1. Turistik – rekreatsiya resurslari va ularni belgilari
- 5.2. Turistik resurslarni baholashni turizmdagi ahamiyati
- 5.3. Turistik resurslarni miqdor va sifat jihatdan baholash

5.1. Turistik – rekreatsiya resurslari va ularni belgilari

Hozirgi vaqtida ko‘pgina tarmoqlar kabi turizm industriyasi ham tez rivojlanib bormoqda. Turistik biznesni mavjud kapital, texnologiya, hamda malakali ishchi – xodimlar orqaligina shakllantirib bo‘lmaydi. Buning uchun birinchi navbatda turistik resurslarga ega bo‘lish lozim.

Turizm faoliyatida rekreatsiya resurslarining o‘rni katta bo‘lib, turistik resurslarning asosini tashkil etadi. **Rekreatsiya resurslari** bu – turli tabiiy komponentlar birikmasidan iborat bo‘lib, insonning dam olishi va davolanish ehtiyojlarini qondirishda xizmat qiladigan vositalardir. Ketib chiqishi va foydalanish xususiyatlariga ko‘ra rekreatsion resurslar ikki guruhga ajratiladi: tabiiy va antropogen rekreatsiya resurslari (5.1.1-rasm).

Rekreatsiya va davolash sog‘lomlashtirish zonalarida ularning resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhit muxofazasi katta ahamiyatga ega. Rekreatsiya zonalariga aholining tashkil etilgan va ommaviy dam olishi va turizmga mo‘ljallangan yer va suv muhitining tabiiy yoki madaniy hududlari kiradi. Shunday zonalar tarkibiga shaharning ayrim hududlari, shahar atrofi va yashil zonalar, o‘rmonlar, bog‘lar, milliy, tabiiy bog‘lar, botanika va zoologiya bog‘lari, dam olish uylari va bazalari hududlari, qo‘riqxona va buyurtmalarning aholi borib ko‘rishi uchun ajratilgan ma‘lum joylar kiradi. Rekreatsiyaga mo‘ljallangan yerlar tabiat muhofazasi yerlarining alohida turi bo‘lib, ularga tabiat muhofazasi, sog‘lomlashtirish, tarixiy-madaniy maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar ajratiladi. O‘rmonlar ham rekreatsiya uchun katta ahamiyatga ega. Davolash-sog‘lomlashtirish zonalariga fuqorolarni davolash va salomatligini tiklashga mo‘ljallangan yer va suv muhitlari hududlari - kurort va sanatoriya zonalari ham kiradi.

Tabiiy rekreatsiya resurslariga, hududiy tabiiy komponentlar birikmasidan iborat, go‘zal tabiat go‘sha(landshaft)lari kiradi. Ular daryo, ko‘l, dengiz bo‘ylari, tog‘ etaklaridagi o‘simlik dunyosi, xilma-xil manzarali joylar, mineral suvli shifobaxsh maskanlar bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, aholining dam olishi, sport bilan shug‘ullanishi, ov qilish imkoniyatlari uchun keng hududlar, shahar

atrofidagi yashil mintaqalar, park va bog'lar yoki qo'riqxona va milliy bog'lar ham tabiiy rekreatsiya resurslaridir.

Rekreatsiya resurslari	
Tabiiy	Antropogen
Iqlimiylar (quyosh radiatsiyasi, harorat, yog'in, namlik, shamol va b.)	Madaniy – tarixiy (madaniy va diniy markazlar, ziyyaratgohlar, milliy bog'lar, ko'rgazmalar)
Geologik (mineral, dengiz suvlari, shifobaxsh balchiqlar)	Ko'ngilochar ob'ektlar (milliy o'yinlar, konsert, teatrlar kabi ob'ektlar)
Biologik (o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproqlar va b.)	
Landshaftlar (tug', o'rmon, sharshara, sohillar va b.)	

5.1.1-rasm. Rekreatsiya resurslarining tasniflanishi

Turli davrlarda inson aql-zakovati bilan yaratilgan tarixiy, arxeologik va san'at obidalari, yodgorliklar, muzeylar hamda rekreatsiya maqsadida foydalananish mumkin bo'lgan ijtimoiy ob'ektlar, antropogen rekreatsiya resurslariga kiradi. Undan tashqari, rekreatsiya resurslarini quyidagi asosiy belgilariiga ko'ra ajratish mumkin:

- landshaft-iqlimiylar xususiyati;
- tabiiy resurslarning potensial zahirasi;
- jozibadorlik va sayyoqlik ahamiyati;
- qulaylik va foydalananish imkoniyati;
- manzara va ekologik xususiyati;
- ijtimoiy-demografik xususiyati.

5.2. Turistik resurslarni baholashni turizmdagi ahamiyati

Turistik resurslar turli tabiiy, madaniy – tarixiy, hamda ijtimoiy – iqtisodiy obektlar ko'rinishida bo'lib, turistik xizmatlar ko'rsatishga asos bo'la oladigan resurslarga aytildi. Undan tashqari, turistik resurslar turistik mahsulotlar yaratishga

asos bo'ladigan tabiiy hamda, insonlar tomonidan yaratilgan obektlar majmuasidan iborat.

V.S.Bogolyubov va V.P.Orlovskayalar (Yekonomika turizma. M,2005,151b.) turistik resurslarda alohida ajralib turuvchi quyidagi asosiy belgilarni ajratishgan:

- Qulaylik (jozibadorlik);
- Iglimiy shatoit;
- O'rganganlik darajasi;
- Sayyoqlik ahamiyati;
- Manzara va ekologik xususiyatlari;
- Ijtimoiy – demografik xususiyatlari;
- Potensial zahirasi;
- Foydalanish imkoniyati va boshqalar.

Turistik resurslardan sog'lomlashtirish, turistik, sport va tanishuv maqsadida foydalaniлади. Undan tashqari turistik resurslarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin: *tabiiy* va *infrastrukturali*. Turistik biznesni rivojlanishida yuqoridaи ikki guruhnini ham ahamiyati yuqori. Har qanday yuqori turistik resurs potensialidan, kommunikasiya, aloqa vositalari, xizmat ko'rsatish sohalarisiz foydalanib bo'lmaydi.

Har bir hududda turizm shakllanar ekan, bu hududda turizm faoliyatida foydalaniyatgan turistik resurslar mavjud bo'ladi. Bu resurslarni turizmnı tashkil etish asosi desak bo'ladi. Lekin, har bir hududning resurs salohiyati resurslarning miqdor va sifat jihatiga ko'ra farq qiladi. Shu sababli turistik resurslarni har jihatdan o'rGANISH, baholash, umuman olganda turizm faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini tahlil etish ma'lum mintaqada turizmnı rivojlantirish istiqbolini belgilaydi. Shu sababdan mavjud turistik resurslardan turizm faoliyatida foydalaniшда ularni har jihatdan *baholash* o'ta muhimdir. Turistik resurslarni baholash bo'yicha ham turli yondoshuvlar mavjud. Turistik resurslarning iqtisodiy bahosi bevosita resurs turiga. uning sifatiga, joylashuviga, foydalanish texnologiyasiga hamda atrof – muhit hoslatinga bog'liq. Bunda ularni baholash asosiy o'rinni egallaydi. Baholash orqaligina ulardan foydalanish, muhofaza qilish me'yorini o'rnatish mumkin.

5.3. Turistik resurslarni miqdor va sifat jihatdan baholash

Turistik – rekreatsiya resurslarini mutaxasislar asosan *migdor* va *sifat* jihatdan baholashni taklif etishgan. Miqdor jihatdan baholashda turistik faoliyatda foydalanish mumkin bo'lgan turistik resurslar hisobi olinadi hamda baholashda quyidagi hislatlar hisobga olinadi:

1. Zahira ko'rsatgichi, ya'nii hududiy rekreatsion tizimning qabul qilish potensiali;
2. Mayjud resurslarni maydon ko'rsatgichi, ulardan rekreatsiya maqsadida foydalanish imkoniyati;
3. Rekreatsiya resurslaridan mavsum sifatida foydalanishning davomiyligi.

Bu bahoni Samarqand viloyati misolida ko'radigan bo'lsak, birinchi navbatda viloyatning turistik obektlarini o'rganishimiz lozim. Quyida Samarqand viloyatning turistik obektlari 3-jadval asosida ko'rsatilgan.

Jadval 5.3.1.

Samarqand viloyatining turistik obektlari

Tumanlar	Turistik obektlar nomi
Samarqand shahri	Ulug'bek observatoriysi, Xo'ja Doniyor payg'ambar ziyoratgohi, Ishratxona, Qadimiy Siyob arig'i, Afrosiyob arxeologik muzeyi va harobalari, Xazrati Xizir masjidi, Shohi – Zinda majmuasi, Bibixonim ansamblı, Siyob bozori, Registon ansamblı, Al-Motruziy maqbarasi, Ruhobod maqbarasi, Amir Temur maqbarasi, shahar bosh jome masjidi, O'lakashunoslik muzeyi, Samarqand bosh tarixiy muzeyi., Universitet xiyobonidagi qadimiy chinorlar va boshqa daraxtlar, Alisher Navoiy muzeyi. SamDU arxeologik, zoologik muzeylari, shahar istirohat bog'lari, shifobaxsh chashma buloqlar, qadimiy mahallalar.
Samarqand tumani	Xo'ja Ahrori Vali Ziyoratgohi, Mironqul, Sazag'on, Ohalik Dam Olish Maskanlari, Ohalik tog'i soyliklaridagi xushmanzara dam olish maskanlari, milliy an'analar, yog'och o'yymakorligi, metallga ishlov berish, milliy urf odatlar.
Urgut tumani	Chor chinor, chinorlar va buloqlar, G'ovsul A'zam ziyoratgohi, Xo'jabtol ota, Miqqilloq tosh, Teshiktosh, Qaynar, Shirvog'ota ziyoratgoh va dam olish maskanlari, «Toshqo'y» tabiiy haykali, Bug'jamatosh, Toshkelinchak, Go'rimor tabiiy tosh shakllari, Lev, Qaynarbuloq, Rohatbuloq buloqlari, Omonqo'ton dam olish maskanlari, Eski davon yo'llari, taxi Qorachabegim saroyi harobolari va b.

Bulung'ur tumani	Qadimiy Tuyatortar kanali, Fozil Yo'ldosh o'g'li uy muzeyi, xalq etnografik folklor ansambillari, mahalliy hunarmandchilik va b.
Jomboy tumani	Xolvoi qishlog'idagi qadimiy chinorlar, Zarafshon daryosi va uning Oqdaryo va Qoradaryoga ajralishi, Zarafshon qo'riqxonasi, xalq milliy an'analarini va urf-odatlari.
Ishtixon tumani	Qoradaryo sohillari, shayxlar qo'rg'oni xalq milliy san'ati, milliy an'analar, urf-odatlari va b.
Kattaqo'rg'on tumani	Kattaqo'rg'on suv ombori, Andoqiy ziyoratgohi va bulog'i, «cho'kkan tuya» shaklidagi tabiiy yodgorliklar va milliy an'analar.
Narpay tumani	Qo'chqorli ota ziyoratgohi, Qo'tirbuloq dam olish maskani, shifobaxsh bulog'i va avliyo baliqlari, Qo'shtepa ikkita tabiiy tosh tepalik va milliy an'analar.
Nurobod tumani	Xazrati Dovud ziyoratgohi va g'ori, Tim qishlog'idagi qadimiy archalar, Qarmobcho'l ekolandshaftlari, xalq hunarmandchiligi, jumladan jun yigirish, gilam to'qish, ko'pkari o'yinlari, milliy kurash, qadimiy sardobalar va b.
Oqdaryo tumani	Mahdumi A'zam Dahbediy ziyoratgohi, Oqdaryo daryosi sohillari dam olish maskanlari, Miyonqol oroli ekolandshafti, xalq milliy an'analar.
Payariq tumani	Imom Buxoriy masjid majmuasi va ziyoratgohi, Navro'ztepa, G'ilmonsoytepa, Oqtepa tabiiy tepaliklari, xalq milliy an'analarini va b.
Pastdarg'om tumani	Qadimiy Darg'om kanali dam olish maskanlari, milliy an'analar, milliy kurash, ko'pkari o'yinlari va b.
Paxtachi tumani	Dobussiya qal'a harobalari, Zarafshon daryosi sohillari dam olish maskanlari, qadimiy sardobalar.
Tayloq tumani	Tayloq ota qo'rg'oni ziyoratgohi, jome masjidi, istirohat bog'i, Bandikushon ziyoratgohi va b.
Qo'shrabod tumani	Tog' oldi dam olish maskanlari, Qaynar avliyo bulog'i, milliy an'analar, urf-odatlari, milliy dostonchilik, baxshichilik, Ergash Jumanbulbul o'g'li dostonchilik maktabi va b.

Manba: Soliyev A.S., Usmonov M.R. Turizm geografiyasi. Samarqand: SamDU, – 2005.

Jadvaldan ko'rish mumkinki, qanchalik hudud turistik obektlarga boy nisoblansa, turistik mahsulotlar turini ko'paytirish imkoniyati yaratadi. Har bir hudud ma'lum tur turistik resurslarga ega bo'ladi. Qaysidir hudud tarixiy obidalarga

boy hisoblansa, ayrimlari tabiiy turistik obektlarga boy hisoblanadi. Turistik faoliyatda barcha turistik resurslardan bir zaylda foydalanib bo'lmaydi, chunki obektlarning joylashishidagi qulayligi, jozibadorligi turlicha. Shuning uchun turistik resurslarni sifat jihatdan baholash muhim sanaladi. Sifat jihatdan baholashda quyidagi belgilar e'tiborga olinadi: *ta'sirchanligi, ulug' vorligi, joylashuvidagi qulaylik, atrof-muhit holati, tabiiy rekreatsiya resurslarining o'ziga jalg qilish qobiliyatini* va boshqalar.

Turistik – rekreatsiya resurslarini mamlakat milliy boyligi sifatida baholash lozim. Yuqoridagi jadvaldan foydalanib, Samarqand viloyati tumanlarini turistik resurslarini sifat jihatdan baholash mumkin.

Agarda shartli ravishda besh balli tizimda baholasak, tabiiy turistik resursslari imkoniyati bo'yicha Samarqand shahri, Samarqand tumani, Urgut tumani - 5 ballga, Nurobod va Qo'shrabod tumani - 4 ballga, Pastdarg'on, Paxtachi va Tayloq tumanlari - 2 ballga teng. Tarixiy obidalar va diniy qadamjoli obektlarga ega hududlar imkoniyati bo'yicha, Samarqand shahri va tumani – 5 ballga, Payariq va Urgut tumani – 4 ballga, Bulung'ur va Qo'shrabod tumanlari – 1 ballga baholash mumkin. Milliy etnografik va madaniy obidalar resursslari bo'yicha Samarqand shahri va Kattaqo'rg'on tumanlari – 5 ballga, Nurobod, Oqdaryo va Urgut tumanlari – 4 ballga, qolgan tumanlarni - 3 ballga baholash mumkin.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, Samarqand shahri va tumani, Urgut va Payariq tumanlari turistik resurslarga boy hisoblansa, ayrim tumanlarning turistik resurs imkoniyati kam. Shu jihatdan tumanlarning turistik resursslari potensialini uch kategoriya (yuqori, o'rtacha, past) asosida baholash ham mumkin. Bu yerda, Samarqand shahri va tumani, Urgut va Payariq tumanlari yuqori kategoriyaga, Nurobod, Kattaqo'rg'on, Narpay va Oqdaryo tumanlari o'rtacha kategoriyaga, qolgan tumanlarni past kategoriyaga kiritish mumkin.

Tabiat komplekslarida tabiiy resursslardan foydalishda ruxsat berilgan antropogen yukning normalarini hisobga olish lozim. Bu normalarni shakllantirishda biologik va ruhiy jihatdan yondashish lozim. Misol uchun Iga maydonda nisbatan biologik tuzilishga zarar yetkazmaydigan darajadagi odamlar sonini belgilash mumkin. Dam olish va turizm faoliyatida tabiiy turistik resursslarni sifatini aniqlashdan tashqari, antropogen (madaniy) landshaftlar samaradorligini ham aniqlash lozim.

Tabiiy resursslarni baholashni bir qancha turlari mayjud. Bular: texnologik – rekreatsiya faoliyatining u yoki bu turiga resursslarning funksional yaroqligini, fiziologik – shinam, qulaylik darajasiga ko'ra, psixologik – estetik xususiyatlarga ko'ra baholanadi. Bu baholashga misol tariqasida quyidagi 4- jadvalni ko'rsatish mumkin.

Jadval 5.3.2.

Tog‘ chang‘isi uchishni tashkil etish uchun relef bahosi (Y.V.Koltovoy, 1998)

Rekreatsiya bahosi	Trassa balandligi m	Mehmonxonalar va trassa orasidagi masofa, km	Trassa uzunligi, m	O‘rtacha aylana, gradus	Qiyalik yuzasining xususiyati	Kuchki xavfi
Qulay sharoit	1000-2500	1	1000	12-18	Toshli hududning yuzasi tekis hamda mustahkam	Ayrim kuchli qor yog‘ishidan keyin bo‘lishi mumkin
Qisman qulay	1000;2500-3000	1-5	200-1000	18-20; 10-12	Toshli hududning yuzasi qisman tekis, lekin qo’shimcha ravishda hamda mustahkam	Kuchli qor yog‘ishidan keyin bo‘lishi mumkin
Qulay emas	3000-4000	5-30	50-200	5-10; 20-25		Tez-tez bo‘lib turadi

Umuman olganda, mintaqalarni turistik resurslarini baholash orqali, bu mintaqalarda turizm industrijasini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlarini belgilash mumkin. Shunday ekan, turistik resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini tahlil etish katta ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so‘z va iboralar: rekreatsiya resurslari, tabiiy, antropogen, iqlimi, geologik, biologik, landscape, madaniy – tarixiy, ko‘ngilochar ob’ektlar, tasnif, infrastruktura, baholash, miqdor, sifat, ta’sirchanligi, ulug‘vorligi, joylashuvidan qulaylik, atrof-muhit holati, tabiiy rekreatsiya resurslarining o‘ziga jalb qilish qobiliyati, funksional yaroqliligi, fiziologik – shinam, qulaylik darajasi, psixologik estetik xususiyati.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Turistik – rekreatsiya resurslari va ularni belgilashni nimalardan iborat?
2. Turistik resurslarni baholashni turizmdagi ahamiyati nimada?
3. Turistik resurslarni miqdor jihatdan baholashni tushuntiring.
4. Turistik resurslarni sifat jihatdan baholashni tushuntiring.
5. Tabiiy resurslarni baholashni turlarini tushuntirib bering.

6- MAVZU. MINTAQALARDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

Reja:

- 6.1.Mintaqalarda ekoturizmning tutgan o'mi va roli**
- 6.2.O'zbekiston turistik mintaqalarining ekoturistik salohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari**
- 6.3.Ekoturizmni rivojlantirishda tabiat alohida muhofaza qilinadigan hududlarning o'mi**
- 6.4.Mintaqalarda joylashgan qo'triqxonalar va ulardan ekoturizmda foydalanish imkoniyatlari**
- 6.5.O'zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari**

6.1. Mintaqalarda ekoturizmning tutgan o'rni va roli

Jahon sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda turizm sanoatida 210 milliondan ziyod ishchi xizmat qiladi va undan olinadigan daromad yiliga 900 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Bu o'rinda turistik bozoming deyarli yarmini qamrab olgan Osiyo-Tinch okeani, Yaqin va O'rta Sharq hamda Yevropa mintaqalaridagi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Ekspertlarning ta'kidlashicha, turizm industriyasida ekoturizm tarmog'iga kiruvchi tabiiy va sarguzasht turizm tarmog'i jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Birgina Kanada davlatida yovvoyi tabiatga sayohat turizmining umumiyligi hajmi ichki turizmdan tushgan daromadning 25 foizini tashkil etadi. Kanada hukumati, faqatgina ekoturizmdan tushgan soliq hisobidan har yili 1,7 milliard AQSH dollari miqdorida foyda oladi. Bu esa, hukumat tomonidan yovvoyi tabiatni muhofaza qilish dasturiga ajratilgan mablag'dan 5 barobar ko'pdir¹⁹.

Ekspertlarning fikricha hozirda ekoturizm butun dunyoda eng serdaromad sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni samarali hal etish, balki ekologik muammolarni bartaraf qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekoturizm, bir tomonidan, turistik bozorda jadal o'sib kelayotgan tarmoq, ikkinchi tomonidan esa insoning tabiatga ijobiy ta'siriga asoslangan tizim. Qolaversa, u turizm infratuzilmasining ajralmas qismi bo'lib, faqat g'oyagina emas, balki, umumiyligi turizmning aniq turi, hisoblanadi. Uning atrof-muhitga ta'siri turlicha (salbiy, neytral va ijobiy) bo'lishi mumkin. "Ekoturizm" qo'triqxona

¹⁹ AANavro'z NORBOBOYEV <http://soglon.uz/borliq-borligim-meneng/248-ekoturizm-yovvoyi-tabiat-qoyniga-sayohat.html>

hududlari va tabiiy bog'larning zamonaviy ish yuritish faoliyatida keng qo'llanilmoqda. Bu sayyohat turining dunyo miqyosida jadal o'sishiga sabab faqat atrof-muhitning ahvoli yomonlashishigina emas, balki, hordiq chiqariladigan mashhur joylar-tog' bag'ridagi kurortlar, suvi iliq dengizlarning qirg'oqlari, tekisliklar va o'rmonzorlar borgan sari ko'proq o'zlashtirilayotganligi hamdir.

Ekoturizm tabiiy turizm bo'lib, tabiat muhitini hosil qilish va tushinishni o'z ichiga oladi. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi ta'rifiga ko'ra, "ekologik turizm yoki ekoturizm tabiat muhitiga nisbatan mas'uliyat bilan sayohat qilishga, hududlarni tabiatiga ziyon yetkazmagan holda o'rganish hamda betakror, go'zal joylaridan zavq olish maqsadida tabiatni muhofaza qilishga ko'maklashadi, atrof-muhitga "yumshoq" ta'sir etadi, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini faollashtiradi va shu faoliyatdan ularning imtiyozlar olishini ta'minlaydi"²⁰. Turizm jamiyati esa "ekoturizmnii tabiiy hududlarga mas'uliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza etishni ta'minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi"²¹, deb hisoblaydi. Yovvoyi tabiat umumjahon jamg'armasi ekoturizmga "ekoturizm-nisbatan tabiatga ziyon yetkazilmagan hududlarga sayohat, madaniy-yetnografik hususiyatlar haqida tasavvur olish maqsadida, ekoturizmning butunligini buzmagan holda, shunday iqtisodiy sharoitlar yaratadiki, unda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslar mahalliy xalqqa foyda keltiradi"²², deb ta'rif beradi.

Yana bir ta'rifda "Ekoturizm nafaqat ma'rifiy-ma'naviy maqsadlarni ko'zlagan holda ekzotik tabiiy hududlarga, ularning hayvonot va o'simlik dunyosiga sayohat, balki ijtimoiy-iqtisodiy masalalarни hal qilish bilan bir-biriga bog'liq majmualar yig'indisi"²³ –deb izohlanadi.

Bu ta'riflar faqat juz'iy jihatdan bir-birlaridan farq qilsa-da, asosiy xulosasi tabiatni asrash, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash va ko'paytirish, shu maqsadda muhofaza etiladigan hududlar, milliy tabiiy bog'lar tashkil etish, mahalliy aholini yangi ish joylari bilan ta'minlash natijasida ularning turmush sharoitini yaxshilash, mahalliy va chet el investorlarini jalb etish orqali davlat xazinasini boyitish maqsadlari nazarda tutadi.

Qozog'istonlik mutaxassis M. Musatayevaning xulosalariga ko'ra, ekoturizm yovvoyi tabiat qo'yniga sayyohat qilish, tabiatga minimum ta'sir etish, tabiatni muhofaza qilish faoliyatini va tabiiy hududni qo'llab-quvvatlash, ekologik bilim komponentlarini, bu faoliyatda mahalliy aholi qatnashishi va daromad ko'rishi kabi qoidalarni ham o'z ichiga oladi²⁴.

²⁰ "O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish konsepsiysi" Ekologiya xabaronomasi 2007 № 6 10-b

²¹ "O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish konsepsiysi" Ekologiya xabaronomasi 2007 № 6 10-b

²² "O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish konsepsiysi" Ekologiya xabaronomasi 2007 № 6 10-b

²³ "O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish konsepsiysi" Ekologiya xabaronomasi 2007 № 6 10-b

²⁴ Tuxliyev N., Abdullayev T. Ekoligicheskiy turizm: sushnost, tendensii i strategiya razvitiya. -T.: 2006 56 s.

Rossiyalik mutaxassislar I. Zorin va V. Kvartalnov “ekoturizm” tushunchasini ikki shaklda berishadi: birinchi shakldagi ekoturizm “yovvoyi” tabiatdan turistlarning turishi va sayyohat qilish muhitni sifatida bilvosita foydalanishga asoslanadi, lekin bunda turning barcha komponentlariga ekologik texnologiyalarni joriy qilishga yo‘naltirilgan turizm ko‘zda tutiladi. Bu ma’noda ekologik turmahsulot atrof-muhitga zararni minimallashtiradi hamda tarbiyaviy va rekratsion ahamiyatga ega bo‘ladi. Ikkinci shaklidagi ekoturizmga sayyohat bilan tabiatga ekologik jihatdan yondoshuvning uyg‘unlashuvidir, deb qaraladi. U yangi landshaftlar bilan tanishuv quyonchi hamda flora va fauna namunalarini o‘rganish lazzatini ularni muhofaza qilish imkoniyati bilan uyg‘unlashtiradi, deb hisoblanadi. Ekoturizmning asosiy resurslarini sifatida qo‘riqxonalar, mahalliy va tabiiy bog‘lar, noyob va oddiy landshaftlar ko‘zda tutiladi²⁵.

“Ekologik turizm” tushunchasining alomatlardan iloji boricha ko‘prog‘ini chiqurroq tushunish uchun I. Zorin va V. Kvartalnov o‘zaro bog‘langan “ekotizim”, “ekologiya”, “ekologik sayyohat etikasi” kabi tushunchalar tizimini taklif qilishadi. Ayniqsa, oxirgi tushuncha ahamiyatga molik. Uni jonli tabiatga, borilayotgan landshaftlarga, u yerda yashovchi kishilarga nisbatan hurmat kodeksi, deb sharhlanadi²⁶.

J. Aliyevaning fikricha, ekologik turizmga ko‘pincha ommaviy turizmning muqobili sifatida qaraladi, hozir u turistik faoliyatning eng istiqbolli va dinamik rivojlanuvchi shakllaridan hisoblanadi. “Ekologik turizm” tushunchasi ta’riflari tahlili ko‘rsatadiki, umumlashtirgan holda uning quyidagi belgilarini farqlash lozim:

- yovvoyi tabiatdan turistlar tashrif buyuradigan muhit sifatida bilvosita foydalanish;
- atrof-muhitga minimal zarar yetkazish;
- odamga rekratsion va ijobiylar tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish;
- yangi landshaft manzillari bilan tanishish, flora va faunalar muhofaza qilinishi uchun ularning namunalarini o‘rganish;
- ekoturizmdan tushgan mablag‘lardan dunyodagi barcha hududlar flora va faunasini asrash va tiklash uchun foydalanish;
- barcha turistlar va xizmat ko‘rsatuvchi shaxslarning jonli tabiatga va mahalliy aholiga hurmat kodeksiga rioya qilishlari va boshqalar.

Shunday qilib, ekoturizm tizimi asosida turistik faoliyatning turli xillarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tamoyillar yotadi. Ular bilimni oshiradigan yoki sarguzasht sayyohatlari (piyoda, otda, suvda, tog‘da, sayr va hokazo), talabalar ta’tillari, ornitologik turlar, ilmiy turlar va ekspeditsiyalar, dam olish ekskursiyalari, bolalar dam olish maskanlari va hokazolarni o‘z ichiga oladi.

²⁵ Zorin I., Kvartalnov V. Turisticheskiy terminologicheskiy slovar. - M.: 1999. S. 165

²⁶ Zorin I., Kvartalnov V. Turisticheskiy terminologicheskiy slovar. - M.: 1999. S. 165

Ekoturizmni faqat foyda keltiradigan soha deb hisoblash mumkin emas. Bu faoliyat turi agar maqsadga muvofiq doirada amalga oshirilmasa, uning qoidalari va talabalariga rioya qilinmasa, tabiatga jiddiy salbiy ta'sir qilishi va noxush oqibatlarga olib kelishi tabiiy. Uning salbiy oqibat va natijalari nimalardan iborat bo'lishi mumkin? Eng avvalo, o'simliklar nobud bo'ladi, payxon qilinadi, yer o'piriladi va tuproq zichlashib ketadi, hayvonlar bezovtalanadi, qochishga tushadi, bola ochishga xalaqit beriladi, ov natijasida yo'q qilinadi, ovqatlanish tarzi o'zgaradi, turlari ayniydi, ular notabiyy to'planadi, suvda yashaydiganlarining hayot tarzi o'zgaradi, suv o'simliklariga ziyon yetadi, biotipning buzilishi, oziq moddalarning yemirilishi va yo'qolishiga olib keladi (tog'li joylarda, o'rmon yong'ini xavfi), suvning ifloslanishi va evtrofikatsiya yuz beradi, noyob turlar kamayadi, hayvonlarning hayot tarzi o'zgaradi, qoyalar yemiriladi, tashqi qiyofa xunuklashadi, marjon qoyalar shikastlanadi, baliqlar turi kamayadi, suv havzalari qirg'oqlaridagi o'simliklar payxon bo'ladi, qirg'oqdagi tuproq o'piriladi, zichlashadi, o'simliklar nobud bo'ladi, tasodifan hayvonlar shikastlanadi, hayvonlar turmush tarzi o'zgaradi. Shunday ekan turizmning ushbu turini rivojlantirish uchun maxsus chora tadbirlarni amalga oshirish va ekoturistik resurslardan foydalanishining optimal variantlarini ishlab chiqmog'iniz lozim.

Dunyo miqiyosida turizmning eng yangi yo'nalishlaridan biri ekologik turizm yoki ekoturizmdir. «Ekologik turizm» termini birinchi marotaba 1980 yil meksikalik iqtisodchi G.Seballos -Laskureyn taklif qilgan. Ekoturizmning asosiy maqsadi sayohat paytida yangi joylarni ko'rish, tabiat go'zalligidan, toza tog' yoki o'rmon havosidan baha olish, «yovvoyi» tabiat bag'rida dam olish, shuningdek, boshqa xalqlar urf-odati, madaniyati, san'ati, tarixiy obidalarini ko'rishdan iborat. Turizmning bu ko'rinishi Kanada, AQSH, G'arbiy Yevropa davlatlari, Markaziy va Janubiy Amerika, Yaponiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda tez rivojlanmoqda. Ekologik turizm ayniqsa Avstraliyada yaxshi rivojlangan bo'lib, bu soha bo'yicha maxsus dasturlar yaratilgan.

Ekologik turizmni tashkil etish va rivojlanishi uchun obektlar bo'lib, quyidagilar xizmat qiladi:

- milliy bog'lar, davlat buyurtmalari, tabiat yodgorliklari;
- botanik bog'lar;
- davolash-sog'lomlashtirish joylari va kurortlar;
- qo'riqxonalar.

Ekoturizmning muhim obekti bo'lib, ekologik toza hudud, ajoyib tabiat va boshqa rekreatsiya resurslari hisoblanar ekan, mamlakatimiz bu resurs turlariga boy hisoblanadi. Respublakamizda tarixiy, arxeologik, arxitektura, san'at, musiqa va boshqa turistik resurslar mavjud. O'zbekistonning boshqa mamlakatlarda

uchramaydigan ekzotik tabiat, xilma-xil landshaftlari, flora va faunasi butun turistik regionning jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardir.

Hozirgi vaqtida to'rt xil ekoturizm turlari va ekoturlar mavjud.

1. Ilmiy turizm. Bunda turistlar dala sharoitida kuzatish ishlari olib boradilar, tabiatda izlanish ishtarida ishtirok etadilar. Masalan Lotin Amerikasi mamlakatlaridan biri Kolumbiyada, u yerdagi boy qo'shlar olamini o'rganish uchun «Kolumbiya qushlari» degan ekoturlar o'tkazilib, unda boshqa davlatlardan kelgan ornitologlar ham qatnashib ilmiy izlanishlar olib boradilar. Bunda turistlar aktiv harakat usullari qo'llab, tabiiy go'zallikdan bahra oladilar. Ilmiy turizmga chet elga bo'lgan ilmiy-tekshirish ekspedisiyalari va tabiiy fakultetlarda o'qiyotgan talabalarning dala praktikasi ham kiradi.

2. Tabiat tarixini o'rganish turlari. Bu atrof muhitni va mahalliy madaniyatni o'rganish uchun qilingan sayyohatdir. Ular ko'pincha qo'riqxonalar va milliy bog'larda takshil etilishi mumkin. Bu turlar tabiat fenamentlari bor joylarda ham tashkil qilinishi mumkin. Bunga muktab o'quvchilarining poxodlari ham kirib, unda o'qituvchi, o'quvchilarga o'tilgan joylarning tabiat tarixi to'g'risida hikoya qilib beradi.

3. Sarguzasht turizmi. Bu tur turizm barcha aktiv harakatli turlarini o'zida jamlangan sayyohatlarni o'z ichiga oladi, hamda tabiatda dam olish turlari ham bunga kirib ulardan maqsad yangi hissiyotlarni sezish, taassurotlarni boshdan kechirish, turistlarni jismoniy formasini yaxshilash va yangi sport muvoffaqitlarga erishishidir. Bu tur turizmga alpinizm, qoyalarda yurish, tog' va piyoda yurish turizmi, suv, chang'i va tog'-chang'i turizmi, otda yurish turizmi kiradi.

4. Alohida muhofaza etiladigan tabiat hududlarga sayohat (AMETHS) etish ekoturizmnинг asosiy turi hisoblanadi. Ekoturizm o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- mahalliy aholining o'z hududlarining ijtimoiy – iqtisodiy;
- rivojida ishtirok etishi;
- turizm obektlari ichida tabiiylikni ko'pligi;

Turistlami ekologiyadan bilimli bo'lishi va boshqa.

6.2. O'zbekiston turistik mintaqalarining ekoturistik salohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekistonning ekologik turizm salohiyatini hisobga olganimizda ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy resurslari to'rt fasli tabiat mavsumlari, tabiat landshaft bio – xilma xilliklarida o'simlik olami va hayvonot dunyosining turli turmanlaridir.

Mamlakatimizda bar qancha biogeografik o'lkkalar tutashgan mintaqada joylashgan respublikamiz betakror tabiat boyliklariga, bir qancha so'lim

go'shalariga, noyob hayvonot olimiga boy. Bularning hammasi ekologik turizmni rivojlantirish uchun asosiy resurs va imkoniyat bo'lib hisoblanadi. Birgina hayvonot olamiga nazar tashlaydigan bo'lsak, mamlakatimizda ayni paytda umirtqali hayvonlarning 677 turi, shu jumladan sut emizuvchilarning 108, qushlarning 432, sudralib yuruvchilarning 58, amfibiyalarning 2 hamda baliqlarning 77 turi, shuningdek, umirtqasizlarning 15 mingdan ortiq turi mavjud. Hozirgi kunda sut emizuvchilarning 23, qushlarning 48, sudralib yuruvchilarning 16, baliqlarning 17, xalqasimon chuvalchanglarning 3, mollyuskalarning 14 va bo'g'imoyoqlilarning 61 turi "Qizil kitob"ga kiritilgan. Ular alohida muhofazaga olingan²⁷.

O'zbekistonning hayvonot dunyosi xilma—xil bo'lib, bu yerda Osiyo faunasining ko'p vakillari uchraydi. Ular orasida: sut emizuvchilar (bo'ri, qulog'i katta tipratikan, to'ng'iz, burama shoxli taka, tog' qo'yil, bo'rsiq, tog' suvsari, ayiq, bars, oq suvsar, Sibir' tog' takasi, burma tishli kalamush, chiyabo'ri, Buxoro bug'usi, Buxoro taqaburuni, yumronqoziq, qo'shoyoq), sudraluvechilar (gekkonlar, agamalar, cho'l bo'g'ma iloni, o'q ilon, O'rta Osiyo kobrasi, qalqontumshuq ilon, to'rt polosalı chipor ilon, Oloy gologlazi), qushlar (tuvaloq, avdotka, ryabka, sadja, qora dumli tentak qush, cho'l sori, xo'jasavdogar, qarqunoq, moyqut, v'yurok, dehqonchumchuq, qorabosh chumchuq, katta qumri, qoraqush, oqbosh qumoy, boltayutar, Himalay ulari, zavirushka, zag'cha, qirg'ovul, kakku, sariq jiblajibon, zag'izg'on, qora qarg'a, janub bulbuli, mo'ylovli chittak, qamishzor ovsyankasi, qorayaloq), hashoratlar va boshqalar.

Havzalarda 70 ga yaqin baliq turi uchraydi: Orol lososi, Amudaryo gulnohi, cho'tanbaliq, Orol qizilko'zi, Orol so'zanbalig'i, sazan, kumushrang tovonbaliq, laqqabaliq, sudak, olabug'a, ilonbosh, oddiy do'n peshona, oq amur.

Xuddi shunday o'simlik dunyosi ham o'zining betakror boyligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston florasida 3700 turidan ziyod o'simliklar mavjud. Turlarning 20% --- endemiklar (boshqa hech qayerda uchramaydi); ularning katta qismi tog'larda o'sadi. Cho'l va dashtlar florasi o'ziga xos bo'tazorlardan iborat. Pastqam tekisliklarda yog'ochbop, buta, o'simon o'simliklar rivojlangan.

Adirlar landshaftida --- o'tlar, daraxtlar yo'q, butazorlar faqat oqar suvlar bo'ylab uchraydi. Bu yerda turli xil piyozlar, lola, ravoch, gulsapsarlar o'sadi. Adirlarning yuqori qismida --- qoramtil bo'z yerdarda quruq turli xil o'tlar o'sadi. Toshloq uchastkalarda bodom, sada, visharik butazorlari mavjud.

O'zbekiston hududining muhofaza etilayotgan tabiiy hududlari tarkibida 2164 km² tashkil qilgan 9 ta davlat tabiat qo'riqxonasi, 6061 km² ni tashkil qilgan 2 ta milliy bog' va noyob turlarga kiruvchi hayvonlarni ko'paytirish Respublika markaziy Jayron – Ekomarkaziy 12186 km² maydonni tashkil etgan 9 ta davlat byurtmaxonatari mavjud (1.2.2 – jadval).

²⁷ "Xalq so'zi" 2011 yil 11 mart. - 4 b.

O'zbekistonda ekoturizm bilan bog'liq bo'lgan betakror go'zal tabiat, landshaftlar, xilma-xil noyob o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy yodgorliklar mavjud. Boy tabiiy-iqlim salohiyati turistlarga nafaqat Toshkent, Jizzax viloyatining tog'li qismidagi va Farg'ona vodiysi idagi ko'plab g'orli tog'lar, muzliklar va ko'llarni, balki Navoiy, Buxoro va Xorazm viloyatlari idagi cho'llarni, sahrolarni, vohalarni taklif etishi mumkin. Ekoturizmning rivojlanishi tabiatni muhofaza qilish, sayyoohlarni ona tabiatimiz qo'yniga jalb etish, noyob o'simliklar va hayvonot dunyosini saqlash va ko'paytirish muammolarini hal qilishga katta hissa qo'shadi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra xozirgi kunda O'zbekistonga kelayotgan yoshi 50 dan oshgan sayohlarning 41 foizi mamlakatimizning eng xushmanzara hamda tabiiy landshaftlar yaxshi saqlanib qolgan noyob joylarini ko'rish, 25-30 yoshlar atrosidagi sayyoohlarning 26 foizi esa ekologik muammolar mavjud hududlarni ko'rish istagida ekanini bildirishgan.




Mamlakatimiz butun dunyoga o'zining boy tabiiy resurslari, rang-barang landshaftlari, jonli tabiatning noyob turlari, hayvonot va o'simlik olamining xilma-xilligi hamda qulay tabiiy va iqlimi sharoitlari bilan tanilgan. Shu jihatdan qaraganda, diyorimizning deyarli barcha viloyatlari ommaviy ekoturizm markazlari bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda ekoturizmning afzal tomoni shundaki, sayohatlarni deyarli butun yil davomida tashkil etish mumkin. Bahorda sahrolar va cho'llar benihoya chiroylı manzara kasb etadi, yoz fasilda mamlakatimizning tog'li hududlarida dam olish sayyoohlari uchun qiziqarlidir. Ekoturizm mamlakatimizning milliy bog'larida, shuningdek, ixtisoslashgan muassasalarda muvaffaqiyatlri rivojlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining ekosafari resurslari



6.2.1-rasm. Ekologik turizmning asosiy biologik xilma-xil resurslari



6.2.2-rasm. Ekologik turizm markazidagi qushlar

Sayyoohlarni jalb qilish uchun birinchi galda qulay xizmat ko'rsatish sharoitlarini yaratish, ularni qulay transport vositalari bilan ta'minlash va albatta O'zbekistonning ekoturistik salohiyatini jahon miqyosida targ'ib qilish zarur. Bu borada shu paytgacha muayyan ishlar ham qilingan. «O'zbekistonning qo'riqxonalari va milliy bog'lari» fotoalbumi, «Hisor» qo'riqxonasasi, «Sarmishsoy», «Jayron» ekomarkazi, «Boday-to'qay» qo'riqxonasiga bag'ishlangan bukletlar shular jumlasidandir.

O'zbekistonda ekologik turizmning hozircha ko'proq tabiat ne'matlarini iste'mol qilish bilan bog'liq shakllari (xususan, ovchilik, baliqchiik, rafting, piknik) tarqalgan bo'lib, unda atrof-muhitdan bevosita foydalanilmoqda. Ammo bunday yo'nalişning noyob ekotizimlar hamda milliy bog'larni asrashdag'i samarasi past, chunki daromadlar muayyan darajada buzilgan ekologik muvozanatni qayta tiklash tadbirlariga har doim ham sarflanavermaydi. Sohani rivojlantirishda dam olish uylari, mehmonxona, sayyoohlilik bazalar, yo'llar, muhandislik tarmoqlarini qurish bilan bog'liq barcha loyihalarni ekologik baholash ham muhim omildir. Ekoturizm ayniqsa, tog'li va yetib borish qiyin bo'lgan joylarda mahalliy iqtisodiyotni yaxshilashga xizmat qilishi mumkin. Buning uchun esa mahalliy boshqaruvni ekoturistik faoliyatga keng jalb qilish hamda soha uchun zaruriy infratuzilma (jyllashtirish vositalari, ovqatlanish, aloqa, tibbiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari, qutqarish xizmatlari va boshqalar) yaratilishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakaitimizda ekoturizmni rivojlantirish uchun yetarli darajada resurslar va imkoniyatlari yaratilgan. Ammo, ekoturizm ob'ektlarida turistlarga xizmat ko'rsatish, ularga marshrutlar ishlab chiqish, kerakli infratuzilmani shakillantirish, ekoturistik ob'ektlarga tashkil qilinajak ekskursiyalarda hamrohlik qiluvchi gid ekskursavodlar va yo'lboshlovchi mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunning muhim masalalaridan biri bo'lib hisoblandi.

6.3.Ekoturizmni rivojlantirishda tabiatli alohida muhofaza qilinadigan hududlarning o'rni

Hozirgi vaqtida yer yuzidagi tirik mavjudotlar genofondini saqlashning eng samarali usullaridan biri bu muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bo'lib hisoblanadi va xozirda bunday hududlar soni butun dunyo bo'yicha 3500 tani va ular egallagan maydoni 4 mln.kv.km.ni tashkil etadi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning asosiy vazifasiga landshaftlarni saqlash, nodir hamda yo'qolayotgan hayvonot va o'simlik otamidagi turlarini saqlab qolish, ularning ko'payishiga sharoitlar yaratib berishdan iborat.

So'nggi yillarda yer yuzida muhofaza etilayotgan tabiiy hududlarning turlari ko'payib bormoqda. Yangi Zellandiyada u 19 % maydonni, Norvegiyada 9%,


Yaponiyada 3%, Buyuk Britaniyada 4%, Chexiya va Slovakiyada 3,5%, Yaponiyada 3%, Buyuk Britaniyada 4%, Chexiya va Slovakiyada 3,5%, AQSH da 2,5%, Shvesiyada 1,3% ni tashkil etadi.

Alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga shu kunlarda qo'riqxonalar, milliy bog'lari, buyurtmaxonalar, tabiatning nodir yodgorliklari kirdi.

O'zbekiston ham turizm sohasida yuqori salohiyatga ega bo'lib, mamlakatimizning turistik salohiyati nafaqat xorijiy sayyoohlarni jalb qiluvchi Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz va Shaxrisabz kabi qadimiy shaharlari hamda ulardagi tarixiy-arkitektura yodgorliklari bilan dunyoga mashhur, shu bilan birga mamlakatda, ekoturizm bilan bog'liq betakror go'zal tabiat, sahro, cho'l-adirlar, tog'lar, turli xil noyob o'simlik va hayvonot olami, nodir, dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan arxeologik topilmalar, paleontologik qoldiqlar va shunga o'xshash tabiiy yodgorliklari ham mavjud.

Bugungi kunda mamlakatda tabiatni alovida muhofaza qilinadigan hududlarda turizm turlaridan ekoturizmni rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonuni doirasida alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning asosiy turlarini quyidagi chizmada ifodalaymiz (6.3.1 – rasm).

6.3.1 – rasm



Davlat qo'riqxonalari-O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ularning nodir va tugab borayotgan turlarini saqlab qolish, sonini ko'paytirishda muhim o'rinni tutadi. Xozirgi vaqtida Chatqol tog'-o'rmon, Payg'ambarorol, Qizil-

qum, Bodayto'qay, Nurota, Zarafshon, Hisor, Varganzi, Ko'hitangtog', Kitob davlat qo'riqxonalari mavjud.

Davlat milliy tabiat bog'lari - "Alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunning 15-moddasiga ko'ra, davlat milliy tabiat bog'lari tabiatni muhofaza qilish muassasasi bo'lib, ularning hududlari (akovatoriylari) alovida ekologik, tarixiy va estetik qimmatga ega bo'lgan hamda tabiatni muhofaza qilish, tekreatsiya, ma'rifiy, ilmiy va madaniy maqsadlarda foydalanishga mo'ljallangan tabiiy majmUILarni qamrab oladi.

Davlat buyurtma qo'riqxonalari - Qo'riqxonalardan tashqari kamayib ketayotgan o'simlik va hayvon turlarini saqlab qolish va tiklash maqsadida barpo etiladi.

Davlat tabiat yodgorliklari - O'zbekiston Respublikasining "Alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonuning 21 muddasiga binoan "Ekologik, ilmiy, estetik, madaniy jihatdan noyob, o'rnini to'ldirib bo'lmas, qimmatli, kelib chiqishi tabiiy bo'lgan ob'ektlar davlat tabiat yodgorliklari deb e'lon qilinadi" deb e'tirof etilgan²⁸.

Ekspertlarning ta'kidlashicha, hozirgi kunda turizm industriyasida ekoturizm tarmog'iga kiruvchi tabiiy va sarguzasht turizm tarmog'i jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Masalan, Kanada davlatida yovvoyi tabiatga sayohat turizmining umumiylajimi ichki turizmdan tushgan daromadning 25 foizini tashkil etadi. Kanada hukumati, faqatgina ekoturizmdan tushgan soliq hisobidan har yili 1,7 milliard AQSH dollari miqdorida foyda oladi. Bu esa, hukumat tomonidan yovvoyi tabiatni muhofaza qilish dasturiga ajratilgan mablag'dan (300 mln AQSH dollarri) 5 barobar ko'pdir. Shunday qilib, ekoturizm tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga katta hissa ko'shadi hamda ularni to'la-to'kis o'tkazishga sezilarli moliyaviy ko'mak beradi. BMT ma'lumotlariga qaraganda, har yili ekoturizmdan nisbatan kichik davlatlar ham Keniya - 1,4, Ekvador - 1,18, Kosta-Rika - 1,14, Nepal - 1,55 mln AQSH dollari miqdorida daromad oladilar. Shuni aytish joizki, ushbu mamlakatlarning ekoturizmdan oлган daromadi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 70-80 foizini tashkil etadi²⁹.

6.4. Mintaqalarda joylashgan qo'riqxonalar va ularidan ekoturizmda foydalanish imkoniyatlari

O'tkamizda tabiatni muhofaza qilish, jonivorlami asrash maqsadida deyarli har bir viloyatda qo'riqxonalar tashkil etilgan. Ularni tashkil etishdan asosiy maqsad tabiatni muhofaza qilish hamda o'simlik va hayvonot olamini ko'paytirishdir.

²⁸ O'zbekiston Respublikasining "Alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonuni

²⁹ "Jamiyat" gazetasi - Ekoturizm - sayyohlik bozorida yangi yo'naliш 02.08.2011

O'zbekiston Respublikasining alohida muhofaza qilinadigan hududlari


Nº	Nomlari	Tashkil etilgan vaqt va vazifasi	Qisqacha tafsifi
Qo'riqxonalar			
1.	Chotqol tog'-o'mmon biosfera	1947 yil. G'arbiy Tyanshanning tog'-ekotizimlarini saqlash va arof-muhit holati ekologik monitoringi. 1995 yilda biosfera qo'riqxonalari tizimiga kiritilgan	Toshkent viloyatining Chotqol tizmasining g'arbiy yonbag'rida joylashgan. Maydontol va Boshqizilsoy uchastkalaridan iborat. Umumiy maydoni - 35724 ga. shundan 6586 tasi o'mmon bilan qoplangan. Flora -221 tur sut cravuchilar, qush, reptiliya, suvda-quruqda yashovchilar va baliglardan tashkil topgan. Kamyob va alohida muhofaza ostiga 23 tur qushlar olingan.
2.	Hisor tog'-archazor	1983 yil. Hisor tizmasi tabiiy majmualari va ekotizimlarini saqlash	Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' va Shahrisabz tumantları hududida joylashgan. (Hisor tizmasining g'arbiy yonbag'rida). Maydoni-80986 ga, shundan 12203 gasi o'mmon bilan qoplangan, 27450 gasi o'tloq bilan band. Qo'riqxonada 253 tur hayvonlar yashaydi. Qushlarning 24 ta kamyob turi bor. O'sintiklar 870 turdan ortiq.
3.	Zomin tog'-archa	1960 yil. Areha o'monlari va u bilan hamjamoa hayvonot olamini muhofaza qilish va ilmiytadqiqot	1926 yilda ushbu hududda O'zbekistonda birinchi Gurash qo'riqxonasi tashkil etilgan. 30- va 40 - yillarda o'mmon xo'jaligi tarkibidan chiqarilgan. Jizzax viloyati Zomin tumani hududida Turkiston tizmasining bag'rida joylashgan. Maydoni - 26840 ga, shundan 11322 gasi o'mmon bilan qoplangan. Hudud dengiz sathidan 1750 m balanlikda.
4.	Baday-to'qay	1971 yil. Amudaryo oqimi tartibga solingan sharetda to'qay o'monlari va hayvonat olamini saqlash	Quyi Amudaryoning o'ng sohilida Qoraqolpog' istonining Beruniy va Kegeylı tumantları hududida joylashgan. Maydoni - 6462 ga, 70 %i to'qaydan iborat. Florasi - 103 tur; faunası tarkibi -160 umurtqali hayvonlardan iborat. 1970 yildan Buxoro bug'isini tiklash yo'lga qo'yilgan.
5.	Qizilqum vodiyo-to'qay	1971 yil. Amudaryoning o'rta oqimidagi to'qay	Amudaryo o'ng sohilida va Orolda, Buxoro viloyatining Romiton, Xorazm viloyatining Do'stlik tumantları hududida

		o'rmonlari va hayvanot olamini saqlash	joylashgan. Maydoni 10311 ga, shundan 5144 gasi o'rmon bilan qoplangan, 6964 gasi quntikdan, 3177 gasi daryo qayridan iborat. Florasi – 103, faunasi – 197 turdan iborat bo'lib, 37 turi sut emizuvchilar, 23 turi pentiliyalar.
6.	Zarafshon vodiylari to'qay	1971 yil. Zarafshon daryosi o'rta oqimi to'qay ekotizmlari	Zarafshon bo'yida 45 km. masofada Bulung'ur va Jomboy tumanlari hududida joylashgan. Maydoni 2552 ga, shundan 868 gasi o'rmon bilan qoplangan. Flora vakillari 308, umurtqabilari 240 turni tashkil etadi. O'simliklari ichida 18 tur buta-daraxt mayjud. Asosan Zarafshon qirg'ovuli muhofaza qilinadi.
7.	Nurota tog'-yong'oqzor	1975 yil tashkil etilgan. Grek yong'eg'i va qimmatli genofondni saqlash, Severgov qo'yini muhofaza qilish	Nurota tog'lari shimolida Jizzax viloyatining Forish tumanida joylashgan. Maydoni – 17752 ga, shundan 2529 gasi o'rmon bilan qoplangan. Hudud relesi 400m dan 2100 m gacha dengiz sathidan balandda. Hayvanot ofami 246 turdan iborat.
8.	Kitob geologik	1978 yil palentalogik-stratigrafik ob'ektlarni muhofaza qilish va o'rganish	Kitob tumanida joylashgan, maydoni – 5378 ga. Bu yerning geologik tarixini o'rganuvchi yagona qo'riqxona. Florasi 500 turdan ortiq, faunasi tarkibi 21 tur sut emizuvchilar, 120 tur qushlardan iborat.
9.	Surxon tog'-o'rmon	1987 yil buyurma asosida tashkil topgan. Ko'hitang tizmasi ekotizmlarini saqlash	Maydoni – 23802,3 ga. 800 tur o'simliklar, 290 tur qushlar, 37 tur sut emizuvchilar uchraydi. Asosan burama shohli echki, tog' qo'yisi, Old Osiyo qoplanasi muhofaza qilinadi.
Milliy va tabiat bog'lari			
1.	Zomin milliy bog'i	1976 yilda noyob tog'-archa eko-tizmlarini saqlash, tiklash	Umumiy maydoni – 24110 ga, 50 % o'rmonzor. Rereatsiya va bufer mintaqalardan iborat
2.	Ugem-Chotqol tabiiy milliy bog'i	1990 yil. Etalon tabiiy majmuvalari va genefondni saqlash	Umumiy maydoni – 574480 ga. Toshkent viloyatida g'arbiy Tyanshan tarmoqlarida joylashgan. Vazifasiga ko'ra – agrobog', faol rekreatsiya, boshqaruvchi rekreatsiya, qo'riqxona mintaqalariga ajratilgan

6.5.O'zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat Qo'mitasining mutaxassislari O'zbekistonning ekoturistik rayonlari haritasini ishlab chiqishgan.

Haritaga muvofiq, butun mamlakatimiz hududi XIV ekoturistik rayonga ajratilgan. Har bir ekoturistik tumanga ekoturistik zona deb ham qarash mumkin. Ular jumlasiga Ustyurt, Orol va Orolbo'yli, Amudaryo, Qizilqum, Nurota, Zarafshon, Aydarkul, Sirdaryo, Chirchiq, Ohangaron, Farg'ona, Turkiston, Qashkadaryo, Hisor, Surxondaryo ekoturistik rayonlari kiritilgan.



6.5.1.-rasm. O'zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari³⁰

Har bir rayon o'zining ekoturistik holati, imkoniyatlari, shart-sharoitlari va rivojlanish istiqbollari nuqtai nazaridan ajralib turadi. Masalan, Ustyurt ekoturistik rayonini oladigan bo'lsak, u O'zbekistonning shimoliy-g'arbliy Qoraqolpog' istonda joylashgan plato bo'lib, uning umumiy maydoni 200 ming km² ni tashkil etadi. Bu joylar dunyoda eng katta va yagona 60-150 metrlik tik qoyali jarlari, davolash xususiyatiga ega bo'lgan juda katta-1000 km tuzli Borsakelmas sho'rxoki bilan mashhur. O'simlik qoplami siyrak, osh tuzi va balchiqli tuzning qatlami 16-27,5 m gacha boradi. Yangi qurib bitkazilgan Qo'ng'irot soda zavodi aynan ana shu tuzlar hisobiga ishlaydi.

Neolit davridan qolgan «Ustyurt makoni» ham noyobdir. Unda 60 ga yaqin qadimiy odamlar yashagan tabiiy ob'ektlar aniqlangan. Ularning ichida ham tarixiy,

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat ko'mitasi ma'lumotlari asosida

ham ekoturistik ahamiyatga moyil «Tempa» makoni bo'lib, undan Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi qadimiy mehnat va ov qurollarini topgan.

Orol va Orolbo'yи ekoturistik rayoni ekologik inqirozli ekoturistik hudud bo'lgani uchun ham ekstremal ekoturistik ob'ekt bo'lib hisoblanadi. Ekoturistik marshrutlar bir paytning o'zida ham Orolning qurigan, ham uning ta'sirida bo'lgan Orol atrofi hududlarini qamrab oladi. Ekoturlar nafaqat trekking (piyoda) yoki tuya va otlarda, balki samolyot va vertolyotlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Amudaryo ekoturistik rayoni. Amudaryoning o'zaniga yaqin sohillarida to'qayzorlar mavjud bo'lib, ular ekoturlar uchun juda qiziqarli noyob landshaft hisoblanadi. Quyi Amudaryoning o'ng sohilida to'qay landshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish uchun Badayto'qay qo'riqxonasi tashkil etilgan. Ornitifaunani saqlash uchun Xorazm buyurtmaxonasi tashkil etilgan. Bulardan tashqari, Qizilqumning g'arbiy qismida, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, kembriy va kembriygacha davrda burmalangan tog' jinslari ochilmalaridan iborat, balandligi 485 metrlik Sulton Uvays tog'lariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Amudaryo rayonida O'zbekistonning ko'hna shaharlaridan biri Xorazm joylashgan, uning arxitektura yodgorliklari tarixiy turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Ekoturlarni tarixiy turlar bilan kompleks olib borish mumkin.

Nurota ekoturistik rayoni o'zining ajoyib tabiat manzaralari, tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan kishilarni maftun etadi. 1975 yilda tashkil etilgan va maydoni 17,8 ming ga bo'lgan Nurota tog' yong'oqzor-meva qo'riqxonasi mavjud. Bu qo'riqxonaga «Ekosan» qoshidagi «Ekosantur» firmasi tomonidan ko'plab marshrutlar uyushtirilgan. Oqtog'ning janubiy yon bag'tida joylashgan shamol ta'sirida tebranib turuvchi bahaybat harsang toshli «Sangijumen», «Koriz qoldiqlar» kabi tabiat yodgorligi ekoturizmning muhim ob'ektlaridan bo'lib hisoblanadi.

Ko'p asrlik ziyoratgoh «Chashma buloq» yaqinida «Chilustun» masjidi, madrasa, Abul Xasan Nuriy maqbarasi va qal'asi joylashgan. Qoratog' tizmasining janubiy yon bag'tida «Sarmish darasi»dagi qoyalarda avlodlarimizning hayoti va madaniyatini aks ettiruvchi lavhalar, rasmlar ishlangan.

Janubiy Nurota tizmasida uzunligi 110 m, absolyut balandligi 1060 m, maydoni 163 m keladigan «Maydon karst g'ori», Shimoliy Nurota tizmasidagi uzunligi 130 m, absolyut balandligi 1100 m, maydoni 70 m keladigan «Xonaixudo karst g'or» da g'orshunoslikni rivojlantirish mumkin. Bulardan tashqari, XI asrda buniyod etilgan va XVIII asr boshlarigacha turgan «Raboti Malik karvonsaroyi» sayyoohlarning to'xtash joyi shuningdek, savdogarlarning savdo qilish joyi bo'lgan. Raboti Malik yonida ming yillik tarixga ega bo'lgan madaniy yodgorlik-sardoba uchraydi. Yer ichiga 12 m botirilgan sardobada butun yoz bo'yи muzdek va toza suv saqlangan.

Zarafshon ekoturistik rayonida Zarafshon daryosi bo'yalarida joylashgan to'qay landshafti, undagi o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun tashkillashtirilgan «Zarafshon qo'riqxonasi» mavjud. Buxoro viloyatining Shofrikon o'rmon xo'jaligi hududida joylashgan qum cho'l landshafti, u yerdagi o'simliklar va hayvonlar hamda tarixiy yodgorliklar (Vardanza shahar harobalari) davlat tomonidan qo'riqlanadi. «Vardanza qo'riqxonasi», «To'dako'l flora va faunasini boyitish buyurtmaxonasi», Qoravulbozor xo'jaligida joylashgan «Jayron-ekomarkazi», suv va botqoqqa moslashgan qushlarni ko'paytiruvchi «Dengizko'l buyurtmaxonasi», Zarafshon tog tizmalaridagi Omonqo'ton va Temurlang karst g'orlari, Zirabuloq-Ziyovuddin tog' tizmalaridagi ko'p qavatli «G'untak g'ori» va boshqalar diqqatga sazovordir.

Turkiston ekoturistik rayonida ekoturlarni alohida muhofaza etiladigan hududlarga uyushtirish mumkin. Chunki bu rayonda Turkiston tizmasining shimoliy yonbag'ida 1959 yilda tashkil etilgan, absolyut balandligi 1760-3500 m, umumi maydoni 21735 ga bo'lgan «Zomin davlat qo'riqxonasi», maydoni 24110 ga bo'lgan noyob tog'-archa ekosistemalarini tiklash va rekreatsiya maqsadlarda foydalanish uchun 1978 yilda tashkil etilgan «Zomin milliy bog'i» mavjud.

Qashkadaryo ekoturistik rayoni cho'l, dasht, tog' oldi va tog'li hududlardan iborat. Bu rayonda yoz va bahor oylarida cho'l va dashtlarda, yilning barcha fasllarida esa tog' oldi va tog'li hududlariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Qashqdaryo rayonida 1979 yilda tashkil etilgan, 3938 ga maydonga ega bo'lgan, MDH davlatlari ichida yagona «Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi», 1992 yilda tashkil etilgan «Muborak buyurtmaxonasi», 1992 yilda tashkil etilgan «Sechenko'l buyurtmaxonasi» mavjud.

Surxondaryo ekoturistik rayonida Ko'hitang tog'li hududda 1987 yilda tashkil etilgan, 53,7 ming ga maydonda 800 xil o'simlik va 290 ta qush hamda 20 dan ortiq hayvon turlarini muhofaza qilishga yo'naltirilgan «Surxon davlat qo'riqxonasi» mavjud. Surxondaryo rayoni Respublikamizning o'ziga xos rayonlaridan biri, bu yerda quruq subtropik iqlim mintaqasi hukmron. Shuning uchun ham yilning ko'p oylarida ekoturlar uyushtirish imkoniyati bor³¹.

Yuqoridaqilardan ko'rinish turibdiki, O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yetarli, imkoniyatlari katta. Ekoturni yilning barcha fasllarida o'tkazish va uni tarixiy, diniy turizm bilan qo'shib olib borish mumkin.

Toshkent shahriga yaqin bo'lgan Xumson-Oqtosh zonasining turistik salohiyati tur mahsulot xizmatlarining narxi uncha baland emasligi va xududning katta imkoniyatlari bilan farqlanadi. Xumsonga qilinadigan tashrifflaming o'rtacha soni har mavsumda 10 ming kishiga yetadi, Xumsonning-Oqtosh zonasiga bir

³¹ O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza kilish Davlat qo'mitasini ma'lumotlari asosida

kunlik tashriflarni ham qo'shib hisoblaganda kamida 120 ming kishiga yetishi mumkin.

Xumson xalqaro turizm yo'nalishida kam tilga olinadi. Chet el sayohatchilar bu yerlarga faqat Toshkentga qilgan tashriflari doirasida kelishadi (ularning ulushi atigi 2% ni tashkil qiladi, bo'lish muddatlari 2 kungacha). Bu hol xalqaro miqyosda reklama ishtari hali to'liq yo'lga qo'yilmaganligini anglatadi. Shu bilan birga, Xumson-Oqtosh turistik zonasiga qiziqish bildiradigan mahalliy turoperatorlar mavjud. Masalan, Asia rast, Ecosan tour, Elena tour, AST, Ark-Osiyo firmalari shular jumlasidandir.

Xumson-Oqtosh zonasasi bo'yicha tavsiya qilinadigan turistik mahsulot yo'nalishlari:

- tog'da otda yurish marshrutlari;
- tog'da piyoda yurish marshrutlari;
- folklor va gastronomiya;
- tabiat qo'yinda hordiq chiqarish, joylarga ekologik turlar uyunshirish;
- baliq ovi, dorivor o'simliklar yig'ish.

Yuqorida ko'rsatilgan marshrutlar o'tkazish uchun eng qulay vaqtlar:

- trekkinglar-aprel-iyun oxiri va sentyabr-oktyabr o'tkalari;
- tog'larga chiqish-may-sentyabr;
- suvda sayr qilish-may-iyul;
- otda sayr qilish iyun-iyul va sentyabr-oktyabr;
- iznes iva sayr qilish-may-oktyabr;
- paraglayding va deltaplenerlik-may-oktyabr;
- tog' chang'isi va taxtalari (snoubording)-yanvar-mart oxiri.

Tayanch so'z va iboralar: ekologik turizm, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, davlat qo'riqxonalari, davlat milliy tabiat bog'lari, davlat buyurtma qo'riqxonalari, davlat tabiat yodgorliklari, botanik bog'lar, davolash-sog'lomlashirish joylari, kurortlar, ilmiy turizm, tabiat tarixini o'rorganish turlari, sarguzasht turizmi, alohida muhofaza etiladigan tabiat hududlarga sayohat (AMETHS), hayvonot dunyosi, o'simlik dunyosi, ekoturistik rayonlar.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Ekoturizm tushunchasiga izoh bering.
2. Ekoturizmai qanday turlari mavjud?
3. Ekoturizmning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
4. O'zbekistonda ekoturizm resurslarini izohlang.
5. O'zbekistonda ekoturizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish nimalardan iborat?

7- MAVZU. ZIYORAT TURIZMI MARKAZLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH RESURSLARI

Reja:

- 7.1.Ziyorat turizmi tushunchasi
- 7.2.Mintaqadagi muqaddas ziyoratgohlar
- 7.3.Islom dini ziyoratgoh markazlari
- 7.4.Mintaqadagi boshqa dinlar ziyoratgohlari
- 7.5.Diniy turizm geografiyasi

7.1. Ziyorat turizmi tushunchasi

Ma'lumki, turistik resurslarning turlari ko'p bo'lib, sayohatdan maqsad asosan tanishuv, dam otish va sog'iomlashtirish, sog'liqnii tiklash va sport hamda diniy ziyorat va boshqa maqsadlarni ko'zda tutadi. Turizmnning qadimiy va aktiv turlaridan biri bu diniy turizm hisoblanadi. Mazkur tarmoqning geografiyasi nazar tashlaydigan bo'lsak, jahonning turli mamlakat, mintaqalarida diniy turistik resurslar turlicha ta'minlangan. Ayni paytda esa hamma joyda ham diniy turistik obektlar mavjud emas. Binobarin, jahon miqiyosidagi, ya'ni dunyo dirlari hisoblangan xristianlik, islam va buddizm hamda mahalliy dirlarga yer shari aholisi e'tiqod qiladi. Diniy ziyorat maqsadida sayohatlar qadimdan rivojlangan, xatto hozirgi kundagi eng aktiv "turmigrsiya" hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha har yili 200 mln.dan ortiq kishilar aynan ziyorat maqsadida jahondagi turli ziyoratgoh, o'zları uchun muqaddas hisoblangan maskanlarga borib, diniy turistik sayohatlarga chiqmoqdalar. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, yiliga 150 mln. xristianlar, 45 mln.musulmonlar, 40 mln. buddistlar, sintoistlar, 30 mln. ipduistlar diniy ziyorat maqsadida sayohat uyuushtirgan (Aleksandrova, 2002). Demak, dunyoda diniy turistik migrasiyasi aktiv hisoblanib, sayohlar asosan ruhan poklanish, buyurilgan amallarni bajarish, muqaddas maskanlarni ziyorat etishadi. Turistik oqimlarga diniy motivasiyalar sezilarli ta'sir o'tkazadi. Diniy turizm ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Ilk sayohatlar to'g'risida ma'lumotlar Antik davrga taaluqlidir. Eng mashhur ilohiy markaz Ollada Delfada joylashgan. U o'z diniy peshvolari bilan umumiyl Gresiya ahamiyatiga ega bo'lgan. Ko'p sonli zohidlar, sayyoohlар bu yerga bashoratchi Pifianing karomatlarini kutish uchun kelishgan.

Diniy motivlar bo'yicha migrasiya O'rta asrlar davriga to'g'ri keladi, u taraqqiy etish davom qildi, yangi qirralar paydo bo'ldi. Ziyorat Solb yurishi shaklida o'ziga xos ommaviy harakater kasb etadi. U shakkoklarga (musulmonlar)

qarshi kurash bayrog'i ostida, xristianlarning muqaddas joylarini ulardan ozod qilish shiori ostida o'tkazilgan.

Ziyorat harakatlari XV va XVI asrlarda sezilarli kengaygan. Uning ko'lami kengayishi bilan oqimlari har xilligi ham kuchaydi. Muqaddas yerga borayotganlarning ko'pchiligi o'z maqsadlari va qiziqishlarini diniy ziyorat bilan niqoblashgan. Ular orasida quddusda Xudo qabriga o'zini bag'ishlagan aslzodalar ham, avliyolik bilmirlarni egallashni orzu qilganlar ham, ijod ahllari ham bo'lgan masalan, Yustus Tepellus va Velgelm Postel – Fransiya qiroli Fransiska II topshirishga ko'ra, Falastinda Parij kutubxonasi uchun qo'lyozmalar yig'ilgan, savdo-sotiq maqsadida sayohatga chiqqan savdogarlar ham bo'lgan.

XIX asrda «Muqaddas sayohatlar» tashkiliy shakl kasb etdi. 1861 yildan boshlab har yili Fransiyada respublika hukumatining cherkovga qarshi jinoyatlari uchun tavba-tazarri qilish belgisi ostida ziyoratchilar karvonni tashkil qilingan. Uning ishtirokchilari soni 300-400 kishiga yetgan. 1870 yillardan oxiridan fransiskachilar Venadan va Myunxendan ham xuddi shunday karvonlar jo'nata boshladilar.

Bugun ham ko'p asrlar avvalgidek diniy e'tiqod sayohat bosh motivlaridan biri hisoblanadi. Har yili 200 mln. kishi dunyo bo'ylab ziyoratga boradi. Ulardan 150 mln. xristianlar, 20-30 mln. hindlar, 40 mln. buddistlar, musulmonlar, sintoiistlar va boshqalardan, ziyoratchilar ruhiy xotirjamlik, og'ir iztiroblardan xolos bo'lish, ma'anviy yaqin kishilari bilan bir bo'lish umidida muqaddas joylarni tavob qiladilar. Ular yashash va bayot mazmunini ato etgan yaratganga shukrona aytish uchun yo'lga otlanadilar. Bu bilan o'z imon – e'tiqodlariga sodiq ekanliklarini izhor qiladilar.

Ziyoratchining keng va xilma-xil geografiyasini o'rganish uchun rayonlashtirishdan foydalaniлади. Jahonda ziyoratning 11 makro hududi ajralib turadi:

- Xristian Yevropasi;
- xristianlik va boshqa ko'psonli dinlar bilan mustahkam o'rinnegallovchi Shimoliy Amerika;
- Xristianlik va an'anviy dinlar bilan Lotin Amerikasi;
- Islomni qabul qilgan Shimoliy Afrika;
- Islom hukmon va alohida xristianlik va an'anviy dinlar mavjud g'arbiy va Sharqiy Afrika;
- Buddizm islom, xristianlik va hinduzimni egallagan Janubiy-Sharqiy Osiyo;
- Buddizm bilan (asosan lamaizm) mustahkamlangan Markaziy Osiyo;
- Islom hukmon O'rta Osiyo;
- G'arbiy Osiyo islom va xristianlik, iudizm bilan mustahkamlangan;

- Janubiy Osiyo iudizm va buddizm tarqalgan, shuningdek xristianlik, jaynizm, sikkizm va islam mavjud.

Har bir makrohudud eng avvalo ziyoratning jahoniy markazlari bilan mashhur. Ular e'tiqodchilarning xalqaro oqimini qabul, qiladilar va ko'pincha diniy ixtisoslashtirishning ma'muriy, sanoat, madaniy va turistik markazlari funksiyalari bilan qo'shilib ketadilar. Bundan tashqari, makrohududlarda milliy va mahalliy ahamiyatga ega diniy sig'inish obektlari mavjud. Quddus-jahonning yirik diniy markazi. Quddus uch din e'tiqodchilari islam, xristianlik, iudizm uchun muqaddas markaz. Jahon ilohiy markazlari orasida alohida o'rin egallaydi. Iudizmga sig'inuvchi yaxudiylar, ancha ilgarigi monoteist dinlaridandir. Ulardan ko'pchilik xristianlikka mansub – muqaddas toqqa, yig'i devorlariga boradilar. Bu yerda devor oldidagi uncha katta bo'limgan maydonda ular qachonlardir arablar tomonidan vayron qilingan ibodatxonaga qatg'u bildirdilar. Qora kiyingan ziyoratchilar qo'l ushlashib bir ohangda chayqalgan holda Xudo Yaxvega iltijo bilan murojat qiladilar. Xristianlar uchun quddus Iso payg'ambarni yerda bo'lishi bilan bog'liq. Ularning ziyorat programmasida eng muhim manzil tirilish ibodatxonasi:

- jahon xristian olamining bosh muqaddas joyi hisoblanadi. Har bir sig'inuvchi bu ibodatxonaga tashrif buyurishga intiladi. Uning Golgofe butiga, Pomozoniya toshiga, tangrining tiriklik nishon tobutiga sajda qiladilar. Xudoning o'g'li dafn etilgan joy ramzi;
- xochga mixlangan siymo turli xristian ibodatlari buyumlari bilan zinch qurshalgan. Rim katoliklari xudoga qayg'uli sukutda turgan armon ruhoniylari qatorida toat-ibodat qiladilar. Xuddi shu yerda suriyalik sig'inuvchilarning shivirlab ibodat qilganlari eshitilib qoladi.

Ruhiy hotirjamlikka limmo-lim qalb va xor qo'shiqning Afrika ohanglariga xos ovozi ostida efiopiyaliklar o'z marosimlarini bajo keltirishadi. Boshqa qo'shni joylashgan xorda greklar ibodat qiladilar. Hech kim, hech kimga halaqit bermaydi, hammaning diqqati o'z ibodatiga qaratilgan. Musulmonlar quddusda o'z bayrog'lariga ega. Ular to'planadigan joy – bizning ko'plargacha saqlanib qolgan ilohiy inshooti – Umar mochiti hisoblanadi. Gumbazi muqaddas qoya timsoli, diniy tasavvurlarga ko'ra Muhammad payg'ambar undan arsh-a'loga ko'tarilib ketgan. Muazzaining dinamiklar yordamida kuchaytirilgan ovozi har kuni besh marotaba qadam shahar o'zra yangrab musulmonlarni namozga chorlaydi.

Bu makromintaqalarni biz mavjud diniy ziyoratgohlar salohiyatidan kelib chiqqan holda ajratdik. Ular ichida eng muhim mintaqqa Yevropada Vatikan, G'arbiy Osiyoda Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina va Quddus shaharlari hisoblanadi. O'rta Osiyda esa O'zbekistonning qadimiy Buxoro va Samarcand, Toshkent, Termiz, Xiva va boshqa shaharlarda diniy turistik resurslar mavjud.

7.2. Mintaqadagi muqaddas ziyoratgohlar

Darhaqiqat, O'zbekiston turistik resurslarning boyligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda diniy turizm, ya'ni aziz qadamjolarni ziyorat qilish maskanlariga juda boy hisoblanadi. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O'zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko'p. Ko'pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta'mirlanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G'ijduvoniy, Imom al-Buhariy, Mahtumi A'zam, Shohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termiziyy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralarini musulmon ahlining beqiyos, go'zal ziyorat qiladigan va ma'naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi. Ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga egadir. Chunki, bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi. Shu sababli ziyorat qilish uchun qulay shart - sharoit yaratish, ya'ni infratuzilmani shakllantirish bugungi kunning muhim masalasi hisolanadi. Bu yerda asosiy vazifa xorij mamlakatlar fuqarolarining ortiqcha qiyinchiliklarsiz ziyorat qilib ketishlariga erishishimizdir. Buning uchun Samarqand shahri aeroportini jahon andozalariga yarasha bo'lishi, masalani asosiy yechimidir.

Mustaqallik yillarida diniy qadamjolarga davlat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Buyuk ajodolarimiz qo'nim topgan maskanlarni qayta tiklash, obodonlashtirish, ta'mirlashga jiddiy e'tibor bergenligi tufayli ziyoratgoh maskanlar 1.5 mlrd. Musulmon dunyosini o'ziga tortmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda diniy turizmni hududiy tashkil etish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Xususan, Janubi – Sharqiy Osiyo va G'arbiy Osiyo mamlakatlari ziyoratchilarni jaib etish maqsadida tadbirlar ishlab chiqish kerak. Buning uchun har bir viloyat, tuman va qishloqlardagi kishilar tomonidan muqaddas hisoblanib kelinayotgan ziyoratgohlarni aniqlash, umumilashtirish, respublika va viloyat diniy turistik kartalarini yaratish hamda ziyoratchilarga zarur sharoitlar yaratish, yo'l qurish, transport imkoniyatlarni o'rganish maqsadida muvofiq deb hisoblaymiz.

Diniy ziyoratgohlar kam mablag' hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. Mamlakatimizning barcha viloyatlaridan o'nlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud. Ammo ularni ziyorat etish marshrutlari aniq tuzilmagan. Achinarli holat shundaki, islam dunyosida katta xizmat qilagn, avliyo darajasiga ko'tarilgan siymolarimiz abadiy qo'nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya'ni tuman yoki viloyat miqiyosidagi bilamiz, xolos. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh obektlariga aylantirish mumkin.

Xulosa o'mida shuni aytish lozimki, diniy turizm hamma vaqt sayohatning eng aktiv turi bo'lib kelgan. Insoniyat borki, u e'tiqod qiladi, sig'inadi, ruhan va ma'naviy jihatdan poklanishga harakat qiladi. Shuning uchun u diniy ziyyaratni hoxlaydi. Buning uchun muqaddas ziyyaratgoh bo'lishi shart. Vaholanki, mamlakatimiz diniy ziyyaratgohlarga boy mintaqaga hisoblanib, kelajakda diniy turizmni rivojlantirishga yanada e'tiborni yanada kuchaytirish ham moddiy, ham ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

7.3. Islom dini ziyyaratgoh va markazlari

Hozirgi kunda xalqaro turizminning eng muhim tarmoqlaridan biri diniy ya'ni ziyyoratchilik turizmi bo'lib hisoblanadi. Ziyyoratchilik turizmning shakllanish tarixi uzoq o'tmishtga borib taqaladi. Ya'ni uning ilk bor vujudga kelishi antik davriga to'g'ri keladi. Ziyyoratchilik turizmning asosiy paydo bo'lgan maskanlari qadimgi greklar va rimliklar vatani bo'lib hisoblanadi. Qadimga greklar va rimliklar ibodatxonalar va cherkovlar qurib, ularda sig'inishganlar. Ziyyoratchilarining sayyohat qilishidan asosiy mahsadi aziz avliyo joylarga qadam ranjida qilishi, sig'inish chog'ida ruhiy jihatdan yengillashishi, ko'ngillarning poklanishi, og'ir kasalliklardan xolos bo'lmoqligi, qilib quygan gunoh ishlarini ollohdan so'rab kechirishlarini, safar chog'ida safdoshlari bilan ma'naviy yaqinlikda bo'lishni orzu-umid qilishadilar. Ziyyoratchi sayyohlar safarga chiqishida o'z orzu umidlariga erishish, yaratganga shukronlar aytib uning izzat hurmatini bajo keltirishni o'z ko'ngillaridan o'tkazadilar.

Hozirgi kunga kelib dunyoda ziyyoratchilik sayyohligining 10 dan ortiq yirik markazlari mavjud bo'lib, ular yer shuning deyarli hamma qit'alarida joylashgandir.

Musulmon olamida, ziyyarat qilish makonlari ham anchagina, Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa jonajon O'zbekistonimizda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyyarat maskanlari beqiyos ko'p. Ular qatoriga Janubiy Qozog'iston viloyati, Turkiston shahridagi Axmad Yassaviy maqbarasi; Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Zangiota majmuasi; Toshkent shahridagi Shayx Nivanda Taxur maqbarasi, Qaldirk'och-biya maqbarasi, Yunusxon maqbarasi; Hazrati Imam majmuasi; Abubakr Muhammad Kaffal Shashi maqbarasi; Shayx Zayniddin bobo maqbarasi; Samargand viloyati Payariq tumani Hartang qishlog'idagi Imam Al-Buxoriy majmuasi; Oqdaryo tumani Dahbed qo'rg'onidagi Maxtumi A'zam maqbarasi; Samargand shahridagi Shohi Zinda. Amir Temur, Ruhobod, Xo'ja Doniyor, Motrudiy, Murod avliyo, Xo'ja Axror Vali, Oq saroy, Ch'oponota maqbaralari; Buxoro shahridagi - Ismoil Samoniy, Chashmai Ayub, Sadriddin Buharzi, Bohovuddin Naqshbandiy, Buyon Kulixon, Chor Bakr

maqbaralari; Xorazm viloyatida Uch avliyo, Said Allovuddin maqbarasi; Qashqadaryo viloyatida—Jahongir, Dorus Saodat, Dorut Tilovat majmuasi, Ko'k gumbaz masjidi; Surxondaryo viloyatida - Hakim at-Termiziy majmuasi; Sulton Saodat ibodatxonona yodgorligi, Fayoztepa ibodatxonasi; Jizzax viloyatida—Sadr Vaxs avliyo (Avliyoota) majmuasi; Farg'ona viloyatida Daxmon Shaxon go'rxonasi, Mozorixon maqbarasi kabilar ziyoratchi sayyoohlarni o'ziga jalb qilib keladigan maskanlar bo'lib hisoblanadi. O'zbekistondagi islam obidalari to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarni 3-ilovadan olishingiz mumkin.

7.4. Diniy turizm geografiyasi

Diniy turizm tarixi. Hozirgi kunda xalqaro turizmnning eng muhim tarmoqlaridan biri diniy ya'ni ziyoratchilik turizmi bo'lib hisoblanadi. Diniy turizmnning shakllanish tarixi uzoq o'tmishga yaqin antik davriga to'g'ri keladi. Diniy turizmnning asosiy paydo bo'lgan maskanları qadimgi greklar va rimliklar vatani bo'lib hisoblanadi. Qadimda greklar va rimliklar ibodatxonalar va cherkovlar qurib, ularda sig'inishganlar. Ellada (Gresiya)ning eng mashhur ibodatxonasi birinchi bor **Delfax** shahrida qurilgan. Ushbu ibodatxonona butun greklar olamida eng mashhur va u guyoki har qanday savolga tangri nomidan qat'iy javob beruvchi karomatli kohin, sajdagoh maskani bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, minglab darvishlar mana shu ibodatxonaga kelishib, o'zlarini qurban qiluvchi majusiyalar ruxoniysi avliyo Pifining bashoratlarini tinglashganlar.

O'rta asrlar davriga kelib, diniy turizm migratsiyasi yangicha tus ola boshladi. Muqaddas diniy sajdagoh joylarga borib ziyorat qilib kelish ommaviy tus olib, salb yurishlari kabi shaklga aylanib ketdilar. Ayniqsa, ziyorat qilish harakati XV asr oxiri va XVI asr boshlariga kelib eng yuqori darajaga ko'tarildi. Ziyoratchilik doirasining o'sishi bilan birga uning turli oqimlari ham kuchaya bordi. Shu bilan birgalikda ziyoratchilar tarkibi ham xilma-xil bo'lib, unda diniy etiqodga amal qiluvchi kishilar bilan bir qatorda, turli xil kasbkor, mansabdor, kishilar ham ishtirok etaboshlaganlar. Ziyoratchi-hojilar o'rtasida oqsuyaklar, ritsarlar (olijanob odamlar), sayohatchilar, harbiylar, ijodkorlar, hukumat idorasi xodimlari, savdogarlar, qolaversa oddiy kishilar qatnashganlar.

XIX asrga kelib diniy turizm uyushgan holdagi shaklga ega bo'la boshladi. Ma'lumotlarga ko'ra, ziyorat qilib keluvehilar soni tobora ko'paya borib, birgina Fransiyada 1861 yilda 300-400 ming kishiga yetgan. 1870 yil oxirlarida uyushgan holdagi ziyoratchilik oqimi Yevropaning Avstriya, Germaniya kabi bir necha mamlakatlarida ham keng rivojlana bordi.

Hozirgi kunga kelib, yer kurrasining turli xil mintaqalarida, ko'p asrlar oldingi singari, diniy qadamjolarga borib sig'inadigan sayyoohlarni soni tobora

ko'payib bermoqda. Har yili butun yer yuzasi bo'yicha 200 mln. dan ortiq kishilar turli xil diniy haj safarlariga borib ziyorat qilib kelishadilar. Shulardan 150 mln. dan ortiq xristianlar, 20-30 mln. atrofida induistlar, 40 mln. dan ko'proq musulmonlar, buddistlar, sintoistlar va boshqalar ishtirok etadilar.

Ziyoratchilarning sayyohat qilishidan asosiy mahsadi aziz avliyo joylarga qadam ranjida qilishi, sig'inish chog'ida ruhiy jihatdan yengillashishi, ko'ngillarning poklanishi, og'ir kasalliklardan xolos bo'lmoqligi, qilib quygan gunoh ishlarini ollohdan so'rab kechirishlarini, safar chog'ida safdoshlari bilan ma'naviy yaqinlikda bo'lishni orzu-umid qilishadilar. Ziyoratchi sayyohlar safarga chiqishida o'z orzu umidlariga erishish, yaratganga shukronlar aytib uning izzat hurmatini baho keltirishni o'z ko'ngillaridan o'tkazadilar.

Hozirgi kunga kelib dunyoda ziyoratchilik sayyohligining 10 dan ortiq yirik markazlari mavjud bo'lib, ular yer sharining deyarli hamma qit'alarida joylashgan:

- Xristian Yevropasi;
- Xristianlik va boshqa ko'psonli dinlar bilan mustahkam o'rin egallovchi Shimoliy Amerika;
- Xristianlik va an'anviy dinlar bilan Lotin Amerikasi;
- Islomni qabul qilgan Shimoliy Afrika;
- Islom hukmron va alohida xristianlik va an'anaviy dinlar mavjud G'arbiy va Sharqiy Afrika;
- Buddizm, islam, xristianlik va hinduzimni egallagan Janubiy-Sharqiy Osiyo;
- Buddizm bilan (asosan lamaizm) mustahkamlangan Markaziy Osiyo;
- Islom hukmron O'rta Osiyo;
- Islom va xristianlik, iudizm bilan mustahkamlangan G'arbiy Osiyo;
- Iudizm va buddizm tarqalgan, shuningdek xristianlik, jaynizm, sikxizm va islam mavjud Janubiy Osiyo.

Har bir makrohudud eng avvalo ziyoratning jahoniy markazlari bilan mashhur. Ular e'tiqodchilarning xalqaro oqimini qabul qildilar va ko'pincha diniy ixtisoslashtirishning ma'muriy, sanoat, madaniy va turistik markazlari funksiyalari bilan qo'shib ketadilar. Bundan tashqari, makrohududlarda milliy va mahalliy ahamiyatga ega diniy sig'inish ob'ektlari mavjud.

Yer sharida eng qadimiy va yirik diniy markazlardan biri Yaqin Sharqda joylashgan Iordaniya davlatining Ierusalm (Quddus) shahri bo'lib hisoblanadi. Iordan daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgan ushbu hudud 1967 yil iyun oyida Isroil tomonidan bosib olingan. U hanuzga qadar Iordaniyaga qaytarib berilmasdan kelmoqda.

Ma'llumki, Ierusalim shahri uchta, ya'ni xristian, islam va iudaizm dinlarining kelib chiqishi va asoslanishi markazi bo'lib hisoblanadi. U dunyodagi ibodat qilish markazlari o'ttasida alohida o'tin ni egallaydi. Shaharning o'tmish tarixi uzoq-uzoqlarga borib taqaladi. Bu yerda ilk bor iudaizm diniga e'tiqod qiluvchi monoteist (bir xudolik, ya'ni xudoni bitta deb biluvchi) din tarafdarlari, undan keyin xristian va islam dini kelib chiqqanligidan dalolat beradilar.

Ierusalim xristian diniga e'tiqod qiluvchilar uchun muqaddas shahar bo'lib hisoblanadi. Shaharda eng yirik ziyyarat qiluvchi joy bu-Voskreseniya (Qayta tug'ilish) ibodatxonasiidir. Bu ibodatxona butun dunyo xristianlar olami e'tiqod qiluvchilarining muqaddas sig'inishadigan joyi bo'lib hisoblanadi. Har bir qadam ranjida qiladigan sayyoh ushbu ibodatxonaga albatta tashrif buyurishga harakat qilishadi. Bu yerga kelgan sayyoohlар muqaddas Golgofega sajda qilish, Pomozoniya toshlariga va manzarali Olloh qabriga sig'inish, sajda qilish kabi amallarni bajarishadilar. Bu ibodatxonaga turli tuman millat vakillari, jumladan, yahudiylar, armanlar, suriyaliklar, habashlar, greklar, italiyanlar, fransuzlar, nemislar, ruslar va qotaversa butun yevropa millat vakillari-e'tiqodchilar kelishib sig'inadilar.

Ierusalim shahriga tashrif buyurgan sayyoohlarda Pasxa (yahudiylar va xristianlarning diniy bayrami) arafasida Voskreseniya ibodatxonasida “**Farovon olovni yoqish**” marosimida qatnashish katta ta'surot qoldiradi. E'tiqodchilar uchun ushbu voqeada ishtirok etish juda katta ma'noni anglatib, Olloh kishilar uchun yana bir marta hayot hadya etishi demakdir.

Musulmon diniga e'tiqod qiluvchilar ham Ierusalim shahrida o'zlarining sig'inishadigan joylariga ega bo'lib, u eng qadimgi Umar masjididir. Ushbu masjid islam dinidagi eng ilk bor qurilgan va sig'inadigan qadamjolardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda ham unda 5 martadan iborat nomoz o'qilib kelinmoqda.

Xristian dini markazlari. Hozirgi kunda xristianlar diniga mansub bo'lgan yer yuzasidagi xalqlarning muqaddas sig'inishadigan joylari juda ko'p bo'lib, ularning aksariyat qismi Yevropada Rim (Italiya), Parij va Lura (Fransiya), Fotima (Portugaliya), Varshava (Polsha), Monserrat (Ispaniya) shaharlariда joylashgandir.

Xristianlarda eng qadrli sajdahohlaridan biri - bu Parij shahridagi **Notr-Dam** ibodatxonasi bo'lib hisoblanadi. Bu ibodatxona liusus Xristosning chillak qilinishi va o'limi bilan bog'liq muqaddas joy bo'lib, butun Fransiya sayyoohlarni o'ziga jalb etuvchi maskan bo'lib hisoblanadi. Notr-Dam ibodatxonasi butunlay tog'olcha daraxti materialidan yasalgan katta bir koshonadir. 1985 yildan boshlab bu yerda har yili butunjahon xristian yoshlarining kuni o'tkazilib kelinmoqda.

Ushbu yoshlar forumiga marhum Rim papasi Ioanna Pavel II temonidan 1985 yili asos solingan edi. Har yili bu yerga katolik diniga e'tiqod qiluvchi 500 mingdan ortiq talaba yoshlar tashrif buyurishadilar va sig'inishadilar.

Yevropadagi eng yirik diniy markazlaridan yana biri Rim shahri bo'lib hisoblanadi. Bu qadim shaharda dunyoga mashhur saborlar joylashgan. Ulardan bir San -Javanni in - Laterano IV asrda bunyod etilgan. Uni «Rimdag'i va Yerdagi barcha cherkovlarning onasi» deb ulug'lashadi. Unda Muqaddas yodgorliklar jamlangan: avliyo Petr va Pavel boshlari, iudey Nuh payg'ambari, Aaronning muqaddas temir tayog'i, Mariyaning yoping'ichi, Sirli oqshomlar o'tkazilgan stol qismi, «haqiqiy xoch» ustuni shular jumlasidandir. Bizning davrimizgacha tabarruk zinapoya saqlanib qolgan. U Ierusalimning Pilat saroyidan olib kelingan. Rivoyatlarga ko'ra, undan Iso payg'ambarni qatl etishga olib chiqishganmish. 28 marmar zinalaridan faqat tizzalarni bukibgina ko'tarilish mumkin. Hozirgi vaqtida San-Javanni in-Laterano Rim kafedral sabori hisoblanadi.

Rimdan tashqarida Vatikan shahar-davlati joylashgan. U katolik cherkovlari markazi, uning rahbari Rim papasining qarorgohi hisoblanadi. Vatikanda madaniyatning bebaho xazinalari to'plangan. Jumladan Avliyo Petr sabori o'zining ulug'vorligi bilan kishini hayratga soladi. Bu yerga dunyoning hamma tomonlaridan ziyoratchilar oqib keladi. Uдумга ко'ра ular yo'l ko'rsatuvchi Avliyolar mashhur xaykallari poyini o'pib, tavos qiladilar. Katolik bayrami - Pasxa kunlari ayniqsa Vatikan gavjum bo'ladi. Papa Avliyo Negra maydoniga to'planganlarga xudodan ezungulik tilaydi. Uning ta'sirli nutqi toat-ibodat ruhiga singib dinga e'tiqod qiluvchilarni chuqur hayajonga soladi. Barcha katoliklarning Oliy martabali Otasi ilohiy so'zlarini jon quloqlarini berib tinglashadi.

Yuqorida tilga olingen xristian muqaddas yodgorliklari va udumlari va udumlari ro'yxati shular bilan tugamaydi. Ilohiy sig'inish joylari va buyumlari xilma-xilligi, soni bo'yicha dunyoning biror boshqa dini xristianlikka teng kelmaydi.

Shuni qayd qilish kerakki, hozirgi kunda ham Yevropaning boshqa hududlarida ham, jumladan Belgiyaning Bryuge, Italiyaning Turin, Fransyaning Lurd, Polshaning Yasna-Guru shaharlaridagi muqaddas qadamjo joylar xristian diniga e'tiqod qiluvchi millionlab ziyoratchi sayyohlarni o'ziga jalb qilib kelmoqdalar.

Rivoyatlarga ko'ra, Iiusus Xristos vafotidan so'ng uning jasadi zig'ir tolasidan to'qilgan matolarga o'talib, xushbuy hid tarqatuvchi mirra smolasi va zaytun yog'iga shmdirilib qoyadagi g'orga joylashtirilgan. Kafan ehtiyyotkorlik bilan saqlanganligi sababli xristianlar unga muqaddas tabarruk sifatida hanuzgacha sig'inib kelmoqdalar. XIX asr o'rtalariga kelib, Iiusus Xristosga ta'luqli 42 donadan iborat asl nusxaga ega bo'lgan kiyim kechaklar: yelkaga tashlanadigan, yengsiz kamzullar ham saqlanib qolgan. Hozirgi kunda bu kamzullar Italiyaning Turin shahridagi bosh soborida kumush bilan zirhlangan nafis sandiqchada hamon saqlanib kelinmoqda. U har 25 yil mobaynida bir marta xalq ommasi oldida

namoyish etiladi. Bunday paytlarda Turin shahriga 3 mln. ga yaqin ziyyoratchilar kelishadi. Tabarruk narsaning oxirgi marotaba namoyish amallari 2003 yilda o'tkazilgan. Uni ko'rish uchun kishilar 15-16 soatdan ortiq navbat kutishadilar.

Boshqa bir muqaddas narsa Iiusus Xristosga tegishli «qon tomchisi» bo'lib, u Belgiyaning Bryuge-shahridagi ibodatxonada saqlanib kelinmoqda. O'z vaqtida bu tabarruk narsani Ierusalim patriarxi (ruhoniysi) Belgiyalik graf Geri Elzasskiyga sovg'a sifatida hadya qilingan. Hozirgi paytda har juma kuni muqaddas «qon tomchisi» billurdan yasalgan maxsus idishda “Qon kuni” bayramida ommaga namoyish qilinadi va ziyyoratchilar tomonidan tavob etiladi. Bayram tantanalarini butun Bryuge shahri ko'chalari bo'ylab o'tkaziladi va unda o'n minglab ziyyoratchi-sayyoohlar qatnashadilar.

Buddizm dini markazi. Buddizm dini o'zining keng ko'lamligi jihatidan dunyoda xristian va islam dinlaridan keyin uchinchi o'rinni egallaydi. Buddizm ilk bor qadimgi Hindiston hududida eramizdan oldin VI-V asrlarda paydo bo'lgan. Keyinchalik u Janubiy Sharqiy Osiyo, Markaziy Osiyo qisman O'rta Osiyo va Sibirga tarqalgan. Hozirgi kunda buddizm diniga e'tiqod qiluvchilar Xitoydagagi Himolay tog'ida joylashgan muqaddas Lxasa shahriga qadamjo qilishadilar. Shahar dengiz sathidan 3650 metr balandlikda joylashgan bo'lib, u yerda **Dalay-Lama** monastri va juda katta saroy joylashgan. Ushbu saroy XVII asrda qurilgan bo'lib, mingdan ortiq xonalardan iborat. Saroyda o'n mingga yaqin sig'inadigan narsalar va 20 mingdan ortiq turli xil haykallar mavjud. Dalay-Lama saroyida butunjahon buddizm dini boshqarmasi joylashgan.

Buddizm dinining ikkinchi bir muqaddas, sajdagoh markazi Shri Lanka davlatining **Kandi** shahrida joylashgan. Shaharning markaziy qismida **Dalida Maligava** ibodatxonasi joylashgan bo'lib, unda Buddaning chap qoziq tishi hanuzgacha saqlanib kelinmoqda. Rivoyatlarga ko'ra, Buddani olovda kuydirish (krematsiya qilish) chog'ida uning shogirdlaridan biri tishini sug'urib oladi. Ushbu tish Hindistonda sakkiz asr davomida saqlanadi va hind malikasi Xemalakta xonim tomonidan yashirincha Shri-Lankaga olib kelinadi. Buddaning tishi muqaddas va mujiza sifatida hamon saqlanib kelinmoqda.

Har yili iyul oyining oxiri va avgust oyи boshlarida Kandi shahrida “Tish marosimi” bayrami o'tkaziladi va u bezatilgan fillarda butun shahar ko'chalari bo'ylab tantanali ravishda namoyish etiladi. “Tish marosimi” bayrami butun dunyo bo'yicha buddizm diniga e'tiqod qiluvchi ziyyoratchi sayyoohlar bilan to'lib-toshib ketadi va ushbu tantanalar qariyib o'n kun davom etadi.

Buddizm dinida haykallarga ham sig'inish va sajda qilish keng tarqalgan. Masalan, Yaponiyaning Osakadan uncha uzoqda bo'lmagan **Nara** shahrida Todayzi ibodatxonasi bo'lib, unda dunyoga mashhur bo'lgan **Buyuk Buddha** bronza haykali

mavjud. Uning balandligi 16 metrga yetadi. Ushbu muqaddas sajdahogha keladigan sayyoohlari soni beqiyos ko'pdir.

Musulmonlar dini markazi. Saudiya Arabistoniga yarim orolda joylashgan bo'lib, u uch tomonidan Arab dengizi, Qizil dengiz Fors ko'rfa zining suvlari bilan yuvilib turadi. Bu hudud g'oyat xosiyatli o'lka bo'lib, yer yuzida birinchi inson sivilizatsiyasining qadimiy markazlaridan biridir. Yarim orolinining aksariyat qismini sahro va cho'llar tashkil qildi. Lekin oz bo'lsada, unumsiz dashtu, sahroda obod vohalar, ensiz hosildor yerlar ham uchraydi.



Qizil dengiz sohili bo'ylab cho'zilib yotgan Hijoz o'lkasi o'zining ikki shahri **Makka** va **Madina** bilan dunyoga dong taratgan. Bu yerga dunyoning to'rt tomonidan musulmon diniga e'tiqod qiluvchilar Makka shahriga ziyyaratga—**Hajga** kelishadilar. Bekaa vodiysida joylashgan Makka—Muhammad payg'ambarning tug'ilib, o'sgan shaharidir. Shahar o'zining «**Ka'ba**» deb atalmish qadimiy muqaddas imorati bilan mashhurdir. «Ka'ba» ya'ni «Xudoning uyi» deb ataladi. Rivoyatlarga qaraganda, uni Odam Ato bunyod etgan, amma imorat bir necha marta vayron bo'lgan va qaytadan tiklangan.


Bir qancha asrlar o'tgandan keyin. Ibrohim payg'ambar (uni xristianlar Abraham deyishadi) Makka shahriga qadam qo'yadi va o'z qo'li bilan «Ka'ba»ni qayta quradi. Uning ichki qismiga Tangri tomonidan osmonu falakdan tashlangan meteorit toshni joylashtiradi. Bino to'g'ri to'rt burchakli bo'lib qad ko'taradi. «Ka'ba» joylashgan maydon «Haram» yoki «Muqaddas makon» deb yuritiladi. Meteorit toshni arablar «Hojar-al-Asvad» yoki «Muqaddas Qora Tosh» deb ataydilar.

Makka shahriga tashrif buyurgan ziyoratchilar Ka'baning atrofida uning Qora Tosh quyilgan burchagidan boshlab yetti marotaba aylanib o'tishadi va tavob qilishadi. Ziyoratchilar so'ngra yetti bor Safo tog'iga, yetti bor Ma'vo tog'iga chiqishadilar. Undan so'ng Arofat tog'iga tashrif byurib, haj amallarini bajarib qaytishadilar.



Muqaddas – «Ka'ba» joylashgan maydonda Saudiya Arabistonni podshohligi tomonidan qurilgan musulmon olamidagi eng katta mujizakor "Al-Haram" masjidi qad ko'targan. Har yili bu yerda Qurbon hayiti (bayrami) o'tkaziladigan tantanalarda qatnashish uchun kelgan ziyoratchilarning umumiy soni 2 mln. kishidan oshib ketadi.

Madina-Muhammad payg'ambarning dafn etilgan shahri bo'lib, El-Hamd vohasida joylashgan. Ziyoratchilar haj amallarini bajarib bo'lganlaridan keyin payg'ambar qabirini ziyorat qilish uchun Madina shahriga tashrif buyurishadilar.



Shuni qayd etish joizki, musulmon olamida ziyorat qilish makonlari ham anchagini. Jumladan, Markaziy Osiyoda, qolaversa O'zbekiston Respublikasida ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari beqiyos ko'p. Ular qatoriga Janubiy Qozog'iston viloyati, Turkiston shahridagi Axmad Yassaviy maqbarasi; Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Zangiota majmuasi; Toshkent shahridagi Shayx Xivanda Taxur maqbarasi, Qaldirk'och-biya maqbarasi, Yunusxon maqbarasi; Hazrati Imam majmuasi; Abubakr Muhammad Kaffal Shashi maqbarasi; Shayx Zayniddin bobo maqbarasi; Samarqand viloyati Payariq tumani Hartang qishlog'idagi Imam Al-Buxoriy majmuasi; Oqdaryo tumani Dahbed qo'rg'onidagi Maxtumi A'zam maqbarasi; Samarqand shahridagi Shohi Zinda, Amir Temur, Ruhobod, Xo'ja Doniyor, Motrudiy, Murod avliyo, Xo'ja Axror Vali, Oq saroy, Cho'ponota maqbaralari; Buxoro shahridagi Ismoil Samoniy, Chashmai Ayub, Sadreddin Buharzi, Bohovuddin Naqshbandiy, Buyon Kulixon, Chor Bakr maqbaralari; Xorazm viloyatida Uch avliyo, Said Allovuddin maqbarasi; Qashqadaryo viloyatida-Jahongir, Dorus Saodat, Dorut Tilovat majmuasi, Ko'k gumbaz masjidi; Surxondaryo viloyatida - Hakim at-Termiziyy majmuasi; Sulton Saodat ibodatxona yodgorligi, Fayoztepa ibodatxonasi; Jizzax viloyatida Sadr Vaxs avliyo (Avliyoota) majmuasi; Farg'ona viloyatida Daxmon Shaxon go'rxonasi, Mozorixon maqbarasi kabilar ziyoratchi sayyohlarni o'ziga jalb qilib keladigan maskanlar bo'lib hisoblanadi.

Mustaqillik yillarda juda ko'pgina aziz, avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan ta'mirlanib, asl holatiga keltirildi. Ushbu qadamjo joylar xushmanzara, obod, ziyoratgoh maskanlarga aylantirildi. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G'ijduvoniy, Imam al-Buhariy, Mahtumi A'zam, Shohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termiziyy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining beqiyos, go'zal ziyorat qiladigan va ma'naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi.

Tayanch so'z va iboralar: diniy turizm, ziyorat, turistik resurslar, turmigratsiya, diniy turistik obektlar, diniy motivlar, islam, xristian, buddizm, zardushtiylik, judaizm, sikxizm, jaynizm, sintoizm, Delfax, Quddus, ibodatxona, masjid, suniy, shiya, protestant, provaslav, katolik, "Voskreseniya (Qayta tug'ilish)", "Farovon olovni yoqish", "Haj safari", "Ka'ba".

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Iyorat turizmi to'g'risida tushuncha bering.
2. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari qanday?
3. O'zbekistonning islam obidalariga ta'rif bering.
4. O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish masalasida qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?

8- MAVZU. MINTAQALarda QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISH RESURSLARI

Reja:

- 8.1. Qishloq turizmi tushunchasi va turlari**
- 8.2. Qishloq turizmini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari**
- 8.3. O'zbekistonda qishloq turizmi resurslari va imkoniyatlari**

8.1. Qishloq turizmi tushunchasi va turlari

Hozirgi davrning muhim masalasi iqtisodiyotni rivojlantirish, aholini ijtimoiy – iqtisodiy ahvolini yaxshilashdir. Respublikamiz aholisining 60% dan ortiq qismi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Shuning uchun mehnat resurslariga boy hisoblangan qishloq joylarida yangi ish o'rinalarini ochish, aholini faravon yashashida asosiy omil bo'lib hisoblnadi. Bu borada 2007 yil 12 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yilda ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2007 yil iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'naliishlariga bag'ishlangan majlisida O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimovning «Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir» deb nomlangan nutqida qishloq aholisini yashash tarzini yanada yaxshilash, buning uchun yangi ish o'rinalarini ochish muhimligini ta'kidladilar.

Bugungi kunda turizm jahondagi eng ko'p foyda keltiruvchi biznes ko'rinishlaridan biriga aylangan. U bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, danyoning ko'pgina mamlakatlarida tezkorlik bilan rivojlanib horayotgan tarmoqqa aylandi. Turizm sohasi jahon xo'jaligining transport, aloqa, savdo-sotiq, qurilish industriyasi, qishloq xo'jaligi, iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari bilan chambarchas holda rivojlanib, jahon iqtisodiyotida o'z o'miga ega bo'lmoqda.

Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o'zining munosib o'miga ega bo'llishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Respublikamiz tarixiy, arxeologik, arxitektura, san'at va boshqa turistik resurslarga boy hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatimizning betakror tabiat, tog' va tekisligi, daryolari, cho'l va vaholari, turli landshaft zonalari asosiy rekreasiya resurslaridir. Mamlakatimizda yosh tarmoq hisoblangan turizm, kundan kunga rivojlanmoqda. Bu esa, ko'pgina ish o'rinalari ochish imkoniyati mavjudligini

bildiradi. Ayni kunlarda respublikamizda iqtisodiy faot aholining turizm sohasida bandlik ulushi juda ham oz. Bu borada qishloq aholisining ishtiroki umuman kam.

Qishloq turizmi bu yangi zamonaliviy tushuncha hisoblanmaydi. Sanoat markazlashgan shaharlar va ishdagi turli qiyinchiliklardan biroz bo'lsa ham chetda, qishloq manzarasi, tabiat qo'ynda bo'lish va maroqli dam olish 19-asrdan boshlab asta-sekinlik bilan rivojlangan.

Qishloq turizmi bu shahardan uzoqda joylashgan maskanlar(asosan qishloqlar)ga borish, u yerlarni ko'rish, fermerlar bilan ularning oilasi bilan yaqin bo'lish, fermerlik faoliyatini o'rganish va shu faoliyat bilan shug'ullanish, qishloqlarda, ochiq osmon ostida tabiat qo'ynda maroqli dam olishdir.

Qishloq turizmini rivojlantirishning maqsadi quyidagilardan iborat:

- Qishloqlarda turizm tadbirkorligini tashkil etish;
- Qishloq obodonchiligin kuchaytirish;
- Qishloqlarni xalqaro hamjamiyatga qo'shish;
- Qishloq aholisi ongida turizm tushunchasi va uning mohiyatini uqtirish va h.k.

Qishloq turizmini rivojlantirishning vazifalari quyidagilardan iborat:


- Qishloqlarda yangi ish o'rinalarini hosil qilish;
- Qishloqlar mahsulotlarini sotishni kuchaytirish;
- Qishloq milliy madaniy merosini jahon xalqiga ko'rsatish.

Hozirgi kunda jahon tajribasida turizmnинг qishloq turizmi shakli keng rivojlanmoqda. Qishloq turizmini mamlakatimizda rivojlanishi istiqbollari porloq hisoblanadi. Chunki, mamlakatimiz agrar-industrial xo'jalikka ega bo'lib, asosiy mehnat resurslarimiz qishloq xo'jaligida band. Undan tashqari, mamlakatimiz rekreasiya resurslariga boy hisoblanib, rekreatsiya faoliyati tarmoqlarini rivojlantirish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o'tuvchi mamlakatlar uchun moliyaviy resurs manbalari o'ta zarur hisoblanadi. Shu jihatdan oladigan bo'lsak, qishloq turizmi yuqori daromat keltiruvchi xizmat ko'rsatish sohasi hisoblanadi. Mutaxassislar qishloq turizmini ikki xil yondashuv asosida turlarga ajratishadi:

- Sport;
- Madaniy – tanishuv;
- Fermerchilik;
- Ish yuzasidan faoliyat;
- Ekologik.

Bunda, birinchi ikkitasi ijtimoiy ahamiyatga, keyingi ikkitasi ishlab chiqarish ahamiyatiga ega. Fermerchilik asosida qishloq turizmini tashkil etishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati yotsa, ish yuzasidan qishloq turizmi

ilmiy – texnik hamkorlik, qo'shma korxonalar tashkil etish va boshqa faoliyatlarda shakllanadi.



8.2. Qishloq turizmini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

Qishloq turizmi haqida gapiradigan bo'lsak, XX asr boshlarida Sankt - Peterburg aristokratlari va ular qatoriga o'zlarini qo'yuvchi bylar ham Baden - Badenda dam olishga qurblari yetmagan. Bunday kishilar o'sha vaqtarda kurort rayon hisoblagan Martishkino (Peterburgning janubiy qismi)da yoki Finlyandiya poytaxtiga 30 km. lik yo'l bo'lgan Teriokoda arzon dala hovlilarni dam olish uchun ijara olishgan. Sababi, u yerda xorij pasportlarini rasmiylashtirish kerak bo'llagan. Bunday dala hovlilarni ijara olovchi talabdarlar asosan ziyorilar bo'lgan.

Dam olish vaqtি har qanday shaharlik uchun qishloqdamи yoki hovlidamи juda ham maroqlidir. Bu hayot talabi, me'yordir. Har qachon ham dala hovlilarni yoki boshqa joylarni ko'p yillar davomida ishonganva tekshirilgan joylarda dam olish uchun ijara olingan. Qishloq turizmining o'ziga xos tomonlari shundaki, masalan, Sisiliyaning agrar viloyatlerida ishchi kuchi keragidan ortiqligi kambag'al turistlarni yoki talabalarni ish haqi to'lamasdan, boshrana va ovqat uchun ishga yo'llash mumkin. Bunday «dam oluvchi» o'sha yerga borib qaytishi uchun mablag'

topsa bo'lgani. Yo'l-yo'lakay bir-ikki kun plajlarda cho'milish, muzeylarni, yodgorliklarni va boshqalarni ko'rishi mumkin.

Hozirgi vaqtida qishloq turizmi alohida daromad keltirilgan tur hisoblanib, dunyo turizm bozorida alohida qat'iy o'rinni tutadi. Qishloq turizmi dengiz kurortlari kabi katta hajmlar bilan raqobatlasha olmasa ham, turizm sohasida muayyan o'rinni tutadi. Uni o'rganib rivojlantirish alohida e'tiborga loyiq. Respublikaimz qishloq turizmi yo'q darajada. Qishloqdagi aholining kamligi, tabiatning tozaligi, ekologik jihatdan qulayligi tufayli uning kelajagi bor.

Qishloq turizmini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

- qishloq joylarida joylashish va ovqatlanish shaharga nisbatan 2-2,5 marotaba arzonligi;
- qishloq joylarining ekologik jihatdan tozaligi;
- ekologik toza ovqat turlarining mayjudligi;
- etnografik turizm obyekti sifatida, qishloq joylarida milliylikni ko'proq saqlanib qolganligi va boshqalar.

Aytish joizki, qishloqlarada turist bo'lib turish, kurort zonalari yoki mashhur turistik markazlarga nisbatan ancha arzon. Hamma ham qimmatbaho turistik markazlarda dam ololmaydi, shu jihatdan qishloq turizmni rivojlanish katta ahamiyatga ega. Qishloq turizmi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- qishloq joylarda aholida kategoriya odamlar uchun ularning pul mablag'ları miqdoriga qaramay, masalan, oilaning an'analariga ko'ra;
- vrach maslahatiga binoan qishloq iqlim sharoitlarida sog'lomlashtirishni olib borishga ko'ra;
- tabiat bilan yaqinlik, ko'proq vaqtini toza havoda o'tkazish maqsadiga;
- ekologik toza va arzon mahsulotlar bilan oziqlanish mumkinligi uchun;
- qishloq xo'jaligi ishlari bilan band bo'llish, ishlash uchun real imkonlar borligi;
- hayot uchun zarur bo'lgan kerakli narsalarni topish maqsadida minglab kilometr masofani bosib o'tirmaslik uchun;
- boshqa ijtimoiy guruhidagi odamlar bilan muloqotda bo'llish, ularning madaniyati, urf-odati bilan tanishish, bayramlari va o'yinlarida qatnashish imkoniyatini mavjudligi.

8.3. O'zbekistonda qishloq turizmi resurslari va imkoniyatlari

Turizmni shakllanishiga asos bo'luvchi turistik resurslar asosan qishloq joylarida joylashgan. Bu holatni Samarqand viloyati buyicha tahlil etadigan bo'lsak, viloyatning yer osti va yer usti gidrologik suv resurslari, tog', tog' oldi etaklari hamda tog' oralig'i soyalarida tabiiy ravishda hosil bo'lgan landshaftlar (tabiat manzaralari), yam-yashil o'rmonzorlar (Omonqo'ton), tog'u-tosh jins shakllari

(Qoratepa), tog' daralari (chuqurliklari), g'orlar (Hazrati Dovud, Kelsi, Lev), noyob tabiat yodgorliklari (Kamongaron, G'us), shifobaxsh buloqlar, Yuqori chinor (Mingchinor), Qaynar buloq, Rohatbulloq, ajoyib ko'llar (Muz buloq, Alvasti ko'llari), go'zal shar-sharalar (G'ussoy, Kamangaron) va hakozolar mintaqamiz turizm imkoniyatlari yanada oshiradi. Zarafshon daryosi qadimiy turistik obyektlarga boy yaxlit sayyohlik majmuasi hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, viloyatning tog', tog' oldi hududlarida mavjud bo'lgan beqiyos shifobaxsh, tibbiyat va boshqa sohalarda keng ko'lamma foydalanadigan chashma va buloq suvlari o'zining ekologik jihatdan tozaligi, xilma-xil kimyoviy elementlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ular aholi sog'ligini tiklash, sog'lomlashtirish, dam olish uchun qo'lay imkoniyatlarni yaratadi va mintaqamizda rekreatsiya (sog'lomlashtirish, hordiq chiqarish) turizmning ahamiyatini oshiradi. Bunday tabiiy maskanlar viloyatimizning Urgut, Samarqand, Nurobod, Qo'shrobod va boshqa tumanlari tog', tog' oldi hududlarida tarqalgan bo'lib, ulardan turizm maqsadida foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

8.3.1-jadval

O'zbekistonda qishloq joylarining turistik salohiyati

Nº	Turizm turlari	Turistik resurslar	Foydalanish imkoniyatlari
1	Tarixiy arxeologik turizm	Tarixiy obidalar, arxeologik qazilmalar	O'rta
2	Etnografik turizm	An'anaviy mahalliy hayot tarzi, milliy folklor, xo'jalik faoliyati usullari, turli marosimlar	Yuqori
3	Qishloq xo'jalik - qishloq turizmi	Qishloq bog'ları, madaniy landshaftlar va qishloq xo'jalik ishlari, qishloqlarning o'ziga xos ko'rinishlari	O'rta
4	Tanishuv sayohati	Kurslar va semenarlar (musiqa, kasbhunar, tabiiy sog'lomlashtirish manbaalari va boshqalar)	O'ta
5	Diniy-ziyorat turizmi	Muqaddas qadamjolar, cherkov, masjid va boshqa ziyorat joylari, turli diniy marosimlar	Yuqori
6	Ekologik turizm	Qishloqlarning tabiiy geografik mintaqalarda (tog', tog' oldi, adir, cho'l, suv havzalari va boshqalar) joylashganligi	Yuqori


7	Sog'lomlashtirish turizmi	Mineral suv manbaalari, pansionatlar, sog'lomlashtirish markazlari, kurortlar	Yuqori
8	Rekreatsiya turizmi	Betakror joylar, daralar, buloqlar, o'rmonlar,daryo bo'yłari va boshqalar	Yuqori

Viloyatning yana bir qator tumanlarida qishloqlarida ming yillik davrga teng qadimiy noyob daraxtlar (archalar, chinorlar) hanuzgacha saqlanib qolgan. Ular qatoriga Urgut shahridagi yuqori Chor Chinor (1020 yillik), Kattaqo'rg'on tumani Qoradaryo qishlog'idagi chinor (565 yillik), Nurobod tumani Tim qishlog'idagi archa 1000 yillik, Jomboy tumani Xolvoysi qishlog'idagi ming yillik archalarni misol keltirish mumkin. Ayniqsa, Jomboy tumanida joylashgan Zarafshon daryosi qayirida joylashgan Zarafshon qo'riqxonasi betakror o'simlik va hayvonat dunyosining xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi va mavsumiy hamda qisqa muddatli sayyoqlikni tashkil qilish uchun qulay imkoniyatlari yaratadi. Viloyatning chala cho'l va cho'l hududlari ham esa o'ziga xos hayvonat va o'simlik dunyosiga ega. Ularda sudralib yuruvchilar turkumidan turli xil zaharli ilonlar, cho'l toshbaqalari, qushlardan to'rg'ay, qarchig'oy, sut emizuvchilardan sariq sassiq ko'zan, kabilar uchraydi. Mazkur hududlar o'simlik va hayvonat dunyosiga qiziquvchi *ekoturizm* ishqivozlari uchun yangi turistik marshrutlami tashkil etishni talab qiladi.

Qishloq turizmini ma'lum bir mintaqaning o'ziga xos dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish jarayonini ko'rsatish maqsadida tashkil etish mumkin. Bu tajriba Yevropaning bir qancha davlatlarida rivojlangan. Masalan, Fransiya va Portugaliya mamlakatlarida uzumni yetishtirishdan boshlab, undan turli ichimliklar olishgacha bo'lgan bir butun jarayon tur sifatida taklif etilgan. Xuddi shunday jarayonlarni mamlakatimizda ham rivojlantirish imkoniyatlari keng. Mamlakatimizning xalqaro darajada ixtisoslashgan tarmog'i hisoblangan paxtachilik tarmog'ida ham bir qancha turlarni ishlab chiqish mumkin. Bu jarayonni quyidagi ketma - ketlikda amalga oshirsa bo'ladi:

Paxta maydoni → paxta qabul qilish punkti → paxta tozalash zavodi → ip-yigiruv korxonasi → tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxona.

Bu turda, birinchi navbatda paxta maydoniga boriladi, unda hosilni yig'ib olish jarayoni ko'rsatilishidan boshlab, tayyor mahsulotga bo'lgan bir butun faoliyatni qamrab olinadi. Yuqoridagi sxemaga o'xshab qishloq xo'jaligini boshqa tarmoqlarida ham turli turlarni ishlab chiqish mumkin.



8.3.2.-rasm. Tog' qishloqlari

Sog'lomlashadirish va sog'likni tiklash turizmi bevosita rekreatsiya resurslari bilan bog'liq bo'llib, kishilarning mehnat ta'tili vaqtlarida o'z salomatligini va ish qobiliyatini tiklashga qaratilgan faoliyatidir. Yurtimizdagi havosi toza, o'ziga xos tabiatiga ega joylarga boy. Bu mintaqalarda sanatoriya – sog'lomlashadirish majmui hisoblangan kurortlarni tashkil etish katta ahamiyatga ega. Undan tashqari qishloq joylarimiz diniy turizm , ya'ni aziz avliyolar qadamjolarini ziyorat qilish maskanlariga juda boy hisoblanadi. Birgina Samarqand viloyati Payariq tumanida joylashgan Imam Al-Buxoriy ziyoratgohi misotida oladigan bo'lsak, bu majmua mustaqillikdan keyingi bunyodkorlik natijasida muhim ziyoratgohga aylandi. Bu ziyoratgoh musulmon olamida Makka va Madina shaharlardan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi. Shu sababli ziyorat qilish uchun qulay shart - sharoit yaratish, ya'ni infratuzilmani shakllantirish bugungi kunning muhim masalasi hisoblanadi. Bu yerda asosiy vazifa xorij mamlakatlar fuqarolarining ortiqcha qiyinchiliklarsiz ziyorat qilib ketishlariga erishishimizdir. Buning natijasida xizmat ko'rsatish sohalari kengayib, yangi ish o'rinnari yaratiladi.



8.3.3.-rasm. Qishloq hayoti

Qishloq joylaridagi ekologik toza hudud, ajoyib tabiat va boshqa rekreatsiya resurslari ekoturizmni muhim obyekti bo'lib hisoblanadi. Ekoturistlar uchun qiziqarli bo'lgan obyektlar, ya'ni alohida muhofazaga olingan hududlar (milliy bog' va qo'riqxona) doirasidagi turli tabiiy va madaniy vujudga kelgan landshaftlar, o'simlik hamda hayvonot olami resurslari, ajoyib tabiat kompelkslari, tabiat yodgorliklari ekoturizmni rivojlantirishning muhim asosi hisoblanadi. Bu hududlarda tabiat ne'matlaridan foydalanilgan holda tabiiy xizmat ko'rsatish sohasi (servis)ni yo'lga qo'yish, kompleks rivojlantirish va turli tematik marshrutlarni tashkillashtirish sohani rivojida hamda qishloq joylarida ko'pgina yangi ish o'rinalarini yaralishiga zamin bo'ladi. Undan tashqari tog'li hududlardagi xushmanzara joylar nafaqat mahalliy aholini, balki chet elliq sayyoohlarni ham o'ziga jalg qiladi. Bu imkoniyatlardan qishloq joylarida samarali foydalanish uchun quyidagi talablarni amalga oshirishimiz lozim:

- mavjud qo'riqxonalar, milliy bog'lar va tog'lardagi xushmanzara va noyob tabiat go'shalarini turistik resurs sifatida ilmiy jihatdan o'rjanib chiqish;
- mavjud qo'riqxonalar, milliy bog'lar va tog'lardagi xushmanzara va noyob tabiat go'shalarini ekoturizm obyekti va rekreatsiya resursi sifatida foydalanish uchun kerakli infratuzalmanni shakllantirish;
- ekoturizm obyekti sifatida mavjud tabiat go'shalaridan tartibli foydalanish;
- xududlarni turistik rayonlashtirish va ularni ekoturistik nuqtai nazardan baholash;
- tabiat muhofazasiga alohida c'tibor qaratish zarur.

Qishloq joylarimiz turizmni rivojlantirish resurslariga boy ekan, faqat undan samrali foydalanishda turistlarni joylashtirish va ovqatlantirish, transport xizmatini ko'rstish, umuman olganda xizmat ko'rstish sohalarini shakllantirish asosiy omil hisoblanadi. Bu sohalarning rivojlanishi natijasida quyidagilarga erishamiz:

- qishloq manzilgohlarida yangi ish o'rinalari ochilib, mehnat resurslari ish bilan ta'minlanadi;
- aholi salomatligi yaxshilanadi;
- qishloq manzilgohlaridagi turistik – rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish katta iqtisodiy foyda keltiradi va shu joyning ekologik holatini yaxshilash imkoniyatlari yaratiladi;
- qishloq manzilgohlarida turizm rivojlanib, turistik infratuzilma shakllanadi va h.k.

Tayanch so'z va iboralar: qishloq turizmi, fermer turizmi, qishloq turizmini rivojlantirishning xalqaro modellari, qishloq turizmini rivojlantirish bosqichlari, Yevropa davlatlarining dasturlari, strategik rejani ishlab chiqish, sport, madaniy – tanishuv, ish yuzasidan faoliyat, ekologik resurslar.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Qishloq turizmi tushunchasiga ta'rif bering.
2. Qishloq turizmini qanday turlari mavjud?
3. Mamlakatimizda qishloq joylarida qanday turizm resurslari mavjud?
4. O'zbekistonda qishloq turizmi resurslari va imkoniyatlarini izohlang.
5. O'zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirish tadbirlari nimalardan iborat?

9- MAVZU. MINTAQAVIY TURIZMDA REKREATSIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK-IQTISODIY XUSUSIYATLARI

Reja:

- 9.1.Mintaqaviy rekreatsiya resurslarining ijtimoiy ahamiyati
- 9.2.Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari
- 9.3.Noyob tabiat yodgorliklaridan foydalanish ya muhofaza etish

9.1. Mintaqaviy rekreatsiya resurslarining ijtimoiy ahamiyati

Aholining salomatligi va atrof-muhit sifati o'rtasida bevosita va bilvosita aloqalar mavjud. Masalan, Jahon sog'lioni saqlash tashilotining ma'lumotlariga ko'ra, aholi salomatligi 40-50% ularning iqtisodiy ta'minoti va yashash tarzi, 18-20 % atrof muhitning holatiga, 20-30% tibbiy xizmat darajasiga bog'liq bo'ladi. Xavoning ifloslanishi aholi salomatlighining 43-45 % yomonlashuviga sabab bo'ladi. Zamonaviy gigiyena fani atrof-muhitning ifloslanishi aholi kasallanishining o'rtacha darajasi 20% ga oshishini aniqlagan. Bunday vaziyatda rekreasija faoliyati ijtimoiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning muhim tarmog'iga aylangan bo'lib, u aholining ishdan bo'sh vaqtidan foydalanishni yaxshilashga va dam olishini tashkil etishga xizmat qiladi. Rekreasija inson tamonidan yuqori baholanadigan va ijtimoiy natija beradigan keng yo'nalishni qamrab oladi. Unda dam olish va sog'lomlashtirish, bilish va ijod, odamlar va tabiat bilan tanishish, ta'lim va tarbiyani takomillashtirish va boshqalar birgalikda o'z ifodasini topadi. Bunday ehtiyojlarni qondirish, sog'lomlashtirish, umrni o'zaytirish, insonning jismoniy va ma'naviy darajasini oshirish, shaxsni barkomallashtirish, bilim va malakalarni oshirish va boshqa qator ijtimoiy natijalarga erishishga imkon beradi. Tabiiy omillarga asoslangan rekreasija faoliyati (turizm) shahar va qishloq aholisi orasida keng tarqalgan kasallikkarning ommaviy profilaktik vositasi hisoblanadi. U faqatgina ish qobiliyatini tiklashni va mehnat unumdonligini oshirishnigina ta'minlab qolmay, balki 20-50 % ga yurak-tomir, asab, nafas olish, oshqozon, suyak kasalliklari patologiyasi paydo bo'lishining oldini olishni ta'mintaydi.

O'zbekiston tabiatini rang – barang bo'lib, yilning issiq vaqtlaridan tashqari, qish va kuz fasillarida ham dam olishni tashkil etishni imkoniyati mavjud. Misol uchun tog'li hududlarda qishki sport – dam olishni amalga oshirish mumkin. Toshkent viloyatida joylashgan Chimyon sport – dam olish majmuasi katta imkoniyatlarga ega. Xuddi shunday majmualarni Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari tog'li mintaqalarida ham tashkil etish mumkin. Sog'likni tiklash manbasi hisoblangan

mineral suv va balchiqlar soni mamlakatimizda 200 dan ortadi. Bu yer osti suvlari kimyoviy tarkibi, tibbiy – biologik va boshqa xususiyatlariga ko'ra bir – biridan farq qiladi. Shuning uchun bu joylarda turli shifoxonalar, sanatoriy – kurortlar va boshqa sog'lomlashtirish muassasalar qurish mumkin. Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon, Sangzor, Ohangaron va boshqa bir qancha daryolarga oqib tushuvchi tog' soyliklari rekreatsiya resurslariga boy bo'lib, bu mintaqalarda dam olish oromgohlarini tashkil etish ko'paysa, birinchidan, aholini salomatligi yaxshilanadi, ikkinchidan, shu joy aholisi ish bilan ta'minlanib, iqtisodiy daromati oshadi.

9.2. Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari

Demak, tabiat qo'ynilarida dam olish va sog'lomlashtirish muassasalarini qurishning ahamiyati yuqori ekan, lekin masalaning boshqa tomoni ham bor. Ya'ni dam olishning ham o'ziga yarasha mezonlari mavjudki, ulami tuliq hisobga olish rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanishga olib keladi. Bu mezonlarga mavjud resurslardan rekreatsiya faoliyatida foydalanishning ekologik xususiyatlari kiradi.

Rekreatsiya faoliyati (dam olish, sog'lomlashtirish) ma'lum hududda amalga oshiriladi. Mazkur hudud hordiq chiqarishga kelganlarni ekologik nuqtai nazardan sig'dira oladimi yoki yo'q, bu ekologik sig'im mezoni bilan aniqlanadi. Ekologik sig'im bu, dam oluvchilar mitqdori mazkur ekologik maydonga to'g'ri kelishini ko'rsatuvchi o'rtacha me'yoriy hisoblanadi. Bu borada ma'lum andoza va me'yoriy ko'rsatgichlar ishlab chiqilgan. Bunga quyidagi jadvalni misol keltirish mumkin.

Jadval 9.2.1.

Suv havzalarida cho'milishni tashkil etishda me'yoriy ko'rsatgichlar

Suv havzasi turi	Cho'miluvchilar soni	Me'yoriy ko'rsatgich, m ²
Dengiz plyaji	1	5
ichki suv havzasi jumladan, bolalarga	1	8
daryolar	1	4
oqmas suv havzalari	1	5-10
		10-15

Manba: A.A.Rafiqov va boshqalar. Ekologiya. T.:2004

Jadvaldan ko'rish mumkinki, agarda suv havzasi maydoniga nisbatan cho'miluvchilar soni oshib kesa, u holda suvning ifloslanishi ortib, insonlarda turli kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bahor oylarida tog' yonbag'rlari, qirlar, adirlarda dam oluvchilar soni keskin ortadi. Bunda dam olish hududiga nisbatan dam oluvchilar soni ancha ortiq bo'ladi. Bu jarayonda turli giyohli, manzaralii

o'simliklarga ziyon yetkiziladi, atrof – muhit turli chiqindilar bilan ifloslanadi, natijada ekologik muvozanat buziladi.

Rekreatsiya faoliyatining ana shunday samaradorligi tabiiy omillarning foydali ta'siri va bunday faoliyatni ushbu omillar mavjud hududlarda tashkil etish bilan bog'liqdir.

Rekreatsiya sohasini rivojlantirish va joylashtirish, uning samaradorligini oshirish muammolarini hal etishda quyidagi vazifalarni hal etishga alohida ahamiyat beriladi:

- tumanlar va hududlarda rekreatsiyada tabiatdan foydalanish imkoniyatlarining optimal strukturasini shakllantirish;
- tumanlar va hududlarda rekreatsiyada tabiatdan foydalanish va boshqa sohalarda tabiatdan foydalanishni taqqoslab baholash;
- tabiiy rekreatsiya resurslarini muhofaza qilish, ulardan rasional foydalanish, ularni takror ishlab chiqarish bo'yicha xo'jalik tadbirlarini baholash;
- tabiiy rekreatsiya resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholash.

Rekreatsiya samaradorligini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi va ta'riflanadi:

1. *Tadbirlar maqsadi*, ya'ni rekreatsiya faoliyatining kutilayotgan va erishish mumkin bo'lgan natijalari.
2. Rekreatsiya faoliyatining konkret mintaqaviy va ijtimoiy-demografik xususiyatlarini eng pastki darajadagi sharoitlarini ta'riflovchi tegishli *ijtimoiy standartlar*.
3. *Tadbirlar natijasi*, ya'ni tadbirlarning har biriga asoslanib tashkil etish mumkin bo'lgan variantlari yoki quyilgan maqsadga erishishning muqobil yo'llari.
4. Tadbirlar variantining har birini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan *resurslar harajati* (tabiiy rekreatsiya resurslarini qo'shib).
5. Hisob-kitob sharoitlarida qo'yilgan maqsadlarga erishishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan (resurslar bo'yicha cheklar) *resurslar* va ayniqsa ko'rib chiqilayotgan hududlarning tabiiy rekreatsiya resurslari.

Ko'rsatilgan besh guruh ta'riflar samaradorlikni baholash maqsadida iqtisodiy-matematik modellarni shakllantirish uchun yetarlidir. Bundan tashqari ular tadbirlar natijalarini qo'yilgan maqsadlar, real ajratilishi mumkin bo'lgan resurslar bilan talab qilinadigan resurslar harajatiga taqqoslashga imkon beradi. Bular yo'l qo'yish mumkin bo'lgan qarorlarni shakllantirishga va variantlarni yo'l qo'yish mumkinligi nuqtai nazaridan dastlabki baholashga yordam beradi.

Barcha beshta guruh ta'riflar yoki natjalarning (1-3 -- guruhlar) yoki harajatlarning (4 va 5 - guruhlar) tarifini beradi. Rekreatsiyada tabiatdan foydalanish faoliyatining ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini xo'jalik tadbirlari

natijalarining ayrim tomonlarini ifodalaydigan natural-moddiy, sifat va qiymat tavsiflarining o'zaro bog'liq ko'rsatkichlari tizimida aks ettiriladi.

Natural ko'rsatkichlarda quyidagilar ifodalanadi:

- rekreatsiyada tabiatdan foydalanish sohasida amalga oshirish mo'ljallanayotgan tadbirlarning aholini qamrab olishi (*hisoblangan kontingent odamlar*)

- - xizmat ko'rsatiladigan odam-kun miqdori yoki bir yilda xizmat ko'rsatiladigan aholi soni, xizmat ko'rsatish va sifati (kategoriyasi) bo'yicha alohida hisoblar;

- marshrut, dam olish dasturi, hududlar yoki barpo etiladigan obektlarning quvvati (qancha kishi qabul qilish imkoniyati);

- ijtimoiy natijalarga imkon beradigan rekreasiya faoliyatiga aholi sarflaydigan vaqt;

- aholining rekreasiya faoliyatiga kiradigan vaqt sarfining qisqarishi bilan bog'liq bo'lgan vaqtini tejash (rekreasiya xizmatini kutish).

Nisbiy ko'rsatkichlarda xizmat ko'rsatish sifatining ekspert bahosi, hududlar va obektlarning xossalari (funksionalligi qulayligi bilan birga, shinamligi, nafosati, tashqi ko'rinishining o'ziga jalg etishi, atrof-muhit bilan uyg'unligini ham qo'shib) ifodalanadi (*odatda ballarda hisoblanadi*).

Qiymat ko'rsatkichlarida quyidagilar aks ettiriladi:

- belgilangan baholarda mahsulotlar va xizmatlarni realizasiya qilishning yillik hajmi va ularni realizasiya qilishdan olingan foyda;

- sog'liqni saqlash muassasalarida kasallanishning kamayishi bilan bog'liq bo'lgan harajatlarning shartli – hisoblangan kamayishi;

- mehnat unumdarligining oshishi xodimlar kvalifikasiyaning oshishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy infratuzilmani barpo etish va uning xizmatiga harajatlarning kamayishi;

- aholi vaqtini tejashining qiymat bahosi.

Rekreasiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari, mayjud resurslar asosida dam olish, sog'lomlashtirish uchun qulay shart – sharoit yaratish bilan bog'liq. Bu birinchi jihatdan, tegishli infratuzilmani tashkil etishni talab etadi. Rekreasiya infratuzilmasi – dam olish obektlari (sanatoriya, kurort, pansionat va b.) transport kommunikasiyalari, elektr energiya, tabiiy gaz va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari (sport maydoni, suv havzasi, ovqatlantirish tarmoqlari, klub, telefon tarmog'i va b.) bilan ta'minlangan majmuadir. Rekreasiya infratuzilmasi qanchalik takomillashgan bo'lsa, dam oluvchi va sog'ligini tiklovchilar uchun qulay sharoitga ega ekanligini bildiradi, hamda bu yerga keluvchilar sonini oshishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy samaradorlikka olib keladi.

Ikkinci jihatdan, dam olish maskanlarining malakali mutaxasislar bilan ta'minlanishi katta samara beradi. Mamlakatimiz rekreasiya resurslariga boy bo'lsada, ularidan talab darajasida foydalana olmayapmiz. Bu esa, qanchadan – qancha iqtisodiy daromatdan qolayotganimizni bildiradi. Shuning uchun ayni vaqtida quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- Hududiy rekreasjon tizimning qabul qilish potensiali aniqlash;
- mintaqalar bo'yicha dam olish va davolanish muassalarni tabiiy – iqlimiylar, mineral suv va boshqa rekreasiya resurslaridan kelib chiqib joylashtirish;
- ovqatlantirish, kommunal va madaniy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini, hamda suvenir mahsulotlari ta'minotini yaxshilash;
- zamonaliv transport, yo'l tarmoqlari va aloqa vositalarini rivojlantirish;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
- rekreasiya maqsadida foydalanishda tabiat muhofazasiga e'tibor qaratish.

9.3.Noyob tabiat yodgorliklaridan foydalanish va muhofaza etish

Noyob tabiat yodgorliklari, bu – muhofaza qilinadigan obekt turlaridan hisoblanadi. Ayrim hollarda tabiiy obektlarni muhofaza qilish uchun katta maydonlarni ishg'ol qilinadigan qo'riqxonalar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Shuning uchun kichikroq maydonlardagi tabiiy obektlar «tabiat yodgorliklari» deb qilinadi va muhofaza ostiga olinadi. «Tabiat yodgorliklari» terminini dastlab A.Gumbolt taklif qilgan. O'tgan asrimizning boshlaridayoq Yevropada tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish boshlangan edi.

Tabiat yodgorliklari tabiatning o'zgarishi va unda sodir bo'layotgan jarayonlar haqida ma'lum darajada aniq guvohlik beradi. Tabiat yodgorliklari ilmiy – tarixiy va madaniy – estetik ahamiyatga ega.

Umumiylar harakteriga ko'ra, tabiat yodgorliklari geologik – geomorfologik, botanik, paleontologik, astronomik va landshaft yodgorliklariga bo'linadi.

Geologik – geomorfologik yodgorliklarga nodir geologik tog' jinslari, karst voronkalari, relef shakllari, g'orlar, issiq suvli mineral buloqlar kiradi. Mamlakatimizdag'i Kilsa (Qirqtog'da), Qorlug' (Ko'hitang tog'ida), Hazratidovut (Zirabuloq tog'ida), Amir Temur g'orlari, Zarafshon tizmasidagi karstlarni misol keltirish mumkin.

Botanik yodgorliklarga yuz yillik daraxtlar, yo'qolib ketayotgan relikt o'simliklar kiradi. Bu yodgorliklarga Surxondaryo viloyatidagi, Urgut tumanidagi ming yillik chinorlarni kiritish mumkin.

Paleontologik yodgorliklarga toshga aylangan organizm va qirilib ketgan hayvonlarning izlar qolgan joylar kiradi.

Landshaft yodgorliklariga ajoyib qoyalar, sharsharalar, daralar, ajoyib buloqlar, xushmanzara joylar kiradi. Bunga Ilono'tdi (Temurlang) darasi, Ko'ksuv daryosidagi sharshara, Nurota va Urgutdag'i buloqlar, Katta va Kichik Chimyon soyligi, Oqtosh soyligi va boshqalar kiradi.

Astronomik tabiat yodgorliklariga yirik meteoritlar tushib izi qolgan joylar kiradi.

Hozirgi kunda respublikamiz hududida 400 dan ortiq tabiat yodgorliklari qayd qilingan va muhofazaga olingan. Bundan buyon jamoatchilik kuchi bilan tabiat yodgorliklarini hisobga olib chiqish, uni tarqilish haritasini yaratish juda muhim hisoblanadi.

Respublikamiz bo'yicha 35 ta noyob tog' o'rmonzorlari muhofaza qilinmoqda. Shulardan biri Samarqand shag'ridan 40 km janubi – g'arbida, 'ni Zarafshon tizmasining g'arbidagi Omonqo'ton tog' o'rmonidir. Omonqo'ton o'rmon xo'jaligi 1887 – yilda tashkil etilish boshlangan bo'lib, 2158 ga maydonni egallaydi. O'rmonning amaliy ahamiyatidan tashqari ajoyib rekreasjon resurs hisoblanadi. Shuning uchun dam olish kunlari shahar aholisini xordiq chiqarishini tashkil etish katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu borada tog' o'rmonini tabiiy holatini, ularning boy hayvonot dunyosini saqlab qolish va yaxshilash, undan tashqari dam olish uchun keladigan kishilarga maxsus joylarni ajratish, marshrutlar tizimini ishlab chiqish, hamda muhofaza qilishni faollashtirish kerak bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar: Rekreatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, ekologik sig'im, natural ko'rsatkichlar, qiymat ko'rsatkichlar, rekreatsiya infratuzilmasi, tabiat yodgorliklari, geologik-geomorfologik, botanik, peleontologik, landshaft, astronomik yodgorliklar.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. O'zbekistonning rekreatsiya resurslariga boy mintaqalariga qaysilar kiradi?
2. Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning ekologik xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Noyob tabiat yodgorliklaridan foydalanish va muhofaza qilish tadbirlari?
5. Rekreatsiya tushunchasiga izoh bering?
6. Mamatkatimizning qaysi hududlarida qishki turizmni amalga oshirish imkoniyati mavjud hisoblanadi?
7. Ekologik sig'im mezoni nimani aniqlashga yordam beradi?
8. Suv havzalarida cho'milishni tashkil etishdag'i me'yorlar haqida aytib bering?
9. Rekreatsiya sohasini rivojlantirish va joylashtirish, uning samaradorligini oshirish muammolarini hal etishda qanday vazifalarni hal etishga alohida ahamiyat berilishi zarur?

10- MAVZU. TURIZM INDUSTRIYASIDA RAQOBATBARDOSH OMILLAR ASOSIDA BUYUK IPAK YO'LI DAVLATLARINING GURUHLANISHI

Reja:

- 10.1. Buyuk Ipak yo'lining rivojlanish tarixi
- 10.2. Qadimda sharq bilan g'arbni bog'lab turgan savdo yo'lli
- 10.3. Buyuk Ipak yo'li va unda turizzini rivojlantirishning ahamiyati

10.1. Buyuk Ipak yo'lining rivojlanish tarixi

1877- yili mashhur nemis olimi **Karl Rixtgoſen** o'zining «*Xitoy»* nomli yirik ilmiy asarida ulkan Yevroosiyo materigining turli qismlarini bog'lovchi yo'llar tizimini «Ipak yo'li» deb atagan, keyinchalik «*Buyuk ipak yo'li*» atamasi qabul qilingan.

Miloddan avvalgi 11 asrgacha ham Sharq bilan G'arb o'rta Osiyo karvon yo'llari orqali amalga oshirilgan aloqalar mavjud boigan. Bunga Tog'li Oltoydagi Poziriq qo'rg'onidan topilgan, Kichik Osiyoda tayyorlangan buyumlar, Afg'oniston va O'rta Osiyodan topilgan yunon buyumlari misol boishi mumkin. Iskandar Maqduniy sultanati tuzilishi bilan bu aloqalar to'g'ri yo'lga solingan. «Buyuk Ipak yo'li» ning sharqiy qismini barpo etishda so'g'diyilar katta rol o'yнaganlar. Iskandar Maqduniy tomonidan So'g'diyona mamlakati istilo etilishi bilan ko'plab so'g'diyilar Sharqqa tomon ko'chganlar va «Buyuk ipak yo'li» ning markaziy qismini — O'rta Osiyodan tortib Xitoyning Chanan shahrigacha bo'lgan oraliq masofada savdo faktoriyalari (manzilgohlari) buniyod etganlar. O'z navbatida Xan imperiyasi miloddan avvalgi birinchi ming yillik oxirida o'z hududini O'rta Osiyo tomon kengaytirish siyosatini yurgizib, bu yo'najishga alohida e'tibor qaratadi va bu yo'lli haqida ma'lumot toplash, aym'oqchilik va diplomatik maqsadlarida elchi Chjan Szyanni yuboradi. Ammo O'rta dengizning sharqida joylashgan Suriyadagi Giyerapol shahridan Serika (Xitoy) gacha bo'lgan masofa bo'ylab tuzilgan dastlabki batafsil yo'l xaritasi makedoniyalik savdogar Mavtsian (milodiy 100- yil) tomonidan tuzilgan. Bu ma'lumotlar Klavdiy Ptolemeyning "Geografik qo'llanma" sida saqlangan. Ptolemy o'z navbatida bu ma'lumotlarni tarixchi Marinning taxminan 107—114- yillar oralig'ida yozilgan va bizgacha yetib kelmagan asarlaridan olgan. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, "Buyuk Ipak yo'li" 2 katta qismga bo'lingan: Giyerapoldan Toshminor (Toshqo'rg'on)gacha va Toshminordan Serikagacha. Yo'lning O'rta Osiyo qismi Anya (hozirgi Turkmanistonning janubi va Afg'onistonning shimoli-g'arbida joylashgan viloyat)dan boshlangan. Ariyadan

Marg'iyonadagi Antioxiyaga (Bayramali shallri yaqinidagi ko'hna Mary shahri xarobasi) ketgan, so'ngra sharqqa burilib, Baqtra (Shimoliy Afg'onistonidagi Balx shahri)ga borgan. Bu yerdan yo'l shimol tomon yo'nalib, Termiz atrofida Amudaryodan o'tgan va so'ngra 2 tomonga ketgan. Yo'lning birinchisi, Shimol bo'ylab Temir darvoza orqali Marokanda (Samarqand)ga, u yerdan Farg'onaga ketilgan. ikkinchisi janubiysi esa Surxon- daryo vodiysi bo'ylab komedlaming tog'li o'lkasi (hozirgi Qorategin) ga olib borgan. Har ikki yo'nalish ham Toshminorga olib borgan. Uni ayrim olimlar Toshkent hududida, boshqalari Oloy vodiysida joylashgan, deb hisoblaydilar. Toshminordan so'ng yo'l O'rta Osiyo hududidan tashqariga chiqqan, Ergashtom atrofida "savdogartar qo'nimgohi" joylashgan, so'ngra yo'l Takla-Makon cho'lidan o'tib Dunxuanga, so'ngra Xitoyning qadimgi poytaxti — Chananga olib borgan. Bu yerdan yo'l ehtimol shimoli-g'arbga Koreya va Yaponiyaga ketgan bo'lsa kerak.

Milodiy V- VIII asrlarda «Buyuk ipak yo'llining Yettisuv orqali Choch (Toshkent vohasi) So'g'd, so'ngra Poykend, Mary bo'ylab Eron Xurosoniga eltuvchi shimoliy qismi muhim ahamiyat kasb etgan. Ayni shu davrda Eron orqali Vizantiyaga ipak olib o'tish taqiqlanganligi munosabati bilan so'g'd savdogarlari Vizantiya va turk xoqonlari vositachiliklarida So'g'd va Xorazmdan Kaspiy dengizini aylanib o'tib, Shimoliy Kavkazdag'i dovonlardan oshib, Qoradengiz va keyinchalik Konstantinopolgacha bo'lgan yo'l tarmog'ini ochadilar. G'arbda yuksak qadrlangan, qiymati jihatidan oltin va qimmatbaho toshlariga tenglashtirilgan ipak vositasida Vizantiya imperatorlari Yevropadan jangchilar yollashgan va qo'shni german va slavyan qabilalarining hukmdorlarini o'z tomonlariga og'dirib olishgan, chunki ipak ularda yanada qadrliroq sanalgan. Ipak bu paytda 3 buyuk davlat: Vizantiya imperiyasi, Sosoniylar Eroni va Buyuk turk hoqonligi o'tasida iqtisodiy raqobat obektiiga aylangan. Biroq, bu "Ipak yo'lli" uzoq vaqt mavjud bo'lмаган, chunki VI asming ikkinchi yarmida Xitoy ipak ishlab chiqarish bo'yicha monopol huquqdan mahrum bo'lgan, asr oxirida esa Vizantiya shu qadar ko'p miqdorda ipak yetishtirar ediki, uni Xitoydan keltirishga hech qanday ehtiyoj qolmagan. Vizantiya ipak sanoatining barpo etilishi va uni asta-sekin Kavkaz ortiga va O'rta dengiz mamlakatlari tarqalishi bilan Buxoro ipak yo'llining tarixi tugaydi. Keyingi asrlarda, ayniqsa mo'g'ullar saltanati davrida, garchand Sharq bilan G'arbni bog'lovchi karvon yo'lli mavjud bo'lGANI haqida ko'plab ma'lumotlarga oid qator dalillarni keltirish mumkin bo'lsa-da, lekin "Ipak yo'lli" nomini unga shartli ravishda qo'llash mumkin, chunki bu yo'lning aliamiyatini endilikda ipak emas, balki boshqa tovar va maqsadlar belgilari edi.

1987- yili YUNESKO madaniy taraqqiyot bo'yicha BMT ning umumjahon dekadasida "Ipak yo'lli — muloqot yo'lli" xalqaro dasturini qabul qildi. Bu dastur O'rta Osiyo xalqlari boy madaniy tarixini keng qamrovda tadqiq etishni

nazarda tutadi. Biroq uning asosiy maqsadi Sharq bilan G'arb o'rtaida yanada mustahkamroq madaniy va iqtisodiy aloqalar o'matish, ushbu buyuk qit'alarda yashovchi ko'p sonli xalqlar o'rtaidagi o'zaro munosabatlami yaxshilashdan iborat. Ko'plab (30 dan zivod) xalqaro ilmiy konferensiya (jumladan, Samarqand, 1990- yil oktabr; Buxoro, 1996-yil fevral) va seminarlar o'tkazildi. Buyuk ipak yo'li bo'ylab birgalikda xalqaro ekspeditsiyalar uyushtirildi, kinofilmlar yaratildi, kitoblar, risolalar va maqolalar chop etildi, ba'zi arxeologik va me'moriy yodgorliklar ta'mirlandi. Ba'zi bir Sharq mamlakatlarida (Hindiston, Xitoy, O'zbekiston, Shri Lanka, Yaponiya) Buyuk ipak yo'lini o'rganish bo'yicha maxsus ilmiy institutlar barpo etilgan. Masalan, BMT va YUNESKO qaroriga ko'ra Samarqand shahrida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti ochilgan. 1997- yili may oyida O'rta Osiyoni Eron bilan bog'lagan "Saraks Mashhad" temir yo'lli uchastkasi qurilishi tugallandi, bu bilan O'rta Osiyo mamlakatlari Fors qo'llitig'iga, Yevropa mamlakatlari esa O'rta Osivoga chiqish imkoniga ega bo'lildilar. Ilmiy va madaniy dasturlardan tashqari "Buyuk ipak yo'li" ni tiklash bo'yicha jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan loyiha amalga oshirilmoqda (Yevropa—Kavkaz—Osiyo transport yo'lagi: TRASEKA). Navbatdagi vazifa O'zbekiston va Xitoy o'rtaidagi temir yo'l uchastkasini qurishdir. Mana shu reja amalga oshgudek bo'lsa, Atlantika okeanidan tortib Tinch okeanigacha bo'lgan masofada "Buyuk Ipak yo'li" ning "temir yo'" varianti to'la tiklangan bo'ladi. O'zbekistonda «Buyuk Ipak yo'li» ni tiklashga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda tashkil qilingan asosiy sayyohlik yo'nalishlari qatoriga "Buyuk Ipak yo'li" sayyohlik yo'nalishi ham kiradi. 1994- yili Toshkent va Samarqandda Jahon sayyohlik tashkilotining "Ipak yo'li" loyihasini ishlab chiqish bo'yicha xalqaro yig'ilishi o'tkazilib, unda O'zbekiston mazkur qadimiy yo'nalishning markazi deb belgilandi. 1995- yil 2-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Buyuk Ipak yo'li" ni qayta tiklashda O'zbekistonning ishtirokini kuchaytirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida farmon qabul qildi. Shu asosda «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi "Ipak yo'li" o'tgan tarixiy manzillar bo'ylab 200 dan ortiq yo'nalishlar ishlab chiqdi. Ular asosiy sayyohlik zonalarini qamrab oladi va Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva hamda Farg'ona vodiysi shaharlari bo'ylab o'tadi. "Ipak yo'li" ning tarmoqlari hisoblangan Andijon, Namangan, Farg'ona, Termiz, Nukus shaharlari orqali o'tuvchi yo'nalish "Farg'ona ollin halqasi" Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan shaharlarini o'z ichiga oladi. Bu sayyohlik yo'nalishlari o'z maqsad va vazifasiga qarab quyidagi guruhlarga bo'llinadi:

1. Ixtisoslashgan va sarguzashtli sayyohlik;
2. Qishloq sayyohligi;
3. Suvda sayyohlik;

4. Avtomobil sayyohligi;
5. Kemping va karvonsaroylarda dam olishdagi sayyohlik;
6. Etnik va diniy sayyohlik;
7. O'quv va yoshlar sayyohligi;
8. Boshqa turdag'i sayyohlik.

Buyuk ipak yo'lli sayyohlik yo'nalishida turistlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga namunalni xizmat ko'rsatish maqsadida yangi shinam mehmonxonalar, kempinglar, motellar, umumiy ovqatlanish va dam olish maskanlari buniyod etilmoqda. Shu sababli bu yo'nalishlar bo'ylab safar qiluvchilar soni yil sayin ortib bormoqda.

10.2. Qadimda sharq bilan g'arbni bog'lab turgan savdo yo'lli

Dengiz, okean yo'llari ochilmasdan oldin bu yo'llar muhim ahamiyat kasb etgan. Buyuk Ipak yo'lli — insoniyat rivojlanishi tarixining, uning birlashuvga hamda madaniy qadriyatlari bilan almashishga, hayotiy fazo-yu mahsulotlarni sotish uchun bozortarga erishishga intilishining o'ziga xos bo'lgan hodisasisidir. Sharqda aytiladigan naqlga qaraganda: "O'tirgan — bo'yra, yurgan — daryo". Harakatlanish — bu hayotdir, sayohat qilish, jahongashtalik doimo taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan edi. Insoniyat tarixida eng ulkan bo'lgan ushbu qit'alararo savdo yo'lli Yevropa va Osiyonidagi bog'lab, o'tmishda antik Rim davlatidan to Yaponiyaning qadimgi poytaxti Nara shahrigacha cho'zilgan edi. Albatta, sharq va G'arb o'rtaasiyagi savdo o'tmish qa'riga cho'kkani qadim-qadim zamonlardan beri olib borilar edi, lekin bu kelgusida buniyod etilgan Buyuk yo'lning aloxidagi qismilari edi. Savdo aloqalari hosil bo'lishiga Markaziy Osiyo tog'larida yarim qimmatbaho toshlar — Sharqda nihoyatda qadrlangan lazurit, nefrit, aqiq, feruzalar qazib chiqariladigan konlarni topib, qazib olish ko'p jihatdan ko'maklashgan. Masalan, Markaziy Osiyodan Eronga, Mesopotamiyaga va hatto Misrga lazurit toshi yetkazib beriladigan «lazurit yo'lli» mavjud edi. U bilan bir paytda „nefrit yo'lli“ ham tarkib topgan, bu yo'l Xotan va Yorkent tumanlarini Shimoliy Xitoy mintaqalari bilan bog'lar edi. Bundan tashqari, Old Osiyo mamlakatlariga So'g'diyona va Baqtriya davlatlaridan aqiq toshlari olib ketilar edi, Xorazmdan esa feruza keltirilgan. Bu yo'nalishlarning barchasi oxir-oqibat Buyuk Ipak yo'liga kirib mujassamlashgan. Markaziy Osiyodan G'arbg'a va Janubga o'tkazilgan karvon yo'llarini hamda Xitoydan Sharqiy Turkistonga olib boradigan yo'llarni o'zaro bog'lab bergan buyuk yo'lning haqiqiy boshlanishini tarixchilar eramizdan avvalgi ikkinchi asrning o'rtaida, deb hisoblaydilar, o'sha davrda xitoyliklar uchun ilk bora G'arb o'lkalari — Markaziy Osiyo davlatlari kashf etilgan edi.

BUXORO SHAHRI

Shuni aytib o'tish lozimki, bu yo'l hech qachon yagona bir yo'l bo'lmasdan, balki azim bir daraxtning sadasiga o'xhash tarzda shoxlanib ketgan turli-tuman yo'naliishlarni o'z ichiga olgan edi. Masalan. Osiyoni sharqdan g'arbg'a qarab kesib o'tuvchi asosiy yo'llardan biri qadimiy Xitoyning poytaxti Chanan shahrida boshlanib, uning shimoli-g'arbiy chegaralarigacha Gobi sahrosining cheti bo'ylab ketgan, keyin sharqiy Turkiston orqali o'tgan. Tyan-Shan tizmasi dovonidan oshib o'tgan karvonlarinng bir qismi Farg'on'a vodiysi va Toshkent vohasi orqali So'g'diyonaning poytaxti Samarcandga, Buxoroga, Xorazmga olib borgan, keyin esa Kaspiy dengizi qirg'oqlatiga yetib kelar edi. Karvonlarni gbir qismi Samarcanddan chiqib, Baqtriyaga borar va Qashqadaryo vodiysi dan o'tib Termiz shahriga kelar edi, u yerdan Amudaryodan kechib o'tib, Janubga, Baqtralar va Hindistonga qarab ketar edi. Yo'lning yana bir yo'naliishi Tarim shahridan chiqib, Takla-Makon sahrosini janub tarafidan aylanib o'tib, Xotan va Yorkent shaharlari orqali Baqtraga (shimoliy Afg'oniston) va Marvga kelar edi, bu yerdan karvonlar Eron, Suriya davlatlari orqali o'tib, O'rta Yer dengizi bo'yiga yetib kelar edi, mahsulotlarning bir qismi dengiz yo'li bilan Rim va Yunonistonga kelib tushar edi. Nomidan ham ma'lum bo'lishicha, karvon yo'llaridagi savdoning asosiy buyumi butun jahonda juda qimmatbaho bo'lgan ipak mahsulotlari edi. Masalan, o'rta asrlarning dastlabki davrida ipak eng qadrli hisob-kitob birligi bo'lib, hatto tillani muomaladan siqib chiqaradigan darajagacha chiqar edi. Masalan, So'g'diyonada bir otning narxi o'nta ipak kiyimliklariga tenglashtirilgan. Ipak bilan bajarilgan ishlar evaziga, navkarlarni yollash uchun to'lov qilinlar, ipak bilan hatto sodir etilgan jinoyat evaziga xun to'lash mumkin edi. Ushbu karvon yo'llarini birinchi bo'lib venetsiyalik savdogar Marko Polo „ipak yo'li“ deb nomlagan edi, u yevropaliklardan birinchi bo'lib Xitoy imperiyasining chegaralariga yetgan. „Buyuk Ipak yo'li“ atamasini esa nemis tadqiqotchisi Ferdinand Rixtgofen 1877- yilda o'zining „Xitoy“ nomli fundamental asarida ilk bora ilmiy tarzda kiritgan. Ipak qitafararo yo'l orqali tashib o'tiladigan asosiy mol bo'lsa ham, lekin yagona emas edi. Markaziy Osiyodan Xitoyda juda qadrlanadigan otlar, tuyalar, harbiy anjomlar va qurol-yarog'lar, oltin va kumush, yarim qimmatbaho toshlar va shisha buyumlar, teri va jun-mo'ynalar, gilamlar-u ip-gazlama matolar, zar tikilgan matolar, o'ziga xos antiqa mevalar — taruzlar, qovunlar va shaftolilar, yirik dumbali qo'ylar va ovchi itlar, qoplonlar va arslonlar otib chiqib sotilar edi. Xitoydan karvonlar chinni va metall idishlarni, lakkangan buyumlar va pardoz-upalarni, choy va guruchni olib kelishar edi. Savdogarlarning yo'l to'rvalarida turli-ituman noyob buyumlar, fil qoziq tishlari, karkidon shoxlari, toshbaqa toshlari, ziravorlar va ko'pgina boshqa xil mollar topilar edi. Buyuk ipak yo'li orqali nafaqat savdo karvonlari, balki xalqlarning erishgan madaniy yutuqlari, ma'naviy qadriyatlar, diniy g'oyalari ham

jahonga tarqalib borar edi. Buddizm Kushan davlatidagi boshqa dinlar bilan birga hukm surgan bo'lib, bu yerdan to Xitoygacha tarqalgan. Eramizning birinchi asrlarida Kichik Osiyodan bu yerga xristianlik dini kelib yetgan. Arab xalifaligining qattiqqa'l harbiy navkarlari VII asrda islom ta'llimotini olib kelganlar. Savdogarlar va targ'ibotchilarining o'tkazgan yo'llari bo'y lab mo'g'ula sahrolaridan Yevropa tekisliklarigacha Chingisxon sahroyi bosqinchilari quyundek o'tgan. Buyuk Ipak yo'llining qoq yuragi bo'lgan Samarqand shahridan o'rta asrlardagi Sharqning buyuk sarkardasi Temur o'z yurishlarini boshlab, zafar quchar edi. Bundan tashqari, karvon yo'llaridan asrlar bo'y yi allomalar, tadqiqotchilar ham sayohat qilar edi. Xitoy ruhoniysi Syuan Tszyan va venetsiyalik savdogar Marko Polo, arab sayohatchisi — savdogar Ahmad ibn Fadlan va bavariyalik sarkor Shiltberger, vengriyalik tadqiqotchi Arminiy Vamberi hamda shvetsiyalik geograf Sven Xedin, rus olimi Aleksey Fedchenko va frantsiyalik jurnalist ayoli Ella Mayyar, amerikalik geolog olim Rafael Pampelli va frantsiyalik sayohatchi Jozef Martenlarning yo'lda qayd etgan yozuvlari va ilmiy asarlaridan biz Buyuk Ipak yo'li bo'y lab yotgan mamlakatlarda yashagan xalqlarning tarixini, ularning urf-odatlari va an'analarini bilib oldik. Sharq va G'arbni o'zaro bog'lagan bu beqiyos buyuk yo'lni bunyod etgan xalqlarning tirik bir xotirasi qadimiy O'zbekiston shaharlari Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent shaharlari bo'lib, ularning me'morchilik yodgorliklari Buyuk Ipak yo'llining ko'p asrlik tarixini o'zida mujassam etadi.

10.3. Buyuk Ipak yo'li va unda turizmni rivojlanirishning ahamiyati

Hozirgi vaqtida butun dunyoda, jumladan, O'zbekistonda ham iqtisodiyotining noishlab chiqarish sohalaridan biri xususan turizm sohasiga katta e'tibor kuchayib bormoqda. Insonlar borgan sari o'zlarining bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga, dam olishga, sog'ilagini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf odatlарини, qadriyatларини bilishga intilmoqda. Bundan tashqari, insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi erlarni kashfi qilishga intilgan. XX asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizm industriyasining rivojlanishiga katta turki bo'ldi. O'tgan 2008 - yilda dunyo aholisining har to'rtinchisi sayohat qilgan. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o'sish sur'ati 8 -10 % gacha boradi. Bu davlatlarga Ispaniya, Italiya, Fransiya, AQSh va boshqa mamlakatlarni kiritish mumkin. Shunisi qiziqliki turizm rivojlanishi bilan bir qatorda transport, bozor infratuzilmasi, savdo - sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik hamda boshqa xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanib ketadi. Respublikamiz xalqaro turizmni rivojlanirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Bularga «Buyuk Ipak yo'li»ning shoh tomiri

respublikamizdan o'tganligi, butun dunyoga mashhur tarixiy va madaniy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Qo'qon, Toshkent va boshqa shaharlar, tabiiy va sog'lomlashtirish resurslariga boy mintaqalarimiz Chimyon, Shohimardon, Zomin, Boysun, Sherobod va boshqa shahartar kiradi.

Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun asos solindi deb hisoblasa bo'ldi. Bunga dalil sifatida 1995 yil 2 iyundagi «Buyuk Ipak yo'li»ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasi ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish to'g'risida»gi farmonining Prezidentimiz tomonidan qabul qilinishidir³². Bu farmonga binoan turistik korxonalar bir qator soliq imtiyozlarga ega bo'lishdi. Bu farmon «Buyuk Ipak yo'li»da joylashgan tarixiy va madaniy shaharlarda turistik yo'nalishlarning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ming yillar davomida «Buyuk Ipak yo'li» Osiyo va Ovropa xalqlarini birlashtirishning ahamiyatli va samarali usuli hisoblanib kelgan. Xuddi shu yo'l bo'ylab tovarlar, bilimlar, texnologiyalar, madaniyatlar almashuvi amalga oshirilgan, natijada shaharlarning, davlatlarning rivojlanishiga ko'maklashib ketgan. Hattoki, hozirgi vaqtida bu yo'l insoniyat uchun global ahamiyatga ega bo'lganligini baholash qiyin. Ammo, o'zining faoliyatini tugatgandan keyin ham unga qiziqish yo'qolib ketmadni. Ayniqsa, transport va axborot aloqalarining, sanoat ishlab chiqarishning, tovar va xizmatlarning savdosini hamda, Osiyo va Ovropa mintaqalarining integratsiya jarayonlariga faol qatnashuvi «Buyuk Ipak yo'li»ning «ikkinchi nafasi»ni olganini ko'rish mumkin.

«Buyuk Ipak yo'li»da xalqaro turizmni rivojlantirishning bir ko'rinishi bo'lib, janubiy - sharqiy Osiyon Ovropa bilan bog'lab turadigan global Transosiyo transport liniyasini shakllantirish hisoblanadi. U o'z ichiga Yaponiya, Xitoy, Hindiston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Kavkaz davlatlari, G'arbiy Osiyo (Pokiston, Eron) davlatlari va albatta Ovropa davlatlarini qamrab oladi. E'tiborga olish kerakki TRASEKA loyiha doirasida «Delfin» izlanishi o'tmoqda. Bu izlanishning mazmuni karvon - saroylarni tashkil qilishning texnik - iqtisodiy asoslanishi, ekspertlarning fikriga ko'ra, bu «Buyuk ipak yo'li»ning rivojlanishiga va xalqaro hamkorlikning samarali natija berishiga yordam beradi, chunki O'zbekiston va Turkmanistonning asosiy yo'nalishlarida yoqilg'i stantsiyalari, turar joylar, ovqatlanish punktlari va telekommunikatsiya zonalarining qurilishi yangi turistik zonalarning shakllanishiga hamda turistik avtovansportning

³²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli "Buyuk Ipak yo'li" ini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risidagi farmoni. / Xalq so'zi, 1995y. 3-iyun.

paydo bo'lishiga olib keldi. Butunjahon Turistik Tashkiloti ekspertlari «Buyuk Ipak yo'li da qatnashishiga qarab, qatnashuvchi davlatni 3 qismga ajratgan.

Birinchi qismga o'ziga xos turizm milliy modelini shakllantira boshlagan O'rta Osiyo va Kavkaz davlatlari kirgan. Bu yo'nalishda Butunjahon Turistik Tashkiloti asosiy masala qilib, turg'un rivojlanish dasturini tuzishda, turistik tarmoqqa investitsiyani jalb qilishda, qonunchilikni ishlab chiqishda va kadrlarni tayyorlashda ko'maklashishi hisoblanadi.

Ikkinci qismga «Buyuk Ipak yo'li» ob'yektlarini o'z ichiga olgan va turistik mahsuloti bilan aniq tajribaga ega bo'lgan davlatlar kiradi. Bular Xitoy, Pokiston, Hindiston, Eron, Gretsya va Turkiyalardir. BTT ning ekspertlari fikriga ko'ra bu yerda xalqaro tashkilot «Buyuk Ipak yo'li» nomli turistik mahsulotning sotilishini rag'batlantirishi mumkin.

Uchinchi qism esa, qadimgi aloqanlaring oxirgi nuqtalarini o'z o'ichiga qamrab oladi. Bularga bir tomonidan Yaponiya, Koreya, ASEAN davlatlari kiradi. Bu yerda Butunjahon Turistik Tashkilotining vazifasi «Buyuk Ipak yo'li»ni targ'ibot qilish deb hisoblanadi, chunki bu davlatlar nafaqat katta turistik oqimni ta'minlaydi, balki mazkur yo'l bo'ylab turizm uchun yetakchi bozorlar hisoblanadi.

«Buyuk Ipak yo'li» turistik mahsulot mavqeining ko'tarilishi uchun albatta fundamental asos bo'lishi kerak. Uni sotish uchun barcha davlatlarning faol hamkorligi kerak. Chunki xususiy sektor va davlat sektori, xalqaro va milliy tashkilotlar, alohida turoperatorlar va mehmonxona komplekslari munosabatlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Butunjahon Turistik Tashkilotining «Buyuk Ipak yo'li» loyiha bo'yicha yig'ilishi 1996-yilda Xitoyda bo'lib o'tdi, bunda mahsulotning marketingiga oid masalalar ko'rib chiqildi. «Buyuk Ipak yo'li»da turizm bo'yicha ikkinchi anjuman ham ahamiyatli bo'lib o'tdi. Ekspertlar fikriga ko'ra bu yerda «Buyuk Ipak yo'li»ning asosiy turistik resurslari: diqqatga sazovor joylar, madaniy va tarixiy ob'yektlar, joylashtirish vositalari, transport va axborot markazlari shakllandi. Bu tadbirdan keyin ushbu loyiha rivojiana boshladи. Anno, hamma muammolar yetarficha yechilmagan edi, shuning uchun ham 1997-yil aprel oyida Tehronda «Buyuk Ipak yo'li» bo'yicha ikkinchi xalqaro yiq'ilish bo'lib o'tdi. Bunda quyidagi masalalar shakllandi: «Buyuk Ipak yo'li» mintaqalarini xalqaro targ'ibot qilish, bu turistik ma'lumotni reklama qilish uchun global axborot kommunikatsiya tarmoqlaridan (xususan Internet) foydalanish.

1994-yildan boshlab Butunjahon Turistik Tashkiloti «Buyuk Ipak yo'li» loyihami barcha yirik xalqaro yarmarkalarda: Berlinda TTV, Londanda WTM va Madridda FJTUR faol targ'ibot qila boshladи. Butunjahon Turistik Tashkilotining bashoratlariga ko'ra, 2020-yilga kelib dunyoning asosiy turistik yo'nalishlari bo'lib Xitoy hisoblanadi. Bu davlatozirgi kunda 22 mln. turist qabul qila olishligi bilan oltinchi o'rinni egallaydi va o'rtacha yillik 8 % o'sish bilan Xitoyga keladigan

turistlarning soni 137 mln.ga, Gonkongga esa 59 mln. kishiga yetib, birinchi o'rinni egallaydi. Bundan kelib chiqib, «Buyuk Ipak yo'li» loyiha ishtirokchilarning oldida turistik mahsulotni shakllantirishda budavlatlarni hisobga olish masalasi turibdi, masalan, Germaniya - O'zbekiston - Xitoy, Fransiya - O'zbekiston - Gonkong va boshqalar. Turistlarning yillik xarajatlari 5 mlrd. dollarga yetishini hisobga olsa, O'zbekiston ham bu valyutaning ayrim qismini shakllantirishga va o'zlashtirishga yetarli imkoniyati bor. Chunki «Buyuk Ipak yo'li» bo'ylab Xitoyga sayohat qiluvchi turistlarning asosiy qismi respublikamiz orqali harakat qiladi. Bu degani xorijiy turistlarning mamlakatimizdag'i turistik ob'yektlardan va transport vositalaridan foydalanganliklari uchun ma'lum bir valyutaning davlat budgetiga tushishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham xorijiy turistlar uchun «Buyuk Ipak yo'li» bo'ylab transport (tranzit) yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish lozim. Bu masalada madaniy va bilim qabul qilishga qaratilgan turizm eng katta qiziqish tug'diradi. Masalan, 2008-yilda O'zbekistonga 915 ming tashrif qiluvchilar keldi, bulardan 5,6 % turistik maqsadlar bilan, 74,4 % xususiy viza bo'yicha, qolgan 20 % boshqa turli xil maqsadlarda sayohat qilganlar. Ko'pchilik tashrif qiluvchilarni davlatning tarixi, madaniyati va diniy obidalari qiziqtirgan.

O'zbekiston hayotida bo'lib o'tayotgan madaniy tadbirlar, masalan, allomalarining va shaharlarning tantanalari nafaqat musulmon davlatlari, balki Yevropa va boshqa davlatlarida keng targ'ib qilinib, «Buyuk Ipak yo'li»ni va taklif qilinayotgan mahsulotni yangi ahamiyatga ko'tardi.

Tayanch so'z va iboralar: «Buyuk Ipak yo'li», Pokiston, Eron, Gretsya, Turkiya, BTT, sayohat, O'rta Osiyo, Kavkaz, Yaponiya, Xitoy, Hindiston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Kavkaz, G'arbiy Osiyo (Pokiston, Eron).

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Buyuk Ipak yo'lining rivojlanish tarixini tushuntirib bering?
2. Qadiunda sharq bilan g'arbni bog'lab turgan savdo yo'li qaysi?
3. Buyuk Ipak yo'li va unda turizmni rivojlantirishning ahamiyati qanday bulgan?

11- MAVZU. MARKAZIY OSIYO TURIZMI IMKONIYATLARINI TADQIQ QILISH

Reja:

- 11.1. Markaziy Osiyo mamlakatlarining geografik xususiyatlari
- 11.2. Qirg'iziston Respublikasi turizmi
- 11.3. Turkmaniston Respublikasi turizmi
- 11.4. Qozog'iziston Respublikasi turizmi
- 11.5. Tojikiston Respublikasi turizmi
- 11.6. O'zbekiston Respublikasi turizmi

11.1. Markaziy Osiyo mamlakatlarining geografik xususiyatlari

Geografik o'rni. Markaziy Osiyo tabiiy-geografik o'lkasi Osiyoning Markaziy qismini egallaydi. Uni shimolda Sibir, sharqda Sharqiy Osiyo, janubda Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo, g'arbda esa O'rta Osiyo o'lkalari o'rabi turadi. Bu o'lkada Xitoy va Mongoliya hududidagi tog' va cho'llar joylashgan.



O'lkaning markaziy va janubiy qismidan Yer po'stining faol Alp-Himolay seysmik mintaqasi o'tadi. O'lkada keksa, lekin yoshargan tog'lar (Mongoliya Oltoyi, Tyanshan, Tibet) bilan birga eng yosh (Qoraqurum) tog'lar ham bor.



Tibet tog'ligi

Tog'li hududlarda magmatik va metamorfik tog' jinslari, botiq va cho'kmalarda qalin cho'kindi jinslar paydo bo'lgan. Rudali va nodir metall konlarining hosil bo'lishi magmatik va metamorfik jinslar bilan, yonuvchi va norudali konlar esa cho'kindi jinslarning tarqalishi bilan uzviy bog'liq.

Relyefi.


Markaziy Osiyo o'lkasining relyefida, asosan, tog', tog'lik, tog' oralig'idagi botiqlar va baland tekisliklar uchraydi. Tibet tog'ligi, Qoraqurum, Sharqiy Tyanshan yoki Xitoy Tyanshani, Oltoy (Mongoliya Oltoyi), Kunlun tog'lari, Taklamakon botig'i, Gobi cho'li joylashgan baland tekislik o'lka relyefining asosiy shakllari hisoblanadi. O'lkaning eng baland joyi (8611 m) Qoraqurum tizmasidagi Chogori cho'qqisi bo'lsa, eng past nuqtasi Taklamakon cho'lidagi Turfan botig'iga (-154 m) to'g'ri keladi.

Iqlimi.


O'lka hududi mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan. Markaziy Osiyo maksimumi (qish oylarida) va Tinch okeandan esadigan havo massalarining hissasi katta. Yillik yog'in-sochin Tibet tog'linining markazida, Taklamakon va Gobi cho'llarida 100 mm dan kam. O'lkaning janubi-sharqiy qismidagi tog'larning (Tibet, Kunlun) sharqiy yonbag'riga 1000 mm va undan ko'p yog'in tushadi. Yanvarning o'rtacha harorati o'lka shimolida -24°C (iyulda +16°C), markazida (Taklamakon cho'lida) -8°C (iyulda +24°C), janubida (Tibet tog'ligida) -20°C (iyulda +10°C) atrofida bo'ladi.

O'lka yirik daryolar yo'q, ammo mavjud kichik daryolari Tinch va Hind okeanlariga quyiladigan daryolarning yuqori oqimidagi irmoqlaridan iborat. Suvsiz va qurib qoladigan ko'pgina kichik daryolar (Tarim, Zulayho va b.) berk havzada joylashgan. Ko'llaridan Lobnor (maydoni o'zgarib turadi), Kukunor, Ubsu-Nur sho'r ko'llar bo'lsa, Bagrashko'l, Orin-Nur chuchuk ko'llardir.

Markaziy Osiyoda mo'tadil va quruq subtropik iqlim mintaqalarining o'rmon-dasht (tog' etaklari), chalacho'l, cho'l zonalari hosil bo'lgan. Tibet tog'lining 4000 m balandliklaridagi yassitog' oralig'i botiqlarida ham chalacho'l va dasht zonalariga xos tabiat manzaralarini uchratamiz. Tog'larning 6000 m dan baland qismlari qor va muzlar bilan qoplangan.



11.2. Qirg'iziston Respublikasi turizmi



Rasmiy nomi — Qirg'iziston Respublikasi. Poytaxti — Bishkek. Hududi — 198500 km.kv. Aholisi — 5,5 mln.dan ortiq (2012-yil). Davlat tili — qirg'iz. Dini — islam, shuningdek, xristianlar ham bor. Pul birligi — som.

Geografik joylashuvi va tabiatи. O'rta Osiyoning shimoli sharqidagi davlat. G'arbda O'zbekiston (chegara uzunli 1099 km), shimolda Qozog'iston (1051 km), janubda Tojikiston (870 km) va Xitoy (858 km) bilan chegaradosh. Mamlakatning shimoliy sharqida Tyan-Shan (eng baland nuqtasi — 7439 m), janubi g'arbda Pomir-Olttoy tog' tizmasi joylashgan. Asosiy daryosi-Norin. Eng katta ko'li — Issiqkoi. Yer osti boyliklari — oltin, surma, ko'mir, neft, gazga boy. Haydaladigan yerlar hududining 7%, o'tloq va maysazorlar 42% ini egallaydi. Iqlimi — kontinental.


Davlat tuzilishi va siyosiy partiyalari. Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat 6 viloyatga bo'linadi. Qirg'iziston 1991-yil SSSRning parchalanishi- dan keyin mustaqillikka erishgan. Milliy bayrami — 31-avgust — Mustaqillik kuni. Ijro etuvchi hokimiyat prezident (davlat boshlig'i) va hukumat boshlig'i premyer-ministriga tegishli. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni bir palatali parlament amalga oshiradi. Siyosiy partiyalari: Qirg'iziston Demokratik harakati, Qirg'iziston Respublika partiyasi, Erkin Qirg'iziston, Qirg'iziston kommunistlar partiyasi.

Iqtisodi, transport kommunikatsiyasi. Mam lakan bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichida turibdi. Birmuncha rivojlangan sanoat tarmoqlari rangli metal-lurgiya, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlari, chorvachilik, paxtachilik va boshqalar. Asosiy savdo hamkorlari — Rossiya, Ukraina, O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa MDH mamlakatlari. Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 370 km. Avtomobil yo'llari uzunligi — 30300 km.

Tarixi. VI asrdan XII asrgacha hozirgi Qirg'iziston hududlari Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. XIII asrda mo'g'ullar tomonidan bosib olingan Qirg'iziston XVII asrda Oyrat xonligi, XIX asr boshlarida Qo'qon xonligi tarkibiga kiritildi. 1870-yil Rossiya imperiyasining Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. 1918-

yilda Turkiston Respublikasining bir qismi, 1924- yildan Qora-Qirg'iz Avtonom viloyati, 1924-yildan Qirg'iziston avtonom viloyati (oblasti), 1936-yilda Ittifoq Respublikasi maqomini oldi. Sovet Ittifoqi parchalanib ketgandan keyin Qirg'iziston mustaqilligi 1991-yil 31-avgustda e'lon qilindi. 2005-yilda «Lolalar inqilobi» natijasida Asqar Akayev o'miga prezident etib Kurmanbek Bakiyev saylandi.

11.3. Turkmaniston Respublikasi turizmi



Rasmiy nomi — Turkmaniston Respublikasi. Poytaxti — Ashxobod. Hududi 488100 km.kv. Aholisi ~ 5,1 mln.dan ortiq (2012). Davlat tili — turkman. Dini — islom. Pul birligi — manat.

Geografik joylashuvi va tabiat. Markaziy Osiyodagi davlat. Shimolda va sharqda O'zbekiston (cheгаранинг узунлиги — 1621 km), shimolda Qozog'iston (379 km), sharqda va janubda Afg'oniston (744 km), janubda Eron (922 km) bilan chegaradosh. G'arbda mamlakat Kaspiy dengizining suvlari bilan tutashgan. Chegarasining umumiyligi — 3736 km. Sohilining uzunligi — 1768 km. Mamlakat hududining katta qismi pasttepalik bo'lib, unda Qoraqum sahrosi joylashgan. Sahroning maydoni — 375 ming kv. km. Mamlakatning shimali g'arbida Kaspiy dengizi bo'yida Qora Bo'g'oz — Koi ko'rfazi joylashgan. Ko'rfa z dengiz sathidan 35 m past. Janub va janubi g'arbda Kopetdog' tog'lari bor. Yirik ko'l — Sariqamish sho'r ko'l. Asosiy daryo — Amudaryo. Turkmaniston neft, gaz, kaliy va osh tuzlari, rangli va noyob metallarga boy. Haydaladigan yerlar mamlakat hududining 2% ini, yaylovlar 69% ini tashkil etadi.

Iqlimi — keskin kontinental. O'simlik dunyosini cho'l va adir o'simliklari tashkil etadi. Sahroda jayron, shoqol, tulki, echkilar, kapcha ilon, agama, tekislik va togiarda tog' echkisi, gurza, toshbaqa, turli kemiruvchilar yashaydi.


Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari. Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. 1991-yilning 27-oktyabrida Turkmaniston mustaqil boidi. Mustaqillik kuni (27-

oktabr) — Milliy bayram hisoblanadi. Davlat boshlig'i — prezident. Prezident Bosh vazir (Vazirlar Kengashi raisi)ni tayinlaydi. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Majhs (bir palatali parlament). Ro'yxatdan o'tgan yagona siyosiy partiya — Turkmaniston demokratik partiyasi.

Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari. Sanoatining asosini neft va gaz qazib chiqarish va neftni qayta ishlash tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida paxta, mevalar, sabzavotlar yetishtiriladi. Eksport qilinadigan asosiy mahsulotlari — paxta tolasi, dizel yoqilg'isi, mazut, qo'lda to'qilgan gilamlar. Asosiy savdo sheriklari — Rossiya, Ukraina, O'zbekiston, Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkiya. Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 2120 km, avtomobil yo'llari — 13000 km. Asosiy porti — Turkmanboshi.

Tarixi. M. a. I ming yillikda hozirgi Turkmaniston hududida Marg'iyona, Parfiya, Midiya davlatlari mavjud edi. M. a. VI asrlarda bu hududlar forslar davlati, m. a. IV asrda makedoniyalik Iskandar davlati tarkibiga kiradi. VIII asrda bu hududga arablar bostirib kiradi va mahalliy aholi orasida islam dinini targ'ib etadi. IX-X asrlarda bu hududlar Tohiriylar va Somoniylar davlatlari, XI-XIII asrlarda Saljuqiylar davlati tarkibiga kiradi. XIII asrda mo'g'ullar bostirib kiradi va hozirgi Turkmaniston yerlarini o'z imperiyasiga qo'shib olishadi. XIV asrning ikkinchisi yarmidan XV asrning oxirlarigacha Turkmaniston hududlari Temur va temuriylar davlatiga kiradi. XVII-XIX asrlarda hozirgi Turkmaniston hududlari Eron shohlari, Xiva va Buxoro xonlari o'rtaida talash bo'lgan. XIX asrning 80-yillarida bu hududlar Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinadi. 1917-yilgi davlat to'ntarilishidan so'ng Sovet hokimiyati o'matiladi. 1991-yilda Turkmaniston mustaqillikni qo'lga kiritadi.

11.4. Qozog'iziston Respublikasi turizmi



Rasmiy nomi — Qozog'iston Respublikasi. Poytaxti — Astana. Hududi — 2717300 km². Aholisi — 18 mln.dan ortiq (2012-yil). Davlat tili — qozoq. Dini — islam (47%), pravoslav (44%), protestantlik (2%) Pul birligi — tenge.

Geografik joylashuvi va tabiatи. Markaziy Osiyodagi davlat. Shimolda Rossiya (chegara uzunligi — 6846 km), janubda O'zbekiston (2203 km), Qirg'iziston (1051 km) va Turkmaniston (379 km), sharqda Xitoy bilan chegaradosh. Qozog'istonning g'arbiy qismi Kaspiy dengizi, janubda Orol dengizi bilan tutash. Umumiy chegara uzunligi — 12012 km. Mamlakat hududi sharq da Oltoydan G'arbda Volganing quyi qismigacha, shi molda G'arbiy Sibir tekisligidan janubda Tyan-Shan togiarigacha cho'zilgan. G'arbda Kaspiybo'yи pasttekisligi va Mang'ishloq yarimoroli joylashgan. Shimoli g'arb- da Ural va Mug'ojar tizima tog'larining janubiy tarmoqlari yotibdi. Mug'ojardan shimoli sharqda To'rg'ay yassitog'ligi, janubda Turon pasttekisligi va Qizilqum cho'li joylashgan. Sharqda va janubi sharqda Oltoyning janubiy tizmalari qad ko'targan. Janubda Betpak-Dala va Muyunqum cho'llari bor. Asosiy daryolari — Irtish, Ural, Chu, Sirdaryo. Qozog'iston hududida Balxash ko'li va qisman Orol va Kaspiy dengizi joylashgan. Yerosti boyliklari ko'plab foydali qazilmalarga boy: uran, rux, oltin, mis, molibden, neft, fosforit, boksit, temir, marganes, qo'rg'oshin.


Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari. Davlat tuzilishi — prezident respublikasi. Ma'muriy jihatdan 20 ta oblast (viloyat)ga bo'llinadi. Qozog'iston o'z mustaqilligini 1991-yil 16-dekabrda Sovet Ittifoqi tarqalgandan keyin e'lon qilgan. 16-dekabr — Milliy bayram — Respublika kuni. Davlat boshlig'i — prezi dent. Qonun chiqaruvchi oliy organ — bir palatali parlament — Yuqori Kengash. Asosiy siyosiy partiyalari: Qozog'iston xalq birligi ittifoqi (QXBI), Qozog'iston sotsialistik partiyasi (QSP), Qozogiston xalq kongressi (QXK), Respublikachilar partiyasi.

Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari. SSSR tarqalib ketganidan keyin Qozog'istonda ishlab chiqarishning inqirozga yuz tutishi kuzatiladi. Lekin xomashyo zaxiralariga boyligi va ishlab chiqarish bazasiga ega ekanligi Qozog'iston iqtisodiyotining boshqa MDH davlatlariga nisbatan yaxshiroq ahvolda bo'llishiga yordam berdi. Birmuncha rivojlangan sanoat tarmoqlari: rangli va qora metallurgiya, tog'-kon sanoati, mashinasozlik, neftni qayta ishlash sanoati. Qozog'iston ko'p miqdorda jun, paxta, kartoshka, g'alla yetishtiradi. Asosiy savdo hamkorlari: Rossiya, Ukraina, O'zbekiston, Xitoy. Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 14460 km, avtomobil yo'llari — 189000 km.

Tarixi. Hozirgi Qozog'iston hududida turkiy qabi-lalar VI-VIII asrlarda Turk xoqonligi, IX-XII asrlarda Qoroxoniylar podsholigi hukmronligida yashaganlar. XIII asrda mo'g'ullar bosqinidan keyin Qozog'iston Mo'g'ul imperiyasi tarkibiga kiritiladi. XIX asrda mamlakatni mustamlakaga aylantirish uchun harakat faollashadi, hozirgi Olma-Ota, Astana qal'alari barpo etiladi. 1886-yil

Qozog'istonning butun hududi Rossiyaning Turkiston provinsiyasiyaga kiritiladi. 1917-yil noyabrda Ali Xon Bukey Qozog'istonni mustaqil davlat deb e'lon qiladi va milliy davlatga asos soladi. Lekin 1919-yilda Qizil Armiya mamlakatni bosib olib, 1920-yilda Sovet avtonom respublikasi, 1936-yildan boshlab Qozog'iston Sovet Sotsialistik Respublikasi deb e'lon qilinadi. 1991-yil SSSR tarqalganidan keyin Qozog'iston mustaqil davlatga aylanadi.

11.5. Tojikiston Respublikasi turizmi



Rasmiy nomi — **Tojikiston Respublikasi**. Poytaxti — Dushanbe. Hududi — 143100 km². Aholisi — 7,9 mln kishidan ortiq (2012yil). Davlat tili tojik. Dini — islam. Pul birligi — somoni.

Geografik joylashuvi va tabiat. Markaziy Osiyoda joylashgan davlat. Janubda Afg'oniston (chegaraning uzunligi — 1206 km), shimol va g'arbda O'zbekiston (1161 km), shimalda Qirg'iziston (870 km), sharqda Xitoy (414 km) bilan chegaradosh. Chegaralarining umumiyligi — 3651 km. Toji kiston hududining 90% dan oshig'ini tog'lar tashkil qilib, mamlakat hududining yarmidan oshig'i dengiz sathidan 3000 m balandlikda joylashgan. Tojikistonning shimali g'arbiy va markaziy qismlarida Zarafshon, Turkiston, Hisor, Oltov tog'l tizmalari, janubi sharqida Pomir tog' tizmasi joylashgan. Eng balandcho'qqisi 7498 m. Tog' tizmalari bir-biridan vodiylar bilan ajralgan. Yirik vodiylari — Hisor va Vaxsh. Asosiy daryolari — Sirdaryo, Amudaryo. Yirik ko'li — Qorako'l. Asosiy tabiiy boyliklari; neft, gaz, ko'mir, uran, gidroresurslarga boy.

Iqlimi — kontinental. O'simlik dunyosi boy. Yaylov va tog'oldi o'simliklari, archa, yeng'oq, olcha, jiyda ko'plab o'sadi. Shoqol, jayra, quyon, xongul, to'ng'iz, yovvoyi mushuk, qor barsi, arxar, yovvoyi parrandalar, kaltakesak, ilonlar (kapcha, gyurza, efa) faunasining asosini tashkil etadi.

Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari. Davlat tuzilishi — respublika. Mamlakat tarkibiga Sug'd va Xatlon viloyatlari hamda Tog'li Badaxshon viloyati kiradi. 1991-yil 9-sentyabrda Tojikiston mustaqilligi e'lon qilinib, ushbu kun milliy bayram — Mustaqillik kuni deb qabul qilingan. Ijro etuvchi hokimiyat prezident (Oliy


Kengashning raisi) va Bosh vazir boshchiligidagi Vazirlar Mahkamasiga tegishli. Qonun chiqaruvchi oliy organ — Oliy Kengash. Eng yirik siyosiy partiyalari: Erkin mehnat partiyasi, Tojikiston xalq partiyasi, Kommunistik partiya.

Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari. Tojikiston — agrar-industrial davlat. Fuqarolar urushi natijasida Tojikiston iqtisodi chuqur inqirozni boshidan kechirmoqda. Hukumat bozor munosabatlariiga o'tishni qoilayapti. Lekin mamlakat iqtisodida davlat ulushi hanuzgacha asosiydir. Kimyo, yengil sanoat, rangli metallurgiya, mashinasozlik, oziq-ovqat sanoatlari yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i paxtachilikdir (paxta tolasi asosiy eksport mahsulotidir). Paxtachilikdan tashqari ipakchilik, bog'dorchilik, sabzavotlar va uzum yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Asosiy savdo sherkilari: Rossiya, O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi — 480 km, avtomobil yo'llari — 29900 km.

Tarixi. Hozirgi Tojikiston hududi m. a. VI asrda Ahamoniylar davlati tarkibiga, m. a. IV asrda esa makedoniyalik Iskandar imperiyasi tarkibiga kirgan. M. a. III asrdan Grek-Baqtriya, keyinroq Kushon davlatiga qaram bo'lgan. VIII asrda hozirgi Tojikiston hududiga arablar bostirib kiradi. IX-X asrlarda bu hududlar Samoniylar davlati, XII asrda Xorazmshohlar davlati, XIII asrda Mo'g'ullar davlati, XIV asrning ikkinchi yarmida Temur va temuriylar davlatiga qaram bo'lgan. XVI asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha Buxoro xonligi (amirligi) tarkibiga kirgan. 1868-yili Rossiya imperiyasi hozirgi Tojikiston hududlarini bosib oladi. 1917-yilgi davlat to'ntarishidan so'ng Tojikiston hududida sovet hokimiyati o'matiladi. 1924-yildan Tojikiston ASSR O'zbekiston SSR tarkibiga kiradi. 1929-yildan Tojikiston SSR maqomini oladi. 1991-yili mustaqillikka erishgandan so'ng, Tojikiston demokratik jamiyat qurish yo'lidan bormoqda.

11.6. O'zbekiston Respublikasi turizmi



Rasmiy nomi - O'zbekiston Respublikasi. Poytaxti - Toshkent shahri. Hududi - 448,9 ming kv.km.

Aholisi - 31022,5 mln (2015-yil 1-yanvar). Davlat tili - o'zbek tili. Dini - islam. Pul birligi - o'zbek so'mi.

Geografik joylashuvi va tabiat. Markaziy Osiyodagi davlat. Shimolda va g'arbda - Qozog'iston (chegaraning uzunligi - 2203 km), janubda - Turkmaniston (1621 km) va Afg'oniston (137 km), janubi sharqda - Tojikiston (1161 km), sharqda Qirg'iziston (1099 km) davlatlari bilan chegaradosh. Chegarasining umumiyligi - 6221 km. O'zbekiston relyefiga ko'ra tekislik va adir-tog' qismlarga bo'linadi. Hududning 4/5 qismini tekisliklar, aksari Turon pasttekisligi ishg'ol qilgan. O'zbekistonning shimoli g'arbida Ustyurt platosi, markaziy qismining sharqida Qizilqum sahrosi joylashgan. Turon pasttekisligi sharqqa tomon davom etib, tog'lar orasiga kirib borgan: shimolda - Mirzacho'l, o'rta qismida - Qarnob cho'li va Qarshi cho'li joylashgan. Bu cho'llar bora-bora tog'oldi qiya tekisliklariga qo'shilib ketadi. Farg'ona, Ohangaron vodiylari, Sangzor-Nurota soyligi, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo soyliklari tog'lar orasida joylashgan tekisliklardir. O'zbekiston hududidagi tog'lar Tyan-Shan va Hisor-Oloy tog' tizmalariga kiradi. Tizmalarning balandligi 4000 m dan ziyod. Hisor tizmasida joylashgan Hazrati Sulton cho'qqisi (4683 m) O'zbekistonning eng baland nuqtasidir.

Asosiy daryolari: Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron.

Yirik ko'llari: Orol dengizi (global ekologik muammo), Aydarko'l.

Tabiiy gaz, neft, qo'ng'ir ko'mir, toshko'mir, oltin, kumush, mis, qalay, molibden, marganes, xrom, volfram, vismut, uran, flyuorit, granit, marmar, ohaktosh, kaolin, topaz, feruza, amitist, tog' xrustali, xalsedon, yashma, nefrit, amazonit, rodonit, marmar oniksi - O'zbekiston qazilma boyliklarini tashkil etadi.

Iqlimi - issiq, quruq, kontinental. Janubi subtropik mintaqaga kiradi. O'zbekiston hududida 120 oilaga kiradigan 3700 ga yaqin turdag'i yovvoyi o'simliklar uchraydi. Cho'llarda juzg'un, saksovul, iloq, quyonsuyak, cherkez, qumarchiq, biyurg'un, shuvoq, tuyapaypoq; qolgan hududlarda tog'olcha, yong'oq, pista, archa, zarang, do'lana, tol, terak, omongora, suvqalampir, bargizub, zira, qizilpoysa, zirk, kiyiko't va boshqa o'simliklar o'sadi. Yumronqoziq, qumsichqon, qo'shoyoq, bo'ri, tulki, jayron, sayg'oq, bo'rsiq, to'ng'iz, morxo'r, arxar, ayiq, bars, chiyabo'ri, sug'ur, sassiqqa'zan, bir necha tur ilon, kaltakesak, zaharli hasharotlar, burgut, qora tasqara, qumoy, boltayutar, qirg'ovul, kaklik, bedana va boshqa qushlar hayvonot olamini tashkil etadi.

Davlat tuzilishi, siyosiy partiyalari. Davlat tuzilishi - Respublika. Mamlakat tarkibiga 12 viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi kiradi. O'zbekiston o'z mustaqilligini 1991-yil 31-avgustda e'lon qilgan.

Milliy bayrami - 1-sentabr (Mustaqillik kuni).

Ijro etuvchi hokimiyat - Prezident (davlat boshlig'i) va Vazirlar Mahkamasini boshqaradigan Bosh vazirga tegishli, Qonun chiqaruvchi hokimiyat Senat (yuqori palata) va Qonunchilik palatasi (quyi palata)dan iborat ikki palatali parlament - Oliy Majlisga tegishli. Siyosiy partiyalar: Xalq demokratik partiyasi, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi.

Iqtisodi, transport kommunikatsiyalari. So'nggi yillarda hukumat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosat bozor islohotlarini chuqurlashtirishga, xususiy lashtirish va tadbirkorlikni kengaytirishga, moliyaviy va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, milliy valutani mustahkamlashga qaratilgan. Chet el investitsiyalari kirib kelishiga imkoniyatlarning yaratilishi ishlab chiqarishning taraqqiy etishiga turki bo'ldi. Sanoatning rivojlangan tarmoqlari: rangli metallurgiya, to'qimachilik, yonilg'i, kimyo, oziq-ovqat, qurilish, mashinasozlik, avtomobilsozlik, samolyotsozlik. Paxta, bug'doy, sholi, turli meva va sabzavotlar, poliz mahsulotlari yetishtiriladi. Chorvachitik rivojlangan. Tola, tabiiy gaz, rangli metallar, kimyo va neft kimyosi mahsulotlari, avtomobil, meva va sabzavotlar, qorako'l terilari eksport qilinadi. 2006-yil YIM miqdori 48514 mln dollarni (aholi jon boshiga - 1800 doll.) tashkil etgan.

Asosiy savdo hamkorlari: MDH davlatlari, Germaniya, Yaponiya, XXR, Janubiy Koreya.

Temiryo'llarining umumiy uzunligi - 7000 km dan oshiq, avtomobil yo'llari - 80 000 km.

Tarixi. Hozirigi O'zbekiston hududida miloddan avvalgi (miloddan avvalgi) I ming yillikdayoq dastlabki quldarlik davlatlar - Xorazm, Baqtriya, Sug'd, Parfiya vujudga keladi. miloddan avvalgi VI asrda ahamoniylar O'rta Osiyoning ko'pchilik yerlarida mahalliy aholining qarshiligiga qaramay (Shiroq, To'maris) o'z hokimiyatini o'rnatdi. miloddan avvalgi 329-327-yillarda makedoniyalik Iskandar bu hududlarni o'z imperiyasi tarkibiga qo'shib oladi. Mahallyi aholining bosqinchilarga qarshi eng yirik qo'zg'onliga sug'd lashkarboshisi Spitamen bochchilik qiladi. Iskandarning vafotidan so'ng hozirgi O'zbekiston hududlari Salavkiylar davlati tarkibiga kiradi. miloddan avvalgi 250-yilda Grek- Baqtriya podsholigi tashkil topadi. Piu.a.ll asrda Qang', Parfiya, Farg'ona davlatlari vujudga keladi. Grek-Baqtriya podsholigi toharlar tomonidan tor-mor etilgandan so'ng Toharlar davlati tashkil topadi. II-IV asrlarda O'rta Osiyo, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston hududlarida Kushon podsholigi mavjud bo'lган. V asrda Eftalitlar davlati, VI asrning o'rtilarida Turk xoqonligi tashkil topadi. VIII asrda O'rta Osiyo Arab xalifaligi tomonidan zabt etiladi. O'rta Osiyo xalqlari arab hukmronligiga qarshi muttasil kurash olib boradi (G'urak, Divashti, Sharik, Muqanna, Rofe' ibn

Lays qo'zg'olonlari). Qo'zg'olonlarni bostirishda katta xizmat ko'rsatgan tohiriyalar, so'ngra somoniylarga hokimiyat topshirib qo'yiladi. Natijada IX asrning oxirlarida Somoniylar davlati O'rta Osiyo hududlarini mustaqil boshqara boshlaydi. X asr oxiri XI asrlarda O'rta Osiyoda Quraxoniyalar, G'aznaviyalar, Saljuqiylar davlatlari mavjud bo'lgan. XII asrda Xorazmshohlar davlati yuksaladi. IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda ilm-fan taraqqiyoti yuksak darajaga ko'tariladi. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy kabi qo'musiy olimlar, Najmuddin Kubro, Abduxoliq G'ijduvoniy, Imam al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy kabi tasavvuf namoyandalari yetishib chiqdi. 1218-1221-yillarda mo'g'ullar mahalliy aholining qattiq qarshiligiga qaramay (Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik) O'rta Osiyoni bosib oladi. 1238-yili Buxoroda mo'g'ullar istibdodiga qarshi Mahmud Torobiy boshchiligidagi yirik xalq qo'zg'oloni bo'lib o'tatii. 1370-yilda Amir Temur Samarqandda hokimiyatni qo'lga kiritib, yirik markazlashgan davlatga asos soldi. O'ttiz besh yillik hukmronligi davrida Temur katta hududlarni zabit etib, ulkan imperiya tashkil etdi. Temur vafotidan so'ng (1405) Movarounnahrda temuriylar o'rtasida taxt uchun kurash kechadi. 1409-yili Samarqand taxtiga Mirzo Ulug'bek o'tiradi. Temuriylar Movarounnahrda XVI asrgacha hukmronlik qilishadi. Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahrda hunarmandchilik, me'morchilik va adabiyot ravnaq topdi, ilm-fan yuksaldi, saydo rivojlandi. 1500-yili Dashti Qipchoqdan ko'chmanchi o'zbeklar xoni Muhammad Shayboniyxon Samarqandga hujum qiladi. Unga qarshi Samarqand taxti uchun Zahiriddin Bobur kurash olib boradi. Bir necha samarasiz urinishlardan so'ng Bobur Afg'onistonga ketishga majbur bo'ladi va 1525-yili Hindistonga yurish uyshtirib, u yerda Boburiylar imperiyasiga asos soladi. XVI asrda O'rta Osiyoda ikkita xonlik - Buxoro xonligi va Xiva xonligi vujudga keladi. Shayboniylardan Abdullaxon II (1534-1598) uzoq urushlardan so'ng parchalanib ketgan Movarounnahrni birlashtiradi. 1599-yili MovaB rounnahrda hokimiyat ashtarxoniylar (1599-1753) sulolasiga o'tadi. 1740-yil Eron shohi Nodirshoh Buxoroni egallaydi va Buxoro 7 yil Eronga tobe bo'ladi. 1753-yili Buxoroda hokimiyat mang'itlar sulolasining birinchi amiri Muhammad Rahim qo'lliga o'tadi. XVII asr boshlarida Qo'qon xonligi tashkil topadi. XIX asrning ikkinchi yarmidan Rossiya O'rta Osiyoga bostirib kira boshlaydi. 1873-yilga kelib O'rta Osiyodagi uchta davlat ham Rossiyaga qaram bo'ladi. 1917-yilgi oktabr to'ntarishidan so'ng Qo'qon muxtoriyati tashkil topadi, lekin bolsheviklar tomonidan quroq kuchi bilan tugatiladi. O'tgan asrning 20-yillari yarmigacha bolshevikkular va milliy ozodlik harakati o'rtasida keskin kurash kechadi. 1924-yilda SSSR tarkibidagi O'zbekiston SSR tashkil topadi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qiladi.

Tayanch so'z va iboralar: Qirg'iziston, O'zbekiston, Qozog'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Geografik o'rni, Relyef, Iqlim, Rasmiy nomi, Davlat tuzilishi, Iqtisod, transport, Tarix, Geografik joylashuvি

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Markaziy Osiyo mamlakatlarining geografik xususiyatlarini tushuntirib bering?
2. Qirg'iziston Respublikasi turizmi rivojlanish holati qanday?
3. Turkmaniston Respublikasi turizmi rivojlanish holati qanday?
4. Qozog'iziston Respublikasi turizmi rivojlanish holati qanday?
5. Tojikiston Respublikasi turizmi rivojlanish holati qanday?
6. O'zbekiston Respublikasi turizmi rivojlanish holati qanday?

12- MAVZU. O'ZBEKISTONNI TURISTIK RAYONLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

Reja:

- 12.1. Hududiy rekreatsion tizimlari (X.T.M.) rekreatsiya maqsadida rayonlashtirish
- 12.2. Turistik – rekreatsiya jihatdan rayonlashtirishning belgilari va xususiyatlari
- 12.3. O'zbekistonda turistik rayonlashtirishda yondoshuvlar va ekoturistik rayonlashtirish
- 12.4. O'zbekistonda ekoturistik rayonlashtirish

12.1. Hududiy rekreatsion tizimlari (X.T.M.) rekreatsiya maqsadida rayonlashtirish

Rekreasiya jihatdan rayonlashtirish bu – rekreatsiya sifatida foydalananish maqsadida shu belgilari asosida hududlarni ajratishdir.

Sog'lomlashtirish va dam olishni tashkillashtirish, hamda hududlardan samarali foydalananishda rekreatsiya maqsadida rayonlashtirishni katta ahamiyati bor. Bunda, hududiy rekreatsiya tizimlari (HRT), hamda hududiy turistik majmualar (HTM) asosiy o'rinni egallaydi. HRT – hududiy tabiiy va madaniy infrastrukturali majmua. U turli ixtisosga ega bo'lib, asosiy vazifasiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: *ijtimoiy* va *tibbiy – biologik*. Undan tashqari insonlarni davolanishi va dam olishi xususiyati kelib chiqib, mutaxasislar HRTning 4 ta guruhini ajratishadi:

- Davolanish;
- Sog'lomlashtirish;
- Sport;
- Tanishuv.

HRTning birinchi guruhida, insonlarning davolanishiga qaratilgan bo'lib, unda mineral suvlar, shifobaxsh balchiqlar, issiq qumlar mavjud joylar asosida xizmat ko'rsatish amatga oshiriladi.

HRTning ikkinchi (sog'lomlashtirish) va uchinchi (sport) guruhi esa, insonlarning sog'ligini tiklash hamda, dam olishiga qaratilgan. Bunda, dam olishning aktiv turlaridan, sayohat, ekskursiya va cho'milish bilan shug'ullanish amalga oshiriladi.

To'rtinchi guruh, insonlarning dam olishini mazmunli o'tkazishda maqsadida, turli tabiiy va madaniy obektlarga sayohat tashkil etish orqali, insonlarning ruhiy – psixologik sog'ligini tiklashga qaratilgan.

HRT – bu murakkab xo'jalik tizimi bo'lib, ya'ni sog'lomlashtirish va davolanish muassalari (turli sanotoriyalar, dam olish tashkilotlari, motellar,

kempenglar, lagerlar) sport bilan shug'ullanish muassalari, ekskursiya obektlari, hamda yo'l – transport tarmoqlaridan iborat. HRT shakllanishida hududda barcha xo'jalik tarmoqlarini birgalikda rivojlanishini tashkillantirishni talab etiladi. Bunda, bir qancha muammolarni hal qilish lozim bo'ladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- mintaqalar bo'yicha dam olish va davolanish muassalarni tabiiy – iqlimi sharoit, mineral suv va boshqa resurslardan kelib chiqib joylashtirish;
- rekreasiya resurslaridan tizimli ravishda samarali foydalanish;
- infrastrukturani shakllanishida tarmoqlar o'ttasida to'g'ri ixtisoslashishni tashkil etish;
- ovqatlantirish, kommunal va madaniy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini, hamda suvenir mahsulotlari ta'minotini yaxshilash;
- zamonaviy transport, yo'l tarmoqlari va aloqa vositalarini rivojlanish;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
- rekreasiya maqsadida foydalanishda tabiat landshaftlarini muhofaza qilish.

Undan tashqari rekreasiya majmularining 5 tipi ajratiladi: 1) Sanotoriya – kurort tipidagi; 2) Turistik – sog'lomlashtirish tipidagi; 3) Sanotoriya - turistik – sog'lomlashtirish tipidagi; 4) Ov qilish - baliq tutish tipidagi; 5) Turistik – sog'lomlashtirish tipidagi - ov qilish - baliq tutish tipidagi.

Hududiy turistik majmualarga A.S. Soliyev va M.R. Usmonovlar (Turizm geografiyasi, 38b.) quyidagicha ta'rif berishgan: HTM – ma'lum bir hududda yagona infratuzilma asosida turli turistik obektlarning o'zaro aloqaderlikda rivojlanishi va uni boshqarishini anglatadi. HTM va HRT bilan o'zaro chambarchas bog'liq, ammo ular o'ttasidagi tafovut ko'proq ularning hududiy jihatdan qanday masshtabni egallashida yotadi.

12.2. Turistik – rekreasiya jihatdan rayonlashtirishning belgilari va xususiyatlari

Rekreasiya maqsadida rayonlashtirishda rekreasiya resurslari xususiyatlarini, hamda mintaqani rekreasiya sifatida qabul qilish sig'imiini o'rganish talab etiladi. Bu maqsadda rayonlashtirish ishlari bilan bir qancha olimlar shug'ullanishgan. Kotlyarev Y.A turistik – rekreasiya jihatdan rayonlashtirishda quyidagi belgilarni asos qilib olishni taklif qilgan:

1. Ma'lum hududni kurort – sog'lomlashtirish xo'jaligini ixtisostashuvni jihatdan ifodalash.
2. Kurort – turistik – sog'lomlashtirish xo'jaligini moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari bilan aloqasi uyg'unligida ifodalash.
3. Butun aholiga nisbatan, mehnat resurslaridan kurort – turistik – sog'lomlashtirish xo'jaligida band mehnat resurslari ulushi jihatdan belgilash.

Kotlyarev Y.A. ko'lamiga ko'tra turistik – rekreasija rayonlarni 4 guruhga ajratadi: respublika (o'lka, viloyat), rayon, rekreasjon joy (hudud), rekreasjon mikrorayon.

Rus olimlaridan A.M.Vetitnev va L.B.Juralevalar esa turistik – rekreasija jihatdan rayonlashtirishda 4 jihatga e'tibor berishgan:

1. Ijtimoiy
2. Iqtisodiy
3. Geografik
4. Ekologik

Ijtimoiy nuqtai nazardan aholini jismoniy, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish hisoblansa, iqtisodiy nuqtai nazardan turistik xizmat ko'rsatishni boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlari bilan aloqada, majmua sifatida shakllanishi hisobga olinadi.

Geografik jihatdan turizm sohalarida hududiy mehnat taqsimoti shakllanishi, hududda rekreasija resurslarining foydalanish darajasiga e'tibor qilinadi. Ekologik jihatdan olganda, rayonlashtirishda insonni o'rabi turgan atrof – muhit va rekreasiya resurslaridan samarali foydalanish va muhofaza qilish nazarda tutiladi.

Umuman olganda, rayonlashtirishda obekt hududiy uzliksiz ko'tinishida yoki hodisa va voqelik hududning ayrim joylarida mavjud bo'ladi. Shu jihatdan turistik rayonlashtirish ko'p jihatlarga bog'liq. BuJarga:

- tabiiy landshaftlarni jozibadorligi nuqtai nazardan;
- ijtimoiy – iqtisodiy nuqtai nazardan;
- madaniy – tarixiy nuqtai nazardan qarashga bog'liq.

Turistik rayonlashtirishda tabiiy landshaftlarni jozibaligi hisobga olinganda geografik omillar (relef, iqlim, cho'l, tog', voha va boshqa lanjshaft rayonlari) asos vazifasini bajaradi. Bunday rayonlashtirish butun mamlakatni qoplab oladi. Ijtimoiy – iqtisodiy hamda madaniy – tarixiy nuqtai nazardan turistik rayonlashtirishda, arxeologik yodgorliklar, arxetekturna hamda shaharsozlik obektlari, ziyoratgohlar va boshqa turistik obektlar hududning faqat ayrim joylarida uchraydi. Shuning uchun ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy – tarixiy obektlarni turistik jihatdan rayonlashtirishda murakkabliklar mavjud.

12.3. O'zbekistonda turistik rayonlashtirishda yondoshuvlar va ekoturistik rayonlashtirish

Turistik rayonlashtirish sohaviy yoki tarmoq rayonlashtirish turkumiga kiradi. Bunday rayonlashtirishda hududiy mehnat taqsimoti va hududiy ixtisoslashuv asos qilib olinadi. Turistik rayonni shakllantiruvchi omillar sifatida tabiat landshaftlari, ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy – tarixiy obektlar va turistik infrastruktura xizmat qiladi (A.S.Soliyev, M.R.Usmonov, Turizm geografiyasi. 2005).

O'zbekistonda turistik rayonlashtirish mutaxasislar tomonidan keyingi yillarda amalga oshirilmoqda. Bu borada ham turli qarashlar mavjud. Masalan, M.R.Usmonov o'zining tadqiqotlarida mamlakatimizda 6ta turistik rayonni ajratgan (Toshkent, Mirzacho'l, Farg'ona, Zarafshon, Janubiy, Qo'yı Amudaryo turistik rayonlari). A.N.Norchayev esa o'z tadqiqotlarida 7ta turistik rayonni ajratgan (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Jizzax - Sirdaryo, Qashqadaryo - Surxondaryo turistik rayonlari). Biz yuqoridaq medologik asoslarga ko'ra mamlakatimizni quyidagicha rayonlashtirishni taklif qildik:

1. Toshkent turistik rayoni (Toshkent viloyati);
2. Farg'ona turistik rayoni (Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlari);
3. Mirzacho'l turistik rayoni (Jizzax, Sirdaryo viloyatlari);
4. Samarqand turistik rayoni (Samarqand viloyati);
5. Buxoro - Qizilqum turistik rayoni (Buxoro, Navoiy viloyatlari);
6. Janubiy turistik rayoni (Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari);
7. Quyi Amudaryo (Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi).

O'zbekistonning turistik rayonlari tavsifi

Toshkent turistik rayoni Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan iborat mintaqaga hisoblanadi. Toshkent shahri – Markaziy Osiyoning eng yirik shahri – O'zbekistonning Respublikasi poytaxtidir. Toshkent qadimiy shaharlardan hisoblanib, u haqidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan oldingi II asrdagi Xitoy solnomalarida uchraydi. Hozirgi kunda Toshkent yirik transport tuguni sifatida (havo, temir yo'l, avtomobil) o'zida mamlakatimizning tarixiy o'tmishini eslatib turuvchi taraqqiy topgan zamanoviy sanoat shahridir. Shuningdek, Toshkent turistik rayoni turistik resurslarga boy hisoblanib, mahalliy va halqaro ahamiyatdagagi sayyoqlikni rivojlantirish imkoniyatlariga ega. Mazkur rayonda madaniy – tarixiy, tabiiy rekreasiya resurslari mavjud. Bu yerda Oqtosh, Xumson, G'azalkent, Tovoqsoy, Boldirsoy, Chorbog', Chimyon, Kumushkon, So'qoq, Ohangaron, Yangiobod, Ertosh, Ko'ksaroy, Qizilchi kabi dam olish va davolanish resurslariga ega. Rayonning turli tekislik va tog'li qismida ekskursiya obektlari va shifobaxsh maskanlari ko'p. Bu rayonda Botanika, Turon, Chinobod, Toshkent mineral suvi, 8 mart, Qibray, Bo'ston, Zangchi ota kabi bir qancha sanatoriya va kurort zonalari joylashgan. Yuqoridaq tabiiy rekreasiya resurslaridan kelib chiqib ekologik turizmni tashkil etish imkoniyatlari bisyor. Ayni kunda Chotqol davlat qo'rio'xonasiga turli marshrutlarni yaratish katta samara beradi. O'z navbatida Toshkent turistik rayoni madaniy-tarixiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy obektlarga boy hisoblanadi. Toshkent shahrida ko'plab muzeylar mavjud. Masalan, Tasviriy san'at muzeyi haykallar, rasmlar va turli hunarmandchilik mahsilotlarining yirik

to‘plamiga ega. O‘zbekiston Amaliy San’at muzeyi 30 mingdan ortiq hunarmandchilik mahsulotlari va qimmatbaho taqinchoqlariga ega. Undan tashqari XVI asrning ajoyib yodgorligi Baroqxon madrasasi, XIV asrda oid Ko‘kaldosh madrasasi kabi qadimiy arxitektura yodgorliklari va zamonaviy Amir Temur xiyoboni, Mustaqillik maydoni kabi turli bog‘ va maydonlar ham turistlarni jalb qiluvchi obektlardir.

Mazkur turistik rayonda turizm infratuzilmasi boshqa rayonlarga nisbatan ancha rivojlangan. Xususan, Toshkent shahri va Toshkent viloyati tog‘oldi mintaqalaridagi turistik obektlarda mehmonxona va dam olish maskanlarida turistlarga xizmat ko‘rsatish darajasi yildan – yilga yaxshilanmoqda. Bu albatta yuqori darajada urbanizasiyalashgan hudud uchun ayniqsa muhimdir.

Toshkent shahrtini 2007 yil «Islom madaniyati poytaxti» deb e‘lon qilinishi natijasida poytaxtimizning dovrug‘i yanada oshdi vash u bilan birga hukumatimiz tashabbusi bilan ko‘pgina qadimiy yodgorliklar qayta ta‘mirlanib o‘z jozibadorligini yanada oshirdi. Bu shundan dalolat beradiki, mazkur turistik rayonda turizmnı rivojlanishi istiqbollari yana ham kengayib boradi.

Farg‘ona turistik rayoni respublikamizning uch viloyatidan iborat (Farg‘ona, Andijon, Namangan), eng so‘lim, tabiatli go‘zal maskandir. Rayon o‘zoq tarixga ega hunarmandchilikning yirik markazi sifatida hozir ham ahamiyatini yuqotmagan. Qadimiy shaharlardan hisoblangan Qo‘qon shahrida bir qancha arxitektura yodgorliklari mavjud. Masalan, Qo‘qonning oxirgi xoni Xudoyorxon saroyi, Modarixon maqbarasi shular jumlasidandir. 2700 yil yoshga kirgan Marg‘ilon (2007y) X asrda o‘zining ipak matolari bilan mashhur bo‘lgan. Marg‘ilonning monumental yodgorliklaridan bezatilgan, masjid, minora, maqbara va kaptarxonadan iborat bo‘lgan Kaptarlik kompozasiyasi (XVIII) hamda Shouda masjidini kechitirish mumkin. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek turistik rayonda milliy hunarmandchilik taraqqiy etgan. Shu o‘rinda Marg‘ilon ipaklari, shoyilar va do‘ppilari, Chust pichoqchiligi, charmdo‘zligi, Rishton kulochlilik mahsilotlari hamda Andijon, Asaka, Pop, Qo‘qon, Shahrixon kabi shaharlari ham ma‘lum hunarmandchilik turlari bilan turistlarini jib qilish imkoniyatiga ega. Yozyovon cho‘llari noyob cho‘l landshafti bo‘lsa, Aksi, Eski Pop, Tuproqqa‘la ekoturistik obidalar va rayon etnografiyasi, san’ati, madaniyati, urf-odatlari (tuylari, milliy uyinlar) hamda choyxonalari turistik qiziqishni orttiruvchi resurslardir.

Turistik rayon tabiiy – rekreasiya resurslariga ham boydir. Hozirgi kunda mazkur turistik rayonda 55 ga yaqin noyob tabiiy turistik obektlar hisobga olingan. Dam olish va davolanish maskanlariga Chortoq, Chimyon, Shohimardon, Vodil kabilarni misol keltirish mumkin. Undan tashqari Namangan viloyatidagi Chortoq, Gulshan dam olish va davolvnish sihatgohlari, Baliqko‘l, Nanay, G‘ova, Mavlono Lutfullo, Parda Tursun kabi dam olish maskanlari va ziyoratgohlari, Andijon

viloyatidagi Shirmonbuloq, Xonobod, Dilkushod dam olish maskanlari, Qutayba Ibn Muslim, Imom ota, Qambar ota va boshqa diniy ziyyaratgohlar rayonni turistik resurslar salohiyatini belgilaydi. Vodiya 50 dan ortiq mineral suv manbalari mavjud. Misol uchun turli kasalliklar davolanayotgan Chortoq mineral suvi 1946 yilda ochilgan.

Hozirgi kunda rayonda mahalliy turizm ancha rivojlangan bo'lib, ammo chet el turistlarini jalb qilish nisbatan past darajada. Chunki, birinchidan, rayon turistik nuqtai nazardan yaxshi o'r ganilmagan, ikkinchidan, turistik infratuzilma yuqori darajada takomillashmagan. Agarda yuqoridagi muammolar o'z yechimini topsa, mintaqaga mamlakatimizning turistlarni qabul qiluvchi asosiy markazlariga aylanadi.

Mirzacho'l turistik rayoni o'zining tabiiy rekreasiya resurslari, o'ziga xos landshaft zonalari va qadimiy manzilgohlari bilan mashhur. Jizzax viloyatining Morguzar va Turkiston tog' tizmalaridagi tabiiy va rekreasiya maskanlari, Sangzor daryosi havzasining landshaft zonalari ushbu rayonning turizm imkoniyatlarini oshiradi. Undan tashqari Zomin va Baxmal tog' va tog'oldi mintaqalari aziz qadamjolar hamda dam olish maskanlariga boy hisoblanadi. Turistik rayonda ekologik turizmni rivojlantirish borasida amaliy ishlar boshlangan. «Yekosan» xalqaro jamg'armasining ekoturizm bo'sinmasi tomonidan Jizzax viloyatining Zomin milliy bog'i va Nurota qo'riqxonalariga marshrutlar ishlab chiqilgan. Zomin milliy bog'i Toshkentdan 250 km o'zoqlikda bo'lib, viloyatdagi Tureiston tog' tizmasining shimoliy yonbag'rida joylashgan. Bog'ning umumiy maydoni 24,1 ming ga, shundan 12,1 ming ga o'rmonlar va 16,7 ming ga o'rmon bilan qoplangan yerlardan iborat. Milliy bog' rekreasjon zonalardan iborat. Unga ekologik turizmni soylar bo'y lab, hamda tabiatning ajoyib obektlariga piyoda va otlarda uyushtiriladi.

Nurota davlat qo'riqxonasi Jizzax viloyati Forish tumanida Nurota tog' tizmasining yonbag'rida joylashgan. Unumiy maydoni 17,7 ming ga bo'lib, turistik marshrutlar piyoda va otlarda uyushtiriladi. Marshrutlar asosan ibtidoiy jamiyatning toshlarga chizilgan rasmlari, relikt daraxtlar, Seversov qo'ylarining tabiatdagi populyasiyasini o'rganish va tomosha qilishga asoslangan.

Undan tashqari Jizzax viloyatining Baxmal tumani so'lim go'shalari, hamda muqaddas ziyyaratgohlarga boy hisoblanadi. Bunda G'allaorol tumanidagi Sadir Vaqqos avliyosini qo'shib hisoblaganda 11 ta muqaddas joylarni ziyyarat qilish qilay hisoblanadi. Bu ziyyaratni Qirqqiz avliyo – Do'lana avliyo – O'smat ota – Novqa ota – Mir Said Ahmad – Bog'imazor ota – Jo'm-Jo'm ota – Azizlar – Terakli ota – Xo'ja Ko'ndalang – Sadir Vaqqos avliyo yo'nalishida tashkil etish mumkin.

Mazkur turistik rayonda turizmni rivojlantirishning asosiy muammosi turizm infratuzilmasini yaxshilashdir. Mintaqada turistik xizmat ko'rsatishning barcha tarmoqlarini rivojlantirish talab etiladi. Shunda, mazkur mintaqada iqtisodiyotida turizm o'z o'rniiga ega bo'ladi.

Samarqand turistik rayoni mamlakatimizning asosiy turizm markazidir. Turistik rayon ma'muriy jihatdan Samarqand viloyatidan iborat bo'lib, respublikamizda tabiiy va iqtisodiy geografik jihatdan qulay mintaqada joylashgan. Rayon tabiiy shart-sharoiti, yer usti tuzilishi geografik jihatdan chegaralanishi, ya'ni uning janub va shimol hamda shimoli-sharq tomonlari tog' va tog'liklardan iboratligi ham turizm sohasida juda katta mazmun kasb etadi. Uning chegaralari shimolda Nurota tog'lari (Oqtov, Qora tog', G'o'bdi tog', Qo'yotosh tog'i), janubdan Zarafshon tog' tizmalari (Chaqilqalon, Qoratepa, Ziyovuddin, Zirabuloq b.k.) bilan o'tadi.

Viloyatning asosiy yer usti tuzilishi o'ziga xos bo'lgan tabiiy va landshaft xususiyatlari rekreasiya resurslarining rivojlanishiga sabab bo'lgan. Uning tekislik qismida ya'ni Zarafshon daryosi sohillarida, Qarnabcho'l va Jom kabi cho'l hududlarida sayyohlikning kabi ekoturizm turlarini tashkil etish mumkin.

Viloyatning yer osti va yer usti gidrologik suv resurslari, tog', tog' oldi etaklari hamda tog' oralig'i soylarida tabiiy ravishda hosil bo'lgan landshaftlar (tabiiy manzaralari), yam-yashil o'rmonzorlar (Omonqo'ton), tog'u-tosh jinslar shakllari (Qoratepa), tog' daralari (chuqurliklari), g'orlar (Hazrati Dovud, Kelsi, Lev), noyob tabiat yodgorliklari (Kamongaron, G'us), shifobaxsh buloqlar, Yuqori chinor (Mingchinor), Qaynar buloq, Rohatbulloq, ajoyib ko'lllar (Muz buloq, Alvasti ko'llari), go'zal shar-sharalar (G'ussoy, Kamangaron) va hakozolar mintaqamiz turizm imkoniyatlarini yanada oshiradi. Zarafshon daryosi qadimiy turistik obektlarga boy yaxlit sayyohlik majmuasi (kompleksi) hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, viloyatning tog', tog' oldi hududlarida mavjud bo'lgan beqiyos shifobaxsh, tibbiyat va boshqa sohalarda keng ko'lamda foydalanadigan chashma va buloq suvlari o'zining ekologik jihatdan tozaligi, xilma-xil kimyoviy elementlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ular aholi sog'ligini tiklash, sog'lomlashtirish, dam olish uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi va mintaqamizda rekreasiya (sog'lomlashtirish, hordiq chiqarish) turizmnинг ahamiyatini oshiradi. Bunday tabiiy maskanlar viloyatimizning Urgut, Samarqand, Nurobod, Qo'shrobod va boshqa tumanlari tog', toqoldi hududlarida tarqalgan bo'lib, ularidan turizm maqsadida foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Viloyatimiz o'zining go'zal tabiatni, o'simlik va hayvonat dunyosi bilan ham mamlakatimizning boshqa mintaqalaridan alohida ajralib turadi. Viloyatiimizga tashrif buyuradigan sayyohlarni tarixiy arxitektura-qurilish inshoatlari, qadimiy obidalardan tashqari ming yillik tarixga ega bo'lgan chinorlar va boshqa yashil daraxtlar beqiyos ko'pdir. Viloyatning tog', tog'oldi hududida joylashgan Omonqo'ton o'rmonzorlarida (maydoni 2188 hektar bo'lib, 1887 yilda dastlabki ko'chatlar ekilgan) o'ziga xos tabiiy landshaft shakllari vujudga kelgan. Omonqo'ton hududining iqlimi va o'simlik dunyosining o'ziga xosligi bu joyda

ko'plab dam olish zonalari, oromgohlar qurish imkonini beradi. Ammo sayyoohlarga Omongo-ton havzasidagi o'tmonzorlarni ko'rsatish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, maxsus yo'lakchalar qurish lozim bo'ladi. Viloyatning yana bir qator tumanlarida va qishloqlarida ming yillik davrga teng qadimiy noyob daraxtlar (archalar, chinorlar) hanuzgacha saqlanib qolgan. Ular qatoriga Urgut shahridagi yuqori Chor Chinor (1020 yillik), Kattaqo'rg'on tumani Qoradaryo qishlog'idagi chinor (565 yillik), Nurobod tumani Tim qishlog'idagi archa 1000 yillik, Jomboy tumani Xolvoysi qishlog'idagi ming yillik archalarni misol keltirish mumkin. Ayniqsa, Jomboy tumanida joylashgan Zarafshon daryosi qayirida joylashgan Zarafshon qo'riqxonasi betakror o'simlik va hayvonat dunyosining xilma-xilligi bilan alohida ajralib turadi va mavsumiy hamda qisqa muddatli sayyoohlilikni tashkil qilish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Viloyatning chala cho'l va cho'l hududlari ham esa o'ziga xos hayvonat va o'simlik dunyosiga ega. Ularda sudralib yuruvchilar turkumidan turli xil zaharli ilonlar, cho'l toshbaqalari, qushlardan to'rg'ay, qarchig'oy, sut emizuvchilardan sariq sassiq ko'zan, kabilar uchraydi. Mazkur hududlar o'simlik va hayvonat dunyosiga qiziquvchi *ekoturizm* ishqivozlari uchun yangi turistik marshrutlarni tashkil etishni talab qiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, bozorlar bilan sayyoohlarning tanishishi juda katta iqtisodiy va ijtimoiy geografik mazmun kasb etadi. Chunki, bozorlar, ayniqsa sharq bozorlari mintaqaga va hududning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini, uning boyligi, ixtisoslashuvi, aholining milliy tarkibi, urf-odatlari, milliy qadriyatлari va an'analarini o'zida mujassamlashtiradi. Shunday ekan, tarixiy yodgorliklar, qabristonlar kabi bozorlar ham sayyoohlarni uchun juda muhim turistik obekt bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham bozorlarning sanitariya holatlarini yuqori darajaga ko'tarish va uni doimo nazorat qilish shu kunning eng muhim muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi kunda viloyatimizda turizm sohasida o'z yechimini kutayotgan bir qator muammolar borki, ularni bosqichma-bosqich hal etish kelajakda ushbu sohani mintaqaga iqtisodiyotining yetakchi farmog'iga aylantirishga xizmat qiladi. Chunonchi, Samarcand turizmini yuksaltirishda sayyoohlarni ayriboshlashni, turizm bozorini yaxshi yo'lga qo'yish eng muhim muammolardan hisoblanadi.

Buxoro - Qizilqum turistik rayoni respublikamizning asosiy turizm markazlaridan hisoblanadi. Bu rayonga Buxoro va Navoiy viloyatlari kiradi. Turistik resurslarga eng boy shahar bu Buxoro shahridir. Shahar o'zining 170 tadan ortiq beباо, takrorlanmas tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan jahonga mashhur. Hozirgi kunda shaharning umumiyl maydoni 710 hektardan ortiq bo'lib borgan sar'i go'zallashib bormoqda va sayyoohlarni oqimining ko'payishiga imkoniyat keng ochilmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, Buxoro Markaziy Osiyoning boshqa shaharlaridan farqli o'laroq u o'zida takrorlanmas qadimiy sharqona shahar tuzilishi qiyofasini hanuzgacha saqlab kelmoqda. U O'rta Osiyo me'morchiligining ming yillik tarixini o'zida aks ettirgan chinakam yilnomadir. Shahardagi har bir tarixiy yodgorlik va obidalar o'z sukunatida olis o'tmish sirlarini saqlab qolgan. Buxoro shahri haqiqatda "Muzey shahar" maqomiga ega bo'lib, u diqqatga sazovar tarixiy yodgorliklar va obidalarga juda boy hisoblanadi. Buxoroi sharifga tashrif buyuruvchi har bir xorijiy sayyoh o'zini sayyohatini birinchi bo'lib, shaharning eng muhim tarixiy yodgorliklaridan biri Ark-qa'lasidan boshlaydi.

Ark-qa'la 2000 yillik tarixga ega. U sayyoohlarn qadami o'zilmaydigan turistik obekt bo'lib hisoblanadi. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan qurilish obektlari XVII asr oxiri va XX asr boshlarida qurilgan. Ark-qa'la shaharning g'arbiy qismida qad ko'targan. Uning umumiy maydoni 3,16 hektar bo'lib, devorlarning uzunligi 790 metrdan ortadi. Ark-qa'la hududida juda katta binolar majmuasi joylashgan bo'lib, ularidan biri Childuxtaron masjidi hanuzgacha saqlanib qolgan. Qa'llada sayyoohlarning e'tiborini jatl qiladigan yana bir narsa-bu qadimgi zindondir. Hozirgi Ark-qa'la hududida Buxoro viloyati tarixiy o'lkashunoslik muzeyi joylashgan. Qa'laning sharqiy qismi esa arxeologik yodgorlik sifatida saqlanib kelinmoqda.

Minorai Kalon Buxoro shahrining ko'rkidir. U Markaziy Osiyodagi mashhur arxitektura yodgorliklarining eng balandi (46.5 metr) salobatli va chiroyli minorasi bo'lib, hisoblanadi. Minorai Kalon yaqin atrofida Kalon masjidi va Mir Arab madrasasi kabi arxitektura yodgorlik ansambli (Poy Kalon) joylashgan. U XVI asrga kelib qaytadan ta'mirlandi. Masjid binosida 208 ta ustunlar bo'lib, umumiy maydoni bir gektardan ortadi. Bu masjid Markaziy Osiyodagi eng yirik inshoatlardan biri hisoblanib, Samarqanddag'i Bibixonim masjididan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Mir Arab madrasasi 1536 yilda qurilgan bo'lib, Kalon masjidi bilan birga tutashib ketgan. Madrasa markaziy qismida Ubaydullaxon qabri, uning bosh qismida esa Mir Arab qabri joylashgan. Hozirgi kunda Mir Arab madrasasi hududida Buxoro diniy bilim yurti faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Shaharda xorijiy sayyoohlarn diqqatga sazovar joylardan yana biri-bu Ulug'bek madrasasidir. U 1417 yilda qurilgan. Bu madrasa buyuk astronom olim Mirzo Ulug'bek nomi bilan chambarchas bog'liq. Shaharda musulmon olamidagi eng ajoyib tarixiy yodgorliklaridan biri Ismoil Samoniy maqbarasi bo'lib hisoblanadi. U shu kunga qadar juda yaxshi saqlanib, bizga yetib kelgan tarixiy obidalardan biridir. Bu bino o'rta asrning ilk davri me'morchiligining eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan inshshotdir.

Shaharda yana bir qator turistik obektlar borki, ular qatoriga Madorixon madrasasi (1566-1567 yillar), Abdullaxon madrasasi (1588-1590), Xo'ja Zayniddin

xonaqasi (shayx Zayniddin qabri), Chashma Ayub mavzoleyi (1330-1385 yillar), Abdulazizzon madrasasi (1652 yil), Chor Minor madrasasi (1807 yil), Kulba Ko'kaldosh madrasasi (1568-1569 yillar), Nodir Devonbegi madrasasi (1622 yil), Sayfiddin Buharzi mavzoleyi (XV-XVI asrlar), Buyon Kulixon mavzoleyi (1358 yil), Magohi Attoriy masjidi (XII asr), Toki Zargaron zargarlik bozori rastlari (XVI asr), Toki Telpak Furushon bosh kiyim (do'ppi) bozori (XVI asr), Toki Sarrafon mayda-chuydalar (attorlik) bozori (XVI asr), Magoki – Attaron masjidi (XII asr), Labi havuz ansambli (XVI-XVII asrlar), Ko'kaldosh madrassasi (1622 yil) ni kiritish mumkin.

Shu manzilgohlardan biri Buxoro xonining yozgi qarorgohi Sitorai Moxi-Xosadir. Bu qarorgoh Buxoro shahrining shimoliy-sharqiy qismida 4 km uzoqlikda joylashgan yozgi bog' saroy XIX asr oxiri va XX asr boshlarida barpo etilgan. Moxi-Xosa saroyi Sharqona va Yevropa uslubida qurilgan inshoat bo'lib hisoblanadi. Ikkinci muhim turistik obekt-bu Bahovuddin Naqshbandiy majmuasi bo'lib, u shahardan chamasi 15 km uzoqlikda joylashgan. Bu majmua XVI asrda qurilgan. Shahar atrofidagi muhim tarixiy yodgorliklaridan Chor Bakr, Namozgoh masjidi, Varaxshon saroyi joylashgan.

Turistik rayondagi muhim xorijiy turistik obektlar qatoriga Qizilqum cho'lini kiritish mumkin.U eng katta hududni egallab, viloyat turistik yo'nalishidagi eng uzoq masofali (450 km) marshrut hisoblanadi. Bu marshrut Qizilqum cho'li va Amudaryo qirg'oqlari bo'tylab o'tadi. Uni avtomobil vositasida sayr qilib o'tish o'zgacha zavq beradi.

Qizilqumda o'simlik va hayvonat dunyosini asl holida saqlab qolish maqsadida Buxoro viloyati hududida Qizilqum davlat qo'riqxonasi (1971 yil) tashkil etilgan. Viloyat hududida noyob ekzotik, yovvoyi hayvonlami ko'paytiradigan «Jayron» ekomarkazi Qorako'l. Qoraqir-maydoni 300 kv.km; Dengizko'l Vardanzi Davlat tabiat yodgorliklari kabi maskanlar ekoturizm yanada rivojlantirishga juda katta imkoniyatlari yaratadi. Mazkur sayyoqlik obektlaridan biri Kogon va Qoraulbozor tumanlari hududida joylashgan.

«Jayron» ekomarkazi bo'lib u, noyob olachipor jayronlarni maxsus o'rehitidigan ilmiy dargoh bo'lib hisoblanadi. Bu obekt viloyat turizmida yangi marshrutlar ro'yxatini kiritish lozim bo'ladi.

Janubiy turistik rayon ma'muriy jihatdan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan iborat bo'lib, tarixiy va tabiiy turistik resurslarga ega. Qashqadaryo viloyati o'zining qadimiy shaharlariiga ega. Qadimda yirik savdo va hunarmandchilik markazi hisoblangan Shahrisabz shahri Amir Temur qurdirgan Oqsaroy ansamblı ko'plab diniy ziyoratgohlarga boydir.Viloyat markazi hisoblangan Qarshi bir necha arxitektura yodgorliklarga ega. Bular: Ko'kgumbaz masjidi (1463y), Jome' masjidi, Minorali Qo'rg'oncha, Xo'ja Abdulaziz madrasasi,

Qilichboy madrasasi, Zaxox – Moron shaharchasi harobalari va Qashqadaryo daryosi ustidan o'tgan qadimiy ko'priklar bilan yuqoridagi arxitektura obidalarning jozibadorligi yanada oshdi.

Turistik rayonning yana bir qadimiy shaharlaridan biri Termizdir. Termiz shahri eramizdan oldingi II-I asrlarda Hindistonni Markaziy Osiyo orqali Yevropa bilan bog'lovchi korvon yo'llarining chorrahasida paydo bo'lган. Termiz yonida eramizdan oldingi III-II asrlarda Yunon – Baqtriya davlatiga tegishli turar joylar topilgan. Qoratepada Buddha madaniyatiga tegishli turli yodgorliklar, Fayoztepada Buddha ibodatxonasi harobalari mavjudligi, bu joylarga sharqiy Osiyolik turistlarni jalb qilmoqda.

Turistik rayon tabiiy – iqlimi turistik resurslarga ham boy hisoblanadi. Mintaqaning tabiiy go'zal va o'ziga xos tabiat, refezi turizmni turli yo'nalishlari rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, Hisor tog'ining go'zal manzarasi va undagi ko'plab shifobaxsh buloq va chashmalar aholini dam olish va salomatligini tiklashda ahamiyati katta. Yana rayondagi alohida muhofaza qilinadigan hududlar hisoblangan Kitob geologik qo'riqxognasi, Hisor, Surxondaryo, Payg'ambarorol davlat qo'riqxonalarida ekologik turizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, bu mintaqada yashayotganxalqning o'zoq o'tmishtan'an'analari, san'ati, madaniyati va urf – odatlari mahalliy hamda xorij turistlarini qiziqtirishi shubhasizdir.

Qo'yi Amudaryo turistik rayoni O'zbekiston Respublikasining eng g'arbiy qismida, ma'muriy jihatdan Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat. U o'zining madaniy – tarixiy obidalari, arxeologik yodgorliklari, hunarmandchiligi va san'atining o'ziga xosligi, hamda tabiiy – rekreasiya resurslari bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Albatta bu turistik rayonning o'zagini Xorazm vohasi tashkil etadi. Bu voha o'zining qadimiy madaniyati, ilmu – fan va san'ati bilan mashhurdir. Bu o'rinda Xiva shahri o'zining qadimiy arxitektura yodgorliklari bilan yurtimizda alohida ajralib turadi. Xivada Ichon qal'a 2.5 km uzunlikdagi devorga, Ota darvoza, Shimoliy, Sharqiy, Janubiy, Buxoro va Toshdarvozalarga ega bo'lib, chet el turistlarini o'ziga jalb qiladi. Shaharda Pahlovon Mahmud maqbarasi (1835 y), Muhammad Aminxon madrasasi (1850-1855y), Ko'na Ark, Tosh hovli, Olloqulixon karvonsaroyi (1855 y) va boshqalar muhim turistik obektlardir.

Shu kabi Qoraqalpog'iston Respublikasida ham bir qancha turistik resurslarga ega. Xususan qadimiy shahar va qal'a harobalarini sayyohlik yo'nalishlariga kiritish mumkin. Orol dengizi va uning sojiasi bilan qiziquvchilar uchun ekoturistik marshrutlarni yaratish hisobiga, bu mintaqada turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish mumkin. Boshqa rayonlardagi kabi bu turistik rayonda ham

yuqorida qayd qilinagan resurslardan turizm maqsadida foydalanilmayapti. Shu o'rinda bu mintaqani turistik jihatdan ilmiy o'rganish, xizmat ko'rsatish sohalarini takomillashtirish asosiy vazifa hisoblanadi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, mintaqalarda turizm sohasini malakali kadrlar bilan ta'minlash ham muammoni yechimlaridan biridir.

Jadval 10.

Turistik rayonlarning turistik resurslari salohiyati

Mintaqalar	Turistik resurslar va obektlar
Toshkent	Ko'kaldosh madrasasi, Kaffol Shoshiy maqbarasi, Hazrati Imom arxitektura majmuasi, Abulqosim madrasasi, Baroqxon madrasasi, Jome' masjidi, Amir Temur muzeyi va xiyoboni, Mustaqillik maydoni, Xalqlar do'stligi maydoni, Jasorat monumenti, Xasti Imom maydoni, Tilla Shayx masjidi, Xadra maydoni, So'fi Ota maqbarasi.
Samarqand	Afrosiyob arxeologik majmuasi, Mirzo Ulug'bek rasadxonasi, Shohi Zinda arxitektura majmuasi, Hazrati Hizr masjidi, Bibixonim masjidi, Ulug'bek madrasasi, Sherdor madrasasi, Tillakori madrasasi, Ruhobod maqbarasi, Oqsaroy maqbarasi, Go'tri Amir maqbarasi, Namozgoh masjidi, Ishratxona maqbarasi, Hoja Ahror majmuasi, Hoja Abdu Darun qabristoni
Buxoro	Ark, Bolo – Hovuz majmuasi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Chashmai – Ayub, Abdulloxon madrasasi, Modari – Xon madrasasi, Masjidi Baland, Gavkushon majmuasi, Zayniddin Hoji xonaqosi, Poyi – Kalon majmuasi, Labi – Hovuz majmuasi, Ko'kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi xonaqosi, Ulug'bek madrasasi, Abdulazizzon madrasasi, Bolohovuz masjidi, Sayfiddin Boharziy maqbarasi, Bayonqulixon maqbarasi, Fayzobod xonaqosi, Chorminor madrasasi, Buxoro amirining Sitorai Mohi – xosa yozgi saroyi, Chor – Bakr majmuasi.
Xorazm	Ichon qal'a, Saidboy masjidi va madrasasi, Polvon Darvoza, Olloqulixon madrasasi, Qutlug'murod – inoq madrasasi, Olloqulixon Timi va Karvonsaroyi, Abdulloxon madrasasi, Anushxon masjidi va harami, Toshhovli, Oqmasjid, Juma masjidi va minorasi, Said Olovuddin maqbarasi, Muhammad Aminxon madrasasi, Kaltaminor, Ko'na Ark, To'ramurod minorasi, Sherniyozxon madrasasi, Bog'landi masjidi, Arabxona madrasasi.
Qashqadaryo	Oqsaroy, Dorus – Saodat majmuasi, Hazrati Imom masjidi,

	Jahongir maqbarasi, Dor – ut – Tilovat arxitektura majmuasi, Ko‘k Gumbaz masjidi, Gumbazi Saidon, Shamsiddin Kulol maqbarasi.
Surxondaryo	Qirq – qiz saroyi, Termiz hukmdorlari saroyi, Hakim at Termiziy arxitektura majmuasi, Sulton – Saodat arxitektura majmuasi, Qoratepa ibodatxonasi, Fayoztepa ibodatxonasi.
Farg‘ona	Xudoyorxon saroyi, G‘ishtlik masjidi, Jome’ masjidí va minorasi, Mulkobod masjidi, Saida Ahmadhoji madrasasi, Chokar masjidi, Xo‘ja Magiz maqbarasi, Mullo Qirg‘iz madrasasi, Axsikent qadimiy shaharchasi.

12.4. O‘zbekistonda ekoturistik rayonlashtirish

O‘zbekiston ekologik turizmni (ekoturizm) rivojlantirishni keng imkoniyatlariiga ega. Turizmni bu sohasini rivojlantirish uchun rayonlashtirishni amalga oshirish katta ahamiyatga ega. Ekologik turizm nuqtai nazaridan ekoturistik rayonlashtirish – ma’lum bir hududni uning ekoturistik holati, imkoniyati va kelajak istiqbollariga ko‘ra ajratishdir.

Yekoturistik rayonlashtirishning ilmiy asosi sifatida quyidagi geoekologik tasnifiy belgilar olindi:

- har bir tabiiy geografik kompleks qaytarilmas ekoturistik imkoniyatlarga, ya’ni regionallik xususiyatlariga ega;
- ekoturistik obekt chegarasi doimo ham ma’muriy chegara to‘g’ri kelavermaydi, ya’ni tabiiy geografik kompleks ta’sir doirasida turadi va shuning uchun ham undan kompleks foydalanish imkoniyati ochib berilishi lozim. Tabiatga uyushtirilgan sayyoqlik mohiyatida tabiatni muhofaza qilish, turistlarning ekologik ongi va madaniyatini ko’tarish, buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklash masalalari turishi lozim;
- ekoturistik rayonlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish va uning jozibadorligini namoyon etish uchun ekoturistik marshurutlar, tarixiy, tabiiy, ma’naviy-ma’rifiy, diniy kabi turistik sayohatlar bilan birga olib borish imkoniyatlarini hisobga olish, ekoturistlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini yuzaga chiqarish va h.k.

Yuqorida aytib o‘tilgan ilmiy prinsip va asoslarga binoan A.Nig‘matov va N.Shomuratova O‘zbekiston hududini 14 ta ekoturistik rayonga ajratgan..

I.Ustyurt ekoturistik rayoni. Ustyurt - O‘zbekistonning shimoliy-g‘arbi – Qoraqalpog‘istonda joylashgan plato (yer yuzasi kam parchalangan yassi tekislik). Uning maydoni juda katta (200 ming km^2), yo‘llari asfalsiz, o’nqir-cho’nqir

yo'llardan iborat bo'lgani uchun ham ekoturistik marshurutlar "djip" rusumdag'i mashinalar, samolyot yoki vertolyotlarda olib borilgani maqul. Ustyurtning sayyohlarni o'ziga jaib qiladigan ekoturistik obektlariga :

- "chink"- dunyoda eng katta va yagona 60-150 metrlik tik qoyali jarlar bilan o'ralsan plato, doimiy oqar suvlarga ega bo'lmagan, lekin yer osti suvlariiga ega supasimon tekisligi;
- davolash xususiyatiga ega bo'lgan juda katta (1000 km^2) tuzli Borsakelmas sho'rxoki. Unda o'simlik dunyosi deyarli yo'q. Osh tuzi va balchiqli tuzning qatlami 16-27,5 m gacha boradi. Yangi ochilgan Qo'ng'iroq soda zavodi aynan Borsakelmas tuzlari hisobiga qurilgan ;
- neolit davridan qolgan "ustyurt makoni". Unda 60 yaqin qadimiy odamlar yashagan tabiiy obektlar aniqlangan. Ularning ichida ham tarixiy ham ekoturistik ahamiyatga moyili "Tempa" makoni bo'lib, undan arxeolog S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm ekspedisiyasi 1300 dan ortiq chaqmoqtosh qurollari topilgan.

II. Orol va Orolbo'yи rayoni ekologik inqirozli ekoturistik hudud bo'lgani uchun ham unda yuzaga kelgan ekologik inqiroz holati asosiy ekoturistik obekt bo'lib hisoblanadi. Ekoturistik marshurutlar bir paytning o'zida ham Orolning qurilgan, ham uning ta'sirida turgan Orol atrofi hududlarini qamrab olishi zarur. Ekorular nafaqat trekking (piyoda) yoki tuya va otlarda, balki samolyot va vertalyotlar orqali ham amalga oshirish lozim. Zero u masofadan turib katta va tekis maydonni yuqoridan turib vizual kuzatish imkoniyatini beradi. Orol dengizining shimoliy g'arbiy qismida joylashgan va kundan kunga kattalashib borayotgan Borsakelmas oroli insonlarni atrof tabiiy muhitga salbiy ta'sirini aks ettiruvchi ekoturistik obektdir. Unda Qozog'iston Respublikasi Borsakelmas qo'riqxonasi tashkil qilgan.

III. Amudaryo rayoni. Amudaryoning o'zaniga yaqin har ikkala sohillarida to'qayzorlar mavjud bo'lib, ular ekorular uchun juda qiziqarli noyob landshaft ko'rinishlardan bo'lib hisoblanadi. Quyi Amudaryoning o'ng sohilida to'qay langshaftidagi qushlar va hayvonlarni muhofaza qilish uchun Badayto'qay qo'riqxonasi tashkil etilgan. Unga ma'rifiy-ma'naviy maqsadda tashrif buyurishni uyuشتirish mumkin. Ornitifaunani saqlash uchun Xorazm buyurtmaxonasi tashkil etilgan. Bulardan tashqari Qizilqumning g'arbiy qismida, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, kembriy va kembriygacha burmalangan tog' jinslari oehilmalaridan iborat, balandligi 485 metrlik Sulton Uvays tog'lariga ekorular uyuشتirish mumkin. Amudaryo rayonida O'zbekistonning ko'hna shaharlaridan biri Xorazm joylashgan. Xorazmdagi arxitektura yodgorliklari tarixiy turizm markazlaridan biri hisoblanadi. Ekorurlarni tarixiy turlar bilan kompleks olib borish taysiya etiladi.

IV. Qizilqum rayoni cheksiz qumliklardan iborat bo'lsada, lekin boy o'simlik va hayvonot olamiga ega. Bu yerda eolrelef shakllari – qum marzalari, do'ng qumliklar faqatgina shu yerga xos bo'Igan go'zal tabiat manzaralariga ega. U "sahro kemasi" — tuyalarda ekuskursiyalar uyuştirish ekzotik turizmni eslatadi. 1971 yilda tashkil etilgan va 10.3 mingga maydonda joylashgan Qizilqum davlat qo'riqxonasida to'qay va cho'l landshafiga xos bulgan o'simlik va xayvontarni muhofaza etadi. Ekoturistik obektlardan biri bulgan qo'riqxonada buxoro bo'g'usi (xongul), tung'iz, qirgovul, echkemar, jayron, qum charxiloni, turkiston kobrasini va xattoki, Prajivalskiy otlari saqlanadi. Ko'rkam tabiat o'ttasidagi ovullarda mehmon bo'lib, yulduzli osmon ostida kechani o'tkazish sayyoohlarga zavq bag'ishlaydi. Kizilqumda bahor oylarida kishilarga estetik zavq berib, xordiq chiqaradigan chiroqli gulli o'simliklar – lola, chuchmoma, eremurus, lolaqizg'aldoq, boychechak kabilar o'zgacha go'zallik kasb etadi. Qizilqum rayoni yilning barcha fasllarida ajoyibdir. Tuyalar karvonni esa unga yanayam ekzotik tus beradi, hamda uni jozibadorligini ortiradi.

V. Nurota rayoni o'zining ajoyib tabiat manzaralari, tarixiy arxitektura yodgorliklari bilan kishilarni maftun etadi. 1975 yilda tashkil etilgan va maydoni 17,8 ming ga bo'Igan Nurota tog' yong'oqzor - meva qo'riqxonasi mavjud. Bu qo'riqxonaga "Yekosan" qoshidagi "Yekosantur" firmasi tomonidan ko'plab marshrutlar uyuştirilgan. Oqtog'ning janubiy yon bag'rida joylashgan shamol tasirida tebranib turuvchi bahaybat harsang toshli «Samjigumon», «Koriz qoldiqlari» kabi tabiat yodgorligi ekoturizmnинг mo'him obektlaridan bo'lib hisoblanadi.

Nurota tog' oldida joylashgan "Chashma bo'log'i" ko'p asrlardan buyon Nurota shahri va uning atrofidagi qishloqlarni suv bilan taminlash bilan bir qatorda diniy ziyyaratgohdir. Buloq yakinida "Chilistun" masjidi, Madrasa, Abul Xasan Nuriy maqbarasi va qalasi joylashgan Chashmadagi baliqlar ilohiy hisoblanadi. Baliqdan taralayotan nur inson nigohini lol qoldiradi.

Qoratog' tizmasiniig janubiy yon bag'rida «Sarmish darasi»dagi qoyalarda avlodlarimizning hayoti va madaniyatini aks ettiruvchi lavhalar, rasmlar ishlangan.

Janubiy Nurota tizmasida uzunligi 110 m, absolyut balandligi 1060 m, maydoni 163 m² keladigan "Maydon karst g'ori", Shimoliy Nurota tizmasidagi uzunligi 130 m, absolyut balandligi 1100 m, maydoni 70 m² keladigan «Xonaixudo karst g'or»da speleoturizmni rivojlantirish mumnin. Bularidan tashkari, XI asrda bunyod etilgan va XVIII asr bosqlarigacha turgan "Rabot Malik karvonsaroyi" sayyoohlarning tuxtash joyi, shuningdek savdogarlarning savdo qilish joyi bo'Igan. Rabot Malik yonida ming yillik tarixga ega bo'lan madaniyat yodgorligi - sardoba uchraydi. Yer ichiga 12 m. botirilan sardobada butun yoz buyi muzdekk va toza suv saqlangan.

VI. Zarafshon rayonida Zarafshon daryolari qayirlarida joylashgan tuqay landshafti, undagi o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish uchun tashkillashtrilgan "Zarafshon qo'rikxonasi" mavjud. Buxoro viloyatinint Shofrikon o'rmon xujaligi xududida joylashgan qum cho'l landshafti, u yerdagi o'simliklar va hayvonlar hamda tarixiy yodgorlik (Vardanza shahar harobalari) davlatning alohida etibori bilan qo'rikdanadi. "Vardanza qo'rikxonasi", "To'dakul flora va faunasini boyitish buyurtmaxonasi", Qoravulbozor xo'jaligida joylashgan "Jayron-yekomarkazi", suv va botqoqqa moslashgan qushlarni kupaytiruvchi "Dengizkul buyurtmaxonasi", Zarafshon tog' tizimlaridagi Omonquton va Temurlang karst g'ortari kabilari. Zarafshon ekoturistik rayonda O'zbekistonning qadimgi shaharlari Samarcand va Buxoro joylashganligi tufayli ham ekoturlar yakuni tarixiy-diniy arxitektura yodgorliklariga qilinadigan safarlar bilan olib borilishi maqsadga muvosifdir.

VII. Aydarko'l rayonidagi ko'lllar tizimining paydo bo'lishi bevosita Mirzacho'lning o'zlashtirilishi bilan bog'likdir. Sizot suvlari hamda zovur-drenaj suvlarning Aydarko'l botig'i tomon harakatlanishi natijasida botikdagi Tuzkon ko'lining kengayishi Arnasoy hamda Aydarko'l ko'flarining paydo bo'lishiga olib keladi. Botiqdagi keyingi dinamik o'zgarishlar Chordara suv omboridagi (1969) ortikcha suvlarning tashlanishi bilan bog'liq. Bu suvlarning to'planishi natijasida Arnasoy ko'llari birlashib yagona Aydarko'llar tizimini va undagi faunani boyitib beruvchi "Arnasoy buyurtmaxonasi"ni tashkil etilishiga olib keldi.

VIII. Sirdaryo rayoni Sirdaryo o'zanidagi tuqayzorlari bilan ajralib turadi. Sirdaryoning ba'zi joylarida doimiy yoki mavsumiy orolchalar mavjud bo'lib, unda juda ko'p qushlar yig'iladi va manzarali ekoturistik obekt bo'lib hisoblaniladi.

IX. Chirchiq - Ohangaron tog'li ekoturistik rayonda xalqaro ekologik rezervat joylashgani uchun ham uning xuquqiy maqomi tabiatga ara-lashmaslik prinsipiga moslashgirilishi lozim. Undagi ekoturistik sayohatda vertolyot va samolyotlardan foydalanishga ruxsat berilmaydi. Ekoturlar oldindan belgilab berilgan kichik yo'lakchalar orkali, kam sonli turistik guruhchalarga bo'lingan tarzdá, yilning hayvonot olamini urchimaydigan va ko'paymaydigan davrlarida piyoda va otlarda aylanish maqsadga muvosifdir. Mazkur ekoturistik marshrutlarda mahalliy aholining xizmatidan atroflichcha foydalanish ularni noekologik yo'naltirilgan turmush tarzini ijobiy tomonlarga o'zgartiradi.

X. Fargona rayoni ekoturizmni rivojlantirishda muhim ahamiyatga kasb etadi. Chunki undagi landshaftlarining turli-tumanligi markazdag'i cho'llardan tortib, to maftunkor tog' cho'qqilarini barchani o'ziga jalb etadi. Tog'lardagi tez oqar va ba'zida kechuv qiyin bo'lgan daralarda raftlarda oqish (rafting), Janubiy Farg'onadagi balandligi 10 m keladigan, dam olayotgan tuyalarni eslatuvchi ekzotik telef shakillariga hamda «Yozyovon davlat tabiat yodgorligi»dagi ajoyib tabiiy qum

massivi (1994 yilda tashkil etilgan va maydoni 1,9 ming ga) piyoda turlar uyushtirish mumkin. Koksu vodisida 120 yil avval vujudga kelgan, oq, kulrang qoyalar bilan uralgan toza, muzdek suvli ko'k va yashil ko'llar ham ekoturizm obektidir.

Farg'ona vodisida milliy hunarmandchilik juda ham rivojlanganligi tufayli uni ekoturizm bilan o'ygunlikda olib borish mumkin. Rishtonda avloddan-avlodga o'tib keluvchi kulolchilik san'ati, Chustda do'ppiduzlik, pichoqchilik va temirchilik, Marg'ilonda atlas to'kish kabi milliy hunarmandchilik asrlar davomida taraqqiy etib kelmokda.

XI. Turkiston rayonida ekoturlarni alohida muhofaza etiladigan hududlarda uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu rayonda Turkiston tizmasining shimaliy yonbag'rida 1959 yilda tashkil etilgan, absolyut balandligi 1760-3500 m. umumiy maydoni 21735 ga bo'lgan "Zomin davlat qo'riqxonasi". Maydoni 24110 ga bo'lgan noyob tog'-archa ekosistemalarini tiklash va rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun 1978 yilda tashkil etilgan "Zomin milliy bog'i" mavjud.

XII. Qashqadaryo rayoni O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo'lib, u cho'l, dasht, tog'oldi va tog'li xuduqlardan iborat. Bu rayonda yoz va bahor oylarida cho'l va dashtlarda, yilning barcha fasllarida esa tog' oldi va tog'li hududlariga ekoturlar uyushtirish mumkin. Qashqadaryo rayonida 1979 yilda tashkil etilgan, 3938 ga maydonga ega bo'lgan, MDH davlatlari ichida yagona - "Kitob davlat geologiya qo'riqxonasi", 1992 yilda tashkil etilgan "Muborak buyurtmaxonasi", 1992 yilda tashkil etilgan "Sechenko'l buyurtmaxonasi" mavjud. Qashqadaryo rayonida ekoturizmni tarixiy, diniy turizm bilan birlashtirish olib borish uchun birqancha arxitektura yodgorliklari va diniy qadamjoylar mavjud.

XIII. Hisor rayonida 1983 yilda tashkil toptan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv vazirligiga qarashli, absolyut balandligi 1150-4349 m.bo'lgan, 870 xil o'simlik, 140 xil hayvonot olamiga ega, maydoni 80,9 ming ga bo'lgan Hisor davlat qo'riqxonasi mavjud. Bu rayonda ekoturlarni mahalliy aholining madaniyatini aks ettiruvchi "Boysun" etnografik-folklor ansamblı chiqishlari bilan uyg'unlikda olib borish sayohlarni o'ziga ko'proq jalb qilish imkoniyatini beradi.

XIV. Surxondaryo rayonida Kuhitang tog'li hududda 1987 yil tashkil etilgan 53,7 ming ga maydonda 800 xil o'simlik va 290 ta qush ha'mda 20 dan ortiq hayvon turlarini muhofaza qilishga yo'naltirilgan "Surxon davlat qo'riqxonasi" mavjud. Surxondaryo rayoni Respublikamizning o'ziga xos rayonlaridan biri hisoblanib, bu yerda quruq subtropik iqlim mintaqasi hukmron. Shuning uchun ham yilning ko'p oylarida ekoturlar uyushtirish imkoniyati bor.

Xulosa qilib aytganda, ekoturistik rayonlashtirishni joyning geoekologik xususiyatlardan kelib chikkan tarzda amalga oshirish tabiat va jamiyat o'rtaсидаги munosabatlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

- **Tayanch so'z va iboralar:** Davolanish, Sog'lomlashtirish, Sport, Tanishuv, Ijtimoiy, Iqtisodiy, Geografik, Ekologik, Toshkent, Farg'ona, Mirzacho'l, Samarqand, Buxoro – Qizilqum, Janubiy, Quyi Amudaryo, Ustyurt, Orol va Orolbo'yli, Amudaryo, Qizilqum, Nurota, Zarafshon, Aydarko'l, Sirdaryo, Chirchiq-Ohangaron, Fargona, Turkiston, Qashqadaryo, Hisor, Surxondaryo.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Hududiy rekreatsion tizimlari (X.T.M.) rekreatsiya maqsadida rayonlashtirishga izoh bering?
2. Turistik – rekreasiya jihatdan rayonlashtirishning belgilari va xususiyatlari qanday bo'ladi?
3. O'zbekistonda turistik rayonlashtirishda qanday yondoshuvlar bor?
4. O'zbekistonning turistik rayonlari taysifini tushuntiring?
5. O'zbekistonda ekoturistik rayonlashtirish qanday vo'jutga kelgan?

13- MAVZU. TOSHKENT TURISTIK MINTAQASI

Reja:


- 13.1.Toshkent turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni.
- 13.2.Mintaqaning turistik resurslari salohiyati
- 13.3.Toshkent viloyati va Toshkent shahrinining tarixiy-arxitektura yodgorliklari ekskursiya ob'ektlari sifatida

13.1. Toshkent turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni

Toshkent viloyati O'zbekiston tarkibida 1938 yil 15 yanvarda tashkil etilgan bo'lib, respublikaning shimoliy-sharqida joylashgan. Maydoni 15,3 ming km.kv. Aholisi 2 million 829 ming 300 kishidan ortiq (01.01.2017-yil). Toshkent viloyatida 5 ta shahar, 14 ta tuman va tuman hududidagi 11 ta shahar, 97 ta shaharcha va 146 ta qishloq fuqarolari yig'inlari mavjud.

Ma'muriy markazi - Toshkent shahri.

Yirik shaharlari - Angren, Bekobod, Olmaliq va Chirchiq.



Toshkent viloyati Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlatlari hamda sharqdan Namangan, janubiy g'arbdan Sirdaryo viloyatlari bilan chegaradosh. Viloyatning shimoliy-sharqiy va sharqiy qismini Chotqol, Qurama, Pskom va

Ugom tizma tog'lari tashkil qiladi. Hududning katta qismi janub va janubiy g'arbga tomon Sirdaryoga qiya tushgan tog'oldi tekisligidan iborat. Viloyat yuqori seysmik zonada joylashgan.

Iqlimi kontinental. Qishi nam, nisbatan yumshoq, yozi issiq, quruq. Bahorda va yozgi mavsumda jala yomg'irlar, momoqaldiroq va do'l yog'ishi, shuningdek shamolning sezilarli kuchayishi kuzatiladi.

Tabiatи qushlarga va hayvonlarga, suvlari batiqlarga boy bo'lib, Chotqol tog'-ormon qo'righonasi joylashgan.

Viloyatda ilmiy-texnikaviy salohiyatdan samarali foydalanish tufayli ishlab chiqarish kuchlari bozor iqtisodiyoti talablariga mos ravishda rivojlanib bormoqda.

Viloyatda sanoat, qurilish, transport, aloqa, qishloq ho'jaligi, hususiyashtirish, savdo va tashqi iqtisodiy aloqalar, tadbirkorlik va mexnat bozori, ijtimoiy sohalar ancha rivojlangan.

Sanoati. Iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida xomashyo tayyorlashdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha barcha bosqichlar barcha bosqichlar viloyatning o'zida kechadi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: elektroenergetika, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo, qurilish materiallari, yengil sanoat (paxta tozalash), oziq-ovqat.

Metallurgiya majmuasi ham rivojlangan. Ishlab chiqarish aloqalari hamda geografik joylashuviga muvofiq Toshkent-Chirchiq, Toshkent-Yangoyo'l, Angren-Olmalik sanoat rayonlari vujudga kelgan. Angren-Olmalik sanoat rayonida mamlakat rangli metallurgiya sanoati mahsulotining asosiy qismi tayyorlanadi. Mis rudasi tarkibida molibden, oltin va kumush ham uchraydi. Bu yerda mis eritish zavodi va Olmalik tog'-metallurgiya kombinati ishlab turibdi.


Rangli metallurgiyaning ikkinchi markazi Chirchiqdir. Shaharda qiyin eriydigan va o'tga chidamli qotishmalar kombinatni bor. Kombinatning ishlab chiqarish jarayoni Ingichka, Qo'yotosh hamda Olmalik ruda konlari bilan bog'liq. Kombinat 100 xildan ortiq mahsulot ishlab chiqarmoqda. Sun'iy tola yetkazib beruvchi kaplaktan zavodi ham shu shaharda.

Bekobod shahridagi O'zbekiston metallurgiya zavodi qora metallurgiyaning yirik korxonasi. Xomashyo o'rniда temir-tersakdan foydalaniлади.

Mashinasozlik majmuasi dastlab agrosanoat majmuyi ehtiyoji negizida jujidga kelgan. Uning muhim korxonalari Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozlik zavodi, Toshkent traktor zavodi, O'zbekiston qishloq xo'jalik mashinasozligi, Chirchiq qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodlaridir. Hozirda mashinasozlik agrosanoat majmuyiga xizmat etishdan tashqari, ko'plab turdagи murakkab mashinalar ham ishlab chiqarmoqda. Rayonda ishlab chiqarilayotgan samolyotlar, turli xil uskunalar va asboblar shular jumlasidandir.

Binokorlik materiallari sanoati viloyatda qurilish ko`lamining kattaligi va xilma-xil xomashyo negizida rivoj topdi. Bekobod, Angren va Ohangaronda sement, G`azalkentda oyna va marmar, shunindek, Ohangaronda shifer ishlab chiqarilmoqda. Sanoatning jadal yuksalishi o`z navbatida ekologik vaziyatning yomonlashuviga sabab bo`limoqda.

Toshkent viloyatidagi tumanlar



	Tuman nomi	Tuman markazi
1	Bekobod tumani	Zafar
2	Bo'stonliq tumani	G'azalkent
3	Bo'ka tumani	Bo'ka (shahar)
4	Chinoz tumani	Chinoz
5	Qibray tumani	Qibray
6	Ohangaron tumani	Ohangaron
7	Oqqa'rg'on tumani	Oqqa'rg'on (shahar)
8	Parkent tumani	Parkent
9	Piskent tumani	Piskent
10	Quiy chirchiq tumani	Do'stobod
12	O'rta Chirchiq tumani	To'ytepa
13	Yangiyo'l tumani	Gulbahor
14	Yuqori Chirchiq tumani	Yangibozor (shaharcha)
11, 15	Zangiota tumani	Keles (shahar)

Qishloq xo`jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, bog`dorchilik, go'sht-sut chorvahchiligi.

Qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli bo'lib, sabzavot va meva yetishtirishda boshqa viloyatlardan oldinda turadi. Yangiyo'l, Qibray, Bo'stonliq, Parkent, Ohangaron va Zangiota Tumanlarida poytaxtga tutash yaxlit mintaqani tashkil etib, sabzavot va meva yetishtirishga ixtisoslashgan. Ularda minglab gektar issiqxonalar tashkil etilgan. Sug'oriladigan yerlarda paxtadan tashqari kanop va sholi ham yetishtiriladi. Umuman, viloyat qishloq xo'jaligi intensive yo'ldan rivojlanmoqda. Sanoat tugunlari atrofida sut-go'sht yetishtiradigan chorvachilik majmualari, parrandachilik rivoj topmoqda, sun'iy suv havzalarida baliq ko'paytirilmoqda. Paxta yetishtirishga uyg'un tarzda ipak qurti bo'qiladi.

Viloyatda ijtimoiy soha ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Toshkent atrofida "Qibray" va "Toshkent mineral suvi" oromgohlari joylashgan. Bo'stonliq tumanining Chorvoq, Chimyon hamda Parkent tumanining Kumushkon hududlarida dam olish maskanlari keng tarqalgan.

Toshkent viloyatidagi sanoat markazlarining aksariyati bevosita poytaxt bilan uzviy aloqadorlikda faoliyat ko'rsatadi. Sanoat markazlari ixtisos bo'yicha bir-biridan farqlanuvchi alohida mintaqalarda to'plangan. Bular Toshkent-Chirchiq, Toshkent-Yangiyo'l va Angren-Olmaliq sanoat rayonlaridir. Toshkent-Chirchiq va Toshkent-Yangiyo'l sanoat rayonlarining o'zagi Toshkent shahri bo'lib, uning tarkibiga Chirchiq, Yangiyo'l, sanoat tugunlari hamda G'azalkent, Pskent, To'ytepa, Chinoz, Keles kabi kichik va o'rta shaharlar kiradi. Angren-Olmaliq sanoat rayonining o'zagini esa Olmaliq va Angren sanoat tugunlari tashkil etadi. Unga Ohangaron, Yangiobod kabi shaharlar ham kiradi. Bekobod sanoat tuguni bu ikkala sanoat rayonidan biroz chekkada, viloyatning janubida joylashgan.

Shaharlari. Toshkentdan 30 km shimoli-sharqda kimyogarlar va mashinasozlar shahri Chirchiq joylashgan. Shaharda o'tga chidamli va qattiq qotishmalar zavodi metallurgiya majmuasining muhim korxonasıdir. Sanoat mahsulotlari bo'yicha Chirchiq shahri respublikada to'rtinchı o'rinda turadi. Chirchiqdan yuqorida yosh G'azalkent shahri bor. U kurort shaharga aylanmoqda.

Toshkentdan 30 km janubi g'arbda sanoat tuguni - Yangiyo'l joylashgan. Shahar qadimgi qishloq (Qovunchi) o'rnda shakllanib, yengil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashdi. Sanoat korxonalari ichida paxta tozalash, moy,sovun, sut, vino va konserva zavodlari, go'sht kombinati ajralib turibdi.

Angren - viloyatning muhim sanoat tuguni. Angren temiryo'l (114 km) hamda avtomobil yo'li orqali Toshkent bilan bog'langan. Shahar 1940-yillarda ko'mir qazib olishga bog'liq holda sanoat punkti sifatida paydo bo'lgan. Endilikda Angren shahri kon-qazib olish sanoatiga aloqador bir qancha korxonalarni birlashtirgan sanoat tuguniga aylandi. Shahar sanoatida IES alohida o'rın tutadi. Angrenda yirik sement zavodi, sopol buyumlari zavodi, temir-beton konstruksiyalar, uysozlik kombinati va boshqalar bor.

Angrenda oltin ajratib olish fabrikasi ishlab turibdi. Shahar ostida ko'mir qatlami borligi ma'lum bo'lgach, yangi qurilishlar Angrendan 4 km janubi g'arbda, Obliq qishlog'i yaqinida olib borilmoqda. Angrendan 20 km shimolda sanoat markazi - Yangiobod shahri bor.

Toshkent shahridagi tumanlar

Nr.	Tumanlar	Aholisi (2009) (ning kishi)	Hududi (km ²)	Aholi zinchligi (kishiz/km ²)	Xaritada
1	Bektemir tumani	27,500	20.5	1,341	
2	Chilonzor tumani	217,000	30.0	7,233	
3	Hamza tumani	204,800	33.7	6,077	
4	Mirobod tumani	122,700	17.1	7,175	
5	Mirzo Ulug'bek tumani	245,200	31.9	7,687	
6	Sergeli tumani	149,000	56.0	2,661	
7	Shayxontohur tumani	285,800	27.2	10,507	
8	Olmazor tumani	305,400	34.5	8,852	
9	Uchtepa (Toshkent)	237,000	28.2	8,404	
10	Yakkasaroy tumani	115,200	14.6	7,890	
11	Yunusobod tumani	296,700	41.1	7,219	

13.2. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati

Viloyatning ikkinchi sanoat tuguni - Olmaliq. Bu shahar 1951-yilda rangli metall ruda koni negizida sanoat punkti sifatida shakllandii. Shahar sanoatida to'liq siklli rangli metallurgiya kombinati katta ahamiyatga ega. Kombinat chiqindisi (oltingugurt gazi) dan ammofos zavodida mineral o'g'it ishlab chiqariladi. Olmaliq

boshqa shaharlardan sanoat ixtisosidan tashqari zamonaviy binolarning ko'pligi, manzarali daraxtlari bilan ajralib turadi.

Ohangaron sanoat markazi Olmaliqqa yaqin yerda joylashgan. Ohangaronda ulkan sement zavodi bor. Kaolin xomashyosi bazasida ikkilamchi aluminiy ishlab chiqaradigan zavod barpo etilmoqda. Angren kabi Ohangaron shahri ham ko'mir qatlamlari ustidaligi ma'lum bo'lgach, shaharning dastlabki o'rnidan 15 km narida vodiylab «Katta Ohangaron» shahri barpo etilmoqda.

Viloyatning janubida Bekobod shahri joylashgan. Shaharda metallurgiya zavodi hamda Farhod GES qurilishi jarayonida vujudga kelgan. Endilikda sement, paxta tozalash, g'isht zavodlari, go'sht kombinati, tosh-shag'al karyeri ham mavjud. Bu korxonalarning ishlab chiqarish jarayoni o'zaro bog'liq. Shahar shamol kuchli esadigan yerda joylashgan. Shu bois shaharni shamoldan saqlovchi ihota daraxtzorlari barpo qilingan.

O'zbekistonda jahon madaniyati xazinasiga kiruvchi ko'plab arxitektura yodgorliklari mavjud. Xiva, Buxoro va Shahrissabz shaharlarining tarixiy markazlari, qadimiy Samarqandning tarixiy yodgorliklari YUNESKO ning «Jahon merosi» deb nomlangan ro'yxatiga, Boysun tumani aholisining folklor ansamblisi «Jahon nomoddiy merosi xazinasi» ro'yxatiga kiritilgan.

O'zbekistonda turizmni rivojlatirish va uni yangi bosqichlarga ko'tarish borasida, avvalo ko'hna madaniy va arxitektura yodgorliklariga boy bo'lgan Samarcand, Buxoro, Xiva, Shahrissabz, Marg'ilon kabi shaharlar muhim ahamiyatga ega. Bu shaharlarda butun dunyo aholisini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi qadimiy tarixiy yodgorliklar mavjud. Yer yuzining turli mamlakatlarida istiqomat qiluvchi har bir inson bu shaharlarni o'z ko'zlarini bilan ko'rish orzusida yashaydilar. Ko'p mamlakatlarda O'zbekiston o'zining ana shu shaharlari bilan mashhurdir.

Toshkent-Markaziy Osiyoning eng yirik shaharlardan biri – O'zbekiston Respublikasining poytaxtidir. Islom konferensiysi tashkiloti (OIK) tarkibidagi muassasalardan biri – Ta'llim, Fan va madaniyat masalalari bo'yicha Xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) Toshkentni 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti, deb e'lon qildi. O'zbekistonning islom madaniyati va ilmi oldidagi, islom merosi va yodgorliklarini asrash va yanada boyitish borasidagi mislsiz xizmatlari uchun Toshkent shunday yuksak va faxrli unvonga sazaver bo'ldi.

Toshkentda «Jahon madaniyati yodgorliklari» ro'yxatiga kiritilgan Usmon Qur'oni hamda Beruniy kutubxonasi saqlanmoqda. Toshkent haqidagi eng dastlabki ma'lumotlar eramizdan oddingi II- asrdagi qadimgi Xitoy solnomalarida uchraydi. Xitoyda u Yuni, deb nomlangan bo'lsa. Eron shohi Shopur I ning eramizdan oddingi yozuvlarida Toshkent atroflari Choch, deb atalgan. Choch turli mamlakatlarning oltin, qimmatbaho toshlar, ziravorlar va ajoyib otlar eksport qilinadigan yo'llar

chorrahasida joylashgan. Hozirgi kunda Toshkent o'zida O'zbekistonning tarixiy o'tmishini eslatib turuvchi taraqqiy topgan zamonaviy sanoat shahri hisoblanadi.

Toshkentda ko'plab muzeylar mavjud. Masalan, Tasviriylar san'at muzeyi haykallar, rasmlar va hunarmandchilik mahsulotlarining Markaziy Osiyodagi eng yirik to'plamiga ega. O'zbekiston Amaliy san'at muzeyi 30 mingdan ortiq hunarmandchilik va xalq milliy merosi namunalarini to'plagan. Temuriylar tarixi davlat muzeyi butun Temuriylar davri tarixi namunalarini o'zida jamlagan muzeydir.

Tarixiy Eski Juva – shaharning eng qadimiy bozorlaridan biri, unda hozir ham oziq-ovqat mahsulotlaridan tortib sanoat mahsulotlarigacha barchasini topish mumkin. Eski shaharning markazida XVI asrning ajoyib yodgorligi-Baroqxon madrasasi joylashgan. Bularidan tashqari, 1966 yil zilziladan Yunusxon maqbarasi, Ko'kaldosh madrasasi kabi ajoyib yodgorliklar omon qolgan. Toshkent metrosi jahonning zamonaviy arxitektura durdonalaridan biri bo'lub hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2008 yilning 2 aprelida «Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish» to'g'risida qaror qabul qildi. Unga ko'ra O'zbekiston poytaxti, ilm-fan va madaniyat markazi, tinchlik va do'stlik ramziga aylangan Toshkent shahrining 2200 yilligini keng nishonlash va munosib o'tkazishga alohida e'tibor qaratildi. Yubiley munosabati bilan ko'plab tarixiy yodgorliklar qayta ta'mirlandi, yangi binolar qurildi va shaharning ijtimoiy insratuzilmasi yanada obod bo'ldi.

Toshkent shahrining asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari:

1. Ko'kaldosh madrasasi (XIV asr);
2. Kaffol Shoshiy maqbarasi (XV asr);
3. Xazrati Imom arxitektura majmuasi (XVI asr);
4. Abulqosim madrasasi (XIX asr);
5. Baroqxon madrasasi (XVI asr);
6. Jome' masjidi (XIX asr);
7. Zangi ota majmuasi (XV-XX asr);
8. Zamonaviy arxitektura durdonasi sanalgan Amir Temur muzeyi;
9. Amir Temur hiyoboni;
10. Mustaqillik maydoni;
11. Xalqlar Do'stligi maydoni;
12. Jasorat monumenti;
13. Xasti Imom maydoni;
14. Tilla Shayx masjidi;
15. Hazrati Imom masjidi;
16. Xadra maydoni;
17. Sufi Ota maqbarasi.

13.3. Toshkent viloyati va Toshkent shahrining tarixiy-arxitektura yodgorliklari ekskursiya ob'ektlari sifatida

Toshkent viloyati bo'ylab tashkil etish mumkin bo'lgan «Toshkent- islam madaniyati poytaxti» nomli ekskursiya xizmatining dasturi namunasini keltiramiz:

«TOSHKENT - ISLOM MADANIYATI POYTAXTI» nomli ekskursiya xizmatining DASTURI

Davomiyligi: 2 soat

Masofasi: Toshkent shahri bo'ylab 10 km

Ekskursiya maqsadi: Toshkent shahridagi mashhur tarixiy-arxitektura yodgorliklari bilan tanishtirish

Ekskursiya o'tkazilishi rejalashtirilgan guruh: xorijdan tashrif buyurgan turistlar

Ekskursiya mavsumi: yil davomida

GIDNING INDIVIDUAL MATNI NAMUNASI

1-ob'ekt. ZANGI OTA MAJMUASI

Kirish peshtoqi. Hurmatli ekskursantlar biz Zangi ota majmuasidamiz. Bu majmua Toshkent shahridan 8 km uzoqliqda joylashgan bo'lib, ikkita maqbara, masjid va minoradan iborat. Majmua XII asr oxiri va XIII asr boshlarida yashagan Shayx Zangiota qabri atrofida shakllangan bo'lib, qabri ustiga XIV-XV asrlarda Amir Temur tomonidan maqbara bunyod etilgan. Xuddi shu davrning o'zida shayxning rafiqasi qabri ustiga maqbara bunyod etilgan.

XVIII asr oxiri va XX asr oraliq'ida Zangi ota maqbarasining fasadi oldida madrasa bunyod etilgan bo'lib, turli davrlarda bo'lgan qurilish va ta'mirlash ishlari o'tkazilgan vaqtarda kirish eshiklariga bitilgan. Qabristonga boruvchi peshtoq eshigida 1832-yil sanasi, g'arbiy darvozaning eshigida esa 1914-1915-yillar sanasi hamda toshkentlik ustalar - Mulla ustod Kulbek va usta Nazarxonlar ismi bitilgan.

Maqbara oldida. Zangi ota maqbarasi majmuaning asosiy yadrosi bo'lib, ziyoratxona va go'rxonadan iborat. Zangi otaning butun hayoti Movarounnahr xalqlarining eng og'ir davriga to'g'ri keladi. XIII asming 20-yillarida mug'ullar eng yirik shahar va qishloqlarni vayron qiladilar. Shunday og'ir va musibatli paytda Zangi ota hamda uning shogirdlari xalq ommasini qahramonlik, vatanparvarlik,

mehr-shafqat kabi umuminsoniy g'oyalar bilan oziqlantiradi. Zangi otaning bu xizmatlari vaqt kelib Amir Temur tomonidan munosib taqdirlanadi. Zangi otaning qabri ustida maqbara qad rostlatadi, 1420-yilda esa Mirzo Ulugbek uning ustiga hozirgi maqbara peshtoqini buniyod ettiradi.

Maqbara 1868-yili zilzila oqibatida peshtoq arki va maqbara gumbazi qattiq shikastlanadi. 1887-1888-yillarda ta'mirlash ishlari olib borilib, go'rxona va peshtoqning yuqori qismi qayta ta'mirdan chiqariladi. Ta'mirlangan sana peshtoq qismida bitilgan.


Hovlining ichki qismida. Zangi otaning otasi Tojxo'ja, uning otasi Abdul Malik ota bo'lib, ul zot o'zining piri murshidi Mansur ota orqali Xo'ja Axmad Yassaviyga borib taqaladi. Tojxo'janing o'zi ham hazrat Yassaviyning xizmatida bo'lib, ul zotdan bevosita tasavvufiy-ma'naviy ta'llimot va yo'llanma olgan. Tojxo'ja 1218-yilda vafot etgan.

Hazrati Arslonbobo avlodni hisoblangan Zangi ota Xo'ja Axmad Yassaviyning beshinchi muridi Sulaymon Haqim ota Bakirg'oniyning shogirdi hisoblangan.


Zangi ota xalq orasida cho'ponlarning piri hisoblanib, manbalarda qayd etilishicha 1258-yilda vafot etgan. Uning qabri ustida Qur'oni Karimdan bir qancha oyatlar bilan bir qatorda uning vafot etgan yili ham ko'rsatilgan.

Anbar bibi maqbarasi. Zangi ota majmuasidagi Anbar bibi yoki Anbar ona deb atalmish maqbara Zangi otaning rafiqasi Anbar bibi sharafliga qurilgan. Maqbara tuzilishi va bezagi Zangi ota maqbarasiga o'xshab ketadi. Maqbarada ikkita qabr bo'lib, birinchisi Anbar bibiga, ikkinchisi esa Ulug' podsho, ya'ni Sulaymon Haqim ota Bakirg'oniyning onasiga tegishti deb hisoblanadi. XIX asrning oxirida maqbara gumbazi qulab tushgan. 1945-1949-yillarda u qayta ta'mirlangan. Shuningdek, gumbaz va peshtoqning yuqori qismi qayta ta'mirlangan.

(Ekskursantlarga tomosha qilish va rasmga tushishlari uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Savollarga javob beriladi).



1.-rasm. Zangi Ota majmuasi



2.-rasm. Zangi Ota majmuasini ko'rsatish tartibi.

2-ob'ekt. XAZRATI IMOM MAJMUASI

Majmua qarshisida. Hurmatli ekskursantlar! Biz Xazrati Imom majmuasi qarshisida turibmiz. Xazrati Imom yoki Xasti Imom majmuasi XVI-XIX asrlarda shakllangan bo'lib, uning asosini Kaffol Shoshiy maqbarasi tashkil etadi.

Mustaqillik yillarda tom ma'noda yangidan ta'mirlangan yodgorliklar sirasiga Xazrati Imom yodgorlik majmuasi obidalarini ta'kidlash maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda ushbu hududdagi mavjud barcha yodgorliklar: Kaffol Shoshiy maqbarasi, Baroqxon, Muyi Muborak madrasalari, Tilla Shayx hamda Namozgoh jome' masjidlari to'liq ta'mirlanib, o'zining yangi qiyofasida namoyon bo'lmoida. Ta'kidlash joizki, ta'mirlash ishlarida respublikamizdagi eng qo'li gul ustalari jalb etilib, yodgorliklar o'ziga xos me'moriy obidalar uslubida qayta ta'mirlandi.

Majmua markazida. Binolarning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Toshkentdag'i har bir daha o'zining ma'lum bir yodgorliklari bilan tanilgan. Jumladan, Sebzor dahasida Xastimom, ya'ni Xazrati Imom nomi bilan bog'liq me'moriy yodgorlik majmualari joylashgan, u bir necha tarixiy obidalardan iborat. Majmua markazida Imom Abu Bakr Kaffol Shoshiyning (903-975-y.y) qabri joylashgan bo'lib, qolgan binolarning eng qadimiysi XVI asrda barpo qilingan. XVI asrning 50-yillarda bu binolar Baroqxon madrasasi me'moriy yodgorliklar tarkibiga qo'shilgan. XVI asr oxirlarida uning qarshisida «ko'shk» uslubida Kaffol Shoshiyning avlodи Boboxoji maqbarasi joylashgan, bu bino 1939-yili buzib tashlangan. XVI asrda Xazrati Imom majmuasida bir necha yuz yillarga guvoh chinorlar, qayrag'och va boshqa daraxtlar, hovuz va ayvonlardan iborat bog' bo'lib, u yerda har yili hayit bayramlari o'tkazilgan. XIX asr o'rtalarida Baroqxon

madrasasining shimoliy tarafida Namozgoh, ro'parasida Muyi Muborak madrasasi, jome' masjid (hozirgi kunda saklanmagan) qurilgan. XX asr boshida olti ustunli, o'n ikki gumbazli Tilla Shayx masjidini bunyod etilgan.

Majmuia yon tomonida. Ma'lumki, XVI asrda, Shayboniyalar hukmronligi davrida Toshkent Movarounnaxrning yirik madaniy, savdo va hunarmandchilik markaziga aylanadi. Xuddi shu davrda Shayx Kaffol Shoshiy qabri atrofi obodonlashtirilib, uning ustiga maqbara bunyod etiladi. Maqbara atrofi hamda Eski shaharning Sebzor qismi shayx nomi bilan Xazrati (Xasti) Imom deb atala boshlanadi. XVI asrning 30-50 yillarda Xazrati Imom qabristoni hududida Baroqxon madrasasi bunyod etilib, XV-XVI asr boshlariga oid ikki maqbara biri noinsiz, ikkinchisi Suyunxo'ja maqbarasi bilan yagona majmuuga aylantiriladi. Abdullaxon II mablagi hisobiga Kaffol Shoshiy maqbarasi ro'parasida shu yilda vafot etgan Shoshiy avlodi bo'lmish Shayx Boboxoji sharafiga qo'sh uslubida maqbara bunyod etiladi. Maqbara 1939-yilda buzib tashlangan.


Xazrati Imom majmuasida binolar qurilishi XIX asrda ham davom ettiriladi. Xususan, 1856-1857-yillarda Baroqxon madrasasi ro'parasida Qo'qon xonining Toshkentdag'i hokimi Mirza Axmad Qushbegi Muyi Muborak madrasasini, uning yonidagi shahar jome' masjidlaridan biri-Tilla Shayx masjidini qaytadan qurdiradi.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Kaffol Shoshiy maqbarasidan sharq tomonda yirik Namozgoh masjidini quriladi. Obidaning eshigi ustida mayolik pannoda usta va xattotning ismi she'riy tarzda fors tilida bitilgan. Inshoot bir necha marta qayta ta'mirlangan.

(Ekskursantlarga tomosha qilish va rasmga tushishlari uchun 2 daqiqa vaqt beriladi. Savollarga javob beriladi).



3-rasm. Xazrati Imom Majmuasi.



4-rasm. Xazrati Imam Majmuasi.

Tayanch so'z va iboralar: ilmiy-texnikaviy salohiyat, sanoat, qurilish, transport, aloqa, qishloq ho'jaligi, tadbirkorlik va mexnat bozori, Islom konferensiyasi tashkiloti, Islom madaniyati poytaxti

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Toshkent turistik mintaqasida sanoatning qanday asosiy tarmoqlari rivojlangan?
2. Toshkentga "Islom madaniyati poytaxti" deb nom berilishiga asosiy sabab nimada?
3. Toshkentda «Jahon madaniyati yodgorliklari» ro'yxatiga kiritilgan nimalar saqlanmoqda?
4. Toshkent shahrining asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklariga nimalar kiradi?

14- MAVZU. SAMARQAND TURISTIK MINTAQASI

Reja:

- 14.1. Samarqand turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni
- 14.2. Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiylari
- 14.3. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati

14.1. Samarqand turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni

Samarqand viloyati – 1938 yil 15 yanvarda tashkil topgan bo'lib, umumiy maydoni – 16,8 ming km²ni shkil etadi.

2013 yil 1 yanvar holatidagi doimiy aholi soni – 3 million 380 ming 700 kishi. Shundan shahar joylarda 1 million 312 ming 900 kishi (erkaklar – 649,1 ming, ayollar – 663,8 ming), qishloq joylarda 2 million 67 ming 800 kishi (yerkaklar - 1041,9 ming, ayollar – 1025,9 ming).

Samarqand viloyati O'zbekiston Respublikasining markazida, Zarafshon vodiysida joylashgan. Shimoli-sharqda Jizzax viloyati, Sharqda Tojikiston Respublikasi, Janubda Qashqadaryo viloyati, G'arbda va shimoli-g'arbda Navoiy viloyati bilan chegaradosh.

Viloyatning boshqaruv, iqtisodiy va madaniy markazi bo'lgan Samarqand shahri eramizdan avvalgi VIII asrda tashkil topgan. Samarqand shahri O'zbekistonda ikkinchi yirik shahar hisoblanadi. Shahar asrlar davomida Buyuk Ipak yo'slining yirik savdo markazi sifatida tilga olingan.

XIV va XV asrlar davomida bu shahar temuriylar sultanatining poytaxti vazifasini o'tagan va o'sha davrfarda yirik ilm-fan, madaniyat markaziga aylangan.

Samarqandning tarixiy va madaniy qiymatini hisobga olgan holda, O'zbekiston hukumati ushbu qadimiy va hamisha navqiron shaharning tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlashga alohida e'tibor qaratmoqda.

Xususan, 2007 yilda YUNESKO boshchiligidagi bir qator xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda nishonlangan Samarqand shahrining 2750 yilligi oldidan Shohi Zinda majmui, Hazratı xizr masjidini qayta tiklash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borildi.

Samarqand shahrida 1997 yildan buyon har ikki yilda bir marta o'tkazib kelinadigan "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali dunyoning barcha burchaklaridan yuzlab Sharq musiqasi sozandalari va ixlosmandlarini o'z bag'riga chonlaydi.

Samarqand viloyati tabiiy boyliklarga boy. Viloyat hududida, xususan, volfram, mis, ohak, marmar, gips, keramzit, alyuminiy, granit va boshqa konlar mavjud.

Viloyat O'zbekistonning yirik sanoat markazlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda "Samarqand avtomobil zavodi", "8-Mart" mas'uliyati cheklangan jamiyat, "JV MAN AVTO", "BAT O'zbekiston", "Daka Teks", "Sam-Antep-Gilam", "Praga-Pivo", "Agromir Samarkand" qo'shma korxonalar, "Samarqandlift", "Sino", "Samarqandkimyo" aksionerlik jamiyatları kabi ko'plab mamlakat ahamiyatiga molik sanoat korxonaları faoliyat yuritmoqda.

2012 yilda yalpi hududiy mahsulot o'sish sur'ati 110,7 foizni tashkil etdi. Bunga, avvalo sanoat, qurilish, xizmat ko'rsatish sohasidagi yuqori o'sish sur'atlari, shuningdek, xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish 3,1 foizga, qishloq xo'jalik 6,1 foizga, chakana savdo 20,2 foizga, pulli xizmat ko'rsatish hajmi 16,6 foizga ko'payshi hamda maqsadli davlat dasturlarini amalga oshirish hisobiga erishildi.

Viloyatda 2012 yilning yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulot 6015,5 mlrd so'mni ya'ni o'tgan yilga nisbatan 110,7 foizni va aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarilishi 1793,8 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 108,9 foizga o'sdi. Viloyatning Respublika yalpi xududiy mahsulotdagi ulushi 6,2 foizni tashkil qildi va o'tgan yilga nisbatan o'zgarhsiz qoldi. Jumladan: Sanoat mahsulotlari 2577,1 mlrd so'mlik ishlab chiqarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,3 foizni (prognoz 113,3 %), halq iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 1711,7 mlrd so'mni, yoki o'sish sur'ati 103,1 foizni, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3187,1 mlrd so'mni va o'sish sur'ati 106,1 foizni (prognoz 106,1 %), barcha manbaflar hisobidan kapital mablag'larni o'zlashtirish 1356,6 mlrd so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan 110,9 foizni, qurilish-pudrat ishlari hajmi 904,7 mlrd so'mni va 115,5 foizni (prognoz 114,0 %), chakana savdo aylanmasi hajmi 3009,7 mlrd so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan 120,2 foizni (prognoz 114,5 %), jami xizmatlar hajmi 2983,6 mlrd so'mni va o'tgan yilga nisbatan 117,6 foizni (prognoz 117,4 %), pulli xizmatlar hajmi 1293,8 mlrd so'mni va o'tgan yilga nisbatan 116,6 foizni (prognoz 113,5 %) ni tashkil etdi.

Viloyatning moliyaviy holatiga e'tibor beradigan bshlsak, quyidagi natijalarga erishganligining guvohi bo'lamiz. Iqtisodiyotga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalar hisobot davrida 797,2 mlrd.so'mni tashkil etib prognoz bajarilishi 144,6 foizga, ajratilgan kreditlarning 589,9 mlrd.so'mi yoki 74,0 foizi uzoq muddatli kredittardir. Jami kredit mablag'larning 409,7 mlrd.so'mi yoki 51,4 foizi kichik biznes sub'ektlarini moliyalashtirishga yo'naltirildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,1 foizni tashkil etib, shundan 3 mlrd. 199,0 mln.so'mni imtiyozli kreditlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan berilgan kreditlar bo'lib prognoz bajarilishi 1,6 marta bajarilishiga erishildi.

Natijada viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmi belgilangan prognozga nisbatan 0,8 bandga o'sishiga erishildi. Yalpi hududiy mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 76,3 foizga, xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 43,1 foizni tashkil etdi. Yalpi hududiy mahsulotda qishloq xo'jaligining ulushi 0,7 bandga kamaygan bo'lsa, sanoatning ulushi 0,8 bandga, qurilish sohasi 0,3 bandga, transport va aloqa 0,2 bandga oshdi.

2012 yilda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari o'tgan yilga nisbatan 161 ming so'mga, jami xizmatlar 150,6 ming so'mga, pullik xizmatlar 96,4 ming so'mga, iste'mol tovarlari 71,4 ming so'mga, qishloq xo'jaligi 24,1 ming so'mga, chakana tovar aylanmasi 239,3 ming so'mga oshdi.

Jalb qilingan investitsiyalar hajmi 1,4 trln. so'm, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 26,7 mln. dollarni tashkil etdi. Barcha manbalar hisobidan 78,9 km gaz uzatish tarmoqlari hamda 335,1 km suv uzatish tarmoqlari qurib, foydalanishga topshirildi, umumiy maydoni 1086,6 ming kv.m. uy-joylar foydalanishga topshirildi.

Ko'rilgan choralar natijasida viloyatda qo'shimcha 18 ta aholi punkti tabiiy gaz va 112 ta aholi punkti ichimlik suv bilan ta'minlandi.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida rejada belgilangan 900 ta zamонавиy uy-joylar muhandislik tarmoqlari ob'ektlari bilan birgalikda to'liq foydalanishga topshirildi.

Jami 91 ta investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun 39,6 mln. dollar jalb etilib, 1821 ta yangi ish o'rinnari yaratildi. Natijada 2,6 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishtab chiqarildi.

Yengil sanoat sohasida 89 ta loyiha amalga oshirildi, 14,3 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar jalb etildi. Natijada 234 ta ish o'rinnari yaratildi.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dastur doirasida 2983,6 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib, jami 761 ta aholiga xizmat ko'rsatish shoxobchasi tashkil qilindi.

2012 yilning yakuni bilan barcha moliya manbalari hisobidan 1356,5 mlrd.so'm kapital mablag'lari o'zlashtirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,9 foiz o'sishga erishildi. O'zlashtirilgan kapital mablag'larning 110,4 mlrd.so'mi davlat byudjeti, 135,9 mlrd.so'mi byudjetdan tashqari fondlar, 361,4 mlrd.so'm korxona va tashkilotlar mablag'i, 139,0 mlrd.so'm bank kreditlari, 23,0 mlrd.so'm hukumat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar, 30,1 mlrd.so'm to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, 556,7 mlrd.so'mi aholi mablag'lari hisobiga to'g'ri keldi.

Pudrat tashkilotlari tomonidan o'z kuchlari bilan bajarilgan qurilish-montaj shulari hajmi 904,7 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115,5 foiz o'sishga erishildi.

2012 yilda barcha manbalar hisobidan 922 ming m^2 turar-joylar binolarini qurilishi belgilangan bo'lib, yanvar-dekabr xolatiga 1086,6 ming m^2 turar-joylar foydalanishga topshirildi bu yilik proqnozga nibatan 117,8 foizni tashkil qilmoqda, shuningdek, 335,1 km ichimlik suvi va 78,9 km tabiiy gaz tarmoqlari foydalanishga topshirilib, yillik reja mos ravishda 133,4 va 102,4 foizga bajarildi.

2013 yil 1 chorak yakuni bo'yicha birgina Samarcand shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, joriy yilning o'tgan chorak yakunida shahar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida bir qator maqsadli dasturlar ishlab chiqilib tasdiqlandi. Dasturlarda vazifalar aniq va manzilli yo'naltirilishi natijasida ijobiy natijalarga erishildi (2.1.1 va 2.1.2-jadvallar).

2.1.1 –jadval

Samarqand shahrining 2013 yil 1 choragi holatiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

	Ko'rsatkichlar	Miqdori (mlrd.so'm)	O'sish sur'ati (o'tgan yilga nisbatan)
1	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	282,4	123,2
2	Qurilish – pudrat ishlari	53,5	110,7
3	Chakana savdo aylanmasi	209,4	121,0
4	Pullik xizmat ko'rsatish hajmi	158,5	112,2
5	Jami xizmatlar ko'rsatish	405,8	120,7

2.1.2 –jadval

Samarqand shahrining 2013 yil 1 aprel holatiga Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) Xizmatlar

Ko'rsatkichlar	O'chov birligi	Miqdori
Jami xizmatlar	mln. so'm	1742398,2
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	118,2
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	mln. so'm	194804,3
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	125,8
Moliya xizmati	mln. so'm	143468,6
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	115,5
Transport xizmatlari	mln. so'm	238959,2

O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	119,9
Qurilish xizmati	mln. so'm	49467,6
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	107,8
Turizm xizmati	mln. so'm	27439,5
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	117,9
Savdo va umumiy ovqatlanish	mln. so'm	472030,0
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	114,2
Maishiy xizmat kursatish	mln. so'm	70146,6
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	129,6
Ta'lim xizmati	mln. so'm	88981,2
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	119,3
Sog'liqni saqlash xizmati	mln. so'm	28095,7
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	147,8
Boshqa xizmatlar	mln. so'm	423172,7
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	%	116,6
Aholi jon boshiga	ming so'm	3466,8

14.2. Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiyalari

Mamlakatimizda turizm sohasining rivojlanishida Samarqandning o'rnini beqiyos. Viloyat hududida joylashgan turistik – rekreatsion, ziyorat resurslariga yildan – yilga turistlarning qiziqishi ortib bormoqda. Jumladan, viloyatning turistik salohiyatidan kelib chiqgan holda yangi sayyoqlik yo'nalishlari ishlab chiqilayapti, mavjud transport kommunikatsiyalari qayta ta'mirlanib, yangilari barpo etilayapti. Mustaqilligimizning 20 yillik bayrami arafasida "Toshkent — Samarqand", "Samarqand — Toshkent" yo'nalishlarida zamонавиъ тезурур "Afrosiyob" poyezdi qatnovi yo'lga qo'yilishi turistlarga ko'rsatiladigan transport xizmatlarining tez va samarali amalga oshirilishini ta'minlab beradi.

Viloyatda turizm sohasi ham boshqa viloyatlarga nisbattan yaxshi rivojlangan bo'lib mamlakat byudjetiga valyuta tushumini ta'minlab kelmoqda. Samarqand O'zbekistonning yirik turistik markazlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Xozirgi kunda viloyatda turizm faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo'lgan 177ta turistik korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, 89 ta joylashtirish vositasi, 45 ta turoperatorlik, 30 ta turagentlik korxonalarini va 13 ta sanatoriya kurort muassasalarini faoliyat ko'rsatmoqda(2.2.1 – jadval).

2.2.1 – jadval

Samarqand viloyatida 2010-2012 yil holati bo'yicha turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar to'g'risida ma'lumotlar

№	Faoliyat yo'nalishi	soni			2012 yilda yilga nisbatan o'zgarishi (%)
		2010	2011	2012	
1.	Turfirmalar	40	45	45	112,5
2.	Turagentliklar	20	29	30	150
3.	Mexmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari	63	89	89	141,2
4.	Sanatoriya kurort muassasalari	13	13	13	o'zgarishsiz

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak Samarqand viloyatida turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni yildan – yilga oshayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bigina 2012 yilda 2010 yilga nisbatdan turfirmalar soni 5 taga, turagentliklar soni 10 taga, mexmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 26 taga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

"Buyuk ipak yo'lli"ning chorraxasida joylashgan Samarqand viloyati mamlakatimizdagi eng jozibador turistik mintaqalarning biridir. Respublika madaniy meros ob'ektlarini muxofaza qilish va ulardan foydalanish bosh boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra viloyat hududida tabiiy va antropogen harakterdagi turli davrlar, sivilizatsiyalar va dirlarga tegishli 1501 ta arxeologiya, 806 ta me'morchilik yodgorliklari, 25 ta alohida diqqatga sazovor joylar, 100 dan ortiq monumental san'at ob'ektlari davlat ro'yxatiga olingan. Samarqand, Kattaqo'rg'ondag'i tarixiy shahar obidalari, eski ko'chalar, Paxtachi, Oqdaryo, Nurobod, Urgut tumanlaridagi qadimiy me'morchilik yodgorliklari — masjid va madrasalar, fuqarolik inshootlari, alohida me'moriy komplekslar, rus istilosи davridagi bino va inshootlar, yuzlab arxeologik yodgorliklar shular jumlasidandir. Bularning barchasi, shuningdek tovar va xizmatlar bozorining yaqinligi, yuqori tabiiy-rekreatsion salohiyat va madaniy qadriyatlarning saqlanib turganligi Samarqand viloyatida turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun inustakhjam zamin yaratadi. Ammo hozircha mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanishga erisha olganimiz yo'q.

Samarqand viloyati madaniy, tarixiy va me'moriy yodgorliklarga boy. Samarqand shaxridagi Shohizinda me'moriy ansamblı, Bibixonim jome masjidi,

Registon maydonidagi me'moriy majmua, Amir Temur maqbarasi, Ulug'bek rasadxonasi va boshqalar butun dunyoga mashhur.

Viloyatda 291 me'moriy, 1452 arxeologik, 36 tarixiy, 188 monumental san'at va haykaltaroshlik yodgorligi bor. Samarqand viloyatidagi me'moriy yodgorliklardan Kattaqo'rg'onidagi Qalandarxonha masjidi (1909—10 y.lar), Okdaryo tumanidagi Maxdumi A'zam me'moriy majmuasi (16—20-a.lar), Paxtachi tumanidagi Imam Bahri ota maqbarasi (15—16-a.lar), Nurobod tumani Tim qishlog'idagi Arabota maqbarasi (977 y.), Payariq tumani Hartang qishlog'idagi Imam al-Buxoriy yodgorlik majmui, Samarqand shaxri atrofida Xoja Abdi Birun me'moriy ansamblı (15—18-a.lar), Xoja Axror me'moriy majmuı (15—20-a.lar), Nodir Devonbegi madrasasi (1630—31 y.lar) va boshqalarning saqlanib qolgani viloyatning ulkan turistik salohiyatga egaligidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida madaniy merosni tiklash, tarihiy va me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash ishlariga O'zbekiston hukumati tomonidan katta e'tibor berilmoqda. O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi b-n Samarqand viloyatidagi Hartang qishlog'i yaqinida Imam Al Buxoriy yodgorlik majmuı o'z o'rnidida qayta tiklandi, shuningdek, Samarqand shaxridagi Imam Abu Mansur Al Moturidiy maqbarasi, Samarqand shaxri yaqinidagi Dahbed qishlog'ida joylashagan Maxdumi A'zam masjidlari va boshqalar to'la ta'mirlandi va bugungi kunda turistlar diqqat e'tibori markazida bo'lmoqda.

Viloyatda turizmnинг rivojlanishi hududdagi mavjud resurslar asosida raqobatdosh turistik mahsulot yaratish bilan belgilanadi. Bu jarayonda marketing tadqiqotlarini kuchaytirish, ya'ni turistik mahsulotlarga bo'lgan talabni har tomonlama o'rghanish, tahlil etish katta ahamiyatga ega. Albatta viloyatda turistik mahsulot yaratishga asos bo'luchchi turistik resurslarning turlari, potensiali yuqori darajada. Mavjud turistik mahsulotlarga bo'lgan talab qanday darajada bajarilayotganligini ularning turlaridan foydalanish darajasini belgilash orqali aniqlash mumkin (2.2.2-jadval).

2.2.2-jadval

Samarqand viloyatidagi turistik resurslarga bo'lgan talab va undan foydalanish darajasi³³

Resurslar	Mahalliy sayohatchi-lar talabi	Xorijiy sayohatchi-larning talabi	Resurs salohiyati	Foydalanish darajası
Rekreatsiya va ekologik turizm resurslari	past	yuqori	yuqori	past

³³ Jadval muallif tomonidan o'tkazilgan monografik tadqiqotlar asosida tuzildi.

Madaniy va etnografik turizm resurslari	o'rta	yuqori	yuqori	past
Tarixiy, me'moriy va arxeologik tanishuv resurslari	o'rta	yuqori	yuqori	o'rta
Diniy turizm resurslari	yuqori	yuqori	yuqori	o'rta
Yekzotik muhit va har xil sarguzasht resurslari	past	o'rta	o'rta	past
Servis sifati	past	yuqori	past	past

Ushbu jadvaldan ko'trinib turibdiki, ko'p turistik resurs turlarining salohiyati yuqoriligi bilan ulardan foydalanish darajalari pastligicha qolmoqda. Ayniqsa, ekologik, madaniy va etnografik turizm resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etish bugungi kunda o'ta dolzarbdir.

Hozirgi kunda, Samarcandda turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2011 yil 4 oktyabrda "Samarcand viloyatida 2011-2012 yillarda turizm sohasini rivojlantirish va turistik xizmatlar eksport salohiyatini oshirish bo'yicha manzilli Dasturi" qabul qilingani bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu Dasturda:

- viloyatda turizm sohasini rivojlantirishga hissa qo'shadigan turistik ob'ektlarni ta'mirlash va modernizatsiyalash;

- yangi turistik ob'ektlar ochish;

- mehmonxonalarda xizmat turlarini kengaytirish (bankomatlar, internet aloqalari, on-layn bron qilish sistemalarini o'rnatish);

- shaharda informatsion tizim va reklamani rivojlantirish;

- turizm sohasida malakali kadrlar tayyorlash va boshqa turizm infratuzilmasini rivojlantirishga bog'liq ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.


- Turizm har bir turistik resurslarga ega bo'lган hududning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi, chunki u nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki mahalliy aholining bandligi va daromadlarini oshirishga ko'maklashadi.

Shu bilan birga turizmning rivojlanishi iqtisodiyotning boshqa sohalarini sanoat, qishloq xo'jalik, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishini rag'batlantiradi. Ushbu soha korxonalarining rivojlanishi va ular daromadlari, to'laydigan soliglari natijasida mahalliy byudjet mustahkamlanadi. Mahalliy aholining bandligi va daromadlarini ortishi natijasida aholining turmush darajasi ko'tariladi.

Samarcand viloyati mamlakatimiz turizm markazi hisoblanadi. Shuning uchun bu imkoniyatlardan foydalanib sayohat-ekskursiya ishlarini jadallashtirish turizm xizmatlar bozorini rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

1998 yilda shahardagi mavjud 34 ta sayyoqlik firmalari 21,7 ming mehmonga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, «O'zbekturizm» MK Samarqand viloyati mintaqaviy bo'limi ma'lumotlar bo'yicha 2012 yilning 1 yanvar holatiga Samarqand viloyatida jami 177 ta turizm faoliyati bilan shug'ullanish xuquqiga ega bo'lgan korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan bir yo'la 3885 taga yaqin mehmonlarni qabul qilish quvvatiga ega bo'lgan 89 ta zamонавиy va milliy uslubda qurilgan mehmonxonalar, 45 ta turoperatorlik va 30 ta turagentlik firmalari hamda 13 ta sanatoriya kurort muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Samarqand shahrida xalqaro turizmnинг rivojlanish holati, ya'ni bugungi kunda xorijiy turistlar tashrifining tahlili, eng ko'p turistlar oqimi Yevropa mamlakatlaridan kelishini ko'rsatmoqda (55 %), bunda Butunjahon turistik tashkilotlarining tasnifi bo'yicha MDH mamlakatlari ham Yevropa mintaqasiga kiradi. Keyingi o'rinda Sharqiy Osiyo va Tinch okeaniya mintaqasi mamlakatlari turistlari 22% ni tashkil qilmoqda. Uchinchi o'mida esa O'rta Sharq mamlakatlaridan 11% va qolgan qismini Janubiy Osiyo mamlakatlariidan 8 %, Amerika mamlakatidan 4 % turistlar kelganligi ko'rsatilmogda (3.3.1 – diagramma).



3.3.1 – diagramma. Samarqand viloyatiga tashrif buyuruvchi chet ellik turistlar oqimining mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi³⁴

Samarqandga tashrif buyurayotgan mehmonlar va sayyoqlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar soni va sifatini yanada oshirish, mehmonxonalarda xizmatlar hajmini ko'paytirish, tarixiy obidalarimiz atrofi va turistik marshrutlarda

³⁴ Qodirov G.X., Tuxliyev I.S. «Turizm iqtisodiyoti». Samarqand, SamJSL, 2007. – 7 b.

keng obodonlashtirish ishlarini olib borishni yo'lga qo'yish maqsadida viloyat hokimiysi tomonidan qabul qilingan «Viloyatda turizmni rivojlantirishning 2010 yilgacha bo'lgan mintaqaviy dasturi», «2011-2012 yillarda Samarqand viloyatining turizm sohasini rivojlantirish va turizm Xizmatlar eksportini oshirish bo'yicha manzilli dastur» dasturi amalga oshirildi.

Mintaqa turizmi rivojlanishida transport tuzilmasining o'rni va ahamiyati juda salohiyatli bo'lib, bu jarayonda «O'zbekiston Havo Yo'llari» milliy aviakompaniyasining ham hissasi kattadir. Samarqand aeroporti soatiga 400 yulovchiga Xizmat ko'rsata oladi. Yo'lovchilarga Samarqanddan Toshkent, Rossianing Moskva, Sankt-Peterburg, Simferopol, Qozon va yana ko'plab boshqa shaharlariiga, shuningdek, G'arbiy Yevropa va Osiyo mamlakatlariiga jahon andazalariga javob bera oladigan Xizmatlarni ko'rsatgan holda yetib borishlari mumkin. Turistlar uchun muhim transport turi hisoblangan temir yo'l transporti ham turizmni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Toshkent-Samarqand shaharlari o'rtasida shinam, tezyurar "Afrasiyob" poyezdining qatnashining tashkil etilishi turistlar uchun katta qulayliklar yaratib berdi. «O'zbekiston temir yo'llari» davlat hissadorlik temiryul kompaniyasi Samarqanddan Surxondaryo viloyatiga o'tuvchi temir yul tizimini ham takomillashtirish borasida katta ishlarni amalga oshirmoqda.

Samarqand mintaqasi yana boshqa ko'plab turistik resurslarga ega bo'lgan hududdir. Ulardan madaniy-tarixiy, ekologik turistik resurslari, bilish turizmi, sog'likni tiklash hamda diniy turistik resurslari ham alohida ajralib turadi. Albatta, bu resurslar asosida turmahsulotlarni shakllantirish va tayyor turmahsulotlarni iste'molchilarga yetkazish bu sohada band bo'lgan turoperatorlarning faoliyatiga ham bog'liq bo'lib, hozirgi kunda mintaqadagi turoperatorlik firmalari asosan jo'natish (shop-tur) bilan shug'ullanishi ular faoliyatidagi samaradorlikni yetarli darajada ta'min eta olmayapti.

Mintaqaga turistlar oqimining kelishini ko'paytirish iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishini hisobga olsak, turoperatorlarning asosiy vazifasi tashqaridan keladigan potensial turistlar uchun barcha imkoniyat va qulayliklarni yaratish va shu orqali ular sonini ko'paytirishga erishishlari lozim. Viloyatda turizmning rivojlanishi undagi mavjud salohiyatni yanada oshirish bilan bog'liqdır.

Viloyatda turizmni rivojlantirish uchun turizmga xizmat qiluvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish, ular uchun shart-sharoitlarni yaratish lozim. Hozirgi kunda turistlar uchun sovg'abop buyumlar ishlab chiqarish viloyatimizda shakllangan. Ammo bu ishlab chiqarishning turlarini oshirish, bunda kasanachilikka keng yo'l berish kabi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mintaqa turizmi va mehmonxona xo'jaligini rivojlanishida tashkiliy salohiyat asosiy rol o'tynaydi. Turizmda tashkiliy masalalar ko'p bo'lib, unda, ayniqsa, boshqaruvinning o'rni katta. Viloyatda boshqaruvin yangi zamonaviy usullarga

o'tkazish, ya'ni menejmentni takomillashtirish lozim. Undan tashqari, turizmni tashkil etuvchilar hisoblangan turoperator va turagentlik xizmatlarini rivojlantirish lozim. Samarqand iqtisodiyot va servis institutida bu kabi mutaxassisliklar tayyorlanayotgani katta ahamiyatga ega. Bu esa turfirmalarning ko'payishiga olib kelib, o'z navbatida, sog'lom raqobatni shakllantiradi.

Turizmni rivojlantirish salohiyati tarkibida informatsion salohiyat sezilarli o'ringa ega. Hozirgi davrda axborotlar asrida yashayotganligimiz ayon. Mintaqalbo'yicha ma'lumot bazasining tezkorligi va yetarligi turizmnинг rivojlanishiga katta ta'sir qiladi. Bu salohiyatning yuqoriligi turistik tashkilot va korxonalarda kommunikatsiya aloqalarining rivojlanishiga, reklama faoliyatini kengaytirishga, marketing tadqiqotlari olib borish, firma va uning turmahsulotlarini elektron prezentatsiya qilishga, mehmonxona va restoran xizmatlari tariflari va baholari to'g'risida operativ ma'lumot olishga, internet tarmog'idan bron qilish kabi xizmatlarni amalga oshirishga erishish imkonini beradi. Buning uchun turfirmalar internet tizimida o'z saytlarini yaratishlari maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunning global muammolaridan biri ekologik muammolardir. Shuning uchun turizmni rivojlanishiga ekologik salohiyatning ta'siri oshib bormoqda. Turistik resurslar atrofida chiqindilarning borligi, atrof-muhitning sanitariya talablariga mos emasligi turistik oqimga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tabiatni muhofaza qilishga doir mas'ul tashkilotlar hamda fuqarolarimizning bu holatga mas'ulligini oshirishga erishishimiz kerak. Bunda, ayniqsa, ekologik madaniyatni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Albatta, har bir mintaqada turizmnинг rivojlanishi uning tarixiy-madaniy salohiyati bilan chambarchas bog'liqidir. Viloyat tarixiy-madaniy merosining yuqori salohiyatga ega ekanligining o'zi bu mintaqada kelajakda turizmni rivojlanish istiqbelini belgilab beradi. Hozirgi paytning asosiy vazifasi bu merosni asrabavaylash hamda turizm faoliyatidan oqilona, samarali foydalanishdir.

Viloyatda sohani rivojlantirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, turizmni rivojlantirish sohasida hali yechimini kutayotgan bir qancha muammolar mavjud. Bu muammolarning yechimlatini topish, ularni bosqichma-bosqich hal etish kelajakda katta daromad manbaiga aylanishiga olib keladi. Hali viloyatning ko'plab turistik resurslari ayniqsa, kichik tarixiy joylar, tumanlardagi turistik resurslar to'laligicha o'r ganilmagan va ular bo'yicha ma'lumotlar bazasi yetarli emas. Bundan tashqari, turistik resurslardan foydalanish uchun zarur bo'lgan infratuzilma ham shakillanmagan. Bulardan tashqari, yana quyidagi muammolar mavjudligi olimlar tomonidan e'tirof etiladi³⁵:

³⁵ Ibadullayev N.B. Turistik resurstandan foydalanish samaradortigini oshirish imkoniyallari (Samarqand viloyati madolida). I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Samarqand: SamSI, 2010. – 156 b.

- ko'ngilochar xizmatlar infratuzilmasining xorijiy turistlar uchun yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- yo'llarning ahvoli xalqaro talablarga to'liq javob bermasligi;
- gid-tarjimon va ekskursovodlar malakasining talab darajada emasligi;
- jamoat joylarida sanitariya holatining xalqaro talablarga to'liq javob bermastigi;
- xizmat ko'rsatish sohasida ko'pgina kamchiliklarning mavjudligi va ularning sifat darajasi pastligi;
- mintaqaning turistik resurslari to'g'risida xalqaro miqyosda yetarlicha ma'lumot yo'qligi, reklama xizmatidan yetarli darajada foydalanilmasligi;
- milliy o'yinlar, folklor guruhlari namoyishlarining, milliy kiyimlar galereyalarining kamfigi va boshqalar.

Mintaqa turizmini rivojlantirish va turistik resurslardan samarali foydalanish hamda uni rivojlantirish maqsadida tarixiy-me'moriy, arxeologik tanishuv turizmi, diniy turizm, madaniy-yetnografik turizm, ekologik turizmga doir istiqbolli turistik marshrutlarni ishlab chiqish va uni turistlar e'tiboriga havola qilish maqsadga muvofiq.

Samarqand viloyatida turizm xizmatlarini rivojlanish darajasining o'zgarishi turfi tendensiyaga ega (3.3.1 – jadval).

3.3.1 – jadval


2004-2010 yillarda Samarqand viloyatida turizm sohasining rivojlanish dinamikasi

№	Ko'rsatkichlar nomi	Yillar						
		2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010
1.	Xizmatlar hajmi - jami mln. so'mda	452,47	5710,9	6689,1	11078,4	13567,3	13348,5	20888,1
2.	Foya - jami mln. so'mda	71,68	541,3	370,5	1192,1	474,2	1007,3	1291,8
3.	Turistlarga xizmat ko'rsatish ming kishi	99	59,1	81,7	113,19	120	130,94	152,89


	- qabul qilindi	68,69	58,8	66,5	94,82	106,39	103,72	113,67
	Xorijliklar	37,5	36,9	45,1	70,95	73,41	70,84	78,44
4.	Yeksport xizmati ming. AQSH dol.	5000	4450,8	4978,3	7008,9	7391,8	5778,8	7422,8

* Manba: "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Ushbu jadval tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2010 yil davomida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan sayyohlik firmalari va mehimonxonalar tomonidan jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 20888,1 mln. so'mni, 2009 yilga nisbatan o'sish – 156,5 % ni, olingan daromad 1291,8 mln. so'mni, 2009 yilga nisbatan o'sish – 128,2 % ni, eksport hajmi 7422,8 ming AQSH dollarini, 2009 yilga nisbatan o'sish – 128,4 % ni, xizmat ko'rsatilgan turstlar soni 152,89 ming kishini, 2009 yilga nisbatan o'sish sur'ati – 117 % ni, shu jumladan, chet el sayyohlari 78,44 ming kishi, 2009 yilga nisbatan o'sish sur'ati – 111% ni tashkil etgan. Bu ma'lumotlarni quyidagi diogramma orqali yaqqol ko'rishimiz mumkin(3.3.2 va 3.3.3 - diogrammalar).



3.3.2- diogramma. 2007 – 2010 yillardagi xizmatlar xajmidagi o'zgarish



3.3.3- diogramma. 2007 – 2010 yillar davomidagi xizmat ko'rsatilgan turistlar sonidagi o'zgarish tendensiyalari

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash joizki, Samarqand viloyatida turizm bozorini tashkil etish va rivojlantirish borasida katta turistik salohiyatga ega bo'lib, bu yerda yana qo'shimcha tarixiy, diniy, madaniy-yetnografik turistik resurslarga boy hisoblangan qishloq joylarining mavjudligi keng turistik imkoniyatlardan dalolat beradi. Shunday ekan viloyat chekka joylaridagi turistik resurslarni o'rgani, ularga marshrutlar ishlab chiqish va infra tuzilmasini rivojlantirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi.

14.3. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati

O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" gi qonuni ijrosini ta'minlash hamda viloyat hududidagi tarixiy, madaniy va me'moriy yodgorliklarni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish choralarini ko'rish va yodgorliklarning davlat muhofazasini ta'minlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu ishlar Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 29 iyuldaggi 269-soni "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori va "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha Idoralararo komissiya to'g'risidagi Nizom", "O'zbekiston Respublikasi madaniy meros ob'ektlari davlat kadastrini yuritish to'g'risidagi Nizom" va "Madaniy meros ob'ektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi to'g'risidagi

Nizom"lar, Vazirlar Mahkamasining «Tarixiy obidalar, ziyoratgohlar va qadamjolarda aholiga hamda sayyohlarga xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash choralarini to'g'risida»gi majlisi bayonnomasi talablarini bajarish maqsadlariga qaratilgan.

Respublikamiz madaniy – tarixiy resurslarga boy bo'lib, bugungi kunda mamlakatimizda 7 mingdan ortq' madaniy meros resurslarimizga egamiz. Viloyatda jami 372 ta madaniy meros ob'ektlari, shundan 42 ta tarixiy obida va muqaddas ziyoratgohlar, 267 ta arxeologik manzilgohlar, 63 ta monumental yodgorliklar (haykallar, byustlar, xotira maydonlari) "Davlat muhofazasi ro'yxatlari"ga kiritilgan. Samarkand viloyatidagi diniy-ziyoratgoh maskanlarga turistik marshrutlar ishlab chiqishda ushbu ziyoratgohlarning ziyorat qilish xususiyatlarini o'rGANIB chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifalarni amalga oshirish har bir ziyoratgohlarga turistlar oqimni hosil qilish uchun ham juda muhim hisoblanadi.

Mutaxassislar ma'lumoti bo'yicha Samarqandning madaniy-tarixiy turistik resurslari juda ko'p. Shulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

XOJA DONIYOR MAQBARASI. Xoja Doniyor maqbarasi Samarqanddag'i eng mo'tabar va mashhur ziyoratgohlardan hisoblanadi. Xoja Doniyor maqbarasini uch din – islom, xristianlik va iudaizm vakillari bir xil darajada aziz va tabarruk deb ziyorat qiladilar. Doniyor, Daniil, Daniel -- bu musulmon, nasroniy va yahudiy adabiyotlaridagi aziz avliyoning nomidir.

Injilda talqin etilishicha, Daniil yahudiy tilidan tarjimasi «Olloh hakam» ma'nosini bildiradi. Doniyor Iyerusalimda eramizdan avvalgi 603 yilda tug'ilgan bo'lib, shoh Dovud va Sulaymon (Solomon) larning avlodiga mansubdir.

Afsonaviy avliyo yahudiy asirlarning fors shohi tomonidan ozod etilishigacha bo'lgan davrgacha yashagan, lekin keksayganligi sababli vataniga qayta olmaydi va Suz shahrida (hozirgi Mosul (Iraq) shahrida) izzat-hurmat bilan dafn etiladi. Olimlar o'rtasida . Doniyor payg'ambarning maqbarasi Samarqandda paydo bo'lganligi to'g'risida turli talqinlar mavjud.

Rivoyatlarda talqin qilinishicha, buyuk sarkarda Amir Temur o'zining Kichik Osiyoga (1397-1404) yetti yillik yurishi vaqtida, Suz shahrini zabit etish qiyin kechadi. Shunda shaharni avliyo Daniilning tabarruk xoki asrab kelishligi haqidagi xabar sohibqironga yetib borad va Amir Temur Donyor Payg'ambar haqida eshitadi. Hatto uning qabrini borib ziyorat qiladi. Donyor Payg'ambar haqidagi rivoyatlar, u kishining quloq eshitmagan sarguzushtlari Amir Temurga xush keladi va shu ondayoq qamal qilinganlarning mol-mulkiga tegmaslikka va'da berib, buning evaziga avliyoning tabarruk xoklarini (o'ng qo'llari, o'ng oyoqlari va bosh suyaklari taxminlari mavjud) Samarqandga olib ketishga buyruq beradi, bu bilan toki saltanatini har xil osatlardan saqlanishini niyat qiladi. Shu maqsadda katta tuyalar karvoni tuzilib, u kishining xoklari Samarqandga yetkaziladi. Ixtos etgan

Amir Temur Donyor Payg'ambarning haqiga katta e'tibor zoxir etib, uning qabr joyini shaxsan o'zi tanlaydi. Zero maqbaraning Siyob yaqinida (tepaligida) joylashtirilishi tasodif emas, balki Mosuldag'i qabrga monand joy tanlanishidir.

XIX asr oxirlarida ushbu qabr ustida maqbara qurildi. Unga boradigan asosiy yo'l qadimiy Afrosiyob shaharchasidan bo'lib, maqbaradan sal balandroqda kirish darvozaxona ayvoni qurilgan.

Maqbara ichida dunyodagi eng uzun qabrni ko'ramiz, u 18 metr uzunlikka ega. Qabrnинг balandligi janub tomonida 90 sm, shimol tomonida – 160 sm, shimol tarasi bitmuncha kengroq – 2 m, chunki, bu tomonдан to'rtburchak sag'ana o'rnatilgan. Sag'ana pishiq g'isht bilan terilib, qumshuwoq qilingan va qur'oniy yozuvlarga ega bo'lgan marmar panellar bilan bezatilgan.

2001 yilda majmua atrofida arxeologik qazishlar olib borildi. XIV asrga tegishli masjid qoldiqlari topildi. Masjidning mehrob tokchasi Makka tomonga qaratilgan. Qariyalarning aytishlaricha, masjid ikkinchi jahon urushi davrida noma'lum sabablarga ko'ra buzilgan. Imoratning devorlari cho'pkori uslubida qurilgan bo'lib, tagsinch bolori pishiq g'ishtli asosga yotqizilgan. Masjidning shimoliy qismida maydoni 25 kv. m. li ayvoni va masjidga kirish eshigi bo'lgan. Ayvonnинг shimoli-g'arbiy burchagidan uzunligi 80 sm., eni 40sm., qalinligi 20 sm. kattalikdagi ikkita to'g'ri burchakli tosh plitasi topildi. Ular qabr toshlar yasash uchun xomashyo edi. Masjid janubiy devorining tag qismi sinchiklab o'r ganilganda, u yerdan XVII asrga oid g'ishtlar topildi. Mehroblı devor esa, ancha qadimgi devor o'mida, jarlikning yonbag'rini ushlab turish uchun qurilgan ekan. Bu yerdagi va janubiy devor tagidagi g'ishtlar XIV asr oxiri va XV asr boshlariga oiddir.

Quyiroqda, buлоq tomon boradigan yo'lakda esa, IV- VII asrga va hatto I-II asrlarga oid buyumlar topildi. Islom dinigacha, mahalliy zardushtiyalar shunday buлоqlar oldida turli diniy marosimlarni bajargan. Bu yerda ham islom dinigacha bo'lgan davrda muqaddas hisoblangan qandaydir maskan bo'lgan bo'lisi ehtimoldan holi emas. Lekin bu borada hali aniq xulosa chiqarishga erta, chunki arxeologik izlanishlarni ettirish lozim. Hazrati Doniyor payg'ambarning muqaddas majmuasi bizlarga hali o'z sirlarini to'lsiuncha ochgan emas.

Mustaqillik yillarda ushbu ziyoratgohda keng qo'lamda obodenlashtirish, ta'mirlash, qurilish va ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratish ishlari olib borilmoqda.

HAZRATI XIZR MASJIDI. Hazrati Xizr masjidi Samarqand shahrining muqaddas ziyoratgohlaridan biridir. U Samarqanddagi birinchi musulmon masjidi va me'moriy obidasi sisatida e'tirof etiladi.

Masjid Qutayba ibn Muslim tomonidan qurilib, Hazrati Xizr nomi bilan atalgan. Ma'lumotlarga ko'ra, dastlab sajdagohi mayjud bo'lgan. VIII asrda arablar tomonidan otashparastlarning ibodatxonaları buzib tashlanadi. Shu tepalikdagi

ibodatxona o'tniga Qutayba ibn Muslim tomonidan birinchi masjid binosi quriladi va Hazrati Xizr nomi bilan ataladi.

Hoja Doniyor, Qusam ibn Abbos va Hazrati Xizr ziyoratgohlari aslida bitta majmua bo'lgan. Masjidga kiraverishdagi marmar toshda ko'rsatilgan "1854 yil" yozuvi uning Buxoro amiri Amir Muzaffarxon tomonidan tiklanganligiga ishoradir.

1899 yilda masjidning ayvon va darvozaxona qismi qayta qurilgan. Darvoza yuzasiga yozilgan hijriy 1336 yil (melodiy 1916-1917 yillar) yozuvi darvozaxona va minoraning qayta tiklangan vaqtini anglatadi. Fikrimizni xonaqoh mehrobidagi 1274 yil hijriy (1854 melodiy yil), 1302 hijriy yil (1884 melodiy yil) degan yozuvlar isbotlaydi.

Mustaqillik yillarda hazrati Xizr masjidi mamlakat rahbariyati qo'llab-quvvatlashi bilan bir necha bor mukammal ta'mirlandi, masjid yonida joylashgan Arzis qudug'i qayta tozalanib, qadimiy holiga qaytarildi.

Musulmon dunyosida Xizr alayhissalomning nufusi haqida ko'p gapirish mumkin. Bu payg'ambar Haq taolo tomonidan aziz tutilgan zotlardan biri bo'lib o'tgandir.

Hazrati Xizr shajaratasi eski manbaalarda quyidagicha keltirilgan:

1. Xizr alayhissalom.	11. Binni Nuh
2. Binni Mulko.	12. Binni Lamak.
3. Binni Qole'.	13. Binni Matushalax.
4. Binni Omir.	14. Binni Idris.
5. Binni Mard.	15. Binni Bard.
6. Binni Hud.	16. Binni Mahloyil.
7. Binni Shoyix.	17. Binni Qaynon.
8. Binni Sadad.	18. Binni Anush.
9. Binni Arfaxshod.	19. Binni Shis.
10. Binni Som.	20. Odam Safiyulloh alayhissalom

Tarixchi Abu Tohirxojaning «Samariya» asarida ushbu shaharning masjidlari va madrasalarining xosiyat va sifatlari to'g'risidagi bobida shunday fikrlar keltiriladi:

«Hazrati Xizr alayhissalom masjidi. Shahar tashqarisida Afrosiyob tepasi ustida, Ohanin, darvozasining qarshisidadir. Aytadilarkim, Samarqandda eng avval solingen masjid ushbudir. Imom Qutayba Hazrati Xizr ishorati bilan imorat qilgandir. Boshqa bir rivoyatga ko'ra, qiblasini sahabalar tiklaganlar. Ba'zi kishilarining aytishlariga qaraganda, uning mehrobini Hazrati Xizr to'g'rilaqan. Derlarkim, bir kimsa 40 dushmanba kuni ulashtirib bomdod namozini o'sha masjidda o'tasa, Hazrati Xizrn ko'rар emish. Ushbu masjid Amir Muzaffarxonning xonligi chog'ida qayta imorat qilingan».

O'tmishda Samarqand shahri ko'plab marotaba istilochilar tomonidan zabit qilingan. Har bir tarixiy vaziyatda ushbu yodgorlikka alohida bir urg'u berilib kelingan. Masjid o'zining jug'rofik joylashuvi jihatdan shaharning eng baland va namoyon nuqtasidan o'rinni olgan bo'lib, yana bir asosiy tomoni uning shahardan tashqari, Kesh darvozasi yo'li yoqasida joylashishidir.

Ushbu darvozadan Baqtriya, Hindiston, Eron va boshqa davlatlardan savdo karvonlari kirib kelishgan va masjidning yon bag'rida butun shaharni ichimlik suvi bilan ta'minlovchi Arziz qudug'i va arig'i joylashganligi masjidning mavqeini yanada ko'targan.

VII asrda arab xalifaligi Samarqand shahrini zabit etib, shahardagi barcha otashparastlarning ibodatxonalarini buzib tashlashadi, lekin Hazrati Xizr masjidini saqlab qoladilar va bu joyni hatto obodonlashtiradi. Qadimdan Xizr payg'ambar «o'lmas shaxs» hisoblanib, u yer ostidagi konlar, boyliklar, suv piri barcha insonlarning hojatbarori va sayyohlarning piri hisoblanadi.

AMIR TEMUR MAQBARASI. Markaziy Osiyo me'morchiligining noyob asari sifatida e'tirof etilgan Amir Temur maqbarasining qurilishi 1403 yilda boshlanib, 1424 yilda tugatilgan.

Maqbara Amir Temurning taxt vorisi, deb e'lon qilingan nabirasi Muhammad Sulton uchun qurdirligani. Muhammad Sulton 1403 yilda Kichik Osiyoga qilgan safari vaqtida, 29 yoshida bevaqt vafot etadi. Shahzoda Samarqandga keltirilib, dastlab masjidning xonaqosida dafn qilinadi.

Maqbara sakkiz burchakli gumbaz asosida barpo etilgan. Hozirgi zamон mutaxassislarini ham birmuncha o'ychanlik bilan fikrlashga undaydi. Binoning mo'tadil haroratini saqlash, Sharqona qurilish uslublari orqali el ardog'ida bo'lgan shaxslarni o'ziga xos hurmat bilan ulug'lash, ularning buyukligini bejirim bezaklar orqali ifodalash kabi xususiyatlari har qanday kishini lol qoldiradi.

Sohibqiron Amir Temur ham ushbu maqbaradan (1405 yil) abadiy qo'nim topgan. 1409 yilda Amir Temurning kenja o'g'li, Xuroson hukmdori Shohrux Mirzo otasining ma'naviy piri Mirsaid Barakaning jasadini (turbati) Andxoydan olib keltirib, shu maqbaraga, Sohibqironning bosh tomoniga dafn ettiradi. Bu bilan otasi – Amir Temurning vasiyatini bajaradi.

1424 yilda Mirzo Ulug'bek tomonidan maqbara sahniga qabrtoshlar qo'yilib, atrofi nafis marimar toshdan qilingan panjara bilan o'raldi va ko'k gumbazli galeriya qurilib, ziyoratxonaga Sharq tomon dan kirilishi ta'minlandi.

Maqbaraga, shuningdek, Mironshoh Mirzo va Shohrux Mirzo ham dafn etilib, temuriylar xilxonasiga aylangan. 1449 yilda Mirzo Ulug'bek ham shu maqbaraga, bobosining poyiga dafn etilgan.

Mustaqillik yillarda, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi va Mirzo Ulug'bek tavalludi ning 600 yilligi munosabati bilan maqbarada katta hajmda

ta'mirlash ishlari olib borildi. XIX asrning oxirida qulab tushgan minora va gumbazning zar qubbasi qayta tiklandi.

SHOXI ZINDA MAJMUASI. Samarcanddagagi aziz insonlar jasadi qo'yilgan Shohi-Zinda, ya'ni «Tirik shoh» xonaqohi o'tmishtajdodlarimiz tarixi va taqdirida alohida o'rinn tutadi. U ko'hna Samarcandning janubiy qismida joylashgan bo'lib, Sharq musulmonlarining muqaddas ziyoratgohlardandir.

Shohi Zinda xonaqoh sifatida X-XI asrlarda paydo bo'lgan va bu yerdagidagi 20 dan ziyod maqbarada 44 lavha bitilgan dahmalardan iboratdir.

Afrosiyob tepaliklaridagi Shohi Zinda maqbarasida din arboblari va tarixiy shaxslar dafn etilgan. U dastlab Samarcand din ulamolari va hokimlari tomonidan XI asrda payg'ambar Muhammad (s.a.v) ning amakilarining o'g'li Qusam ibn Abbos sharafiga qurilgan.

XIII asrda mo'g'ul istitochilarining Samarcandga qilgan harbiy yurishlari XI-XII asrga oid ko'plab inshootlarning, buzilib, harobaga aylanishiga sabab bo'ldi. Qabriston XIV asrda qaytadan tiklana boshlandi.

Temur hukmronlik qilgan (1370-1405) davrda qurilish ishlari juda jadal sur'atda olib boriladi. Bu inshootlarning ko'pchiligi bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Shohi Zinda me'morchilik majmuasi uch qismdan iborat qilib qurilgan. Majmuaga ulkan o'ymakor darvozadan kiriladi. Peshtoq ravog'ining g'arbiy devorida uning Abdulaziz Bahodir ibn Ulug'bek ibn Shohrux ibn Temur tomonidan hijriyning 838 yilda (1434-1435) bunyod etilgani yozilgan. Bu inshoot Shohi Zindaning qariyb to'rt asr davomidagi shakllanish tarixiga xotima beradi. Peshtoq juda nafis ishlangan.

O'ymakor eshik 1911 yilda qurilgan, undagi naqshinkor bezak va yozuvlar kishi diqqatini o'ziga tortadi. Eshikda «*O'lindan oldin tavba qilmoqqa shoshilgin va namozni o'z vaqtida o'qishni farz bilgin*» so'zlari yozilgan.

Majmuadan bir qancha maqbaralar o'rinn olgan, ulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz, jumladan:

Shodimulk og'a maqbarasi – bu maqbara 1372 yilda qurilgan bo'lib, Shohi Zindada Temur davrida qurilgan birinchi inshoot hisoblanadi. Bu binoni Temurning opasi Turqon og'o vafot etgan qiziga atab qurdiradi. 1383 yilda o'zi ham shu yerga dafn etilgan.

Tug'li Tekin maqbarasi – bu maqbaraga Temurning yetakechi izdoshlaridan biri, Amir Husayn qo'yilgan. U 776-777 yillari Temur Ili daryosi yuqorisida joylashgan Uch Turfon mavzeida, mo'g'ul xoni Qamariddingga qarshi qilgan janglaridan birida halokatga uchragan.

Maqbara peshtoqiga, sag'ona ustiga, 777 yil sanasi bitilib qo'yilgan. Lavhada quyidagi so'zlarni o'qiyimiz: «Dunyoda baxtiyor amir nigohi bilan tug'ilgan

jafokash Amir Husayn qutlug' o'g'lini Olloh o'z jannatiga yo'llagay. U 777 yilning zulqa'da oyida azoblanib o'ldi».

Bu ulug' bino 1952-1954 yillarda ilmiy jihatdan o'rganilgan va muhofaza choralarini ko'rilib, qayta tiklandi.

Amirzoda maqbarasi – bu maqbaraga dafn etilgan shaxsning asl ismi ma'lum emas. Uning peshtoqida faqat vafot etgan yili 1386 (786 y.) yozilgan.

Shirinbekova maqbarasi (XIV-XV asrlar) – bu ulug'vor bino Temurining singlisi Shirinbekova og'oga atab qurilgan bo'lib, uning ravoqida marhumanining vafot yili 1385 y. (787 x.) ko'rsatilgan.

Maqbarada uchta dahma bo'lib, o'rtadagi dahma badiiy jihatdan kishining e'tiborini o'ziga tortadi. Dahma, shikasta xat bilan bezatilgan. Unda yetti bor quyidagi so'zlar bitilgan. «*Har bir no'min va mo'mina hayotlik davrida oxirat bisotini to'plasin, chunki u qorong'i go'rni yoritguvchi chiroq vazifasini o'taydi*». Afsuski dahmaga bitilgan yozuvlarda tarixiy ma'lumotlar yo'q.

Sakkiz tomonli maqbara – bu maqbaralar ichida me'morchilikning o'ziga xos namunasi sanalgan sodda bezakli, sakkiz yoqli maqbara mavjud. Maqbaranining tagida 4 ta aslzoda ayol kishining sag'anasi bor. Undagi sakkiz ochiq eshik, musulmonlar tasavvuridagi jannatning eshiklarini eslatadi, chunki payg'ambar Muhammed (s. a. v.) ning hadislariga ko'ra «jannat onalar oyog'i ostidadir». Uning ichki qismida sodda naqshlar solingen. Chiroyli nusxalar ichida muqaddas Quro'ndan maxsus suralar bitilgan.

Usta Ali Nasafiy maqbarasi (XIV ASR) – bu inshootda esa qarshilik usta Ali Nasafiy tomonidan handasaviy naqshlar qo'llanilgan. Kufiy yozuvida binoning peshtoq va ichki qismi mahorat bilan ishlangan. Uni ko'pincha guldor maqbara ham deyishadi, chunki ichki va tashqi devorlarida rang-barang sirli koshinlar, o'simiiksimon naqshlarda namoyish etilgan. Ular chirmashib, sakkiz qirrali yulduzlar turkumini hosil qiladi.

Noma'lum kishi maqbarasi (XIV asr) – Shimoliy qism binolariga borishda yo'lakning chap tomonida XIV asrda qurilgan yana bir maqbara mavjud. Bugungi kungacha yodgorlikning faqatgina buzilgan peshtoq qismi saqlanib qolgan edi, u qayta tiklandi. Maqbarada dafn etilgan shaxs to'g'risida ham aniq bir ma'lumot yo'q. Peshtoq g'oyat ajoyib qoplamasni va undagi lojuvard hamda zangori rangning o'ta shaffofligi bilan kishi e'tiborini o'ziga tortadi.

Amir Burunduq maqbarasi (XIV ASR). Amir Temur o'z sarkardalariga juda e'tiborli bo'lganlar. Strategik jihatdan juda kuchli mahoratga ega bo'lgan bu sarkarda sohibqironning har bir zafarli yurishiga o'z ulushini qo'shgan. Bino ichki va tashqi tomonidan sodda qilib qurilgan. Maqbara sahnida dahma va qabrlar bor. Dahmalar ochib o'rganildi. Tekshirilgan dahmalar orasida yosh yigitning dafn etilgani olimlar e'tiborini tortdi, marhumning o'z kiyimida ko'milganligining

guvohi bo'lishdi. Hozirda uning tanasidagi yaktak Samarqand davlat muzeyida eng noyob ashyo sifatida saqlanmoqda.

Tuman og'a majmuasi (XIV ASR). Shimoliy qismning asosiy binolari qatorida XIV asming oxirida Temurning kichik xotini Tuman og'o uch xonadan iborat yodgorlik qurdirdi. Ular mulozimxona, masjid, Tuman og'o maqbarasidan iboratdir.

Hoja Ahmad maqbarasi (XIV asr) 1360 y. Bu maqbara XIV asrda qurilgan binolar ichida eng qadimgisi sanaladi. Maqbara yo'lakning oxirida joylashgan. Bino islom ma'naviyati va uning tarixiga ulkan xizmatlari singgan shayx Xoja Ahmad nomi bilan bog'liqdir.

1360-1361 yil maqbarasi. O'ziga xos uslubda qurilgan XIV asr yodgorliklaridan yana biri, bu ba'zi manbalarda Amir Temurning xotinlaridan biri Qutlug' og'o nomi bilan bog'lanadi. Xonaning sahnida yosh bola qabri ham mavjuddir.

Qusam ibn Abbos majmuasi. Chortoqning sharq tarafida ikki tabaqali o'ymakor qayrag'och eshik bor. Eshik Amir Temurning farmoyishiga binoan usta Said Yusuf Sheroziy tomonidan 1404-1405 yillar mobaynida ishlangan. Eshikning naqshlari takrorlanmas san'at namunasi asosida ishlaniib, undagi arabi yozuvlar ustida fil suyaklaridan qadama bezaklar ishlangan. Ikki tabqa eshikdan birida quyidagi so'zlar bitilgan: «*Jannat eshiklari kambag'al faqirtar uchun ochiqdir*». Ikkinci tabaqasida esa «*Rahmat eshiklari rahimlilar uchun ochiq*» deyilgan.

Qusam ibn Abbos maqbarasi kompleksida eng asosiy va qadimiyligi maqbara hisoblanadi. Maqbara xilxona va ziyoratxonadan iborat.

Ziyoratxona ichidagi janubiy devorning yog'och panjarasi orqali xilxonadagi Qusam ibn Abbos qabrtoshini ko'rish mumkin.

IMOM AL-BUXORIY YODGORLIK MAJMUI. Muhammad ibn Ismoil - hijriy 194 yil (milodiy 810 yili) shavval oyi 13 sanasida Buxoro shahrida tavallud topgan. Aytishlaricha, u juma namozi o'qilgandan so'ng tugh'ilgan ekan.

Al-Buxoriy go'dakligidanoq o'zidan katta yoshdagi o'quvchilar bilan maktabga qatnab, ular oladigan darslarni tez o'zlashtirib ola boshladi. O'n yoshida hadislarni yodlay boshlad va shuningdek hadislarni to'play doshlaydi.

Al-Buxoriy «Al-Jome'-as-sahih» kitobini yozayotgan vaqtida ustozlarining sonini hisoblab: «Men hadislarni bir ming sakson muhaddisdan yozib oldim» hamda «Yuz ming sahib - ishonarli va ikki yuz ming ayri sahib - ishonchsiz hadis yoddadim» deb qoldirgan.

Al-Buxoriy Makkada Abu Bakr Abdullo ibn az-Zubayr-il-Humaydiy, Abul-Valid Amad ibn Muammad-il Azraiyy, Abdullo ibn Yazid-il Muriy, Madinada Abdul-Aziz ibn Abdullo al-Avaysiy, Mutrif ibn Abdullo ibn Hamza, Ibroim ibn al-Munzira al-Haramiy kabi ustozlardan tahsil olgan.

Bugungi kunda uning quyidagi kitoblari ma'lum.

1. «Al-jome' as-sahih» (Ishonarli to'plam)
2. «At-tarix al-kabir» (Katta tarix).
3. «At-tarix as-sag'id» (Kichik tarix).
4. «Az-zua'fa as-sog'ir» (hadisning zaiflari haqida kichik kitob).
5. «Al-kuno» (Faqat laqablari ma'lum rivoyatchilar haqida kitob).
6. «Al-adab al-mufrad» (Alohibda odob xususida kitob).
7. «Al-iroatu xalfal-imom» (Imomga ibtido qilgan kishining qiroati haqida).
8. «Raf'ul-yadayniy fis-solati» (Namozda ikki qo'llini ko'tarmoq haqida).
9. «Xalu af'olul-'ibadi» (Bandalarning fe'llarini yaratmoq).

Ushbu to'qqiznomdagi kitob ko'plab marta nashr etilgan. Qolgan kitoblarining esa nusxalari saqlanib qolmagan.

Imom Al-Buxoriy bilan Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad Az-Zuhaliy o'rtaida ziddiyat vujudga keldi va Buxoroni tashlab chiqib ketdi. Imom Al-Buxoriy ketishlarida, dastlab bobosi Mug'ira tug'ilgan «Baykand» (hozirgi Qorako'l tumanidagi Poykent) qishlog'iga boradi. Biroz vaqtidan keyin esa Samargand shahridan 22 chaqirim uzoqlikdagi Hartang qishlog'i (hozirgi Payariq tumani)ga kelib qo'nim topadi. Shu yerda ilm – fan bilan shug'ullanadi va shu yerda vafot etadi.

Imom Al-Buxoriy dafn etilgan Payariq tumani Hartang qishlog'idagi qabriston musulmon ahlining eng tabarruk va aziz ziyyaratgohlaridan bo'lib kelgan. XVI asrda Imom Al-Buxoriy qabri ustiga mo'jazgina maqbara, yoniga masjid qurilib, hovlisiga bir necha tup chinor ekilgan. Lekin sobiq sho'ro tuzumi davrida bu maskan qarovsiz qolgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 29 apreldagi «Imom Al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida»gi Qarori asosida allomaning maqbarasi o'mida maxsus yodgorlik majmui barpo etildi. Bu yodgorlik majmui O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida yaratilgan loyiha asosida Samargand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Andijon, Namangan, Qo'qon va Shahrisabz xalq ustalari tomonidan 1998 yilda qurildi.

NODIR DEVONBEGI MADRASASI. Nodir Devonbegi madrasasi naqshbandiya tariqatining yirik vakillaridan biri, buyuk nazariyotchi va nufuzli shayx Xoja Ubaydulloh Ahror ziyyaratgohiga yaqin joylashgan bo'lib, hijriy 1040 (melodiy 1631) yil ashtarkoniylar sulolasining namoyandasasi Subhonqulixon saltanati davrida, Nadirbiy Tog'ay nomi bilan tanilgan Nodir Mirzo Tog'ay ibn Sulton Arlot tomonidan qurilgan.

Bu madrasa Hoja Ahror xonaqosi yonida joylashganligi bois, xalq orasida "Hoja Ahror madrasasi" deb ham yuritiladi. Mazkur madrasanining Xoja Ahrori Valiy

xonaqosini ng yonida barpo qilinishini Nodir Mirzo Tog'ay ibn Sultonning Hojaga bo'lgan cheksiz hurmati belgisi, deb tushun ish mumkin.

Madrasa katta masjid, darsxona vazifasini o'tagan zaldan, to'rt ta darsxona va 28 ta hujralardan iborat. Katta zal ustida hashamatli gumbaz mavjud.

XOJA AHRORI VALIY MAJMUASI. XV asming mashhur din peshvosi, yirik jamoat va siyosat arbobi Xoja Ahrori Valiy (Xoja Nasriddin Ubaydulloh ibn Mahmud Shoshiy) hijriy 806 yilning ramazon oyida, ya'ni melodiy 1404 yilning mart oyida Toshkentda tug'ilgan.

Mirzo Ulugbekning kuyovi Mirzo Abdullo (1450-51) hukumronligi davrida Samarqandga u bilan uchrashish maqsadida kelgan Xoja Ubaydulloh niyatiga erisholmay Shoshga qaytadi. Faqat Sulton Abu Sayid Mirzo hokimligi boshlangach, uning iltimosiga ko'ra Samarqandga ko'chib keladi.

Xoja Ahror 895 hijriy yilning rajab oyida – 1490 yil fevral oyining 21-kunida Kamongaronda olamdan ko'z yumdi. Uning tabarruk jasadi Xoja Kavshiy mahallasi mozori (hozirgi Xoja Ahror mozori)ga dafn etilgan. Qabri ustida xotira lavhasi qo'yilib, keyinchalik bu mozorda uning yaqinlari, shogirdlari ham dafn etilgan.

BIBIXONIM jome masjidi. Amir Temur jome masjidi Markaziy Osiyodagi eng yirik inshootlardan biri hisoblanadi. Tarixchi G'iyosiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida "801 yil Ramazoni Sharif oyining to'rtinchi kunida (milodiy 1399 yil, 10 may) Amir Temur masjid uchun poytaxtning eng yaxshi joyini tanladi. Mashhur ustalar va me'morlar bu ulkan imoratning loyihasini tuzdilar va eng saodatlilikunlar da uning poydevorini qurishga kirishdilar ", deb yozib qoldirgan. Sohibqiron Amir Temur masjid qurilishi vaqtida harbiy yurishiarda bo'lganligi bois qurilishga Saroymulkxonim – Bibixonim rahbarlik qilganligi uchun el ichida Bibixonim masjidi, deb yuritiladi.

Samarqand mintaqasi respublikamizda tabiiy va iqtisodiy geografiya jihatdan qulay xudduda joylashgan bo'lib, uning tabiiy shart-sharoiti, yer usti tuzilishi geografik jihatdan chegaralanishi, ya'ni uning janub va shimal hamda shimoli-sharq tomonlari tog' va tog'liklardan iboratligi ham turizm sohasida juda katta mazmun kasb etadi. Uning chegaralari shimalda Nurota tog'lari (Oqtov, Qora tog', G'o'bdin tog', Qo'ytoch tog'i), janubdan Zarafshon tog' tizmalari (Chaqilqalon, Qoratepa, Ziyoruddin, Zirabuloq h.k.) bilan o'tadi. Samarqand viloyati umumiylar maydoni 16,77 ming kv.km. bo'lib, uning aholisi 2,9 mln. kishini tashkil qiladi. Viloyatning asosiy yer usti tuzilishi o'ziga xos bo'lgan tabiiy va landshaft xususiyatlari rekreatsiya resurslarining rivojlanishiga sabab bo'lgan. Uning tekislik qismida ya'ni Zarafshon daryosi sohillarida, Qarnabcho'l va Jom kabi cho'l hududlarida sayyoqlikning cho'lu-dasht kabi ekoturizm turlarini tashkil etish mumkin.

Viloyatning yer osti va yer usti gidrologik suv resurslari, tog', tog' oldi etaklari hamda tog' oralig'i soylarida tabiiy ravishda hosil bo'lgan landshaftlar (tabiiy

manzaralari), yam-yashil o'rmonzorlar (Omonqo'ton), tog'u-tosh jinslar shakllari (Qoratepa), tog' daralar (chuqurliklari), g'orlar (Hazrati Dovud, Kelsi, Lev), noyob tabiat yodgorliklari (Kamongaron, G'us), shifobaxsh buloqlar, Yuqori chinor (Mingehinor), Qaynar buloq, Rohatbuloq, ajoyib ko'llar (Muz buloq, Alvasti ko'llari), go'zal shar-sharalar (G'ussoy, Kamangaron) va hakozolar mintaqamiz turizm imkoniyatlari yanada oshiradi. Viloyatimiz «qon tomiri» bo'lgan Zarafshon daryosi, muzliklar va qorlardan to'yingan holda vodiy abolisini, hamda barcha xalq xo'jalik tarmoqlarini suv bilan ta'minlovchi asosiy manbaidir. Zarafshon daryosi qadimiy turistik ob'ektlarga boy yaxlit sayyoqlik majmuasi (kompleksi) hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, viloyatning tog', tog' oldi hududlarida mavjud bo'lgan beqiyos shifobaxsh, tibbiyot va boshqa sohalarda keng ko'lamba foydalanadigan chashma va buloq suvlari o'zining ekologik jihatdan tozaligi, xilma-xil kimyoviy elementlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ular aholi sog'ligini tiklash, sog'lomlashdirish, dam olish uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi va mintaqamizda rekreatsiya (sog'lomlashdirish, hordiq chiqarish) turizmnинг ahamiyatini oshiradi. Bunday tabiiy maskanlar viloyatimizning Urgut, Samarcand, Nurobod, Qo'shrobod va boshqa tumanlari tog', toqoldi hududlarida tarqalgan bo'lib, ulardan turizm maqsadida foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Samarqand viloyati Pomir Olay tog'larining g'arbiy chekkasida, Zarafshon daryosining o'rta qismida joylashganligi ham bu yerda rekreatsion turizmni rivojlantirishning ikoniyatlari yuqoriligidan darak beradi. Viloyat yuqorida sanab o'tilgan tabiiy rekreatsiya resurslariga ham boydir.

Samarqandning tabiiy-iqlimi sharoiti, qulay geografiq joylashuvi, muloyim ob-havosi (qishda 10 darajagacha iliq, yozda 35 darajagacha issiq), tabiiy suv manbalarining mo'lligi, tog'lar, Zarafshon daryosining yaqinligi betakror joziba yaratib, ko'plab turistlarni jalb qiladi. Tabiatiga ko'ra, betakror va ertaklaridek so'lim qo'riqxona hududlari, Shveysariya Alplariga o'xshash, Urgut, Nurobod, Ming Chinor, Ming Archa, Jomboy qo'riqxonasi, G'o's, Omonqo'ton, Ohalik, Mironqul, Oqsoy qimmatli turistik zahiralar bo'lib, ekstremal, piyoda, otliq, alpinizm, speleoturizm, rafting va boshqa turistik mahsulotlarni olg'a surishda ulkan imkoniyatlarga egadirlar.

Tayanch so'z va iboralar: yalpi hududiy mahsulot, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, sayyoqlik yo'nalishlari, turistik markaz, madaniy, tarixiy va me'moriy yodgorliklar.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Samarqand viloyati madaniy, tarixiy va me'moriy yodgorliklarga nimalar kiradi?

2. Samarqand shahrida xalqaro turizmning rivojlanish holatini tushuntirib bering.
3. Samarqand turistik mintaqasida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari qanday?
4. Samarqand turistik mintaqasidagi asosiy muammolar nimalardan iborat?

15- MAVZU. BUXORO-NAVOIY TURISTIK MINTAQASI

Reja:

- 15.1.Buxoro-Navoiy turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni
- 15.2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiyalari
- 15.3.Mintaqaning turistik resurslari salohiyati

15.1. Buxoro-Navoiy turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni

Buxoro viloyati — O'zbekiston Respublikasining 12 viloyatlaridan biri. O'zbekiston viloyatlari ichida, chegasining kattaligi bo'yicha Navoiydan keyin ikkinchi o'rinda turadi. 1938-yil 15-yanvarda tashkil etilgan. Buxoro viloyati hududi asosan Qizilqum cho'lida joylashgan. Janubi-sharqini Zarafshon vodiysi egallagan. Shimoli-g'arbda Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi, shimal va sharqdan Navoiy viloyati, janubi-sharqda Qashqadaryo viloyati, janubi-g'arbda Turkmaniston bilan chegaradosh. Maydoni 39,4 ming km². Buxoro viloyati tarkibida 11 qishloq tumani: Buxoro, Vobkent, Jondor, Kogon, Olot, Peshku, Romitan, Shofirkon, Qorovulbozor, Qorako'l, G'ijduvon, 11 shahar (Buxoro, Galaosiyo, Vobkent, Gazli, Kogon, Olot, Romitan, Shofirkon, Qorako'l, Qorovulbozor, G'ijduvon), 3 shaharcha (Jondor, Zafarobod, Yangibozor), 121 qishloq fuqarolari yig'ini bor. Markazi — Buxoro shahri.

Buxoro qorako'llari mashhur. Buxoro viloyatining barcha tizimdag'i xo'jaliklarida 428 ming qoramol, shundan 184,7 ming sigir, 750 ming qo'y, 64 ming echki, 3 ming yilqi, 2,8 ming tuya, 771 ming parranda mayjud. Viloyatda ipak qurti ham boqiladi. 10 ta o'rmonchilik xo'jaligi bo'lib, asosiy o'simliklari saksovul, cherkez, qandim. Qorako'l o'rmon xo'jaligida esa dorivor o'simliklar ham yetishtiriladi.

Buxoro viloyati dan magistral temir yo'li o'tgan. Eng katta temir yo'l stansiyasi — Kogon. Asosiy avtomobil yo'llari: Buxoro—Toshkent, Buxoro—Urganch—Nukus, Buxoro—Turkmanobod (Chorjo'y) va Buxoro—Termiz yo'nalishlari. Aeroport bor.

Buxoro — jahoning eng qadimiy shaharlardan biri: 1997 yilda shahar o'zining 2500 yillik yubileyini nishonladi. Buxoro nomi dastlab IX asrda tarixchi Narshaxiy tomonidan zikr etilgan. Bungacha shaharning boshqa bir necha nomlari bo'lgan. Ko'plab tarixchilar, tilshunoslarning fikriga ko'ra Buxoro so'zi sanskritcha "vihara" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "kal'a" degan ma'noni bildiradi. Arxeologik

qazishmalar natijasiga asosan olimlar ushbu shahar eramizgacha bo'lgan davrda hududning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'yagan degan xulosaga keldilar. Buxoro Xitoydan Rimgacha olib boruvchi Buyuk Ipak yo'llining eng muhim chorrahalaridan birida joylashgan.

Hozirgi Buxoro O'zbekistonning boshqa shaharlari singari eski va yangi shaharga bo'lingan. Lekin shahar shak-shubhasiz ustunlikka ega: agar boshqa joylarda eski shahar qismida faqat tarixiy yodgorliklar bo'sib, hech bir aholi yashamagani uchun ochiq osmon ostidagi muzey sifatida qabul qilinsa, Buxoroda odamlar ming yillar ilgarigidek yashamoqdalar. Bu har bir kishiga shaharning boy tarixini tasavvur qilish imkonini beradi.

Shaharning yangi qismida ma'muriy binolar, maktablar, institutlar va sanoat korxonalari joylashgan. Siz 2500 yillik Buxoroning tor ko'chalarida kezishingiz va ko'k gumbazli hashamatli binolar hamda kichik loysuvoq uylardan zavq olishingiz mumkin.

Buxoro tuproq'ida Abu -Ali Ibn Sino, Imom Al Buxoriy, Abduxoliq Gijduvoniy, Boxovuddin Naqshband, Xuja-Orif Revgariy, Narshaxiy kabi jaxon tamaddumi rivojiga ulkan hissa qo'shgan ko'plab allomalar yashab o'tgan.

Buxoro shaxri ko'plab tarixiy-me'moriy obidalarga boy. Shaharda 292 ta madaniy meros ob'ektlari davlat muxofzasiga olingan va shundan 70 tasi respublika va 222 tasi mahaliy ahamiyatga molik madaniy meros hisoblanadi. Shaharning 118 ta tarixiy obidalar BMTning ilm-fan va madaniyat ishlari buyicha tashkiloti YUNESKOning Butunjaxon madaniy meros ruyxatiga kirtilgan va davlat muxofzasiga olingan.

Shahar kiyofasining o'zgarishi o'tmish va zamонавиylikning uygunlashgan xolda kechmokda. Shahar markazi, ayniksa, uning tarixiy etnografik kismida olib borilayetgan kayta kurish va obodonchilik ishlari aynan shu mezon doirasida amalga oshirilmokda, ya'ni o'tmishni unutmayslik va zamondan orqada kolmaslik.

Buyuk Ipak yulining chorraxasi hisoblanmish Buxoro shaxri olimlarning ajoyib qo'lyozma kitoblari, oltin qo'lli xunarmandlari tayyorlagan serjilo buyumlar jaxonning ko'plab mamlakatlariga yetkazilgan. Bugungi kunda dunyoning Rim, Parij, Vashington, Stokholm, Berlin, Sankt-Peterburg, Moskva, Toshkent kabi yirik shaharlari muzeylari ekspozitsiyasini Buxoro kolleksiyalari bezab turibdi.

Mustaqillik Buxoro zaminida mavjud qadimiy me'morchilik an'analarini zamонавиy andozalar uyg'unligida yanada rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Buning yaqqol isboti sifatida Yurtboshimizning tashabbuslari va ularning tavsiyalari asosida Buxoro shahrida 2010 yilning avgust oyida yaratilgan 107 hektar maydonni egallagan "Buxoro madaniy markazi" majmuini ko'rsatish mumkin. Ushbu majmua bir qator yirik inshootlar – 700 o'tinli Viloyat musiqali drama teatri,

2000 tomoshabinga mo'ljallangan Amfiteatr va "Ko'hna va boqiy Buxoro" monumentini o'z ichiga oladi.

Buxoro jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lil, insoniyat jamiyatni taraqqiyotiga ulkan ma'naviy va ma'rifiy hissa qo'shgan qadimiy shahardir. Buxoroni bejiz "Yertak — shahar" yoki "Ochiq osmon ostidagi muzey — shahar" deb butun dunyo tan olmagan. Buxoro o'zining betakror tarixiy obidalari, moddiy va nomoddiy madaniy yodgorliklari bilan butun dunyodan sayyoohlarni o'ziga jalb etmoqda.

Turli paytlarda bu shahar har xil nomlar bilan atalgan: Buxo, Buxu, Buxaer, Buxala, Fifo, Puxala, Numijkat va Foxira. Mashhur tarixi Muhammad Narshaxiy (900-960 y.y.) "Buxoro tarixi" kitobida yozishicha, arab sayyo Hatchilar Buxoroni "Madinat us-sufiya", ya'ni "Mis shahri", hamda "Madinat ut-tujur", ya'ni "Savdogarlar shahri" deb atashgan.

Navoiy viloyati - O'zbekiston Respublikasining eng yosh viloyati hisoblanadi. U dastlab, 1982-yil 20-aprelda Qizilqum sahrosining ma'lum bir qismini o'zlashtirish va u yerdagi tabiat boyliklardan unumli foydalanish maqsadida tashkil etilgan edi.

Navoiy viloyati O'zbekiston Respublikasi hududining o'rta qismida joylashgan bo'lil, Qizilqum sahrosining kattagina qismini egallaydi. Uning maydoni 110,8 ming km² ga teng, bu jihatdan u eng katta viloyat hisoblanadi. Navoiy viloyati g'arbda Qoraqalpog'iston, shimolda Qozog'iston, sharqda Jizzax, janubda Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari bilan chegaralanadi.

Navoiy viloyati tarkibida 8 qishloq turmani (Konimex, Navbahor, Navoiy, Nurota, Tomdi, Uchquduk, Xatirchi, Qiziltepa, 5 shahar (Zarafshon, Qiziltepa, Navoiy, Nurota, Uchquduq), 8 shaharcha (Konimex, Langar, Malikrabet, Muruntov, Tinchlik, Shalqar, Yangirabet, G'ozg'on) bor. Markazi — Navoiy sh.

Navoiy viloyatida mineral shifobaxsh, sho'r va yer osti chuqur suv zaxiralari aniqlangan.

Navoiy viloyatini suv bilan ta'minlashda Quyimozor, To'dako'l suv omborlari, Konimex kanalining ahamiyati katta. Viloyatning shim. va g'arbiy katta qismi ko'chma qum barxanlari, unda-bunda uchraydigan gilli cho'llardan iborat. Astragal, shuvok, sho'ra, isirik, qamish, zarpechak, saksovul, yulg'un, va b. cho'l o'simliklari o'sadi. Bukantovda va Mingbuloq botig'ida qobon, bo'ri, chiyabo'ri, tulki, uzun dumli mushuk, cho'l mushugi, boshqa yerkarda malla yumronqoziq, kalamush, sichqon, sug'ur, sassiqko'zan, jayron, kaltakesak, turli xil ilonlar, toshbaqa, qushlardan tuvaloq, qorabovur, olabovur, qirg'ovullar, qarg'a, hakka, musicha, chumichuq uchraydi.

Qizilqum cho'lida pastak ko'hna tog'lar, Mingbuloq botig'i, shuningdek, Qaraqota havzasi, sho'rxok tekisliklar va pastliklar, qator qum tepalari alohida manzara kashf etgan. Yaylovlarda chorva boqiladi.

Abolisining ko'pchiligin o'zbeklar (63,3%) tashkil etadi. Shuningdek, rus (13,5%), qozoq (11,5%), tatar (2,6%), ukrain (1,4%), qoraqalpoq (1,4%), tojik (1,3%), ozarbayjon (0,9%), belorus (0,2%) va b. millat vakillari yashaydi.

Sanoatining yetakchi tarmoqlari energetika, konchilik (oltin va b. metallar qazib olish), metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari, paxta tozalash, oziq-ovqat sanoati korxonalaridan iborat. Bundan tashqari, bir qancha yirik qo'shma korxonalar ham mavjud.

Navoiy viloyati ahamiyatli tabiiy resurslarga, shu jumladan, tabiiy gaz, neft, rangli metall va qurlishi uchun xom-ashyo materiallariga boy hisoblanadi. Viloyat iqtisodiyotining asosiy tarkibi yirik konchilik, metallurgiya va kimyoviy majmualardan iborat. Navoiy viloyatida joylashgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) dunyoda eng sof oltin ishlab chiqaruvchilardan biridir. Viloyatda, shuningdek, sement zavodi, kimyo majmui va bir qator yirik sanoat zavodlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligining asosiy mahsulotlari bu paxta va qorako'l qo'y mahsulotlaridir. Agar kerakli sug'orish manbalari topilib yo'lga qo'yilsa, unda viloyat hududidagi yerlarning 90%ida unumdonlik salohiyati mavjud bo'ladi.

Navoiy viloyatidagi temir yo'llarning uzunligi — 390,7 km, avtomobil yo'llarning uzunligi — 4,1 ming km (shu jumladan, qattiq qoplamlalisi — 3,3 ming km). Toshkent — Buxoro — Turkmanobod, Toshkent Uchquduq — Nukus yo'nalishlaridagi temir yo'l liniyalari viloyat hududidan o'tadi. Navoiy, Zarafshon, Uchquduq sh.larida zamonaviy aeroportlar bor. Havo yo'llari Navoiy sh.ni Toshkent orkali respublika viloyatlari va 20 dan ortiq xorijiy davlatlar bilan bog'laydi.

Navoiy o'lkahshunoslik muzeyi, uning Qosim Shayx majmuasi filiali va viloyatdagi 7 ta bo'llimi, 253 jamoat kutubxonasi (1893 ming nusxa asar), 105 dan ziyod klub, 7 madaniyat saroyi, 429 badiiy xavaskorlik jamoalari bor. N.v.da Yosh tomoshabinlar teatri faoliyat ko'rsatmoqda.

Viloyatda 5 madaniyat va istirohat bog'i, ko'plab favvorali ko'kalamzor xiyobontar mavjud. Zarafshon va Navoiy shaharlarida mehnatkashlarning xordiq chiqarishi uchun sun'iy ko'llar barpo qilingan. Bir qancha tumanlarda bog'lar yaratilgan. Xalq hunarmandchiligi ham rivojlangan.

15.2. Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiyalari

Buxoro shahrida shu yilning yanvar oyida 2 ta xususiy mehmonxona, jumladan, 28 o'rinli «Buxoro Bahouddin» hamda 38 o'rinli «Kamelot» mehmonxonalarini ish boshladi. Ushbu mehmonxonalarini tashkil qilish va qurilish-montaj ishlariga 520,0 ming AQSH dollari sarflandi. Sayyohlarning erkin valyuta almashtirish uchun qulaylik yaratish maqsadida Buxoro shahridagi yirik mehmonxonalar va zarur bo'lgan joylarda bankomat va pul almashtirish bo'lmlarini tashkil etish bo'yicha 2010 yil 1 iyun holatida 6 ta bankomat o'rnatilgan bo'lib. 93 ta valyuta ayrboshlash shoxobchasi xizmat ko'rsatib kelinmoqda.

Olib borilgan ishlar natijasida joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimizga tashrif buyurgan 49179 nafar sayyohlarga jami 3675,3 mln so'milik xizmat ko'rsatildi. Shulardan 37217 kishi xorijiy sayyohlardir. Eksport xizmati esa 1875,0 ming AQSH dollarni, yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,5 % tashkil etdi.

Istiqlol yillarda jadal rivojlanayotgan mamlakatimizning sayyohlik salohiyati ham tobora yuksalmoqda va bu boradagi imkoniyatlar kengayib bormoqda. O'zbekiston sayyohlik yo'naliishlari, kurortlar va tarixiy yodgorliklar soni bo'yicha dunyoda yetakchi o'nta mamlakat sirasiga kitadi. Xalqimizning boy tarixiy va madaniy merosi, Buyuk Ipak yo'lining qadimiy shaharlari, ko'plab me'moriy yodgorliklar, neyob tabiatimiz va butun dunyoga mashhur o'zbekona mehmondo'stlik olamda tan olinganligi bejiz emas. Navoiy viloyati xususida so'z borganda uning yirik sanoat korxonalarini bepoyon Qizilqum sahrosi, zamonaviy shaharlariyu ko'p millatli xalqi tilga olinadi. Bugungi kunda viloyatida turizm sohasini rivojlantirish, sayyohlar e'tiborini jalb etish maqsadida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish uchun yetarli darajada imkoniyatlar mavjud va borada tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, aksariyat hollarda viloyat sayyohlik yo'naliishlari ikki viloyat – Samarqand va Buxoro sayyohlik firmalari qabul qilayotgan turistlar hisobiga to'ldirilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2008 yildagi "Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasini tashkil etish to'g'risida"gi qaroti asosida xorijiy investorlar va ishbilarmonularning hududga keng jalb qilish va ularga ko'rsatiladigan servis xizmat turlarini ko'paytirish imkoniyatlari tug'ildi. Bu esa kelgusida turizm biznesining ham rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda "Navoiy" xalqaro aeroportida qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Yaqin kunlarda xalqaro yo'lovchi tashuvchi samolyotlarning bevosita "Navoiy" xalqaro aeroporti orqali uchish-qo'nishi yo'lga qo'yilishi kutilmoqda.

Tahlillar esa shuni ko'rsatadiki, kelgusida bu faoliyatning to'laqonli amalga oshirilishi xorijiy mehmonlar qiziqishlarining oshishiga olib kelishi shubhasiz. Bu jarayonda esa viloyatning turizm salohiyati va infrato'zilmasi xalqaro andozalarga mos ravishda rivojlanishiga erishmog'imiz lozim.

Viloyat hududida 200 dan ortiq katta-kichik tarixiy qadamjolar mavjud. Ular orasida Navbahor tumanidagi besh ming yillik tarixga ega o'n mingga yaqin **Sarmishsoy qoyatosh suratlari**, Nurota tumanidagi "Chashma" majmuasi, **Nur qal'asi**, Xatirchi tumanidagi ibtidoiy shakllarga ega bo'lgan va ibtidoiy odamlarning hayot kechirganligini o'zida aks ettirgan 5-6 ming yillik tarixga ega **Sangijumon darasidagi** 5 chaqirimga cho'zilib ketgan toshlar o'rmoni, Karmana tumanidagi Malikrobot karvonsaroyi, Sardoba majmuasi, Qosim Shayx azizon hamda **Mavlono Orif Deggaroniy obidalari** sayyoohlar e'tiborini tortayotgan qadamjolar sirasiga kiradi. Aslida ham ushbu yodgorliklarni ko'tish uchun yiliga 5000 dan ortiq xorijiy sayyoohlar Samarcand va Buxoro shaharlari, shuningdek, Jizzax viloyatining Forish tumani orqali viloyatga tashrif buyurishmoqda.

Shu bilan birga Navoiy viloyati hududi Markaziy Osiyodagi eng katta Qizilqum sahrosi hududiga to'g'ri kelganligi sababli cho'l tabiatiga monand o'tovlar ko'rinishidagi ekzotik manzilgohlarga Buxoro shahri orqali 2000 dan ziyod xorijiy sayyoohlar kelib ketishmoqda. Konimex va Nurota tumanining Aydarko'l bilan tutash hududlarida, xususan Konimex tumani Saribel shirkat xo'jaligiga qarashli Do'ngalak qishlog'ida "O'zbekistan dlya vas" xususiy firmasiga qarashli "AYDAR - 1" sayyoohlik bazasi (12 ta o'tov), "Qizilqum safari" xususiy firmasiga qarashli "AYDAR-2" sayyoohlik bazasi (8 ta o'tov), Yangig'ozg'on qishlog'ida "Sputnik – Navoiy" xususiy firmasiga qarashli "KAMEL" sayyoohlik bazasi (17 ta o'tov) faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda ekstremal va ekoturizmni amalga oshirish bo'yicha zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

Navoiy viloyati hududi o'zining geografik joylashuvi, tabiiy sharoitining xilma-xilligi bilan ham mamlakatimizning boshqa viloyatlaridan ajralib turadi. Bu yerga tashrif buyurgan sayyooh bir vaqtning o'zida ham ibtidoiy davr yodgorliklari, ham qadiiniy va zamonaviy shaharsozlik me'morchiligi tanishish mumkin. Sayyohga bunday imkoniyatni yaratish uchun mohir turoperatorga bu hududda muammo tug'ilmaydi. Viloyatda bugungi kunga kelib ko'plab zamonaviy mehmonxonalar qurilib, sayyoohlik infrato'zilmasi va servis xizmati jada rivojlanmoqda.

Viloyat hokiminining "Navoiy viloyatida turizm sohasini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, unga ko'ra viloyatda turizmni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish kengashi faoliyat ko'rsatmoqda. Maxsus ishchi guruh tomonidan joylardagi sayyoohlik va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi muassasalar, dam olish maskantari faoliyati o'rganib chiqildi. Ushbu kengash o'z

faoliyatini amalga oshirar ekan, viloyatda sayyohlik infrato'zilmasini jahon andozalari darajasiga yetkazishni o'z oldiga birlamchi maqsad qilib qo'ygan.


Viloyat miqyosida turizm sohasini rivojlantirish istiqbollari belgilangan "2011-2012 yillarda Turizmni rivojlantirish dasturi" ishlab chiqildi. 30 ta bandni o'z ichiga olgan ushbu dastur viloyatdagi muqaddas qadamjolarni rekonstruksiya qilishdan tortib turizm infrato'zilmasini har tomonlama jahon andozalari darajasiga chiqarishga qaratilgandir.

15.3. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati

Buxoro viloyati kddimiyl davr, ilk va o'rta asrlarda qurilgan me'moriy yodgorliklarga juda boy. Hozirgi vaqtida Buxoro davlat me'moriy badiiy muzey qo'rikxonasi hisobida 997 tarixiy yodgorliklar mavjud. Bu tarixiy yodgorliklarda Sharq me'morlik an'analari o'zaro uyg'unlashib ketgan. O'zbek xalqi tomonidan ikki ming yil mobaynida bunyod qilingan bu obidalar ajdodlarimizning boy iste'dodi va badiiy mahoratidan, katta yaratuvchilik kudratidan dalolat beradi.

Buxoroga borib, shu qadimiy shaharni ko'rgan kishilarning barchasi minoralarning tepalaridagi g'alati ko'rinishdagi «qalpoqlarga» e'tibor bergen bo'lilar kerak. Bular laylak uyalaridir. Umidning timsoli bo'lgan bu oppoq qushlar shaharning ramzi, uning barqarorligi va sadoqatining ham ramzi bo'la oladi. Boy go'zal shahar juda ko'p marta turli-tuman dushmanlarning bosqinchilik hujumlarining maqsadi bo'lgan, mo'g'ul-tatarlarning bosqini eng og'ir, yer bilan yakson qiluvchi darajada bo'lgan edi. Lekin Buxoro har gal qaytadan aynan o'sha joyda tiklanib, o'z zaminini-yu a'analariga sodiq bo'lib qaytadan barpo bo'lar edi.

Buxoroga asos solinishi qadim-qadimgi asrlar tubiga borib taqaladi. 1997 yilda YUNESKO ning qaroriga ko'ra butun madaniy dunyo uning 2500-yilligini nishonlagan edi. Afsonalar shaharning paydo bo'lishini tarixiy shaxs obrazni bilan bog'liq Zardo'shtiylik xudolaridan biri – Siyovush bilan bog'laydi. Buxoroning eng qadimiy qisimi uning qal'asi – Ark hisoblanadi, bu yerda arxeologlar eramizdan avvalgi IV - III asrlarga oid bo'lgan ba'zi topilmalar borligini aniqlashdi. Bu balandligi 20 metr bo'lgan katta tepalik bo'lib, u yerda ilgari Buxoro amirining saroyi, uning harami, xazinasi, quroq-yarog' saqlanadigan xonalari, o'ta xavfli jinoyatchilar uchun zindon bo'lgan edi. Hozirgi paytda ular tiklanmoqda.




Ark

Ark qal'asi yuz yillar davomida Buxoro hukmdorlarining rasmiy yashash joyi bo'lgan. U balandligi 16-20 metr bo'lgan sun'iy tepalikda qurilgan. Qal'a maydoni qariyb 4 hektar. Odamlar ko'pincha uni "shahar ichida shahar" deb atashgan, chunki unda odatdag'i shaharning hamma narsalari: ko'chalar, tor ko'chalar, saroy, masjidlar, ustaxonalar bor bo'lgan.

Qal'a bir necha bor vayron qilingan, ta'mirlangan va tiklangan. Afsuski, hozirgi paytga kelib, o'tmishdagi hashamatli Arkdan ozginasi qolgan. Ko'plab binolar 1920 yilgi istibdod voqealari davrida buzilib ketgan. Lekin, shunga qaramasdan Ark borib ko'rishga arziyi. Arkda joylashgan o'lkashunoslik muzeysida siz shahar tarixi, miliy urf-odatlar va an'analar to'g'risida ko'p qiziqarli narsalarni eshitasiz. Bundan tashqari qal'aning baland devorlari ustidan turib siz Buxoroning chiroylı qiyofasini tomosha qilishingiz mumkin.

Shaharning asosiy va eng baland ko'tarilgan inshooti – 1127 yilda qurilgan **Kalon minorasıdır**. Bu har tomonlama komil muhandislik inshooti, Buxoroning sathidan 47 metrda ko'tarilib turgan ulkan minoradır. O'zbekistonda eng baland bo'lgan ushbu minora tepaga chiqqan sari sal ingichkalashib boradi, uning dumaloq aylanasidan o'rabi turgan halqalar turli rangdagi sirlangan g'ishtchalar bilan bezatilgan. Shu bilan birga minoradagi naqshlarning turli-tumanligi va takrorlanib kelishi sodda va komil me'morchilik shakllarini boyitadi.

Buxorodagi o'rta asrlar me'morchiligining alohida xususiyati – ko'cha yoki maydon bilan bir-biridan ajralib turgan va old yuzasi, darvozalari bilan bir-biriga qarab turgan ikkita ulkan inshootdan iborat bo'lgan majmualarning barpo etilishi edi. Shu asosda shaharning markaziy me'morchilik majmuasi yaratilgan – **Poi Kalon** («Ulkan inshoot osti») maydoni. Uning minorasi gumbazli o'tish yo'lli bilan benihoya ulkan juma masjidi – **Masjidi Kalon** bilan bog'langan. **Masjidi Kalon** – Samarqand shahridagi Bibix'onim masjididan keyin O'rta Osiyodagi ikkinchi eng katta masjid. Musulmon bayramida masjidga 10 ming kishi sig'ishi mumkinligi o'z isbotini topgan. Masjidning usti ochiq yirik hovlisi, uning ajoyib peshtoqlari va usti yopiq ayvonlari unutilmas taassurot qoldiradi.



Minorai kolon

Masjidi Kalon ro'parasida joylashgan Miri Arab madrasasi proporsiyasi va simmetriyası tufayli o'zidan keyin qurilgan masjidlar uchun hamisha namuna vazifasini o'tagan. Bo'lg'usi imomlar ta'llim olgan Miri Arab madrasasi ko'p yillar davomida sobiq sho'rolar itifoqi davrida amal qilgan yagona madrasa bo'lgan. Uning qarshisida XVI asrning boshida hatto bizning davrimizda ham ishlayotgan **Mir-Arab madrasasi** barpo etilgan.

Chashmai-Ayub mozorining barpo etilishi ham XII asrlarga oid, deb hisoblanadi. Afsonalarga qaraganda, Injildagi payg‘ambarlardan biri – Ayub (Iov) Buxoroning bu suvsiz qismidan o’tayotganda hassasi bilan yerga urgani – natijada



Labi-hovuz

bu yerda top-toza, shifobaxsh suvli buloq paydo bo’lgan. XIV asrda Amir Temur o’zining yurishlaridan birida olib kelgan xorazmlik ustalar buloq va quduq ustidan bino barpo etganlar hamda quduqdagi baland tortish qurilmasi ustidagi konus shaklidagi gumbazga Xorazm uchun xos bo’lgan shakl berganlar. Ularga qaraganda mashhur Chor-Minor masjid esa yangi qurilgan bino, deb atalishi mumkin – u XIX asrda qurilgan. Bu masjidda to’rtta uncha baland bo’limgan minoralar hamda gumbazlar zangori rangda bo’lib, masjidga o’ziga xos


qiyofa bag’ishlaydi.

Sharq me’morchiligi uchun sun’iy suv havzalari bo’lgan hovuzlardan nafaqat amaliy maqsadlarda, balki shaharni yanada har tomonlama bezatish uchun ham foydalanish odadagi holdir. Buxoroda saksontadan ortiq bunday obodonlashtirilgan hovuzlar bo’lib, shaharni ta’minlab turar edi. Ulardan eng mashhur bo’lgan hovuz **Labi-hovuzdir**.

Buxoroning markazi (16-17 asrlar). **Labi Xovuz** – Buxoro ahli va mehmonlarining sevimli joyi. Siz bu joyda eski qadrdonlarni uchratishingiz va yangi do’stlar orttirishingiz, o’tmishni esga olishingiz va kelajak hakida fikr yuritishingiz mumkin. Maydon o’tasida katta hovuz bo’lib, uning atrofida turli binolar barpo etilgan: Ko’kaldosh madrasasi, Nodir Devonbegi madrasasi va xonaqosi.

Bu yerda eng eski bino - Ko’kaldosh madrasasi. XVI asrda Ko’kaldosh ismli vazir Buxoroda O’rta Osiyodagi eng katta madrasani qurish haqidagi buyruq bergen.

Nodir Devonbegi madrasasi joylashgan hududda karvon saroy qurish ishlari boshlangan. Keyinchalik Nodir Devonbegining rejalar o’zgargan va karvon saroy madrasaga aylantirilgan. Bu salbiy oqibatlarga olib kelgan: bu yerda talabalar uchun masjid ham, ma’ruza zali ham bo’limgan – ular ko’zda tutilmagan. Lekin bu bino sirlangan sopol va chinni koshintlar bilan chiroyli bezatilgan. Buxoroda siz faqatgina



Nodir Devonbegi madrasasi

shu madrasanining peshtoqida afsonaviy Semurg' qushi va inson yuzi aks etgan quyosh tasvirlarini ko'rishingiz mumkin. Yilning issiq fasida madrasa ichki hovlisida siz folklor tomoshasidan zavqlanishingiz mumkin.

Hovuzning boshqa tomonida darvishlar uchun kichik mehmonxona - Nodir Devonbegi Xonaqosi joylashgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida Buxoro islam markazi bo'lgan. Bu yerga ko'plab ziyyoratchilar kelishgan, ular tunda qoladigan qo'nokka muhtoj bo'lganlar. Shu boisdan shaharda ko'plab kichik mehmonxonalar va karvon saroylar mayjud bo'lgan. Ehtimol, bu xonako dindorlar o'ttasida mashhur bo'lgan, chunki unda nafaqat uqlash uchun xonalar, balki namoz o'qish uchun katta masjid ham bo'lgan. Yuksak did bilan bezalgan eshik hovuz suvida aks etadi.

Yirik poytaxt-markaz bo'lgan Buxoro shahri nafaqat o'zining masjidu madrasalari, maqbarayu-mozorlari bilan, balki saroylari, hashamatli uylar, karvon-saroylar, hammomlari va ko'p guimbazli savdo majmualari bilan ham mashhur edi. Shaharda ko'chalarning kesishuvida - guzarlarda qurilgan Toqi-Zargaron («Zargarlarning gumbazi»), Telpak-Purushon («Telpaklar sotuvchilarining gumbazi») va Toqi-Sarrofon («Pul almashtiruvchi sarroflarning gumbazi») saklangan, ular hozirgacha savdo rastalari sisatida ishlatalmoqda. Ularning birinchi qurilishi va ishlatalishidan nomlari ham dalolat bermoqda.

O'rta asrlarda Buxoro Markaziy Osiyodagi barcha musulmonlarning muqaddas shahri bo'lgan edi, bunda nafaqat diniy hurmat-ye'tibor, balki estetik tuyg'ular ham ifodalanan edi. Buxoro shon-sharaf mujassam bo'lgan shahar deb hisoblanar edi, u yerda eng mashhur kishilar yig'ilalar edi. Islomda Qur'onidan keyin ikkinchi o'rinda turgan diniy kitob - eng haqqoniy hadislarning to'plami bo'lgan «Al-jami as-sahih» ning muallifi Imam Al-Buxoriy edi. Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) shaharga yaqin bo'lgan qishloqdan kelib chiqqan edi, u shaharda o'z faoliyatini boshlagan. Islomda eng muqaddas shaxslardan biri shayx Bahovaddin Naqshband, so'filar ta'limotining asoschisi, buxorolik misgar edi. Shayxning go'rini ziyyorat qilish Makkaga borib bajarilgan haj marosimiga tenglashtirilar edi. Bahovaddin Naqshbandning maqbarasi hozir ham shaharning eng muqaddas joyi deb hisoblanadi.

Buxorodan dunyoga tanqli bo'lgan tarixchi olim Narshaxiy, yirik shoirlar Rudakiy va Daqiqiyalar kelib chiqqan. Lekin ayni shu shaharda, odamlarning gap-so'zlariga qaraganda xalqning sevimli namoyandası, o'tkir so'zli «tinchlikni buzuvchi» latifago'y Xo'ja Nasriddin Afandii ham yashagan. Hazilkash donishmand Afandining latifalari va teran fikrlari son-sanoqsizdir.

Musulmon allomalari, mutafakkirlarining, me'morlarning va shoirlarining ko'p asrlik ijodiyoti tufayli shahar «Islom cho'qqisi», «Buxoroi Sharif», «Muqaddas shahar» faxli unvonlariga musharraf bo'lgan. O'ylaymizki, Buxoro shahri haqiqatan ham bu unvonlarning barchasiga loyiq.


Buxoroning eng qadimiy yodgorliklaridan biri X asrning boshida Somoniylar sulolasining asoschisi tomonidan qurilgan **Ismoil Somoniy maqbarasi**. Maqbara usti yarim sfera shaklidagi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binodir. Somoniylar maqbarasi O'rta Osiyoning me'morchiligidagi bizgacha yetib kelgan, pishiq g'ishtdan qurilgan birinchi bino bo'lib, bunda g'ishtlar ham qurilish uchun, ham bezatish uchun ishlataligan.

X asrda qurilgan **Ismoil Somoniy maqbarasi** Buxorodagi eng qadimiy va chiroyli yodgorliklardan biridir.U hozirgi paytda ham xuddi 1000 yil ilgarigidek chiroyli ko'rinishga ega. Somoniylar asli fors bo'lgan birinchi tojik hukmdorlaridir (yeramizning 875-999 yillari). Ular poytaxti Buxoro bo'lgan buyu? davlatni barpo etishgan. O'sha davr qurilish, san'at turlari, matematika, geometriya, fizika singari aniq fanlarning yuksak darajada rivojlanishi bilan harakterlanadi.

Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi Buxoro shahri hududida aniq hisob-kitoblarga asosan qurilgan dastlabki bino edi. Butun ilm ahli bu hisob-kitoblar qanchalik o'ta mantiqiy va shu bilan birga chiroyli chiqqaniga hali ham ajablanadi. Tikka, ko'ndalang, to'g'i burchak ostida terilgan pishiq g'ishtlar quyoshning turli darajadagi nurlari bilan yoritilgan. Maqbara devorlari naqshinkor quti yoki ba'zan majnuntol xivichlaridan to'kilgan savatga o'xshab ketadi.

Buxoroga safar qilsangiz siz albatta bu yodgorlikni borib ko'rishingiz lozim. Buxoro ahlining ishonchi komil: agar siz maqbarani ko'rmagan bo'lsangiz - siz Buxoroni ko'rmabsiz.

Shahardan taxminan 4 km. tashqarida Buxoro so'nggi amirlarining yozgi saroyi joylashgan. Saroy "Sitorai Moxi xosa" – Oy va yulduzlar o'ttasidagi joy deb, shoirona nomlangan. Saroyning me'moriy jihatdan tuzilishi faqat shu bois ham qiziqarlik, u XIX asr oxiri va XX asr boshidagi boylarning didini namoyish qiladi. Binolarning asosiy qismi turlicha qarashlarning aralash uslubid? qurilgan. Taxt o'matilgan xona istisno tariqasida milliy urf-odatlarga to'la mos ravishda bezatilgan. Undagi ajoyib nozik "ganch" o'ymakorligi sizning xotirangizda muhrlanib qoladi. Hozir bu yerda xalq amaliy san'ati muzeyi joylashgan bo'lib, unda siz ipak bilan tikilgan chiroyli so'zani, sopol buyumlar, ayollarning an'anaviy zargarlik taqinchoqlari, milliy kiyimlar va boshqalarni tomosha qilishingiz mumkin.



Ismoil Somoniy maqbarasi

Buxoroda shuningdek boshqa ko'plab yodgorliklar, madaniyat va istirohat bog'lari mavjud. Viloyat markaziy madaniyat va istirohat bog'i, G'ivduvon tuman madaniyat va istirohat bog'i, Peshko' tuman madaniyat va istirohat bog'i, Shofirkon tuman madaniyat va istirohat bog'ilari shular jumlasidandir.

Buxoro viloyati ham o'ziga xos ekoturistik resurslariga ega. «JAYRON» ekologik markazi ana shunday resurslardan biri hisoblanadi. U 1976 yil 15 sentyabrda tashkil qilingan va 42 bosh jayron va 4 bosh kulon bilan ish boshlagan. 1989 yil 26 dekabrda «JAYRON» ekologik markazi maqomi berilgan hamda maydoni 5145 ga dan iborat bo'lgan. 2008 yilda ekomarkaz yer maydoni 9369 ga kengaytirildi.

Dastlab bu yerda Jayron, Kulon va Prjevalskiy otlari ko'paytirilgan. Hozirgacha ekomarkaz hududidan ochiq tabiatga 1500 boshgacha jayronlar chiqarilgan. Yangi tur hayvonlarini ko'paytirish, jumladan Buxoro tog' qo'yini ko'paytirish muvaffaqiyatlama amalga oshirilayapti. 2007 yilda 2 bosh Buxoro tog' qo'yini keltirilgan edi. 2013 yilda ularning soni 26 boshga yetdi. 2012 yilda Burama shox tog' echkisi (morxur) turini ko'paytirish ishlari boshlandi. «JAYRON» EKOLOGIK MARKAZINI ikkinchi hududida ekoturizimni rivojlantirish maqsadida 4 ta suhbat qurish ayvonchalari va balandligi 6 metrdan iborat 3 ta yuqorida hududni tomosha qilish va nazorat qilish qurilmalari tashkil qilindi.

Bugungi kunda «JAYRON» ekomarkazida Jayronlar 533 boshni, Prjevalskiy otlari 26 boshni, Kulonlar 93 boshni, Buxoro tog' qo'yilari (Arhar) 26 boshni, 1 bosh Buxoroxongul bug'usi, 1 bosh tog' echkisi (Morxo'r) mavjud bo'lib, eko markazda shuningdek qizil kitobga kiritilgan sudralib yuruvchilardan Echkiemar, qushlardan Yo'rg'a tuvaloq, Oqqul qush, jingilaklar birqozon va boshqa turdag'i noyob hayvonot turlari uchraydi.

Buxoro davlat badiiy- me'morchilik muzey o'riqxonasi ham turistlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Buxoro davlat muzeyi 1922 yilda tashkil etilgan bo'lib, O'zbekiston muzeylari qatorida sharaflı o'rinni egallamoqda. 90 yildan ortiq davr ichida arxeologik, numizmatik, epigrafik ashyolar, xalq-amaliy san'ati namunalari, kitoblar, hujjatlar, rassomchilik, grafika va haykaltaroshlikka oid ashyolar jamlanmasi muzeyda saqlanmoqda. Ular muzey-qo'riqxona ekspozitsiyasi va ko'rgazmalarida namoyish etilib, Buxoroning boy tarixini aks ettirmoqda.

Muzey — qo'riqxonada Buxoro vohasi xalqlarining 2500 yillik moddiy va ma'nnaviy madaniyatini hamda tarixini aks ettiruvchi asori – atiqalar saqlanmoqda.

Muzey-qo'riqxona eksponatlar to'plamida, qadimgi ma'nnaviy va moddiy madaniyat asarlari, O'zbekiston xalqlarining er.avv. II asr boshi va eramizning XX asr boshi davrlariga mansub eksponatlar to'plangan.

- Arxeologiya – 12127 ta
- Numizmatika – 20062 ta
- Amaliy bezak – 2452 ta
- Uy — ro'zg'or va etnografiya – 8047 ta
- Noyob kitoblar va hujjatlar – 19776 ta
- Rassomchilik – 776 ta
- Grafika – 124 dona
- Haykaltaroshlik – 38 ta
- Fotosuratlar, foto-negativlar – 4347 ta
- Boshqa eksponatlar – 4038 ta

Buxoro muzey-qo'riqxonasi jamilanmasi, Buxoro vohasi tarixi, Buxoro ijtimoiy hayotining barcha jahbalarini ochib beruvchi moddiy axborotlar bilan boyitilgan. Buxoro muzey-qo'riqxonasi Novgorod, Vladimir-Suzdal, Venesiya, Luvr, Metropolium-muzey, Davlat Ermitaji muzeylari qatoridan o'rin olgan.

1947 yildan boshlab muzey Ark qal'asi – Buxoro amirlarining qarorgohida tashkil etildi.

1985 yilda muzey Buxoro davlat badiiy — me'morchilik muzey-qo'riqxona mavqeiga ega bo'ldi. Muzey-qo'riqxona 12 filialdan iborat bo'lib, ularda 7 ta doimiy ekspozitsiya va ko'rgazmalar taqdim etilmoqda. Ular:

Ark – o'lkashunoslik muzeyi-(yer.ayv. IV- II a.a. – XX a.), Sitorai Koxi-Xossa – xalq amaliy bezak san'ati muzeyi, Buxoro tasviriy san'ati muzeyi, Romitan tuman o'lkashunoslik muzeyi, Abu Ali ibn Sino memorial muzeyi. Qadimiy Poykent shaharchasi tarixi muzeyi. Temircilik hunari tarixi muzeyi — ustaxonasi (XVI asr), Gilamlar muzeyi (Mag'oki – Attori) (XII — XVI asrlari), XVII asr oxiri – XX asr boshida Buxoroda huquq va qominchilik tarixi muzeyi-(XVII asr oxiri- XX asr boshi), Buxoro suv ta'minoti tarixi muzeyi (Chashmai — Ayub maqbarasi XII-XVI v.y.), Imom Al-Buxoriy xotira muzeyi va Naqshbandiya tariqati' muzeylar shular jumlasidandir.

Ona zaminimizda bundan necha asrlar avval yaratilib, to hanuz yurtimizga ko'rk bag'ishlab turgan qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch qudrati, bunyodkorlik an'analari, Vatanimizning shonli tarixi to'g'risida tasavvur va tushunchalar beradi.

Me'moriy yodgorliklar. Navoyi viloyatida kadimgi davr, ilk va o'rta asrlarda qurilgan 10 dan ziyod meymoriy yodgorliklar bor. Shulardan qadimgi Karmanadagi Mirsaid Bahrom maqbarasi (11-a.), Qosim Shayx meymoriy majmuasi (16-a.), Katta Guimbaz masjidi (17—18-a.lar), Qiziltepa tumanı Vang'ozи qishlog'idagi Toshmachit (16— 19-a.lar), Nurota tumanidagi Abdullaxon bandi (16-a.), Buxoro — Navoiy yo'llidagi Raboti Malik karvonsaroy va sardobasi (11-a.) mashhur. Viloyatda 30 ga yaqin arxeologiya yodgorliklari mavjud. Ayniqsa, Navbahor tumanı Uchtut qishlog'idagi shaxta (neolit davri), Nurota tumanı hududidagi Qoratog'da o'yib yozilgan qoyatosh yozuvlari (mil. av. 3-a.) va b. tarixchilar diqqatidadir.

QOSIM SHAYX AZIZON. Markaziy Osiyo tarixida alohida mavqega ega bo'lgan davrlardan biri – bu shayboniylar hukmronligi davridir. Bu davr bir asr davom etib, shu davr tarixida chuqur iz qoldirgan shayboniyzodalardan biri – Abdullaxon binni Iskandarxon binni Jonibekxondir. U 1534 yilda Karmana yaqinidagi Ofarinkentda (hozirgi Xatirchi tumani atrofida) tug'ilib, hayotining ko'p qismi Karmana bilan bog'liqdir. Abdullaxon va uning otasi Iskandarxon davrida Buxoro xonligi, jumladan, uning ajralmas qismi bo'lgan Karmana ham rivojlangan, obod mavzelardan biriga aylangan. XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro poytaxtga aylanib, gullab-yashnashida mamlakat hukmdori Abdullaxonning xizmatlari salmoqli bo'lgan bo'lsa, zabardast hukmdorning harbiy-siyosiy muvaffaqiyatlarida esa Karmanalik mashhur sufiy hazrat qutb ul-avliyo Qosim Shayx Azizonning hissasi beqiyosdir.

Markaziy Osiyo tarixidan ma'lumki, har bir hukmdorning bir necha diniy ustozi – piri bo'lgan. Buxoro hukmdori Abdullaxonning mashhur Jo'ybor xo'jalaridan bo'lgan bir necha pirlaridan biri qosim Shayx Azizondir. Hazrat Qosim Shayx Azizon Karmana tuprog'ida, Marjonxotin qishlog'ida tavallud topgan. Xonaqosidan 7-8 kilometr shimolda, Zarafshon daryosining qirg'og'ida bo'lgan bu qishloqning nomigina qolgan, xolos. Manzil hozirgi Navbahor tumanining Metan qishlog'i sarhadiga to'g'ri keladi. Qosim Shayx XVI asrda yashab o'tgan. Tug'ilish sanasi, ota-onasi haqida ma'lumotlar yo'q. Ijtimoiy kelib chiqishi, ilk ta'limi, birinchi ustozlari, o'qigan madrasalari xususida ham to'liq bayonlar berilmagan. Qosim Shayx dastlab Karmanada ta'lim olgan so'ng Buxoro shahrida tahsil olgan. Keyinchalik Samarqandlik tasavvuf namoyondasi Xoja Mulla Vali Azizonga murid bo'lgan va o'n besh yil u kishini xizmatlarida bo'lganlar. U zot olamdan o'tganlardan so'ng, bir muddat u kishining amrlariga binoan joylarida o'trib, xaloyiqqa yo'l ko'rsatganlar. Ilunga bo'lgan tashnalik u kishini Buxoroga boshlab, Kubroviya tariqati shayxlaridan bo'lgan Shayx Abdullatifdan ta'lim oladi va bir muddat bu yerda bo'lgach, ustozining Qosim Shayxga "Kubroviya tariqatida bizga berilgan ruxsat sizga ham hualluqlidir", -degan ruxsatiga erishib, so'ng ilm talabida yana Samarqandning Aliobodiga Huzrati Darvesh shayx Azizon dargohiga yo'l oladi va bu yerda zikr imajlislarida qatnashadi. Qosim Shayx Azizon "Manoqibi" da o'z tilidan "Biz to'rt silsiladan



ruxsat olganmiz” deyishligi, har to’rtala tariqat Kubroviya, Qodiriya, Yassaviya, Naqshbandiya shayxlaridan ta’lim va pirtlik ijozati olganligini anglatadi. Qosim shayx azizon ilm ma’rifat nomoyandasi sifatida xalq orasida yuksak hurmat qozongan. Osiyodagi eng yirik islam dini mutafakkirlaridan biri hisoblanadi. Qosim Shayx hazratlari xalq manfaatlari himoyachisi bo’lgan.

Qosim Shayx XVI asrning yirik ma’naviy barkamol shayxlaridan edi. Jo’ybor shayxlari mamlakat poytaxti Buxoroda yashaganlar, Qosim Shayx esa Karmanada umrguzaronlik qilgan. Qosim Shayx XVI asr ma’naviy-siyosiy hayotida muhim o’tin egallab, shu davr mamlakat tasavvusining yirik namoyandalaridan biri bo’lib, u kishining ma’naviy silsilasi Xo’ja Axmad Yassaviyga borib taqaladi.

Umrining ikkinchi bosqichini Karmanada o’tkazganligi, bu yerda tariqat targ’iboti, muridlar tarbiyasi bilan bir qatorda mamlakat hukmron doiralarning ijtimoiy siyosiy faoliyatiga faol aralashgani ham ko’zga tashlanadi. Bu davrda, ya’ni XVI asrning ikkinchi choragidan boshlab mamlakat osoyishtaligini ta’minlash maqsadida Qosim Shayxni siyosiy hayotga aralashuvni kuchayadi. Shu maqsadda Iskandarxon ibn Jonibek Sulton va o’g’li Abdullaxon II ibn Iskandarxonlar Hazratni pir tutadilar. Qosim shayx Mavarounnaharda ko’pgina hukmdorlar o’tasida nizoli masalarni ijobjiy yechib berishda tanilgan va barchalarini hurmatiga sazovor bo’lgan.

Abdullaxon mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga doir masalalarni hal qilishda qynalgan vaqtlarida doimo Qosim Shayxga murojaat qilib turgan. U kishi esa shohga zarur maslahatlar berib, muxolif tomonlar o’tasidagi turli nizolarni bartaraf qilishda yordam qilgan.

XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon tasarrufidagi Shahrisabzga Turkiston hokimi Bobosulton da’vogarlik qilganda, ma’lum harbiy-siyosiy vaziyatni hisobga olib va ortiqcha qon to’qilishining oldini olishga urinib. Qosim Shayx Azizon uni da’vogarga vaqtinchha bo’lsada, topshirishni xonga maslahat beradi va bu maslaxat ham amalga oshadi. 1569 yilda Turkiston va Samarqand hukmdorlari Dabusiya va Karmanani egallab, Abdullaxon qo’shinlari bilan kurashni G’ijduvonning G’ishti yaylovlarida davom ettirayotganlarida Buxoro hukmdori Abdullaxonning qo’li baland keladi va uning raqiblari Qosim Shayxga murojaat qilib, xon bilan yarashtirib qo’yishni so’raydilar. Shayx jangu jadallardan madori qurigan, bosqinchilar joniga tekkan aholiga xayri-xoh bo’lib, ularni yarashtirib qo’yadi.

Qosim Shayx Azizon 1576-1577 yillarda bir-biri bilan kurashib turgan uch hukmdorni - Xorazm shohi Xoji Muhammadxonni, Qipchoq dashtidan qozoq, Eshimxon va Abdullaxonni Karmanada bir kigiz ustida o’tirg’izib, sulh to’zishga erishganligi «Abdullanoma»-da qayd etilgan. Qosim Shayx hayotida bunday holatlar ko’p marta bo’lgan.

Qosim Shayx Azizon xalq, manfaatlarini butun umri davomida himoya qiladi. U kishi soliqchilar tazyiqiga yo'l qo'tymaydi, mamlakat farovonligi, tinchligi va osoyishtaligi uchun umr bo'yи kurashadi. Qosim Shayxning «Raddi shiya» (Shia dinini rad etish) asari borligini XX asming boshida yashagan nemis olimi, sharqshunos Brokelman eslatadi. Qosim Shayxning asari borligini boshqa olimlar ham tilga oladi. Afsuski, bu asarlar tarix qa'rida yo'qolgan. Qosim Shayx hazratlari vabo kasalligi bilan 1579 yil 28 fevralda 78 yoshda vafot etadi va Karmanaga u zotga bag'ishlab qurdirilgan xonaqoh qarshisida dafn etiladi.

Qosim Shayx benazir avliyo ekanligi o'limi bilan bog'liq haqiqatda yanada ravshan anglashiladi, ya'ni Karmanaga vabo kasalligi tahdid solganida Allohga iltijo qilib, «YO bor Xudoyo bu kasallikni faqat menga ber, xalqimga emas» deb duo qitadi va duosi qabul buladi.

Buxoro hukmdori Amir Abdulloxon Qosim Shayx Azizon sharafiga 1558 yilda Karmanada ko'rkar xonaqoh qurdiradi. Bu xonaqoh Yassaviya tariqatining qarorgohi bo'lib, ma'rifiy olamda munosib o'rin tutdi. 2003 yilda allomaning tavalludiga roppa-rosa 500 yil to'ldi. Qosim Shayx maqbarasida u kishi haqda yozilgan tosh bo'lgan. Abdullaxon Qosim Shayxga atab qurdirgan maqbara toshlari ham chor mustamlakachilari tomonidan tashib ketilgan.

Qosim Shayx maqbarasi yonidagi ziyoratxona ichida, mehrob yonida katta ko'k tosh (onikis) bo'lib, odamlar unga sig'inganlar. Bu tosh ham Leningradga olib ketilgan. Qosim Shayx to'g'risidagi ma'lumotlar asrlardan asrlarga ko'chib, bizning davrimizgacha yetib keldi. Shayx to'g'risidagi ma'lumotlar Xofiz Tanish al-Buxoriyning «Abdullahoma» («Sharafnomayi shohiy»), Hasan-xuja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob», Xazrat Olim Shayx Azizoning «Ma'maoit min nafaqat ul quds», Muhammad Tohir Eshon Xorazmiyning «Tazkirat ul-avliyo» («Tazkira Tohir Eshon»), Sayid Muhammad Nosiriddinning «Tuhfat az-zoirin» asarlarida uchraydi.

Muhammad Tohir Eshon «Tazkira»si Qosim Shayx to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beribgina qolmay, shayx ma'naviy silsilasi davomchilari, ya'ni salifalari haqida ham so'z yuritadi. Ushbu me'morchilik majmuiga Qosim Shayx honaqosi, dahma ziyoratxona va Buxoro Amiri Abdullaxon qabri kiradi. Abdullaxon davrida bunyod etilgan Qosim Shayx xonaqosining sharqiy tomonida Qosim Shayx sag'anasi bor. Sag'ana o'rni taxminan 5-6 metr atrofida bo'lib pishiq g'isht bilan terilib chiqilgan, balandligi 1,5 - 2 metr. Dinga qarshi kurash ta'sirida surʼuna cho'kib, haroba holiga keltirilgan. Sag'ana marmar toshlar bilan va "Abdullaxon g'ishti" deb ataluvchi toshlar bilan terilib chiqilib ayrim joylari Qur'on Karim oyatlari bilan yozilgan marmar toshlar bilan qoplangan. Hozir bu toshlarning ba'zilari saqlanib qolgan. Honaqoh taxminan 15-20 yil ichida qurub buktazilgan. Honaqoh uch tomonining tashqi ko'rinishi kungurador qilib bezatilgan

qurilmadan yasalgan. Honaqoh katta gumbazli masjid hamda o'nta bir - biriga tutash bo'lgan hujralar va ayvondan iborat. Honaqoh gumbazining balandligi 14 metrdan iborat. 1910-1911 yillarda Buxoro amiri Olimxon otasi Amir Abdulaxatxonning qabrini Qosim Shayx dahmasi yoniga unga monand qilib qurdirgan. Ikkinchchi honaqoh Qosim Shayx honaqohidan 300 yil keyinroq qurilgan bo'lsada yaxlit bir-biriga monand ulkan bir yodgorlik majmuasi tashkil qilingan.

Istiqlolga erishgan kunlarimizdan boshlab Muhtaram Yurtboshimizning tashabbuslari bilan yurtimizdag'i ziyoratgohlar, avliyolarning qabr va qadamjolarini obod qilish, tarixiy obidalarni ta'mirlash, ularni asl holatiga keltirish uchun sa'yiharakatlar boshlandi va ko'plab ulug' manzillar obod qilindi va davom etmoqda. Shular qatori Yurtboshimizning qarorlari bilan 2000-2001 yillar Qosim Shayx majmuasi to'liq ta'mirdan chiqarilib ko'rakm holatga keltirildi va ulkan ziyoratgoh manzilga aylandi.

Muxtasar qilib aytulganda, aynan o'sha davrda zamonasining yetakchi ruhiy rahnamosi sifatida: birinchidan Yassaviya tariqatining mavqeini oshirdi; ikkinchidan - Karmanani ma'rifat markaziga aylantirdi; uchinchidan - hukmdorlar o'rtaida o'zaro suh va bitimlar to'zilishining asoschisi bo'ldi.

HAZRAT MAVLONO ORIF DEHGARONIY (DEHGARON yoki DEGGARON). Tasavvuf ilmi sohiblari, ilmiy bashoratchilarning tarixi, ularning hayoti va karomatlari xususida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qo'lyozmalarida, tarixiy kitoblarda ko'plab ma'lumotlar berilgan. Mavlono Orif Dexgaroniyning karomatlari xususida bir qancha tarixiy manbalarda qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Sayyid Muhammad Nosiruddinining «Tuhfat az-zoirin» («Ziyoratchilarga sovg'a») (XX asr), Farididdin Attorning «Tazkirat ul-avliyo», Faxriddin Ali Safiyning «Rashaxrtu aynil-hayot» («Obihayot temchilari»), Abul Muhsin Muhammad Bokir ibn Muhammad Alining «Baxouddin Naqshband», Abdurahmon Jomiyning «Nafosat ul-ins», Badriddin Kashmiriyning «Ravzat ar-rizvon», Xusayn as-Saraxsiyning «Manokqibi Sa'diya» kabi asarlarida Mavlono Orifiyning naqadar mo'tabar va ulug' zot ekanligi zikr qilinadi.

Mavlono Orifiyning faoliyati va shuningdek u kishi tug'ilgan joy va shu nomdag'i masjidi xususida tarixchi, etnograf, arxeolog, filologlar ham ayrim ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Bu o'rinda B.N. Zapiskin, G.A. Pugachenkova, V.A. Nilsen, Yu.Paul, V.A.



**HAZRAT MAVLONO ORIF
DEHGARONIY**

Shishkin, H. Hasanov, G. Navro'zova, A. Hotamov, Sh. Xalilov kabilarning ishlari alohida e'tiborga loyiq.

Shuningdek, qator xorijiy mamlakatlarning tarixchi olimlari turkistonlik ulug' allomalar hayoti va faoliyatini o'rganar ekanlar, Mavlono Orifiyga ham alohida e'tibor bergenlar. Jumladan, yuqorida nomi ta'kidlab o'tilgan nemis olimi Yurgen Paul o'zining «O'rta Osiyoda naqshbandiyaning siyosiy, ijtimoiy ahamiyati» (Berlin, 1991) kitobida Mavlono Orifiyga ham alohida e'tibor bergen.

Bu asarlarda Mavlono Orifiyning hayot yo'li, ta'limoti to'g'risida hamda uning tariqatida insoniy kamolot, poklik iymon va e'tiqod birligi, javonmardlik kabi fazilatlarni inson qalbiga jo etish asosiy o'rinn egallashining bayon etilishi diqqatni tortadi. Shuningdek, bu adabiyotlarda Mavlono Orifiy qo'nimmi topgan joy Hazora mavzei, Shayxning qabri, u yerdagи qadimiy masjid haqida ham so'z yuritiladi.

Mavlono Orif iy, tarixiy manbalarning guvohligiga qaraganda, taxminan 1312 yilda Xazora qishlog'i Dexgaron dahasida (hozirgi Karmana tumanining Xazora jamoa xo'jaligi hududida) tug'ilgan. Asl kasbi do'kondor bo'lib, bo'z to'qish bilan shug'ullangan. Mavlono Orif Dexgaron dahasida tug'ilganliklari bois Dexgaroniy nomi qo'shib aytildi. Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha, Amir Kulolning 4 o'g'li va 4 xalifasi bo'lgan. To'rt o'g'illarini to'rt xalisalari tarbiyasiga bergen. To'ng'ich o'g'illari Amir Burxonni Bahouddin Naqshband, ikkinchisi - Amir Shohni Shayx Yodgor Konsuruniy, uchinchisi - Amir Hamzani Mavlono Orif Dexgaroniy va to'rtinchisi - Amir Umarni Jamoliddin Osiyoyi tarbiyalagan. Mavlono Orif Dexgaroniy Xoja Bohouddin Naqshbandning ma'naviy ustozisani algan.

Mavlono Orif tasavvuf ilmi sohiblari kabi eng avvalo ilmni ulug'lagan, ilmi toliblarni e'zozlagan. U kishi qanoat tuyg'usini tengsiz ma'naviy xazina deb bilgan. Shogirdlar bilan bo'lgan uchrashuvlarda qanoatni topgan kishi hech kimga muhtojlik sezmasligini ta'killab turgan. Mavlono Orif odamiylik qadriyatlarini har narsadan ustun qo'ygan. Baxt-saodatga erishish faqat mehnat tufayli amalga oshishini alohida uqtirgan. «Qo'ling mehnatda bo'lganda, dilda ne bo'limoq kerak» degan savolga hamisha «Diling Ollohn zikrashda bo'lsin» degan naqlini muntazam eslatib turgan. Nodonlikni qattiq qoralagan.

Tarixiy manbalar mutolaasidan shu narsa aniqli, Mavlono Orif nodonlikni aql jollodi deb hisoblagan. Mavlono Orif Dexgaroniy va Bahouddin Naqshbandiyolar dunyoqarashi botinan (ichdan) xudo bilan, zoxiran (tashqaridan) odamlar bilan borish kerakligiga asoslangan. Ulaming aqidasiga ko'ra, «Dilba yoru dast ba kor (qalb Ollohn bilan qo'l mehnatdan ajralmasligi kerak). Zotan, mehnat mashhaqqatsiz iste'mol qilingan rizq va narsa haromdir. Ushbu naqlarni Mavlono Orif har bir mushvaratda, shogirdlar, muridlar davrasida takrorlab turgan.

Sayyid Muhammal Nosiriddin Al-Xanafiy Al-hasaniy Al-Buxoriyning 1907 yili Buxoroda fors-tojik tilida va 2003 yilda Toshkentda rus tilida chop etilgan «Tuhfat az-zoirin» («Ziyoratchilarga sovg'a») asarida qayd etilishicha, Dexgaron dahasida tug'ilib yashagani Mavlono Orif mashhur Sayyid Amir Kulolning eng yaqin shogirdlaridan biri bo'lib, u valiy, yetuk pir va mashhur din peshvosi bo'lismidan tashqari, ruhiy mo'jizalar, karomatlar, bashoratlar ko'rsatish qobiliyatiga ega shaxs ham bo'lgan. Amir Kulol aytardilarki, Mavlono Orif va Bahouddin Naqshbandga teng keladigan pir yo'q. Ular Olloh rahimatiga yetgan kishilardir. Ularda valiylik sifatlari mujassam. Dexgaroniy hazrati Bahouddin Naqshband bilan hammas, tengdosh va do'st bo'lib, u kishi taxminan 1313-1380 yillar oralig'ida Dexgaron dahasida yashab o'tgan.

Mavlono o'z davrining buyuk piri, avliyosi bo'lism bilan birga Xazora, Toshrabot, Armijon, Dul-dul, Arabsaroy qishloqlarining hakimi sifatida ham nom chiqargan. tabiblik qilib kasalmand kishilarni davolagan, beva-bechoralarga rahm-shafqat ko'rsatgan.

Manbalarda keltirilishicha, Mavlono Orif Dexgaroniy va uning ayoli Mohiporolardan Abul Hayr Xoja ismli yagona farzandi qolgan. Xuddi shu shajaraning vakillaridan biri Tohir Xo'ja Karmanadagi Qosim Shayx Azizon qabristoniga dafn etilgan.


DEGGARON MAJMUASI (XIV.). Karmana shahrining 30 km g'arbidagi hazora qishlog'ining yonida Movarounnahrdagi eng qadimgi masjidlardan biri — Deggaron masjidi joylashgan. Navoiy viloyati Karmana tumani Hazara QFY hududida joylashgan "Mavlono Orif Deggaroniy" jome masjidi viloyatning eng qadimiy masjididir. Masjidning qachon qurilgani to'g'risida har xil ma'lumotlar bor.

Uning qurilish davri XI asr boshlaridan nariga o'tmaydi. Bu bino Zarafshonning so'l. qirg'og'ida, endilikda vayron bo'lgan, lyokin ilgari yaxshi mustahkamlanib qurilgan qadimiy kichiq bir qishloq hududida joylashgan. Qishloqning ham, masjidning ham nomi bu yerda yashagan, aholining asosiy mashg'uloti — o'tga chidamli qozon tayyorlashdan olingan. Shunisi e'tiborliki, Xojagon Sulukining mashhur sufiyalaridan biri bo'lmish Shayx Mavlono Orif Deggaroniy (1313–1376) shu qishloqda tug'ilgan va shu yerda dafn etilgan. Bu zot Naqshbandiya tariqatidagi Xojagon Sulukining buyuk namoyandasini bo'lmish Bahouddin Naqshbandning ustozlaridan biri hisoblanadi.

Keyinroq, XVII asrda Deggaron qishlog'i masjididan bir oz narida joylashgan Hazora qal'asiga aylangan. Masjid turli texnika usulida qurilgan; tashqi yuzasi, ustunlari va poydevorining bir qismi — pishiq g'ishtdan, devorlari xom g'isht va paxsadan iborat. Gumbazlarining ichki qismini ravoqlardan, devorga tegib turgan yoki alohida qad ko'targan ustunlar g'ishtdan bino qilingan. Markaziy gumbazni ko'tarib turgan to'rt ravoq g'isht va ganjdan sebarga shaklidagi o'ziga xos bezaklar bilan bezatilgan. markaziy gumbaz atrofidagi sakkizta



DEGGARON MAJMUASI



DEGGARON MAJMUASI



DEGGARON MAJMUASI

kichiq gumbaz «balxi» uslubidagi kichiq ravoqlar orqali masjidning tashqi devorlari va ichki ustunlariga tayangan holda qurilgan. Bu joy hozirda qayta ta'mirlanib, majmuada muzey faoliyat ko'rsatmoqda.

1991 yil imom bo'lib ishlagan O'sarov Sa'dulla domlani aytishicha 1991 yil 16 mayda italiyalik ikkita olim kelishgan va qo'llaridagi kitobda esa Hazara qishlog'idagi bu qadimgi masjid binosi VI-VII asrda qurilgantigi yozilgan edi. U olimlarning kitobida bu masjid zardushtiyarning davrida qurilgan bo'lib, ularning ibodatxonasi bo'lgan. Binoning to'rt tomoni ochiq bo'lib, to'qqiz gumbazni to'rtta g'ishtdan ko'tarilgan ustunlar ko'tarib turgan. Samoniylar davriga kelib bu bino musulmonlar masjidi sifatida foydalana boshlangan.

Masjid hududlari "Deggaron" qishlog'i bo'lgan, "deggaron" so'zining ma'nosi qozon yasovchilar mahallasi degan ma'noni bildirgan va masjid shu mahallada bo'lgani uchun uni ham "Deggaron" masjidi deb nomlangan.

1910 yil 1328 hijriy sanada Buxoro amiri Abdulaxatxon tomonidan masjidning oldi va bir yon tomoniga ayvon qurilgan. Bu ayvonlar 1980 yillargacha mayjud bo'lgan.

Keyinchalik bu masjid "Mavlono Orif Deggaroniy" deb atalishini sababi Mavlono Orif Deggaroniy hazratlari 1313 yilda Xazora qishlog'ida Deggaron daxasida tug'ilgan. Asl kasbi do'kondor bo'lib, bo'z to'qish bilan shug'ullangan. Mavlono Orif hazratlari Said Amir Kulolning eng yaqin shogirdlaridan biri bo'lib ulug' alloma, atoqli tarbiyachi, xojagon-naqshbandiya tariqati rivojiga muhim hissa qo'shgan sohibikaromat zot bo'lgan.

Amir Kulol hazratlari aytadiki, Mavlono Orif va Bahovuddin Naqshbandiyga teng keladigan pir yo'q deb e'tirof qilgan. Ular Allah taolo marhamatiga musharraf bo'lgan insonlardir deganlar.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab muhtaram Yurtboshimizning tashabbuslari bilan yurtimizdagи ziyyaratgohlar, avliyolarning qabr va qadamjolarini obod qilish, tarixiy obidalarni ta'mirlash, ularni asl holatiga keltirish uchun sa'y-harakatlar boshlandi. Shular qatori 2007 yil "Mavlono Orif Deggaroniy" jome masjidi katta ziyyaratgoh va ko'rkan manzilga aylandi. Hozirda bu maskan mo'min musulmonlarimiz ziyyarat qiladigan dargoxlardan biridir.

«PANJVAQTA» KATTA GUMBAZ.

Chashma majmuasida yana bir me'moriy yodgorlik «Panjvaqta» Katta Gumbaz masjididir. Masjid XVI asrda Abdulloxon davrida kurilgan. Masjid yonidagi gulasimon baland minorali azonxona saklab kolinmagan. Masjid ikki tomonlama ayvoni bo'lib, ayvondagi mexrobning guldor koshinlari va xoshiyador nakshlari bilinib turibdi. Keksalarning aytishlaricha, masjid asli nimrang, ok, moviy rang va kora fonga ishlangan xavorang va ok mozaikalar bilan bezatilgan, bulardan fakat gumbaz ichidagi geometrik xoshiyalar saklanib turibdi.

MIR SAID BAHROM MAQBARASI (KARMANA).

Mir Said Bahrom maqbarasi Karmana shahrining markaziga yaqin Mir Said Bahrom mahallasining shimoliy chegarasida joylashgan. Maqbara X-XI asrlarga xos bo'lib mamlakat hisobidagi yodgorliklar qatoriga kiradi. Maqbara bir gumbazli, to'rtburchak shaklda, hamma tomoni bir xil o'Ichovdagi pishiq g'ishtdan tiklangan. Bino bir necha bor ta'mir qilinib, dastlabki ko'rinishini tiklagan. Uning old qismi juda ustalik bilan bezatilgan, g'isht turli usulda terilib, unga har xil shaklda bezak berilgan.


Maqbara o'ttasida Mir Said Bahromning qabri bor. Qabr yonida arabcha so'zlar yozilgan ikkita qabr toshi ham saqlanib qolgan. Aslida Mir Said Bahrom o'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Ehtimol u kishi musulmon dinining yirik nomoyondalaridan biri bo'lgandir. Ehtimol Samoniylar sulolasi vakillaridan biridir. Chunki maqbara qurilish jihatidan, Buxorodagi Ismoil Samoniy maqbarasiga so'xshab ketadi. Maqbaraning birinchi tadqiqotchisi A.K.Pisarchiq hisoblanadi. XX ismining 60 yillarigacha bu yodgorlik ko'philik e'tiborini tortib kelgan. 1969 yilning jattiq qishida ko'p qor-yomg'ir yog'ishi natijasida maqbara binosi qisman cho'kib Jevorlari va gumbazlarida yoriqlar paydo bo'lgan. Hozir Mir Said Bahrom maqbarasi atrofi obodonlashtirilib, uning yonida "Yoshlik" bolalar istirohat bog'i tashkil etilgan. 1965-1970 yillarda maqbara yonida ayvonli masjid bo'lgan, keyinchalik u bo'zilib ketgan. Bugungi kunda bo'zilib ketgan ayvonli masjid qayta iiklanib o'z holatiga qaytarilmoqda.

NUROTA CHASHMASI. Yurtimizda ziyorat maskanlari ko'p. Ularni ziyorat qilish inson qalbi va ruhiga taskin beradi. Jumladan, Nurota shahrida ham ana shunday muqaddas qadamjo mayjud.

Tarix sahifalarida Nur shahri deya muhrlangan Nurota yurtimizning muqaddas maskanlaridan biri bo'lib, uni mag'ribu mashriqda ham bilishadi. Manbalarning birida: "Nur shahrida kechasi osmonga nur taralib turadi, shu bois Nurato deb ataladi" deyilsa, boshqasida "Bu joy muqaddas makon, u yerda ko'plab avliyolar yetishib chiqqanligi bois shunday nomlanadi" deyilgan. Boshqa rivoyatlarda esa "Nurato chashmasi tubidan ajabtovur nur dastasi osmonga ko'tarilib turganligi sababli shahar nomi shunga ishora" deb bitilgan.

Tarixiy manbaalarda keltirilishicha Nurato arab va fors-tojik tillarida "nur" va "ato" so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "yorug'lik" taratadigan, ya'ni nur ato etadigan joy ma'nosini anglatadi. Uning ikkinchi – Nurato atamasi chashma sohilida dafn etilgan Nur ota – Shayx Abulhasan Nuriyga taaluqlidir.

Dengiz sathidan 524 metr balandlikda joylashgan chashma xalqimizning andoqli go'shalaridan biri. Chashmaning g'aroyib mo'jizali qudrati oldida lol qotadi kishi. Quyosh nuri ta'sirida chashma uzra bamisol ko'zguda aks etayotgan behisob jilvalar kishini sehrlab, go'yo kuch-quvvat ato etadi. Suv yuzasiga



AMIR SAID BAHROM MAQBARASI

ko'tarilgan baliqlar quvnoq raqsi bilan porlab turgan nurni yanada balandroq yog'dulantiradi.

Bu nurning insonlar ko'z o'ngida turli rang va shaklda paydo bo'lishi betakror mo'jiza. Chashma suvi yumshoq va shirin bo'lib, harorati muttasil turadi. Tarkibidagi turli shifobaxsh mikroelementlar bir qator xastaliklarga davo sanaladi. Tip-tiniq, zilol suvda yurgan shirmohi baliqlar esa beixtiyor zavqingizni oshirib, ruhingizga ravshanlik baxsh etadi. Vujudingiz darddan forig' bo'lgandek yengil tortadi.

"Chashma" tabiiy me'moriy muzeyi Nur chashmasi, Nur qal'asi, IX asrda bino qilingan "Panjavaqta" katta gumbaz masjidi, Shayx Abul Hasan Nuriy maqbarasi, Nurgul binni Abul Hasan qabri. Nurgulato qudug'i va madrasa hujralaridan iborat.

Nur haqidagi rivoyatlarning birida aytishicha, katta karvon tunni tog' bag'rida o'tkazibdi. Ertalab uyg'onganlarida ajoyib mo'jizaning guvohi bo'lishibdi. Ro'paralarida qandaydir shu'la tobora ravshanlashib, nur taratarmish. Syokin borib ko'rsalar, tog' etagida chashma suvlari mavjlanib turar va undan nur ko'rinaran. Suv shunchalik tiniq ekanki, yo'lovchilar hech qachon bunday beg'ubor suvni uchratmagan ekan. Ular "Xudo bizga nur ato qildi" deb suv ichib, Ollohga shukronalar qilishibdi.

Xitoy bilan Yevropani bog'lagan Buyuk Ipak yo'lli ustidagi bu so'lim manzilgohda karvonlar nafaqat savdo va dam olish, balki shifobaxsh chashmaning suvidan g'amlash uchun ham to'xtab o'tganlar.

Chashma suvi tog' ichidan, toshlar orasidan sizib o'tadi. U ana shu toshlardagi turli kimyoiy birikmalar, tog' jinslaridagi har xil elementlarni eritib, o'zi bilan olib keladi. Minerallashgan suvlari esa buloq bo'lib otilib chiqadi.

Olimlarning fikricha, Nur chashmasining geologik yoshi mingyilliklarga, chashma atrofidagi qatlam esa 35-40 ming yilga teng. Abu Abdullo Rudakiy esa "Dunyoda ikkita nur bor, Biri quyosh nuri, ikkinchisi Nur chashmasidir", deya uni bag'oyat ulug'lagan.

Chashma baliqlari O'rta Osiyoda mavjud 110 ga yaqin baliqlardan biridir. Bu baliqlar fonda "marinka", mahalliy xalq tilida esa "shirmohi" deb ataladi. Ular 20 yilgacha umr ko'rib, 60 santimetr uzunlikdagilari ham uchrab turadi. Boshqa baliqlar singari ular ham uxlamaydi, tinch holatda dam oladi.



NUROTA CHASHMASI

Baliqlar chashma suvida mavjud mineral va mikroelementlar bilan oziqlanishga moslashgan bo'lib, tabiatning betakror mo'jizasidir. Baliqlar chashmadan chiqadigan kimyoviy minerallarga va tez-tez har joydan chiqib turadigan kislorodga o'ch. Shuning uchun qayerdan suv, kislorod chiqsa, baliqlar o'sha joyga yopiriladi, miriqib nafas oladi, rohatlanadi va o'sha jarayon yana takrorlanishi uchun chashmaning yangi ko'zlarini ochishadi. Bu bilan ular chashma suvining ko'payishi uchun xizmat qiladi.

Aytishlaricha, marinka (shirmohi) baliqlari eng toza suvgaga moslashgan bo'lib, u qo'ldan ovqat yemaydi. Tosh kovaklariga, suv o'tlari orasiga urug' qo'yib ko'payadi. Bu baliqlarning xalq tilida "shoh baliq", "qora baliq", "xon baliq", "gul mohi" degan nomlari mavjud.

Nurota chashmasidagiga o'xshash baliqlar O'zbekistonning ko'plab chashmalarida, ya'ni Langarning Qo'chqorli bobo chashmasida, Oqchopda, Dchibaland va G'ozg'on qishlog'i chashmalarida hamda boshqa chashmalarda ham uchraydi.

Istiqlol sharofati tufayli qayta ta'mirlangan va ancha kengaytirilgan Chashma majmuasiga Markaziy Osiyo va xorijiy davlatlardan kuniga minglab ziyoratchilar mo'jizaviy nurbuloq suvidan bahramand bo'lib, tandagi g'ubor va dardlardan xalos bo'lishadi.

Shuningdek, chashma yonida XIX asrda asl marmardan qurilgan moviy gumbazli Hammomi Sudurda yuvinib, poklanib chiqishadi. Chashma majmuasi sohilida avliyo Shayx Abul Hasan Nuriy qabri, Chilustun jome' masjidi, Chillaxona hujralari, Nurgulato qo'rg'oni (tepaligi) va Beshpanja quduqlari mavjud.

NUROTA QAL'ASI. Nurotadagi qal'a harobasi (taxm. 5—6-a.lar) tog'ning etak qismida joylashgan. Asli nomi Hyp, xalq uni hurmatlab, «ota» so'zini qo'shib ataydi. Qal'ada kata buлоq bor, atrofda undan boshqa oqar suv yo'q. Suv boshiga egalik qilib, dushman qamaliga bardosh berish maksadida qadimda bulok, ustiga paxsadan qal'a qurilgan. U bir necha marta ta'mirlangan. Qal'aning ichida bulok, boshiga tushib suv olinadigan maxsus yo'l bo'lgan. Qal'aning tepasi baland qirlik bo'lgani uchun dushmani kuzatish maqsadida qirning tepasiga mo'la (burj) qurilgan. Mo'la b-n qal'a orasida yo'lak bo'lib, uning uzunligi 60 m. Nurota qal'si kadimdan muhim strategi k qal'a va savdo manzili bo'lgan. Nurota qal'sida, keyinchalik Buxoro amirligining Nurota begi turgan¹⁶.


RABOTI MALIK. Karmana — Buxoro yo'llida — bugunda qayta tiklangan qadimiylar yoki yo'li bo'yida Raboti Malik (Shoh Raboti) karvonsaroyi joylashgan. U XI asming 70-yillarida Qoraxoniylardan bo'lmish Shamsulmulk Nasr ibn Ibrohim (1068—1080 y.) tomonidan qurilgan bo'lib, XII asming birinchi choragida

yana shu Qoraxoniylardan bo'lmish arslonxon muhammad ibn sulaymon (1102–1130 y.) tomonidan ta'mirlangan.

Arxeologik tadqiqotlar paytida (XX asming 70-yillari va shu asming oxiri — XXI asr boshlari) bu noyob binoning murakkab to'zilishi aniqlandi. U 100×100 m maydonni egallagan bo'lib, mustahkam devorlar bilan o'rالgan va ikki qismga bo'lingan.

RABOTI MALIK SARDOBASI (XI V.). Sardoba (fors-tojik tilida - sovuq suv) - suv tanqis yerlarda uni saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz. Sardobaning devori silindr shaklida, diametri 12-17 m, chuqurligi 10-15 m, hovuz yuzasi, yer sathi pishiq g'isht va ganchdan ishlangan, tepasi tuynukli, atroflariga hovuzga suv tushadigan teshiklar qilingan. Sardobaga kirish uchun eshik ham o'rnatilgan, uning oldi suvni toza saqlash maqsadida devor bilan o'rالgan. Sardoba yoniga mollarni sug'oradigan oxur qilinib, unga suvdondan maxsus tarmov orqali suv oqizilgan. Ba'zi sardobalarda ularni nazorat va tozalab turuvchilar uchun xonalar ham bo'lgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Movarounnahrda 44 ta sardoba bo'lgan. Ulardan 29 tasi qarshi cho'lida, 3 tasi Mirzacho'lda, 3 tasi Toshkent bilan Farg'on'a o'ttasidagi qadimgi savdo yo'lida, 1 tasi qorovulbozorda va yana biri Malik cho'lida bo'lgan. Sardobalar keyingi yillarda qishloq, va shaharlarni ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun ham qurilgan. Sardobadan O'rta Osiyoning ba'zi dashcho'llarida hozir ham qisman foydalaniлади.



RABOTI MALIK SARDOBASI

Sardobalar geografik joylashuvi, joyning tabiatni, relefiga ko'ra qoryomg'ir suvlardan va quduqlar yordamida yer osti suvlari yoki buloq, boshlarida barpo etilgan. qoryomg'ir suvlardan to'latiladigan sardobalarni qurishda joyni to'g'ri tanlash, baland-pastliklarni hisobga olish katta ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki bunday sardobalar bahorda

atrofdagi nishablardan oqib tushadigan qor va yomg'ir suvlari hisobiga to'ldirilgan. Sardobalar ichida Raboti Malik sardobasi Samarqand Buxoro oralig'ida Buyuk Ipak yo'lining ma'lum qismida yagona obihayot manbai sifatida asrlar osha xizmat qilib kelgan.

Raboti Malik peshtoqidan bir oz narida suv manbai — diametri 13 metrcha keladigan gumbaz ostida karvonsaroya zamondosh bo'lgan sardoba joylashgan. Sardoba hovo'zining aylana devori yerdan 12 metr chuqurlikka qadar pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, unda muzday toza suv butun yoz bo'yи saqlangan. XVI

asrdagi mualliflardan biri Raboti Malik sardobasining suvini makkadagi laziz zamzam suviga qiyoslaydi. Sardoba karvonsaroy kabi yolg'iz yo'lovchilar uchun ham, butun boshli karvonlar uchun ham qo'nalg'a hisoblangan.

Karvonsaroy o'zining dastlabki vazifasi e'tibori bilan XVIII asrgacha xizmat qilib kelgan. Unda amir temur va uning avlodlari, buxoroda hukmronlik qilgan sulolalarning xonlari, elchilar, savdo karvonlari va sayyoohlar qo'nib o'tgan. Hofizi abro'ning ma'lumotiga ko'tra, Ulug'bek 1420 yilda ushbu mintaqalarda to'xtab, qirq kun ov qilgan. XIX asr — XX asrning bosqlarida bu yerda rabot nomi bilan ma'lum umri qisqagina bo'lgan qishloq ham shakllangan.

1841-1842 yillarda bu joylarda bo'lgan A. Lemann ushbu sardoba to'g'risida: «Raboti Malikni suv bilan ta'minlab turgan sardoba - ajoyib baland gumbazli bo'lib, uning ustki qismidan suvgaga yorug'lik tushib turadi, binoning yarmi yerga ko'milgan, bu joy sayohatchilar uchun jon saqlash manzilgohidir», - deb yozadi. Raboti Malik sardobasining qachon va kim tomonidan qurilganligi to'g'risida turlicha ma'lumotlar bor. Bizning fikrimizcha, tarixiy xaqiqatga yaqinroq, ma'lumotlar M.Ye. Massonning «Sardobalarni o'rGANISH MUAMMOSI» kitobida keltirilgan. Unda sardoba Raboti Malik karvonsaroyi bilan bir vaqtida Shamsulmulk tomonidan qurilganligiga ishora qilinadi.

Raboti Malik sardobasi Markaziy Osiyodagi boshqa sardobalar singari pishiq g'ishtdan qurilgan. Sardobaning tashqi aylanasi 12,8 m, devorining qalinligi 1,5 m, balandligi 20 m, gumbazining balandligi 8 m bo'lib, yer yuzasiga chiqqan qismi qisqarib boradi. Uning tepasi yorug'lik tushadigan tuynukli bo'lib, Sardobaga kirish uchun zina va eshiklar o'rnatilgan. Uning atrofi suvni toza saqlash uchun devor bilan o'talgan. Sardoba yonida mollarni sug'orish uchun bir necha tosh oxurlar quyilib, ularga sopoldan yasalgan tarnovlar – quvurlar orqali suv yuborilgan. Xuddi shunday tarnov orqali suv Raboti Malik saroyiga ham yuborib turilgan.

Sardobaning suv to'planadigan hovo'zi tubida suvning saqlanishiga sizot suvlaridan toza turishi uchun qor bilan ishlangan g'ishtlar terilgan. G'ishtlar ustidan saksovuldan tayyorlangan pista ko'mir qatlami tushalib, uning ustidan 3 qavat tuya junidan bosilgan kigiz, so'ng esa oshlangan 3 qavat mol terisi yopilib, ustidan g'isht terilib suvab chiqilgan. Bu hol bir necha marta takrorlangan. Demak, pista ko'mir bilan ishlangan pishiq g'isht va mol terisi usti maxsus qorishma bilan suvalgan. Bu esa suvning ortiqcha yerga shimilib ketishidan saqlagan.

Sardobaning uchdan ikki qismi yer ostida bo'lib, uchdan bir qismi yer yuzasidadir. Ayniqsa, sardoba va Raboti Malik o'rtasidan katta avtomobil magistralining o'tkazilishi bu nodir qurilish inshootining saqlanishiga anche zarar yetkazib turibdi.

Sardoba va Raboti Malikda bugungi kunda ta'mirlash ishlariga rahbarlik viloyat hokimligi tomonidan amalga oshirilmoqda. Navoiy viloyat hokimining 1996 yil 9

sentyabrda «Sardoba va Raboti Malik tarixiy yodgorliklarini obodonlashtirish, ta'mirlash va kompleks rivojlantirish to'g'risida» qabul qilgan qarorida quyidagi tadbirlar belgilandi: «Yodgorliklar atrofini obodonlashtirish, arxeologik qazilma va ilmiy tadqiqot ishlarini jonlantirish, yodgorlik atrofidagi eski yo'lni bo'zish, loyiha asosida sayyohtar uchun yo'lakchalar, avtomashinalar to'xtash uchun maxsus maydonlar qurish, «Raboti Malik» choxonasini qayta ta'mirlash va atroflarini obodonlashtirish, u yerda «Damxo'ja» suv quvuridan ichimlik suvi shoxobchasi o'tkazish, yodgorlik majmuasini gazlashtirish va zamonaviy telefon-aloqa tizimi bilan ta'minlash, 200 kishilik mehmonxona, turistlar manzili, mashinalarni yoqilg'i bilan ta'mintovchi shoxobchalarni vujudga keltirish rejalashtirilgan qaromi amalga oshirish uchun esa Navoiy viloyat hokimligi 1997 yil 19 fevraldagi «Sardoba va Raboti Malik tarixiy yodgorliklarini ta'mirlash va kompleks rivojlantirishni moddiy qo'llab-quvvatlash to'g'risida» gi qarorida viloyatdagi yirik korxona, tashkilotlar, firmalar ta'sischiligidagi yodgorlik majmuida savdo va ovqatlanish shoxobchalari barpo etish maqsadida «Sardoba» mas'uliyati cheklangan jamiyat to'zilganligi e'lon qilinib, unda 14 ta'sischi tashkilotning tashhabbusi asosida mazkur jamiyatga 15 million so'm mablag' o'tkazishlari ko'rsatilgan. Bugungi kunda Raboti Malik va Sardoba tarixiy yodgorliklari to'liq ta'mirlangan.

Navoiy viloyat o'lkashunoslik muzeyi — madaniy-maerifiy muassasa. 1992 yilda Navoiy shaxrida tashkil etilgan. Muzeyning arxeologiya, etnografiya, numizmatika, tabiat, tasviriy sanat va sanoat bo'limlari bor. Muzeyda Navoiy viloyati hududidan topilgan arxeologik yodgorliklar, viloyat tabiatini, sanati, sanoati (Navoiy kon metallurgiya kombinati, "Qizilqumsement", "Navoiy azot" ishlab chiqarish birlashmasi, Navoiy GRES kabi sanoat korxonalarini tarixi va faoliyatini, ularning mahsulotlaridan namunalar) aks ettirilgan. 2500 dan ortiq hujjatlar va eksponatlar, viloyat tabiatini, hayvonot va o'simliklar dunyosi, suv havzalarini, cho'l tabiatiga xos tabiiy boyliklardan namunalar namoyish etiladi. Muzey fondi (Nurota, Zarafshon, Xatirchi, Karmana, Konimex va b. bo'limlari bilan birga) 35 mingdan ziyod (2003), shuningdek, ilm-fan, tibbiyot, sport kabi ijtimoiy sohalarni yorituvchi materiallar to'plangan.

Yurtimiz tarixi, boy ma'naviy merosimizni o'rghanishda muzeylar muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olsak, ular faoliyatini yanada rivojlantirishga ehtiyoj sezildi. Bu borada Davlatimiz rahbarining "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni hamda "Muzeylar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mazkur yo'nallishda amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda. Ushbu huquqiy hujjatlar asosida mamlakatimizdagi 1200 dan ortiq muzeyning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanganligi, ochiq osmon ostidagi muzeylarga ham

katta ahamiyat qaratilib, ularni davlat muhofazasiga olish borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganligi fikrimiz isbotidir.

Jumladan, Navoiy viloyatida bugungi kunda 12 ta davlat, 7 ta soha, 3 jamoatchilik va 27 ta maktab, jami 49 ta muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ta'kidlash joizki, hududdagi muzeylar tizimini takomillashtirish, ular fondlarida saqlanayotgan noyob eksponatlar, osori-atiqalarni asrab-avaylash va boyitish, ularni xalqqa yetkazishda, yosh avlod ongini yuksaltirishda munosib hissa qo'sha oladigan malakali soha xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sayohatingizni zamonaviy, har tomonlama qulay, barcha sharoitlar muhayyo bo'lgan shaharlarda o'tkazishingiz yaxshi. ammo tabiat yaratgan mo'jizalardan olgan hayratingiz oldida bu hech narsa emas. Negaki, inson doimo asliyatga intilib yashaydi. Biz ko'hna maqbara va zamonaviy shaharlar bag'tida emas, tabiat bunyod etgan qadamjolar, ya'ni turizm sohasining so'ngi paytlarda keng urg'u berilayotgan ekoturizm haqida so'zlamoqchimiz.

Ekologik turizm o'tgan asming oxirlaridan jahon sayyoqlik industriyasiga asta-syokin kira boshladi va bugungi kunga kelib jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan iqtisodiy sohalardan biriga aylandi.

Ekoturizm — sayyoqlikning jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri. Hozirgi kunda dunyo miqyosida sohaning ushbu yo'nalishini yanada taraqqiy ettirish orqali aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qolaversa, bunda tabiat ne'matlarini asrab-avaylash, ularni kelgusi avlodga asl holicha yetkazishdek ezgu maqsadlar ham mujassam.

Ekoturizm jamiyati (The Ecotourism Society) tomonidan bu sohaga shunday ta'rif berilgan: Ekoturizm — antropogen ta'sirlarga uchramay, deyarli o'zgartirasdan kelayotgan tabiiy va madaniy hududlarga uyushtiriladigan, tabiatni asrash va mahalliy aholining turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qiladigan sayohat... Bu terminni ilk bor XX asming 80-yillarida meksikalik ekolog Yektor Sebalos-Laskurayn qo'llagan.

Yekspertlarning fikricha hozirda ekoturizm butun dunyoda eng serdaromad sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni samarali hal etish, balki ekologik muammolarni bartaraf qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon sayyoqlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirda turizm sanoatida 210 milliondan ziyod ishchi xizmat qiladi va undan olinadigan daromad yiliga 900 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Ayni paytda turizm rivojlanayotgan mamlakatlarda ham taraqqiy etmoqda. Bu o'rinda turistik bozorning deyarli yarmini qamrab olgan Osiyo-Tinch okeani, Yaqin va O'rta Sharq hamda Yevropa mintaqalaridagi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda. Ekspertlarning ta'kidlashicha,

turizm industriyasida ekoturizm tarmog'iga kiruvchi tabiiy va sarguzasht turizm tarmog'i jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Birgina Kanada davlatida yovvoyi tabiatga sayohat turizmining umumiy hajmi ichki turizmdan tushgan daromadning 25 foizini tashkil etadi. Kanada hukumati, faqatgina ekoturizmdan tushgan soliq hisobidan har yili 1,7 milliard AQSH dollari miqdorida foyda oladi. Bu esa, hukumat tomonidan yovvoyi tabiatni muhofaza qilish dasturiga ajratilgan mablag'dan 5 barobar ko'pdir.

Shuni aytish joizki, ekoturizm tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga katta hissa qo'shadi hamda ularni to'la-to'kis o'tkazishga sezilarli moliyaviy ko'mak beradi. BMT ma'lumotlariga qaraganda, har yili ekoturizmdan nisbatan kichiq davlatlar ham Keniya-1,4, Ekvador-1,18, Kosta-Rika-1,14, Nepal-1,55 million AQSH dollari miqdorida daromad oladi. Ushbu mamlakatlarning ekoturizmdan olgan daromadi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 70-80 foizini tashkil etadi.

Mamlakatimizda nafaqat dunyoga mashhur, xorijiy sayyoohlarni jalb qiluvchi Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi qadimiy shaharlar, tarixiy yodgorliklar, shu bilan birga, ekoturizm bilan bog'liq betakror go'zal tabiat, landshaftlar (sahro, cho'l-adirlar, tog'lar, pasttyokisliklar), xilma-xil noyob o'simlik va hayvonot olami, nodir, dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan arxeologik topilmalar, dunyoda kam uchraydigan geologik kesimlar va shunga o'xshash tabiiy yodgorliklarning 8000 dan ortig'i mavjud. Bu biz yashab turgan o'lka tabiatni ajoyibotlarga boy ekanligidan dalolat beradi.

Yurtimizda sayyoohlarni nafaqat Toshkent, Samarqand, Jizzax, Farg'onaviyoyatining tog'li hududlariga, balki Navoiy, Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi cho'llarga, dala-dashtilarga ham jalb etish mumkin.

Ayniqsa, 1991 yilda tashkil etilgan Navoiy viloyati hududidagi "Sarmishsoy" tabiat bog'i nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo uchun ekoturizm sohasida juda muhim ahamiyat kasb etuvchi o'ziga xos tabiiy-madaniy boylik hisoblanadi. 5-7 ming yil ilgari ajdodlarimiz tomonidan mahorat bilan qoyalarga chizilgan 12 mingga yaqin noyob petrogliflar galereyasi, shuningdek, hududdagi o'simlik va hayvonot olami har qanday kishida katta taassurot uyg'otadi.

Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tashrif buyurayotgan sayyoohlarning 41 foizi (50 yoshdan yuqori) aynan yurtimizning eng xushmanzara hamda tabiiy landshaftlar yaxshi saqlanib qolgan noyob hududlarini ko'rishni xohlashsa, sayyoohlarning 26 foizi esa (25-30 yosh) ekologik muammolar mavjud hududlarga borish istagida ekanliklarini bildirishgan. Ekoturizmni rivojlantirishning yana bir ijobiy tomoni shundaki, unda sayohatchilarga yuqori darajadagi xizmat ko'rsatuvchi mehmonxonalar talab qilinmaydi. Turizmning bu turida an'anaviy hordiq chiqarish va maishiy qulayliklar ikkinchi darajali hisoblanadi. Zero,

tabiatning betakror manzaralarini tomosha qilish uchun maxsus palatka va kempinglarda yashash mumkin. Biroq boshqa tomondan esa ekoturizm yuqori malakali mutaxassisni, ya'ni har bir guruh uchun ekolog, sayyohlarning xavfsizligini ta'minlovchi xodimni talab qiladi. Bundan tashqari, ekologik turlarni taklif etuvchi kompaniyalarning barcha harakatlari tabiatni muhofaza qilish bo'yicha qonunchilik talablari asosida olib borilishi shart.

Shu orinda ta'kidlash kerakki, mamlakatimizning boshqar hududlari singari Navoiy viloyati ham keng ekoturistik salohiyatga ega hamda ushbu sohani rivojlantirish uchun tegishli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Shuningdek, viloyatda ekoturizmni rivojlantirish uchun ham yetarli darajada imkoniyatlar mavjud. Animo, viloyatda dunyoning turli tomonlaridan tashrif buyuradigan sayyohlar e'tiborini jalg qiladigan noyob tog' va cho'l landshaftlari, botanik, geologik ob'ektlardan jamiyat farovonligi yo'llida foydalanilmayapti. Aksariyat sayohat ishqibozlari esa sport turizmiga, alpinizm, chang'i sportiga, otda, suvda va piyoda sayohat qilishga qiziqishlarini inobatga olib bu borada bir necha loyihalar ishlab chiqilgan.

Navoiy viloyati Xatirchi tumani tog'li hududlari bilan yaqindan tanishish istagida bo'lganlar uchun turistlar uchun yangi dam olish bazalari hamda kempinglar ochildi.

Nurota tumanida tog'li hududlarda dam olish maskanlari bilan ikkita yangi «Sentob Tagi jar» va «Sentob Shaxi Mustafo» firmalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Karmana tumanidagi Navoiy - Buxoro avtomagistrallida «Istam Raxim» xususiy firmasi «Parvoz» kempingini ochdi. Konimex tumani (Qizilqum), Adarko'l qirg'oqlarida «Aydar», «Sputnik-Navoiy», «Kizilqum safari» kabi firmalar ekoturizm uchun 35ta vaqtinchalik lagerlarni tashkil etdi.

Ma'lumki, O'zbekiston sayyohlik borasida ulkan salohiyatga ega mamlakatlar sirasiga kiradi. Zero, yurtimizning betakror tabiat, tarixiy osoriatiqalari mahalliy va xorijiy mehmonlarni hamisha hayratga solib kelgan. Bunday ishlarni jadallashtirishda esa huquqiy asoslarning yetarliligi, ekoturizmga mos hududlar kashf etilib, ularda sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilayotganligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi Sentob qishlog'ida Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi granti asosida ekoturizmni tashkil etish borasida yangi loyihani yuzaga chiqarishga kirishildi. "Navoiy viloyatida ekoturizm infrato'zilmasini shakllantirishda oilaviy tadbirdorlikka ko'maklashish" deb nomlangan mazkur loyiha "Madad" nodavlat notijorat tashkiloti hamda "Sentob tagi jar" xususiy firmasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Sentob qishlog'ining tabiatini, chindan ham, o'ziga xos. Bu yerda o'simlik va hayvonot dunyosining noyob turlarini, toshlarga tushirilgan tarixiy yozuv va suratlarni, shifobaxsh buloqlarni uchratish mumkin. Aytaylik, umumiy maydoni 17 ming 752 hektardan iborat "Nurota" davlat qo'riqxonasi esa sudralib yuruvchilarning 21, sut emizuvchilarning 35, qushlarning 107, hasharotlarning 816, o'simliklarning 815 turi mavjud. Ularning aksariyati O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilganligi bois tabiat nazoratchilarini tomonidan qo'riqlanadi.

Qo'riqxonalarin hududidagi qadimda "Sharq sarvisi" nomi bilan atalgan archa daraxti, ayniqsa, boshqa turlardan alohida ajralib turadi. Chunki bu daraxt, asosan, Janubiy Pomir-Oloy tog' tizmalari va Shimoliy Xitoyda keng tarqalgan. O'zbekistonda esa u Surxondaryo viloyatidagi tog' yonbag'irlarida uchraydi. Mutaxassislarining aytishicha, ushbu archaning yoshi 2300 yilga teng.

Bugungi kunda Sentob, uning atrofidagi Sob va Majrum qishloqlarida ekoturizmni rivojlantirishning imkoniyati keng. Loyiha rahbari Tojiddin Qamarovning aytishicha, bu qishloqlardan turib, bir vaqtning o'zida uch xil — tog', suv va cho'l manzarasini kuzatsa bo'jadi. Tog' cho'qqisidagi "Fozilmon" ko'li, atigi o'n besh kilometr uzoqlikda joylashgan Qizilqum cho'li va yigirma kilometr olisdag'i Aydarko'l sayyoohlarni jalb etish barobarida, hududda ishbilarmonlikni kengaytirishga ham xizmat qitadi. Ayniqsa, umumiy maydoni 3 ming kvadrat kilometrdan iborat Aydarko'l baliqchilik xo'jaliklarini tashkil qilish uchun juda qulay.

Navoiy viloyati ekoturizmi deganda, ko'z oldimizda Navbahor tumanidagi besh ming yillik tarixga ega Sarmishsoy qoyatosh suratlari, Nurota tumanidagi «Chashma» majmuasi, Nur qal'asi, Sangijumon darasidagi ajdodlarimizning bundan 5-6 ming yil avvalgi hayot tarzidan «so'zlovchi» toshlar o'rmoni kabi 200 dan ortiq bebaho yodgorliklar gavdalanadi. Shuningdek, Qizilqum sahrosidagi «AYDAR-1», «AYDAR-2» va «KAMEL» kabi sayyoohlilik bazalari tomonidan yaratilgan o'tovlar ko'rinishidagi ekzotik manzaralar dunyoning turli burchaklaridan kelayotgan sayyoohlarni o'ziga maftun etmoqda. Bu mo'jizalarini o'z ko'zi bilan ko'rish inaqsadida viloyatga har yili 7000 dan ortiq xorijliklar tashrif buyurayotgani ham fikrimiz daflidir.

Yurtimizning go'zal tabiatini doimo dunyo hamjamiyati e'tiborini tortib kelgan. Xususan, Navoiy viloyati hududidagi Qoratog'ning yon bag'tida joylashgan Sarmishsoy tabiiy arxeologik majmuua qo'riqxonasi shular jumlasidandir.

Sarmishsoy darasi o'n mingdan ortiq noyob qoyatosh suratlari, arxeologik va madaniy meros yodgorliklari va rang-barang tabiatga ega bo'lgan majmuadir. Uning betakror qoyatosh suratlar galereyasini alohida ahamiyatga ega.

Ajdodlarimiz o'zlarining dunyoqarashi va tasavvurlarini aks ettirgan suratlar bizga ming yillardan meros bo'lib qolgan. Shu sabab ham ko'pchilik bu darani suratlar bitilgan kitob, deb ataydi.


O'tgan asrning 40-yillarida ushbu hududda geologlar oltin konlari borligini aniqlashgan. Mahalliy aholi ham bu tog'larni "Oltintog'", deb atashi bejiz emas.

Bu joy Sarmish deb atalishining ham o'ziga xos sababi bor. Soyning shimoliy qismida katta buloq joylashgan. Aynan bu buloq qadimgi turk xalqlari tomonida "sar-mish", ya'ni suv uchun mo'ljallangan katta mesh ("mesh" — hayvon terisidan qilingan suv idishi) ma'nosini anglatadi.

Sarmish soyi Qoratog' tog'tizimining janubiy yon bag'rida joylashgan. Qoratog' esa Zarafshon tog'tizmasining bir qismi hisoblanadi.

Ushbu hududda 650 turdag'i o'simliklar namunalari bo'lib, ularning 27 tasi endemik hisoblanadi. 47 turi esa qizil kitobga kiritilgan.

Hududdagi iqlimi quruq hamda keskin kontinental deb ta'riflash mumkin, yozda +43 daraja, yanvarda -12 daraja, tog'li joylarda bundan ham past harorat kuzatilgan. Yillik yog'in miqdori 200-400 mm., asosan yomg'ir kuzda yog'adi.



**Sarmishsoy tabliy-arxeologik majmua muzey qo'riqxonasi
yodgorliklari**

Yanvarning o'rtalaridan fevralgacha bir necha bor harorat ko'tarilib keskin tushish holatlari ham kuzatiladi.

Sarmishsoy — O'zbekiston hududidagi eng ko'p va beqiyos qoya tosh rasmlarini saqlab qolgan vodiyydir. Olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, bundan 5-7 ming yil ilgari Sarmishsoyda hayvonlarni xonakilashtirish ishlari olib borilgan va bu qoyatosh suratlarida aks etgan.

Sarmishsoy darasi va uning atrofidagi soylarda 10000 dan ortiq petrogliflar borligi aniqlangan. Rasmlarning asosiy qismi soyning o'rta qismida joylashgan zinch

toshli 22,5 kilometr masofadagi qoyatoshlarga o'yib ishlangan. Tasvirlar kembriy geologik davrida shakllangan qizil va qora rangli qumtoshlar hamda slanesli qoyalarning tik sirtiga, ba'zilari yotiq sirtiga solingan. Shu joyda qadimiy ko'chmanchi va o'troq aholining mozor qo'rg'onlari joylashgan. Bu esa, odamlar ushbu yerga qadimdan har xil diniy marosimlar, bayramlar o'tkazish va ibodat qilish uchun qadam ranjida qilgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Sarmishsoy petrogliflari eng qadimiy uslublarda ishlangan bo'lib, miloddan avvalgi II-ming yillik oxiriga taalluqli arxeologik materiallar orasida yovvoyi buqa, tog' echkisi, arbar va qo'toslarning suyak qoldiqlari ham topilgan. Miloddan avvalgi I-ming yillik arafasida esa bu hayvonlar butunlay yo'qolib ketgan. Ko'rinish turibdiki, Sarmishsoyning hayvonot olami ham nihoyatda boy va xilma-xil bo'lgan.

Sarmishsoyning odamlarni o'ziga ohanrabodek tortadigan yana bir jihat, — bu, uning maftunkor tabiat. Dara, ayniqsa, ko'klam kelishi bilan ajib go'zallik kasb etadi. Binobarin, bu yerda o'simliklarning 62 oilaga mansub 650 turi uchraydi. Ularning ayrimlari O'zbekiston "Qizil kitob"iga kiritilgan noyob, endemik va dorivor giyohlardir.

Hudud bioxilma-xilligini boyitishda hayvonot dunyosi ham muhim o'ringa ega. Xalqaro "Qizil kitob"ga kiritilgan hayvonlardan kapchabosh ilon, echkiemar va burgutlar bilan birga, qora baliq, ko'livor ilon, sariq ilon, uzun oyoqli ssink, jo'rchi, zarg'aldoq, kaklik, bedana, jayra kabi faunaning noyob turlari ham uchraydi.

Tabiiy va madaniy yodgorliklarimizni saqlab qolish va ularni kelajak avlodga o'z holicha yetkazish borasida hukumatimiz tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirda «Sarmish» tabiat bog'i deb e'lon qilingan ushbu tarixiy merosning umumiy maydoni 5000 hektarni tashkil etadi. «Sarmish» tabiat bog'i O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 3 dekabrda qabul qilingan «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi Qonuni asosida nazorat qilinadi. Shuningdek, Sarmishsoy 2009 yil 14 iyulda tabiiy arxeologik muzey kompleksi-qo'riqxonasiga aylantirildi.

Sarmishsoy nafaqat tabiatning beba ho yodgorligi, balki, insoniyat sivilizatsiyasini o'rganish, uning noyob durdonalaridan bahramand bo'lishga xizmat qiluvchi betakror manba sifatida ham alohida qimmatga ega san'at galereyasidir.

2013 yil 4-5 may kunlari «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi, YUNESKOning mamlakatimizdagi vakolatxonasi hamkorligida 2008 yildan buyon an'anaviy o'tkazib kelinayotgan «Asrlar sadosi» festivalining ushbu joyda o'tkazilganligi ham muxim ahamyat kasb etadi.

Sarmishsoy darasining tabiatan qulay joylashganligi, o'simlik va hayvonot dunyosining boyligi, ichimlik suvining mavjudligi qadimgi odamlarning yashashi va turli xil marosimlarni o'tkazishi uchun juda qulay bo'lgan. Buni biz qoyatoshlardagi o'yilgan rasmlardan ham bilib olishimiz mumkin. Barcha rasmlar

qoyatoshlarda qadimgi odamlar tomonidan yaratilgan. Daradagi petrogliflar qadimgi odamlar hayotidan turli xil qiyofa va syujetlarni o'zida aks ettirgan.

Qoyalarda yovvoyi ot, tog' echkisi, to'ng'iz, sayg'oq, arhar, ho'kiz, bug'u, bison, sher, qoplon, leopard, tulki, shoqol, jayron kabi o'sha davning hayvonot olami vakillari tasvirlangan.

Tayanch so'z va iboralar: Buxoro zaminida mavjud qadimiy me'morchilik an'analar, jahon sivilizatsiyasi beshiklari, tabiiy resurslar, Malikrobot karvonsaroyi, Sardoba majmuasi, Qosim Shayx azizon hamda Mavlono Orif Deggaroni obidalari

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Buxoro-Navoiy turistik mintaqasining madaniy, tarixiy va me'moriy yodgorliklarga nimalar kiradi?
2. Buxoro-Navoiy turistik mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish holatini tushuntirib bering.
3. Buxoro-Navoiy turistik mintaqasida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari qanday?
4. Buxoro-Navoiy turistik mintaqasidagi asosiy muammolar nimalardan iborat?


16- MAVZU. XORAZM TURISTIK MINTAQASI

Reja:

- 16.1.Xorazm turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mi
- 16.2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiyalari
- 16.3.Mintaqaning turistik resurslari salohiyati

16.1. Xorazm turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mi

Xorazm viloyati O'zbekiston Respublikasining shimoliy garbida joylashgan.




Yer maydoni 6, 1 ming km² ni tashkil etadi va O'zbekiston hududining 1, 4 foizini egallaydi. Aholining 32, 8 foizi shaharda, 67, 2 foizi qishloqda yashaydi.

Hududi shimoliy-g'arbdan janubiy-sharqqa 280 km, Urganch shahri joylashgan kenglikda g'arbdan sharqqa 80 km atrofida cho'zilgan. Viloyatning eng shimoliy chekka nuqtasi Gurlan tumani Olchin qishlog'i yaqinidagi Nuronbobo to'qayiga to'g'ri keladi. Janubiy chekka nuqtasi esa Tupraqqal'adan bir muncha janubda joylashgan. Xorazm viloyati yer tuzilishi jihatidan ikki qismga bo'linadi. Dengiz satxidan 100-110 m baland bo'lgan katta shimoliy qismga va dengiz satxidan 120-150 metrgacha baland bo'lgan chekka janubiy qismga bo'lish mumkin.

Xorazm viloyatining ma'muriy hududiy birliklariga Urganch shahar va Bog'ot tumani, Gurlan tumani, Ko'shko'pir tumani. Urganch tumani, Xazorasp tumani, Xonqa tumani, Xiva tumani, Shovot tumani, Yangiariq tumani, Yangibozor tumani kiradi. Bular o'z navbatida 101 qishloq fuqorolar yig'ini, 612 aholi punktlari, 3 ta shahar va 7 ta shahar tipidagi shaharchalarga bo'linadi.

Viloyatda 27ta yirik sanoat korxonaları faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib shundan 13tasi engil sanoat



korxonasiiga qarashlidir. Viloyatda tadbirkorlik va xususiy biznesni rivojlantirish dasturiga ko'ra sanoatni qayta jixozlash, kommunikatsiya infratuzilmasini rivozlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada yaxshilash va ularning qayta ishlashini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish soxasini hamda sayyoqlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Xozirgi vaqtida viloyatda 39 ta zamonaviy mexmonxonalar faoliyat olib bormokda.

Avtomobil yo'llarining uzunligi 2296 kilometri, shundan qattiq qoplamli yo'llar 2218 kmni tashkil qildi. Viloyatda xalqaro klassdagi ayeroport bo'lib, hozirda turli yo'nalishlar bo'yicha havo yo'llari bilan bog'langan. Xorazm viloyati orqali Toshkent—Moskva, Dushanba—Moskva temir yo'l o'tgan, Urganch—Toshkent yo'nalishida poyezdlar qatnaydi. Amudaryo ustiga qurilgan Hazorasp temir yo'l ko'prigi ishga tushirilib (Hazorasp yaqinida. 2004), Hazorasp—Miskin—Toshkent temir yo'l masofasi qisqardi. Xiva—Urganch yo'nalishida trolleybus qatnovi (1997 y.dan) yo'lga qo'yilgan. Urganch shahar xalqaro va mahalliy yo'nalishlar aeroportlaridan xorijiy davlatlar (shu jumladan, Parij, Tokio, Myunxen, TelAviv, Moskva, Simferopol va b.) shuningdek, Toshkent, Nukus va boshqa shaharlar bilan imtazam aviatsiya aloqasi o'rnatilgan.

Xorazmning boy ko'p qirrali tarixi qadim zamonlardan buyon xorijiy va yurtdosh olimlarning diqqatini o'ziga jaib qilib keladi. Viloyat hududida ko'plab tarixiy yodgorliklar mavjud. Ayniqsa, Xiva shahridagi me'moriy obidalar bugun dunyo ahlining e'tiborini tortib kelmoqda.

Xorazm viloyati mustaqil o'zbek davlatchiligin qayta tiklash, istiqlolimizni mustahkamlash, yurtimiz salohiyatini yanada oshirish, milliy qadriyatlarni ko'z qorachigidek asrash va boyitish, yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash ishiga qo'shgan hissasi uchun 2003 yilda Vatanimizning yuksak mukofoti - Jaloliddin Manguberdi ordeni bilan taqdirlangan.

Ma'lumki, Xorazm diyori dunyo sivilizatsiyasining eng qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Olimlarning xulosalariga ko'ra, milliy davlatchiligidan asoslari ham dastlab mana shu yerda yaratilgan. Xalqimiz manaviyatining noyob yodgorligi bo'lgan «Avesto» kitobi ham Xorazm tuprog'ida yaratilgani bugungi kunda ko'pchilikka yaxshi ma'lum. «Xorazm» so'zi ham ilk bor ana shu noyob kitobda uchraydi. Xorazm so'zi forscha «xvar» - quyosh va «azm» - o'lka, yer, yurt so'zlarining birikmasidan kelib chiqqan bo'lib, «quyoshli o'lka» degan ma'noni anglatadi. Qadimda bu zaminda massaget, sak, apasak, os, dax kabi urug' va qabilalar yashagan. Bu ko'hna zamin dunyoga algebra, algoritm kabi fanlarga asos solgan Muhammad Muso Xorazmiy, Kristofor Kolumbdan besh yuz yil oldin Atlantika ummoni ortida quruklik, noma'lum qit'a borligini aytib, yerning aylana shakldagi haritasini yaratgan Abu Rayhon Beruniy, arab tilining mukammal qonun-qoidalari ishlab chiqqan, butun musulmon olamida Jorilloh, ya'ni Ollohnning

qo'shnisi degan nomga sazovor bo'lgan Mahmud Zamahshariy singari allomalarini berган. Xorazm viloyati Paxlavon Mahmud, Sulton Uvays, Nosiruddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Bahouddin Valad va uning buyuk o'g'li Jaloliddin Rumiy, Abulqosim Ali Xorazmiy, Ismoil Jurjoniy, Sirojiddin Sakkokiy, Munis, Bayoniy, Chokar, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov singari ko'plab mutasakkir, ilm-fan va san'at namoyandalarining vatani hisoblanadi.

Aholisi, asosan, o'zbeklar (96,3%), shuningdek, turkman, rus, qozoq, tatar, koreys, qoraqalpoq va b. millat vakillari ham yashaydi. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 231,6 kishi.

Viloyatda 36 qo'shma korxona va ularning filiallari ishlab turibdi. O'zbekiston — Turkiya "Bagat Tekstil", "Xorazm—Nurtop", "Semurg-SanTe", "Xorazm Tekstil", "Memgilam"; O'zbekiston — AQSH "Amerozindustriyes", "Xiva malikasi", "Nurlayt", "Rahnamo Hyp"; O'zbekiston — Germaniya "Unixo", "O'zOlmonXotelz", "Xiva Karpet"; O'zbekiston — Britaniya "Xiva"; O'zbekiston — Rossiya "Namuna Agrofud"; O'zbekiston — Italiya "Meva"; O'zbekiston — Ukraina "Kiyev Xorazm"; O'zbekiston — Xitoy "Aziya Tekstil LTD"; O'zbekistan — Turkmaniston "G'ayrat Xumoyun" va b. shular jumlasidandir.

Xorazm viloyatida Xiva davlat "Ichon sal'a" tarixiy me'morlik muzeyqo'rikxonasi va uning filiallari, 424 jamoat kutubxonasi (5 mln. asar), 302 klub muassasasi, madaniyat uylari va madaniyat saroylari, 10 ga yaqin madaniyat va istirohat bog'i, Xorazmiy, Beruniy, Jaloliddin Manguberdi, Avesto yodgorlik bog' majmualari, "Orazibon", "Avazxon", "Doston" folkloretnofafik xalq dastalari, "Muborak", "Yulduz", "Navbahor", "Xiva naqshlari" ashula va raqs dastalari, milliy dorbozlar guruhi, ko'plab badiiy havaskorlik jamoalari bor. Ogahiy nomidagi viloyat musiqali drama va komediya teatri, viloyat qo'g'irchoq teatri (Xiva sh.da) ishlab turibdi.

Xorazmda qadimdan dostonchilik rivojlangan. Xalq an'anaviy dostonlari baxshilar orqali og'izdan-og'izga o'tib sayqallangan. "Avazxon", "Bozirgon", "Sayyodxon va Hamro", "Qorako'z Oyim", "Gulruh pari", "Shobaxrom", "Zavriyo", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Yusup Ahmad" kabi dostonlar Xorazm xalq og'zaki ijodining nodir boyligidir. Xorazm xalq dostonlari hajmi boshqa o'zbek xalq dostonlariga qaraganda kichikligi, shu bilan birga musiqaviyligi bilan ajralib turadi. Xorazmda doston kuylovchilarni baxshi deb atab kelganlar.

16.2. Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiyalari

Xorazmning boy ko'p qirrali tarixi qadim zamonalardan buyon xorijiy va yurtdosh olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib keladi. Viloyat hududida ko'plab tarixiy yodgorliklar mavjud. Ayniqsa, Xiva shahridagi me'moriy obidalar bugun

dunyo ahlining e'tiborini tortib kelmoqda. Bu yerda Ark, Kaltaminor, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Dishanqal'a yodgorliklari alohida ajralib turadi. Xivadagi Ichanqa'la yodgorlik majmui esa YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Sharq durdonasi bo'lgan qadimiy Xiva shahrining 2500 yilligi 1997 yilda xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Xorazm viloyati mustaqil o'zbek davlatchiligin qayta tiklash, istiqlolimizni mustahkamlash, yurtimiz salohiyatini yanada oshirish, milliy qadriyatlarimizni ko'z qorachigidek asrash va boyitish, yosh avlodni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash ishiga qo'shgan hissasi uchun 2003 yilda Vatanimizning yuksak mukofoti - Jaloliddin Manguberdi ordeni bilan taqdirlangan.

Bugungi kunda vohada turizm sohasini rivojlantirish uchun ham talay ishlar amalga oshirildi va bu ish xozirda ham davom etmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "Xorazm viloyatida 2013-2015 yillarda sayyoqlik sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qaromi imzoladi. Ushbu hujjat Xorazm viloyati sayyoqlik salohiyatidan foydalanishni yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish, xorijiy va mahalliy sayyoohlarning hududdagi noyob tarixiy-madaniy va me'moriy yodgorliklar bilan keng qamrovda tanishishi uchun yanada qulay sharoit yaratish maqsadida qabul qilingan.

Sayyoqlik sohasini rivojlantirish dasturi turizm infratuzilmasini rivojlantirish, sayyoqlik inshootlarini barpo etish va rekonstruksiya qilish, sayyoqlikning transport infratuzilmasini taraqqiy ettirish, hududdagi turistik marshrutlar va xizmatlarni takomillashtirish, sayyoqlikning yangi yo'nalishlarini, mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Xorazmda sayyoqlikn rivojlantirish orqali 2015 yilgacha turistik xizmatlar hajmini 4,9 marta, eksportni 3,8 barobar, sayyoqlar sonini esa 1,7 marta va inehmonxonalaridagi o'rnlarni 1,7 baravar oshirish ko'zda tutilgan. Dastur doirasida viloyatda umumiyl qiymati 86,76 million AQSH dollariga teng 118ta loyiha amalga oshiriladi. Buning uchun mahalliy korxonalar va tashkilotlar 28,502 million dollar mablag' ajratadi. Tijorat banklari tomonidan esa 25,108 million dollarlik kredit, 12,5 million dollarlik chet el sarmoyasi va 2,925 million dollarlik grant ajratiladi. Shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasi tomonidan 4,243 million va davlat byudjetidan 13,482 million AQSH dollarlik mablag' ajratiladi.

Xususan, dastur doirasida Xiva shahrini rivojlantirishning bosh rejasি qabul qilinadi. Qarorda ta'kidlanishicha, iyun oyida barcha madaniy yodgorliklar va sayyoqlik inshootlarida ko'rsatkichlar va yagona namunadagi axborot stendlari o'rnatiladi.

Dastur doirasida sayyoqlar uchun mo'ljallangan kamida 50ta transport vositasini sotib olish, ular uchun park va texnik xizmat ko'rsatish bo'limi tashkil etish rejalashtirilgan.

Xabarlarga qaraganda, Toshkent, Samarcand va Buxorodan Urganchga, qatnaydigan poyezdlar harakatlanish chastotasini haftasiga uch marotabagacha oshirish ko'zda tutilmoqda. «O'zbekiston temir yullari» davlat aksiyadorlik temir yo'il kompaniyasi Urganch-Buxoro-Qarshi-Termiz yo'nalishi bo'yicha haftasiga ikki martadan kam bo'limgan chastotada harakatlanadigan yangi marshrutni ochadi.

Dastur doirasida Buxoro-Urganch (sayyohlik mavsumida har kuni), Parij-Urganch va Milan-Urganch (mavsumda haftasiga ikki marta) va Frankfurt-Urganch (haftaning turli kunlarida) yo'nalishida aviaqatnov yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan. «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi sayyohlik mavsumida Urganchdan Farg'onaga, Termizga, Qarshiga, Samarqandga va boshqa shaharlarga aviaqatnovni yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda. Kompaniya 2014 yilda Urganch orqali Janubiy-Sharqiy Osiyo, Yevropa Ittifoqi, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va Rossiya shaharlariga qatnaydigan xalqaro aviareyslarni ochadi.

Xorazm viloyatida yangi mehmonxonalar barpo etish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish mo'ljallanmoqda. Hujjat 2013-2015 yillar davomida viloyatdagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni ta'mirlash va holatini yaxshilash bo'yicha manzilli ro'yxatni tasdiqladi. Manzilli dastur doirasida hududda jami qiymati 17,063 million AQSH dollarlik 35ta loyiha amalga oshiriladi. Loyiha tashabbuskorlari buning uchun 6,785 million dollar ajratadi. Tijorat banklari tomonidan 7,778 million dollar hajmdagi kredit va 2,5 million dollar chet el sarmoyasi ajratiladi.

Mustaqillik davrida Prezidentimiz tashabbusi bilan tarixiy obidalarni qayta tiklash va ta'mirlash borasida Xorazm viloyatida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, Prezidentimizning yaqinda qabul qilingan Xorazm viloyatida 2013-2015 yillarda turizm sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risidagi qarorini alohida ta'kidlash lozim. Qarorda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilandi.

Xususan, 2015 yilga borib turistik xizmatlar ko'rsatish 2012 yilga nisbatan 4,9 barobar o'sishi ko'zda tutilmoqda, turizm xizmatlarining eksporti 3,8 barobar, turistlar soni 1,7 barobar, mehmonxonalar soni 1,8 barobar o'sishi ko'zda tutilgan. Xorazm viloyatida 2013-2015 yillarda turizm sohasini rivojlantirish dasturiga muvofiq turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turistik marshrutlarni hamda xizmatlarini takomillashtirish, turistik potensialni taqdimot qilish bo'yicha tadbirlar o'tkazish, turistlar uchun infratuzilmani yanada yaxshilash, turizm sohasida mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, matakasini oshirish kabi vazifalar belgilangan.

Ushbu Dasturga muvofiq Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida joylashgan "Hazorasp qal'asi" negizida turistik kompleksni tashkil etish, jumladan, 600 kishiga mo'ljallangan ochiq amfiteatr, qal'a atrofida yo'lovchilar uchun yo'lak tashkil etish,

sharq bozori va hunarmandlar rastasini ta'mirlash, yonidagi ko'lni obodonlashtirish, qadimiy "Hazorasp qal'asi" muzeyini tashkil etish, unda arxeologik topilmalar, qadimiy rasm va ashycolarni namoyish etish hamda qal'aga boruvchi avtoyo'lni joriy ta'mirlash ko'zda tutilgan. Bundan tashqari Xorazm viloyatida 2013-2015 yillarda tarixiy-madaniy ob'ektlarni restavratsiya qilish va ahvolini yaxshilash bo'yicha tasdiqlangan manzilli Dasturda "Hazorasp qal'asi" devorlarini tiklash ham ko'zda tutilgan.

Umuman olganda, Dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishda Davlat byudjeti, tashkilot va muassasalar mablag'lari, tijorat banklarining kreditlari, chet el investitsiyalari, grant mablag'lari va Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari ko'zda tutilgan.

Xorazm viloyatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Prezidentimiz qarorlari hamda ana shu asosda amalga oshirilayotgan ishlardan aholi tomonidan mammuniyat bilan kutib olindi. Ushbu ishlarda ular faol ishtirok etmoqdalar. Xususan, viloyatning har bir tumanida dam olish kunlari shaharlarni obodonlashtirish uchun hasharlar uyushtirilmoqda, kam ta'minlangan odamlarga moddiy va ma'naviy yordam berish bo'yicha xayriya ishlari olib borilmoqda.


Viloyatda iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri turizm hisoblanadi. Ushbu sohani yanada rivojlantirish maqsadida viloyat hokimining 2010 yil 24 fevraldagagi 87-sonli «Viloyatda turizmni rivojlantirish bo'yicha 2010 yilga mo'tjalangan tadbirlar Dasturi to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

16.3. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati

O'rta asrlarda Xiva allomalarning shahri bo'lgan. Bu yerda yirik fan markazlari faoliyat yuritgan – astronomiya, matematika, tibbiyot rivojlangan, buyuk olimlar Abu Rayhon Beruniy, Abu 'Ali ibn Sino (Avitsenna) yashagan va ijod qilgan. Shoh Ma'mun ibn Muhammad huzurida o'rta asrlarning eng yirik Sharq olimlari ishlagan, ular «Ma'mun Akademiyasi» ni tashkil qilganlar. Sharqda mashhur bo'lgan XIX asr shoirlari Shermuhammad Munis va Ogahiylar bu yerda o'z asarlarini yaratganlar. Shahar «Xorazm vohasining durdonasi» nomiga sazovor bo'lGANI bejiz emas.

O'zining gullab-yashnagan davrida Xorazm davlati xalqaro savdoning eng yirik markazi, Buyuk Ipak yo'llining asosiy ahamiyatga ega bo'lgan qismi edi. Bu yerga Volgabo'yidan, Hindiston, Eron davlatlaridan savdogarlar kelar edi, savdo karvonlari bu yerdan Yaqin Sharqqa, Sharqiy Turkiston va Xitoyga ketar edi. Xivadan turli-tuman savdo yo'llari Mo'g'ulistoniga, Qozog'iston dashtlari orqali Volga irmog'idagi skvdo shahri bo'lgan Saksin shahriga, undan rus knyazliklari va

Yevropaga olib borar edi. Arxeologlar qadimiy karvon yo'llarining yangi-yangi



Ota Darvoza

yo'nalishlarini, jumladan, Xorazmdan Mang'ishloq tomonga va u yerdan dengiz orqali Quyi Volgabo'yiga yo'nalishlarni ochmoqdalar. Bu xivalik savdogarlar Markaziy Osiyo davlatlarining Sharqi Yevropa bilan olib borgan savdosining katta qismini o'z qo'llariga olganligidan dalolat beradi.

Xiva — muzey-shahar, lekin Rim shahri

kabi aholi yashaydigan shahardir. Sharqning ko'pgina shaharlari kabi Xiva Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Xeyvak nomli suv havzasi yonida barpo etilgan bo'lib, Xorazm vohasining sug'oriladigan yerlarida rivojlanib kelgan.

Buyuk ipak yo'llining markaziy shaharlardan biri bo'lmish Xivani tomosha qilish uchun Xorazmga tashrif buyursangiz albatta "Ichan qal'a"ni kesib o'tishingizga to'g'ri keladi. Bu ko'xna shaharning sharqona ruxini his qilish uchun uning bozorlarini, milliy xunarmandchilik saboqlari o'tkaziladigan maxsus maktablari-yu, chalkash tor ko'chalarini aylanib ko'rishingiz mumkin.

1984-1993 yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida shaharning yoshi aniqlangan. Arxeologik qazishmalar natijasiga ko'ra, "Ichan qal'a" hududi eramizdan avvalgi V asrda paydo bo'lган. Bundan kelib chiqadiki shaharning paydo bo'lganiga 2500 yildan ortiq vaqt o'tgan.

Bularning hammasi YUNESKO tashkilotiga Xivani qo'riqxona ahamiyatidagi shahar deb e'lon qilishga, shaharning ichki qismi bo'lgan Ichan-qal'ani esa jahon ahamiyatidagi tarixiy yodgorlik deb e'tirof etishga asos bergan. «Avesto» kitobi Xorazm to'g'risida tarixiy ma'lumotlar beradi. «Tarixning otasi» deb sanalgan Gerodot Xorazm va xorazmliklar to'g'risida gapirib o'tgan edi. Beruniy esa Xorazmdagi qadimiy dehkondchilik to'g'risida hikoya qilgan.

Xiva — tarixiy qurilish, butunligicha bino va inshootlar, aslida ochiq havodagi butun bir shahar amalda tarixiy holida saqlanib qolgan dunyoning bir nechtagina shaharlardan biridir.


XIX asrga kelib shahar kengaydi, u ikki qismdan, Ichan qal'a yani shahriston (ichki shahar) va Deshon qal'a rabot (tashqi shahar) qurildi. Shahar atrofida esa o'nlab qishloqlar joylashgan edi. Shahar savdo karvonlari uchun katta ahamiyatga ega shahar bo'lgan. Metropol vazifasini o'tash bilan bir qatorda Xiva shaxri diniy, madaniy va ilmiy markaz vazifasini ham o'tagan. Xozirgi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan ichki qal'a devorlari orasidagi "Ichan qala" eski shahar majmuasi ko'p sonli masjid, madrasa, minoralari va to'rtta darvozasi bilan Yuneskoning butun jaxon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

“Ichan qala” shaharning bosh darvozasi, shimoliy darvozadan boshlanadi, u eramizning XVII-XVIII asrlarida qurilgan bo‘lib xalq orasida **Ota Darvoza** deb yuritiladi.


Ota darvoza sizni eramizmizning XIX-asrida qurilgan Muhammad Amin-xon madrasasiga olib chiqadi. Madrasa xozirgi kunda mexmonxona vazifasini o’taydi.

Go’zal tarixiy obida yonida eramizning 1855 yillariga oid qurilishi tugallanmagan moviy minora “**Kalta minor**” joylashgan. So’ng siz Xon qarorgoxini, eski qo‘rg‘on, masjid, qabullar uyi, haram, zarbxona, qurol-yarog‘ ombori va xibsxona (zindon)ni o‘z ichiga olgan Ko‘xna ark tomosha qilishingiz mumkin. Ko‘xna ark eramizning XII-XXI to‘liq kompleks sifatida shakllangan ammo uning haqiqiy yoshi Xivaning paydo bo‘lish davri bilan tenglashtiriladi. Eski shaharning butun go‘zalligini tomosha qilish uchun taxt joylashgan zal orqali kuzatuv minorasiga ko‘tarilish lozim.


Ko‘xna ark darvozasi ro‘parasida **Muhammad Raximxon madrasasini** ko‘rishingiz mumkin, madrasadan Xon Rus bosqinchisi General Kaufmanga taslim bo‘lib Ichon-qal’ani tark etgunga qadar foydalanilgan. Xon mashxur shoir bo‘lgan, u Peruz taxallusi bilan ijod qilgan.




Muhammad Raximxon madrasasi



Said Aloviddin Maqbarasi



Kalta minor



Paxlavon Maxmud maqbarasi

Xozirgi kunda madrasa uncha katta bo‘limgan adabiyot va Xorazm tarixi muzeyi vazifasini o’taydi.

Musulmonlarning yana bir mashxur ziyoratgoxi maftunkor moviy gumbaz va naqshlar bilan bezatilgan **Paxlavon Maxmud maqbarasidir** (ye. XIV-XX-a.).

Paxlavon Maxmud (ye. XIV-a.) mashxur kurashchi, shoir, faylasuf va teri ustasi

bo'lgan. Uning maqbarasi yonida bir necha xonlarning va ularni oilalarining xonaqlari joylashgan. Asta-sekin Pahlavon Mahmudning go'ri atrofida xonlar urug'iga daxldor kishilarning go'rlari joylashgan mozor yuzaga keldi, keyin esa maqbaraga tegishli inshootlarning yirik majmuasi barpo etildi. ular yozgi va qish mavsumidagi masjidlarni, ma'rakalar uchun mo'ljallangan inshootni va Qur'on o'qish xonalarini o'z ichiga oladi.

So'ngra siz 1718-20 yillarda Forsiy (yeronlik) harbiy asirlar tomonidan qurilgan Sherg'ozi Xon maqbarasi bilan yuzma-yuz kelasiz. Madrasa o'sha davrda O'rta Osiyoning eng nufuzli oliy o'quv dargoxlaridan biri bo'lgan shu sababli bu yerda madrasada Osiyoning ko'plab mamlakatlaridan talabaflar o'qishgan.

Navbatdagi arxitektura yodgorligi Jome' (Juma) Masjiddir ushbu bino 200 tadan ortiq o'ymakor ustunlar va minoraga ega (ye. 10-18-a.). ba'zi ustunlar 16-asrga oid bo'lib Xivadan tashqaridan keltirilgan. Masjidni rejalashtirish zamirida X—XII asrlarda yaratilgan konstruksiyalar yotgan, deb hisoblashadi. Ichangal'adagi Juma masjidi ham XVII asrinng oxirida qayta qurilgan, lekin u Sharqning klassik inshootlarining qator xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan. Bu o'ziga xos bir qavatli binoning old kirish portallari, gumbazlari va dumaloq arkalari yo'tq, u eramizning X- XVII asrlarida yaratilgan 213 dona yog'och naqshinkor ustunlarga tayanadigan yassi tomlı ulkan zaldir.


Masjid yonida Islom Xo'ja maqbarasi va minorasi joylashgan, xozirgi kunda minora shaharning eng baland inshooti hisoblanadi (57 m). Shaharning ko'rinishini temosha qilish uchun tor qerong'u yo'lakdan o'tish lozim. Madrasa ichida qadimiy Xorazm xunarmandchiligini namunalarini

namoyish qiluvchi o'ymakorlik san'ati muzeyi joylashgan. Islom Xo'ja Xonning vaziri va buyuk isloxitchi bo'lgan. U xonlikka telegrafni kiritgan ilk yangi usul (rus) maktabini hamda zamонавије kasalxona qurdirgan, ushbu maussasalar xozirga qadar faoliyat yuritadi.


Madrasa ro'parasida siz eski **Rus maktabini** ko'rishingiz mumkin, mazkur maktab 1910 yilda



Islom Xo'ja maqbarasi



Nurillaboy majmuasi



Jome' (Juma) Masjidi

qurilgan. Xorazm ilk suratkashi X. Devonov tomonov olingen suratlar va asboblar maktab binosida saqlanadi.

Tosh Xovli yirik qasr bo'lib ko'proq saroyni eslatadi, qasr 1832-1841 yillarda Olloquli Xon tomonidan qurilgan bo'lib Xivaning asosiy diqqatga sazovor joylaridan hisoblanadi. Saroy devorlari moviy rangli naqshinkor plitalar va yog'och o'ymakor ustunlar bilan bezatilgan yuztadan ortiq xonalarga ega.



Said Moxi Ruyi Jaxon
Mavzoley majmuasi

bilan tanishish maqsadida tor ko'chalarini aylanib chiqishingiz va mahalliy turmush tarzi bilan tanishishingiz mumkin. Ichon qal'a ichkarisida 2000 ga yaqin odam yashaydi. Tor ko'chalar bo'ylab sayoxat sizga tandirda yangi yopilgan non xidini, ta'mani tuyish imkonini beradi.

Nurillaboy majmuasi 1893-1904-yillar oraliq'ida Xiva Xoni Muhammad Raxim-Xon II tomonidan o'g'li shaxzoda Isfandiyor xon sharafiga qurdirilgan. Otasining o'llimidan so'ng Isfandiyor xon xorijlik mexmontarni qabul qilish uchun qo'shimcha qasr qurdirgan. Bu qasr Xivadagi xonlar qarorgoxlaridan o'zining dizayni va arxitekturasi bilan tubdan farq qiladi.

Qasr qurilishida Sharqona va Yevropacha uslub aralashgan. Barcha xonalar bir-biridan tubdan farq qiladi. Rus uslubidagi kamin, katta keng oynalar va sharqona uslubda geometrik naqshlar va gullar bezalgan turfa rang shifslar. Qasming balanda eshik va oynalari Nemis duradgorlari tomonidan yasaqlan.

Nemis Mennonitlari qabilasi Xonligi xududida Oqmachit qishlog'ida yashashgan (Xozirgi kunda Yangiariq tumani).

«Qibla toza bog» 1897 yilda Muhammad Raxim-Xon II tomonidan qurilgan.

Obida 120x50m maydonni egallagan baland devorlar bilan o'ralgan ansamblidir. Majmua tarkibi ikki qavatlari qasr, ikkita masjid, madrasa, otxona, tegrimon va boshqa xo'jalik binolaridan iborat uchta xovlidan tashkil topgan. Asosiy xovli markazida xovuz va manzarali daraxtlar bilan bezatilgan bog' joylashgan. Bu qasr ham Nemis-mennonitlar qabilasi duradgorlari tomonidan sayqal berilgan. Xozirgi kunda majmuaning ba'zi xonalari restoranga aylantirilgan.

Xusayn Muhammedboy madrasasi Ichon-qal'aning sharqiy darvozasi Polvon Darvozada joylashgan. Madrasa 1905 yil boy savdogar Xusayn Matmurodov tomonidan qurilgan. U Jadidchilik harakati namoyondalaridan biri

bo'lgan. Jamiyatdagi o'rni va boyligiga qaramay u feodalizmga qarshi kurashgan. Shu sababli Junaid Xon tomonidan o'ldirilgan. 2013 yilda madrasa restovratsiya qilingan va Xorazm milliy taomlari restorani sifatida foydalaniadi.

Said Moxi Ruyi Jaxon Mavzoley majmuasi. Majmua Said Muhammad Xon tomonidan 19 asrda Chodirli Eshon qabri ustiga qurdirilgan. Obida uchta binodan iborat bo'lib, asosiy maqbarada bir nechta Xiva Xonlari dafn qilingan ulardan biri Muhammad Raxim-Xon II va uning nabirasi Temurg'izi to'ra. Qabr toshlari movi mozaika bilan bezatilgan.

Turkman qal'a «Ulli xovli» 1640-1694-yillarda axoli turar joylari sifatida qurilgan tarixiy qal'adir. Qal'aga 1600-yillar o'rtalarida turkmanlar ko'chimanchi o'rtoqlashishi natijasida asos solingenan. Asosiy qal'adan tashqari Oshoq ovva va Yuqori ovva deb atalgan qal'alar ham bo'lgan ammo ular xozirgi kunga qadar saqlanib qolmagan.

Ulli Xovli Xiva xonligi xududida yashagan turkman qabilalarini madaniyatni va turmush tarzini namoyish qiluvchi eng qadimiy obidalardan.

Chodra Xovli Xivaning sharqiy tomonida shahardan 11 km uzoqlikda Yangiariq yo'li bo'yida joylashgan. O'ziga xos shaklga ega bu bino 1871 yili Muhammad Raxim-Xan tomonidan yozgi qarorgox sifatida qurdirilgan.

To'rt qavatli 30 metrli bino o'ziga xos dizayni bilan minorani eslatadi. O'zgacha dizayndan tashqari bino nisbatan kichik asosga ega ya'nii 16mx8m. Yerto'lada otxona va ikkita omborxona joylashgan. Birinchi va ikkinchi qavatlar xona vazifasini o'tagan.

Qalajiq qal'aga eramizdan oldingi IV asrda asos solingenan. Qal'a asosan ximoya inshooti sifatida qurilgan. Qal'a kim tomonidan qurdirilganligi to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Afsonalarga ko'ra qal'a tarixda o'chmas iz qoldirgan sirli shaxslardan biri Sulaymon Payg'ambar tomonidan otasi Dovud Payg'ambar sharafiga qurilgan.

Qal'a yonida ko'l joylashgan bo'lib, suvining tarkibi jixatidan o'lik dengiz suvlari tarkibiga yaqin va foydali xossalarga ega. Ko'l atrofidagi qum barxanlari ham foydali xususiyatlari bilan mashxur.


«Sulaymon qal'a» qadimiy Xorazmning eng ko'xna qal'alaridan biridir, tarixiy obida Xazorasp tumanida joylashgan. Xazoraspning tarixi eramizdan oldingi V asrga taalluqlidir, kal'a o'sha zamonlarda yashagan xukmdorlarning qarorgoxi bo'lgan. Qal'a devorlari xozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Qal'a xavfsizligini ta'minlash maqsadida obida ko'l bilan o'ralgan. Mahalliy axoli bu ko'lni Oydin ko'l deb ataydi uning o'ziga xos



Qalajiq qal'a

jixati shundaka, ko'l chuchuk chuv bilan to'yintiriladi. Tarixiy manbalarga ko'ra ko'l ostida yer osti yo'li joylashgan. Qal'aning eng yuqori tepaligidan astronomik kuzatuvlar uchun foydalaniłgan.

Shuningdek Xorazm vohasida ekoturizmni rivojlantirish uchun ham yetarli darajada imkoniyatlar mavjud. Xorazm viloyatining iqlimi keskin kontinental, yoz oylarida harorat +40 °S gacha ko'tarilishi mumkin. shunga qaramay viloyat xududidagi ekin yerlari yuqori hosildorlikka ega chunki, ichimlik va sug'orish suvlarining asosiy manbai bo'lmish Amudaryo butun xudud bo'ylab oqib o'tib, yerning sho'rini yuvadi va uning tarkibini yaxshilaydi. Bu jixatdan Xorazmning yozgi iqlimini Misr iqlimi bilan solishtirish mumkin, buni ko'plab xorijiy sayyoxlar e'tirof qilishmoqda. Qishda harorat -30 gradusgacha pasayadi, yog'ingarchilar kuzatiladi va kuchli quruq shomaol esadi



Amudaryo bo'yida soxil o'simliklarining o'zziga xos turlarini uchratish mumkin, bu kichik o'rmonlar to'qayzorlar deyiladi. To'qayzor o'rmonlar yovvoyi to'ng'iz, buxoro bug'usi, Eron

bug'usi, mallarang tulki, shoqol, qo'ng'ir quyon ko'plab qush turlari uchun muxim yashash muxiti hisoblanadi. To'qayzoming asosiy daraxtlari Gujum, Baqaterak, Sharq jiydasi, Jingil va Yulgundir.

Xususan, issiq yoz oylarida daryo bo'yini mikroiqlimi juda yoqimli. Mahalliy axoli orasida Amudaryo va uning yon kanallari bo'yidagi to'qayzorlar yozgi dam olish maskanlari sifatida juda mashxur.




Bu o'ziga xos ekotizimdan baxramand bo'lish uchun, ko'p yillik Terak va gujumlar ostida dam olish va o'tovlarda tushlik qilish yoki ikki qavatli kemada Amudaryoni aylanib chiqishingiz mumkin. bundan tashqari daryo bo'larida baliq ovi ham yo'lga qo'yilgan.

Amudaryo bo'yida ikki qavatli kemada sayoxatlar yo'lga qo'yilgan. Sayoxat davomida kema bortida yangi tutilgan baliqlardan tayyorlangan taomlar tortiladi.

Shuningdek, ayni shu atrofda paxtazor yerlar joylashgan bo'lib bu yerda mexmonlar qishloq xo'jaligi tajribisi bilan tanishishdan tashqari, paxta terish va tandirda non yopish jarayonini kuzatishlari va ishtirok etishlari mumkin. Kunning oxirida issik kulcha va bir piyola choy ustida folklor spektaklini tomosha qilishingiz mumkin.

Xorazm milliy oshxonalarida vohaning o'ziga zos taomlari tayyorlanishi bu yerda gastronomik turizmini rivojlantirish mumkinligi dan dalolat beradi.



O'zbek milliy taomlarini tayyorlanish jarayoni va ovqatlanish madaniyati juda uzoq tarixga ega va xalqning ko'p yillik tajribasiga asoslanadi. Urf-odat va an'nalar xududning iqlim sharoitidan va mahalliy axolining turmush tarzidan kelib chiqqan xolda shakllangan. Har bir xudud axolisi milliy taomlar tayyorlash borasida o'z uslubiga ega. Ayniqsa Xorazm viloyati o'zining taomlari va ularni tayyorlashning maxsus uslubi bilan mashxur. Har bir taom o'zining maxsus ta'miga ega ayniqsa, "Xorazm palovi", "Tuxum barak", "Ushoq barak", "Shivit oshi", qovurilgan baliq va boshqalar. Xorazm milliy taomlari O'zbekistonning boshqa xududlarida tayyorlanadigan taomlardan farq qiladi.

Tayanch so'z va iboralar: tabiiy resurslar, tarixiy obidalar, turizm xizmatlari, iqtisodiyotni rivojlantirish, turizm, xalqaro savdo, mehmonxonalar, turistik xizmatlar ko'rsatish, turizm xizmatlarining eksporti.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Xorazm turistik mintaqasining madaniy, tarixiy va me'moriy yodgorliklarga nimalar kiradi?
2. Xorazm turistik mintaqasida xalqaro turizmnинг rivojlanish holatini tushuntirib bering.
3. Xorazm turistik mintaqasida ekoturizmi rivojlantirish imkoniyatlari qanday?
4. Xorazm turistik mintaqasidagi asosiy muammolar nimalardan iborat?

17- MAVZU. FARG'ONA TURISTIK MINTAQASI

Reja:

- 17.1. Farg'ona turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mi
- 17.2. Farg'ona turistik mintaqasida turizmning rivojlanish tendensiyalari
- 17.3. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati

17.1. Farg'ona turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'mi

Farg'ona vodiysi deganda uch viloyat ya'ni, Andijon, Namangan hamda Farg'ona viloyatlari kiradi.

Farg'ona viloyati — O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1938-yil 15-yarvarda tashkil etilgan. Respublikaning sharqida, Farg'ona vodiysining janubida joylashgan. Shimoldan Namangan, Andijon viloyatlari, janub va sharqdan Qirg'iziston, g'arbdan Tojikiston Respublikalari bilan chegaradosh. Maydoni 6,8 ming km². Tarkibida 15 tuman, 9 shahar, 10 shaharcha, 164 qishloq fuqarolari yig'ini bor. Markazi — Farg'ona shahri.

Farg'ona viloyatining shimoliy qismini Qoraqalpoq va Yozyovon dashtlari egallagan, janubdan Olay tizmasidan oqib tushadigan daryolarning yoyilmalari bilan o'rالgan. Farg'ona viloyati yuqori seysmik zona qisobtanadi. Iqlimi kontinental. Qishi birmuncha yumshoq, ba'zan havo juda sovib ketadi. Yanvar oyining o'rtacha harorati — 3,2 S, iyulniki 28 S. Eng past harorat --27,9 S. Eng yuqori harorat 42 S. Vodiyning g'arbida esadigan kuchli „Qo'qon shamoli“ iqlimga salbiy ta'sir etadi.

Viloyatning shimoliy-g'arbiy chegarasi bo'ylab Sirdaryo oqadi. Olay tizmasidan Isfara, So'x, Shohimardon, Isfayramsov boshlanadi. Daryolar muzlikqor suvlaridan to'yinadi. Iyul — avgustda to'lib oqadi. Daryo suvlari sug'orishga satflanadi. yerlarining kattagina qismi ekinzor. Vohalarda terak, tut, qayrag'och, daryo vodiylarida keng bargli o'rmonlar va archazorlar bor. Yovvoyi hayvonlardan Sirdaryo to'qayzorlarida qobon, adir va Olay tizmasi tog' oldilarida bo'ri, tulki, chiyabo'ri, quyon, bo'rsiq, jayra yashaydi. Ondatra, nutriya iklimlashtirilgan. Qushlar, sudraluvchilar ko'p. Suv havzalarida marinka, usach, zog'ora baliq, karp, oq amur, do'ngpeshona baliqlar bor.

Farg'ona viloyati respublikaning sanoati rivojlangan viloyatlaridan. Viloyatda 86 ta yirik sanoat korxonasi mavjud. Sanoatining yetakchi tarmoqlari: yoqilg'ienergetika, kimyo, mashinasozlik, qurilish materiallari, paxtani tozalash va qayta ishlash, yengil va oziqovkat sanoati va boshqa. Energetika bazasi, asosan,

issiqlik elektr styalardan iborat bo'lib, eng yiriklari: Farg'ona, Qo'qon issiqlik elektr markazlari, Quvasoy issiqlik elektr stansisi. Barcha stansiyalar O'rta Osiyoning yagona energetika tizimiga birlashtirilgan. Kimyo sanoatining eng yirik korxonalarini Farg'ona va Qo'qon shaharlarida joylashgan. „Azot“ ishlab chiqarish birlashmasi, kimyoviy tolalar, furan birikmalari kimyo zavodlari, Qo'qon superfosfat zavodi va boshqalar shular jumlasidandir. Viloyatda Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi joylashgan. Qurilish materiallari sanoati rivojlangan. Quvasoydagagi sement zavodi respublikada ishlab chiqariladigan sementning to'rtadan bir qismidan ko'prog'ini beradi. Quvasoya shifer, g'isht va boshqa qurilish materiallari, shisha va chinni idishlar zavodlari ishlab turibdi.

Qo'qondagi "Yelektromash", "Tekstilmash" va boshqa metallsozlik zavodlarida sanoatning boshqa tarmoqlari uchun asbobuskunalar, ehtiyoj qismlar ishlab chiqariladi. Viloyatda 84 qo'shma korxona, 22 mingdan ortiq kichik korxona faoliyat ko'rsatadi. Farg'ona shahrida "Nodira", "PSMK3", "Polina"; Marg'ilonda "Marg'ilon tongi" va Qo'qonda "Zilola" kichik korxonalar, "O'zsalam'an", "Kabul Farg'ona", "Besteks", "Ishonch" qo'shma korxonalarini ishlab turibdi.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari — paxtachilik, g'allachilik, pillachilik, bog'dorchilik va chorvachilik.

Namangan viloyati — O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat sifatida 1941 yilning 11 martda tashkil etilgan. Namangan viloyati respublikaning sharqida, Farg'ona vodiysining shimoliy-g'arbiy qismida, Tyanshan tog' tizmasi tarmoqlari — Qurama va Chatqol tog'larining yon bag'rida joylashgan. Shimoliy va shimoliy-sharqdan Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, janubiy-sharqdan Andijon, janubdan Farg'ona, shimoliy va shimoliy-g'arbdan Toshkent viloyati va Tojikistonning Sug'd viloyati bilan chegaradosh. Mayd. 7,44 ming km². Tarkibida 11 qishtoq tumani, 8 shahar, 11 shaharchadan iborat. Markazi — Namangan shahri.

Viloyat hududining asosiy qismini Sirdaryoning o'ng sohilida, keng Farg'ona vodiysida joylashgan. Yer yuzasi, asosan, tekislik bo'lib, shimolda qator tepaliklar va Chatqol hamda Qurama tog'lari bilan o'ralgan.

Yeng katta da-ryosi — Sirdaryo bo'lib u Norin va Qoradaryoning qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Aholining asosiy qismini o'zbeklar (87,8%) tashkil etadi, shuningdek, tojik (9,0%), kirgiz (1,0%), rus (0,8%), tatar, ukrain, ozarbayjon, yahudi, belorus, arman, qozoq va boshqa millat vakillari ham (jami 89 millat) yashaydi.

Namangan viloyati respublika ishlab chiqarish va madaniy taraqqiyotida yetakchi o'rindan birini egallaydi. Viloyat sanoatining asosiy tarmoqlari: mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo, paxta tozalash, oziq-ovqat sanoatlari. Namangan viloyatida 170 dan ziyod sanoat korxonalarini mavjud. Eng yirik sanoat korxonalaridan — mashinasozlik, avtomobilarni tuzatish, g'isht, yog'-yekstraksiya,

paxta tozalash, oziq-ovqat (vino zavodi, pivo, "Namangan salqin ichimliklari", "Rohat", "Namangankonserva", "Shirinlik", "Kosonsoykonserva" korxonalar), kimyo, "Yelektroterm" ishlab chiqarish birlashmasining yetakchi korxonasi, ipak gazlamalar kombinasi, badiiy buyumlar fabrikasi va h.k.mavjud. shuningdek bir qancha qo'shma korxonalar bor. Viloyat qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i — paxtachilikdir.

Xalq hunarmandchiligi ayniqsa, Namangan va Chust shaharlarida qadimdan rivojlangan. Chustda pichoq, idish-tovoq, qishloq xo'jaligi qurollari ishlab chiqariladi, do'ppido'zlik, kashtachilik bilan shug'ullaniladi, xalatlar uchun beqasam va atlas gazlamalar to'qiladi.

Anjijon viloyati. O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat sifatida Farg'ona vodiysining sharqi qismida 1941-yilning 6-martda tashkil etilgan. Mayd. 4,2 ming km². Andijon viloyatida 14 qishloq tuman, 11 shahar va bir qancha qishloq fuqarolari yig'ini bor. Markazi — Andijon shahri.

Aholisining ko'pchiligini o'zbeklar tashkil etadi. Qirg'izlar, Tojiklar, Uyg'urlar, Ruslar, Koreyslar, Qangli va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Rossiya Qo'gon xonligini bosib olgach, bu yerga rus, ukrain, tatar, arman, yahudiylar va boshqalar kuchib kelgan.

Andijon viloyati respublika ishlab chiqarishda va madaniy taraqqiyotida yetakchi o'rinn tutgan viloyatlardan biri. Tabiiy resurslar, qishloq xo'jalik xom ashyosi negizida ishlaydigan sanoat tarmoqlari, shuningdek aholiga iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan korxonalar barpo etildi.

Mustaqillik yillarda viloyat industriyasi o'z yo'nalishini o'zgartirib, tubdan rivojanmoqda. Mavjud korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib, mulkehililikning o'zgacha shakliga kirib bormoqda. Xususan aksariyat yirik va o'rta korxonalar negizida aksiyadortlik jamiyatlar tashkil etildi.

Viloyat qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i — paxtachilikdir. Paxtaning yalpi hosili va hosildorligi jihatidan Andijon viloyati mamlakatda oldingi o'rinnlarda turadi. Ayniqsa mustaqillikdan keyin paxtakorga erkinlik berilgach, paxtachilikda tub o'zgarishlar sodir bo'ldi.

17.2. Farg'ona turistik mintaqasida turizmning rivojlanish tendensiyalari

Farg'ona vodiysi O'zbekistonning qadimiy madaniyat o'choqlaridan bo'lib, eng so'lim, go'zal jannatmakon joylaridan biri hisoblanadi. Farg'ona viloyat hududida topilgan tosh davri manzilgohlari va qoya toshlariga solingan suratlar vodiyya odamlar eng qadimgi davrlardan beri yashab kelganliklaridan darak beradi. Farg'ona vodiysi quruq mo'tadil iqlim, iliq yoz, unchalik sovuq bo'limgan qish

fasliga xosdir. Farg'ona vodiysi o'zining o'simlik dunyosi o'rmonlari va nihoyatda manzaralii tog'lariga ega.


Har bir viloyatning o'ziga yarasha tarixi urf-odatlari va madaniyatiga ega. Tarixga nazar soladigan bo'lsak vodiyydag'i "Qo'qon" shahri ilgari "Qo'qon xonligi" ning poytaxti bo'lgan. XX asr boshlarida Qo'qon Toshkentdan so'ng ikkinchi yirik shahar bo'lib hisoblangan.

O'zbekiston – sayyohlik sohasida ulkan salohiyat va imkoniyatga ega mamlakat. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ushbu sohani jadal rivojlantirish, yurtimizga kelayotgan xorijiy sayyohlar oqimini yanada ko'paytirish, iehki turizmni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Farg'ona vodiysi viloyatlarida bir qancha turistik korxonalar mamlakatimiz va xorijdagi sayyohlik korxonalar bilan muntazam hamkorlik aloqalari o'tnatgan holda samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Sayyohlik tashkilotlari an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan Toshkent xalqaro sayyohlik yarmarkasida ishtirok etib, jahon turizm hamjamiyatiga o'z viloyatlarining sayyohlik imkoniyatlarini namoyish etmoqda. Viloyatlarning qadimiy va boy tarixini o'zida mujassam etgan go'shalarini, madaniy yodgorliklar, maftunkor tabiat qo'yinda joylashgan so'lim dam olish maskanlarini targ'ib etishda mazkur yarmarkaning o'mi beqiyos bo'lmoqda.

9-rasm

2016 yilda Farg'ona viloyatida mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari MDH, xorijiy va Farg'ona viloyati fuqarolari o'rtasidagi taqsimlanishi, foizda



Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashdirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda

(mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Farg'ona viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar soni 3 tani tashkil qilib, 2016 yilda ular tomonidan 9119 nafar tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatildi.

2016 yilda Farg'ona viloyatida 32 ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari 8 tani tashkil etdi. Joylashtirilgan shaxslar soni 47190 nafar bo'lib, MDH mamlakatlardan 3842 ta, Xorijiy mamlakatlardan 6659 ta shaxs joylashtirilgan.

2016 yilda Farg'ona viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar tomonidan 7168 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, uning qiymati 4977,4 mln. so'mni tashkil qildi.


I-jadval

2016 yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati

	Soni, birlik	Qiymati, mln.so'm
Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari jami	7168	4977,4
Ulardan bevosita aholiga	7168	4977,4
shu jumladan:		
O'zbekiston hududi bo'yicha		
O'zbekiston fuqarolariga	2972	1359,7
Chet el mamlakatlari bo'yicha		
O'zbekiston fuqarolariga	3696	3568,3
O'zbekiston hududi bo'yicha		
MDH fuqarolariga	-	-
O'zbekiston hududi bo'yicha		
boshqa chet el mamlakatlari	500	49,4
fuqarolariga		

10-rasm


2016 yilda Farg'ona viloyatida jamoaviy joylashtirish vositalari



2016 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 40 tani tashkil qildi. Ularni yillar bo'yicha taqsimlanishi.

11-rasm

2016 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni. (2013-2016 yillar)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 26 fevraldag'i “2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida”gi 55-sonli

qarori ijrosini to'g'risida ta'minlash maqsadida Namangan viloyatida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Namangan viloyatida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan hisoblangan xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish, ichki iste'mol bozorini zamonaliviy, sifatli xizmat turlari bilan to'ldirilishi natijasida uning iqtisodiyotdagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda.

Jumladan, tasdiqlangan tarmoq grafiklarga asosan 2017 yil yanvar-dekabr oylari davomida umumiy qiymati 17,3 mln.dollarlik (bank krediti 4,0 mln dollar) 524 ta loyihamar foydalanishga topshirilib, natijada 3269 ta ish o'rnlari yaratilishiga erishildi. Yoki rejaga nisbatan 115,4 foizga bajarildi.

Jumladan, 15 ta aloqa, 2 ta moliya, 9 ta transport, 31 ta yashash va ovqatlanish, 332 ta savdo, 22 ta ko'chimas mulk bilan bog'liq, 29 ta sog'liqni saqlash, 2 ta ta'llim, 11 ta kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash, 58 ta shaxsiy, 1 ta me'morchilik, muxandislik izlanishlar, texnik sinovlar va tahlil sohasida xizmatlar va 12 ta boshqa turdag'i xizmat ko'rsatish shahobchalari foydalanishga topshirildi.

Servis sohasida 2017 yil yanvar-dekabr oylarida yaratilgan jami 2927 ta yangi ish o'rnlari qishloq joylarida tashkil etildi.

Dasturga asosan 2018 yil davomida 31,4 mln.dollarlik 351 ta loyihamarni ishga tushirilish gatijada 1894 ta ish o'rnlari yaratilishi rejalashtirilgan bo'lib, shundan 2018 yil 1-choragida 2,9 mln.dollarlik 53 ta loyihamarda 252 ta yangi ish o'rnlari yaratish rejalashtirilgan.

Viloyatda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida xizmat ko'rsatish xajmi 2015 yilda 3590,6 mlrd so'mni, 2016 yilda 4262,3 mlrd so'mni, 2017 yilda 4876,1 mlrd yoki 2015 yilga nisbatan 1,3 marta (1285,5 mlrd so'm)ga orib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,1 foizga o'sishga erishildi. Ushbu ko'rsatkich 2018 yilning yanvar-mart oylarida 1153,4 mlrd so'mni tashkil etib 105,3 foizga erishishi kutilmoqda.


Viloyatda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar 2015 yilda 1222,0 ming so'mni, 2016 yilda 1571,7 ming so'mni, 2017 yilda 1787,4 ming so'mni, 2018 yil yanvar-mart oylarida 426,5 ming so'mni tashkil etdi.

Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi.

Namangan viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar soni 2 tani tashkil qilib, 2016 yilda ular tomonidan 1450 nafar tashrif buyuruvchiga xizmat ko'rsatildi.

2016 yilda Namangan viloyatiga 4,7 ming nafar chet el fuqarolari tashrif buyurgan bo'lib, ulardan 2,6 ming nafari MDH davlatlarining fuqarolari tashkil etadi. Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 102,1 ming nafarni tashkil qilib, asosiy qismini Namangan viloyati fuqarolari – 97,4 ming nafar tashkil qildi. Bu esa o'z navbatida 95,4 foizni tashkil qildi.

**2016 yilda Namangan viloyatida xizmat ko'rsatilgan tashrif
buyuruvchilarining MDH, xorijiy va Namangan viloyati fuqarolari o'rtaсидаги
ulushi, foizda**



2016 yilda Namangan viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar tomonidan 25 ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, uning qiymati 492,4 mln. So'mni tashkil qildi.

2-jadval


2016 yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati

	Soni, birlik	Qiymati, mln so'm
Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari jami	25	492,4
Ularidan bevosita aholiga shu jumladan,	25	492,4
O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariiga	25	492,4
Chet el mamlakatlari bo'yicha O'zbekiston fuqarolariiga	-	-
O'zbekiston xududi bo'yicha MDH fuqarolariiga	-	-
O'zbekiston xududi bo'yicha boshqa chet el mamlakatlari fuqarolariiga	-	-

2016 yilda sayyohlik yo'llanmalarining 100,0 foizi (25 dona) bevosita aholi tomonidan sotib olingan.


13-rasm

2016 yilda Namangan viloyatida jamoaviy joylashtirish vositalari



2016 йилда меҳмонхоналарнинг тоифаси (юлдзи) бўйича фаолияти 2016 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 22 tani tashkil qildi. Ulardan, 9,1 foizi bir yulduzli, 22,7 foizi uch yulduzli va 68,2 foizi toifaga ega bo'limgan mehmonxonalaridir.

14-rasm



Farg'ona vodiysi, ayniqsa, rekreatsiya resurslariga boydir. Uning O'zbekiston qismidagi hududida Chortoq va Chimyon sanotoriyalari, qator dam ofish maskanlari va ommaviy saylgohlari joylashganki, ularda yiliga bir necha yuz minglab mahalliy aholi haunda yaqin va uzoq xorijdan kelgan insonlar dam oladi, davolanadi va turli xildagi sport turizmi bilan shug'ullanadi.

Farg'ona mintaqasining barcha viloyatlarida O'zbekiston milliy turistik kampaniyasining mahalliy bo'limlari mavjud. Mintaqaning turizm salohiyatini belgilashda yaqin tarixiy davrlarda rekreatsion qulayliklarga ega bo'lgan turistik bazalarning o'rni o'ziga xos. Bu o'tgan shu tarixiy dayr (o'tgan asr) mobaynida mahalliy sayyoohlarning eng muhim sayohatgohlari va sihatgohlari sifatida shuhrat qozongan. Bularga mintaqaning shimolidagi Ko'ksaroy, Andijon va Farg'ona turistik bazalarini misol keltirish mumkin. Biroq o'tgan asrning 90-yillaridan keyingi davrda mahalliy sayyoohlarni sezilarli darajada kamaydi, buning asosiy sababi o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bo'ldi.


Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi. Andijon viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar soni 6 tani tashkil qilib, 2016 yilda ular tomonidan 2662 nafar tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatildi.

2016 yilda Andijon viloyatiga jami 754 nafar turistlar nashrif buyurgan. Ulardan 630 nafari chet el fuqarolari, qolgan 124 nafari O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan iborat. Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 2,2 ming nafarni tashkil qilgan.

15-rasm

2016 yilda Andijon viloyatida xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar

Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar



■ Xorijiy tashrif
buyuruvchilar
■ O'zR fuqarolari

2016 yilda Andijon viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi firma va tashkilotlar tomonidan 1,2 ming ta sayyohlik yo'llanmalari sotilgan bo'lib, uning qiymati 1314,0 mln. so'mni tashkil qildi.

3-jadval


2016 yilda sotilgan sayyohlik yo'llanmalarining soni va qiymati

	Soni, birlik	Qiymati, mln.so'm
Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari jami	1294	1314,0
Ulardan bevosita aholiga	1294	1314,0
shu jumladan:		
O'zbekiston hududi bo'yicha		
O'zbekiston fuqarolariga	718	609,0
Chet el mamlakatlari bo'yicha		
O'zbekiston fuqarolariga	576	705
O'zbekiston hududi bo'yicha		
MDH fuqarolariga	-	-

2016 yilda mehmonxonalarining toifasi (yulduzi) bo'yicha faoliyati

2016 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 23 tani tashkil qildi. Ulardan 18,0 foizi bir yulduzli, 26,0 foizi uch yulduzli, 4 foizi to'rt yulduzli, 4 foizi besh yulduzli va 48,0 foizi toifaga ega bo'lgan mehmonxonalaridir.

16-rasm



17.3. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati

Namangan viloyati xududi arxeologik obidalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayniksa Turaqo'rg'on tumanida - Axsikent va Aksi, Pop tumanida Munchoqtepa, Chust tumanida Buonamozor, Kosonsoy tumanida Mugtepa, Uchkurgon va Norin tumanlarida Kayvonot va Eyloton, Chotkol tumanida kadimiy irrigatsiya qurilmalari - korizlar muxim arxeologik yodgorliklar sifatida katta ilmiy qimmatga ega bulib, uzoq o'tmishdan xabar berib turadi.


Namangan viloyatining tarixiy yodgorliklarini ilmiy asosda o'rghanish Turkistonni Rossiya bosib olgandan sung, XIX asr 80-yillarining o'rtalaridan boshlangan.

Namangan viloyatidagi arxeologik obidalarning muntazam urganish uning uzoq boy o'tmish tarixi, xududni o'zlashtirish xolati, ishlab chikaruvchi kuchlar tarakkiyoti, ijtimoiy-iktisodiy va madaniy xayoti soxasida yangi saxifalar ochadi.

Bugungi kunda Namangan viloyatida turizmni rivojlantirishning yirik imkoniyatlari va ulkan salohiyati mavjud. Men bitiruv malakaviy ishimning ushbu paragrafida Namangan viloyatida joylashgan turistik resurslar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini turli manbalarni o'rgangan haoda yoritishga harakat qildim.

Xo'ja amin maqbarasi (3.1.1-rasm) — Namangandagi me'moriy yodgorlik (18-a.). Shayx Xovandi Tohur avlodlaridan bo'lgan, Toshkentdan Namanganga kelib o'rashib qolgan Iminxo'ja Eshon qaynotasi Ibroximxo'ja qabrining old tarafiga, pishiqlik g'ishtdan qabrdan janubroqda maqbara qurdirgan. Maqbara 11—12-a.lar me'morligi an'analarini asosida qurilgan bo'lib, g'ishtlar orasi ganch qorishmasi bilan to'ldirib tekislangan. Qabr ustiga to'g'ri to'rtburchakli sag'ana qo'yilgan. Maqbara (9×12 m) peshtoqgumbazli; peshtoq va uning ikki yonidagi guldastalari o'zaro mutanosib hamda o'yma girih naqshlar bilan nafis bezatilgan; g'ishtga xomligida o'yma naqshlar ishtanib, so'ng xumdonda qizdirilgan. Peshtog'ining ravogi o'yma bezakli ustunlar — guldastalarga tayangan. Xonaning ichki gumbazi naqshinkor qovurg'alar bilan bo'linib, har bir bo'lagiga turunjlar, gumbaz osti bag'allariga muqarnasli ravoklar ishlangan; xona devorining yuqori qismi yozuv qatori bilan gir aylantirib hoshiyalangan. Binoning tashqi bezagida qora va qizil sir, ravoglarida qizil va yashil sirlangan g'isht, gumbazida qizil va qora sirkori parchinlardan jozibador naqshlar hosil qilingan.

Mullo Bozor Oxund maqbarasi (3.1.2-rasm). Namangan shahrining Labbaytoga dahasi, Kurashxona mavzei Namangansoy sohilida joylashgan Mulla Bozor Oxund yodgorligi majmuasi xalqimizning tabarruk maskanlaridan biridir.



3.1.1-rasm. Xo'ja Amin maqbarasi

XVII asrning yirik mutasavviflaridan biri olim va shayx Mulla Bozor Oxundning to'liq ismi Xoja Ubaydulloh ibn Sultan Muhammad Bobur Qoraxon Mulla Bozor Oxunddir. Ul zot XVI asr oxiri (sanasi noma'lum) Namangan shahrida tavallud topgan. Boshlang'ich ta'llimni uyida, keyingi bosqichni Namangan madrasalaridan birida olgan. Ilmga tashnalik uni Turkistonning ilmu fan markazi bo'lmish Buxoroga olib kelgan. Talabalik yillari oshpazga shogird tushib tirikchilik o'tkazgan. Buxoroda donishmand olim Mirzo Bahodir Buxoriy bilan tanishdi, undan ta'llim oldi. Ustozini pir, o'zini murid hisoblab, uzoq yillar olimning xizmatida yurdi. Mirzo Bahodirdan irshod xatini (pirning yorlig'ini) olgach, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohat qildi. Qoshg'arning Xo'tan, Yorkand shaharlarida bo'ldi. U yerda Hidoyatulloh Ofoq Xo'ja bilan tanishdi. Namanganga qaytgach, qolgan umrini imomlik va mudarrislikka, kishilarni to'g'ri yo'lga solishdek sharafla, mashaqqatli yumushga sarf etdi. Mulla Bozor Oxund o'z davrining fiqh, hadis, tarix,

geografiya, ilmi hisob, faroiz, adabiyot, ruhiyatshunoslik va boshqa bilimlarni yaxshi egallagan yirik mutafakkir edi. U turkiy, arabiylar va forsiyda ijod qilgan shoir hamdir. Ul zot otashnafas shoir Boborahim Mashrabga ilk saboq bergen, uning shoir bo'lib yetishishiga katta hissa qo'shgan va uni yagona Allahga e'tiqod, foniylar dunyo havaslariga ko'ngil qo'ymaslik ruhida tarbiyalagan mehribon ustoz edi. Mulla Bozor Oxund 1668 yil Namanganda vafot etgan.

Mulla Bozor Oxund yodgorlik majmuasi 3 qismdan iborat:

Asosiy kirish darvozasi pishiqliq g'ishtdan masjidga kirish joyida qurilgan. Uch gumbazli, o'rriadagi gumbaz kattaroq bo'lib, pastki qismi darvoza uchun mo'ljallangan. Darvozaning ikki tomonida mezana shaklidagi baland qubbador ustunlar joylashgan. Boshqa ikki gumbaz osti $3,5 \times 3,5$ metrli hujralardan iborat. Hujralarning davomi sifatida xonalar qurilgan ($9 \times 3,5$ metrli).

Jome' masjidning asosiy katta xona-xonaqohi yerto'lali, pishiqliq g'isht va temir-beton paneldan qurilgan. Uch tomoni ayvon. Ust unlar va peshtoqi milliy bezaklar berib pishiqliq g'ishtdan tiklangan. Asosiy darvozadan kirishda – qibla tomonda ayvonga tutash holda 16 metrli mezana-minora pishiqliq g'ishtdan bezakli qilib tiklangan, "Allah, Muhammad" degan yozuvlari bor. Masjid 3 ming namozxoniga mo'ljallangan.

Mulla Bozor Oxund maqbarasida olim dafn etilgan. Asosining o'q chizig'i 6 metr, umumiyligi balandligi 24 metr. Besh qirrali ko'pburchak shaklida avval 8 metr va



3.1.2-rasm.Mulla Bozor
Oxund maqbarasi



3.1.3-rasm. Qadimiy Axsikent

keyin yetti qirrali ko'pburchak shaklida prizma qilib qurilgan. Ustiga doira shaklidagi qism va gumbaz barpo etilgan. Maqbara ko'rinishi va tuzilishi islomdagi shariat, tariqat qonunlarini ramziy tarzda ifoda etadi. Maqbaraning dastlabki besh qirrali qismi islomdagi 5 amalni, keyingi 7 qirrali qismi imondagi 7 shartni, doira shaklidagi 40 ta qirra 40 farzni ifodalaydi. Bu qismga "Bismillahir rahmanir rohiym, Alloh" deb yozilgan. Maqbara qurilishida

pishiq g'isht, temir-beton, sopol koshinlar, yog'och eshik va panjaralardan foydalaniłgan.

Qadimiy Axsikent (3.1.3-rasm). Ajodolarimiz qoldirgan moddiy va madaniy ashyolar shu qadar rang-barang va behisobki, bunga arxeologik yodgorliklar yaqqol misol bo'la oladi. Ma'lum bo'llishicha, Turkistonning boshqa yirik shaharlari singari Axsikentning ham o'z qal'asi, shahristoni (ichki shahar) va raboti (tashqi shahar) bo'lgan. Qadimda shaharning to'rtta darvozasi bo'lib, ular Mardikush, Koson, Masjidi Jome' va Regxona deb atalgan. IX asrlargacha shahriston mudofaa devorlari bilan o'tab olingen va uning qalinligi 5-10 metrlargacha borgan, balandligi 20 metrgacha yaqinlashadi.

Arxeologik izlanishlar shuni ko'tsatdiki, ayniqsa, IX-XII asrlarda Axsikent vodiyning poytaxt shahri sifatida guflagan. Ma'lum bo'llishicha, o'z zamonasining amaliy fanlariga tayangan quruvchi ustalar bu ajoyib inshootni hozirgi metro qurilishi usulida bunyod qilishgan. Avval pishiq g'ishtdan gumbazimon uslubda o'ziga xos er osti yo'li qurilib, uning tubiga katta diametrli sopol quvurlar yotqizilgan. Suv ana shu quvurlar orqali oqqañ. Quvur yo'lining ma'lum joylarida pishiq g'ishtdan qurilgan er osti kuzatish xonalari bo'lgan. Sopol quvurlarda oqayotgan suv kuzatish xonasidagi kichik hovuz orqali o'tadi. Bu quvur sistemasi shahar aholisiga kamida 300 yildan ortiq xizmat qilgan. Ustasi farang Axsikent hunarmandlari yasagan po'lat qilichu xanjarlar butun Sharq olamida mashhur bo'lgan. Bu ajoyib tengi yo'q qurollar 1650 daraja issiqlikka chidaydigan sopol qozonlarda, tigellarda maxsus texnologik usullar yordamida olingen po'latlardan tayyorlangan.

Axsikent qadimiy manbalarda Axsikas deb ham keltirilgan. Farg'ona vodiyning poytaxti bo'lgan tarixiy shahar nomi. Mirzo Boburning otasi Umarshayx mirzo shu yerdan mamlakatni boshqargan. O'n sakkizinchchi asr bosqlaridagi kuchli zilzila tufayli batamom vayron bo'lib tuproq ostida qolib ketgan. Sirdaryoning hozirgi Namangan viloyatidan o'tgan qismi sohilida uning harobalari saqlanib qolgan. Axsikentdan bir necha mashhur Islom olimlari, xattot va shoirlar yetishib chiqqan.

Mulla Qirg'iz madrasasi (3.1.4-rasm). Namangan shahrining Chorsu maydonidagi me'morchilik obidasi bo'lib, u 1910-1912 yillarda Mulla Qirg'iz Mashrabboy o'g'li mablag'i hisobiga barpo etilgan. Madrasa binosi tarxda notejis besh qirrali ko'rinishga ega bo'lib, uning bunday shaklda loyihalanishiga u joylashgan er maydoni notejisligi sabab bo'lgan. Yodgorlikning bosh fasadi ikki qavatli, qolgan qismi esa bir qavatli qilib qurilgan. Hovliga kirilgach, o'ng tomonida gumbazli darsxona hamda masjid joylashgan. Madrasa binosini bezatishda asosiy e'tibor bosh fasadga qaratilib, u ikki qavatli qilib, o'rtasida baland va ko'rkar peshtoq, uning ikki yonida ikki qavatli ravvoqli hujralar, burchagida esa aylana shaklidagi guldstalar tartibli joylashtirilgan.




3.1.4-rasm. Mulla Qirg'iz

Madrasa hovlisini hozirda 41 hujra va 4 ta gumbaz o'rabi turadi. Hujralar soni aslida ko'proq bo'lgan va ular sho'rolar davrida turli maqsadlarda foydalanishga moslashtirish jarayonida buzib tashlangan. Madrasa aslida ikki qavatli qilib qurilishi lozim edi. Lekin old fasadigina ikki qavatli qilib qurilgandan keyin qurilish ishlari to'xtab qolgan. Madrasa gumbazlarining ishlanishi o'ziga xos uslub bilan bajarilganki, bu ustuning mahoratidan darak berib turibdi. Gumbazlarning ichi aslida o'yma terrakota va naqshlar bilan bezatilishi, go'zal harflar bilan oyatlar yozilishi kerak edi. O'sha paytdagi chor huqumatining mustamlaka o'lkalarda olib borayotgan siyosati oqibatiida kelib chiqqan alg'ov-dalq'ovlar tufayli madrasa qurilishi ham nihoyasiga etkazilmay qolib ketdi.

Tarixiy manbalarga, arxiv fotosuratlariga, nuroniy qariyalarning bergan ma'lumot-lariga qaraganda, o'z davrida madrasa tevarak-atrofida ko'plab me'moriy inshootlar: madrasa, masjid, karvonsaroy, hammom, minora, savdo rastalari, hovuz, maqbara va boshqa ko'plab obidalar mavjud bo'lgan.

Mulla Qirg'iz Mashrab-boy aslida O'sh viloyati, Aravon tumanidan Namanganga kelib qolgan bo'lib, o'sha yillari Namanganda yirik paxta tozalash zavodi xo'jayini va shu bilan birga, katta er hamda mulk egasiga aylangan edi. U savobli ish qilishni mahalliy xalq orasida katta hurmatga, obro'-e'tiborga erishishni niyat qilib biron bir ko'zga ko'rinarli ish qilish maqsadida o'ziga yaqin kishilardan bo'lmish Mullaboy hoji, Mulla Qozoqoxun, Qozoqboyvachcha, Otakarvon va Mulla Madamin Oxunlar bilan yig'ilishib, maslahat tarzida kengash o'tkazib, madrasa qurmoqchi ekanligini aytadi. Tabiiyki, bu fikr o'z yaqinlariga ma'qul bo'ladi.


G'oyibnazar Qozi madrasasi (3.1.5-rasm). To'raqo'rg'on shahrining markazida joylashgan G'oyibnazar qozi madrasasi, (Sho'rolar davrida «qozi» so'zi qoldirilib, G'aynazar yoki G'oyibnazar madrasasi nomi bilan atab kelingan). Ushbu madrasaning old fasadida, ya'ni kirish eshigining yuqori qismida madrasani o'sha davrdagi etuk me'mor usta Mulla Qirg'iz qurbanligi yozib qo'yilgan. Ushbu madrasaga asos solgan va uning qurilishiga katta mablag' sarf qilgan G'oyibnazar XIX asrning so'nggi choragidan boshlab, XX asrning boshlariga



3.1.6-rasm. Mavlono Lutfulloh Majmuasi

qadar To'raqo'rg'onda qozilik qilgan saxovatli, ilm ma'rifatli, xalqparvar inson edi. O'sha paytlardagi yuz bergan ocharchilik yillarida ko'pchilikning qornini to'ydirib, etimlar boshini silab, homiylik qilib kelgan. G'oyibnazar qozi Xudo rizosi uchun xoli bir madrasa qurishga qaror qiladi va bu ishni o'sha davrning mashhur va taniqli me'mori usta Mulla Qirg'iz ibn Ibrohim me'morga topshiradi.

G'oyibnazar qozi o'z davrining fidoyi insoni bo'lib, To'raqo'rg'onda bir necha bog'lar yaratgan. Ilm-hunarni juda ardoqlab, unga keng yo'l ochgan. Ishoqxon Ibrat, Abduqahhor a'lam, Jafolxon imom uning talabalaridir. G'oyibnazar qozining o'g'li Abbosxon Nazarov 1920 yilda maorifda rus tili va politexnika ta'llimididan dars berib, ilmiy bo'lim mudiri va direktor bo'lib ishlagan. Umrining oxirigacha fidoyilik qilgan. 1949 yilda vafot etgan.



3.1.5-rasm. G'oyibnazar Qozi

Mavlono Lutfulloh majmuasi (3.1.6-rasm) - Mavlono Lutfulloh hozirgi Pop tumani Chodak qishlog'ida 1487 yilda tug'ilgan. Avval Chodakdag'i xonaqohda, keyin Maxdumi A'zam Kosoni bilan birlgilikda Buxoro va Samarcand shaharlarida tahsil olgan. Suv qurilishi inshootlari bo'yicha yirik olim bo'lib etishgan. Bundan tashqari, tasavvuf ta'llimotini to'la o'zlashtirib, bu ta'llimotning Farg'ona vodiysidagi tashviqotchilaridan biriga aylangan. XVI asrda yashab ijod qilgan Ubaydullo Samarcandiy o'zining «Pir Mavlono Lutfulloh Chustiy» nomli kitobida bu inson haqida to'la ma'lumot bergen. Chust shahar madaniyat va istirohat bog'ida joylashgan Mavlono Lutfulloh majmuvi Farg'ona vodiysidagi Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasasi, din arbobi, xalq orasida mashhur mirob, tabib, va siyosiy arbob sifatida tanilgan shaxs hurmati uchun xalq tomonidan barpo etilgan betakror yodgorlikdir. Ziyoratga keluvchilar Mavlono Lutfulloh qabrini tavof qilib, ruhi pokiga tilovat qiladilar. Aslida Mavlono

Lutfullohning haqiqiy qabrlari turgan joy buzilib ketganligi uchun aniq emas. Bog'dagi qabr esa, ramziy hisoblanadi.

Mavlaviy Namangoniy maqbarasi (3.1.7-rasm) - Bu yodgorlik Namangan shahrida saqlanib qolgan me'moriy obidalardan biri hisoblanadi. Bu me'moriy majmua XVII asrning ikkinchi yarmida yashagan na-manganlik shayx, olim va shoir Mavlaviy Mullaxo'ja Eshon xotirasi uchun barpo etilgan. Bu inshoot XIX asr boshlarida, aniqrog'i 1806 yilda qurilgan. Kirish peshtoqida "hijriy 1221 yil" deb yozilgan sana saqlanib qolgan. I.Azimov ushbu sana obidaning qurilgan sanasi deb qayd etib o'tgan. Lekin tarixchi Y.Qosimov bu sananing birinchi ta'mirlanish sanasi ekanligini e'tirof etib o'tadi. Maqbaraning umumiy er maydoni 0,29 gektardan iborat. Maqbara teng tomonli tarxdagi ziyoratxona shaklida 7x7 metr o'lchamda qurilgan. Maqbara old tomonining ikki yonida guzdastalar va markazda ravoqli qilib bezak o'mida foydalanilgan eshik o'mi qo'yilgan. Eshik ikki qanotdan iborat bo'lib, mayda o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Qolgan uch tomoni esa g'isht terilgan holatda qoldirilgan.

Devona Buva maqbarasi (3.1.8-rasm) - Abdurahim Salimboy So'fi bobo o'g'illari bundan 300 yil muqaddam Chimkent viloyatining Sayram qishlog'ida dunyoga keladi. Devonabobo Ahmad Yassaviyning uzoq avlodlaridan bo'lib, Naqshbandiya ta'llimoti, ya'ni, "Diling Alloha, qo'ling mehnatda bo'lsin", degan ta'llimot asosida umr kechirganlar.

Boshlang'ich ma'lumotni o'sha erlik mullalardan olgach, Abdurahim 13-14 yoshida Toshkentga kelib, Ko'kaldosh madra-sasida o'qiydi. Qur'on va hadis ilmini egallaydi. Talabalarga madrasada mu-sulmon olamining buyuk namoyan-dalari ta'llimoti ham to'lagichcha o'qitilardi. Shuning uchun bu yoshlarning imon -e'tiqodi mukammal shakllana borgan. Madrasa mudar-rislari yaxshi xulqi va a'lo bilimini hisobga olib, Abdura-himni Namanganga mashhur Eshon xo'ja Amin Eshon xizmatlariga yuborishadi. Aytishlaricha, Devonabobo Xo'ja Amin huzurida 9 yil xizmat qiladilar. Kamtarin, kamgap va kamsuqum bu inson qattiq sovuq bo'lgan qish kunlari Eshon taboratlari uchun obdastadagi suvni ko'kraklarida isitib berar ekanlar. Eshon bir kuni bu holdan voqif bo'lib, endi uning komil bo'lganligini aytib oq fotiha beradilar.



3.1.7-rasm. Mavlaviy Namangoniy maqbarasi

Devonabobo hozirgi Fayziobod qishlog'iga keladilar va Fayziobod arig'i orgali suv keltirib qishloqni obod qiladilar. Va shu davrda yoshligida beshikketdi qilib qo'yilgan Ahmad Yassaviy avlodlaridan bo'l mish soliba bir qizga uylanadilar. Bu ayollaridan u kishi besh o'g'il-Muhammad Ibrohim eshon, Sultanmamut eshon, Bahodirxon eshon, Buzrukxon, Yoqub Eshon ismli farzandlar ko'radilar. Ular ham o'z navbatida ko'payishib, katta bir shajarani tashkil qilishadi.

O'sha davrda bu aziz insonning tushlarida bir ulug' zot bir bino qurishi kerakligini aytadi, bu inshoot ilm o'rgatishga moslashti- rilishi, ziyyaratgoh qilinishi ayon bo'ladi. Turli shaharlardan kuchli taniqli usta me'morlarni to'plab maslahat soladi va majmua qurilishini boshlab yuborishadi. Majmua tezda kurib bitkaziladi va masjidda ibodat qilishga, madrasada ilm olishga, chillaxonada chilla o'tirishga,

mezana minora mo'min musulmonlarni ibodatga chorlashga, qarvonsaroy esa uzoqdan kelgan mehmonlar uchun mehmonxona vazifasini o'taydi. Lekin sho'rolar davriga kelib ayrim amaldorlarning noto'g'ri hattiharakatlari oqibatida bu bebaxo inshoot buzib yuboriladi, ammo maqbara saqlanib qoladi.

Yuqorida qayd o'tganlarimizdan tashqari yana ko'plab arxeologik yodgorliklar, tepaliklar, qo'rg'onlar, me'moriy yodgorliklar va muqaddas qadamjolar, majmua va maqbaralar, tarixiy hammomlar va hovli-joylar mavjud.

Mustaqillik yillarda Namangan viloyatida madaniy merosni asrash va buyuk ajdodlarimizning nomlarini abadiylashtirish borasida qator bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Jumladan, Nodim Namongoniy maqbarasi, Boborahim Mashrab bog'i, uy-muzeyi va haykali, Ibrat uy-muzeyi, Mavlono Lutfulloh majmuasi, Maxdumi A'zam Kosoniy majmularining bunyod etilib, xalqimizga topshirilishi ajdodlar ruhiga hurmat va o'zligimizni anglash nishonasidir. Yosh avlodni ajdodlar an'anasi ruhida tarbiyalashda tarixiy-madaniy obidalarning o'rni va aharniyati katta. Shunday ekan madaniy merosimizni saqlash, ularni ilmiy jihatdan yanada ko'proq o'rganish va kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bob, 49-moddasida ta'kidlanganidek, "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir".

Andijon ko'p asrlik boy tarixga ega. Viloyat hududida eramizdan oldingi XII-VII asrlarga oid bo'lgan ko'hna shaharlar va arxeologik komplekslar mavjud. Shundaylar sirasiga Dalvarzin, Eylaton, Mingtepa, Ashqaltepa, Sarvontepa va boshqalarni kiritish mumkin.



3.1.8-rasm. Devon
Buva maqbarasi

Sayyohlarni shuningdek, Mirpo'stin ota, Fozilmon ota, Qutayba ibn Muslim, Imom ota, «Tuzluq momo», «Uch buloq» va shunga o'xshash boshqa diqqatga sazovor yodgorliklar o'ziga jalb etmoqda. Ayni paytda Andijon viloyatida sal kam 380ga yaqin madaniy yodgorliklar ro'yxatga olingan. Bundan tashqari, shifobaxsh manbalar ham mayjud va bu ekoturizmni rivojlantirish uchun yo'l ochishi ham chtimoldan xoli emas. Milliy hunarmandchilik ustalari mahsulotlari va an'analarini, boy folklor ham xorijiy sayyohlarni o'ziga tortadi.

Ko'hna Andijonning karvon yo'lida joylashganligi bu yerda savdo-sotiqligini va hunarmandchilikning jadal rivojlanishiga xizmat qildi. Ipak yo'li orqali bu yerga sharq va g'arb sivilizatsiyasining kirib kelishi shu hududda yashovchi mahalliy aholining ongi-shuurini ham o'zgartirib yubordi.

Arxeologlar Sarvontepadan topilgan va milloddan avvalgi davrga taalluqli bo'lgan sopol buyumlarda mato izlarini aniqlashdi. Bu qadimgi Andijonda paxtadan mato to'qish yo'lga qo'yilganligidan dalolatdir. Keyinchalik esa ajdodlarimiz Xitoyda o'ta sir saqlangan ipak yetishtirishni ham o'zlashtirishdi. U yerdan tut daraxti olib kelinib, ipak qurti parvarishlandi. Ushbu an'ana vodiyya, xususan, Andijonda hozirgacha saqlanib qolgan.

Andijonda, Qadimda va o'rta asrlarda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar bizgacha yetib kelmayan. Andijon shaxrida 19-asr oxirida qurilgan Jome masjidi majmuasi saqlangan. Tarkibida masjid, minora va Madrasa bor. Jome masjidi Farg'onada vodiysida eng mahobatli binodir.

Shahrixonda o'tgan asrda bino kilingan bir qancha mahalla masjidlari va madrasalari saqlangan. Shundan biri 19-asr boshida qurilgan Ponsod masjididir. Masjidning bezak qismlarini farg'onalik ustalar ishlagan. Shahrixonda 1872 yilda qurilgan Gumbaz madrasasi saqlangan. Andijon shaxrida 20-asr boshida qurilgan 2 qavatli Ahmadbekhoji uyi ham milliy me'morlik namunalardan biri. Paxtaobod shaxrida 20-asr boshida qurilgan Otaqo'zi madrasasi yodgorligi ham diqqatga sazovor. Uning 5 minorasi bor.

Andijonda nari borsa XIX asr o'rtalarida yaratilgan yodgorliklarning qoldiqlari, harobalarining faqat ayrimlari bizgacha yetib kelgan. Andijondagi Jom'e majmuasi XIX asr oxiri XX asr boshida qurilgan. Masjid, madrasa va minoradan iborat me'moriy yodgorlik. Madrasa bosh tarzi sharqqa qaratib qurilgan. Tarzining o'rtasida peshtoq qad ko't targan. Uning ikki yonida bezakli minora bor.

Burchaklarida gumbazli darsxonalar, ularning o'rtasida ikki qavatli hujralar joylashgan. Birinchi qavatning tekis devorlarida to'rt burchakli darchalarga panjaralar ishlangan. Ikki qavatdagagi hujralarning mehrobiy ravvoqlari madrasaning bosh tarziga ko'rksamlik baxsh etadi. Masjid majmuuaning g'arbiy qismida joylashgan. Uning tarxi to'g'ri burchakli xonaqoh va uch tomoni qator ustunli, shifti bezakli ishlangan. Minora (balandligi 32 m.) hovlida joylashgan. Asosi 8 qirrali,

yozma naqshli, turunjlar va koshin bilan pardozlangan. Jom'ega beshta (janubda bitta, shimo'i va sharqda ikkitadan) darvoza orqali kiriladi.

Andijonda XV–XIX asrlarga oid tarixiy, me'morchilik bino va obidalari saqlab qolinishagan. Buning assosiy sababi XVII–XIX asrlar mobaynida uchta katta, kuchli, dahshatli zilzilalar bo'lib, butun tarixiy yodgorlik, me'moriy obidalar, odamlar yashayotgan uy binolari qulab vayronaga aylangan, ular o'rniда kultepalar paydo bo'lgan.

O'sha 1902 yilgi dahshatli Andijon zilzilasidan oldin Farg'ona vodiysi, ayniqsa, Andijonda uch yil mobaynida juda kuchli zilzila bo'lgan. Bu davrdagi birinchi zilzila 1620–1621 yilda bo'lgan. Buning oqibatida temuriylar, Bobur davridagi, ulardan oldin yaratilgan binolar qulab, uylar buzilgan. Tarixiy obidalar qulab tushgan.

Arxeoglarning aniqlashicha, Dalvarzintepa qadimda devorlar bilan o'talgan uchta qismidan iborat bo'lgan. Uning 18 gektardan iborat asosiy qismi turar-joy uchun xizmat kilgan, qolganlari esa hunarmandchilik rastlari, ekin ekiladigan va chorva mollari boqiladigan maydonlardan iborat bo'lgan. Bu yerda turli yillarda qazishma ishlarini olib borgan arxeologlar bronza davrida ushbu shaharda dexqonchilik bilan bir qatorda hunarmandchilik va tuqimachilik ham rivojlanganligini aniqlashdi. O'tgan astning 60-yillarida Dalvarzintepada qazishma ishlarini olib borgan rus arxeologi Yuriy Zadneprovskiy eramizdan avvalgi 9-7 asrlarga mansub shahar harobalarini aniqlagan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi arxeologiya institut olimi Boqijon Matboboev tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida bundan 3200-2800 yil ilgaqri, ya'ni bronza davrida bu yerda Markaziy Osiyodagi dastlabki eng yirik shaharlardan biri mavjud bo'lganligi isbotlandi. Bu yerdan qazib olingan arxeologik topilmalar qadimgi Dalvarzintepada nafaqat dexqonchilik, balki xunarmandchilik va tuqimachilik ham rivojlanganligini ko'rsatib turibdi.

1893 yilda yaratilgan toponimik haritada o'sha paytda Andijon shahrida mavjud bo'lgan qadimgi 20 ta mavze qayd etilgan. Ark, Shahriston, Kultepa, Chordona, Sarvontepa va boshqalar.

Andijon yuqori seismik hududda joylashganligi bois o'tmishda yer silkinishlari tez-tez sodir bo'lib turgan. Ayniqsa, 1902 yilda yuz bergan kuchli zilzila tufayli Andijon shahri butunlay vayronaga aylangan. 4 ming nafardan ziyod kishi xalok bo'lgan. Yer silkinishi oqibatida uning o'tmishi haqida ma'lumot beruvchi tarixiy obidalar buzilib, shahar vayronalari ostida qolib ketadi. Yozma manbalar ham saqlanib qolmagan. Ana shu bois Andijonning qadimgi tarixini uning asosiy o'choklarida qazishma ishlarini olib borish orqaligina o'rganish mungkin. Bunday xududlar Sarvontepa, Chordona, Ark ichi, Shahriston kabi mavzelerida joylashgan. Dastlabki qazishma ishlari jarayonida aniqlangan arxeologik topilmalar


shaharning miloddan keyingi davri haqida ma'lumot bergan bo'lsa, uning janubiy-guchiy qismida joylashgan Sarvontepada olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari Andijon tarixi uchun olamshumul yangilik bo'ldi. Bu yerda qazishma ishlarini bajargan olimlar to'rt metr chuqurlikda eng qadiimgi arxeologik majmuaga duch kelishdi. Bu yerdan eramizdan avvalgi 6-4 asrlarga mansub nodir buyumlar topildi.

MINGTEPA ARXEOLOGIK YODGORLIGI (3.2.1-rasm). Marhamat shahrining sharqiy qismida joylashgan. Andijon shahri markazidan 38 km uzoqlikda joylashgan. Milloddan avvalgi III-I asrlarda Ershi – Mingtepa Dovon (Farg'ona) davlatining eng yirik shaharlaridan biri sanalgan. Xitoy yozma manbalarida tilga olingan "Buyuk ipak yo'lli"da joylashgan. Xunarmandchiligi, dexqonchiligi va "Samoviy tulporlari" bilan dunyoga mashhur bo'lgan.

Sarvontepa (3.2.2-rasm) — ilk temir davriga oid arxeologik yodgorlik. Andijonning shim. g'arbiy qismida, Eski shaqaming Tutzor va Sujoat ko'chalari kesishgan yerda joylashgan. Dastlab, o'tgan asrning 50y.larida yodgorlik ro'yxatga

oltingan, so'ngra 70 yillarda kichikroq arxeologik qazishmalar o'tkazilgan hamda 5—8-asrlar bilan sanalangan edi. 2001 yil shaharda ish olib borayotgan arxeologlar Sarvontepani uncha katta bo'limgan 30 x 20 m kattalikdagи saqlangan qismida qazish ishlari o'tkazdilar (Matboboyev B.X.). Natijada hozir shahar kuchalari kesishgan joydan 3—4 m chuqurlikda

yaxshi saqlangan qadimiy madaniy qatlamlar qayd etildi. Qatlamlardan miloddan avvalgi 6—4-asrlarga to'g'ri keladigan guldor sopol idishlar va tosh buyumlar majmuasi oddiy maishiy o'choq yaqinidan ajratib olindi. Arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, Sarvontepa qadimda katta bo'lgan, aniqlangan chegarasi bo'yicha hozirgi maydoni 1 ga ga boradi. Sarvontepa ilk temir davriga (miloddan avvalgi 6—4-asrlar) taalluqli bo'lib fanda birinchi topilgan yodgorlik nomi bilan ataluvchi Eylaton madaniyatini majmuiga kiradi. Sarvontepani o'rganish vodiylari tarixi uchun o'ta muhimdir. Sabab, birinchidan, Farg'ona vodiysi qadim shaharlari hududida (xususan,



Mingtepa arxeologik yodgorligi

3.2.1-rasm. Mingtepa arxeologik yodgorligi



3.2.2-rasm. Sarvontepada arxeologik

Andijonda) ilk bor 2400—2600 yillik arxeologik kompleks aniqlandi, ikkinchidan, Andijonsoyni buniyod etilish tarixini yanada qadimiylashtiradi. Chunki Sarvontepa ushbu kanal bo'yida joylashgan va uning suvidan foydalangani shakshubhasiz. Nihoyat, Sarvontepa Andijon shaxrini ilk (dastlabki) o'rni bo'lgani haqidagi fikr haqiqatga yaqin. Aynan ushbu hududda keyinroq o'rta asrlar arki va shahristoni joylashgani ham bejiz emas³⁷.


Mirpo'stin ota qabristoni Andijon shaxridagi eng qadimiy va xududi jixatidan katta qabristonilardan biri hisoblanadi. Bu zaminga qanchadan qancha mo'min musulmonlarni jasadlari qo'yilgan. Shular orasida qancha qancha buyuk insonlar bor. Shular qatori "Mir Asomiddin mir po'stin ota" qabrlari joylashgan. Hozirda bu tabarruk inson sharosati bilan Mirpo'stin ota ziyoratgoxi, oromgox diyorimiz va xorijiy ziyoratchilarni qadamlariga sabab bo'lib turibdi. Bugungi kunda bu joyda ulkan obodonchilik ishlari bo'lmoqda. Viloyatimiz, shahar, qishloqlarimizdag'i o'zgarishlar qatori Mirpo'stin ota qabristoni va ziyoratgoxida ko'zga ko'rinarli ko'rka binolar qad ko'tarmoqda.

"YILQICHI BUVA" ZIYORATGOHI³⁸. Andijon shahrining sobiq Aravasoz mahallasida joylashgan Yilqichi buva mozori ham ziyorat maskanlardan biridir.

Yilqichi buva o'tgan davr va uning tarjimai holi haqida aniq ma'lumot mavjud emas. Shu mahallada istiqomat qiluvchi yoshi ulug' insonlar G'ulomiddin Qo'chqorov va O'ktamjon Ortigovlarning hikoya qilishicha, Yilqichi buvaning shajarasi Xazrati Burxoniddin Qilichga boradi. O'zi Bobo Tavakkul Langariyning muridlaridan bo'lib, asosan, ot abzallari tayyorlaydigan usta va taqachilik bilan shug'ullangan. Shuningdek, otboqarlik qilganligi uchun ham "Yilqichi buva" nomini olgan.

Asli ismi bizgacha yetib kelmagan. Taqvodor, karomatgo'y, halot, insonlarni dinu-diyonatga, e'tiqodga yetaklovchi zot bo'lgan. Ot va uy hayvonlarini xastaliklardan davolagan. Yaqin kunlargacha ham yilqi va uy hayvonlari kasal bo'lgan kishilar shu qabr atrosidan ularni aylantirib, Allohdan shifosini so'ranganlar.

Ushbu ziyoratgoh haqida hikoyat va rivoyatlar tahlil qilinganda, ul zot taximinan o'rta asrlarda yashab o'tgan bo'lib, keng diniy bilimlarga ega inson bo'lgan. Rivoyatlarga ko'ra, Yilqichi buvaning ruhi insonlarni yomonlikdan,



3.2.3-rasmin. Fozit ota ziyoratgohi

³⁷ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sarvontepa>

³⁸ <http://iqbol.uz/qgt-bin/main.kgianu&raz15&id=5589>

bema'ni ishlardan qaytarib, halollikka, yaxshilikka, to'g'rilikka undab kelgan. Agar bu joyga, badxulq, shum niyatli kishilar kelsa, biron dard berib, to imon keltirinaguncha tinch qo'yagan.

Sobiq ittifoq davrida ziyoratgohdagi masjid choyxonaga aylantirilib, bu joyda may-xo'rlik, nojo'ya ishlar avjiga chiqqan. Bunday ishlar qilgan ayrim shaxslar turli dardlarga duechor bo'lganlar.

Bu yerdag'i masjid esa XIX asr oxirlarida qurilgan. Qabr ustidagi maqbara esa XX asr boshlarida tiklangan bo'lib, uning atrofiga turli daraxtlar ekilgan. "Yilqichi buva" ziyoratgohi diqqatga sazovor joy, madaniy meros ob'ekti sifatida davlat muhofazasiga olingan.

Fozilmon ota ziyoratgohi³⁹ (3.2.3-rasm) insonlarga ham ruhiy, ham jismoniy shifo beruvchi muqaddas maskan, shu bilan birga, diqqatga sazovor madaniy meros ob'ekti hisoblanadi. Mazkur ziyoratgoh Andijon viloyatining qo'shni Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh bo'lgan eng chekka sharqiy-janubiy hududidagi Xonobod shahrining Fozilmon ota mahallasida joylashgan.


Fozilmon ota ziyoratgohining xosiyati shundaki, bu maskanda inson salomatligini mustahkamlovchi shifobaxsh buloq mavjud. Qolaversa, bu yer so'lim va go'zal tabiatи bilan ham barchani o'ziga chorlaydi. Ming bir dardga da'vo hisoblangan bu buloqning hayotbaxsh tirik suvlaridan odamlar necha asrlar davomida iste'mol qilib, turli xastaliklarga shifo topib kelmoqda. Odamlarlarining e'tiroficha, buloq suvi inson organizmiga tetikkik va quvvat baxsh etadi.

XIII asrda yashab o'tgan diniy ulamo, payg'ambarimiz Muhammad Mustafо (s.a.v.) avlodlaridan biri bo'lgan Sayid Fozilmon Dehlaviy hazratlari muqaddas buloq bo'yini o'ziga makon qiladi. Insonlarni dinu diyonatga, haq va haqiqatga, ma'rifatga chorlaydi. O'zining noyob fazilatlari, karomatlari bilan el orasida aziz-avliyolik martabasiga sazovor bo'ladi. Sayid Fozilmon olamdan o'tgach, shu yerga dafn qilinadi.

1981 yilda ushbu maskan tartibga solinib, buloq atrofi ta'mirlandi, favvoralar barpo qilindi, obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. 1996 yilda bu yerda quriliish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Maqbara milliy me'morchilik an'anafari bilan boyitildi va olti tomonli gumbaz ko'rinishida qayta tiklandi. Shuningdek, shu hududda o'sib turgan saltanat bir asrlik ulkan chinorlar bu maskanga so'limlik baxsh etib turadi.

³⁹ http://www.iqbol.uz/kgi-bin/main.cgi?janu_&raz4&id=6267


Xo'ja Abdulloh Tug'dor (3.2.4-rasm). VII asr qoraxoniy podishohlar davrida 70 yilcha O'zgan shahri poytaxt bo'lgan. Boburnomada yozilishicha o'sha davrda O'zganda yashagan ulug' zod Qilich Burxoniddin Said avlodidan bo'lib Payg'ambarimizning avlodiga borib taqaladi. Z.M.Boburning piri ham o'sha avloddan bo'lgan.



3.2.6-rasm. Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i

bo'y sunishdan bosh tortganligi uchun isyon ko'targan lashkarlar tomonidan o'ldirilgan arab sarkarsi Qutayba ibn Muslim Bahiliy dafni etilgan. Tarixchi Narshaxiy uning qabri qo'yilgan qabristonni "Mozorbuva" nomi bilan tilga olgan.

Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i (3.2.6-rasm). 1978 yilda tashkil etilgan. Andijon viloyati Xonobod shahridagi Amir Temur ko'chasida joylashgan. Andijon shahar markazidan 70 km uzoqlikda. An'anaviy "Andijon bahori" festivali va Soyib Xo'jaev xotirasiga bag'ishlangan kulgu va askiya kechasi o'tkaziladigan sevimli maskan.



3.2.4-rasm. Xo'ja Abdulloh Tug'dor

"BIBI SESHANBA" ziyoratgohi. Qo'rg'ontepa tumani Sultonobod qishlog'ida joylashgan. Andijon shahar markazidan 60 km uzoqlikda. Muqaddas qadamjoy, "Ko'kbuloq", "Qizbuloq" kabi shifobaxsh buloqlari mavjud.

Otaqo'zi madrasasi (3.2.7-rasm). Paxtaobod tumani Madaniyat qishlog'ida joylashgan. Andijon shahridan 35 km uzoqlikda. 1913 yilda qurilgan me'moriy obida. Sharqona uslubda bezatilgan. Maydoni 36 sotik. Hujralari soni 26 ta. Savet hokimiyati yillarida kolxozi ombori bo'lgan. 1970 yildan Xalq muzeyi sifatida faoliyat olib borgan. 1989 yilda masjid sifatida ro'yhatga olingan.

Sayyoxlarning muzeylarga bo'lgan qiziqishini inobatga olgan holda viloyat o'lakashunoslik muzeyi, adabiyot va san'at muzeyi, "Hunarmandchilik" nomli hunarmandlar mahallasi, Zaxiriddin Muhammad Boburning uy-muzeyi restavratsiya qilinib, boyitilmoqda.

Farg'ona vodiysining qadimi shaharlari Quva, Marg'ilon, Rishton hamda Qo'qon shaharlari uchun mavjud masjid va madrasalarining asosiy qisimi muqaddas

mozorlar asosida bunyod etilgan. **Farg'ona viloyatidagi** mavjud me'moriy obidalar ichida muqaddas ziyoratgohlar bilan bog'liq yodgorliklar, masalan, Dahmayi shohon, Modarixon, Bibi Ubayda, Poshho pirim, Bistom buva, Xo'ja Mu'oz, Mo'yи muborak, Puri Siddiq ziyoratgohi, Shohimardondagi Hazrat Ali mozori, Teshkelin (Rishton tumani), Qiz mozor (Marg'ilon shahri), Childuxtaron (Oltiariq tumani) "Shoh Tolib", "To'nga ota" (Oltiariq tumani), "Xo'ja Ilg'or" (Rishton tumani), "Yalang'och ota", "Sadcak ota" (Farg'ona tumani) alohida o'rinn tutadi.

BIBI BUVAYDA MAQBARASI (3.2.8-rasm) —Farg'ona viloyati Buvayda tumanidagi me'moriy yodgorlik (15—16-asrlar). Ziyoratxona va ikki go'rxonadan iborat, to'g'ri burchak tarxli (18x8,5 m). Din arbobi, afsonaviy sarkarda Shoh Jalil onasi (Bibi Huvaydo) va xotiniga atab qurdirgan deb taxmin qilinadi.




3.2.8-rasm. Bibi Buvayda maqbarasi

Peshtoqini
ng ikki yoniga
guldastalar
ishlangan.
Ziyoratxona va
go'rxona
tomlari
gumbazli.

Sharq tomondan ziyeratxonaga taqab Bibi Buvaydaning nabirasi qabri ustiga kichik xona qurilgan. Maqbara bezaksiz, ichkarisi ganch bilan suvalgan. Eshigi o'yma handasiy naqshli. Bino qurilishida pishik g'isht (25x25x5 smli) ishlataligan.

DAXMAI SHOHON (shohlar daxmasi) — Qo'qon shaxridagi me'moriy yodgorlik. 19-asrning 20-yillarida qurilgan. Qo'qon xonlari xonadonlariga tegishli shaxslar Norbo'tabiy va uning avlodlari dafn etilgan. Daxmaga g'arbdan peshtoq (9,4x11,7 m) orqali kiriladi.

Peshtoqining ikki tomoniga burjlar ishlangan, sirkor g'isht va koshin bezakli qilib terilgan. Peshtoq sathining yon tomonlari to'q zangori rangdagi just qalampir tasvirlar bilan bezatilgan.



3.2.7-rasm. Otaqo'zi madrasasi



3.2.5-rasm. Qutayba Ibn Muslim maqbarasi

O'rta qismiga zangori, yashil va oq koshindan sakkiz qirrali yulduzlar, tepasiga qizil, qora va yashil rangli yo'l-yo'l chiziqlar tushirilgan. Ravoq tepasida qizil, pushti, yashil, zangori va oq rangdagi oltiburchak va romb shakkulari tasvirlangan. Maqbara eshigi o'yma o'simliksimon naqsh va arabiylardan yozuvlar bilan uyg'unlashtirilib nafis bezatilgan. Maqbara gumbazli, ichki devorlaridagi darchalarning biridan tomga, ikkinchisidan masjidga o'tilgan. Uchinchisi esa ochiq turgan. Ichki qisimidagi katta ravoqlar bilan darcha ravoqlarining oraliqlaridagi g'ishtlar tik, gajaktar esa to'lqinsimon qilib terilgan.

Maqbara yonida ayvonli masjid (7x6,8 m) ikki us-tunli bo'lib, uning to'sinli shifti 4 katakka bo'lingan, bo'yama naqsh bilan bezatilgan. Daxmai Shohonda xonning onasiga atab qurilgan.

Ziyoratgohlar ichida Shohimardon qishlog'idagi **HAZRAT ALI ZIYORATGOHI** (3.2.9-rasm) alohida o'rinni tutadi. Bu ziyoratgoh hamma zamonalarda Farg'onada vodiysi aholisining eng sevimli maskani bo'lib kelgan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida chop etilgan rus geograf va tarixchilarining ma'lumotlarida Shohimardon xususida alohida to'xtalib, mahalliy aholining eng muqaddas joylaridan biri sifatida e'tirof etganlar. Jumladan, 1871 yili Shohimardonga tashrif buyurgan rus olimi A.P. Fedchenko shunday yozadi: "Bu yerga dafn etilgan avliyonni Shohimardon, ya'ni «Yerkaklar shohi» deb atashib, bu nom uning taxallusidir. Ba'zilar uni birinchi xalifalardan bo'lmish Ali ekanligiga bizni qat'iy ishontirishga urindilar. Hozirgi vaqtida bu mozor Qo'qon xonligidagi eng muqaddas joy sifatida, hattoki, qadimgi O'shning tabarruk joylaridan ham mashhurroqdir. Uni ziyorat qilgani ko'plab xudojo'ylar nafaqat xonlikning turli joylaridan, balki qo'shni o'lkalardan ham keladilar. Xoning o'zi bu yerga ziyorat qilgani tez-tez kelib, turadi...". Shohimardon ziyoratgohi A.P. Fedchenkodan so'ng bu yerga tashrif buyurgan boshqa rus olimi L.Kostenko tomonidan quyidagicha tavsiflangan: «Mozor tog' tizmasining baland, g'oyat go'zal, xushmanzara qismiga joylashgan bo'lib, oldi tomoni qiyalikka qarab turadi. Mozor yonida esa masjid joylashgan. Avliyo qabri esa uncha katta bo'Imagan maqbara ichida bo'lib, O'rta Osiyo uslubiga xos me'moriy ko'rinishga ega.



3.2.9-rasm. HAZRAT ALI ZIYORATGOHI

Puri Siddiq ziyoratgohi (3.2.10-rasm). Puri Siddiq (Siddiqning nabirasi) majmuasi – Marg'ilonning eng qadimiy maskanlaridan. Uning paydo bo'lishi va nomini Payg'ambarimizning (Sallallohu alayhi va sallam) birinchi xalifalari, yaqin do'stlari Abu Bakr Siddiq (raziyallohu anhu) apvlodlari bilan bog'lashadi. Ma'lumotlarga ko'ra bu yerda u zotning nabirasi dafn etilgan va qabr ustiga VII asr oxirlarida maqbara qurilgan.

Yuqoridagilardan tashqari Andijon va Farg'ona viloyatlarida yana bir qancha turistik ressurslar mavjud bo'lib, ular bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish va tegishli turistik marshrutlarni ishlab chiqish oldimizda turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Farg'ona vodiysida turizm sohasini rivojlantirish uchun yetarlicha ressurslar mavjud. Ta'kidlash joyizki turizm deganda faqat tarixiy obidalar emas balki u yerning urf-odatlari, milliy an'analari, tarixiy yodgorliklar hamda hunarmandchiliklari ham kiradi.

Osiyo davlatlarining shaharlari hunarmandchilik buyumlарining pishiqligi va nafisligi bilan shuhrat qozongan.

Xitoy hunarmandlari o'zlarining zeb-ziynat buyumlari, qog'oz, shoyi gazlamalari, chinni buyumlari va nafis kashtalari bilan mashhur bo'lishgan. Ular dunyoda tengi yo'q 600 – 700 kishini sig'dira oladigan mustahkam kemalar yasaganlar.

Yeron – gilamlari, Damashq (Suriya) – harbiy qurot-aslahalari, Samarcand esa sifatli qog'ozlari bilan dunyoga dong taratgan.

Mamlakatimiz tarixida Sharq Uyg'onish davri atohida o'rinn tutadi, chunki ana shu davrdan boshtab fan va madaniyat, adabiyot va san'at rivojlanishi yuqori darajaga chiqa boshladi. Buyuk ipak yo'llining Sharqdan G'arbg'a, G'arbdan Sharqqa Turkiston orqali o'tishi esa Xiva, Urganch, Buxoro, Samarcand kabi ko'hna va qadimiy shaharlarimiz qatorida Shahrисабз, Kitob, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Shahrixon, Namangan, Chust, Koson va nihoyat Toshkent singari shaharlarda ham savdo-sotiq gurkirab rivojlanishiga, hunarmandchilikning ravnaq topishiga, tashqi savdoning tobora kengayib borishiga, har tomonlama taraqqiyotga olib boradi. Ayniqsa, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiliği misli ko'rilmagan darajada rivoj topdi. Bu sohada faoliyat yurituvchi usta va shogirdlar hamda ularning maktablarining dovrug'i Buyuk ipak yo'li orqali har tomonga tobora yoyila bordi. Amaliy san'at va



3.2.10-rasm. Puri Siddiq ziyoratgohi

hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchilar nafaqat iste'mol buyumlarini yasab qolmasdan, balki shunday san'at durdonalarini ham yaratar edilarki, endilikda ular milliy, madaniy merosimiz sifatida jahon bo'ylab namoyish qilinmoqda.

Xalq amaliy san'ati va hunarmandchilikning bugungi muammolari haqida so'z borganda, bu sohaning tarixiga nazar tashlash joizdir. Azaldan Sharq milliy hunarmandchiligi va amaliy san'atning barcha turlari (zargarlik, zardo'zlik, misgarlik, temirchilik, chilangarlik, duradgorlik, toshtaroshlik, o'ymakerlik, ganchga, toshga, yog'ochga naqsh berish, musavvirlik, quruvchilik, kulolchilik, aravsozlik, tandirchilik, beshiksozlik, taqachi va egarchilik, mahsido'zlik, bo'zchilik va dastgohchilik, choryachilik va kashtachilik do'ppi, to'n chorsi, hoshiya, jiyak tikuvehilik,sovunchilik, qandolatchilik, novvoyechilik, teriga ishlov berish, tegirmonchilik, juvozkashlik kabi) rivojlangan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'tra, XIX asr oxiri -- XX asr boshlarida Turkistonning o'troq tumanlarida 108 mingdan ortiq hunarmandchilik korxonariyu, do'konlari bo'lib, ular yiliga 60 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarishgan. Bular qatoriga yakka yoki oilaviy tartibda mehnat qiluvchilar va amaliy san'at vakillarini qo'shadigan bo'lsak, Turkiston aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va amaliy san'at bilan shug'ullanganligining guvohi bo'lamiz. Har bir xalqning milliy madaniyatni turdosh yoki o'zaro ta'sir yordamida rivojlansa, ikkatasining ham uyg'unlashgan holda ravnaq topishi muqarrardir. O'rta Osiyo mahalliy xalqlari, ya'ni o'zbek, turkman, qozoq, tojik, qirg'iz, qoraqalpoq xalqlarining madaniyatini bunga yaqqol misoldir.

Ammo, XIX asr oxirlaridan boshlab ahvol batamom o'zgardi. Ya'ni Chor Rossiyasi tomonidan Turkistonning egallab olinishi natijasida, bu yerda yirik korxonalar tashkil topa boshladi. Bu jahon taraqqiyotida ob'ektiv holat bo'lib, u endilikda Turkistonni chetlab o'tishi mumkin emas edi. Xilma-xil shirkatlar, artellar, manufaktura, fabrika va zavodlarning oyoqqa tura boshlashi va ular tomonidan ko'plab miqdorda iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishi -- qo'l mehnatiga moslashgan hunarmandchilikning inqirozga uchrashiga olib keldi. Chunki qo'l mehnatiga moslashgan hunarmandchilikning fabrika yoki zavod bilan raqobatlasha olmasligi muqarrar edi.

Bunday nohaqliklar hunarmandlar mehnatini qadrsizlantirdi. Endilikda bunday qatag'onlik munosabatlariiga chiday olmagan hunarmandlar artel, fabrika va



3.3.1-rasm. Qo'qon pichog'i

zavodlarga ishga o'tib ishlashga majbur bo'ldilar. Bu milliy xalq hunarmandchiliga, uning amaliy san'atiga nisbatan ham siyosiy ham iqtisodiy shapko'rlik edi. Chunki, dunyoga dovrig'i ketgan, xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atida durdonalar yaratgan, xalqni iste'mol buyumlari bilan ta'minlagan, ish bergen usta-yu, shogirdlar, hunarmandchilik va amaliy san'at maktablarining nomi ana shunday qabihlik va shapko'rlik evaziga tobora o'sa boshladи. Oqibat-natijada, jahonga mashhur Turkiston gilamlari-yu, naqshinkor zargarlik buyumlari-yu, tarixiy yodgorliklari, chinni idishlari-yu, shohi so'zanalarini, muzey yoki shaxsiy to'plam (kolleksiya)larda uchratish mumkin, xolos.

Shunday qilib, xalq hunarmandchiligi va amaliy san'ati umummadaniyatimizning ajralmas qismi sifatida shunday sabablar evaziga inqirozga yuz tutdi. Kichik bir misol: XIX asrning oxirida birligina Toshkentning Shayhontohur qismida 567 ta to'quvchilik do'konlari bor bo'lgan bo'lsa, 1912 yilga kelib, ulardan atigi 42 ta qolgan. Hozirda Toshkentning Chorsu bozori atrofida barmoq bilan sanoqli beshikchi, temirchi va duradgorchilik do'konlari qolgan, xolos. Ular ham bir iloj qilib, zo'rmazo'raki tiklangan harobalardan iborat. Shu o'rinda shahar o'tmishiga bir nazar tashlasak, hunarmandchilik bilan bog'liq ko'chalar, daha va mahallar mavjud bo'lib, ularda hunarmandchilik yoki amaliy san'atning u yoki bu sohalari ishlab turar va bu ko'cha, mavze, daha, mahallalar egarchi, taqachi, bo'zchi, dukchi, zargarlik, degrezlik kabi nomlar bilan atalar edi. Ming afsuslar bo'lsinki, hozirgi kunda bundan deyarli asar ham qolmagan, chunki eskilik qoldig'i sifatida zamonaviy emas deb topilib, ularga zamonaviy nomlar berilgan. Bu misol respublikamiz hududidagi barcha ko'hna va azim shaharlarning barchasiga taaluqlidir, chunki, utarda ana shunday ahvol. Axir bular xalqimiz, shaharlarimiz merosi, qolaversa, bu joylarda yashovchi kosib va hunarmandlar avlodini, tarixini belgilovchi mezon edi-ku. Ma'lum bir ish yuzasidan kelgan mehmon, biror-bir ustuning nomini aytib, so'rab kelsa, u insonni ustuning turar joyiga yo'naltirish oson edi. Chunki bunday ko'cha, mavze va mahallalar nomi mashhur va uni deyarli yoshu, qari bilar edi.

Chust shahri qadimdan o'zining usta hunarmandlari va do'ppido'zları bilan dong taratgan. Respublikamiz hududida, shuningdek, ko'pgina chet el davlatlarida Chust pichog'i, Chust do'ppisi ma'lum va mashhurdit. Tarixiy manbalarning shohidlik berishicha chustliklar qadimgi davrdan hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelishadi. Buni Bibiona, Varzik, G'ovada olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan daliliy ashyolar orqali tarixchi olimlar V.Sprishevskiy, M.Varones, Y.Qosimov, S.Baratov, A.Asqarovlar isbotlab berishgani ma'lum⁴⁰.

⁴⁰ Respublika davlat arxivsi. 19-f, 1-ro'yxat. 1893-delo, 910 bet.

Arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha Chustda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida beshta paxta zavodi, bitta yog' zavodi, uchta cho'yan quyish zavodi mavjud bo'lgan. Chustlik hunarmand pichoqchilar tayyorlagan buyumlar g'oyat haridorgir bo'lgan. Chust do'ppisi ham o'zining nafisligi qaytarilmas nusxalari bilan Marg'ilon, Qo'qon, Andijon do'ppilaridan keskin farq qiladi. Albatta, ta'kidlash lozimki, paxta zavodlari, boshqa ishlab chiqarish korxonalar boy-badavlat odamlarning xususiy korxonasi ekanligi sababli, kichik, kam quvvatli bo'lgan. Do'ppido'zlik bilan esa, ayollar yakka tartibda shug'ullanishgan. 1917 yilda butun Rossiya davlati hududlarida xalq hokimiyatini o'z qo'lliga oldi. Shu davrdan boshlab, xususiy korxona, fabrika, zavodlar umumxalq mulkiga aylantirilgan. Yangi korxonalar qurila boshlandi. Ko'plab shaharlarda bo'lgani kabi Chustda ham korxonalar tashkil topa boshladi. Yakka tartibda mehnat qiluvchi hunarmandlar ham ittifoqlarga birlasha boshladi.

Dastlabki shunday artel "Ozodlik" nomi bilan 1927 yilda tashkil qilindi. Bu korxona Farg'ona shahar hunarmandchilik sanoati kengashi ixtiyorida bo'lgan⁴¹. Korxonada 250 kishi ishlari va asosiy ishlab chiqariladigan mahsulot tikuvchilik materiallaridan iborat edi.

1938 yilning 22 fevralida ana shu dastlabki korxona asosida tashkil etilgan "1 may" arteli ishgaga tushdi. "1 may arteli"ga bu davrda Muhammadjon Aminov rahbarlik qilgan. Artelning ishlabchigarishi rivojlanishida u kishining hissasi kattadir. 1941–1945 yillardagi ikkinchi jahon urushi davrida M.Aminov artelda qizil askarlar uchun issiq kiyim, pufaykalar tikishni yo'tga qo'ygan. Ishlayotgan ayollar har kuni issiq ovqat bilan ta'minlanishi, ish unumini oshirgan. Bu davrda "hamma narsa front uchun", "Hamma narsa g'alaba uchun" degan chaqiriqlarga binoan barcha korxonalar o'zlarining ishlab chiqarishlarini o'zgartirgan edilar⁴². Ikkinchi jahon urushi g'alaba bilan tugagach artel o'zining asosiy ishlab chiqariladigan mahsuloti – atlas, shoyi, beqasam va bo'z ishlab chiqarishni davom ettirgan. Bu jarayon 1960 yilga qadar davom etgan. 1960 yil 1 iyundan "1-may arteli" Chust Badiiy buyumlar fabrikasi deb nomlangan. Bu davrda eski tikuv dastgohlari ishlab chiqarishdan olib tashlangan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va turi o'zgargan. Asosiy ishlab chiqariladigan do'ppi yoniga popochilik mahsulotlari – so'zana, choyshab, belbog' va boshqalar qo'shilgan.

To'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqish esa, Kosonsoyda yangi tashkil etilgan artega o'tkazildi. Fabrikani rivojlantirish uchun ikki qavatli bino qurilishi amalga oshirildi. Bu yangi binoga so'rilar o'rnatalib, ayollarning do'ppi nusxalari O'zbekiston Respublikasining davlat narx qo'mitasiga olib borilib, ularning

⁴¹ Respublika davlat arxiv, 19-f. 1-ro'yxat, 1458-delo.

⁴² Respublika davlat arxiv, 19-f. 1-ro'yxat, 1458-delo.

murakkabligiga mos ravishda narxlar belgilandi. Dastlabki davrda do'ppilar besh murakkablikda tikilgan va narxlari (o'sha davr narxlarida) 2 so'm 40 tiyindan 10 so'm 80 tiyingacha bo'lган. 1966 yilga kelib badiiy buyumlar fabrikasida 1 mln. 620 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Shu yilda fabrikaga Mahbuba Saidova direktor etib tayinlagan. 80 yillarning bosqlarida sobiq KPSS Markaziy Qo'mitasining xalq hunurmandchilik sohalarini rivojlantirish to'g'risidagi qaroriga binoan Chust badiiy buyumlar fabrikasi ham kengaytirila boshlagan. Yangi zamonaviy sex binolari qurilib, yuzdan ortiq popochilik dastgohlari o'rnatilgan. 1980 yilga kelib, fabrikaning ishlab chiqarish quvvati 1966 yilga nisbatan ikki barobarga ko'tarilgan. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning umumiyligi miqdori 3,3 mln. so'mga yetkazilgan. Fabrika ishchi - xizmatchilari bolalarini tarbiyalash uchun bog'cha qurib ishga tushirilgan.

Fabrikada ishlovchi ayollar tomonidan tikilgan Chust do'ppilarini bir necha bor jahon xalqlari amaliy san'ati ko'rgazmalarida qatnashib, faxrli o'rnlarni egallagan. Jumladan, Polsha respublikasining Poznan, Yaponiya davlatining Tokio shaharlariда o'tkazilgan ko'rgazmalarda faxrli o'rnlarni egallagan. Chust shahri ko'hna hunarmandchilik markazi sifatida dovrig'i butun dunyoga yoyilishiga mana shular ham sabab bo'lган.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach davlat mulkini xususiylashtirish qo'mitasining 1993 yilgi buyrug'iga asosan, Chust badiiy buyumlar fabrikasi "Chevar" hissadotlik jamiyatiga aylantirildi. Mazkur jamiyatda 1390 nafar ishchi xizmatchi mehnat qilishadi. Ular 1993 yilda 2,5 mln. so'mlik xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishdi.

Chust shahridagi yirik korxonalardan biri paxta tozalash zavodi bo'lib, tumanda yetishtiriladigan paxtaning hammasi shu zavodda dastlabki qayta ishlovdan o'tkaziladi. Paxta zavodi 1936 yilda qurib ishga tushirilgan. Chustda paxta zavodi garchand ishga tushirilgan bo'lsa ham elektriflashtirilmagan edi, - deb hikoya qiladi mehnat faxriysi A.Bobojonov. Zavod hududida Germaniyada



3.3.3-rasm. Margilon ipaklari



3.3.2-rasm. Chust do'ppichiligi

tayyorlangan "MANN" markali ikkita katta dizellar bo'lib, barcha mexanizmlar shu dizellar kuchi bilan yuritilgan. Farg'onadan keltirilgan "Krasniy progress" dizeli esa, juda kam miqdorda elektr toki berar va zavod ehtiyojini qondirmas edi. Aholi uylarida esa elektr toki umuman bo'lmasa, Bir necha oy davomida zavodni elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun Chust – Pop – Toshkent orasida shu reja doirasida katta ishlar amalga oshirilgan. Shu tariqa Chustda barcha hunarmandchilik markazlari xususan, do'ppi tikish sexlari elektr energiyasi bilan ta'minlana boshlagan.

Chust shahri va tumanida hunarmandchilik qadimdan mavjud va ana shu hunarmandchilik turlarining rivojlanishi bevosita savdo-sotiq bilan bog'liq. Shu sababli va aholini turli mahsulotlar, buyumlar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish maqsadida Chust tumanida 1932 yildan markazlashgan savdo tarmog'i – "Uztorq" tashkil etilgan. 1936 yilda yangi savdo do'konlari ishga tushgan. 1947 yilda Chust tumanida matlubot jamiyatni tashkil etilgan, uning tarkibiga Chust, Sho'rken, Toshqo'rg'on, Karkidon, Varzik, Olmos va Hisorak qishloq matlubot jamiyatlari



3.3.4-rasm. Risiton keramikasi

kiritilgan. 1950 yilda esa, bu matlubot jamiyatlari birlashib ikkita markazlashgan jamiyatga aylantirilgan. 1953 yildan 1957 yilga qadar RayPO (Tuman matlubot jamiyat)ning umumiy tovaroboroti (o'sha davr narxlarida) 30 mln. 286 ming so'mni tashkil etgan. 1962 yilning o'zidagina aholiga (1961 yilgi pul almashganidan keyingi narxlarida) 9 mln. 207 ming so'mlik sanoat, qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilgan.

Chustda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun xizmat ko'rsatuvchi maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari korxonasi 1936 yilda tashkil topgan. Dastlabki xizmat korxonasi "Qizil kuch" deb atalgan.

1940–1950 yillar mobaynida "Qizil poyafzalchilar", "Qizil yuk tashuvchilar", "XVI yillik" degan artellar faoliyat ko'rsatgan. 1960 yilga kelib ushbu artellar birlashtirilib "Rayprombit" kombinati tuzilgan. Korxonani birlashtirilib, uni yirik maishiy xizmat ko'rsatish korxonasiga aylantirilgan. Keyingi vaqtarda korxona tarmoqlari rivojlanib, TEA, Avtotrans va boshqalar alohida korxonalarga ajralib chiqgan. 80-yillar boshlarida tumandagi barcha jamoa xo'jaliklarida maishiy xizmat uylari tashkil etilgan va ular uchun binolar qurilgan. Maishiy xizmat ko'rsatish korxonasi tarkibida ishlaydigan ustalar 1970 yilda qurilib ishga tushirilgan milliy pichoqlar zavodida mehnat qila boshlagan. Zavodda pichoqchi

ustalar avlodlari o‘z mahsulotlarini haridorgir bo‘lishi uchun jon kuydirib mehnat qilishgan. Zavodda ishlab chiqarilgan mahsulotlar Hindistonning Nyu-Deli, Turkiyaning Izmir, Polshaning Poznan, Suriyaning Damashq shaharlarida o‘tkazilgan xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etilgan va diplomlar bilan munosib ravishda taqdirlangan. Agar 1971 yilda zavodda 114 kishi mehnat qilib, (o‘sha davr narxlarida) 352 ming so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 1993 yilda 400 kishi 30 turdag‘i mahsulot ishlab chiqarib, umumiy mahsulot qiymati 191 mln. 912 ming so‘mga yetkazilgan.

Hozirgi kunda Chustning o‘z tamg‘asi bilan 20 dan ortiq pichoq turlari mavjud. Chust pichog‘i o‘zining bejirim, betakror, rang-barang va keskirligi bilan boshqa milliy pichoqlardan ajralib turadi. Shu bois Farg‘ona vodiysida bo‘lgan har bir chet elliq mehmon Chust shahrida bo‘lar ekan, Chustning bu bebafo milliy pichog‘idan, albatta, sovg‘a sifatida olib qaytadi. Biroq, muammo, bunday serqirra kasb egalari, xususan, mashaqqatli faqatgina Chust shahriga xos bo‘lgan ixtisoslashgan mehnat resursi, hunarmandlar yetarli bo‘lishiga qaramay ana shu milliy g‘ururimiz, sharq mash‘ali Chustning bu noyob durdonalarini yaratish uchun, ko‘plab ishlab chiqarish imkoniyati mavjud emas. Har oy 30 – 50 ming dona milliy – sovg‘a (suvinir) pichoqlari ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Mustaqillik yillarda Chust shahrida ham iqtisodiy islohotlar o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Yurtimizda sanoat, xalq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, iqtisodiy o‘zgarishlarni izchillik bilan amalga oshirish yo‘lida izlanishlar olib borilmoqda. Qishloq xo‘jaligida fermerlik, xalq xo‘jaligi sohalarida xususiylashtirish, tadbirkorlik muhim rol o‘ynay boshladi. 1991 yildan beri o‘tgan qisqa vaqt mobaynida badiiy buyumlar fabrikasi, paxta zavodi, qandolatchilik fabrikasi, tikuvchilik fabrikasi, pichoq zavozdi kabi korxonalar hissadorlik jamiyatiga aylantirildi (Biroq, Chustdag‘i mehnat resurslariga nisbatan bu korxonalar aholining mehnat bilan bandlik ehtiyojini qondira olmaydi).

Hunarmandchilik rivojlangan joyda albatta, uning tarixiy bozorlari ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Chust bozori ham xuddi shunday sharqona xususiyatlarini saqlab qolgan bozorlardan biridir. Bozorda behisob hunarmand kosiblar, tikuvchilar, dehqonlar, davlat va shirkatlar buyumini sotuvchilar minglab xilma-xil buyumlarni oldi-sotdi qiladilar. Bunday bozorlarda topilmaydigan buyumning o‘zi yo‘q. Ayniqsa, bu bozorga Chust do‘ppisi-yu, Chust pichog‘ini harid qilish uchun turli joylardan, hattoki xorijdan haridorlar keladilar. Pichoq haqida so‘z yuritar ekanmiz, beixtiyor “Pichoq bu yarim rizq” degan xalqimizning hikmatli so‘zi yodga keladi. Buning tagida ma’no ko‘p. Tarixga bir nazar tashlasak, avvallari xalqimizning ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi bo‘lganligi, asosan chorvachilik bilan shug‘ullanganligini ko‘rishimiz mumkin. Chorvador xalq uchun esa, pichoqning bo‘lishi bebahodir. Chunki, u yoki bu sababga ko‘ra

so‘yilishi kerak bo‘lgan hayvonni halollash uchun pichoq chorvadorning ajralmas ish qurolidir. Shu sababli ham erkaklar doimo o‘z yonlarida pichoq olib yurganlar. Pichoqqa talab juda katta bo‘lgan va uni olib yurish rasm bo‘lgan. Bu qoidaga qat‘iy amal qilingan. Shu o‘rinda o‘zbeklarning pichoq osib yurishlarini noto‘g‘ri talqin qiluvchilarga, ya’ni o‘zbeklar pichoqni yovuz quroq sifatida taqib yurishadi deb atash noto‘g‘ri. To‘g‘ri yovuz quroq sifatida ishlatalidigan pichoq – xanjarlar turi ham bo‘lgan, lekin ularda gulband yo‘q va u shariatda haromdir. Bunday pichoq – xanjarlar janglarda, to‘qnashuvlarda ishlataligan va ular, asosan, boshqa xalqlardagi kabi lashkar yoki navkarlarda bo‘lgan.

Pichoq bu milliy g‘urur hisoblanib, u oshxona va dasturxonning bezagidir. Ro‘zg‘orimizning eng zarur vositasidir. Pichoq tayyorlash jarayoni ko‘p mehnat talab qiladigan jarayon bo‘lib, u tayyor pichoq, bo‘lgunga qadar 76 marta qo‘ldan qo‘lga o‘tadi. Shunday mehnat evaziga yasalgan dandon sopli, mis yoki kumush gulbandli pichoqlar, pichoqning ko‘rinishiga alohida ko‘rk baxsh etadi.

Chust do‘ppisi o‘zinining nusxasi bilan boshqa do‘ppilardan ajralib turadi. U go‘zalligi va sifati bilan mashhurdir. Chust do‘ppisi, to‘ni, chorsisi va kashtalarichi? Bular to‘g‘risida qancha yozsangiz shuncha oz. Chust bozoridan chiqib shahar aylansangiz, uning o‘ziga xos yana bir xususiyatlaridan bahramand bo‘lasiz. U ham bo‘lsa, shahar hunarmandchiligining xilma-xilligidir. Chust azaldan hunarmandchilik sohasida mashhur bo‘lgan va u yerda zargar, misgar, temirchi, tunukasoz, chilangar, kosib, duradgor, naqqosh, kashtado‘z, tikuvchi, to‘quvchi, pichoqchi kabi hunarmandlar, ustalarlar son-sanoqsiz bo‘lgan. Hozir ham shahar xonodonlariga tashrif buyurar ekansiz, har ikki xonodonning birida do‘ppi, to‘n, chorsi, har xil kashtalar tikayotgan oilalarni. eshik va pichoq yasayotgan, yog‘ochga naqsh berayotgan ustalarni ko‘rasiz va ular yaratayotgan buyumlardan dilingiz quvonadi. Bunday hunarmandlar aksariyat yakka yoki oilaviy mehnat qiladilar, qolgan qismi esa, shaharda mehnat jamoalarida faoliyat ko‘rsatadilar. Bu jamoalarda milliy pichoqning bir necha nusxasi, kashtachilikning so‘zana, shohi so‘zana, palang, alpak nusxalari, qandolatchilikning novvoy, pashmak, rohat – luqum, holva kabi turlarini ko‘plab tayyorlab iste’molga chiqaradilar. Ular tayyorlagan mahsulotlarning ba’zi birlari hatto xorijiy mamlakatlarda ham haridor topmoqda.

Tayanch so‘z va iboralar: tabiiy resurslar, tarixiy obidalar, turizm xizmatlari, iqtisodiyotni rivojlantirish, turizm, xalqaro savdo, mehmonxonalar, turistik xizmatlar ko‘rsatish, turizm xizmatlarining eksporti.

Mustaqil nazorat qılış uchun topshiriq va savollar:

1. Farg'ona turistik mintaqasining madaniy, tarixiy va me'moriy yodgorliklarga nimalar kiradi?
2. Farg'ona turistik mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish holatini tushuntirib bering.
3. Farg'ona turistik mintaqasida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari qanday?
4. Farg'ona turistik mintaqasidagi asosiy muammolar nimalardan iborat?

18- MAVZU. JIZZAX – SIRDARYO TURISTIK MINTAQASI

Reja:

- 18.1.Jizzax viloyatining madaniy-tarixiy turistik resurslari salohiyatidan foydalanish imkoniyatlari
- 18.2. Jizzax viloyatining ekoturistik resurslari va ulardan samarali foydalanish
- 18.3.Sirdaryo viloyatining umumiy tavsisi
- 18.4. Sirdaryo viloyatining turistik resurslari va turizmni rivojlantirishdagi o'mni

18.1.Jizzax viloyatining madaniy-tarixiy turistik resurslari salohiyatidan foydalanish imkoniyatlari

Jizzax viloyati O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat hisoblanadi. Respublikaning markaziy qismida joylashgan. Viloyat 1973 yil 28 dekabrda tashkil etilgan. Jizzax viloyati shimaliy-sharqda Qozoqiston Respublikasi va Sirdaryo viloyati, janubiy g'arbida Samarqand, Navoiy viloyatlari, janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 21,1 ming km². Aholisi 1,3 mln. Kishidan ortiq. Jizzax viloyatida 12 ta qishloq tumani (Armasoy, Baxmal, Do'stlik, Jizzax, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Mirzacho'l, Paxtakor, Yangiobod, Forish, G'allaorol), 7 ta shahar (Gagarin, Dashtobod, Do'stlik, Jizzax, Marjonbuloq, Paxtakor, G'allaorol), 8 ta shaharcha (Bo'ston, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Usmat, Uchquloch, Yangiqishloq, Quytosh), 95 ta qishloq fuqarolari yig'ini mavjud. Markazi – Jizzax shahri.

Viloyatda 5 muzey (Jizzax viloyat o'lakashunoslik muzeyi, Sharof Rashidov muzeyi, Zomin tarixi muzeyi, Hamid Olimjon muzeyi, Mehnat qahramoni X. Nosirov muzeyi), 289 jamoat kutubxonasi (8 mln. nusxdan ortiq asar), 126 klub, 12 tuman markazi, 73 qishloq, va shahar madaniyat uylari, 77 badiiy havaskorlik, 54 folklor-etnografik jamoalar, 12 maqomchilar guruhi, 60 xoreografik raqs dastalari, vokal va estrada guruhlari faoliyat ko'rsatadi. Jizzax viloyatida 3 teatr: Yunus Rajabiy nomidagi viloyat musiqali drama teatri, viloyat qo'g'irchoq teatri, Gagarin shahrida qozoq milliy teatri bor.

Jizzax tarixinining eng qadimgi saxifalari haqida gap ketganda, albatta jahon tarixiga daxildor sanalmish «Sayxonsov qoyatoshlari» dagi suratlarni (4,5 ming yil avval), eng qadimgi odamlar yashaganligi taxmin etilayotgan «Peshag'or G'opi» madaniy qatlamlarini, ikki ming - ikki yarim ming yillik tarixga ega «Mozorsov yodgorliklari» ni, «Jemonjar yer osti ehromlari» ni, qadimgi manbalarda tilga olingan Gaza, Harakana, Zomin, Sobot, Mik, Marsmanda, undanda qadimgiroq

bo'lmish Xitoy sohnomalarida tilga olingan «Echa shahri» qoldiqlari bo'lmish qadimgi qal'alar va shaharlar o'rinnarini faxr bilan tilga olamiz.

Viloyat hududda ming yillardan beri aziz tutib kelingan «Temir darboza», "Sa'd ibn Abi Vaqqos", "Parpi ota", «Xo'jamushkent ota», "Novqa ota", "O'smat ota", "Sayid Mir Xalililloh ota", "Xo'jabog'oti ota" kabi ko'plab mo'tabar ziyorat manzillari va qadamjolar borki, bugungi mustaqillik yillari sharofatidan yanada obod va ko'rkan manzellarga aylandi, o'z salobati bilan yurtimiz saodatiga shukuh bag'ishlab turibdi.

Viloyatda 2008 yilning 10 iyun holatiga jami 372 ta madaniy meros ob'ektlari, shundan 42 ta tarixiy obida va muqaddas ziyoratgohlar, 267 ta arxeologik manzilgohlar, 63 ta monumental yodgorliklar (haykallar, byustlar, xotira maydonlari) "Davlat muhofazasi ro'yxatlari"ga kiritilgan. Jizzax viloyatidagi diniy-ziyoratgoh maskanlarga turistik marshrutlar ishlab chiqishda ushbu ziyoratgohlarning ziyorat qilish xususiyatlarini o'rganib chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifani bajarish har bir ziyoratgohlarga ma'lum bir turistik oqimni hosil qilish uchun ham juda muhim hisoblanadi. Birinchidan, viloyatdagi ziyoratchilarning qaysi ziyoratgohni ko'proq ziyorat qilishlarni aniqlash. Bu natijalar asosida viloyatda ichki turizm va xalqaro turizmda turistlar aynan tanlagan yoki tinlaydigan diniy-ziyoratgohlar ma'lum bo'ladi.

Mutaxassislar ma'lumoti bo'yicha asosiy madaniy-tarixiy turistik resurslarga quyidagilarni kiritish mumkin:

«Sa'd ibn Abu Vaqqos» ziyoratgohi. Mazkur ziyoratgoh G'allaorol tumanining Avliyo qishlog'ida joylashgan bo'lib, ikki bo'lakka bo'lingan. Yuqori qismi – ko'l buyi hududi shifobaxsh va muqaddas bo'loqlari, go'zal va so'llim go'shalari, ajoyib tabiat, betakror manzaralari bilan kishi dilini nurafshon aylasa, pastki bo'lagi ko'hna masjidi, hilxonasi bilan diqqatga sazovordir.

"Jondahar ota" ziyoratgohi. Forish tumanining G'orli TARASII qishlog'ida Muhammad Sharif (Maylono Grekushox) nomi bilan vaziz tutilguvchi ikkita ziyorat manzili bor. Birinchisi, ul zoti bobaroqotning xonaqoxlari bo'lsa, ikkinchisi "Jondahar ota" - ("jonga darmon beruvchi" ma'nosida) ziyoratgohi hisoblanadi.

"O'smat ota" ziyoratgohi. O'zbekistonda mavjud avliyolar qabrlari, aziz qadamjolarning aksariyati islam dunyosiga mashhur kishitar, payg'ambarlar, aziz-avliyoyu anbiyolar, pirlar, xalifalar va shayxlarning nomi bilan mashhurroq. Bunday bo'lishiga tabiiy va tarixiy asoslari bor.

"Xujabog'bon ota" ziyoratgohi. Mazkur ziyoratgohga Forish tumanining Xoratosh qishlog'idan burilib, tog' tomonga, dala yo'li bilan kirib boriladi. Xassos adiba Sa'dina Bobomurodovaning "Xoratosh" degan badixasi "Jizzax haqiqati" da bosilib edi. Unda shunday satrlar bor... «Qadim ajdodlarimiz bizlarga, ya'ni hozirgi odamlarga o'xshab, hashamatli uy-joylarga ruju qo'yagan ekan. O'zi besh kunlik

dunyo bo'lsa, chin uy, chin dunyoda, deya g'orlarda, yerto'la, kapa, o'tov va chaylalarda yashayverishgan ekan.

Bugun bu yerda anchagina obodonchilik ishlari bajarilgan. Ulug' avliyo otamizning manzili obod va ko'rkar, yo'laklar, zinalar, gullar, hovo'zlar ziyyaratgohga fayz kiritib turibdi. "Xujabog'bon ota" xonaqosini tiklash harakati boshlangan.

"Novqa ota" ziyyorattohi. Baxmal qishlog'ining Novqa qishlog'ida qadim va ko'rkar ziyyaratgoh bor. Ziyyaratgohning «Novqa ota» deya nomlanishini ko'proq «Nak'atun» (arabcha) - ya'ni «tuya» ma'nosi bilan bog'lashadi. Ilmiy adabiyotlarda juda ko'p bor duch kelganimiz - Nauqat, Navqand, Navqad (Navqadiy) atamalari ham aynan shu zaminga taalluqli. Bizningcha ham ana shu atama zamiridan ma'no axtarmoq to'g'riday - "yashil joy", "yashnagan manzil..."

"Xo'jamushkent ota" ziyyoratgohi. Yangiobod tumanining Xo'jamushkent qishlog'ida ana shu nom bilan atalguvchi ziyyoratgoh bor.

"Ko'k to'nli ota" ziyyoratgohi. Mazkur ziyyaratgoh Jizzax shahridan 55 kilometrlar. Zomin shaharchasidan 5 kilometrlar chamasi o'zoqlikda, Zomindan tog' osha Baxmalga boradigan tog' yo'lining shundaygina yoqasida joylashgan. Xonaqox, muvaqqat to'xtash joyi va oshxona binolaridan iborat.

"Xo'jai sarob ota" ziyyoratgohi. Zomin tumanidagi so'lim Pishag'ar qishlog'ining yuqoriqo'ida bir ziyyoratgoh maskan bor. Bu qadamjonni mahalliy aholi «Xo'jai Sarob ota ziyyoratgohi» («Suv boshining egasi») deb atashadi. Atrofini yashilliklar va obihayot o'rabi turgan bu dargohga qadam qo'yganingiz hamono, ko'ngilni ajib bir osoyishtalik qamrab oladi. Go'yoki, g'am-tashvishga to'da dunyo orqada qolib, betashvish olamga kirgandek his qilasiz, o'zingizni. Teparoqda maqbara. Maqbara ro'parasida masjid qad ko'targan bo'lib, ziyyaratgohning xushhavo tabiatiga o'zgacha ulug' vorlik baxsh etganday.

"Xoja Shohimardon sherdor" ziyyoratgohi. Mazkur ziyyoratgoh Zomin tumanining Turkman qishlog'ida asriy tut daraxtlari hovuchida, yashil bog'-chorbog' ichida joylashgan bo'lib bir necha eshonzodalar so'nggi manzil tutgan obod maskan. Hazrat Aliga nisbat beriladi. Hududi 2,3 hektar.

«Parpi ota» ziyyoratgohi. "Parpi ota" ziyyoratgohi Jizzax shahridan 45 kilometrlar chamasi uzoqlikda, Morguzar tog'larining orasida, "Kurpasoy" mahalla fuqarolar yig'inidagi Yalpoqbosh qishlog'i hududida joylashgan bo'lib mahalliy aholi tomonidan aziz maskan sifatida e'zozlab kelinadi.

"Sayid burxoniddin qilich" ziyyoratgohi. "Qilich Burxoniddin" nomi bilan mashhur Farg'ona hukmdori bo'lgan bir hukmdorning o'z ixtiyori bilan taxtdan voz kechishi va uning qabri buyuk karvon yo'li ustidagi manzillardan biri bo'lishi mumkinligi haqida yozma manbalar anchagina topilgan sopol siniqlari va tangani

ilmiy o'rganish natijalariga qarab yodgorlikni eramizning X asriga, Somoniylar davriga taalluqli, deb topildi.

"Cho'qmozorota" ziyoratgohi. Yangiobod tumanida, «Ko'shqand» qishloq fuqarolar yig'ini, Qo'shqand qishlog'idan uncha uzoq bo'Imagan hududda joylashgan, o'zbek qavmlaridan biri - Juzning bir juzi, So'loqli elining bir bo'lagi "Cho'qmorli" deb yuritiladi, ana shunga mutanosib ravishda ular sig'inadigan manzil "Cho'qmozor ota" deb atalib ketilgan.

"Sayfin ota" ziyoratgohi. G'allaorol tumanidagi Sayfin ota qishlog'i hududida bo'lib, maydoni 8,0 hektarni tashkil etadi. Quyuq daraxtzor, ko'hna qabriston, masjid binosi, xonaqoh mayjud qabriston hududida o'ta noyob nakshu nigorlar bilan bezatilgan, san'atkorona uslubda ishlangan bir necha tarixiy qabr toshlari tilshunoslarni kutmoqda.

«Archamozor ota» ziyoratgohi. Zomin tumanidagi Yettikechuv qishlog'idan yuqoriqda, archazor bag'rida, Yettikechuv soy yoqasida joylashgan mazkur qadamjo shifobaxsh buлоqlari bilan e'tibor topgan. Bu yerdagi qabristonga ming yilning yuzi bo'lganligi aytildi. «Archamozor ota» da XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida «Mulla Nazar Vali» degan kishi yashaganligi va shu yerga qo'yilganligi qayd etiladi.

Zomin tumanining Beshkubi qishlog'i hududida shu nomdag'i ziyoratgoh

"Xoja qahhor vali" qadamjosi. "Zomin" atamasi "Avesto"da tilga olingan "Zomyod" - farovonlik farishtasi nomi bilan bog'lanadigan bo'lsa, mazkur shaharning tarixi zardushtiy ota-bobolarimiz zamonasi bilan, eramizdan avvalgi VII-V asrlar bilan o'lchanadi. Zomin shaharchasining o'rtaida ajoyib yodgorlik majmuasi joylashgan. "Xoja Qahhop Vali" majmuasiga kiruvchi «Xolid ibn Bolid» masjidi ayvoni oqbuloqlik Boy Eshon tomonidan usta Hakim ko'li bilan bunyod etilgan. Bobotut daraxtining yoshi ikki ming yildan kam emas.

"Parpi oyim" ziyoratgohi. Uvolsoy darasida "Parpi oyim" nomi bilan yuritilguychi ziyoratgoh bor. Ziyoratgoh hududida "dardlardan xalos etuvchi Teshiktosh" va chog'roq sog'ana bor. Befarzand ayollar Teshiktoshdan uch karra o'tib toshidan beliga boglab yursalar armoni o'shalarmish Farzandli bo'lgach, haligi toshni albatta qaytarib joyiga qo'yib ketishi kerak emish. Ziyoratgoh hududi 10,0 hektarni tashkil etadi.

"Qoplon ota" ziyoratgohi. Qoplonota bagrida xovunkesdi va Beshbuloq qishloqlari oralishda joylashgan yashil go'sha ming yillar ilgari ham shunday yashilligi, shunday bokiraligi bilan aziz-avliyolar nazarini tortgan bo'lsa ajab emas!

«Bog'i mozor» ziyoratgohi. Baxmal tumanining Mo'g'ol qishlog'iga yaqin joyda shunday ziyoratgoh bo'lib, mazkur manzil haqida "Ganji Alisher" nomi bilan Hafiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida ham ma'lumot berib o'tilgan.

«Narvon ota» ziyyaratgohi. Narvon ziyyaratgohi Nurota tizma tog‘ining janubiy dala dashtlaridagi eng katta qishloqlardan bo‘lib, Forish tumani hududida joylashgan. qishloqning tabiatni niyoyatda go‘zal, ikki tomonida baland adirliklar, sersuv buloqlari niyoyatda ko‘p.

«Ko‘lfisar ota» ziyyaratgohi. «Ko‘lfisar» - bu yerdagi uzun qabrdagi qulflab ko‘milgan bosh» degan ma’nioni anglatadi. Qabrdagi kishi payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomdan oldin, Lut payg‘ambar zamonasida yashab o‘tganligi aytildi.

«Qirqchilton» ziyyaratgohi. Mazkur ziyyaratgohi Jizzax tumani «Ko‘rpasoy» mahalla fuqarolar yig‘iniga qarashli Sho‘rbel qishlog‘i yaqinida joylashgan bo‘lib, hududi 7,5 hektarni tashkil etadi. Yangidan tashkil etilgan bog‘ o‘rtasida xonaqoh bor.

«Xonbandi». Tarixiy manzilgohlar tariximizning o‘tmish zamonlaridan g‘aroyib afsonalar, go‘zal ertaklar suylab beradi. Forish tumani markazidan Band shaharchasiga qarab yo‘lingiz tushsa, albatta g‘aroyib, ham antiqa tarixiy yodgorlikni - Xonbandini ko‘rish mumkin.

“Qobulmozor” ziyyaratgohi. Ulug‘ Sohibqiron Atmir Temur o‘zining qator yurishlari davomida Zomin o‘lkasi orqali bir necha bor o‘tadi. Qator janglari va g‘alabalarini Zomin tog‘larida jangu-jadal bilan qo‘lga kiritadi.

«Qum ota» ziyyaratgohi. Zomin tumanida Laylak-uya qishlog‘ida joylashgan. Bugun bu yerdagi kunim toptan zoti bobarakotning sog‘analaridan uncha uzoq bo‘limgan joyda qadim qal‘a qoldiqlari - hayratli tepalik bor, bu o‘sha Laylakkon qal‘asidir.

«Beshbuloq ota» ziyyarat manzili. Zomin tumanida Pishagar qishlog‘ining ustida arxeologik muzillar kurshovida joylashgan mazkur ziyyarat manzili o‘zining shifobaxsh buloqlari bilan mashhur. Bu yerdagi tepalik ostida g‘or - chillaxona bo‘lganligi rost gap, hozirda mazkur chillaxona butunlay ko‘milib ketgan. Ko‘hna manzillar, eshonzodalar qabrlari bor.

Yuqoridaq madaniy-tarixiy turistik resurslardan tashqari Forish tumanida «Hasan ota», G‘allaorol tumanida "Savruk ota", Zomin tumanida «G‘oyib ota», «Toshkesgan ota», «Beshbuloq ota», Baxmal tumanida «Xoja Kundalang» "Terakli ota", "Machitli ota", «Malik Ajdar» ("Morguzar ota"), Jizzax ikkrida «Xujagoziyon», «Boboyakka», «Xujamozor» va boshqa ko‘plab manzillari borki, ularni ham o‘rganish, ilmiy tadqiq etish orqali viloyatda turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

18.2.Jizzax viloyatining ekoturistik resurslari va ularidan samarali foydalanish

Jizzax viloyatining tabiatи o'ziga xos landshaftlarga ega bo'lib rekreatsiya faoliyati va ekologik turizmni rivojlantirishga katta imkoniyat tug'diradi. Viloyat geografik jihatdan Turkiston tog' tizmasining shimoliy yon bag'ri, tog' oldi tekistliklarini O'zbekiston respublikasining Qozogiston respublikasi bilan bo'lgan chegaralarida joylashgan. Relefi tog', tog' oldi adir hududlari va dasht va shimolda qumli cho'l maydonlaridan iborat. Yer yuzasi relefi tuzilishi jihatlaridan quyidagi ekoturistik rayonlarga bo'linishi mumkin:

I. Turkiston tog' yonbag'rlaridagi archazor o'rmonlar ekoturistik rayoni.

- 1.1. Zomin milliy parki.
- 1.2. Zomin tog' o'rmon davlat qo'riqxonasi.
- 1.3. Zomin tog'lari ekologik landshaftlari.
- 1.4. Baxmal tog'lari landshaftlari.

II. Molguzar tog' tizmalaridagi siyrak archazor o'rmonlari bog'liq tabiiy landshaftlar ekoturistik rayoni.

III. Nurota tog' tumantarinining shimoliy-g'arbiy qismidagi tog' o'rmonlari, yon tokzorlar, tabiat landshaftlari bilan bog'liq ekoturistik rayon.

- 3.1. "Nurota" davlat qo'riqxonasi.
- 3.2. Forish tog'lari tabiat landshaftlari.
- 3.3. Qo'yotosh tog'laridan tosh haykallar va tog' qo'yotoshlaridagi qadimiy rasmlar.

IV. Mirzacho'l botig'i va tekistiklar qisman shimoldagi qumli cho'l ekoturistik rayoni.


V. Suv havzalari ekoturistik rayoni.

- 5.1. Sangzor daryosi suv havzasi
- 5.2. Zominsuv daryosi suv havzasi
- 5.3. Arnasoy ko'li havzasi
- 5.4. Aydarko'l havzasi
- 5.5. Jizzax suv ombori
- 5.6. Arnasoy davlat zakazniki (uchib kelib ketuvchi qushlarni muhofaza qiladi)

18.3. Sirdaryo viloyatining umumiyl tavsifi

Sirdaryo viloyati - O'zR tarkibidagi viloyat. 1963 y. 16 fev.da tashkil etilgan. Shim.dan Qozog'iston Respublikasi, sharkdan Toshkent viloyati, jan.dan Tojikiston Respublikasi va g'arbdan Jizzax viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 5,3 ming km. Axoliyey 667748 kishi (2003). Tarkibida 9 tuman (Boyovut, Guliston,

Mehnatobod, Mirzaobod, Oqoltin, Sayxunobod, Sirdaryo, Xovos, Sardoba) tumanlar haqida alohida maqolalarga qarang, maye, Boyovut tumani), 5 shahar (Guliston, Baxt, Sirdaryo, Shirin, Yangiyer), 6 shaharcha (Boyovut, Dehqonobod, Do'stlik, Paxtaobod, Sayxun, Xovos) va 75 qishloq fuqarolari yig'ini bor (2004). Markazi — Guliston sh.



Tabiat. Relyefi, asosan, to'lqinsimon tekislik bo'lib, jan.dan shim.g'arbga pasayib boradi. Mirzacho'l dashtining bir qismi viloyat hududiga kiradi. Bal. shim.da 230 m, markaziy qismida 400–450 m, jan. va jan.g'arbda 600–650 m. Sharqida keng Sirdaryo vodiysi joylashgan. Mezozoy va kaynozoy davrida, asosan, cho'kindi jinslarning qalin qatlami bilan qoplangan. Sho'ro'zak, Mirzarobot, Sardoba kabi botiqlar mavjud. Tekislik qismi daryolar oqizib keltirgan yotqiziklardan hosil bo'lgan, ba'zi joylarini ko'l, botqoq va sho'rxok yerlar egallagan. Sirdaryo viloyatida yangi kanallar, zovurlar qazilib, cho'l o'zlashtirildi va ekin maydonlarga aylantirildi. Tekislik qismida irrigatsiya inshootlari qurilib, paxtazor, bog' va tokzorlar barpo qilindi. Adirlar lalmikor yerlar va yaylovlardan iborat.

Obhavosi keskin o'zgaruvchan va quruq. Yillik o'rtacha temperaturasi 14° . Yanvning o'rtacha temperaturasi shim.da -6° , jan.da -2° . Qishda havo tez soviydi va tra -30° gacha (Gulistonda -35°) pasayadi. Ba'zan, qish o'rtalarida havo birdaniga isib, keyin sovib ketadi. Kech ko'klamda va erta kuzda ham kora sovuq tushib o'simlikning o'sish davrini qisqartiradi. Yozi quruq va issiq. Iyuuning o'rtacha temperaturasi $27-29^{\circ}$. Yozda tra $32-45^{\circ}$ gacha ko'tariladi. Ko'pincha issiq shamol (garmsej) tuproqni quritadi va o'simliklar rivojlanishiga yomon ta'sir qiladi. Vegetatsiya davri 218 kun. Yillik yogin 180–220 mm, asosan, qishda

yog'adi. Yozda kuchli bug'lanish sababli yer osti suvlari yuza maydonlarning (Sharof Rashidov, Oqoltin, Guliston tumanlari) tuprog'ini sho'r bosadi. Noyab.dan martgacha teztez esib turadigan "Bekobod shamoli" tezligi 20–25 m/sek. (Boyovut tumanida 40 m/sek.)ga yetadi. Bahorda esadigan bu xildagi shamol unib chikayotgan g'o'zalarni ba'zan nobud qiladi. Keyingi yillarda ixota daraxtzorlari barpo qilindi. Tuproklari, asosan, och tusli kuchsiz joylashgan bo'z tuproq bo'lib, kam va o'rtacha sho'rangan, mexanik tartibiga ko'ra, qumoq va soz tuproklardir. Tekisliklarda sho'rxok va sho'rxoksimon tuproq uchraydi. Yer osti suvining chuq. 5–6 m. Sho'ro'zak massivida, hali o'zlashtirilmagan pastqam joylarda sho'rxoklar keng tarqalgan. Sug'oriladigan yerkarning 32% sho'rangan, 25% kuchsiz sho'rangan, 16% sho'rxoklardan iborat. O'simliklardan lolaqizg'aldoq, boychechak, chuchmoma, qoqi yalpiz, ismaloq, yantoq, sho'ra, shuvoq, qo'ng'ribosh, qo'ziquloq, tuyatovon, quyonsuyak, juzg'un, qovul, oqquray, qiltiq, karrak, rang, iloq, botaga, qiyoq, qamish, yulg'un, oqbosh, qushqo'nmas, na'matak, mingboshi, chitir, g'umay, pechak, saksovul, har xil butalar, jiyda, do'lana, tol, terak, qayrag'och, oq akatsiya, zarang, shumtol va boshqa o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan: jayra, tulki, bo'ri, chiyabo'ri, qobon, jayran, nutriya, ondatra, ko'rsichqon, suvkalamush, tipratikan, yumronqoziq, kaltakesak, ilon, toshbaqa, falanga, chayon, qoraqurt; qushlardan xo'jasavdogar, moyqut, bulduruq va boshqa bor.

Tuman nomi	Tuman markazi
1 <u>Oqoltin tumani</u>	<u>Sardoba</u> (qishloq)
2 <u>Boyovut tumani</u>	<u>Boyovut</u> (shaharcha)
3 <u>Guliston tumani</u>	<u>Dehqonobod</u>
4 <u>Xovos tumani</u>	<u>Xovos</u>
5 <u>Mirzaobod tumani</u>	<u>Navro'z</u> (qishloq)
6 <u>Sayxunobod tumani</u>	<u>Sayxun</u>
7 <u>Sharof Rashidov tumani</u>	<u>Paxtaobod</u> (Sirdaryo viloyati)
8 <u>Sirdaryo tumani</u>	<u>Sirdaryo</u> (shahar)
9 <u>Mehnatobod tumani</u>	<u>Qahramon</u>

Tarixi. Qad. Sirdaryo tarixi haqida ma'lumot beruvchi muhim yozma manba qad. yunon tarixchisi Arrianning "Iskandarning harbiy yurishlari" asaridir. Bu asarda Sirdaryo "Tanais", "Yaksart" nomi bilan yuritiladi.

Mil. av. 3—2-a.larda O'rta Osiyoning shim. r-nlarida 5 ta mayda davlatlardan iborat Qang'yuy davlati ittifoqi yuzaga keladi. Uning tarkibiga hozirgi Sirdaryo viloyati hududlari ham kirgan. Ushbu davrda ko'chmanchi aholining viloyat hududiga kelib o'mashishi yer tanqisligini yuzaga keltiradi. Natijada hozirgi Xovos tumanining g'arbiy qismlari ham aholi tomonidan o'zlashtiriladi. Sho'rbuloqsoyning quyi qismida Eski Xovos yodgorligi, Shirinsoyning quyi qismida Munchoqtepa yodgorligi qad ko'taradi.

Sirdaryo viloyati hududi ilk bor alohida o'lka— Ustrushona sifatida Beyshi, Suyschi va Tanshu kabi Xitoy yilnomalarida tilga olinadi. Undan oldingi manbalarda Sharqiy Sao (suvi yo'q) deb yuritiladi. Uning bunday noqlanishi hududda qo'shni Choch va Sug'ddan farqli ravishda daryolarning ko'p bo'limganligi bilan izoxlanadi. Nisbatan o'lkaning to'laroq nomlanishi Tanshu yilnomalarida ("Shuaydushana", "Suydushana" nomlari bilan) berilgan. Tan imperatorlari saroyida o'lka nomi, shuningdek, Layviy (mag'rurligini sezgan holda bo'ysunmoq) deb ham yuritilgan. Viloyat qad. aholisining tili sug'd tiliga o'xhash tilda so'zlashuvchi Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida yashagan aholi tiliga yaqin bo'lgan. Xan davri yozma manbalarida Dovon (Farg'ona)dan to Ansi (Baqtriya)gacha bo'lgan hudud aholisi turli shevalarda gaplashsalarda, birbiriga yaqin tidda gaplashganlar va o'zaro birbirini tushunganlar deyiladi.

Mil. 6-a.da Turk xoqonligi davrida mahalliy aholining turk qabilalari bilan munosabatlari rivojlanadi. Qudaandachilik munosabatlari o'rnatiladi. Ustrushona afshini Xasan ibn Haydar turk lashkarboshisining qiziga uylangan. 8-a.ga oid Xitoy yozma manbasi Syuandzanda yozilishicha, o'lka "Sutulisen" deb nomlanadi. Shuningdek, unda shim.g'arbda katta cho'l (Mirzacho'l) joylashganligi, o'lka hukmdori Bosi tog'i (Turkiston tog' tizmasi)ning shim. yon bag'rida yashaganligi haqida ma'lumotlar bor. O'lkada zarb qilingan 6—8a.larga oid tangalar Ustrushonaning ilk hukmdorlari Chirdmish, Satagari, Raxang haqida ma'lumot beradi.

Hokimiyat shu davrda otadan bolaga o'tgan. 8-a. boshida Ustrushonaga arablar bostirib kirgan. Ustrushona arab va Tan sulolasi o'rtasidagi kurash maydoniga aylangan. 749 yilda xitoyliklar yurish qilgan bo'lsa, 751 yilda Ustrushonani arablar bosib olgan. Fakatgina 9-a. boshlaridan Haydar ibn Qavus arab xalifasi xizmatiga kiradi.

893 yilda afshinlar sulolasi ag'dacib tashtanib Ustrushona Somoniylar davlati tarkibiga kiritshshi. O'rta asrlardagi Ustrushona haqida birmuncha to'liq ma'lumotlar arab yozma manbalarida mavjud. Ularda ayttilishicha, o'lka hududi Xo'janiddan Samarqandgacha, Sirdaryo daryosi va Mirzacho'lidan to Hisor tizma tog'larigacha bo'lgan. Istaxriy (10a.) ma'lumotiga ko'ra, Ustrushonaning ko'pgina qismini tog'lar egallagan bo'lib, unda "kemalar suzishi mumkin bo'lgan daryo ham,

ko'l ham yo'q". Haykalga binoan, Movarounnaxrning boshqa viloyatlari qatori Ustrushona ham qishiqliq xo'jaligi mahsulotlari bilan ajralib turardi. Bu mahsulotlar viloyat tashqarisiga, jumladan, Xo'jandga chiqarilgan. Ayrim shaharlarda bozorlar bo'lgan. Ustrushonaliklarning fahri Mink va Marsmandada ishlab chiqarilgan temir qurollar bo'lib, ular Xurosonda ishlatilgan va Iroqqacha shu qurolyarog' bilan qurollanganlar. Ustrushona poytaxti Bunjikat sh. bo'lgan. O'rta Osiyodagi boshqa davlatlar qatori Ustrushona ham keyingi hayotida qoraxoniyalar, mo'g'ullar, temuriylar, shayboniyalar va boshqa davlatlari tarkibidagi tarixiy davrlarni boshidan kechirgan.

Qad. viloyat axoliyey, asosan, soy va chashmalar bo'yalarida vohavoha bo'lib hayot kechirishgan. Viloyat hududida Xo'jamushkentsoy, Sho'tbuloqsoy, Mug'olsoy, Tagobsoy, Sarmichsoy singari suv manbalari bo'lgan. Suv balansining buzilishi manzilgohlarning yo'q bo'lib ketishiga yoki boshqa joyga ko'chib o'tilishiga olib kelgan.

Sv. da qad. kanallarning izlari, sardobalar mavjud. 70 km uzunlikdag'i O'rinboyo'g'iz, Iskandarariq, Buxoroariq juda qad. kanallardir. 15-a.da Shohruk va Ulug'bek Sirdaryodan Mirzacho'lga kanal orqali suv chiqartirgan. Keyinchalik Mirzacho'lning jan.sharqida Bo'zariq, Sirdaryoning o'ng tomonida Dalvarzinariq barpo etilgan. Qiyot ko'li yonida Sirdaryodan suv oladigan mayda ariqlar bo'lgan. 1872 yilda Bekobod yonida Kaufman kanali (13 km), 1878—82 yillarda To'ng'izariq (6 km) qazildi. 1883—85 yillarda Iskandarariq va Buxoroariq qayta kavlandi. 1891—95 yillarda Farhod tog'i yonida maxsus to'g'on (Shohto'g'on) qurildi. 1896 yilda hozirgi Do'stlik kanali qazilib Mirzacho'lning ichkarisiga suv yuborildi. 1897 yilda Mirzacho'lda birinchi marta 6 ga yerga paxta ekildi. 1899 yilda 8 ming ga, 1907 yilda 9,09 ming ga, 1910 yilda 12,2 ming ga, 1915 yilda 34,5 ming ga yer sug'orilib, 19 ming ga yerga paxta ekildi. 1926 yilda 180 km ariq va kanallar qazildi, sug'oriladigan maydonlar 53 ming gektarga yetdi, 1927 yilda 60 ming ga (shundan paxta 27 ming ga), 1929 yilda 68 ming ga, 1934 yilda 134 ming ga, 1938 yilda 154 ming ga (shundan paxta 40 ming ga) yer sug'orildi. 1942 yilda 180 ming ga yer (shundan 70 ming ga yer paxta) sug'orildi. 1943—48 yillarda Farhod GES. bosh to'g'on Do'stlik kanaliga tutashtirildi. Boyovut kanali va Farxrd suv ombori qurildi. Natijada Mirzacho'lning jan. qismi va Dalvarzin cho'lini sug'orish masalasi hal qilindi. 1956—59 yillarda Qayroqqum suv ombori va GES (quvvati 126 ming kW) qurildi. 1956 yillarda sug'oriladigan yerlar maydoni 280 ming gektar yerga yetdi. 1960 yilda Jan. Mirzacho'l kanali (uz. 128 km) qazildi. 1958 yilda sho'r suvlarni oqizish uchun 90 km uzunlikdag'i Markaziy Mirzacho'l kollektori qurilib, Boyovut va Yettisoy kollektorlariga qo'shildi. Viloyat qududidan Sirdaryo oqib o'tadi.

Aholisi. Sirdaryo viloyatida, asosan, o'zbeklar (60%), shuningdek, qozoq, tojik, rus va boshqa 70 dan ortiq millat vakillari yashaydi. 1 km² ga 126 kishi to'g'ri keladi (2003). Qishloq aholisi 455,9 ming kishi, shahar aholisi 211,9 ming kishi.

Xo'jaligi. Sv. respublikaning yirik paxtachilik bazalaridan biri. Viloyat xo'jaliklari, asosan, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan. Sanoati paxtani va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslashga qaratilgan.

Sanoati. 20-a. boshlarida viloyatda bir necha mayda korxona bor edi. 1970y.larda 8 paxta tozalash z-di, 29 paxta qabul qilish punkti bo'lgan. Paxta zdalaridan chiqqan paxta tolasi Bolgariya, Polsha, Kuba, Chexoslovakiya, Turkiya, Afrika mamlakatlariiga jo'natilgan.

Sv. dagi 10774 ta korxonadan 10129 tasi kichik va o'rta biznes korxonasi, shundan 8557 tasi mikrokorxona va 1282 tasi kichik va 290 tasi o'rta korxonalardir.

Viloyatda xorijiy investitsiya ishtirokida 39 ta korxona faoliyat ko'rsatadi. Ulardan 35 tasi qo'shma korxonadir. Qo'shma korxonalardan: O'zbekistan — Rossiya hamkorligidagi "Turkiston S" (konditer mahsulotlar ishlab chiqaradi), O'zbekiston — Chexiya "Lechiva" farmsanoat qo'shma korxonasi (tibbiy spirit, doridarmon tayyorlaydi), chet el parrandachilik firmasi, O'zbekiston — Avstriya "Sirdaryo", "Lolamodel" (trikotaj buyumlar ishlab chiqaradi), "Sarbonteks" (tibbiy bint, doka, jarroxlik salfetkalar), O'zbekiston — Eron "Sayxun PAYA" (tomat pastasi ishlab chikariladi), O'zbekiston — Xitoy "Paxtakor LTD" (issiqxona), O'zbek — Arab "Ok,oltin PMB" (paxta tolasi ishlab chiqaradi) va boshqa korxonalar, ayniqsa, samarali faoliyat ko'rsatmoqda. 9 paxta tozalash z-di, Sirdaryo issiklik elektr st-yasi, Farhod GES, "Momiq", "Zilola", "Shuxrat", "Gulistonnon", "Xovosdon", "Oq oltindon" aksiyadorlik jamiyatları, "Sayxunsut" xususiy korxonasi, "Bunyod" korxonasi (temirbeton buyumlar ishlab chiqaradi) va boshqa ishlab turibdi.

Qishloq xo'jaligi. Paxtachilik, g'allachilik, pillachilik, mevachilik, sabzavotpolizchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan. Sirdaryo viloyatida 30 shirkat va 6170 fennar xo'jaligi faoliyat ko'rsatadi (2004). Viloyatning jami ekin maydonlari 245,0 ming ga, shundan 115,3 ming ga yerga paxta, 86,3 ming ga yerga g'alla, 6,0 ming ga yerga sholi, 1,9 ming ga yerga sabzavot, 2 ming ga yerga poliz, 450 ga yerga kartoshka, 19,5 ga yerga yem-xashak ekinlari ekiladi. 1233 ga bog' va tokzor bilan band. Shuningdek, sug'oriladigan yerkarda beda, no'xat, mosh, kunjut, tariq, loviya, kungabokar va boshqa ekiladi. Guliston va Xovos tumanlari sabzavot va poliz ekinlari ekiladigan asosiy joylardir. Viloyatda yetishtiriladigan qovun, tarvuz, piyozi Ural, Sibir va Uzok, Sharqdagi shaharlarga ham jo'natiladi. Bog'dorchilik va tokchilik rivojlangan. Sirdaryo viloyatidagi jami jamoa va shaxsiy xo'jaliklarida 181,1 ming kramol (shundan 75,9 ming sigir), 120,5 ming qo'y va

echki, 376,3 ming parranda, 6,1 ming ot boqiladi (2004). Viloyatda 2 ta baliqchilik xo'jaligi mavjud.

Transporti. Viloyat hududidagi t.y. uzunligi 172 km, qattiq qoplamlari avtomobil yo'llari uz. 1,6 ming km. Sv. hududidan Toshkent—Kitob, Toshkent — Nukus, Toshkent — Buxoro, Toshkent — Termiz, Toshkent — Samarqand, Toshkent — Andijon, Toshkent — Xovos poyezdlari o'tadi. Toshkent — Samarqand, Toshkent — Guliston elektr poyezdlari qatnovi yo'lga qo'yilgan. Katta O'zbekiston trakti ham viloyat hududidan o'tgan. Sv. orqali Toshkentdan Jizzax, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Termiz, Kitob, Shahrisabz, Urganch, Nukusga katnaydigan avtobuslar o'tadi. Bundan tashkari, viloyat markazi bilan tuman markazlari o'rtasida hamda Guliston va Yangiyerdan Toshkentga avtobuslar katnaydi.

Madaniy-maorif, sog'liqni saqlash va sport. Sirdaryoda 1914 yilda bitta, 1916 yilda 13 ta rus-tuzem maktabi faoliyat ko'rsatdi. 1917—23 yillarda maktablar soni 52 ta, o'quvchilar soni 2030 ga yetdi.

2003/2004 o'quv yilida Sirdaryo viloyatida 308 umumiy ta'lim maktabi bo'lib, 156 ming o'quvchi, shu jumladan, 14 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 3659 o'quvchi ta'limtarbiya oldi. Viloyatdagi 14 musika va sanat maktabida 1300 o'quvchi, 22 sport maktabida 11 mingga yaqin o'quvchi ta'lim oldi.

Xalq ta'limi tizimida xalqaro hamkorlik borasida ham ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Mirzaobod tumanidagi 21maktab YUNESKO maktabi Kengashiga a'zo, YUNISEF tashkiloti bilan hamkorlikda viloyatda 5 ta xonardonbog'cha tashkil etilgan.

2003 yilning sentyabr oyida "Ozodlikni qo'llab-quvvatlash" (AKSELS) Dasturi bo'yicha Toshkent shahrida bo'lib o'tgan ko'riktanlovda viloyatning 110 iqtidorli maktab o'quvchilari ishtiroy etib, Iтурдан 43 nafari muvaffaqiyatli o'tdilar.

Viloyat shahar va tumanlarida 1998—2003 yillarda 22 kasb-hunar kolleji va akademik litseylari binolari qurilib ishga tushirildi. Ular zamonaviy dastgoh va texnika bilan jihozlandi. 2004 yilda Sirdaryo viloyatidagi 22 kasb-hunar kollejida 12483 o'quvchi, 2 akademik litseyda 1186 o'quvchi ta'lim oladi. Guliston universiteti mavjud.

Sirdaryo viloyatida 1 muzey (Guliston shahridagi "Mirzacho'lni o'zlashtirish tarixi muzeyi"), 198 jamoat kutubxonasi (1659,8 ming nusxa asar), 103 klub va madaniyat uyi, 1 teatr (q. Sirdaryo teatri), viloyat rasmlar galereysi faoliyat ko'rsatadi. Viloyat Ma'naviyat va ma'rifat markazi, xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar viloyat markazi, Guliston sana't bilim yurti, 2 ta madaniyat va istirohat bog'i, "O'zbeknavo", "O'zbekraqs" viloyat bo'limlari bor, "Sirdaryo navolari" ashula va raqs ansamblı, 9 ta xalq havaskorligi jamoaları respublika va viloyat ommaviy madaniy tadbirlarida faol ishtiroy etmoqdalar.

Sv. dan Sh. Rahmatullayeva kabi O'zbekiston xalq artistlari, A. G'ofurov, G'. Hamidullayev, M. Nurmatov, R. Hasanov, T. Qosimova, A. Yusuvaliyev, A. Abdullayev, O. Abdullayeva, A. Xoliqov, R. Karimov, Sh. Jumayev kabi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar yetishib chiqqan.

Sog'iqlini saqlash. Viloyatda 4,1 ming o'rinni (10 ming kishiga 63,2 o'rinni) 32 kasalxona, 10 tug'ruqxona, 131 ambulatoriya, poliklinika, 130 qishloq vrachlik punkti, 108 dorixona va boshqa tibbiy muassasalarda 1522 vrach, 7616 o'rta tibbiy xodim ishlendi (2004). Guliston shahrida respublika shoshifinch tibbiy yordam markazi ishlab turibdi. Uning 9 ta tumanda bo'limlari tashkil etilgan.

Sport. Sv. sportchilari sportning 33 turi bo'yicha turli darajadagi musobaqalarda ishtirok etmoqdalar. Shulardan kikboksing, kurash, belbog'li kurash, boks, akademik eshkak eshish, armrestling, taekvondo, yengil atletika, shaxmat, shashka, karate, velosport va boshqa turlari bo'yicha har xil turdag'i medal sovrindorlari bo'lishdi.

Viloyat sportchilari vakillari Respublika terma jamoalarining 19 tasida ishtirok etmoqdalar. Sv. sportchilari 2003 yilda jahon, xalqaro va Osiyo musobaqalarida qatnashib sovrinli o'rirlarni egallashdi. Jumladan, kikboksing bo'yicha Gretsiyada o'tkazilgan jahon championatida Jahongir Ko'chmurodov, Alisher Abdullayevlar oltin medallar, Sobir Qodirov bronza medali, Rossiyada armrestling bo'yicha o'tkazilgan jahon championatida Farid Usmanov kumush medal, shashka bo'yicha Hindistonda o'tkazilgan Osiyo championatida Alisher Ortikov kumush medal, boks bo'yicha Italiyadagi jahon championatida Sherzod Abdurahmonov kumush hamda Boku shahridagi xalqaro turnirda bronza medal sovrindorlari bo'lishdi. Italiyada akademik eshkak eshish bo'yicha xalqaro turnirda Sergey Tyan, Yuriy Shaxsuvaryan, Sergey Yaqubov va Vitaliy Silayevlar bronza medallarini, Rossiyadagi xalqaro shaxmat turnirida Sobir Umarov 1-o'rinni, Angliyadagi kurash bo'yicha "Islom Karimov" xalqaro turnirida Alisher Bo'ronov 1-o'rinni qo'lga kiritdilar. 2003 yilda viloyat sportchilari 6 ta jahon, 16 ta xalqaro, 40 ta dan ortiq respublika musobaqalarida qatnashib, munosib o'rirlarni egallashdi. Viloyatda tennis bo'yicha xalqaro "Fyuchers" turnirini o'tkazish an'anaga aylangan. Sv. da sportning texnik turlari (karting) bo'yicha Respublika championatlari o'tkazilib kelinmoqda.

Viloyatda 22 bolalar va o'smirlar sport maktabi faoliyat ko'rsatadi. Ularda 11 mingga yaqin o'quvchi sportning har xil turlari bilan shug'ullanadi. Guliston shahrida viloyag sport qo'mitasiga qarashli Olimpiya o'rincbosarlari bolalar va o'smirlar maxsus sport maktabi ishlab turibdi.

Sirdaryo viloyatida sportchilar va aholi ixtiyorida 1493 sport inshootlari (shu jumladan, "Alpomish" sport majmui, "Boks" saroyi, "Yoshlar sport markazi", tennis kortlar va boshqalar), 1230 sport maydonchasi, 11 suzish havzasasi, 12 stadion bor.

Viloyatda barcha turdag'i sport tashkilotlari sport seksiyalarida 181,3 mingdan ziyod bela shug'ullanib kelmoqda. Bolalar sportini rivojlantirish bo'yicha umumiyligi ta'lim maktablari, kollej va litseylar bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqildi, tegishli choratadbirlar belgilandi. Ta'lim muassasalarini, sport maktablarini malakali kadrlar bilan ta'minlashda Guliston davlat un-tida ochilgan boshlang'ich ta'limi va sporttarbiyaviy ishlar, jismoniytarbiya va jismoniy madaniyat yo'nalishlari bo'yicha sirtqi bo'limning muayyan o'rni bor.

Adabiyoti. Sirdaryo viloyati adabiy muhitining yuksalishida "Sirdaryo haqiqati" gazning tashkil etilishi (1963) munosabati bilan bu yerga yuborilgan bir guruh yozuvchi va jurnalistlarning ta'siri katta bo'ldi.

Sirdaryo adabiyoti respublika adabiyotining tarkibiy qismi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Viloyatda "Ziyo" nashriyoti tashkil etilgan. Mustaqillik yillarda o'nlab yosh, iqtidorli shoirlar o'z ijodi bilan viloyat sheyriyat muxlislarga tanilib kelmoqda.

O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymon o'zining 20 dan ortiq sheyriy to'plamlari va dostonlari bilan o'zbek adabiyotiga qissa qo'shgan. Uning "Istar ko'ngil", "Hamqishlokdirim", "Qorasoch" va boshqa kitoblari adabiyot muxlislarining mulkiga aylangan.

Shoira Halima Xudoyberdiyeva poeziyasining mavzui vatan, dala, bobodehqon, ayol, muhabbat, mangulikdir. "O'zimizning bog'lar", "Ona, seni sharaflayman", "Qalbingga chorlaysan" turkum sheyrlari, "Oq olmalar", "Chaman" va boshqa sheyriy to'plamlarida insomning ruhiy dunyosi aks etgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Hamroqul Rizo (Rizoqulov) Sirdaryoning meqnatlash kishilari matonatini kuylab adabiyotga krib kelgan. Uning "Sirdaryo qasidasi", "Cho'l qaldirg'ochi", "Umid karvonlari" sheyriy to'plamlari, "O'g'irlangan bolalik", "Oyning o'n beshi yorug'" qissalari o'z muxlislarini topgan.

Shoira Hayotxon Ortiqboyeva, hajvchi adib Jo'ra Umarqulov, va boshqa ijodkorlar Sirdaryo vohasining mustaqillik yillaridagi kamolotini, sirdaryoliklarning ijodiy mehnatini o'z asarlarda aks ettirmoqdalar.

Adabiyotshunos Anqaboy Quljonov, Ravshanbek Maximov, Umrzog O'ljaboyev kabi olimlarning bir qancha asarlari nashr etilgan.

Sv. da O'zbekiston ijodiy uyushmalari (yozuvchilar, rassomlar, meymorlar, jurnalistlar va boshqalar) ning viloyat tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi.

Matbuoti, radio va televideniyesi. Sirdaryo viloyatida 2 viloyat gaz. ("Sirdaryo haqiqati", "Sirdarinskaya pravda"), 9 tuman gaz., 5 shahar gaz. ("Guliston yangiliklari", 1989; "Gulistsanskiye novosti", 1989; "Yangiyer tongi", 1967; "Shirin Sadosi", 1995; "Baxtnoma", 1996 yildan) chiqadi. Viloyatda,

shuningdek, 14 tarmoq, 1 xususiy gaz. ("Yog'du plyus", 1994 yildan chiqadi), 1 jurnal ("Universitet axborotnomasi", 2001 yildan chiqadi) nashr etiladi.

Sv. da dastlabki radioeshittirishlar 1963 yildan boshlangan. Viloyat radiosi oyiga 21 soat 20 min. hajmida eshittirishlar beradi. Shuningdek, O'zbekiston radiosining birinchi "O'zbekistan" kanalida radioeshittirishlar retranslyasiya qilinadi.


1996 yilda viloyat telestudiysi tashkil etilib, teleko'rsatuvlar bera boshladi. Sirdaryo viloyatida, shuningdek, "Aloqa A.K." tijorat televideniyesi (2001 yildan), "Shodlik R" xususiy firmasiga qarashli "Komet" kabelli telestudiysi (2003 yildan) faoliyat ko'rsatadi.

Meymoriy yodgorliklardan viloyat hududida Sharof Rashidov tumanidagi Sardoba (16-a.)saqlanib qolgan (Sardobaaagch rasmga q.) 640—641 betlar orasidagi Sirdaryo viloyatining tabiiy va iqtisodiy ran pli haritasiga q.

18.4. Sirdaryo viloyatining turistik resurslari va turizmn rivojlantirishdagi o'rni

Sirdaryo vohasi qadimdan muhim geografik hudud bo'lib, bu yerdan So'g'd, Choch, Farg'onani bog'lovchi yo'llar kesishmasi o'tgan. Viloyat hududidagi eng qadimgi aholi manzilgohlari sug'orish uchun qulay bo'lган daryo va soy bo'yalarida paydo bo'lган. Dastlabki aholi viloyat hududidagisir karta Xo'jamushkentsoy, Sho'rbuluoqsoy, Mo'g'olsoy, Tog'obsoy, Sarmichsoy, Sirdaryo bo'yalarida istiqomat qilgan. Arxeologik tadqiqotlar dastlabki dehqonchilik manzilgohlari Xo'jamushkentsoy va Sho'rbuluoqsoy bo'yalarida bundan 3000 yil oldin paydo bo'lganligi haqida guvohtlik beradi. Bu tabiiy, chunki yuqoridagi soylar sersuv, ularning atrofидаги yerlar unumdar bo'lgan.

Sho'rbuluoqsoy bo'yida joylashgan yodgorliklar ichida eng qadimgilari Eski Xovos va Nurtepa yodgorliklari hisoblanadi. Ular miloddan avvalgi 1 ming yillik o'rtaida qad ko'taradi.



Sirdaryo viloyati hududida arab geograflari tomonidan e'slatib o'tilgan ikkita manzilgoh bor. Bu Sabat va Xovosdir. Xovos shu nomdag'i rustakning markazi

bo'lgan. Yozma manbalarda u haqida ma'lumotlar deyarli uchramaydi. Arab geograflari esa uni faqat karvon yo'llari chorrahasidagi manzilgoh sifatida tilga olishadi. Ibn Xavqal Xovos yo'lli haqida: "Agarda kim Zomindan Xo'jandga Xovos yo'llidan bormoqchi bo'lsa, uning yo'lida Kurkat uchraydi", - degan ma'lumot qoldirgan. V.V.Bartold esa Chirchiq vodiysiga ikkita yo'l olib borganligi, biri Xovosdan, ikkinchisi Jizzaxdan, deb yozadi. Xovosning Ustrushona shaharları qatori tilga olinmaganligi, o'sha davrda u qishloq bo'lganligidan dalolat beradi.



Tayanch so'z va iboralar: tabiiy resurslar, tarixiy obidalar, turizm xizmatlari, iqtisodiyotni rivojlantirish, turizm, xalqaro savdo, mehmonxonalar, turistik xizmatlar ko'rsatish, turizm xizmatlarining eksporti.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Jizzax- Sirdaryo turistik mintaqasining madaniy, tarixiy va me'moriy yodgorliklarga nimalar kiradi?
2. Jizzax- Sirdaryo turistik mintaqasida xalqaro turizmnинг rivojlanish holatini tushuntirib bering.
3. Jizzax- Sirdaryo turistik mintaqasida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari qanday?
4. Jizzax- Sirdaryo turistik mintaqasidagi asosiy muammolar nimalardan iborat?

19- MAVZU. O'ZBEKISTONNING JANUBIY TURISTIK MINTAQASI

Reja:

- 19.1.O'zbekistonning janubiy turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni
- 19.2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiyalari
- 19.3.Mintaqaning turistik resurslari salohiyati

19.1. O'zbekistonning janubiy turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni

Qashqadaryo viloyati – O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1924 yil 1 noyabrda tashkil etilgan. 1927 yil 17 fevraldan 1938 yil 15 yanvargacha Qashqadaryo okrugi maqomida. 1938 yil 15 yanvarda Buxoro viloyatiga qo'shib yuborildi. 1943 yil 20 yanvarda qayta tashkil etildi. 1960 yil 25 yanvarda Surxondaryo viloyatiga qo'shildi. 1964 yil 7 fevraldan yangidan tashkil etildi. Respublikaning janubiy-g'arbida, Qashqadaryo havzasida, Pomir-Olay tog' sistemasining g'arbiy chekkasida, Amudaryo va Zarafshon daryolari, Hisor va Zarafshon tizma tog'lari orasida. Shimoliy-g'arbdan Buxoro, janubiy-sharqdan Surxondaryo, janubiy-g'arb va g'arbdan Turkmaniston, sharqdan Tojikiston va Samarqand viloyatlari bilan chegaradosh. Maydoni 28,6 ming km². Tarkibida 13 ta tuman (Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Qamashi, Qarshi, G'uzor), 12 shahar (Beshkent, Kitob, Koson, Muborak, Tallimardon, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog', Yangi Nishon, Qamashi, Qarshi, G'uzor), 5 shaharcha (Dehqonobod, Miroqi, Eski Yakkabog', Qashqadaryo, Shayhali), 491 ta mahalla fuqarolar yig'ini, 147 ta qishloq fuqarolari yig'ini, 1046 ta qishloqlar bor (2014). Markazi – Qarshi shahri.

Qashqadaryo mamlakatimizning eng boy tarixga, rivojlangan madaniyatga, serhosil zaminga ega bo'lgan qadimiy o'lkalardan biridir. Qashqadaryo Zarafshon va Amudaryo daryolari oralig'ida joylashgan, qadimda Janubiy So'g'd, Janubiy Turon deya nomlangan, dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay iqlim va suv sharoitiga, o'ziga xos go'zal tabiatiga ega bo'lgan bu voha qadimdanoq ko'plarning e'tiborini jalb etgan.

Qashqadaryo viloyati O'zbekiston mamlakatining yirik tekisliklar, cho'l, tog' va tog'oldi hududlariga, o'ziga xos tabiiy va iqlim sharoitiga ega bo'lgan viloyatlardan biridir. U shimoldan Samarqand, shimoli-g'arbdan Buxoro, sharq va janubi-sharqdan Surxondaryo viloyatlari bilan chegaradosh. Shimoli-sharq qismidan Tojikiston, g'arbiy qismidan esa Turkmaniston mamlakatlari chegaralari o'tadi.

Ummiy sarhadlarining uzunligi 795 kilometrni tashkil etib, shuning 400 kilometri tog' tizmalari orqali o'tadi. Uning jami hududi 28,4 ming kvadrat kilometr bo'lib, Respublika er maydonining 6,3 foizini tashkil etadi. U joylashgan o'mi jihatdan Albaniya, Niderlandiya, Belgiya, Armaniston mamlakatlari bilan tengdir.

Viloyat hududi, asosan, Qashqadaryo botig'ini o'z ichiga olgan. Shimoliy, sharqiy va janubiy sharqdan Zarafshon hamda Hisor tizma tog'lari bilan o'ralsan. Tog'lari bilan tekisliklar orasini adirlar egallagan. Tekislikning katta qismi g'arbda Sandiqli va Qizilqum cho'llari bilan tutashgan Qarshi cho'lidan iborat.

Asosiy daryosi - Qashqadaryo. Uning irmoqlari - Jinnidaryo, Oqsuv, Yakkabog'daryo, Tanxozdaryo, G'uzordaryo (Katta va Kichik O'rardaryo bilan birga). Daryolar qor, yomg'ir va muzliklar suvidan to'yinadi. Daryo suvidan, asosan, sug'orishda foydalilanladi. Chimgo'rg'on, Qamashi, Pachkamar suv omborlari; Fayziobod, 8 Mart, Eskibog', Eski Anhor, Koson, Paxtaobod, Qarshi va hoshqa kanallar bor. Qarshi cho'llini o'zlashtirishda 6 nasos stansiyasi, ochiq va yopiq kollektor drenaj tarmoqlari qurilgan. Sug'oriladigan erlarning tuprog'i, asosan, tipik va och bo'z tuproqlar. Kitob-Shahrisabz soyligida ko'proq qumoq tuproqlar mavjud. Tog'larda balandlik mintaqalari bo'ylab tipik bo'z tuproqlar tarqalgan. Tabiiy florasi 1200 ga yaqin yuksak o'simlik turidan iborat. Tog' yon bag'irlari har xil o't o'simliklari bilan qoplangan, shuningdek, butazorlar ham bor. Tog' o'rmonlari archa, bolom, pista, jiydazorlardan iborat. Tog'larda na'matak, zirk, chakanda, anzur piyozi, qora zira va boshqalar o'sadi.

Viloyat hududida 100 dan ziyod qush turi, sut emizuvchilarning 60 turi, sudralib yuruvchilarning 7 turi uchraydi. Daryo va suv havzalarida qumbaliq, ilonbosh, zog'orabaliq, gulmohi, xramula, qorabaliq yashaydi. Viloyatda Hisor tog'-o'rmon va Kitob davlat geologiya qo'riqxonalari joylashgan.

Viloyatning yalpi hududiy mahsuloti ham yildan – yilga oshib bormoqda. Qashqadaryo viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi 2014 yilda 10509,2 mlrd.so'mni tashkil etdi. 2014 yilda yalpi xududiy mahsulotda sanoatning ulushi 33,7 %, qishloq xo'jaligi 19,4 %, qurulish 7,8 %. Savdo va umumiyoq ovqatlanish 7,6 %, transport va aloqa 7,2 %, soliqlar 9,4 % va boqalar 15,0%ni tashkil etdi.

Viloyatning 2014 yilda tashqi savdo aylanmasi 637,2 mln. dollarni, shundan eksport 323,5 mln.dollarni import 313,7 mln.dollarni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar paxta tolasi, kimyo mahsulotlari, mashinasozlik, qurulish materiallari va har-xil xizmatlar hisobiga to'g'ri keladi. Import mahsulotlarida mashina va uskunalar, kimyo mahsulotlari, savdo, qora va rangli metalar hissasiga oshgan.

Surxondaryo viloyati - O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat. 1941 yil 6 martda tashkil etilgan (1925 yil 29 iyundan Surxondaryo okrug'i bo'lgan). 1960 yil 25 yanvarda Qashqadaryo viloyati bilan qo'shilgan. 1964 yil 7 fevralda qaytadan tashkil qilindi. Respublikaning janubiy-sharqida, Surxon-Sherobod vodiysida

joylashgan. Janubdan Amudaryo bo'ylab Afg'oniston, shimol, shimol-sharq va sharqdan Tojikiston, janub-g'arbdan Turkmaniston, shimol-g'arbdan Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh.

Hududi 20,1 ming km². Surxondaryo viloyatining tarkibida viloyatga bo'yinuvchi 14 tuman (Angor, Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Muzrabot, Oltinsoy, Sarosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Shurchi, Qiziriq Qumqo'rg'on), 8 ta tumanga bo'yinuvchi shaharlar (Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Termiz, Sharg'un, Sherobod, Sho'rechi, Qumqurg'on), 7 ta shaharcha (Angor, Do'stlik, Kakaydi, Sarosiyo, Sariq, Elbayon, Xurriyat), 114 qishloq fuqarolar yig'ini, 698 ta mahalla fuqarolar yig'ini va 847 ta qishloq aholi punktlari bor.

Markazi - Termiz shahri. Surxondaryo viloyati refezi tog' va tekisliklardan iborat, shimaldan janubga qiyalanib va kengayib boradi. Tog'lardan oqib tushadigan ko'pdan-ko'p daryo va soylar dara hosil qilgan. Surxondaryo va Sheroboddaryo oqib o'tadigan tekislik shimoliy, g'arb va sharqdan baland Hisor tizmasi (yeng baland joyi 4643 m) va uning tarmoqlari (Boysuntog', Ko'hitang tog', Bobotog') bilan o'ralgan.

Aholisi 2 million nafardan ortiq bo'slib, Respublika aholisining 7,3 foyizini tashkil etadi. Aholining 80,9 foizi yoki 1647,3 ming nafari qishloqlarda, 19,1 foizi 389,8 ming nafari shaharlardan yashaydi. Bular 102 millat va etatlarga mansub kishilardir. Ularning 1699,3 ming nafar (82,9 foizi)ni o'zbeklar, 258,4 ming nafari (12,5 foizi)ni tojiklar, 26,6 ming nafari (1,3 foizi)ni turkmanlar, 24,0 ming nafari (1,2 foizi)ni ruslar, 7,9 ming nafari (0,4 foizi)ni tatarlar, 2,3 ming nafari (0,1 foizi)ni qozoqlar, 0,7 ming nafari (0,03 foizi)ni koreyslar, 32,8 ming nafari (1,6 foizi)ni boshqa millatlar tashkil qiladi.

Viloyatda temir yo'l transportining salmog'i katta. Surxondaryoda dastlabki temir yo'l 1915 yilda (Kogon-Termiz) qurilgan. Bu viloyatni boshqa regionlar bilan bog'laydigan dastlabki muhim yo'l bo'ldi.

Shuningdek, Respublikamizning janubiy viloyatlari Qashqadaryo va Surxondaryoning ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirish, temir yo'lda yuk tashishning transport ta'minotini yaxshilash, mamlakat temir yo'li tarmog'ini jonlantirish maqsadida «Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on» yangi temir yo'li ishga tushirildi. Bu temir yo'l Boysun tumani orqali iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan kam rivojlangan tuman qishloqlariga sanoatning kirib kelishiga, yer usti va yer osti boyliklaridan keng foydalanishga, musaffo tog' havosida qator davolash maskanlari, turistik bazalar, dam olish uylari qurishga katta imkoniyat yaratadi. Eng muhimi yangi zamonaliviy ijtimoiy-iqtisodiy ob'ektlar qurilishi, yangi ish o'rinalarining yaratilishi, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun keng yo'l ochildi.

Qulay iqlim sharoit va mutlaqo unumdon yerlar uning bu viloyatda qadimgi odamlar tomonidan juda erta o'zlashtirishi, sun'iy sug'orishga asoslangan

dehqonchilikning intensiv ravigda rivojlanishi, shahar va qishloqlarning yuzaga kelishi va yuksalishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Viloyatdagi qadimgi odamlarning dastlabki manzilgohlari turli yovvoyi suyvonlar va yovvoyi o'simliklar bilan qoplangan tog' o'rmonlarida, Boysun tog'laridan oqib tushuvchi daryo etaklarining bo'yalaridan paydo bo'ldi. Ularning ichida eng qadimgilari sifatida o'rta va yuqori paleolit davriga mansub Teshiktosh va Machay g'orlari hisoblanadi. Teshiktosh g'oridan neandertal bolaning suyaklari topilgan bo'lib, ushbu kashfiyat O'rta Osiyo hududi xozirgi odamlarning shakllanish mintaqalaridan biri bo'lgan degan ilmiy xulosaga olib keldi. Ko'hitang tog'larida aniqlangan Zarautsoy qoyatosh rasmlari esa mezolit yoki neolit davriga horib taqaladi.

Surxondaryo viloyati hududidagi Kushonlar davriga oid arxeologik yodgorliklar nihoyatda ko'p va xilma-xildir. Dalvarzintepa va Xolchayonda o'tkazilgan qazilmalar kushonlar shahri yuksak madaniyat o'choqlari bo'lganligini ko'rsatadi. Bu davrda xunarmandchilik va qishloq ho'jaligining intensiv ravigda rivojlanishi, tovar-pul munosabatlarining o'sishi arxitektura, monumental haykaltaroshlik va rassomchilik, koroplastika va gliptika san'atining yuksalishi kuzatiladi. Kushon shaharlari shuningdek, yirik targ'ibot markazlari ham bo'lgan. Ayritem, Dalvarzintepa va Ko'hna Termizdan topilgan Buddha ibodatxonalari va stupalar, Baqtriya-Tohariston madaniyati ellistik va xindbuddaviylik madaniyatining kuchli ta'siri ostida mahalliy baqtriyaga xos tarzda shakllanadi.

Surxondaryo viloyatining xozirgi hududi milodiy III-IV asrlarda Kushonlar davlati parchalanib ketgach, dastlab xioniyalar, so'ngra esa eftaliylar davlati tarkibiga kiradi.

Hozirgi kunda Surxondaryo viloyati yuksak darajada rivojlangan qishloq xo'jaligi va industiriyaga ega, paxtachilik, chorvachilik, bog'dorchilik va uzumchilik taraqqiy etgan yirik madaniy markaz bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida Surxondaryo viloyatining alohida o'rni bor. Respublikamiz janubida joylashgan bu voha mard va alpkelbat odamlari, kayvoni momolari, donishmand otalari, jasur yigit-qizlari, betakror tabiatli, qadim an'analarimiz va madaniyatimizning mangu yoniq o'chog'i sifatida ma'lum va mashhur. Mustaqillik yillarda Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida viloyatda ulkan buniyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Surxondaryo yangi qiyofa kasb etdi, odamlari ongi va tafakkurida ham tub o'zgarishlar ro'y berib, kelajakka bo'lgan ishonch, yashashga ishtiyoq ortdi.

Bugun viloyatga tashrif buyursangiz, zamonaviy arxitektura an'analarini o'zida mujassam etgan muhtasham inshootlar, o'quv binolari, turar joylar, shifo maskanlari, keng va ravon ko'chalar voha ko'rkiga-ko'rk qo'shib turganligining guvohi bo'lasiz. Termiz davlat universiteti, "Surxon" sport majmuasi, Yoshlar

markazi, Baxt uyi kabi muhtasham binolar, qishloq joylarda namunaviy loyihiilar asosida qurilgan yangi uy-joylar, ular atrofida barpo etilgan so'lim bog'lar, maktab va tibbiyot muassasalari, do'konlar va boshqa maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalarini ko'rib, dilingiz yayraydi.

19.2. Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiyalari

Mustaqillik yillarda yurtimizda turizmni rivojlantirish, sayyoohlar oqimini ko'paytirish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilganligi Samarqandda bo'lib o'tgan BMT Jahon sayyoohlik tashkiloti Ijroiya kengashining 99-sessiyasi ishtirokchilari tomonidan alohida e'tirof etildi. Xalqimizning noyob madaniy boyligi va tarixiy merosini targ'ib qilish, xalqaro miqyosda mamlakatimizning ijobiy imidjini shakllantirish vositasi bo'lgan turizm ahamiyati jihatidan Vatanimizni dunyoga tanitishda sport, san'at va madaniyatning boshqa sohafari qatoridan muhim o'rinn egallaydi. Turizmning yetti omili mavjud bo'lib, ular xalqaro, ekologik, tabiiy-madaniy, tibbiy va boshqa zamonaviy turlari, soha infratuzilmasini rivojlantirish, tarixiy yodgorliklarni o'rganish, restavratsiya qilish, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, Buyuk Ipak yo'lli brendini targ'ib qilishdan iborat. Viloyatdagi qadimiylar yodgorliklar hamda sohibqiron Amir Temur davridan bizgacha saqlanib kelgan bebaho madaniy meros bilan tanishish, vohaning betakror tabiatidan bahramand bo'lism uchun tashrif buyuruvchilar soni yildan-yilga ko'paymoqda.

Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Germaniya, AQSH, Hindiston singari davlatlardan tashrif buyurayotgan sayyoohlar Qarshi shahridagi Odina, Ko'kgumbaz tarixiy obidalari, Qashqadaryo ko'prigi, Yerqo'rg'on, Shahrisabz shahridagi «Oqsaroy» madaniy yodgorligi, Kitob tumanidagi «Hazrati Bashir», Qamashi tumanidagi «Langar ota» ziyoratgohlari kabi muqaddas qadamjolar bilan bir qatorda mustaqillik yillarda yaratilgan bonyodkorlik ishlarini hayrat bilan tomosha qilishayotir.

Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 1 noyabrdagi «2013-2015 yillar davrida Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi qarori asosan vohaning o'ziga xos tarixiy-madaniy merosi imkoniyatlardan turizm rivojida samarali foydalanish, tarixiy-me'moriy ansambllar va obidalarni asrabavaylash, ta'mirlash, turistik va xizmat ko'rsatish ob'ektlarini bunyod etish va mavjudlarini yangilash, transport infratuzilmasini rivojlantirish, sayyoohlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, pirovardida yangi ish o'rinnari yaratish ko'zda tutilgan.

Marketing talablari asosida yaratiladigan «VisitKashkadarya.uz» portali imkoniyatlardan foydalangan holda viloyatning turistik brendi tayyorlandi. Qarshi va Shahrisabz shaharlarining jozibador ob'ektlari tasvirlangan turistik karta-sxemasi

ishlab chiqilmoqda. Ekoturizm imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Mirishkor tumanidagi Achinko'l suv havzasi atrofida dam olish maskani va uning infrastrukturasini barpo etish ishlari jadal davom etayapti. Skuterda suzish, o'tov uylar, kichik mehmonxona, turistlar dam olish maskani, avtomobillar to'xtash joyi, mobil aloqa markazi, baliq ovlashga mo'ljallangan suv havzasi qurib bitkazildi. Ortoqli oromgoh, plyaj buniyod etilayapti, qayiqlar, skuterlar keltiriladi.

Yakkabog' tumanining Xo'jailg'or qishlog'ida Amir Temuring bolalik yillarini aks ettiruvchi muzey buniyod etiladi. Undan Sohibqironning bolaligi va oilasi haqida ma'lumot beruvchi osori-atiqalar joy oladi. Bu yerga yaqin joyda umumiyoq ovqatlanish shoxobchalari, suvenir mahsulotlari sotish uchun mo'ljallangan savdo maydonlari, «Sohibqiron bog'i» tashkil etiladi.

Samarqand-Shahrisabz avtomagistrali bo'ylab zamonaviy turistik kempinglar barpo etish mo'ljallanayapti. Kitob tumanidagi Kenglik stansiyasi va rasadxonaga, shuningdek, Hisor qo'riqxonasi va Kitob davlat geologik qo'riqxonasiga tashriflar bo'yicha turistik yo'tnalishlar ishlab chiqish rejalashtirilgan. Mingchinor oromgohi hududida mehmonxonalar, restoranlar tashkit etish bo'yicha ishlar boshlab yuborildi. Viloyat hududidagi 43 ta tarixiy-madaniy ob'ekt qayta tiklanadi. Sayyoohlarni munosib kutib olish, ularda voha haqida yorqin taassurotlar uyg'otish, madaniy dam olishlari uchun ko'ngilochar inshootlar barpo etish, bir so'z bilan aytganda, sayyoohlilik infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida 56 ta loyihada yangi mehmonxonalar, restoranlar, kinoteatrlar kabi muassasalarini qurib, ishga tushirilishi ko'zda tutilgan. Jumladan, 24 ta yangi mehmonxona qurilib, 5 tasini qayta ta'mirlash rejalashtirilgan.

Bugun Qarshi va Shahrisabz shaharlarida keng ko'lamda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilib, cho'milish havzalari, ko'ngilochar maskanlarda gulzorlar barpo etilib, favvoralar tashkil etilayapti. Dasturga ko'tra dam olish maskanlarining asosiy qismi Shahrisabz va Kitob tumanining tog'oldi zonalarida joylashganligi ekoturizmni rivojlantirish imkonini beradi. Xorijlik sayyoohlari tashrif davomida tabiat qo'ynida sayr qilishib, baliqxonadan baliq ovlashi, turli xil giyohlardan terib, daryolar, tog'lar tarovatidan bahra olishlari mumkin. Qarshi shahridan Kitob tumani dam olish zonalarigacha bo'lgan 126 km. masofada 4 qator avtomagistral yo'l qurilishi olib borilayapti.

Qashqadaryoda bundan o'n yil muqaddam sayyoohlarga bor-yo'g'i 2 ta turistik korxona 70 million so'mlik xizmat ko'rsatgan bo'lsa, endilikda 20 dan ziyod xususiy firma hududiy turizm rivojiga yiliga 4.5 mlrd. so'mlik hissa qo'shamoqda.

"O'zbekturizm" milliy kompaniyasining Qashqadaryo viloyatdagi vakili O'ktam Xo'jayorovning ma'lum qilishicha, yil davomida viloyatdagi turistik firmalar va mehmonxonalar tomonidan jami 35570 nafar mehmonga xizmat ko'rsatilgan. 2013 yilda turistik xizmatlarning umumiyoq hajmi 3 milliard 893 million

so‘nni, xizmatlar eksporti esa 182 ming 746 AQSH dollarini tashkil etgan. O‘tgan yili viloyatga chet eldan 4000 nafardan ortiq mehmon kelgan. Viloyatda faoliyat yurituvchi sayyoohlilik tashkilotlarining soni 19 tadan 21 taga ko‘paydi. Sayyoohlarni ko‘proq vohaning betakror tabiatini va madaniy-ma’rifiy yodgorliklari qiziqtiradi⁴³.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan istiqlol yillarda qarshi shahridagi ko‘plab tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar obod qilinib, butunlay yangi manzara kashf etdi. Viloyatdagi har bir qadimiy yodgorlik, shuningdek, sohibqiron Amir Temur davridagi bebahoh madaniy meros bilan tanishish, vohaning betakror tabiatidan bahramand bo‘lish uchun tashrif buyuruvchilar soni yildan-yilga ko‘paymoqda. Zamonaliv mehmonxonalar, dam olish maskanlari qurilishi barobarida servis xizmati ham yaxshilanib borayotir. hukumat qaroriga asosan ishlab chiqilgan dastur amalga oshirilgach, 2016 yilda vohaga tashrif buyuruvchi sayyoohlarni 33,2 ming kishiga, ularga xizmat ko‘rsatish hajmi esa 2010 yilga nisbatan uch baravar ko‘payishi kutilmoqda.

Jumladan, qarshi aeroportida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish uchun biznes-zal buniyod etilib, sayyoohlarni maxsus avtobuslar ajratiladi. qarshi temir yo‘l shohbekati, Kitob stansiyasi rekonstruksiya qilinmoqda. Marketing talablari bo‘yicha yaratiladigan visitkashkadarya.uz portali imkoniyatlardan foydalangan holda viloyatning turistik brendi ishlab chiqildi. Ekoturizm imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida Mirishkor tumanidagi Achinko‘l suv havzasini atrofida zamonaliv infratuzilmaga ega dam olish maskanini barpo etish jadal davom etayapti. Skuterda suzish, o‘toy uylar, kichik mehmonxona, avtomobillar to‘xtash joyi, mobil aloqa markazi va suv havzasini qurib bitkazildi. Shahrисабз, Kitob, Yakkabog‘ tumanlari hududida ekologik va qishloq turizmini, qarshi shahri va tumanida sohada hali to‘liq foydalanimayotgan madaniy-ma’rifiy turizmni rivojlantirish, hududiy turistik mahsulotlarni xorij bozoriga chiqarish, tabiliy va tarixiy-madaniy diqqatga sazovor manzillar bo‘yicha yangi yo‘nalishlarni tashkil etish ko‘zda tutilmoqda.

Viloyatda turizmni rivojlantirish, sayyoohlarga servis xizmati ko‘rsatishni jahon talablari darajasiga yetkazish maqsadida Ispaniya, Portugaliya, BAA, Yaponiya, Germaniya, Avstriya, Gollandiya, Vengriya, Chexiya kabi davlatlar tajribasini amaliyatga tafbiq etishga harakat qilayapmiz, — deydi o‘ktam Xo‘jayorov. — qadimiy yodgorliklar, qutlug‘ qadamjolarni obodonlashtirish, ularning betakror jihatlarini ko‘rsatish borasida izlanishlar olib borib, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar haqida risolalar, bukletlar yaratishga taniqli ijodkor va olimlarni jafl etayapmiz. «qarshi shahar yodgorliklari» risolasi shular jumlasidandir.

⁴³ AA <http://uz.ka-nevs.org/nevs/24892/>

Yana bir yangilik: Yakkabog' tumanining Xo'jalig'or qishlog'ida Amir Temurning bolalik yillarini aks ettiruvchi muzey tashkil etilishi mo'ljallangan. Zamonaliviy hamda milliy taomlar shoxobchalari, esdalik sovg'alarini savdo rastasi, «Sohibqiron bog'i» ushbu ansamblni boyitishga xizmat qiladi.

Qarshi shahridagi «Bekmir» madrasasi, Shahrисabzdag'i «Koba» karvonsaroyida hunarmandlar markazi tashkil etilib, ularda hunarmandchilik mahsulotlari, sharq shirinliklari, milliy taomlar savdosiga yo'lga qo'yiladi. Samarqand-Shahrисabz avtomagistrali bo'ylab turistik kempinglar barpo etish mo'ljallanayapti. Kitob tumanidagi «Kenglik stansiyasi» va rasadxona, shuningdek, hisor qo'rirqxonasi va Kitob davlat geologik qo'rirqxonasiga tashriflar bo'yicha turistik yo'naliishlar ishlab chiqish rejalashtirilgan. «Mingchinor» oromgohi hundudida mehmonxonalar, restoranlar tashkil etish bo'yicha ish boshlab yuborildi. Jumladan, 24 ta yangi mehmonxona qurilib, 5 tasi qayta ta'mirlanadi. 30 ta tarixiy yodgorlik restavratsiya qilinadi. Shahrисabzga tashrif buyuradigan sayyoohlар elektromobilda sayr etish imkoniga ega bo'ladi.

Shu o'rinda turizm sohasida faoliyat olib boradigan kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilayotganini aytib o'tish joiz. Xususan, o'tgan yillar mobaynida 300 dan ortiq soha xodimining malakasi oshirildi. qarshi madaniyat kolleji Turizm madaniyati kollejiga aylantirildi. qarshi davlat universitetida esa har yili 20 nafar mutaxassis tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Sirasini aytganda, Qashqadaryoda xalqimizning noyob madaniy boylig'i va tarixiy merosini targ'ib qilish, yoshlarni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida ajdodlarga munosib vorislar etib tarbiyalash, xalqaro miqyosda mamlakatimiz nufuzini oshirish vositalaridan bo'lmish turizmni rivojlantirish loyihasi uchun turli manbalardan 100 million AQSH dollari miqdorida mablag' sarflash ko'zda tutilgan.

Ta'kidlash joyizki bugungi kunda Surxondaryo viloyatida ham turizmni rivojlantirish ikoniyatlari bisyor. Ko'p qirrali O'zbekiston tarixi shubhasiz uning geografik joylashishini ham aks ettiradi. Termiz mamlakatning eng janubiy shahridir. Termiz Amudaryo sohilining o'ng tomonida karvon yo'lida asos solingan bo'lib asosiy port sifatida 2500 yildan buyon shu vazifani bajaradi.

Yeramizning boshlarida Termiz Markazi Osiyoning asosiy buddizm markazi bo'lgan. Qora-Tepadagi toshga o'yilgan budda monastiri, Fayoz-tepadagi Buddha ibodatxonasi, ko'plab ohakli loydan qilingan budda haykallar qoldiqlari sayyooh va budda sig'inuvchilar uchun mashxur joy. Termiz faqatgina o'zining budda dini yodgorliklari bilangina mashxur emas. Bu yerda o'rta asrlar boshiga tegishli bo'lgan bir qancha qiziqarli tarixiy yodgorliklar ham bor. Ularning orasida Hakim at-Termiziyning qabri, Sultan Saodat ansamblı (X-XVII asrlar) va afsonaviy Qirq-Qiz qal'asi (IX asr) mavjud.

Hozirgi kunda turizm tez suratlar bilan rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda bu borada qator ishlar olib borilmoqda. Turizmning turlari juda ko'p, lekin bizda ko'proq tarixiy, me'moriy va arxeologik yodgorliklar bilan cheklanib qolyapmiz.

Istiqlol yillarda sayyoqlik sohasini rivojlantirish, yurtimizga kelayotgan xorijlik sayyoqlar oqimini yanada ko'paytirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sifatini yanada yuksaltirish, malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2013 yil 1 noyabrdagi tasdiqlangan 2013-2015 yillar davrida Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish Dasturi bu ishlarning uziyligini ta'minlaydi.

Qashqadaryo viloyatinining turizm sohasini rivojlantirish dasturiga asosan rejalashtirilgan 167 ta tadbir va loyiha latni amalga oshirish uchun 109 million AQSH dollari miqdorida investitsiya o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan. Jumladan, 48,7 million dollar – korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari, 6 million dollar – xorijiy investitsiyalar, 2 million dollar – grant mablag'lari va 15 million dollar – byudjet mablag'lari sarflanadi. Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan 37,1 million dollar miqdorida kredit mablag'lari ajratiladi.

Dasturga kiritilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida viloyatning 43 ta tarixiy-madaniy ob'ektlari qayta tiklanadi va holati yaxshilanadi. 24 ta yangi mehmonxona qurish va 5 ta mavjudlarini qayta ta'mirlash orqali mehmonxona xizmatlari ko'rsatish hajmi keskin ortadi. Turistik xizmatlar hajmi 1,5 barobarga oshadi va 2015 yilga borib bu 4,5 milliard so'mni tashkil etadi. Viloyatning eksport hajmi 2012 yilning ko'rsatkichiga nisbatan 1,4 martaga ortadi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun aniq chora-tadbirlar belgilab olinib, bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha Qarshi xalqaro aeroporti binosini ta'mirlash, yuqori martabali mehmonlar zalini tashkil etish, yangi mahalliy aviareyslami yo'lga qo'yish maqsadida hozirgacha aerovokzal binosining tashqi fasadi, kutish va tranzit zallari va xoll ta'mirlanib, rejalashtirilgan ishlar izchil davom ettirilayapti. Shahrисabz tumanida yengil avtomobil va avtobuslarning to'xtash joylarini tashkil etish, Kitob temir yo'l stansiyasini rekonstruksiya qilish va qiymati 2 million dollarlik 20 ta zamонави turistik avtobuslarni sotib olish maqsadida "O'zbekiston temir yo'llari" davlat-aksionerlik temir yo'l kompaniyasi hamda loyiha tashabbuskorlari bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda. Qarshi va Shahrисabz shaharlарining jozibador ob'ektlari tasvirga tushirilgan turistik karta-sxemasi ishlab chiqilmoqda.

Mirishkor tumanida 2014 yilda "Achinko'l" suv havzasi atrofida dam olish maskani va uning infrastrukturاسini barpo etish (baliq ovlash, skuterda suzishni tashkil etish, o'tovli uylar qurish) maqsadida hozirgacha 12 kishiga mo'ljalangan mehmonxona va turistlar dam olish maskani, avtomobillar to'xtash joyi, mobil

aloqa markazi, baliq ovlash sporti bo'yicha suv havzasi qurib bitkazildi. Ayni paytda bu yerda ham ishlar bosqichma-bosqich davom ettirilmoqda.

Yakkabog' tumanining Xo'jailg'or qishlog'ida Amir Temurning bolalik davrlari o'tgan uy muzeyi tashkil etish va uning atrofini obodonlashtirish hamda umumiy ovqatlanish punktlarini tashkil etish bo'yicha Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan xorijiy hamkorlik pasporti shakllantirilayapti.

Kitob tumanining Mingchinor oromgohida 2015 yilda xorijiy investitsiyalar hisobidan turistlar uchun tog' chang'i sporti bazasi, osma yo'l, mehmonxonalar, umumovqatlanish punktlari, restoranlar tashkil etish hamda bosil bo'ladigan majmua atrofini obodonlashtirish bo'yicha to'liq pasport tayyorlanib, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga taqdim etildi.

Viloyatning turistik mahsulotlarini ko'paytirish yo'nalishida ham bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, sayyoqlar Chiroqchi tumanida jundan gilam to'quvchi tadbirkorlar xonadonida ish jarayonini kuzatishi uchun ko'rgazma tashkil etildi.

Qarshi shahrida bolalar dam olish oromgohi yonida oilaviy dam olish maskani tashkil etish, uning hududida restoran, kafe va ko'ngilochar ob'ektlar qurish bo'yicha hozirgi kunda loyiha-smeta hujjatlari tayyorlanib, ishlar davom ettirilmoqda.

O'zbek milliy o'yinlarini xorijiy va mahalliy sayyoohlarga namoyish etish maqsadida Kitob tumanida joriy yilning 23 mart kuni uloq-ko'pkari o'yinlari tashkil etildi. Uni 80 dan ortiq xorijiy va 100 dan ortiq mahalliy sayyoqlar zo'r qiziqish bilan kuzatdilar. Dastur doirasida ushbu namoyishlar doimiy o'tkazilishi belgilangan.

Turistlarni keng jalb qilish bo'yicha tadbirlarni jadallashtirish borasida viloyatning turistik brendini yaratish va keng targ'ib qilish bo'yicha tanlov e'lon qilindi, chet el ommaviy axborot vositalari va turistik kompaniyalari uchun infoturlar tashkil etish maqsadida yo'nalish va mehmonxonalar ro'yxati tayyorlanmoqda, videofilmlar yaratish yuzasidan ssenariy va viloyatning turistik ekskursiya kartasi ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, turistik ma'lumotnoma ofislari tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Viloyatdagi tarixiy obidalar handa mintaqaning turistik imkoniyatlari haqida ma'lumot beruvchi reklama bukletlari, broshyuralar hamda o'zbek, rus va ingliz tillarida reklama roliklari tayyorlandi.

Dastur bo'yicha 2013 yilda bajarilishi rejalashtirilgan loyihamar to'liq amalga oshirildi. Jumladan 1,2 million dollar mablag' evaziga 3 ta loyiha (2 ta restoran va 1 ta ko'ngilochar markaz) ishga tushirildi. 2014 yilda 51,3 million dollar mablag' hisobiga 44 ta tadbir va loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Ayni paytgacha

barcha yangi quriladigan va ta'mirlanadigan ob'ektlarning tashabbuskorlari aniqlangan hamda grafik asosida ish olib borishmoqda. Bir so'z bilan aytganda, loyihalarning o'z muddatida hayotga tatbiq etilishiiga, viloyatimizning tarixiy yodgorliklari, qadimiy obidalari, muqaddas ziyoratgohlari, xushmanzara tabiat va fayzli go'shalari, betakror qadriyatlar va an'analarini bilan jahon sayyohlarini o'ziga tobora kengroq rom etishiga erishish uchun barcha imkoniyatlari ishga solinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining boshqa viloyatlari singari Surxondaryo viloyatida ham "Surxondaryo viloyatida 2011-2012 yillarda turizm sohasini rivojlantirish va turistik xizmatlarning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" ishlab chiqilib ijrosi ta'minlandi.

Dasturni ishlab chiqishda viloyatda turizmni rivojlantirishning dolzarb masalalari inobatga olingan va dasturini amalga oshirish uchun jami \$ 7.06 million yo'naltirilgan.

Dastur doirasida «Qirq Qiz» i «Fayoz tepa» yodgorliklari, Sherobot tumanidagi Imom Termizi masjidi, Denov tumanidagi Said Otaliq madrasasi kabi tarixiy ob'ektlarni restavratsiya qilish nazarda tutilgan.

Shuningdek bir qancha mehmonxonalarini rekonstruksiya qilish va 30 va 25 o'rinni mehmonxonalar qurish ishlari amalga oshirish ham belgilangan.

19.3. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati

Ayni paytda Qashqadaryo viloyatida jami 894 ta madaniy meros ob'ektlari mavjud. Ularning 638 tasi arxeologiya, 181 tasi arxitektura, 75 tasi haykaltaroshlik yodgorliklari, 37 tasi esa ziyoratgohfardir. Hukumat qaroriga muvofiq Mirishkor tumanidagi Achinko'l ko'li sayyoqlik majmuasiga aylantirilishi, Yakkabog' tumanidagi Xo'jailg'or qishlog'ida "Temuring bolaligi muzeyi" ish boshlashi, Samarqand-Shahrisabz avtomagistrali yoqasida, Chitoqchi tumanidagi Ko'kdala qo'rg'onchasi hududida hamda Muborakda, Qarshi-Buxoro avtomagistrali yoqasida sayyoqlik majmuasi barpo qilinishi, ularda sayyoohlarga karvonlarda sayr qilish imkoniyati yaratilishi belgilangan.

Viloyatda Mirzo Ulug'bekning 600 yilligi, Amir Temurning 660 yilligi, Shahrisabz shahrining 2700 yilligi munosabati bilan Shahrisabzda obidalarni ta'mirlash ishlari keng ko'lamba olib borildi. Oqsaroy me'moriy majmuasi konservatsiya qilindi, markaziy maydonda Amir Temurga haykal o'rnatildi. Dor uttilovat, Dor us-siyodat majmuasidagi Jahongir (Hazrati Imom) maqbarasi, Oqsaroy majmuasi, Ulug'bek madrasasi, Kitob tumanidagi Xoja Ilimkon xonaqosi, Langar qishlog'ida Langarota maqbarasi, Fudino qishlog'ida Xusamota ansambl, Qarshi shahrida Mahalla masjidi saqlangan. Qarshi shahrining 2700 yilligi

munosabati bilan Qarshi shahridagi Ko'kgumbaz masjidi, tarixiy ko'priklari va boshqa madrasa va masjid binolari ta'mirlandi.

Qashqadaryoning bog'lar va uzumzorlarga burkangan Shahrisabz shahri qadimda xunarmandchilik markazi bo'lgan. Shahrisabzdagi dastlabki turar joylarga V-VI asrlarda asos solingan bo'lsa, IX-X asrlarga kelib u yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan. Amir Temur tomonidan devor bilan o'talganidan so'ng u madaniyat va ilm-fan shahriga aylangan.

Shahrisabz shaxrining tarixiy eski shahar kismidagi Amir Temur va temuriylar davriga mansub 19 ta madaniy memorchlilik yodgorliklari YUNESKOning «Umuminsoniy kadriyatlar» kitobi ruyxatiga kiritilgan. Yodgorliklarda muzeifikasiatsiya ishlari yulga kuyilmokda. Yodgorliklar kompakt ravishda joylashgan bulib, asosan bitta katta ko'cha «Buyuk ipak yuli» kuchasiida joylashgan. Shahar markazida transport yo'li bir tomonlama bulib, yodgorliklarda piyoda sayoxat qilish ham mumkin.

Qashadaryoning Qarshi shahri Samarcand va Buxorodan Afg'oniston va Hindistonga o'tuvchi karvon yo'llari asosida yuzaga kelgan. Qarshi bir necha arxitektura yodgorliklariga ega. Bular: Mirzo Ulug'bek tomonidan qurilgan Ko'kgumbaz masjidi (1463 y.), Jome' masjidi, Minorali Qo'rg'oncha (XIX-XX asrlar), Xo'ja Abdulaziz madrasasi (XX asr), Qilichboy madrasasi (1714 y.), Zaxok- Moron shaharchasi harobalari (yeramizdan avvalgi I asr-yeramizning V asri) va Qashqadaryo daryosi ustidan o'tgan qadimiy ko'priklari kabilardir. Shaharda O'lakashunoslik muzeysi ham bor.

Qashqadaryoning muhim arxeologik yodgorliklari-Temuriy sulolasiga tegishli Shamsiddin Mir Kulol maqbarasi, Ko'kgumbaz masjidi, Gumbazi Zeydan maqbarasidir.

Hisor tog'larning janubi-g'arbida 1975 yilda Qizilsoy qo'rixonasi tashkil etilgan. Bu yerda silovsin, ayiq, qor barsi kabi noyob hayvonlarni uchratish mumkin. Shuningdek, Markaziy Osiyodagi eng yirik g'orlardan biri – Amir Temur g'ori ham shu atroflarda joylashgan.

Qashqadaryoda Xoja Ubaydulla, Jaroh Abduraxmon Ota, G'ulom Naqshbandiyalar ziyoratgoxlari, Sulton Mirhaydar maqbarasi kabi ziyoratgoxlari ham bor.

Shahrisabzning asosiy tarixiy va arxitektura yodgorliklari⁴⁴:



Dor ut-tilovat

⁴⁴ Tuxliyev I.S. va boshqalar «Turizm asoslari». Darslik. T.: 2014 yil

1. Oqsaroy (1380 y.);
2. Dorus - Saodat majmuasi (XIV asr);
3. Xazrati Imom masjidi (XIV asr);
4. Jahongir maqbarasi (XIV asr);
5. Dor-ut-Tilovat arxitektura majmuasi;
6. Ko'kgumbaz masjidi (1435 y.);
7. Gumbazi Saidon (XV asr);
8. Shamsiddin Kulol maqbarasi (XV asr).

Ta'kidlash joyizki, Qashqadaryoda Amir Temur tomonidan ko'plab bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan. Amir Temur o'z davrida Samarqandni poytaxt qilib olsada ota Vatani Keshni obod qilishni hech qachon nazaridan qochirmadi. U Keshda ko'plab jamoat binolarini bunyod etdi.

Biz diplom ishimizningushbu bobida Qashqadaryo viloyatining ayrim tarixiy-arxitektura yodgorliklarini ko'rib chiqamiz.

Dor ut-tilovat (Qur'on tilovat qilinadigan uy) majmuasi qurilishi bilan alohida e'tiborlidir. Bu yerga 1370 yili otasi va o'zining piri komili bo'lgan Shamsiddin Kulolni dafn ettirdi va to'rt yil o'tgach qabr ustiga gumbaza qurdirib, otasi jasadini ham unga keltirib qo'ydirdi.

Oqsaroydir. Amir Temur tomonidan Keshda bunyod etilgan mahobatli binolardan biri bu. Klavixoning qoldirgan ma'lumotiga ko'ra, Oqsaroyda oliv hukmdor va oilasi yashashidan tashqari, davlat muassasalari ham faoliyat elib borgan. Oqsaroyni Amir Temur onasi xotirasiga atab qurdirgan. Uning peshtoqiga «Agar bizning qudratimizni bilmoquechi bo'lsangiz, qurgan binolarimizga boqing» deya Amir Temur avvalo, o'z xalqiga, kelajak avlodlariga murojaat qilgan.

Ma'lumki, YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan mazkur tarixiy inshootni bunyod etish ishlari 1380 yilda Sohibqiron Amir Temur tomonidan boshlangan bo'lib, uning mahobat va tarovati, betakror jozibasi xususida o'sha davr tarixnavislari asarlari, xususan, ispaniyalik elchi Rui Gonzales Klavixoning esdaliklarida qayd etilgan.

Oqsaroy O'rta Osiyodagi o'rta asrlarga oid buyuk memoriy yodgorlikdir. Xozirda qasr peshtoqining ichki qudratli ustuni, qasr maydoni, fontan xovuzlari va reja asosida bunyod etilgan bog'ning 10 ga yaqin chinorlari saqlanib qolgan. Oksaroy yodgorligida Urta Osiyo memorchilik maktabiga xos xilma-xil uslublar



Xazrati Imom masjidi



Dorus - Saodat majmuas

kullanilgan, masalan naqshinkor va mayolikali sirkor gishtlardan iborat mozayika.O'yma mozayikada yetti xil rang; kuk, lojuvard, qora, sariq, yashil, eq, gishtin-qizil va tilla rang berilgan.


Dorus - Saodat majmuasi (XIV asr). Dorus-tilovat majmuining sharqida Dorus-saodat majmuasi joylashgan bo'lib, unda Xazrati Imom maschiti, Amir Temurning bevaqt vayfot etgan to'ng'ich valiadx o'g'li Jaxongir Mirzo maqbarasi, janub tomonida Amir Temurning keyingi o'g'li Umarshayx Mirzo maqbarasi va sharqiy tomonda ko'rinishidan Amir Temurning o'zi uchun buniyod etilgan makbaralari joylashgan. Arxeologik qazishmalar davrida ko'plab Keshlik barlos amirlarining ham maqbaralari aniqlangan. Bino o'z davrida juda xashamatli bo'lib, uni qurban tarixchilar xayrat bilan yozishgan. Xozirda saqlanib qolgan imorat poydevorlari, Jaxongir maqbarasi, Amir Temur sag'anasi va Xazrati Imom maschiti va xoylidagi chinorlar ham majmuuning xashamatidan dalolat berib turibdi.

Xazrati Imom masjidi (XIV asr) (2.4-rasm). 1384 yilda Amir Temur avliyo Muhammad Shayboniyning xokini keltirib Dorussiyodatga, o'g'li Jahongir qabri oldiga dafn ettirgan. Amir Temur ko'rsatmasi bilan xorazmlik ustalar baland bino barpo etganlar. Muhammad Shayboniy musulmon olamida "Hazrati Imomi Bag'dodiy" nomi bilan mashhur bo'lgan. Majmuaga Amir Temur o'zi uchun katta xilxona qurdirgan. Majmuuning ulkan ark va devorlari, o'n olti qirrali asosga qurilgan gumbazlari qimmatbaho tosh va shishalardan ishlangan naqshinkor bezaklar bilan bezatilgan.

Qashqadaryo viloyatining eng qadimiy masjidlaridan biri bu "**Hazrati imom**" masjididir. Masjid sharqona usulda, o'ymakorlik san'atiga nihoyatda e'tibor qaratilganligi bilan ham alohida diqqatga sazovordir. Ayvonda 9 ta tarixiy ustun

mavjud, balandligi 8 metr. Masjid ichining balandligi taxminan 15-17 metr keladi. Qariyb 700 yillik, tarixga ega, aylanasi 6 metrlik bahaybat chinor masjidga tengsiz ko'rk berib turadi. Zinalar, hovuz, mezana, talaygina qabrlar ziyoratgoh – yodgorliklar insonni uzoq o'tmishga chorlaydi.

Hazrati Imom ham buyuk insonlardan biridir va u kishining nomi hanuzgacha e'zozlanib, ehtirom bilan tilga olinadi. Tarixiy manbalarda ul zot haqida juda qisqa ma'lumot berilgan. Tarixchi manbashunos olimlardan G.A.Pugachenkova va L.Yu.Mankovskayalar Kesh-Shahrisabz tarixi va tarixiy yodgorliklarini hikoya qilib, Hazrati Imom haqida ham qisqagini ma'lumot berib ketganlar. Hazrati Imomning asl nomi Muhammad ibn al-Hasan ibn Vohid Abu Abdulloh. U kishi Iroqning Kufa shahrida tug'ilgan. Kelib chiqishi esa



Oqsaroy



Gumbazi Saiton

arablarning Shaybon qabilasidan bo'lganligi uchun Muhammad Shayboniy deyishgan. Hazrati Imomni esa xalq e'zozlab qo'ygan laqab hisoblanadi. Uni yana Imomi Mohiro'y ham deyishgan. Muhammad yoshlik chog'laridanoq hidoyat yo'lidan borib, Qur'on Karimni yod oladi. Hadisi sharifni o'rganadi. Diniy bilimlarni har tomonlama chuqurlashtirib, talqin qiladi.

Muhammad Shayboniy (Hazrati Imom) milodiy 804 yilda Eronning Ray shahrida vafot etgan va shu shaharda dafn etilgan. Ulug' allomaga ulkan maqbara qurilgan bo'sib, odamlar uni hamisha ziyorat qilib turishadi. Sohibqiron Amir Temur 1384 yilda Ray shahrini fath etadi. Miloddan avvalgi uch yuz yilda yunonlar tomonidan asos solingan bu shaharda Imom Muhammad Shayboniy-Imom A'zamning munosib shogirdlaridan biri dafn etilganini Sohibqiron "Olaming turli mam'lakatlari va shaharlarida dinu shariatni rivojlantirib, sayyidlar, ulamolar, shayxlarni, mashoyixlarni izzatu ikrom qildim" deb yozgan. Sohibqiron ana shu shioriga amal qilib Imom Muhammad Shayboniy maqbarasini ham ziyorat qiladi.

Rivoyatlarga qaraganda Sohibqiron Amir Temur Hazrati Imomning suyaklarini Shahrisabzga olib kelib dafn qilgan va salobatli maqbara qurdirgan. Sohibqironning bundan maqsadi birinchidan, ul zoti sharifga o'z hurmat-izzatini bajo keltirgan bo'lsa, ikkinchidan, imomu shayxlar, avliyolar mangu qo'nim topgan joyni Allah balo-qazo, ofatlardan saqlaydi deb hisoblagan. Qadimshunos olim L.Yu.Mankovskaya keltirgan yana bir rivoyat bo'yicha esa Hazrati imom Shahrisabzlik fiqhshunos olim Abu Muhammad Abdal Keshiy shaxsiga mansubligi 1868-1869 yillarda Jahongir Mirzo maqbarasi Eshigiga o'yib yozilgan va o'sha vaqtga kelib esa unutib yuborilgan XIX asr o'ttalarida maqbara bilan bir qatorda sinchli katta ayyoni va hujralari bo'lgan gumbazli guzar masjidi qad ko'targan.

Amir Temur davrida qad ko'targan va Malexo Samarcandiy asarida ko'rsatilgan maqbara vaqtning shiddatli zarbasini ko'tara olmay qor-yomg'ir, zilzilalarga bardosh bera olmay bizning kunlargacha yetib kelmagan. Hozir Hazrati Imom nomi bilan mashhur ushbu masjid Buxoroning so'nggi amiri Olimxonning buyrug'i bilan 1918-1920 yillarda qurilgan. 1920 yilning avgustida Shahrisabz sho'rolar tasarrufiga o'tgach, ushbu masjid ham yopib qo'yilgan. Faqat 1956 yilga kelib, Hazrati Imom masjidi yana faoliyat ko'rsata boshladi. Qori Yusuf Toshkandiy masjidning birinchi imom-xatibi bo'lgan. Mana 54 yildan beri jomening eshiklari xalqimiz uchun doimo ochiq. Shahrisabzning 2700 yilligi munosabati bilan Dorussaodat majmuiga kiruvchi yodgorliklar, shu jumladan,

Hazrati Imom jomei masjidi ham qayta ta'mirlanib, qadimiy Kesh tuprog'ida abadiy uyquga ketgan buyuk allomalar, Islom dini rivojiga hissa qo'shgan muborak zotlarning ruhlari shod bo'ladigan bo'ldi.

Gumbazi Saidon (XV asr). 1437-1438 yillarda bunyod etilgan Gumbazi Sayyidon maqbarasi o'ziga xos maqbaralar majmuasini tashkil etadi. Gumbazlariga naqshinkor bezaklar tushirilgan. Undagi yozuvlarga asoslanib Mirzo Ulug'bek avlodlariga oid, degan taxminlar qilinadi. XV - XVII asrlarda maqbara ichiga Termiz sayyidlari ismlari ko'rsatilgan bir necha qabrtoshlar olib kirilgan. Bu keyinchalik maqbaraning Gumbazi Sayyidon, deb atalishiga olib kelgan. Binoning asosi katta bir xonaqoh, gumbaz hamda unga ularib ketgan mayda xonalardan iborat.

Shamsiddin Kulol maqbarasi (XV asr). Mustaqillik yillarda yurtimizdag'i ko'plab tarixiy, me'moriy yodgorliklar va muborak qadamjolar qayta tiklandi. Jumladan, Kitob tumani Xojaazfaroz qishlog'ida joylashgan "Oqsuv" ziyyaratgohi, ya'ni Xoja Shayx Shamsiddin Kulolning maqbaralari ham ta'mirlandi. Mazkur obidani 1373 – 1374 yillarda Amir Temur hazratlari qurdirgan. Mil. 1370 yilda Shayx dafn etilgan joyga Amir Temur maqbara qurdirgan. 1373 yilda olamdan o'tgan Amir Tarag'ay ham o'zining vasiyatiga binoan ustoz Shamsiddin Kulol qabrining oyoq tomoniga dafn etildi. Maqbara to'g'ri to'rtburchak shaklda qurilgan bo'lib, kirish qismiga ulkan gumbaz ishlangan, dastlabki qo'yilgan ikkita katta ustun va asosiy poydevor bugungi kungacha saqlangan, devor va gumbazlar Amir Temur davriga xos o'ymakor g'ishtdan bezak va jilva bilan bezatilgan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida bunday deb qayd etilgan: "Hijriy 775 yilda hazrat Sohibqirongakim, Haq taborak va taolo davlat karomat qilib erdi. Hazrat ayyomi davlatida Keshda (Kesh shahridan o'n ikki kilometr uzoqlikda Asparozda) piri Shayx Shamsiddin Kulolning mozori yaqinidan (70 – 80 metr sharqiy tomonidan) gumbazli qubbasini tilladan qilib, oly imorat – xonaqoh qurdirdi..."

Hazrat Amir Temurning otalari Muhammad Tarag'ay Bahodir Xoja Shayx Shamsiddin Kulolni o'ziga ustoz deb bilgan. Manbalarda Sohibqironga Temur ismini u zot qo'ygani va kelajakda hukmdor bo'lishini bashorat etgani aytildi. Xoja Shayx Shamsiddinning ustozи yetuk mutasavvif Sayid Amir Kulol bo'lgan. Bahouddin Naqshband hazratlari Shayx Shamsiddin hazratlaridan uzoq yillar ta'lim olgan.

Mustaqillik yillarda ziyyaratgoh maydoni hamda daxma va uning atrofi obod qilindi. Yangi imoratlar qad rostladi. Hozir ziyyaratgohda qulay shart-sharoitlar mavjud bo'lib, bu yerga ko'plab xorijiy mehnomonlar ham tashrif buyurishmoqda.

Xo'ja Jarroh yodgorlik majmuasi. Majmua XIV asrga oid bo'lib, hozirgi Qarshi shahrining Xudoyzod mahallasida joylashigan. Rivoyatlarga ko'ra,

Sohibqiron Amir Temur XIV asr oxirlarida Shom va Jordaniya yerlarini zabit etgan paytda ulug' sahabalardan biri Abu Ubayda Omir ibn Abdulloh ibn al-Jarrah qabri xokidan keltirib, Qarshi shahrida dafni ettirgan va u yerga maqbara qurdirgan. Al-Jarrah birinchi bo'lib "amirlarning amiri", degan laqab olgan.

Hozirgi kunda turizm tez suratlar bilan rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda bu borada qator ishlar olib borilmoqda. Turizmnинг turlari juda ko'p, tarixiy, me'moriy va arxeologik yodgorliklardan turizmda keng foydalaniб kelinmoqda.

Mamlakatimizning Surxondaryo viloyatida boshqa viloyatlardagi kabi yetarli darajada turistik resurslar mavjud. Viloyat markazi bo'lgan Termiz shaxrida joylashgan "Al Hakim at Termiziy" me'moriy majmuasi, qizlar akademiyasi nomini olgan "Qirqqiz" me'moriy yodgorligi va "Sulton Saodat" obidalari, Angor tumunida "Bojalik tepa", Muzrobod tumanida "Kichik tepa", "Sopolli tepa", "Ayoztepa", Sho'rchi tumanidagi "Dalvarzintepa" manzilgohlari, Boysun tumanida "Teshiktosh g'ori", "Konustepa"dan (dinozavrnинг izi) topilgan, "Dalvarzintepa"dan 36 kg oltin topilgan, Qumqo'rg'onda "Makedon ko'prigi harobalari", Jarqo'rg'ondagi "Jarqo'rg'on minorasi", Denovda esa eski masjid, madrasalari kabialar shular jumlasidandir.

Shu bilan birgalikda, vohaning o'ziga xos urf-odatlari, xalq o'yinlari, taomlari va o'ziga xos kiyimlari viloyatlar ichidan ajralib turadi. Milliy o'yinlar ichidan "ko'pkari alohida ajralib turadi. Ko'pkarini xalq o'yini desak, mubolag'a bo'ladi. Biz shuni ta'kidlab aytamizki turizmni rivojlantirish faqatgina mablag' topish manbai emas, bu o'lkani obodonlashtirish, atrof-muhitni asrash hamda shu musaffo muhitni saqlab qolish imkonini ham beradi. Bunda xorijiy mexmonlar ko'proq tashrif buyursa, bizning qanchalik buyuk tarixga, yuksak moddiy-ma'naviy merosga ega ekanligimizni namoyish etish imkoniga ega bo'lamiz.

Surxondaryo o'lkasi xalqi nainki O'zbekistonga balki butun dunyoga o'zining tantiligi, mardligi, or va nomusini qadrlashi bilan tanilgandir.

Sulton Saodat majmui - Sulton Saodat (X-XI-XUP asrlar) majmuasi shu davr O'zbekiston me'morhiligi uchun noyob reja kenglik kompozitsiyasini beradi - bu Termiz sayyidlarining oilaviy dahmasi bo'lgan. Uning ilk negizi - ikki tanobiy ustidan qurilgan bir qat gumbazli maqbara bo'lib, hovlining g'arbiy qismiga kelib tutashadi. Shu guruhning asosiy sharqiy devori maqbaralar tashqi devorlarining har ikkala qanotidan iborat, ushbu devorlarda har tomonidan kirib keladigan keng ark va undagi eshiklar o'rinn olgan. Ularning sirti uch pannoga bo'lingan, ularda - xuddi ichkaridagi uch chorakli ustunlarda bo'lganidek, uchli arklar qad ko'tarib turibdi.

Sulton Saodat majmui 20 ga yaqin maqbarani o'z ichiga olgan. Unda Sayyidlar sulolasining maqbaralari joylashgan. Dastlab shu atrofdagi yerlar egasi, payg'ambarimiz avlodlaridan bo'lmish Hasan al-Amir (IX-asrning 2-yarmida vafot etgan) maqbarasi bunyod etilgan. Xalq orasida Sulton Saodat majmui nomi bilan mashhur bo'lgan maqbaralar X asrda, qolganlari, asosan, XV-XVII asrlarda yonmayon qurilib, uzun hovlining 2 tomonini egallagan.

Sulton Saodat maqbarasi naqshinkor pishiq g'ishtdan terilgan bo'lib, devor qismi geometrik shakldagi bezaklar bilan bezatilgan. Yuqori qismining ikki qatori keng gumbazli bo'lib, kichik o'rta gumbaz qismi kirish peshtoqiga utangan. Majmuaning eng qadimgi qismi XI asrga tegishli bo'lgan janubi-g'arbidagi maqbaradir. U ikki inshootdan iborat bo'lib, Birinchi maqbarada IX asrda vafot etgan Muhammad payg'ambarning avlodni Hasan al-'Amr ismli sayyidning xoki dafni etilgan. Maqbara zalining ikki tomoni serhasham qilib bezatilib, bu zalda har



Sulton Saodat majmui

xil shakldagi g'ishtlar turlicha uslubda terilgan. Ikkinci zalning jahozi oddiy bo'lib, har ikkala maqbara eshigi kungurador ayvonli bo'lib, hovliga qaratilgan.

XV asrda Amir Temur o'lidan keyin (1405) Termizni o'z ixtiyoriga oлган

uning nevarasi Xalil Sulton (1405–1409) tomonidan Sulton Saodat maqbarasida ta'mirlash ishlari olib borilgan va bu yerda baland bo'yli ayvon qurilgan.



Al-Hakim at-Termiziyy yodgorlik majmuasi


Al-Hakim at-Termiziyy maqbarasi. Al-Hakim at-Termiziyy maqbarasi - Termizdag'i me'moriy yodgorlik IX-XV asrlarga oid. Majmua Abu Abdullo Muhammad Hakim Termiziyy nomi bilan bog'langan. Al-Hakim at-Termiziyy maqbarasi asrlar davomida bir necha bor qayta qurilgan. Masjid, maqbara, xonaqoh, qorixona kabi binolardan iborat

bo'lgan. Markazga intilma gumbazli maqbaraning ayvon va sahni masjid bilan birlashtirib yuborilgan, maqbara chortoq shaklida qad rostlagan bo'lib, ichkarida ochiq arkli peshtoqlar zeb berib turadi. XI asr oxirida qoraxoniylar hukmdori Abul Muzaffar Ahmad Tigatigin (1081-1095 yy.) farmoyishi bo'yicha dahma ichkarisi ajoyib o'ymakori g'isht bilan qoplab chiqilgan. Maqbaraning shimoliy yondevoriga uncha katta bo'limgan masjid tutashtirilgan. Masjidning hajm-reja kompozitsiyasi Narshaxiy tasvirlagan Buxoro namozgoxi me'morchiligiga o'xshab ketadi. U uch qubbali bo'lib, ochiq arkli peshtog'i tevarakdagi "archa" usulida g'isht terib chiqilgan hovli sahniga olib chiqadi.

Masjidning maqbara devori davomchisi bo'lgan g'arbiy devori markazida mehrob qad ko'targan. XIII asr oxirida dahmaning sharqiy devoriga yana bir chorsi maqbara kelib ularnadi. XV ast boshida Amir Temuring nabirasi Xatil Sulton hukmronligi davrida (1405-1409) majmuuning shimoli-sharqiy qismida mahobatli

xonaqoh qad rostlaydi. Marmardan tiklangan sag'ana ham shu davrda barpo etilgan - bu Temuriylar davri ustalarining tosh yo'nish va naqsh chekish san'ati durdonalaridan biridir.

Al-Hakim at-Termiziy maqbarasi 1955-57 yillarda ilmiy o'rGANilib XIV-XV asrlardagi ko'rinishi qayta tiklandi. 1980-81 yillar va 2001-2002 yillarda maqbara va xonaqoh qayta pardozlandi. Majmuuning umumiy tarhi



Abu Iso Termiziy maqbarasi


28,0x29,0 m, maqbara 5,10 x 4,70 m.

Abu Iso Termiziy maqbarasi - Hoja Iso maqbara-masjidi XI-XII asrlarga talluqli bo'lib, Sherobod shaharidan janubi-sharqda, 6 km uzoqlikda joylashgan. Yodgorlik shimol-g'arb-janub-sharq o'qi bo'ylab cho'zilgan to'rt hadli binodan iborat. Obida shu atrofdagi qishloqlarning aholisi uchun bayram namozgohi bo'lib xizmat qilgan va shu bois, tming asosida an'anaviy anfiladlik tamoyili yotadi. Tarixiy adabiyotda birinchi muhaddislardan Abu Iso Muhammad bin Iso at-Termiziy nomi tilga olinadi. As-Sam'oniyning xabar berishicha, Abu Iso Imom al-Buxoriyning ustozlaridan ma'ruza eshitgan. Uni yetuk islomshunoslar qatoriga qo'yib, hazrat Alisher Navoiy guvohlik beradiki, muxaddis Hoja Iso mashhur avliyo Abu Varroq Termiziyning jiyani bo'lgan. Abu Varroq Termiziyning jasadi Eski Termiz devorlari ostida dafn etilgan.

Abu Iso Muhammad Termuzuy qabri ustiga qurilgan. Hozirgi kunda yodgorlik bir-biridan pavoqlap orqali o'tuvchi 4 xona (bo'lma)dan iborat yaxlit bino ko'rinishida, xonalar tarhi $4,3 \times 4,5$ m. Shimoli-sharqiy tarafni ayvon qurilishi munosabati bilan keyinchalik to'silgan. 3 xonali bo'lma murabba' tarqli, ulardan janubdagisi go'rxona. Unda marmar kag'ana bor. Kag'ana 3 pog'onali, muqarnas naqsh va yozuylar bilan padozlangan. Go'rxonadan tor uzun yo'lka orqali xonaqohga o'tiladi. Xonaqoh poli go'rxo-naga nisbatan pastroq bo'lib, ular oralig'i keng ravoq bilan ajratilgan. Xonaqoh gumbaz tomli, mehrobli. Yonidagi 2 xonadan shimoliy-sharqiy tar-afiga chiqiladi. Xonaqoh oldidagi 3 ayvon gumbazli, qalqonsimon bag'alli, devorlariga 4 ravoq ishlangan, pishiq g'ishtdan hoshiyalar terilgan. Abu Iso Termiziy maqbarasi ganchkori bezaklar bilan padozlanib, tashqi devorlariga 6 g'ishtin ravoqli namoyonlar ishlangan. Tobadonlariga oq ganchdan panjaralar o'tmatilgan. Ravoqlari g'isht qalinligida hoshiyalangan. Abu Iso Termiziy maqbarasi bosh tarzini kichik ko'shksimon gumbazli qurilma egallagan.

Bino ko'pgina o'zgarishlarni boshidan kechirgan. Masjid bilan maqbara bir-biriga bog'lanib, deraza romlari qaytadan ishlangan, ayvon XV asrda shimoliy-g'arbga qarab yo'naltirilgan hamda majmua shimoli-g'arbiy tomondan anchagina shikastlangan. Maqbaraning old tarafiga XX asrning boshlarida ustunlari o'ymakorlik bilan ishlangan ayvon qurilgan va ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan.

Qirqqiz qal'asi. Qirqqiz qal'asi xom g'ishtdan qurilgan. Termizda qobirg'ali shakldagi o'rta asr ko'shki joylashgan Qirkizning chorusu (54×54 m) negizi o'rtasidan kubbasimon yo'laklar bilan bo'laklarga bo'lingan, ular kesishgan joyda ochiq ichki sahn hosil bo'ladi ($11,5 \times 11,5$ m). Uning qoq o'rtasidagi chuqur qubbasimon ayvonlar va yo'laklar binoni to'rt teng bo'lakka bo'lib turadi, bunda hujralar ikki oshyonada joylashgan. Qirqqiz qasri tomlari xilmayxil tuzilishi bilan kishini hayratga soladi. Bu yerda qutili, xochsimon va balxiy gumbazlardan soydalanilgan, arklar uchburchak, suyri, o'qsimon, poyi aylanma shakldagi kursiga ega, qubbalar "naqliy" va taomildagi halqasimon aylana ustidan joy olgan.




Tanobiylardan birining nimyon chorsilarida nimsakkiz kiralii nimqubbalar saqlanib qolgan. O'z tashqi qiyofasi bo'yicha Qirqqiz ilk o'rta asr qal'a-qo'rg'onlariga juda o'xshab ketadi. Ammo bu an'ana sharofati, xolos, zero, uzoqdan chiqib bo'lmaydigandek ko'rinuvchi binolarning to'rtala devorlari bo'ylab keng ark yo'laklari o'tgan, tashqi devorlar nur tushib turuvchi deraza o'mini to'sib

turadi, yon tomonini himoya qiluvchi burchaklar uch chorakli, uchli silindrsimon shakldagi minoralar bezakdor. Qirqqiz qishloq qo'rg'on-saroy me'morchiligining noyob turiga kiradi.

Qirq qiz qal'asi quyidagicha holatda saqlanib qolgan: Qirq qiz majmui yorug'lik tarafiga qarab qurilgan bo'lib, kvadrat shaklida, burchaklari baquvvat ichki minoralar bilan mustahkamlangan. Kirish ayvonlariga derazalar o'tnatilib, uzun o'tish ayvonlari orqali ichki hovliga o'tilib, u yerdan to'rt qismidan iborat ikki qavatli binoga kirilgan. Ushbu binolarning ikitiasi shimoli-sharqiy, shimoli-g'arbiy tarafdan bir xil bo'lib, ikkalasida ham beshtadan to'g'ri burchakli xonalar mavjud. Xonalar uch tarafdan ikki qavatli bir-biri bilan birikib ketgan zallar bilan o'rالgan, har bir xona faqat zal bilan tutashtirilgan.

Kokildor xonaqohi- Termiz tumanidagi Namuna qishlog'idagi me'moriy yodgorlik. Xalq orasida Aloulmulk Xudovandzoda (Termiz hukmdori) ko'shki, «Azizon», «Azlar eshon», «Kokildor» (kokil qirqish udumi) deb nomlangan. Kokildor xonaqohi to'g'ri to'rburchak tarhli (27,5x17 m), 5 xonadan iborat. Baland va chuqur ravoq peshtoq orqali markaziy xona (7,5x7,5 m) ga kiriladi. Markaziy xonaning gumbazi 8 qirrali poygumbaz ustiga o'matilgan, 2 yon tomonidagi xonalar o'zaro o'xhash, teng hajmda, dalon orqali bog'langan orqa va yon eshiklari bo'lgan. Markaziy xona sahnida bir necha qabr saqlanib qolgan. Ichkaridagi ravoq va namoyonlarga ganchkorli usulida pardoz berilgan. Gumbaz osti bag'allari muqarnastalar bilan bezatilgan.



Kokildor xonaqohi

Kokildor ota maqbarasi XII asr oid bo'lib, maqbarada al-Hakim at-Termiziyning kuyovi Sonon Ashur Kokildor 992 yilda dafn qilingan. Maqbaraga uzun va katta ustunlar orqali markaziy xonaga kirilib, bu yerda ikkita yo'lak mavjud bo'lib, bu yo'lak asosiy xona bilan ikki xonani bir-biri bilan bog'lab turadi. Bundan tashqari, har bir xona yo'laklarining ikititadan ko'chaga chiqish joylari mavjud bo'lib, bu yerga qadimda ishlangan g'ishtlar terilgan, ular orqali eniga 4 ta to'g'ri burchakli ustunlar hosil qilingan.

Atoulla Sayid Vaqqos maqbarasi- Sherobod tumanida joylashgan. X-XI asrlarga taalluqli, arab istilosи davrida mashhur qo'mondon bo'lgan Atoulla eshon Mirhaybarga atab qurilgan. U unchalik katta bo'limgan bir xonali markaziy maqbara bo'lib, kirish yo'lagi (yeshigi) janubi-sharqqa qaratilgan. Maqbara kvadrat shaklida, ustidagi sharsimon gumbaz esa ikki qator g'ishtlardan terilgan. Binoning

old tomoni o'ziga xos me'moriy uslub shaklida ishlangan ravoqsimon teshik bilan ajratilib, uning ichi g'isht bilan terilgan. Maqbaraning peshtoqi devorlari tekis bir xil qilib bezatilib, janubi-g'arbiy va shimoli-sharqiy tomonidan unchalik katta bo'limgan derazalar o'rni qoldirilgan.

Maqbaraning markaziy qurilishida xom g'ishtdan foydalanilgan, arkning uchi yarim qubba shaklidagi bo'shliq bo'lib, ichi g'isht bilan archasimon qilib terilgani maqbaraning XI asrga tegishli ekanini bildiradi. Bu maqbara XV–XVII asrlarda qurilgan me'morchilikning qadimgi ko'rnishini o'zida aks ettirgan.

Takiya ota maqbarasi- taxminan XII asrga oid bo'lib, saljuqiylar davrida qurilgan, u o'sha

davr ijtimoiy-siyosiy



So'fi Olloyor maqbara-masjidi binosi

markazlaridan biriga aylangan yodgorlik hisoblanadi. Hozirgi Qiziriq tumanidagi Takiya ota maqbarasida xoki yotgan kishining shaxsi noma'lum bo'lib, naql qilishlaricha, u kishi so'fiylik tariqatidan bo'lgan avliyo Hazrati Xoja Qutbiddindir.

Maqbara ko'k gumbazli, uning tag xonasida ikki tosh sag'ana va ikki ustun bo'lib, u uch xona va ikki yo'lakdan iborat, xom g'isht va paxsadan qurilgan. Maqbara mustaqillik tufayli ta'mirlanib, muqaddas ziyyaratgohga aylantirildi. Uning birinchi xonasida uchta, ikkinchi xonasida bitta, uchinchi xonasida ham bitta qabr qayta ta'mirlandi.

Jarqo'rg'on minorasi

Sa'd ibn Abi Waqqas maqbarasi -Angor tumaniida joylashgan, mashhur sahaba nomi bilan bog'liq bo'lib, uning atrofida eski katta qabriston joylashgan. Mustaqillik tufayli maqbarani 1992 yilning may oyida angorlik Normurod polvon Alloberdi o'g'li o'z jaing'armasi hisobidan xivalik usta Shomurod yordamida qayta ta'mirlab, asl xoliga keltirdi. Bu maqbara ham Sherobod tumanidagi maqbaraga o'xshab kvadrat shaklida sharqqa qarab qurilgan, u bir xona, usti gumbazli, eshigi old tarafidan. Maqbara XVI–XVII asr me'morchiligi ko'rnishidagi binolar majmuasidan iborat bo'lib, mahalliy aholining hurmati ramzidir.

Jarqo'rg'on minorasi. Ko'kka bo'y cho'zgan, xushqad minoralar musulmon Sharqi o'rta asr shaharlarining o'ziga xos unsuri hisoblanadi. Jarqo'rg'on shaharidan g'arb tomonga ikki kilometr yurilsa, ko'm-ko'k bog'lar orasida Markaziy Osiyo me'morchiligidagi qobirg'asimon yagona inshoot -minora qad

kutarib turibdi. Mazkur joy 1X-X asrlar arab manbalarida tilga olingen Sarmangan yoki Charmangan shahriga qiyos qilinadi.

Taglik ustidan qad ko'targan adl minoraning yuqori tomon ingichkalashib boruvchi o'n olti nimaylana ustuni qobirg'asimon yuza hosil qilgan. Taglik qirralaridan birida minora ichidagi burama (aylanma) zinaga eltuvchi arksimon eshik o'rnatilgan.

Minoraning avvalgi umumiy balandligi aniqlash qiyin, ammo uning balandligi 50 metrga yaqin bo'lgan deb taxmin qilinadi, chunki saqlangan qismi 21,6 metr keladi. Minora tanasining yuqori tomoni torayganligi va bezaklarning nafis ishlanganligi tufayli uning ko'rnishida salobat va ko'rkamlik ortadi.

Iskandar ko'prigi - Qumqo'rg'on tumanida Termizni Chag'oniyon va Hisor bilan bog'lovchi qadimgi savdo yo'lida Bandixonsoy ustida qurilgan. Iskandar ko'prining qurilgan davri noma'lum. Abdullaxon davri (1557-98)da qayta qurilgan. Fisht ko'nrik, Tosh ko'pri va Iskandar Zulqarnayn ko'prigi deb nomlangan. Umumiy uzunligi 70 metr, o'tish qismining eni - 5,75 metr balandligi - 12,1 m, pavoq qanoti-5,8metr , pishiq g'isht (25x25x5; 26x28x4-4,5; 27x29x5 sm)dan qurilgan. Usti 3 qism (yo'lovchi, transport va suv o'tishi uchun nov)dan iborat. Ravoqlari qirg'og'idiagi tirkaklarga tayangan. Iskandar ko'prining sharq va g'arb tomonidagi tirkaklari buzilgan. Pavoq ustunlari (1950) va suv o'tkazish uchun nov (1927) betondan ishlangan.

Qurban Soat maqbarasi - XVII asrda maqbara barpo etilgan, bino atrofi tosh devor bilan o'ralgan, ziyyaratgoh 1-1,5 hektar yerni egallaydi. Bu qadamjo juda qadimiydir, mahalliy aholining oqsoqollarning ma'lumoticha, uning tarixi ming yilga borib taqaladi. Mahalliy aholi orasida keng tarqalgan rivoyatlarga binoan, qadamjo hududidagi tut daraxtining yoshi 150-200 yillar atrofida. Ziyyaratgohning orqa tomonida kichik qabriston joylashgan, unda ziyyarat ob'ekti hisoblanadigan bir necha qabr mayjud. Birinchi qabr XVII asr o'rtalarida yashagan islom ilmlari sohibi Qurban o'g'li Soatga tegishli, muqaddas joy mazkur mahalliy ulamo ismi bilan ataladi. Qabriston atrofi bir necha qavat paxsa devorlar bilan o'ralgan, hozirgi kunda devor qoldiqlarigina saqlangan. Muqaddas joyni obodonlashtirish va qayta ta'mirlash 1970-yillarda amalga oshirilgan. Hozirgi kunda bu ob'ektga aholi ziyyarat uchun tez-tez tashrif buyuradi.

Xo'ja Muhammad Mavlono Zohid maqbarasi - XVII asrda bunyod etilgan. mazkur ziyyaratgoh Kichik Vaxshivor qishlog'ida joylashgan. Bu joyning paydo bo'lishi haqida quyidagi rivoyat mavjud: Mavlono Zohid olamdan o'tgach, uning qabri ustiga yerli aholi maqbara qurban. So'fi Olloyor bu maqbara haqida: «Menden u kishi ulug', avval u kishini ziyyarat qilib, keyin menga kelinglar», deb bashorat etgan. Ana shu sababdan bu ziyyaratgohning ahamiyati mahalliy aholi uchun hozirgi kunda yuqori hisoblanadi.

Kiyik ota maqbarasi - XVIII–XIX asrlarga oid bo'lib, Mirshodi qishlog'ida, ikki tomoni adirlik, o'rtasi katta soyning yoqasida joylashgan. Ziyoratgoh oddiy paxsa devor bilan o'rالgan, devor vaqt o'tishi bilan nurab, yemirilgan, uning devor o'rтасидаги qabr oddiy tuproq bilan baland qilib ko'tarilgan. Tepasiga ikkita katta kiyik shoxi ilingan, ziyoratgoh atrofiga boshqa shaxslar dafн etilmagan. Bu ziyoratgohning paydo bo'lганiga taxminan 200–250 yillar bo'lган, yovvoyi hayvon shoxlari yomon ruhlardan himoya qiladi, deb hisoblanadi.

So'fi Olloyor maqbara-masjidi binosi- XVII–XVIII asrlarda bunyod etilgan. U Katta Vaxshivor qishlog'ida joylashgan. Mazkur ob'ekt muqaddas joy bo'lганligi bilan bir qatorda nodir arxitektura yodgorligi hisoblanadi. L.I. Rempel aniqlashicha, ushbu masjid 1713 yilda qurilgan. Masjid shimoli-sharqiy qismi tarafidan ikki ayvon, qo'shimcha xona va hovlidan iboratdir. Uning hududida muqaddas daraxt, darvoza va janubdan shimolga qarab hovlini kesib o'tgan katta tog' arig'i bor. Imorat to'g'ri burchak shaklida, «G» harfi shaklidagi ikki yoqlama ayvon bilan tutashgan. Aynan shu yerda, shimoli-sharqiy tarafidan ichkariga kirish uchun yo'l bor. Bundan tashqari, uchta janubi-g'arbiy kirish yo'llari mavjud, bu imoratga panjara shaklida qurilgan derazalar o'zgacha ko'rк berib turadi. Imorat sinchli paxsadan qurilgan, ikki qavat devor bilan o'rالgan.

Masjidning tashqi tarafidan kulbalar bor. Mehrob qismi juda ham chuqur bo'lib, to'rtta ustun qo'yilgan. Ayvonda yettila, zalda esa oltita baquvvat ustunlar bor. Zaldagi ustunlarda arab yozuvidagi epigrafik yodgorliklar joylashgan. Ayvoning umumiy diametri 14,0x16,2 m. Zalning diametri 11,1x9,7 m. Masjid 1961 yilda qayta ta'mirlangan.

Xoja Samandar at-Termiziy maqbarasi - XVII–XVIII asrga oid bo'lib, Qumqo'rg'on tumanidagi Qopto'qay qishlog'idagi daryo bo'yida joylashgan. Keyinchalik maqbaraga daryo yaqinlashib qolgani bois, marhum kishining suyaklari yig'ib olinib, qishloqdagи yuqoriq tepalikka qayta dafн etilgan. Xojaning avlodlari bobokalonlari qabri ustiga maqbara bunyod etishib, tevarak-atrofini ziyoratchilar uchun qulay holga keltirganlar. Shu sababli bu yerda ikki ob'ektga ketma-ket ziyorat etish holatini kuzatishimiz mumkin.

Xidirsho maqbarasi- XIV asrga oid bo'lib, Oltinsoy tumanida joylashgan qadimiy masjid bo'lib, ustunlarining birida «1331 yil» (hijriy) deb arabcha so'zlar yozilgan. Mahalliy aholi tomonidan bu masjid hazrati Xizr tomonidan qurdirilgan, deb hisoblaydi. Rivoyatlarga binoan, masjid 1331 yili bir kechada barpo etilgan. Xizr kulti kishilarga baraka keltirishi mumkin deb hisoblanadi.

Bu masjidning bir kechada paydo bo'lганligi haqidagi xabar Buxoro amiriga ham yetib borgan. Ushbu hikoyatlarga binoan, amir juma namozini faqat Xidirsho masjidida o'qishga farmon bergan. Hazrati Xizr asos solgan masjid yerli islam ulamolari rahbarligida aholi tomonidan qayta ta'mirlangan.

Hazrat Sulton Valiy maqbarasi - XIV asrga oid bo'lib, Boysun tumanidagi Omonxona qishlog'ida joylashgan. Hazrat Sulton Valiy mozori atrofida qabriston ham mavjud. Qabning o'ng tomonida avliyoning xalifasi, oyoq tomonida esa farzandlarining qabri bo'lib, qabrlar ustiga biror yodgorlik barpo etilmagan. Rivoyatlarga ko'ra, Hazrat Sulton Valiy bo'lajak maqbarani o'zining qabri ustiga emas, balki befarzand o'tgan singlisi Bibi Shirinning qabri ustiga qurishni vasiyat qilgan. Birinchi muqaddas joy nomi orqali ikkinchi joy mavqeini belgilash amalini bu misolda ko'rishimiz mumkin. Bibi Shirin maqbarasi Boysun tumanı Mirgorako'z qishlog'ida joylashgan, uning ichidagi qabr hozirgacha saqlangan. Sobiq Ittifoq davrida ushbu me'moriy obida buzib tashlangan. Mustaqillik yillarda 1996 yili Boysun shahrida yashaydigan urush va mehnat faxriysi Hamid Karimov o'z shaxsiy jaing'armasidan maqbarani qayta tiklagan. Maqbaraning kunchiqar tomonida uchta qora va kulrang marmar sifat toshlar bo'lib, butarning ikkitasi qadimgi naqshinkor qabrtoshdir, uchinchi qora tosh beshikka o'xshash toshdir.

Oqostona Bobo maqbarasi. Sariosiyo tumanı Telpakchinor qishlog'idiagi qadimiyligi qabriston o'rtasida qurilgan Oq ostona bobo maqbarasi qubbali, dunyo tomonlariga monand to'rtburchak shaklida. Mahalliy aholi ushbu obidani payg'ambarimiz Muhammad alayhissa-lomning sahabalaridan biri Abu Hurayraning qadam joyi sifatida e'zozlaydi. Maqbara ichidagi sag'anada kim yotganligi hozirgacha noma'lum. Oqostona Bobo (X asr oxiri - XI asr boshi) maqbarasi markazga intilma tuzilishga ega, reja bo'yicha chorsa shaklida, har bir tomoni dunyoning to'itala tomoniga qaratib qurilgan.

Guldasta minorachalar bilan himoyalangan, uning kubsimon tanasi uzra uchli qubba savlat to'kib turibdi. Gumbazning pastki qismiga shakldor g'isht terilib, poydevor ko'rinishini olgan. Ichki devorlarda o'n ikki kirrali uchli va chuqur mehrobolar saf tortgan. Yon devorlarga g'ishtlar juft-juft qilib terilib, endor tik choklar hosil bo'lgan.

Tayanch so'z va iboralar: tabiiy resurslar, tarixiy obidalar, turizm xizmatlari, iqtisodiyotni rivojlantirish, turizm, xalqaro savdo, mehmonxonalar, turistik xizmatlar ko'rsatish, turizm xizmatlarining eksporti.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. O'zbekistonning janubiy turistik mintaqasining madaniy, tarixiy va me'moriy yodgorliklarga nimalar kiradi?
2. O'zbekistonning janubiy turistik mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish holatini tushuntirib bering?
3. O'zbekistonning janubiy turistik mintaqasida ekoturizmni rivojlanish imkoniyatlari qanday?
4. O'zbekistonning janubiy turistik mintaqasidagi asosiy muammolar nimalardan iborat?

20- MAVZU. QORAQOLPOG'ISTON TURISTIK MINTAQASI

Reja:

- 20.1.Qoraqolpog'iston turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni
- 20.2.Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiyalari
- 20.3.Mintaqaning turistik resurslari salohiyati

20.1. Qoraqolpog'iston turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni



Qoraqalpog'iston Respublikasi — O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi respublika. 1924 yil 14 oktyabrda Turkiston ASSR tarkibida Muxtor viloyat sifatida tashkil etilgan. Mayd. 166,6 ming km². Poytaxti — Nukus shaxri.

Qoraqalpog'iston Qizilqum sahrosining shimoliy-g'arbiy qismini, Ustyurt platosining janubiy-sharqiy qismini, Amudaryo deltasini egaşlaydi. Orol dengizining janubiy qismi Qoraqalpog'iston hududida joylashgan. Ma'muriy – hududiy qurilishi 14 tumandan iborat: Amudaryo, Beruniy, Qorao'zak, Kegeyli, Qo'ng'irot, Qanliko'l, Mo'ynoq, Nukus, Taxtako'pir, To'rtko'l, Xo'jayli, Chimboy, Shumanay, Ellikqal'a, Nukus va Taxiatosh shaharlari hamda tumanlarga qarashli shaharlar, elat va qishloqlardan iborat.

Yetnik tarkibini 32,1 % Qoraqalpoqlar, 32,8 % O'zbeklar, 32,6 % Qozoqlar va 4,2 % boshqa millat vakillari tashkil etadi.

Qoraqalpoqlar etnogenezinining qadimiy bosqichlari bizning eramizdan avvalgi VII-IV asrlarda Orol-Kaspiy sahrosi va Amudaryo deltasining hududlarida yashab o'tgan sak vamassagetlar qabilalari bilan bog'liq.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi oliy davlat vakillik organi hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi Qoraqalpog'iston Respublikasining eng yuqori lavozimli shaxsi hisoblanadi. U bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Raisining o'rinosidir. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi davlat hokimiyatining oliy ijro etuvchi-boshqaruvchi organi hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston — parlament boshqaruv shakliga ega bo'lgan suveren demokratik Respublika. Qonun chiqaruvchi oliy davlat vakolatli organi — ko'p

partiyaviylik asosida 5 yil mud-datga saylangan deputatlardan iborat (faqat ketma-ket 2 muddatdan oshmaydi). Davlat hokimiyatining oliv ijro etuvchi-boshqaruvchi organi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi huku-mati hisoblanadi. Qoraqalpog'istonda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan bir vaqtida Qoraqalpog'iston Oliy kengashining 1993 yil 9 aprrelidagi 12-chaqiriq 12- sessiyasida qabul qilingan Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga amal qillinadi. Qoraqalpog'iston o'z davlat ramzları: gerb, madhiya va bayrog'iga ega.

Qoraqalpoqlarning aksariyat qismi 17 — 18-asrning o'rtaida Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida yashagan. 18-asrning o'rtaida siyosiy voqealar, ya'ni qozoq xoni Abulxayrxon qoraqalpoq yerlariga hujum qilishi oqibatida ular Sirdaryo deltasidagi g'arbiy tarmog'i — Janadaryo bo'yalariga ko'chib o'tdilar va Amudaryoning quyi oqimida yashovchi qoraqalpoqlar orol o'zbeklari bilan birlashib, markazi dastlab Qo'ng'iroq, so'ogra Shohtemir (hoz. Chimboy) bo'lgan davlat (Orol mulkini) tuzdilar. Qoraqalpoklar asosan, chorvachilik, dehqonchilik va baliq ovlash bilan shug'ullanganlar.

Qoraqalpog'iston Qizilqum cho'lining shimoliy-g'arbiy, Ustyurt platosining janubiy-sharqiyligini va Amudaryo deltasida joylashgan. Orol dengizining janubiy qismi Qoraqalpog'iston hududida. Qizilqumning shimoliy-g'arbiy qismi Orol dengizi tomon pasayib boruvchi keng yassi tekislik bo'lib, qator tepe va qumli barxanlar uchraydi.

Foydali qazilmalardan osh tuzi va glauber tuzi, mineral xom ashyo hamda qurilish materiallari va boshqalar bor. Iqlimi keskin kontinental, yozi quruq va qishi nisbatan sovuq, qor kam yog'adi. Amudaryo havzasasi qadimdan sug'oriladigan hudud sifatida ma'lum. Daryo suvidan sug'orishda foydalaniadi. Amudaryo Orol dengiziga bevosita quyilmaydi.

Qoraqalpog'istonning eng yirik ko'li — Orol dengizi. shuningdek, Xo'jako'l — Qorajar ko'llar sistemasi bilan bog'langan. Sudochi ko'l sistemasi hamda Orol dengizining qurib qolgan qismida tashkil etilgan sun'iy suv havzalarida mavjud. So'nggi 40 yil ichida Amudaryo va Sirdaryo havzalarida sug'oriladigan yerlarning kengayishi natijasida Orol dengizi suv sathi ancha pasaydi. Qoraqalpog'istonning barcha suv havzalaridan baliq ovlanadi, ularda baliq xo'jaliklari tashkil etilgan.

Qoraqalpog'istonda yuksak o'simliklarning 979 turi uchraydi. Ularning 41 tasi madaniy turga mansub. Yovvoyi o'simliklarning 176 tasi endemik, 11 tasi qoldiq (relikt) va 33 turi madaniy o'simliklarning yovvoyi ajdodlari. 7 turdag'i o'simlik O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Qoraqalpog'iston hududi tropik bo'lmagan cho'l zonasida joylashganligi sababli o'simlik qoplami zonalar bo'yicha ajralib turadi: Ustyurt platosi, Amudaryo deltasasi, Qizilqum shimoliy-g'arbi va qoldiq past tog'lar tabiiy geografik zonasasi.

Hozirgi vaqtida Qoraqalpog'iston tabiyi o'simliklaridan yem-xashak, o'rmon (to'qay) xom ashyosi va dorivorlar sifatida, 50% yer maydonidan (9387,7 ming ga) yay-lov sifatida foydalaniladi. Q. o'rmon-to'qay fondi 1129 ming ga maydonni egallaydi. To'qaylar asalarichilikda ham ahamiyatga ega. Respublikada dorivor o'simliklarning 364 turi mavjud.

Hayvonot dunyosi ham xilma-xil: umurtqali hayvonlarning 500 ga yaqin, shu jumladan, sut emizuvchilarning 68, qushlarning 300 dan ziyod, sudraluvchilarning 33, suv va quruqlikda yashovchilarning 2. baliqlarning 50 ga yaqin turi ma'lum. Umurtqasiz hayvonlarning 3500 dan ortiq turi aniqlangan. So'nggi 10 yil ichida Qoraqalpog'iston hayvonot dunyosi ancha o'zgarishlarga uchradi. Ko'pgina turlar soni qisqardi va ular noyob yoki yo'qolib borayotgan turlar qatoriga kiritildi. Sut emizuvchilarning 10, baliqlarning 12, qushlarning 37, sudraluvchilarning 10 turi O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Cho'lda sudralib yuruvchilardan kaltakesak, ilonlar; kemiruvchilardan yumronqoziq, qumsichqon, qo'shoyeq; yirik sut emizuvchilardan jayran, bo'ri, tulki; qushlardan saksovul soykasi, burgut, tuvaloq, so'fito'rg'ay; o'rgimchaksimonlardan chayon, falanga va b. yashaydi. To'qaylarning hayvonot dunyosi nisbatan boy: qirg'ovul, o'tdak, g'oz, qoravoy, loyxo'rak; sut emizuvchilardan chiyabo'ri, to'qay mushugi, bo'ri, tulki, tolay quyon, qobon va b. Ondatra iqlimlashtirilgan. Amudaryo va Oroldan pilmay, sazan, taran, taqqa baliq va b. ovlanadi. Ba'zi turlar yo'qolib ketgan va sanvat ahamiyatini yo'qotgan. Shu bilan birga Qoraqalpog'iston suv havzalarida baliqning yangi 14 turi iqlimlashtirilgan.

Respublikada 3 maxsus qo'riqlanadigan tabijiy hudud: "Badayto'qay" davlat qo'riqxonasi, "Sayg'oq" va "Sudoche" buyurtma qo'riqxonalari tashkil etilgan. Qo'riqlanadigan hududlarning umumiyligi maydoni 1056,5 ming hektar.

Qoraqalpog'iston — xo'jaligi rivojlangan respublika. Uning hududida foydalii qazilmalardan gaz, gaz kondensati, neft, qurilish va qoplama toshlar, gips va ohaktosh, keramzit, sement, kon-ruda va kon-texnika xom ashyosi olinadi.

Respublikada benzin, kerosin, dizel yonilg'isi, ohaktosh, qoplama materiallar, yig'ma temir-beton buyumlari, mebel, ip tolasi, paxta, tikuvchilik mahsulotlari, to'qimachilik galantereyasi, o'simlik moyi, go'sht va go'sht mahsulotlari, non, qandolatchilik ya makaron mahsulotlari, un, yorma va b. ishlab chiqarish yo'ilga qo'yilgan.

Qishloq xo'jaligi, asosan, paxtachilik, g'afalachilik (sholi va bug-doy yetishtirish) va chorvachilik (go'sht, sut, qorako'chilik)dan iborat.

Qoraqalpog'iston keng va turli-tuman transport tarmog'iga ega. Temir yo'l, havo, avtomobil transportlaridan keng foidalaniladi.

20.2. Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiyalari

O'zbekistonning boshqa mintaqalardagi singari Qoraqolpog'istonda ham turizm sohasi tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Mintaqada turizm sohasini rivojlantirish borasida turli chora – tadbirlar dasturlari qabul qilinmoqda. Dasturga mintaqaga infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha ishlar, yangi-yangi turistik marshrutlar ishlab chiqish, tarixiy-madaniy ob'ektlar mashhurligiga erishish, turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash va malakalarini oshirish kabilar kiritilgan.

Qoraqolpog'iston ajoyib mintaqaga bo'lib, uning diqqatga sazovor joylarida, madaniyati va hayot tarzida, yashil landshaftlarida sinoati bor.

Qadimgi Qirq-qiz, Ayoz-qal'a, Jonboz-qal'a noyob Tuproq qal'a va boshqa arxeologik yodgorliklar mahalliy va xorijiy turistlarda ilmiy va madaniy qiziqish uyg'otadi. Qiziquvchan turistlarni joylashtirish uchun qulay sharoitlar yaratish mintaqaga bo'yicha qabul qilinigan dasturlarning asosiy mazmunini kasb etadi.

Bugungi kunda Nukus va To'rtko'lda yangi mehmonxonalar qurildi. Shuningdek, Otel "Nukus" qayta ta'mirlandi.

Dasturning asosiy qismi mintaqada ekologik turizmni rivojlantirish bo'ldi. Mintaqaga asosiy hududining asosiy qismini Ustyurt platasidan o'tuvchi tekisliklar, janubiy-g'arbda Qoraqumlar zanjiri, Sharqda Qizilqum cho'li, janubi-sharqda Sulton-Uvays tog'lari qad ko'targan.

Xozirda, mintaqada ekoturizmga qiziquvchilarini jalb qilish uchun Ellikqal'a tumanida "Aqcha ko'l" zonasida ekoturistik infratuzilma yaratilishi rejalashtirilmoqda.

20.3. Mintaqaning turistik resurslari salohiyati

O'zbekiston o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur'atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o'ziga tortmoqda. Asrlar mobaynida O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining savdo, savdogartlar va sayohatchilar, jo'g'rofiyashunoslar va missionerlar, isti'lochilar va zabit etuvchilarning yo'lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O'zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an'ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyoqlik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonning barcha mintaqalarida turizmni rivojlantirishning imkoniyatlari mavjud. Quyida biz Qoraqolpog'iston respublikasining ayrim turistik resurslari haqida ma'lumotlar berib o'tamiz.


Qoraqalpog'iston hududida antik, o'rta asr va yangi davrlarga oid me'morlik yodgorliklari mavjud. Me'morlik va tarixiy yodgorliklardan 237 tasi ro'yxatga

olingan, ulardan 145 tasi arxeologiya, 25 me'morlik va 67 tasi monumental yodgorliklardir. beruniy tumanidagi Sultan Uvays Bobo (P-14-a. lar), kechirmas Bobo (17—19-a.lar); To'rtko'l tumanidagi Qalan-dardag' (18-19-a.lar). Norinjon Bobo (12—14-a.lar) majmualari, Xo'jayli tuma-nidagi Mazlumxon Sulu va Mizdahqon (11 —19-a.lar); Qo'ng'irot tumanidagi Beleuli (12—14-a.lar), davut Ota maqbarasi; Mo'ynoq tumanidagi Hakim Ota maqbarasi va qabristoni, Ellikqal'a tumanidagi Ayozqal'a-1 va Ayozqal'a-2 (3—8-a.lar), Tuproqqal'a (3a.) eng muhim yodgorliklardir.

Tuproq qal'a — Qoraqalpog'iston Respublikasining Ellikqal'a tumanida joylashgan. Ushbu tarixiy yodgorlik 1938-yilda S.P.Tolstoyning ekspeditsiyasi natijasida topilgan. Izlanishlar natijalariga ko'ra shahrcha milodimizning birinchi asrida tashkil topgan ekan. Taxminan III asrda Tuproq qal'a Xorazmshohlar davlatining poytaxtiga aylanadi.

Qazilmalar natijasida shaharning qo'zg'on devorlari to'g'ri to'rtburchak shaklida ekanligi aniqlangan. Shaharning shimoliy qismida saroy joylashgan bo'lgan. Hukmdor saroyi uchta minoradan tashkil topgan. Eng baland minoraning bo'yisi 30 metrni tashkil qilgan va uch qavatdan iborat bo'lgan. Shaharning markaziy qismida olov ibodatxonasi joylashgan bo'lib, undan ikki tomonga qarab asosiy markaziy yo'l boshlanib ketgan. Bu yo'l esa shaharni ikki qismga ajratgan. Markaziy yo'l bo'ylab turar joylarga eltuvchi, unchalik katta bo'limgan tor ko'chalar joylashgan. Barcha imoratlar gildan qurilgan.

305 yilgacha Tuproq qal'a Xorazmshohlar davlatining poytaxti hisoblangan.



Tuproq qal'a


Xorazmshohlar davlati qulagandan keyin esa mahalliy aholi va oddiy xalq asta-sekin shaharni tark eta boshlagan. Oqibatda shahar bo'shab qolgan.

S.P. Tolstoyning olib borgan izlanishlari natijasida ushbu yodgorlik bududidan ko'pgina tangalar, turli xil oltindan, kumushdan, misdan ishtangan munchoqlar topilgan. Bundan tashqali u yerdan sopol idishlar, junli va ipakli matolar ham topilgan. Arxeologlar tomonidan mashhur Xorazm kamonlari tayyorlanadigan istaxona topilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, Tuproq qal'a nafaqat bu yerdan topilgan turli xil qurilma va boshqa buyumlar bilan mashhur. Shuningdek, bu shaharcha hududidan qadimiy Xorazm qo'lyozmalari namunalari ham topilgan. Olimlar saroy minoralarining birida siyoh bilan teri va yog'och taxtachalarga qadimiy Xorazm tilida yozilgan hujjatlarni ham topishgan.

Nazlimxon sulu – sufilar manzilgohi. Nazlimxon sulu Markaziy Osiyoning o'rta asrlardagi Ismoil Somoniy, Xo'ja Axmad Yassaviy, Muhammad Tekesh Sanjar, Amir Temur maqbarasi, Biybixonim kabi durdona me'moriy obidalari bilan bir qatorda xalqimizning bebaxo yodgorligi Xo'djayli shahrining qadimgi va o'rta asrdagi qismi. Misdakxon quriq muzeyi aymog'ida joylashgan bu yodgarlik mahalliy xalq orasida "qiz uyi", "sufining qizining uyi", yoki "saroyi" nomlari bilan mashxur.

Umumiy maydoni 30x3 metr bulgan bu binoning kirish oldidan boshlab quyilgan zinalar yordamida ichkariga kirganingizda yodgorlik haqida har xil fikrlar mavjud bo'lib o'zingizni boshqa bir olamga – yeti qavat yer ostidagi saroya kirgandek his qilib, uning ustida qancha tuproq bor ekan degan fikrga berilishingizni bilmay qolmasiz. Dastlab eshik ortidagi gumbaz bilan bostirilgan devorlari bilan burchaklari har xil naqshlar bilan bezatilgan turt burchakli kichik xonaga kirasiz. So'ngra uzun dahliz bo'ylab quyilgan zinalar yordamida sakkiz metr pastda joylashgan katta markaziy zalga o'tasiz. Devorlari jahonning turt tamoniga qaratib qurilgan bu zal sakkiz qirrali katta gumbaz bilan bostirilgan. Devorlardagi g'ishtlar orasiga quyilgan "gulbonalar" ko'z oldingizga osmondagи yulduzlarni eslatadi.



Nazlimxon sulu

Nazaringizda yanada yuqori ko'targan vaqtida markaziy xonani yorug'lantirib turgan osma zanjirli oltin shamlarning o'rinalarini ko'rasiz, yanada yuqori tamonida gumbazning har qiriga bir-birdan o'rnatilgan bitik naqshli sakkiz panjara markaziy zalni kunduzgi kuni yoriqlantirib turgan. Zal poli qiriga o'rnatilgan g'ishtlar bilan to'shalgan. Uning o'rtaida osmon ko'k rangli plitalardan iborat turt burchakli maxsus kichkina maydon ishlataligan.

Rivoyatlarga qaraganda, u Nazlimxon suluga oshiq Abutolibning gumbazdan uzini tashlab nobid bulgan urni. Shuning uchun ham qizning uyiga kelgan ziyoratchilar bu maydonni aylanib o'tar ekan. Markaziy zalning shimal va sharq tarafida ust'i yarim gumbaz shaklida bostirilgan oldi ochiq supali joylar qurilgan. Hozirga vaqtida ularning ikkalasida ham qabrlar bor. Rivoyatlarga qaraganda

shimoldagisi Nazlimxon sulu ismli qizga, sharqdagisi shu binoni qurgan usta yigit Abutalibga tegishli. Qabrlarning ustiga ishlangan soxanlar buzilib bugungi kunda ularning faqat past qatorlarigina saqlangan. 1928-1929- yillarda yodgorlikda qazish ishlarni olib borgan professor A.Yu.Yakubovskiyning yozishiga qaraganda bu soxanlarning ikkalasi ham oltin plitalar bilan bezatilib, ularning devorlarida fors tilida yozilgan filosofik qatorlari bo'lgan. A.Yu.Yakubovskiy ko'chirib olgan bu yozma manbalar sharqshunos olim A.A. Nekrasov tamonidan o'qilib, unga tushuntirish bergen. Ularning birida "Umr ajoyib, lekin u mangu emasligi ukinchli" deb yozilgan qatorlarni o'qisiz.

Professor A.Yu.Yakubovskiyning "Qiz uyi" deb nomilangan bu yodgorlik XIV asrlarga tegishli yer osti mavzoleyi birinchi ilmiy tadqiqoti undan keyingi davrlarda yodgorlik bo'yicha tadqiqot ishlarni olib borgan olimlar B.N.Zasipin va V.N. Yagodinlar qabul qilgan. Lekin 1959- yili bu yodgorlikni qayta tiklashga bog'liq olib borilgan arxeologik ishlarning natiyjasida Toshkentlik arxeolog olim V.I.Filimonov Nazlimxon sulu XIII-XIV - asrlarda yer ostiga qurilgan mavzoley emas, XII asrning oxiri XIII asrning boshlarida yani Chingizzon askarlari ulkamizni bosib olgunga qadar qurilgan saroy degan fikrga keladi.

Qoyqirilgan qa'la – Aspabaraqtin' qa'lesi. Qoyqirilgan qa'la- taxminan ikki yarim ming yil ilgari buniyod etilgan jahon madaniyatining mashhur yodgorliklaridan biri. To'rtko'l shahridan 22 km shimoliy-shargida joylashgan bu beba ho xazina qadimgi Grek va Rim madaniyatining durdonalari bilan bir qatorda turadi. Qadim zamonlarda qumlar arosida qolib ketgan bu yodgorlikni tabiyatning uzi qadrlab, uni bizning kunlarimizgacha yaxshi saqlanib kelgan. Ikki qavatli qurilishning birinchi qavatining tahminan ikki ming yil vaqt to'liq saqlanishi uning yaqqol dalili bo'la oladi.



Qoyqirilgan qa'la

Qoyqirilgan qa'la – Aspabaraqtin' qa'lesi. Qoyqirilgan qa'la- taxminan ikki yarim ming yil ilgari buniyod etilgan jahon madaniyatining mashhur yodgorliklaridan biri. To'rtko'l shahridan 22 km shimoliy-shargida joylashgan bu beba ho xazina qadimgi Grek va Rim madaniyatining durdonalari bilan bir qatorda turadi. Qadim zamonlarda qumlar arosida qolib ketgan bu yodgorlikni tabiyatning uzi qadrlab, uni bizning kunlarimizgacha yaxshi saqlanib kelgan. Ikki qavatli qurilishning birinchi qavatining tahminan ikki ming yil vaqt to'liq saqlanishi uning yaqqol dalili bo'la oladi.

Qa'la ilmda birinchi marotaba 1938-yili aniqlanib, 1952-1957- yillarda arxeologlar tamonidan to'liq tadqiqot ishlari olib borildi. Markaziy Osiyoning qadimgi arxitekturaviy madaniyatining cho'qqilaridan biri bo'lgan Qoyqirilgan qa'la oldin ola tayyorlangan reja buyicha diyametri 90 metr doira shaklida solingan. Qa'la atrofida ikki qavatli o'q otish dahlizi bo'lib, ikki qator (tashqi va ichki) qo'rg'on devorlar bilan qursholgan. Uning devorlari bo'yab sakkiz joyda to'pxonalar o'rnatilgan. Qo'rg'on devorlarni aylantirib eni 15 m, terangligi 3 m chuqur qazilib, u suv bilan tuldirlig'an. Qoyqirilgan qa'laning qurilish ishlarida Amudaryoning pastgi buyidagi xalqlar bilan aloqada qo'shni sak-massaget qavmlarini tasiri kuchli bo'lgan. Tarixning otasi bo'lgan Gerodotning yozishi

buyicha “kun” massagetlarning bosh xudosi bo’lgan. Shunday qilib “Xorazm” degan so’zning o’zi qadimgi Iran tilida “Kun vatani” degan ma’noni anglatgan.

“Qoyqirilgan qa’la” so’zining etimologiyasi sodda bo’lib, u XX asrning birinchi yarmida paydo bo’lgan. Professor S.P.Tolstovning aytishicha yodgorlik ichida o’lib qolgan qo’yga bog’liq qo’yilgan atama. Shunday voqya Qoyqirilgan qa’laning sharq tarafida, uzoq emas yerda joylashgan ikki yodgorlikda joy olib, ular ilmga “Qo’ziqirilgan qa’la I” va “Qo’ziqirilgan qa’la II” degan atamalar bilan kengizildi. Bizningcha Qoyqirilgan qa’ladan topilgan yozma ma’lumotlar asosida qa’lani Aspabaraqning qa’lasi deb nomlasak bo’tadi.


Shilpiq. Qoraqalpog’iston Respublikasining markaziy qismida halq orasida Qaratog’ deb atagan tog’ tizimlari joylashgan. Tabiyati chiroylı shu tog’ning shimoliy-g’arbida Amudaryoning bo’yida Shilpiq, Qora tepe, va Besh tepe singari tepaliklar joylashgan. Qora tog’ singari bu tepaliklarning har birining o’ziga hos sir sinoatlari va tarixi bor. Ularning orasida Shilpiq tepaligi alohida o’rin egallaydi. Amudaryo tumanida joylashgan bu yodgorlikning fanga noma’lum tamonlari ko’proq.

Bu yodgorlik faqat o’lkamiz xalqini emas, balki chet elliklarning diqqat e’tiborini tortgan eng ajoyib tarixiy meroslarimizdan biri. XIX asrda o’lkamizda bo’lgan olimlar, rassomlar va askarlar o’zlarining daftarlarda estalikni “Chilpik”, “Chilpak” va “Shelpak” atamalari bilan yozib qoldirgan.

Markaziy Osiyo Xo’dja Reshad Efendi nomi bilan 1863- yili sayohat qilgan Veygriyalik olim Armen (German) Vamberi Amudaryo orqali Xivadan Qo’ng’irotgaga ketayotganida Shilpiqda bo’lgan va u haqida quyidagilarni yozgan. Bu bir zamondagi mahkam qo’rg’on bo’lgan, unda otasining qo’liga banda bo’lib tushgan yigit oshiq bulgan padsho qizi, o’zining sevgilisi bilan ota-onasidan qochib kelib yashagan.

Shilpiqning pastki eni 130-150 m , balandligi 30-33 m tabiy tepalik boshiga qurilgan doira shaklidagi qurilish. U soz loydan tiklangan qalin devorlar bilan qurshaigan. Shu qadimiy devorlarning bizning kungacha 15 m balandlikda buzilmasdan saqlanib ketishining siri, bizningcha qurilishga ishlatalgan loylarning yaxshiligi bilan bahorda va kuzda bo’ladigan sel yomg’irlaridan ularni saqlash maqsadida suvoqarlarining o’matilishida bo’lsa kerak.

Shilpiqning Amudaryoga qaragan g’arb tamonida joylashgan darvozasiga ishlangan zina orqali chiqqan. Umumiy uzunligi 20 m bulgan. Uni arxeologik tadqiqotlar vaqtida ulkan hom g’ishtlardan ishlangan 75 zinaning ham ikki buyida




Shilpiq

devorlarning qoldiqlari aniqlandi. Shilpiq asosan Janubiy Orol buyidagi belgili sig'inish joylarining biri bo'lgan. Shuning bilan birga XX asrning boshlarigacha Shilpiq yonida Navruz va Qurbon Xayt bayramlariga bag'ishlangan umumxalq saytlari o'tkazilib kelingan. Qadimgi davrlarda bunday umumxalq saytlarga yiliga bir marotaba elning hukumdorlari chiqib, fuqorolar bilan uchrashadigan bo'lgan.

Da'ukesken qashisi - Markaziy Osiyodagi eng qadimgi bojhona. Qurilganiga bir necha o'n asrlar o'tishiga qaramasdan odamzot aqlini lol qoldirib kelamoqda. Ular toshdan, g'ishtdan tiklanib yoki tuproqdan yig'ilib, ilm fan dunyosida "ilonsimon qosh", "uzun devor" degan nomlar bilan ma'lum. Bunaqa qurilishlar haqida dunyo xalqlari orasida afsona, daston va rivoyatlar yaratilib ularning ko'pchiligi xalq og'zaki adabiyotining durdonalari qatoridan joy olgan. Ularga hindlarning Vedasini, Misrliklarning Gor bilan Set orasidagi kurash haqidagi afsonasini, Zigfrid haqidagi qadimgi germanlarning eposini, "Buyuk Xitoy devori" haqidagi xitoyliklarning afsonalarini ko'rsatish mumkin. O'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dastonida "Buyuk Xitoy devori" o'z aksini topgan. Jahonning sakkizinchil hazinasi atalgan "Buyuk Xitoy devori" dunyoda yolg'iz bo'lib qolmay, unga uxshashlari ko'p. Ularning biri Qoraqalpog'iston Respublikasi Qung'irot tumanida joylashgan "Da'ukesken qashisi" degan nom bilan fanda ma'lum. Uni birinchilardan bo'lib tadqiqot qilgan olim professor S.P.Tolstov hisoblanadi. U 1946-1952- yillarda Da'ukesken qa'lasinig XVI asrda Janubiy Orol buyidagi eng yirik qa'la, hattoki uning shu yerming poytaxti darajasigacha rivojlanishini hisobga olgan S.P.Tolstov "Da'ukesken qashisi" shu davrlari tiklangan bo'lishi ehtimol degan fikr aytgan.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi arxeologlari



Da'ukesken qashisi

Daukesken qa'lasida va qashisida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Bu o'z navbatida "Daukesken qashisining" "Buyuk Xitoy devoridan" tahminan yuz yil itgari qurilganligi va dunyodagi eng qadimiy devorlarning biri ekanligini ko'rsatadi. Daukesken qashisi devorlarning uzunligi 2600 metrdan iborat. Solingan vaqtida o'n metrdan ortiq balandlikka ega bo'lgan bu devordan xozirgi paytda bir-bir yarini metr balandlikdag'i bo'lagi saqlanib qoltingan. Uning eni ikki-uch metr qalinlikda bo'lib, vaqtida ustidan ikki askar qator bo'lib bemalol yuradigan bulgan.

Daukesken qashisini tadqiqot qilish paytda aniqlangan qurilishlar bilan undan topilgan arxeologik manbalar uning eramizdan oldingi V-IV asrlarda solinib bizning

eramizning boshlariga qadar foydalaniłganligidan darak beradi va u ulkamizdagı eng qadimgi qurilishlar qatoriga kiradi.


Aranlar-qadimgi kasplik qurilishlar. Qoraqalpog'iston o'zining ajoyib yodgorliklari bilan dunyoni lol qoldirgan. Chet elliklarni lol qoldirgan yodgorliklar Usturda joylashgan. Usturt bu Markaziy Osiyoning Orol buyi bilan Kaspiy oralig'ida joylashgan. U joylarda dexqonchilik bilan shug'ullanish mungkin emas. Shunday ekologik tabiyatga ega bo'lishiga qaramasdan Ustyurda qadimgi tosh davrlaridan boshlab yigirmanchi asrning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladigan yodgorliklarni uchratish mumkin.

Mana Ustirdagi shunday yodgorliklarning biri bu aranlar. Ular haqida eng birinchi malumotlar elliginchi yillarning boshlarida ma'lum bo'ldi. 1952-yili Ustyurda tadqiqot ishlarini olib borgan professor S.P.Tolstov samolyotda uchib yurib Erburin qa'la yonida tushunarsiz katta qurilishga ko'zi tushadi. Dastlab unda bu o'rta asrlarda yog'in-qor suvini yig'ishga qo'llanilgan degan tasurot o'yg'otadi. Shuning uchun bu yodgorlik yigirma yil davomida olimlar nazaridan chetda qolib ketgan.

1972- yili qaraqalpoq arxeologlari Usturda arxeologik tadqiqot ishlarini olib borishi bilan aranlar tadqiqot obektiga aylanadi. Natijada aranlar faqat Erburin qa'lesi yonida emas, balki Orol bo'yidan boshlab Kaspiy dengizigacha yuz kilometrlab joylarda joylashganligi ma'lum bo'ladi.

Bunday aranlarning bir yoki ikki kishi tarafidan qurilishi mumkin emas. Sababi ularni tiklashda katta kuch, qurilish materiallari talab etiladi. Demak bunday qurilishlarni solishda va ulardan amaliy foydalanishda ma'lum bir qavm a'zolari, qishloq odamlari, hattoki ular davlat hukmdorlari tarafidan qurilgan. Albatda ovlanri aranlarda qamab ovlash yil davomida bo'limgan, balki ma'lum mavsumlarda tashkillashtirilgan. Shunday yilning mavsumlarida tashkillashtirilgan Ustyurdag'i qurilishlar yordamida ov qilishga XVII-XIX asrlardagi Xiva xonlari qatnashganligi ma'lum.


Shu joyda "aran" so'zining etimologiyasi haqida to'xtaladigan bo'lsak. "Aran" so'zi eski forsi va turk tillariga oid atama bo'lib hisoblanadi. Olim A.Gafurovning aniqlashicha, "aran" so'zi forsi tilida "chig'anoq" ma'nosini anglatadi. Maximud Qashg'ariyning lug'atida "aran" turk tilida "mol xona" (ot xona) degan ma'noni bildirgan. Olim V.V. Radlov "aran" so'zining etimologiyasini "yovvoyi xayvonlarning yo'liga qo'yiladigan uchqur yog'och" deb aniqlagan. Shunday qilib



Aranlar

"aran" qadim davrlarda paydo bo'lgan turk so'zi bo'lib, ichidagi chuqurlarda uchqur qoziqlar qoyilgan, bosh bo'lagi sariq joydagi sadag'i shaklida, yovvoyi hayvonlarni qamab olish uchun qurilgan qora-qurilish bo'lib hisoblanadi.

Aqshaxan-qadimgi poytaxt. 1995-yili Aqshaxan qa'lada Qaraqalpog'iston – Avstraliya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi o'z ishini boshlaydi. To'qqiz yil




Aqshaxan-qadimgi poytaxt

davomida yodgorlikda olib borilgan arxeologik ishlar uning yuqori va pastki qa'ladan iborat bo'lganligini, ularning ichkarisida boshqarish va diniy qurilishlar borligi aniqlandi. Qa'laning solingan vaqt va davlatning markaziy qa'lesi ekanligi xaqida aytilgan fikrlar ma'lum darajada o'zining tastig'ini topdi. Aqshaxan qa'la to'g'ri to'rtburchakdan iborat bo'lib, yuqorida ta'kidlanganidek, yuqori va

pastki ikki qaladan tashkil topgan. Ularning har biri alohida devorlar bilan o'ralib, o'zaro darvozalar orqali bog'lanib turgan.

Umumiyl maydoni taxminan ellik hektar atrofida bo'lgan, pastki qa'la ikki qalin devorlar bilan o'ralgan, ularning orasida uzun daxlizlari joylashgan. Aqshaxan qa'ladagi arxeologik tadqiqotlar vaqtida undan eramizdan oldin VI-V asrlardan eramizning IV asrigacha tegishli ko'plab kulol idishlar bo'laklari, xaykallar, tangalar va shu singari materiallar topildi.



Mizdakxan

Ulardan aloxida ahamiyatga ega bo'lgan buddizm diniga xos xaykallarning topilishi bo'lib hisoblanadi. Bu o'z navbatida xalqaro savdo yo'lli bo'yida joylashgan Aqshaxan qalada shu dinga sig'inadigan, ehtimol Xindistonlik bir to'da savdo vakillarining vaqtincha bo'lsada yashaganligini ko'rsatadi.

Mizdakxan — majmuasi.

Qoraqalpog'iston o'lkasida joylashgan bo'lib, qadimgi tosh davriga to'g'ri keladi. Qadimgi Xorazm davlati Amudaryoning quyar joyida bizning eramizgacha VII-VI asrlarda joylashgan. Qoraqalpog'istonning eski poytaxti – Xujaylidan uch kilometr joyda ajoyib tarixiy- arxeologik majmua Mizdakxan joylashgan. Qa'la Xorazm davlatining yirik savdo- xunarmandchilik markazi bo'lib, u orqali Buyuk Ipak yo'llining janubiy tarmoqlaridan biri o'tgan, bularga qazib topilgan qushlarning rasmii, oltin ipli gazlamalarning qoldiglari, Xind okeani tosh idishlarining qoldiglari dalil bu'la oladi.

Tayanch so‘z va iboralar: tabiiy resurslar, tarixiy obidalar, turizm xizmatlari, iqtisodiyotni rivojlantirish, turizm, xalqaro savdo, mehmonxonalar, turistik xizmatlar ko‘rsatish, turizm xizmatlarining eksporti.

Moslaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Qoraqolpog‘iston turistik mintaqasining madaniy, tarixiy va me’moriy yodgorliklarga nimalar kirdi?
2. Qoraqolpog‘iston turistik mintaqasida xalqaro turizmning rivojlanish holatini tushuntirib bering.
3. Qoraqolpog‘iston turistik mintaqasida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari qanday?
4. Qoraqolpog‘iston turistik mintaqasidagi asosiy muammolar nimalardan iborat?

21-MAVZU: MINTAQAVIY TURIZM INFRARUZILMALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Reja:

- 21.1.Mintaqalarning turistik resurslaridan samarali foydalanishda infratuzilmaning o'rni**
- 21.2. Mintaqalarning turizm infratuzilmasi holati**
- 21.3.Mintaqalarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish chora tadbirlari**

21.1.Mintaqalarning turistik resurslaridan samarali foydalanishda infratuzilmaning o'rni

Infrastruktura (lot. Infra pod+struktura) rus tiliga tarjimasi pod struktura, ya'ni o'zbek tilida esa «infra» so'zidan iborat bo'lib, «tuzilma ostidagi tuzilma» degan ma'noni anglatadi. Uning umumiy tuzilmasini iqtisodiy yoki siyosiy hayot tashkil etadi. U butun bir iqtisodiy va siyosiy harakterdagi bir maromda kechadigan hayot faoliyatini ta'minlashga qaratilgan. Iqtisodiy infratuzilmaga transport, aloqa, kommunikatsiya, maishiy xizmat, ta'lim va kommunal xo'jalik, turar – joy, turmush tarziga o'rnatish, aholining birgalikda hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarini qondirish majmui kirdi.

Boshqacha aytganda, infratuzilma aholi hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan xo'jalik va madaniy ob'ektlar, uning xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarini tashkil qiluvchi (yo'llar, ko'priklar, kanallar, omborlar, transport, aloqa, energetika, suv ta'minoti, kommunal xo'jaligi, san, ta'lim, sog'liqni saqlash, moliyaviy tashkilotlar va h.k.) mahalliy boshqaruv majmuasi bo'lib hisoblanadi.

Infratuzilma xususan **ishlab chiqarish** va **ijtimoiy** sohalarga bo'linadi. Keyingisi o'ziga sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va boshqalami qamrab oladi – barcha korxonalar, muassasalar binolari, tarmoqlari va texnologik tizimlar, odamlar ijtimoiy hayotidagi moddiy asoslarni shakllantirishga qaratilgan.

Infratuzilma elementlari turli xil belgilariiga qarab klassifikatsiyalanishi (turlanishi) mumkin. Infratuzilmani keng miqyosli mezonlari bo'yicha **xalqaro**, **milliy**, **hududiy**, **shahar** infratuzilmalariga ajratiladi. Faoliyat sohasi mezonlariga ko'ra, infratuzilma **ijtimoiy**, **boshqaruv**, va **texnologik** sohalar bilan chegaralanadi.

Turizm infratuzilmasi bu turistik mahsulotlar **ishlab chiqarish** umumiy shartlarining birlashgan mohiyatidir. «Ishlab chiqarish umumiy shartlari» tushunchasi mohiyatini ochishda mutaxassislarining fikrlari va qarashlari turliha bo'lib, ular bir-biridan farqlanadi. Ayrimlari infratuzilma bu asosiy texnologik jarayonlarni ta'minlovchi ob'ektlar yoki faoliyat turlari deb tushunsalar, boshqalar esa bu butun texnologik jarayondir, uchinchi birlari, turistik mahsulotlarni

shakllantirish uchun zarur bo'lgan texnologik jarayonlar va unga qo'shimcha (plyus) boshqaruv ta'siri deb tushunadilar. Aynan ana shu keyingi murakkab mazmunga ega «turistik mahsulot» tushunchasi infratuzilmaning asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi.

Shunday qilib, turizm infratuzilmasi deyilganda turistik mahsulotlarni shakllantirishda (ishlab chiqarishda) ishtirok etuvchi tarmoqlar (transport, aloqa axborot vositalari, kommunikatsiya tarmoqlari, energetika, suv ta'minoti, maishiy xizmat ko'rsatish sohasi, kommunal xo'jaligi, ta'llim, sog'lqn ni saqlash, joylashtirish vositalari, savdo xizmati ko'rsatish, ovqatlanish korxonalar, madaniy va sport inshootlari, moliyaviy tashkilotlar, huquqni himoya qiluvchi idoralari va boshq.) va unga qo'shimcha turizm sohasini boshqaruvchi majmua tushiniladi.

Boshqacha qilib aytganda *Turizm infratuzilmasi* bu – turistlarning turistik resurslaridan foydalanishni ta'minlovchi binolar tizimi, muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, shu jumladan, yo'llar, turizmnning xilma-xil korxonalar hamda turizm korxonalarining ishlatalishini ta'minlashga imkon yaratilishi tushuniladi. Bu avtomobil va temir yo'llar, yo'l harakatini, havo yo'llarini, dengiz va daryo yo'llari harakatini tartibga soluvchi tizimlar, issiqlik, elektr va telefon aloqalari bilan ta'minlash va boshqalardir.

Turizm infratuzilmasi parallel ravishda tegishli **tashkiliy** va **huquqiy** tashkil etish shakllarida namoyon bo'ladi.

Infratuzilma turizm tizimida umumiy, ijtimoiy-iqtisodiy shartlarning tarkibiy qismi sifatida ko'zga tashlanadi. Hozirgi davrda turizmda abolinig ehtiyojini to'liq va sifatl qondirish uchun yuqori pirovard nisbatiga qaratilgan progressiv texnologiyalar va infratuzilmani samarali boshqarish zarur.


21.2.Mintaqalarning turizm infratuzilmasi holati

Turizmnning hozirgi holatini baholar ekanmiz, shuni qayd etish muhimki, O'zbekistonda infratuzilmaning rivojlanish darajasi chet ellik turistlarning ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan taqdirda turistlar oqimini ko'paytirish va shunga mos ravishda valyuta tushumini ko'paytirish mumkin emas. Bundan kelib chiqqan holda infratuzilmaning ahvoli turizmnning rivojlanishi va mamlakat imidjini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishmaguncha turizmga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Respublikaning turistik salohiyati to'g'risda obyektiv ma'lumotlar va reklama umuman bo'limgan. Turistik imkoniyatlar sobiq strukturalarning tor manfaatlari orqali bir tomonlama yoritilgan. Natijada turizm, xizmat ko'rsatish va ko'ngilocharlik infratuzilmasi rivojlanmagan, turistlarga xizmat ko'rsatish darajasi

past bo'lib, jaxonning yetakchi turistik korxonalar bilan aloqalar ko'ngildagidek emas. O'zbekiston hududida turizm infratuzilmasi bir tekisda taqsimlanmagan. Toshkent shahri va viloyatida respublika turizm salohiyatining 40 % qismi jamlangan. Yirik infratuzilma salohiyatiga to'rt viloyat (Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm) va Toshkent shahriga ega, Farg'ona vodiysi 16 % turizm infratuzilmasiga ega(I-diagramma).

Mintaqada turizmn rivojlantirish uchun mayjud turistik resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga erishishimiz kerak. Bunda mintaqaning turizm infratuzilmasini talab darajasida rivojlantirish asosiy o'rinni egallaydi.

Diagramma I.



Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida "Turizm to'g'risida"gi qonun, hamda 2006-2010 yilgacha O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida qator me'yoriy hujjatlar turistik infratuzilmalarni rivojlanitirish uchun kuchli turtki bo'ldi. Respublikamizda 20 dan ziyod turistik yo'nalishlar chet elliq turistlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Bu yo'nalishlar asosan YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan madaniy tanishuvlari dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, O'zbekiston Markaziy Osiyodagi muvofiqlashtiruvchi markazlardan biri sifatida ko'rsatilgan. O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlantirishda barcha infrastruktura obyektlarini jahon andozalariga yetkazib, turistlar talabini qondirish kerak. Buning uchun turizm infrastrukturasining tarkibiy qismlari mehmonxona, transport, oziq-ovqat, dam olish, davolash va boshqa ko'ngil ochar xizmatlarni yuqori darajada ko'tarishimiz lozim.

Turistik resurslardan samarali foydalanishda *transport tuzilmasining* hissasi katta. O'zbekistonda turizmnning rivojlanishiga «O'zbekiston Havo Yo'llari» milliy aviakompaniyasining ham hissasi qo'shilmoqda. Hozirga kunda milliy aviakompaniyamiz tasarrufida 14 ta aeroport mavjud bo'lib, ulardan 11 tasi —

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz va boshqa aeroportlar xalqaro maqomga ega.

Toshkent xalqaro aeroporti 2001 yilda qayta ta'mirdan chiqarilgan bo'lib, unda soatiga 1000 yo'lovchiga xizmat ko'rsatish imkoniyati paydo bo'ldi. Har yili Toshkent xalqaro aeroporti xizmatlaridan 2 million kishi foydalanadi. Toshkent xalqaro aeroportida yulovchilar qulayligi uchun keng va qulay mebeltar bilan jixozlangan kutish maydonlari, kuni bo'yli ishlovchi pasport, bojxona, chegara nazorati xizmatlari, ma'lumotxona, yuklarni konveyerda tashish xizmatlari, xalqaro telefon, chiptalarni sotib olish va bandlash kassalari, Duty-free do'konlari, restoranlar, barlar, tamaddixonalar, valyuta ayirboshlash punktlari, o'ta nufuzli mehmonlarga xizmat ko'rsatish VIP maydoni, qulayligi oshirilgan CIP maydoni kabilari tashkil etilgan. Toshkent xalqaro aeroportida dunyoda ishlab chiqarilayotgan barcha samolyot turlarini qabul qilish mumkin.

Samarqand xalqaro aeroporti soatiga 400 yo'lovchiga xizmat ko'rsata oladi. Samarqanddan Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg, Simferopol, Qozon shaharlariga, shuningdek, Yaponiya va Yevropa mamlakatlari yetib borish mumkin. Aeroportda VIP — va CIP — maydonlari, kutish maydonlari, ona va bola xonasi, tibbiyot punkti, aviakassalar, pochta xizmati xonasi, xalqaro va shaharlaro telefon xizmati, barlar, restoran, valyuta ayirboshlash shahobchasi bor, yangi «Duty-free» do'konni mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatmoqda.

Buxoro xalqaro aeroporti 1997 yilda ishga tushirilib, xalqaro maqomga 1999 yilda erishgan, soatiga 150 yo'lovchiga xizmat ko'rsatadi. Unda keng kutish maydoni, bufetlar, dukonlar, tibbiyot punkti, yuklarni saqlash xonasi, milliy an'analarda bezatilgan VIP — va CIP — maydonlari mavjud. Buxoro xalqaro aeroportidan Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg shaharlariga, shuningdek MDH mamlakatlari va boshqa davlatlarga uchish mumkin.

Urganch xalqaro aeroporti soatiga 300 yo'lovchiga xizmat ko'rsatadi. Unda kutish maydoni, tibbiyot punkti, barlar, kafe, valyuta ayirboshlash shahobchasi, suvenirlar do'konni mavjud, aeroportdan Toshkent, Moskva shaharlariga va dunyoning boshqa mamlakatlari uchib borish mumkin.

O'zbekiston turizmining rivojlanishiga «O'zbekiston temir yo'llari» davlat hissadorlik temiryul kompaniyasi ham o'zining hissasini qo'shamoqda. Bu tashkilot 1994 yilning 7 noyabrida tashkil etilgan bo'lib, O'zbekiston hududi bo'ylab 4000 kilometrغا yaqin uzunlikdag'i temir yultarga ega. Tashkilot tomonidan Toshkent-Samarqand orasida shinam tezyurar poyezd qatnashining tashkil etilishi turistlar uchun katta qulayliklar yaratib berdi. Tashkilot tomonidan Samarqanddan Surxonaryo viloyatiga o'tuvchi temir yul tizimi takomillashtirilmoqda, bu ham turistlarni harakatlanishini yengillashtiradi. Shuningdek, mustaqil O'zbekiston asosiy tarmog'i bo'lib hisoblangan xalqaro Traseka loyihasi asosida Toshkentdan

Farg'ona vodiysi orqali qo'shni mamlakatlarga chiqib ketuvchi temir yo'lning qurilishi ham O'zbekistonga keluvchi xalqaro turistik oqimini orttirishi mumkin. Keyingi yillarda barpo etilgan, umumiyligi 633 kilometrni tashkil qiladigan Navoiy – Nukus, 233 kilometrlik Toshguzar – Boysun – Qumqo'rg'on temir yo'l magistrallari, Qamchiq dovoni orqali o'tadigan tezkor avtomobil yo'llining ham chekka huduqlardagi turistik resurslardan foydalanishga imkon beradi. Bu yo'llar mamlakatimizning barcha hududlarini yagona transport tarmog'iiga ishonchli tarzda birlashtirib, turizm infotuzilmasini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Turistik resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga *mehmonxona xizmatlarini* rivojlantirish asosiy o'rinni egallaydi. Mehmonxona xizmatlarining sifatini boshqarish masalalarini xal qilishda mexmonxona korxonalarini shinamlik darajasiga karab tasniflash katta rol uynaydi. Bundan tashqari, xodimlarga va ularning tayyorgarligi: ma'lumoti, malakasi, yoshi, sog'ligi, chet tillarni bilishi, tashqi ko'rinishiga ham bir qancha talablar qo'yiladi. Mamlakatimizda hozirgi kunda ko'plab mehmonxonalar qurilmoqda. Ayniqsa xususiy turistik inchmonxonalar soni oshib borayapti, jumladan Samarcand viloyatida hozirgi kunda 100 dan ortiq ta zamonaviy va milliy uslubda qurilgan mehmonxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. 2015 yil mobaynida zamonaviy va milliy uslubda qurilgan 12 ta mehmonxona ishga tushirilib, mehmonxonalarini qabul qilish quvvati yana 320 o'ringa ko'paydi. Bu yerda asosiy o'rinni sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlashdir.

Ovqatlantirish infrastrukturasida yutuqlarimiz ko'proq, mehmonxonalar qoshidagi yoki yakka tarzda restoran, bar, kafelar, yaxshi ishlab nafaqat turistlarga, balki mahalliy aholiga xizmat ko'rsatmoqda. Ayrim ovqatlantirish obyektlarining ahvoli, xizmat ko'rsatish darjasini talabga javob bermaydi. Agar ovqatlantirish obyektlari sanitariya holati nazorat qilinib, ovqatlar va xizmat ko'rsatishning turli ish shakllari joriy etilsa, ijobjiy yutuqlarga erishgan bo'lamiz.

Hozirgi paytda turizmni rivojlanishida *bank* va *milliyaviy tashkilotlar* xizmatlarining o'rnini kaita. Turistlar sayohatda va dam olishda xilma-xil xizmat turlaridan foydalanishni bohlaydilar. Ya'ni, o'z hohishi bo'yicha biror narsa sotib olishni istashadi. Bunda ular ko'ngil ochish uchun har kuni ko'p miqdorda pul sarflashadi. Shu sababli bu xizmat turini takomillashtirish turistlarga qo'layliklarni keltirib chiqaradi.

Axborot xizmati ham turistik resurslardan unumli foydalanish uchun juda zarurdir. Turist sayohatga tayyorlanayotganda, hamda sayohat vaqtida o'zi boradigan joy haqida, o'sha mamlakat yoki boradigan hududning qonun-qoidalari, odatlari, mehmondo'stligi haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarga, shuningdek, o'sha joyning xaritasiga, transport magistrallari sxemasiga muxtoj bo'ladi. Sayohat va turistlarning sarguzashtlari haqidagi ma'lumotlar ommabop va maxsus adabiyotlar

ko'rinishida chop etiladi va bu holat turistlarni sayohat qilishga chorlaydi. Turizmda bo'lajak turistlarga bepul tarqatiladigan axborotlarni rang-barang ko'rinishida chop etishga e'tibor qaratish lozim. Bunda turistlar va turizm xizmatlari uchun axborot CD ROM disklarini chop etish katta samara beradi.

O'zbekistonda tarixiy – madaniy, arxitektura, arxeologiya ahamiyatidagi 7 mingdan ortiq obyektlar mavjud. Mutaxasis B. To'rayev fikricha ulardan 545 tasi – arxitektura, 578 tasi – tarixiy, 1457 tasi – san'at yodgorliklari va 5500 dan ortig'i arxeologik ahamiyatiga jalb etilgan. 200 dan ortiq obyektlar ta'mirlanmoqda, 500 tasi esa ta'mirlanishga muhtoj. Ko'p mamlakatlar tajribasiga ko'ra, ta'mirlanish jarayonini o'zi turistlar uchun qiziqarli hisoblanadi. Undan tashqari respublikamizda 300 dan ortiq mezeylar, 1200 ta xalq ijodiyoti tashkilotlari mavjud. Turistik ziyorat obyektlari miqdori bo'yicha Toshkentda -144 ta, Samarqandda – 118 ta, Buxoroda – 201 ta, Xiva -310 tani tashkil etadi. Ammo asosiy turistik resurslarimizdan turizm maqsadida foydalanish yaxshi tashkil etilmagan. Shu sababdan milliy madaniy va tabiiy merosimizni turizm faoliyatini maqsadida har jihatdan o'rghanish va muhofaza etish o'ta muhimdir. YUNESKOning «Butunjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish» konvensiyasida har bir davlat o'z hududidagi madaniy va tabiiy merosini muhofaza etishi, uni targ'ibot etishi, bunda o'zining samarali siyosatini olib borishi lozimligi ta'kidlanadi.

21.3.Mintaqalarda turizm infruzilmasini rivojlantirish chora tadbirlari

Samarqand. Turizmning rivojlanishi iqtisodiyotning boshqa sohalarini sanoat, qishloq xo'jalik, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishini rag'batlantiradi. Ushbu soha korxonalarining rivojlanishi va ular daromadlari, to'laydigan soliqlari natijasida mahalliy byudjet mustahkamlanadi. Mahalliy aholining bandligi va daromadlarini ortishi natijasida aholining turmush darajasi ko'tariladi.

Hozirgi kunda, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan Samarqandda turizm sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi hukumatining «2017—2019 yillarda Samarqand viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bo'yicha Samarqand shahrida 2020 yilgacha Samarkand city turizm zonası, Samarqand tumanida esa eshkak eshish kanali hududida sport-sog'lomlashtirish va turistik-rekreatsion majmuasi barpo etish ko'zda tutilmoqda.

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan 2017 — 2019 yillarda Samarqand shahri va Samarqand viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish tadbirlari Dasturida quyidagi ustuvor yo'nalishlarlar belgilab berildi:

Yangi mehmonxonalar, madaniy-sog'lomlashtirish va savdo-ko'ngilochar markazlar, turistik-rekreatsion hududlarni barpo etish hamda turizm infratuzilmasining boshqa ob'ektlarini qurish;

Umumiy ovqatlanish tizimini takomillashtirish va turistlarning kechki bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishlari uchun sharoitlar yaratish, jumladan, zamonaviy restoranlar qurish, nurli va musiqiy shou dasturlarini tashkil etish, o'zbek milliy musiqasining teatrlashtirilgan konserl dasturlarini tashkil etish, madaniy meros ob'ektlari hududida milliy urf-odat va an'analarini namoyish etish;

Aviareyslar va tezyurar «Afrosiyob» elektropoyezdi qatnovlari sonini ko'paytirish, Samarcand shahrining tarixiy hududida sayyoohlarga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot tashkil etish, turistik namoyish ob'ektlariga olib boradigan avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish yo'li bilan transport xizmatini yaxshilash, avia va temiryo'l infratuzilmasini yanada rivojlantirish;

Turizm infratuzilmasi ob'ektlarida bankomat va terminallar o'rnatgan holda maxsus esdalik sovg'alari shoxobchalarini shahar ko'chalari bo'ylab taqsimlash, internet tarmog'idan foydalanishga keng imkoniyat yaratgan holda turistlar gavjum joylarda Wi-Fi hududlarini tashkil etishni nazarda tutgan holda Samarcand shahri hududini obodonlashtirish;

«Samarcand nonlari», «Samarcand hunarmandlari», «Milliy taomlar», «Sharq shirinliklari» kabi har yilgi mavzuli festivallarni tashkil etish va o'tkazish, xorijiy turoperatorlar va OAV vakillari uchun axborot turlarini tashkil etish, ommabop xorijiy telekanallarda Samarcandning turizm salohiyatini targ'ib qilish, Samarcand shahri brendini targ'ib etish;

Yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish va turizmning yangi turlarini rivojlantirish, shu jumladan «Zarafshon» davlat qo'riqxonasi hududini va u yerda saqlanayotgan Buxoro bug'usining (xongulning) turistlar tomonidan keng qamrovli, kuzatilishi uchun ilmiy-rekreatsion hududlarni tashkil etish, turizm infratuzilmasi ob'ektlarini barpo qilish sharti bilan hududda turizm majmuasi va ekoturizm zonalari tashkil qilish;

2017 — 2021 yillarda turizm xizmatlari eksporti hajmini 2,2, turistlar sonini 2 barobarga oshirishni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

Samarkand city turizm zonasida Samarcand shahrida turistlar kechayu-kunduz bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishi uchun qulay shart-sharoitlar va turli xizmatlarning ko'rsatilishini ta'minlovchi zamonaviy mehmonxonalar, kottejlar, madaniy-sog'lomlashtirish va ko'ngilochar-savdo maskanlarining qurilishi nazarda tutilmoqda.

Samarcand tumanidagi eshkak eshish kanali hududida yil davomida o'quv-mashg'ulot yig'inalarini o'tkazish imkonini beruvchi zamonaviy sportzal, sport

maydonchalari, usti ochiq va yopiq basseynlar, oilaclar uchun mehmonxona majmuulari va kottejlar, suv attraksionlarini o'z ichiga olgan sport-sog'lomlashtirish va turistik-rekreatsion majmuasi barpo etiladi.

Samarqand viloyati mamlakatimiz turizm markazi hisoblanadi. Shuning uchun bu imkoniyatlardan foydalaniib sayohat-ekskursiya ishlarini jadallashtirish turizm xizmatlar bozorini rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Mintaqa turizmi rivojlanishida transport tuzilmasining o'mni va ahamiyati juda salohiyatli bo'lib, bu jarayonda «O'zbekiston Havo Yo'llari» milliy aviakompaniyasining ham hissasi kattadir. Samarqand shahri nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda mashhur sayyoqlik markazidir. "Samarqand" xalqaro aeroporti Registon, Amir Temur maqbarasi, Ulug'bek observatoriysi, Shohi-Zinda Al-Buxoriy va boshqa ko'plab tarixiy yodgorliklari bilan butun dunyoga mashhur qadimiy Samarqand shahrining havo darvozasidir.

Hozirgi kunda «Samarqand» xalqaro aeroporti xalqaro tranzit yo'nalishlar uchun muhim bo'g'lnlardan biriga aylanib bormoqda. U qayta ta'mirlangandan so'ng, ICAO ning birinchi kategoriyasiga ega bo'lgan aeroport hisoblanib, g'arbda ishlab chiqarilgan turli rusumdag'i laynerlarni hamda sharqiy havo kemalarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

"Samarqand" aeroporti rekonstruksiyadan keyin hamma xalqaro standartlarga to'g'ri keladi va A310, A320, B757, B767, B777, II76, II114 kabi hamma zamонави havo kemalarini qabul qiladi. "Samarqand" xalqaro aeroporti dinamik rivojlanayotgan korxona bo'lib, u yiliga 300000 dan ortiq yo'lovchiga xizmat qiladi.

Aeroport soatiga 400 yo'lovchini qabul qilish va xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega. Turkiya, Toshkent, Moskva, Sankt-Peterburg, Simferopol va Qozon shaharlari bilan havo aloqalari ham o'rnatilgan. Bu yerga Yevropa mamlakatlari va Yaponiyadan charter qatnovlar amalga oshiriladi.

«Samarqand» xalqaro aeroporti yo'lovchilarga qulaylik yaratish uchun aeroport aerovokzal majmuasida tibbiy punkt, onalar va bolalar xonasasi, CIP va VIP zallari, restoran va buffet, qatnovlar haqida yo'lovchilarga ma'lumot berish tizimi ishga tushirilgan, Wi-Fi, shaharlارaro xalqaro aloqa, DUTY FREE, aviakassa va aloqa bo'limi (pochta) mavjud.

Toshkent-Samarqand shaharlari o'rtaida shinam, tezyurar "Afrasiyob" poyezdining qatnashining tashkil etilishi turistlar uchun katta qulayliklar yaratib berdi. «O'zbekiston temir yo'llari» davlat hissadorlik temiryul kompaniyasi Samarqanddan Surxondaryo viloyatiga o'tuvchi temir yul tizimini ham takomillashtirish borasida katta ishlarni amalga oshirmoqda.

Avstraliyaning "Skyscanner" axborot portali ekspertlari "Instagram" ijtimoiy tarmog'idan foydalanuvchilar uchun sayyoramizning eng go'zal joylari reytingini tuzib chiqdi.

Yer yuzidagi 15 ta eng ajoyib shahar kiritilgan ro'yxatning oltinchi pog'onasidan o'zining tarixiy durdonalari bilan dunyoga tanilgan ko'thna va hamisha navqiron Samarqand shahri ham o'rinn oldi.

Mutaxassislarining aytishicha, ular fotosuratlar olish uchun juda ham mos hamda unutilmas taassurotlar hadya etadi.

Quyida mazkur reyting bilan to'liq tanishib chiqishingiz mumkin:

1. Reykyavik, Islandiya;
2. Kvinstaun, Yangi Zelandiya;
3. Skay oroli, Shotlandiya;
4. Baykal ko'li, Rossiya;
5. Annapurna, Nepal;
6. Samarqand, O'zbekiston;
7. Giza va Luksor, Misr;
8. Yellowstoun milliy parki, AQSH;
9. Langkavi, Malayziya;
10. Machu-Pikchu, Peru;
11. Kioto, Yaponiya;
12. Guylin, Xitoy;
13. Nandi, Fiji;
14. Uluru, Avstraliya;
15. Kilimanjaro, Tanzaniya.

Samarqand mintaqasi yana boshqa ko'plab turistik resurslarga ega bo'lgan hududdir. Ulardan madaniy-tarixiy, ekologik turistik resurslari, bilish turizmi, sog'likni tiklash hamda diniy turistik resurslari ham alohida ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi sayyohlik sohasining statistik ma'lumotlari

** xorijiy sayyohlar soni
(kishilar)

2011 yil	1 394 805
o'tgan davrga nisbatan o'sish darajasi (%)	143,1
2012 yil	1 894 996

** xorijiy sayyoohlar soni
(kishilar)

yil / o'sish darajasi	
o'tgan davrga nisbatan o'sish darajasi (%)	135,9
2013 yil	1 968 650
o'tgan davrga nisbatan o'sish darajasi (%)	103,9
2014 yil	1 861 961
o'tgan davrga nisbatan o'sish darajasi (%)	94,6
2015 yil	1 917 714
o'tgan davrga nisbatan o'sish darajasi (%)	103,0
2016 yil	2 027 035
o'tgan davrga nisbatan o'sish darajasi (%)	105,7
2016 yil birinchi yarim yillik	950 704
o'tgan davrga nisbatan o'sish darajasi (%)	105,8
2017 yil birinchi yarim yillik	1 125 774
o'tgan davrga nisbatan o'sish darajasi (%)	118,4

* O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining ma'lumotlari asosida rasmiy ravishda e'lon qilindi
** Davlat statistika qo'mitasini va BMY Juhon sayyoqlik tashkiloti metodologiyasi bo'yicha

Tayanch so'z va iboralar: Ishlab chiqarish, ijtimoiy, xalqaro, milliy, hududiy, shahar, boshqaruv, texnologik, «turistik mahsulot», turizm infratuzilmasi, tashkiliy, huquqiy, umumiy, transport tuzilmasi, mehnxonxona xizmatlari, Ovqatlantirish infrastukturasi, bank va moliyaviy xizmatlari, Axborot xizmati, Wi-Fi, «O'zbekiston Havo Yo'llari», «O'zbekiston temir yo'llari».

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Mintaqalarning turistik resurslaridan samarali foydalanishda infratuzilmaning o'mni?
2. Mintaqalarning turizm infratuzilmasi holati qanday?
3. Mintaqalarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish chora tadbirlarini tushuntirib bering?

22- MAVZU. MINTAQALARNING MADANIY-TARIXIY MEROSSI, ULARDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISH

Reja:

- 22.1.Jahon madaniy-tarixiy merosini saqlashda Yunesko va Butunjahon turistik tashkilotining (BTT) o'rni
- 22.2. O'zbekiston shaharlarining arxitektura yodgorliklari va ulardan foydalanish
- 22.3. Mintaqalardagi madaniy merosda etnografiya, urf-odatlar va an'analarni tutgan o'rni
- 22.4. Mintaqalarda mavjud muzeylar va ulardan foydalanish

22.1.Jahon madaniy-tarixiy merosini saqlashda Yunesko va Butunjahon turistik tashkilotining (BTT) o'rni

Jahon madaniyati va turistik faoliyatda boshqarish va standartlashda asosiy rolni YUNESKO va BTT o'taydi. Mazkur tashkilotlar turli turli o'tkaziladigan anjumanlar, tadbirlarda mazkur resurslardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berib boradi.

Ko'pgina tarixiy obidalar YUNESKO tasarrufida bo'lib, ular muhofaza ostiga olingan. Bu kkbi meroslarni saqlash, muhofaza qilish bo'yicha Mexiko (1981 y) deklarasiyasi qabul qilingan.

Ko'pgina hududlar o'ziga xos qadimiy shaharlar, arxitektura, tarixiy madaniy yodgorliklarga boy hisoblanadi. Turistik infrastruktura rivojlanshi tarixiy o'zlikni manzarasi buzilmasligi kerak. Har bir tashkil etilayotgan yangi turistik markaz (obyekt) Milliylik bilan uyog'unlashgan, qaytarilmas o'ziga xoslikka ega bo'lishi lozim. Albatta, tarixiy-madaniy, arxitektura va madaniy majmualarni milliy qadr-qiymati, tarixiy bahosini tiklash va muhofaza qilish orqaligina turistlar qiziqishini orttirish, bu orqaldi turizmni rivojlantirish mumkin.

Madaniy-tarixiy majmualarni qayta tiklashda umumiy (ansambl) va yakka (individual) uslubida loyihalashtirish qabul qilingan.

Madaniy tarixiy va tabiiy merosni quyidagicha kategoriyalarga bo'lishni mutaxasislar quyidagicha taklif etgan:

- asosan turistlar ishlataladigan obyektlar (festivallar, namoyishlar, yodgorliklar va h.k.)
- aralash foydalaniladigan obyektlar (kamiga tarixiy yodgorliklar va muzeylar, teatrlar, qo'riqxonalar va boshqa;)
- asosan mahalliy aholi foydalaniladigan obyektlar (fuqarolar inshootlari, madaniy obyektlar, kinoteatrlar, kutubxona va boshqa;)

Madaniy va turizm sohasida asosiy yo'nalishlarida turli tashkilotlarning o'zaro hamkorligini aniqlab olish juda muhim sanaladi. Turistik rivojlanish siyosati quyidagi talablarni keltirib chiqaradi:

- turistik resurslar ruyxatini tayyorlash, turizmni rivojlanishi uchun madaniy tarixiy, tabiiy merosni tasniflash muhim obyektlarni ajratish;
- turistik ahamiyatga ega joy va asosiy turistik hududlarni ajratishni hamda tegishli mahalliy madaniy, tarixiy va tabiiy yodgorliklarni muhofaza qilishni ta'minlash;
- milliy boylik hisoblangan sun'iy va tabiiy, moddiy va nomoddiy obyektlar hamda mahalliy aholi yashadiki (san'at, folkor va b.) turizm maqsadida foydalanish;

Mintaqa madaniy merosiga nisbatan hurmat bilan qarashga mahalliy aholi va turistlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan tadbirlarni o'tkazish. Hozirgi kunda jamiyatda iqtisodiy ijtimoiy va madaniy rivojlanish jadvallik bilan kechmoqda. Bu esa o'z navbatida misollarda ish yuzasidag harakati, dam olish kunlarini ko'payishi natijasida turistik faoliyatga ehtiyoj oshmoqda.

An'anaviy turizm shakllariga yangicha yondoshishga talab oshmoqda. Ya'ni turlarning madaniy tarkibiga mahalliy diqqatga sazovor joylar bilan tanishini ham kiritish katta samara berib, sayohatni mazmunli va uzoq vaqtga cho'zilishiga sabab bo'ladi. Turizm hudud uchun foyda berishdan tashqari, mahalliy aholini o'zining ajratib merosidan farqlanishiga olib keladi. Bu jihatdan foydalarib turistik resurslardan turizm maqsadida samarali foydalanish tizimini yaratish mumkin.

22.2. O'zbekiston shaharlarining arxitektura yodgorliklari va ulardan foydalanish

Milliy madaniy meros obyektlarini ijodiy va ehtiyojli qondiradigan holatda namoyish qilish kerak. Hozirgi ilmiy texnik rivojlanish natijasida hamma mintaqalarda bir xil madaniy ko'rinishlarni namoyon qilg'an. Shuning uchun har bir hudud boshqa joylardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Shundagina ular turistik bozorga taklif etuvchi mahsulotlarga ega bo'ladi.

Madaniy meros obyektlariga quyidagilar kiradi:

- arxeologik yodgorliklar;
- madaniy arxitektura;
- landshaft arxitektura yodgorliklari;
- katta va kichik tarixiy shaharlar;
- qishloq joylari;
- muzeylar, teatrlar, ko'rgazma zallari va b.;
- sasiomadaniy infratruktura;

- etnografiya obyektlari, xalq udumlari va an'analarini amaliy madaniyat markazlari;

- texnik komplekslar va asbob - anjomlar.

Mamlakatga keluvchi chet elliq sayyoohlarni o'rtasida katta talab bilan foydalaniadigan yo'l ko'rsatkichlarni chet tillarda chiqarishda tashabbus ko'rsatishi rus, ingлиз, fransuz va nemis tillarga ustunlik berish lozim. Diqqatda sazovor joylar to'g'risidagi ma'lumotldar yonida shu tillarda yozma yoki ovoz tasviridagi tushuntirishlar berilishi lozim. Mehmonxonalar va sayyoohlarni uchun yo'nalish beruvchi axborot markazlarini shaklantirish turizm rivojida muxim axamiyat kasb etadi. Samarqand shahrida turistik axborotlar markazini vujudga keltirish, mehmonxonalarini taklif qilish, diqqatga sazovor joylar xaqidagi materiallarni ko'rsatish va asosiy e'tiborga loyiq hudatlarni reklama qilish muhim ahamiyatga egadir. Markaz tijorat asosida ishlashi ham mumkin (kirish badali, turlar, yo'l ko'rsatkichlar va boshqa xizmatlarga, mehmonxonada joylarni bron qilish hisobiga haq olish, yodgorlik buyunlarini sotish va h.k). Bunda quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

Mavjud diqqatga sazovor joylari mustahkamlash:

- axborot lavhalari, plakatlar, ko'rgazmalar va boshqa shu kabi vositalar yordamida turistlarni asosiy malumotlar bilan ta'minlash bo'yyicha dasturlarni amalga oshirish. Mumkin bo'lgan barcha joylarda oddiy varaqalardan foydalanib bir necha tillarda ma'lumotlarni yetkazib berish;

- ayrim asosiy shaharlarda audio-turlarni tashkil kilish;

- muzey ekspozisiyalarini kengaytirish va arxeologik kazishmalar amalga oshirilayotgan joylarda (eng qiziqarli punktlarda to'xtab o'tish bilan) piyoda sayir qilishni tashkil kilish juda muxim.

Yangi diqqatga sazovor joylar:

- ipak to'lesi ishlab chiqarish bazasida tashrif buyurishning yangi joylarni tasheil qilish;

- ipak to'qishdan boshdab, tayyor mahsulotgacha jarayonlar haqida hikoya qilish bilan eksursiyalar uyushtirish;

Buning uchun juda mos joy Marg'ilon bo'llishi mumkin. U yerda pillaga ishlov berishdan boshlab, ipak matolar ishlab chiqarish bilan tudallanadigan barcha bosqichlarni o'z ichida olgan juda qiziqarli ipakka qo'lda ishlov berish fabrikasi mavjud. Bunga qo'shimcha ravishda Irak to'lesi yetishtirishning barcha jarayonlarini qo'rsatadigan va fabrikali ishlab chiqprish bosqichlarini ancha to'liq tushuntirib beradigan Markaz tashqil qilincha yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Ekskursiya mavsumi ipak to'lesi yetishtiriladigan xo'jalik (ferma)larga tashrif buyurish bilan boshlanishi mumkin. Ekskursiyaning yakunlovchi bosqichi tayyor

mahsulotlar ko'rgazmasi hisoblanadi. Bu yerda ipakdan tayyorlangan buyumlarni taklif qilib, ularning xadid qilish imkoniyatini ham yaratish mumkin.

Milliy turistik mahsulot infratuzilmasini shakkantirish investitsiyalar barqarorligini va uning darajasini o'stirishni taqozo qiladi. Bu davlatda milliy turistik mahsulotni rivojlantirishga va turizmning barqaror o'sishiga yordam ko'rsatishni talab etadi.

Milliy turistik mahsulotni rivojlantirishning xususiy sektoriga va O'zbekistonda turizm infratuzilmasi shakkantirish va takomillashtirishga xalqaro investitsiyalarining jalb qilish va joylashtirish turizm industriyasini rivojlantirishning muhim omili xisoblanadi.

22.3. O'zbekiston madaniy merosida etnografiya, urf – odatlar va an'analarini tutgan o'rni

O'zbek xalqi boy tarixiy o'tmishga ega. O'zoq rivojlanish davrida u O'rta Osiyoning boshqa xalqlariga o'xshash, insoniyatga ilm va san'atning buyuk namoyondalarini berdi. Asrlar davomida boy o'ziga xos madaniyat yaratildi. O'rta Osiyoning ko'pgina bosqinchiligi natijasida o'tmish yodgorliklarida turli qadimiy madaniyatlar-yunon, xind, eron, arab-ta'siri ko'rindi. Ammo bu ta'sirlar o'zbek madaniyatini boyitib, uning o'ziga xosligini yo'qotmadı. O'zbek xalqining san'ati o'zining badiiy an'analarini, ustalik qonunlarini, ifodalash vositalarini ishlab chiqdi. Xalq ijodining turli janrlari yaratildi. Bu bir-biriga ta'sir qilish va bir birini boyitish jarayoni asrlar davomida O'zbekistonga o'zining badiiy madaniyatini keyingi rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Moddiy madaniyat yodgorliklari (qoyadagi naqshlar, monumental xaykallar, barelyeflar, xaykalchalar va b.), shuningdek bizgacha yetib kelgan yozma manbalar (m.a. 2 asr), o'zbek xalqining musiqa merosining ashula, raqs va kiyimlar qadimiy manbalariga guvoxlik beradi. Ularning O'rta Osiyo xalqlari xayotidagi muhim roli xaqida m.a. 5 asrda Yunon olimi Gerodot yozib qoldirgan.

Musiqiy san'atning yuqori namunalari og'zaki xalq sheri ijodidir. Folklorning g'oyaviy boyligi va janrining turli tumanligi ruhiy va badiiy qimmatidir. Unda xalq tarixi, xayoti aks ettirilib, eng yaxshi insoniy sifatlar, do'stlikka, sevgiga sodiqlik tasdiqlanadi. Qurg'oqchilikda dexqonlar «Sus xotin» (yomg'ir yog'ishini so'rash) ashulasini, kuchli shamol bo'lganida «Moy-morma» (shamolga murojaat) ashulasini aytish bilan boradigan udumni bajarishadi. Xalq ozaki ijodi doim rivojlanadi, uning ko'p asarlari ajdodlarning dunyo qarashi, ijtimoiy, xo'jalik va oilaviy turmushini aks ettiradi. Xalq she'riyat ijodining asosiy xususiyati asar yaratish va ijro etishning ommaviy xarakteridir.

O'zbekistonning ma'nnaviy va madaniy hayoti O'rta Osiyo xalqlarining hayoti bilan birlikda shakllandi. Xalqimizda afsonalar, qabila to'g'risidagi bitiklar keng tarqalgan. Jun ishlab chiqishning rivojlanishi kigiz, palas, jundan qilingan gilamlar va yupqaroq jun matolarining-sidirga, naqshli, surallı-chiqarishni oshishiga olib keldi. Mahalliy xalqlar kiyimining o'ziga xosligi, avvaldan iqlim, turmush sharoiti moslashganligi turistlar uchun juda qiziqarlidir. O'rta Osiyo xalqlarining raqs san'ati, ashula sa'nati ham xorijiy turistlarni befarg qoldirmaydi. Shu sababli milliy san'atchilik asosida turli shouular tashkil etish orqali turistlarni yanada jalb qilish lozim.

22.4. O'zbekistonda mavjud muzeylar va ulardan foydalanish.

Turli kolleksiyaga ega bo'lган muzeylarning mavjudligi O'zbekistonning ijtimoiy va madaniy rivojlanishini xususiyatlarini aks etdiradi. Muzeylar madaniy, tarixiy, badiiy me'rosimiz, xalqlar dini va e'tiqoti, ularning an'analari bilan tanishtirib, yoshlарimizni vatanparvarlikka va buyuk ajodolarimiz bilan faxrlanishga o'rgatadi. Davlatimiz mezeylarni rivojlanishi, yodgorliklarni tiklanishga katta ahamiyat beradi. Temuriylar tarixi muzeyining yaratilishi bunga misol bo'la oladi. Respublika muzeylarining ichida 3 ta muzey-qo'riqxona: Samarqand, Buxoro, Xiva («Ichan-Kala»); 3ta yirik badiiy muzeylari: O'zbekiston Davlat san'at muzeyi (Toshkent shahari); Davlat xalq-amaliy san'ti muzeyi, Nukus shaharidagi Saviskiy nomidagi Davlat san'at muzeyi mavjud.

O'zbekistonda yagona bo'lgan (Toshkent sh.) Tabiat muzeyi 120 yildan beri mavjuddir. Muzey jamgarmasida 1.5 mln. ekponatlar bor. Qadimiylar muzeylardan biri-O'zbekiston xalqlarining tarixi muzeyi respublika tarixini o'rganish bo'yicha ilmiy tekshiruvlar olib boryapti. A.Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi juda katta kitob va qo'lyozma jamgarmasiga ega. O'zbekiston tibbiyat muzeyi (Toshkent) tibbiyat bilimlari tashviqoti, ekologiya muammolari, sanitariya va gigiyena tarixi bilan tanishtiradi. Abu Ali ibn Sinoga bagishlangan zali bor.

Toshkentda Olimpiya shon-sharafi muzeyi, Urush va mehnat sharasи muzeyi, kino san'ati muzeyi tashkil qilingan; badiiy ko'rgazma direksiyasi, RTVS «O'zeksposentr», U.Tansikbayev, Tamara xonum, A.Qahhor, G'afur G'ulom muzeylari ishlaydi. Har bir viloyatda o'lka muzeylari mavjud. Angren, Sirdaryo, Urganchda badiiy galereyalar ochilgan. Respublika muzeylari shuningdek turli ekskursiya, ma'ruza, adabiyot kechalari, Mustaqillikka, «Navro'zga» bag'ishlagan etnografik ko'rgazinalari va b. o'tkazadi.

O'zbekiston madaniyati vazirligi xalqaro «Oltin meros» xayriya fondi. Badiiy akademiyasi bilan birgalikda muzeylarning kelajak faoliyatini yaxshilash dasturini yaratdi. Respublikaning madaniy hayotidagi yutuqlarini tashviqot qilish

maqsadida «Moziydan sado» jumali yaratildi. Xorij tajribasidan ma'lumki muzeylardan turizm faoliyatida keng foydalaniladi. Shu sababdan mavjud muzeylarimizni keng targ'ibot qilish orqali turizm maqsadida foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalasidir.

Tayanch so'z va iboralar: YUNESKO, BTT, meros, Mexiko, Milliylik, tarixiy-madaniy, arxitektura, madaniy majmualarni, milliy qadr-qiyima, festivallar, namoyishlar, yodgorliklar, tarixiy yodgorliklar, muzeylar, teatrlar, qo'riqxonalar, inshootlari, madaniy obyektlar, kinoteatrlar, kutubxonalar, arxeologik yodgorliklar, madaniy arxitektura, landshaft, arxitektura yodgorliklari, katta va kichik tarixiy shaharlar, qishloq joylar, teatrlar, ko'rgazma zallari, etnografiya obyektlari, xalq udumlari, an'analari, amaliy madaniyat markazlari, texnik komplekslar, asbob - anjomlar.

Mustaqil nazorat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Madaniy – tarixiy merosini muhofaza qilish va saqlashda YUNESKO va BTTning o'rni qanday?
2. O'zbekistonning arxitektura yodgorliklariga boy shaharlaridan samarali foydalanish masalalarini tushuntiring?
3. O'zbekiston madaniy merosida etnografiya, urf – odatlar va an'analarni tutgan o'rni qanday?
4. O'zbekistonda mavjud muzeylar va ularidan turizm maqsadida foydalanish xususiyatlarini tushuntiring.

23-MAVZU. MINTAQAVIY TURISTIK RESURSLAR ASOSIDA EKSKURSIYA XIZMATLARINI TASHKIL ETISH⁴⁵

Reja:

- 23.1. Turistik-ekskursiya xizmatlarining asoslari va huquqiy me'yorlari
- 23.2. Ekskursiya xizmatini tayyorlash texnologiyasi
- 23.3. Ekskursiya xizmati marshrutini tuzish va sinov ekskursiyasini o'tkazish tartibi

23.1. Turistik-ekskursiya xizmatlarining asoslari va huquqiy me'yorlari

Ekskursiya so'zi lotincha ekskursion-qisqa muddatli safar yoki sayohat, sayohatga jo'namoq, sayohat qilib kelmoq ma'nolarini anglatadi. Turizm so'zi paydo bo'lmashdan, insonlarda atrof-muhitga qiziqish, uzoqlarda nimalar bor, tog'lar ortida yoki daryoning yoki qir-tepaliklardan keyin nimalar borligiga oid ko'plab savollarning to'planinib qolishi natijasida ularni safarga (uydan chiqib ketishga) chorlaydigan ichki his-tuyg'u-qiziqishning harakatga kelishi bo'lgan.

Hozirgi rivojlangan jamiyatimizda jahonda ekskursiyaga-sayohat-sayrga chiqmagan biron ta'sir surʼi bo'lmasa kerak degan xulosaga to'xtalamiz. Ushbu sayr larning asosiy sababchisi tabiatdagi biologik xilma-xillik, betakrorlik, boyliklar bo'lgan. Jamiyatdagi dastlabki sayohatlar albatta o'zga yurt, mamlakatlar haqidagi xabarlar natijasida yuz bergan.

Ekskursiya xizmatlarini turizmning yuragi deb ta'riflashadi. Haqiqatdan ham turist mehmonxonaga joylashganidan so'ng birinchi navbatda ekskursiya chiqishga harakat qildi. Ichki turizmda barcha davlatlarda ekskursiya xizmatlari birinchi o'rinda turadi. Chunki mamlakat ichkarisidagi aholi turizmning deyarli barcha turlari bo'yicha doimo ekskursiya xizmatlaridan foydalanaadi. Shu o'rinda turist bilan ekskursantni farqlash lozim bo'ladi, chunki turizmni rejalashtirishda turistning talabi nafaqat ekskursiya xizmatlari bilan chegaralanmasdan, balki boshqa ko'rsatiladigan xizmatlarni ham hisobga olishni taqoza qiladi.

Turist-O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo'nab ketgan) jismoniy shaxs⁴⁶.

Ekskursant -tunab qolmaydigan va ekskursiya marshrutida 24 soatdan ko'p bo'lmaydigan shaxsning sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy, qiziqish,

⁴⁵ J.S.Tuxhiyev, R.S.Amriddinova, G.R.Tursunovalarning Ekskursiya xizmatini tashkil qilish nomli o'quv qo'llanmasidan foydalaniildi.

⁴⁶O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»gi Qonuni //«Xalq so'zi» gazetasi, 1999 yil, 14 sentyabr.

ko'rish, bilish, tanishish yoki boshqa maqsadlarda sayohatga chiquvchi hisoblana di.

Ekskursiya xizmatlari quyidagi talablarga javob beradi:

1. Ekskursiya xizmatlari iqtisodiy faoliyatni bajaradi (turistik firma ekskursiya marshrutlarini sotishdan daromad oladi, ekskursiya a'zolari dan tushgan mablag' hisobiga daromad oladi, gid-tarjimon ish o'rinnari yaratishi ladi. ekskursiya ob'ektida turistik infratuzilmalar hosil bo'ladi);

2. Ekskursiya xizmatlarining g'oyaviy siyosiy faoliyati (vatanning tarixiy meroslari, yangi texnologiyalar bilan tanishishda g'urur hissi, siyosiy mo'tadil likni sezish xususiyatlari paydo bo'ladi);

3. Ekskursiya xizmatlarining umumiylarini ta'llim berish faoliyati (ekskursiya ekskursantlarga universal bilim beradi-tarixiy madaniy meros haqida, ishlab chiqarish haqida, madaniy-ma'rifiy ma'naviyat haqida, san'at haqida, yangi texnologiyalar va hokazolar);

4. Ekskursiya xizmatlari axborot tashish, axborotlar berish faoliyatini bajaradi (o'tmish va xozirgi voqealar, jarayonlar, sivilizatsiya taraqqiyoti, xozirgi rivojlanish, global voqealar, xalqaro integratsiya va boshqalar);

5. Ekskursiya xizmatlari tarbiyaviy faoliyatni bajaradi (Vatan boylik larini asrash, avaylash, g'urur hissiyotlari, faxrlanish va boshqalar);

6. Ekskursiya xizmatlari mazmunli dam oldirish faoliyatini bajaradi (tabiatga va uning so'lim go'shalariga ekskursiya, daryo sobillariga ekskursiya, o'rmonlarga, tog'larga, soylarga ekskursiya va boshqalar);

7. Ekskursiya xizmatlari insonlarda dunyo qarashni kengaytirish faoliya tini bajaradi (olamning cheksizligi, olamning bir butunligi, hayotning davriy ligi, jismlarning aylanma biologik harakati va boshqalar);

8. Ekskursiya xizmatlari insonlarda qiziqishni shakllantiradi (hayotga qiziqish, yashashga qiziqish, ijodga qiziqish, san'atga qiziqish, yangi texnolo giyalarga qiziqish, tarixga qiziqish va boshqalar);

9. Ekskursiya xizmatlari mutaxasislarni, kadrlarni qayta tayyorlaydi, malakasini oshiradi va boshqalar.

Ekskursiya xizmatlarining ob'ektini baholashda quyidagi mezonlar (talablar) asos qilinib olinadi:

❖ Ekskursiya ob'ektining bilishni anglatishi, his qilishi hususiyatlarini, jozibadorligi, betakrorligi;

❖ Ekskursiya ob'ektining ma'lumligi, mashhurligi, ekzotikligi, yangili gi;

❖ Ekskursiya ob'ektining ta'sirchanlik kuchi baholanadi. Bunda ekskursiya ob'ektining o'zining alohida ko'rinishlari va bu ob'ektning atrof dagi ob'ektlarga nisbatan uyg'unligi, mazmundorligi va boshqa jihatlari;

❖ Ekskursiya ob'ektining hozirda saqlanish holatlari;

❖ Ekskursiya ob'ektining manzili baholanadi (ekskursiya ob'ektiga to'liq qiyinchiliksiz borish, aylanib tomosha qilishning qulayligi, ekskursantlarning to'liq joylashishi, transport to'xtash maydonlarining borligi va boshqalar.).

Ekskursiya xizmatlari ob'ektlari baholanganidan keyin ekskursiya marshrutini tuzishda va ishlab chiqishda ekskursiyaning asosiy ob'ektlari va qo'shimcha ob'ektlari belgilanadi. Asosiy ob'ekt bo'lib, ekskursantlar tanlagan yoki turistik firma ekskursantlarga taklif qilgan ob'ekt hisoblana di. Qo'shimcha ob'ektlarni ekskursiya tashkilotchilari (turistik firma) belgileydi. Ekskursiya xizmatlarining qo'shimcha ob'ektlari asosiy ob'ektga borish va qaytish marshrutlarida ko'rsatiladi.

1. Turistik-ekskursiya faoliyati. Turizmda turistik-ekskursiya faoliyati O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining (20.08.1999 y.) 831-1-sonli Qarori bilan qabul qabul qilingan «Turizm to'g'risida»gi Qonun bilan muvofiqlashtiriladi.

2. Turistik-ekskursiya faoliyatni boshqarish huquqlari va sharoitlari. Bu huquqiy-me'yoriy hujjatlarga quyidagi m'yoriy hujjatlar kiradi: «Standartlash haqida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni (25.04.2003y.), O'zbekiston Respublikasining «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlash» haqidagi Qonuni (28.12.1993 y., 1006- XII-conli)

Bulardan tashqari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ro'yhatga olgan va O'zbekiston Davlat standartlashtirish, meteorologiya va serti fikatsiya markazi tasdiqlagan «Turistik xizmatlarni sertifikatlash tartibi (18.03.2000 y.), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Turistik faoliyatni Litsenziyalash tartiblarini tasdiqlash» (11.11.2003y., 497-sonli) kabi davlat hujjat va qarorlari turistik-ekskursion faoliyatni to'g'ri olib borishning huquqiy-me'yoriy hujjatlari hisoblanadi.

3.Turistik-ekskursiya mahsulotni yaratishni boshqarish sharoitlari. Bu blokda turistik-ekskursiya faoliyatini muvofiqlashtiradigan quyidagi qonun, huquqiy-me'yoriy hujjatlar mavjud. «Atrof-muhitni muhofaza qilish haqida» O'zbekiston Respublikasining qonuni, «O'zbekiston Respublikasining havo kodeksi» (07.05.1993y.), O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasiga turistlarning kirishi va chiqishi tartiblari haqida»gi «O'zbek turizm» M.Kning 13.09.2004 yildagi Qarori bilan tasdiqlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Reklama to'g'risida»gi (25.12.1998 y., 724-I-sonli), O'zbekiston Respublikasi Yustitsiya vazirligi ro'yxatga olgan «O'zbekiston Respublikasida mehmonxona xizmatlarini taklif qilishdagi qoidalar» (12.01.1998 y., 389-sonli) ham turistik-ekskursion xizmatlarni olib borish, turistik-ekskursion xizmatlardagi tartib-qoidalarning me'yori larini bilishda, ekskursiya xizmatlarini amalga oshirishda muhim hujjatlar bo'lib xizmat qiladi.

4.Turistik-ekskursiya faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy xususiyat lari- O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 106-sonli, «O'bek turizm» M.K.ning

19-sonli Qarori bilan qabul qilingan va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining 1407-sonli (13.09.2004 y.) Qarori bilan tasdiqlangan «Turistlarga xizmat ko'tsatishda turistik firmalarning turistlardan oladigan xizmat xaqlari haqida»gi hujjatlaridagi talablar, qo'shimcha moddalar bilan belgilanadi.

Yuqoridagi davlat tomonidan qabul qilingan hujjatlar respubli kamizda ekskursiya xizmatlatini rivojlantirishning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi. Ekskursiya mavzulari bo'yicha turizm ekskursiyalarini ishlab chiqishda yuqorida keltirilgan qonun va huquqiy me'yorfarga suyanadi. Ekskursiya mavzularini tanlashda albatta cheklovlar bo'lishi mumkin. Bu cheklovlar maxfiylik yoki harbiy maqsadlarda emas balki, ekskursiya a'zola rining hayoti xavfsizligi nuqtai-nazaridan ham bo'lishi mumkin. Respublika mizda ekskursiya xizmatlarini rivojlantirishda yuqorida qayd qilingan qonunlar, hukumat va tegishli vazirliliklarning qarorlari boshqaruvo vositasini bajaradi.

23.2. Ekskursiya xizmatini tayyorlash texnologiyasi

Yangi mavzudagi ekskursiya xizmatini tayyorlash murakkab jarayon bo'lib, butun bir ishchi jamoaning faol ishtirokini talab qiladi. Bo'lajak ekskursiya xizmatining mazmuni, uning ilmiy ahamiyati uslubchi va gidlarning bilimi, salohiyati, ularning pedagogika va psixologiya asoslarini amaliy o'zlashtirganlik darajasiga, auditoriyaga ta'sir ko'tsatishning eng samarali usullarini tanlay olish ko'nikmalariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Ekskursiya xizmati -- bu ikki muhim jarayon, ya'ni uni tayyorlash va o'tkazish natijasi bo'lib, o'zaro bir-biri bilan bog'liq, bir-birini to'ldiruvechidir. Puxta tayyorgarliksiz ekskursiya xizmatini yuqori sifatda o'tkazib bo'lmaydi. Yangi ekskursiya xizmatini tayyorlashda ikkita asosiy yo'nalishni ajratish mumkin:

- yangi mavzudagi ekskursiya xizmatini ishlab chiqish;
- endigina o'z ishini boshlayotgan gidni tayyorlash (yoki ushbu mavzu bu gid uchun yangi bo'lishi mumkin).

Yangi ekskursiya xizmatini tayyorlash ijodiy guruhga topshirilib, uning tarkibida mavzuning murakkabligiga qarab 3-7 nafar gid kiradi. Ko'pincha maslahatchi sifatida turli soha mutaxassislari, muzey ilmiy xodimlari, OTM va o'rta maktab o'qituvchilari, shuningdek, boshqa mutaxassislar ham taklif etilishi mumkin. Odatta ijodiy guruhning har bir qatnashchisiga ekskursiya xizmatining bir bo'limi, biron-bir mavzusi yoki mavzuning bir nechta kichik mavzuostilarini tayyorlash topshiriladi. Mazkur ijodiy guruh ishining nazorati esa mas'ul rahbarga topshiriladi.

Odatda yangi ekskursiya xizmatini tayyorlash 3 bosqichda amalga oshiriladi:

Dastlabki ishlari. ya'ni yangi ekskursiya xizmati mavzusi bo'yicha ma'lumotlar toplash, ekskursiya xizmati maqsad va vazifalarini aniqlash, shu bilan bir vaqtda ekskursiya ob'ektlarini tanlash.

Bevosita ekskursiya xizmatini tayyorlash, ya’ni ekskursiya xizmati marshrutini tuzish, ma’lumotlarga ishlov berish, ekskursiya xizmatining asosiy matnini yozish, uni o’tkazish uslubini aniqlash, ekskursiya ob’ektini ko’rsatish va hikoya qilishning eng samarali usullarini tanlash, gidlar tomonidan individual matnni tayyorlash jarayonini o’z ichiga oladi.

Yakuniy bosqich, ya’ni, sinov ekskursiyasini o’tkazish. Ekskursiya muassasasi rahbari tomonidan yangi ekskursiya xizmatini tasdiqlash, mavzuni himoya qilgan gidlarga ushbu ekskursiya xizmatini o’tkazishga ruxsat berish jarayonlari kiradi.

Ekskursiya xizmatini o’tkazish tartibi uning mavzusi, turi va o’tkazish shaklidan qat’iy nazar bir xil bo’ladi: tanishuv qismi, asosiy qism va yakuniy qism.

Tanishuv qismi – qoidaga ko’ra 2 qismdan iborat:

- *tashkiliy*, ya’ni gid guruh bilan tanishadi, xavfsizlik qoidalari, marshrutda o’zini tutishi bo’yicha yo’riqnomalar o’tkazadi;

- *axborot*, ya’ni gid ekskursantlarga mavzu haqida, marshrutning masofasi, davomiyligi, jo’nash va qaytish vaqtini, sanitarni bekatlar va ekskursiya xizmatining tugash joyi haqida ma’lumot beradi.

Asosiy qism – aniq ekskursiya ob’ektlarini ko’rsatish va hikoya qilish asosida tuziladi. Asosiy qism bir nechta mavzuostilardan iborat bo’lib, bitta umumiy mavzuda umumlashadi va ob’ektlarda yoritiladi. Mavzuostilar odatda 5 tadan 12 tagacha bo’lishi mumkin. Ekskursiya xizmatini tayyorlashda shunday ob’ektlarni tanlash kerakki, vaqt bo’yicha aniq rejalashtirilgan va ekskursiya xizmati mavzusining mazmunini yoritishga yordam qilsin.

Yakuniy qism – bu qism ham tanishuv qismi kabi 5-7 daqiqli bo’lib, ekskursiya ob’ektlari bilan bog’liq emas. Bu yerda ekskursiya xizmatining mavzusi bo’yicha yakuniy xulosalar qilinadi, bugungi yoritilgan mavzuni kengaytirishi, chuqurlashtirishi mumkin bo’lgan boshqa ekskursiya mavzulari haqida ma’lumotlar beriladi. Yakuniy qism ham tanishuv va asosiy qism kabi muhimdir.


Ekskursiya xizmati qiziqarli bo’lishi bilan birga keraksiz ma’lumotlar oqimi bilan yuklanmasligi, ma’lumotlarni taqdim etish usuli toliqtiradigan bo’lmasligi, turli toifadagi ekskursantlar tomonidan qiziqarli tarzda qabul qilinishi kerak. Shuning uchun, ekskursiya mavzusi albatta aniq bir toifa ekskursantlarga yo’naltilishi kerak (kattalar, bolalar, yoshlar, shahar yoki qishloq aholisi, turli kasb egalari, chet ellik turistlar va h.). Ekskursiya xizmatida bunday yondashuv differensial yondashuv deyiladi. U nafaqat iste’molchilar manfaatlarini, balki maqsadlarini ham hisobga oladi. Agar ekskursiya xizmati folklor tur tarkibida tashkil qilinayotgan bo’lsa, asosiy e’tibor hududning milliy qiyofasi, obidalari va tarixini ko’rsatib, hikoya qilishga qaratiladi. Agar ekskursiya xizmati ish yuzasidagi turizm tarkibiga kirsa, e’tibor o’sha hududning umumiyligi, ishga aloqador

markazlariga qaratiladi. Kurort dam olishlarda ekskursiya xizmati tashkil etilsa, tabiiy landshaftlar ob'ekt sifatida tanlanadi.

Yangi ekskursiya xizmatini tayyorlash jarayonida bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin. Ularni ekskursiya muassasalari amaliy faoliyatida yo'lga qo'yilgan ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz. «Ekskursiya xizmatini tayyorlash bosqichi» tushunchasi birinchi marotaba 1976 yilda amaliyatga qo'llanila boshlandi va unda quyidagi 15 ta bosqich ajratildi:

1. Ekskursiya xizmatining maqsad va vazifalarini aniqlash;
2. Ekskursiya xizmati mavzusini tanlash;
3. Zaruriy adabiyotlar ro'yxatini tuzish;
4. Ekskursiya ma'lumoti manbalarini aniqlash. Mavzu bo'yicha muzey, arxiv fondlari va ekspozitsiyalari bilan tanishish;
5. Ekskursiya ob'ektlarini tanlash va o'rghanish;
6. Ekskursiya marshrutini tuzish;
7. Marshrutni ko'zdan kechirish;
8. Ekskursiyaning asosiy matnini tayyorlash;
9. «Gid portfeli» ni tahlash;
10. Ekskursiya xizmatini o'tkazishning usullarini aniqlash;
11. Ekskursiya xizmatini olib borish texnikasini aniqlash;
12. Uslubiy ishlasmalarni tayyorlash;
13. Ekskursiya xizmatining individual matnini tuzish;
14. Sinov ekskursiyasini o'tkazish;
15. Ekskursiya xizmatini tasdiqlash.

Ekskursiya uslubiyatining talablaridan biri bilim olish jarayoni sifatida ekskursiya xizmatining uzlusizligini ta'minlash, ya'ni ma'lumotlarni ekskursantlarga ta'sirini butun bir ekskursiya xizmati davomida ta'minlay olish hisoblanadi. Ekskursiya xizmatini olib borish vaqtি ob'ektlarni ko'rsatish, hikoya qilish, mavzuostilar oralig'idagi tanaffuslar va mavzuning asosiy savollari jamlanmasidan iborat bo'lishi kerak.



4.1.-rasm. Ekskursiya xizmatining to'liq vaqtি

Har qanday ekskursiya xizmatini yuqoridagi sxema bo'yicha tuzish ekskursiya jarayonining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

23.3. Ekskursiya xizmati marshrutini tuzish va sinov ekskursiyasini o'tkazish tartibi

Ekskursianing uslubiy ishlannmalari va asosiy matni ijobjiy baholanib, «gid portfeli», marshrut sxemasi taxlanganidan so'ng sinov ekskursiyasi kuni belgilanadi. Sinov ekskursiyasini odatda ijodiy guruh rahbari o'tkazadi. Sinov ekskursiyasida tursirma rahbarlari, ijodiy guruh a'zolari, to'garak a'zolari, soha mutaxassislar taklif etiladi. Sinov ekskursiyasi jonli babs-munozara tarzida o'tkazilib, ushbu jarayonda kamchiliklar aniqlanadi. Sinov ekskursiyasi ishtirokchilar avvaldan uning asosiy matni, texnologik xaritasi, marshrut sxemasi, «gid portfeli» tarkibi, adabiyotlar ro'yxati bilan tanishiб chiqqan bo'lishi kerak.

Agar ekskursianing asosiy matni, texnologik xaritasi, narxi va foydalilik darajasi ijobjiy baholansa, unda ekskursiya muassasasi rahbari yangi ekskursiya mavzusi va uni o'tkazishga ruxsat olgan gidlar ro'yxatini tasdiqlash bo'yicha buyruq chiqaradi. Mayzuni mustaqil tayyorlagan boshqa gidlar keyinchalik mustaqil sinov ekskursiyasini o'tkazishadi. Ish stajidan qat'iy nazar gid uchun yangi bo'lgan mavzuda ekskursiya o'tkazishdan oldin uning qo'lida individual matn bo'lishi shart va shundagina rahbariyat buyruq chiqaradi.

Yangi mavzu bo'yicha ekskursiya tayyorlash murakkab jarayon bo'lib, unga bir nechta hujjatlar zarur bo'ladi:

6.2-jadval

Har bir ekskursiya mavzusi uchun zaruriy hujjatlar ro'yxati

T/r	Hujjatning nomi	Hujjatning mazmuni
1	Mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxati	Mazkur ekskursiya mavzusini tayyorlash uchun foydalilanigan kitoblar, maqolalar, broshyuralar, davriy nashrlar ro'yxati beriladi.
2	Marshrutga kiritilgan ob'ektlar kartochkasi	Ekskursiya ob'ektini tafsiflovchi ma'lumotlar bo'lib, unda ob'ekt nomi, joylashuvi, qisqacha ta'rifi, muallifi va barpo etilgan yili beriladi.
3	Ekskursianing asosiy matni	Mavzuni yorituvchi saralangan va manbalarga tayanib tayyorlangan matn. Matn mazmuni mavzuostilar va asosiy savollarni yoritib beradi, tashkiliy qism, xulosa, mantiqiy o'tishlarga asos bo'ladi.
4	Gidning individual matni	Uslubiy ishlannmaga mos keladigan aniq bir gid tomonidan tayyorlangan matn.

5	Marshrut sxemasi	Ekskursiya guruhi harakatlanadigan yo'l alohida varaqda ko'rsatiladi. Marshrutning boshlanishi va oxirgi nuqtasi, ko'rsatiladigan ob'ekt to'xtash joylari belgilangan bo'ladi.
6	«Gid portfeli»	Chizmalar, namunalar, hujjatlar, rasmlar, xaritalar, reproduksiyalar va fotosuratlar jamlangan papka.
7	Mavzuning texnologik xaritasi	Ekskursiyani o'tkazish bo'yicha tavsiyanomalar, ob'ektlarni ko'rsatish va hikoya qilish usullari beriladi. Ob'ektlarni, ko'rgaznali vositalarni ko'rsatish ketma-ketligi aniqlanadi.
8	Ekskursiya materiallari	Referatlar, jadvallar, raqamli ma'lumotlar, hujjatlar nusxasi, adabiyotlardan sitatalar beriladi.
9	Mayzu bo'yicha ekskursiya o'tkazadigan gidlar ro'yxati	Ushbu ro'yxatda maxsus buyruq bilan tasdiqlangan gidlar kiritiladi.

Tayanch so'z va iboralar: Turist, ekskursant, ekskursiya xizmatlari, ekskursiya ob'ekti, turistik-ekskursiya, turistik-ekskursiya faoliyat, turistik-ekskursiya mahsulotni yaratishni boshqarish sharoitlari, turistik-ekskursiya faoliyati, moliyaviy-iqtisodiy xususiyatlari, dastlabki ishlar, yakuniy bosqich, tanishuv qismi, tashkiliy, axborot, asosiy qism, yakuniy qism , «Gid portfeli».

Mustaqil nazerat qilish uchun topshiriq va savollar:

1. Turistik-ekskursiya xizmatlarining asoslari va huquqiy me'yorlari qanday?
2. Ekskursiya xizmatini tayyorlash texnologiyasini tushuntiring?
3. Ekskursiya xizmati marshrutini tuzish va sinov ekskursiyasini o'tkazish tartibi qanday buladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 14-son, 213-modda. 2017.
2. «Turizm to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 14-son, 113-modda. 2006.
3. «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2016 yil 2 dekabr, PF-4861-son.
4. «O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2016 yil 2 dekabr, PQ-2666-son.
5. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2017 – yil 7 – fevral, PF – 4947 – sonli.
6. “Oliy ta'llim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2018 – yil 3 – fevral PF – 5326 – sonli farmoni. //«Lex.uz».
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018 – yil 6 – fevral PQ – 3509 – sonli qarori. //«Lex.uz».
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018 – yil 6 – fevral PQ – 3510 – sonli qarori. //«Lex.uz».
10. «Toshkent shahrida xalqaro klassdagi 4 yulduzli mehmonxona qurilishi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2-mart qarori.
11. «Turistik tashkilotlarning faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 346 sonli 8 avgustda qabul qilingan Farmoyishi. «Xalq so'zi» gazetasi, 1998 yil 9 avgust.
12. «Turizm faoliyatini amalga oshirish va litsenziyalash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 13 martdagি 60-sonli qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida»gi nizom 2017 – yil 6 – aprel, 189 – sonli qaror. «Lex.uz».
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida»gi 2018 – yil 15 – fevral 120 – sonli qarori. «Lex.uz».
15. «Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak». O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljalangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 15.01.2017. «Lex.uz».
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 – yil 22 – dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasi. 22.12.2017. «Lex.uz».
17. M.R.Boltabayev, I.S.Tuxliyev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduhamidov «Turizm: nazariya va amaliyot». Darslik. T.: «Fan va texnologiya», 2018.
18. I.S.Tuxliyev, G'.H.Qudratov, M.Q.Pardayev «Turizmn rejalashtirish». Darslik. T.: «Iqtisod – moliya», 2010.
19. Севастьянова С.А. Региональное планирование развития туризма и гостиничного хозяйства: учеб. пособ.— М.: КНОРУС, 2007.
20. Биржаков М.Б. Введение в туризм.- издание 9-е, переработанное и дополненное. – СПб.: 2007.
21. Сенин В.С. Организация международного туризма. - М.: Финансы и статистика, 2004.
22. И.А.Рябовой, Ю.В.Забаева, Е.Л.Драчевой. Экономика и организация туризма. М.: «Кнорус», 2006.
23. Христов Т. Т. Религиозный туризм: учеб. пособ. -3-е изд., испр. М.: Издательский центр «Академия», 2007.
24. Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. Samarqand, SamISI -2006.
25. Христов Т. Т. Религиозный туризм: учеб. пособ. — 3-е изд., испр. — М.: Издательский центр «Академия», 2007.
26. Боголюбов В.С., Орловская В.П. Экономика туризма. - М.: Финансы и статистика, 2005.
27. Soliyev A.S., Usmonov M.R. Turizm geografiyasi. – Samarqand, SamDU, 2005.
28. Tuxliyev I.S. va boshqalar. Turizm asoslari; O'quv qo'llanma – Samarqand, SamISI, 2010.

29. Тухлиев Н.Т., Абдуллаева Т. Менежмент и организация бизнеса в туризме Ўзбекистана. - Т: ГНИ «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2006.
30. Тухлиев Н.Т., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. Т: ГНИ «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» 2006.
31. N.E.Ibadullayev «O'zbekistonning turistik resurslari» (ma'ruzalar matni) Samarqand – 2008.

Internet saytlari

1. www.gov.uz–O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiysi portalı
2. www.press-service.uz–O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti
3. www.ziyonet.uz - Milliy kutubxona portal.
4. www.lex.uz–O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
5. www.edu.uz – O'zbekiston ta'lim portalı
6. www.google.co.uz
7. www.uzbektourism.uz
8. www.world-tourism.org

ILOVALAR

MINTAQAVIY TURIZM FANI BO'YICHA TEST SAVOLLARI

1. Mintaqaviy turizm fanining maqsadini tushuntiring?

- a) O'zbekiston mintaqasida joylashgan turistik resurslar turlari haqida ma'lumotga ega bo'lish, hamda ulardan turizm maqsadida samarali foydalanish;
- b) O'zbekiston mintaqasida joylashgan turistik resurslarni tahlil qilish va uning iqtisodiyotdagagi o'rnnini aniqlash;
- v) O'zbekiston mintaqasida joylashgan turistik resurslarni o'rganish va unga ekskursiyalar tashkil etish;
- g) O'zbekiston mintaqasida joylashgan turistik resurslar bo'yicha turistik marshrutlar tuzish.

2. O'zbekiston Respublikasining "Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi" qachon tashkil etilgan?

- a) 2016 yil 2 dekabr
- b) 2016 yil 3 dekabr
- v) 2016 yil 4 dekabr
- g) 2016 yil 5 dekabr

3. O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-som farmon qachon qabul qilingan?

- a) 2016 yil
- b) 2015 yil
- v) 2014 yil
- g) 2013 yil

4. Qaysi huquqiy hujjat asosida turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomi berildi?

- a) "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon
- b) "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi qaror
- v) "Turizm to'g'risida"gi qonun
- g) «2005 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat Dasturi to'g'risida» gi farmon

5. O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonda nechta yo'nalish o'rta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan?

- a) 8 ta
- b) 9 ta
- v) 10 ta
- g) 12 ta

6.“Yashil” va “qizil” yo’laklar qayerda joriy etiladi?

- a) aeroport va vogzallarda
- b) bojxonalarda
- v) turistik markazlarda
- g) mehmonxonalarda

7.O’zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasining qaysi viloyatlarda hududiy boshqarmalari mavjud?

- a) Qoraqalpog’iston Respublikasi, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Farg’ona viloyatlarida
- b) Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Farg’ona viloyatlarida
- v) Qoraqalpog’iston Respublikasi, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Jizzax viloyatlarida
- g) Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Farg’ona viloyatlarida

8.Turizm sohasida nechta asosiy ximzatlar mavjud?

- a) 4 ta
- b) 5 ta
- v) 6 ta
- g) 3 ta

9.Umumiy xarakterga ko’ra tabiat yodgorliklari qanday guruhlarga bo’linadi?

- a) Geologik-geomorfologik botanic, paleontologik, landshaft, astronomic
- b) Tabiiy va antropogen
- v) Tarixiy va ekologik
- g) Madaniy, marifiy, ijtimoiy

10.O’zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasining boshqaruv xodimlari soni necha kishidan iborat?

- a) 43 nafar
- g) 45 nafar
- v) 47 nafar
- b) 49 nafar

11.«Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi» DUK qaysi tashkilot qoshida faoliyat ko’rsatadi?

- a) O’zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo’mitasi
- b) O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- v) O’zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish agentligi
- g) O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

12. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi qachon tashkil etilgan?

- a) 1992 yil 27 iyul
- b) 1993 yil 27 iyul
- v) 1992 yil 22 may
- g) 1995 yil 15 mart

13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk ipak yo'llini tiklash va valqaro turizmni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasining faol qatnashishini ta'minlash" to'g'risidagi farmoni qachon e'lon qilingan?

- a) 1995 yil iyul;
- b) 1992 yil avgust;
- v) 1993 yil fevral;
- g) 1995 yil dekabr;

14. "Turizm to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?

- a) 1999 yil 20 avgust
- b) 2001 yil 5 avgust
- v) 1992 yil 12 iyul
- g) 1995 yil 27 iyul

15.YUNESKO himoyasiga olingan Respublikamiz hududidagi 4 mingdan ortiq arxitektura yodgorliklari mamlakatimizning qaysi shaharlarda joylashgan?

- a) Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, Shaxrisabz
- b) Buxoro, Toshkent, Samarqand, Namangan
- v) Andijon, Samarqand, Surxondaryo, Navoiy
- g) Qashqadaryo, Xiva, Buxoro, Samarqand

16.Mintaqaviy turizm fanining obyekti nima?

- a) Mamlakatimizdagi barcha turizm faoliyatida foydalanan mumkin bo'lgan turizm obyektlari
- b) Joylashtirish korxonalarini
- v) Turfirmalar
- g) Madaniy arxitektura yodgorliklari

17.O'zbekistonda tarixiy-madaniy, arxitektura, arxeologiya abamiyatidagi qancha obyeklar mavjud?

- a) 7 mingdan ortiq
- b) 5 mingga yaqin
- v) 6 ming 300 ta
- g) 4 ming atrofida

18.Samarqand viloyatida qancha ziyorat obyektlari mavjud?

- a) 118 ta
- b) 144 ta

- v) 250 ta
- g) 400 ta

19.Toshkentda qancha ziyorat obyektlari mavjud?

- a) 144 ta
- b) 125 ta
- v) 300 ta
- g) 175 ta

20.Xivada ziyorat obyektlari miqdori qanchani tashkil etadi?

- a) 310 ta
- b) 201 ta
- v) 144 ta
- g) 118 ta

21.Buxorodagi ziyorat obyektlari miqdorini aniqlang?

- a) 201 ta
- b) 300 ta
- v) 250 ta
- g) 117 ta

22.Butunjahon sayyohlik va turizm kengashi ma'lumotlariga ko'ra turizm sohasida 1996 yil qancha ish o'rni mavjud bo'lgan?

- a) 225 mln
- b) 200 mln
- v) 400 mln
- g) 180 mln

23.Mutaxassislar turistlarning qanday ehtiyojlarini ajratishadi?

- a) Rekreatsiya, dam olish, og'ayni va tanishlarni ko'rish, Ish va professional maqsadlar bo'yicha, davolanish, diniy va ziyoratchilik va boshqa maqsadlar bo'yicha
- b) Dam olish, Og'ayni va tanishlarni ko'rish
- v) Ish va professional maqsadlar bo'yicha, davolanish
- g) Diniy va ziyoratchilik va boshqa maqsadlar bo'yicha

24.O'zbekiston hududida qancha shifobaxsh yer osti mineral suv manbalari mavjud?

- a) 121
- b) 200
- v) 350
- g) 75

25.Toshkent shaxri va viloyatida respublika turizm salohiyatining qancha qismi jamlangan?

- a) 36%

- b) 30%
- v) 45%
- g) 65%

26.Turistik resurslarga ta'rif bering?

- a) Tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa turistlarni sayohatga qiziqtiruvchi, insonning jismoniy ruhiy va aqliy kuchini tiklashi va rivojlanishi ehtiyojlarini qondirishga qodir obyektlarga aytildi.
- b) Faqat daromad olish maqsadida foydalaniladigan obyektlarga aytildi.
- v) Mahalliy aholiga xizmat ko'rsatuvchi obyektlar jamlanmasiga aytildi.
- g) Transport vositalari, mehmonxonalar va ovqatlanish korxonalari majmuasiga aytildi.

27.Foydalanish xususiyatiga ko'ra rekreatsion resurslar nechta guruhga ajratiladi?

- a) 2 ta
- b) 4 ta
- v) 5 ta
- g) 1 ta

28.Foydalanish xususiyatiga ko'ra rekreatsion resurslar qanday guruhlarga ajratiladi?

- a) Tabiiy va antropogen
- b) Tabiiy va ekologik
- v) Ekologik va antropogen
- g) Tarixiy va ekologik

29.Tabiiy rekreatsion resurslar tarkibiga nimalar kiradi?

- a) Daryo, ko'l, dengiz bo'yлari, o'simliklar.
- b) Tarixiy madaniy obyektlar.
- v) Joylashtirish va ovqatlantirish korxonaları.
- g) Muzeylar va teatrlar.

30.Antropogen rekreatsiya resurslriga nimalar kiradi?

- a) Turli davrlarda inson aql-zakovati bilan yaratilgan tarixiy arxeologik va san'at obidalari yodgorliklar, muzeylar.
- b) Joylashtirish korxonaları.
- v) O'rmonlar, milliy bog'lar.
- g) Milliy parklar va qo'riqxonalar, o'simliklar dunyosi.

31.Deferem turistik resurslarni nechta guruhga ajratgan?

- a) 4 ta
- g) 3 ta
- v) 5 ta
- b) 6 ta

32. Deferem barcha turistik resurslarni qanday guruhlarga ajratgan?

- a) Gidrom fitom, litom va antropom
- b) Gdrom, tabiiy, litom
- v) Fitom, antronom, geologik va gidrom
- g) Antronom va tabiiy

33. Fitom guruhiiga nimalar kiradi?

- a) Tabiiy turistik resurslar: tabiiy ravishda yaratilgan (o'rmon tog'lar vulqonlar) va inson tomonidan yaratilgan (milliy bog'lar, parklar)
- b) Suv bilan bog'liq turistik resurslar
- v) Arxitektura yodgorliklari, qadimgi insonlar yashash joylari, ko'prik aeroportlar, sport majmualari va hk.
- g) Turistik qiziqishni orttiradigan barcha inson faoliyati urinishlari

34. Gidrom guruhiiga nimalar kiradi?

- a) Suv bilan bog'liq turistik resurslar
- b) Tabiiy turistik resurslar: tabiiy ravishda yaratilgan (o'rmon tog'lar vulqonlar) va inson tomonidan yaratilgan (milliy bog'lar, parklar)
- v) Turistik qiziqishni orttiradigan barcha inson faoliyati urinishlari
- g) Arxitektura yodgorliklari, qadimgi insonlar yashash joylari, ko'prik aeroportlar, sport majmualari va hk.

35. Litom guruhiiga nimalar kiradi?

- a) Arxitektura yodgorliklari, qadimgi insonlar yashash joylari, ko'prik aeroportlar, sport majmualari va hk.
- b) Suv bilan bog'liq turistik resurslar
- v) Tabiiy turistik resurslar: tabiiy ravishda yaratilgan (o'rmon tog'lar vulqonlar) va inson tomonidan yaratilgan (milliy bog'lar, parklar)
- g) Turistik qiziqishni orttiradigan barcha inson faoliyati urinishlari

36. Antronom o'z tarkibiga nimalarni qamrab oladi?

- a) Turistik qiziqishni orttiradigan barcha inson faoliyati urinishlari-
- b) Tabiiy turistik resurslar: tabiiy ravishda yaratilgan (o'rmon tog'lar vulqonlar) va inson tomonidan yaratilgan (milliy bog'lar, parklar)
- v) Arxitektura yodgorliklari, qadimgi insonlar yashash joylari, ko'prik aeroportlar, sport majmualari va hk
- g) Suv bilan bog'liq turistik resurslar

37. Turistik resurslar foydalananish xususiyatiga qaysi guruhlarga bo'lindi?

- a) Bevosita va bilvosita
- b) Tabiiy va antropogen
- v) Ekologik va iqtisodiy
- g) Bevosita va tabiiy

38. Bevosita turdag'i turistik resurslar guruhiiga nimalar kiradi?

- a) To'g'ridan to'g'ri foydalaniladigan tabiiy v tarixiy-mdaniy resurslar
- b) Ekologiya resurslari
- v) Antropogen resurslar
- g) Moddiy resurslar.

39. Bilvosita turdag'i turistik resurslarga nimalar kiradi?

- a) Ijtimoiy-iqtisodiy moddiy, moliyaviy mehnat va axborot beruvchi resurslar
- b) Tabiiy resurslar
- v) Ekologiya resurslari
- g) Antropogen resurslar.

40. Umumiy xrakteriga ko'ra tabiat yodgorliklari qanday guruhlarga bo'linadi?

- a) Geologik-gemofrologik, botanic, paleontologik, astronomik, landshaft yodgorliklari
- b) Geologik-gemofrologik, botanik
- v) Paleontologik, astronomik
- g) Landshaft yodgorliklari

41. Turizmni rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar nechta guruhga bo'linadi?

- a) 2 ta
- b) 3 ta
- v) 5 ta
- g) 4 ta

42. Turizmni rivojlantirishga tasir qiluvchi omillar qanday guruhlarga bo'linadi?

- a) Barqaror va o'zgaruvchan
- b) Tabiiy va antropogen
- v) O'zgarmas omillar
- g) Ekologik resurslar

43. Barqaror omillarga qanday omillar kiradi?

- a) Tabiiy-iqlimiylar, geografik omillar, madaniy-tarixiy omillar
- b) Tabiiy-iqlimiylar
- v) Geografik omillar
- g) Madaniy-tarixiy omillar

44. O'zgaruvchun omillarga qaysi omillar kiradi?

- a) Siyosiy omillar, demografik va texnikaviy omillar, moliyaviy-iqtisodiy omillar
- b) Siyosiy omillar
- v) Demografik va texnikaviy omillar
- g) Moliyaviy-iqtisodiy omillar

45. Turizm infratuzilmasi deganda nimani tushunasiz?

a) Turistlarning turistik resurslaridan foydalanishni ta'minlovchi binolar tizimi muhandislik va kommunikatsiya tarmoqlari, yo'llar, turizmning xilma-xil korxonalari hamda turizm korxonalarining ishlatalishini ta'minlashga imkon yaratilishidir.

b) Turizm faoliyati sohasida foydalanitadigan ovqatlantirish korxonalari.

v) Barcha madaniy-tarixiy arxitektura yodgorliklari.

g) Joylashtirish vositalari, transport tarmoqlari va ovqatlanish korxonalarining majmuasi.

46.Toshkent xalqaro aeroporti soatiga nechta yo'lovchiga xizmat ko'rsata oladi?

a) 1000 ta

b) 2000 ta

v) 500 ta

g) 1500 ta

47.Samarqand xalqaro aeroporti soatiga nechta yo'lovchiga xizmat ko'rsata oladi?

a) 400 ta

b) 1000 ta

v) 500 ta

g) 800 ta

48.V.S.Bogolyubova va V.P.Orlovskayalar fikricha turistik resurslarda ajralib turuvchi belgilarni ko'rsating?

a) Qulaylik iqlimi sharoit, o'rgangalik darajasi, sayyoqlik ahamiyati, potensial zahira, ijtimoiy demografik xususiyatlar va hk.

b) Iqlimi sharoit.

v) O'rgangalik darajasi, sayyoqlik ahamiyati.

g) Potensial zahira, ijtimoiy demografik xususiyatlar va hk,

49.Turistik-rekreatsiya resurslarini qaysi jixatdan baholash qulay hisoblanadi?

a) Miqdor va sifat

b) Son juhatdan

v) Qulaylik va jozibadorlik jihatidan

g) Sayyoqlik ahamiyatiga ko'ra;

50.Ekologik turizm terminini birinchi marta kim va qachon qo'llagan?

a) G.Seballos-Laskureyn 1980 yilda

b) V.S.Bogolyubov 1950 yilda

v) V.P.Orlovskaya 1965 yilda

g) Danilov S. 1990 yilda

51.Ekologik turizm deganda nimani tushunasiz?

- a) Tabiat qo'yniga sayohat tushuniladi
- b) Passiv turizm turi hisoblanadi
- v) Ziyorat maqsadidagi turizm
- g) Davolanish maqsadidagi turizm

52. Ekologik turizmni tashkil etish uchun qaysi omillar xizmat qiladi?

- a) Milliy bog'lar, davlat buyurtmaxonalari, tabiat yodgorliklari botanik bog'lar, davolash sog'lomlashtirish joylari va kurortlar qo'riqxonalar.
- b) Arxitektura yodgorliklari
- v) Madaniy-tarixiy yodgorliklar
- g) Etnografik va madaniy resurslar.

53. Hozirgi kunda ekologik turizmning nechta turi mavjud?

- a) 4 ta
- b) 5 ta
- v) 3 ta
- g) 2 ta

54. Ekologik turizmning qanday turlari farqlanadi?

- a) Ilmiy turizm, tabiat tarixini o'rghanish, sarguzasht turizmi, alohida muhofaza etiladigan tabiat hududlarga sayohat.
- b) Tabiat qo'yniga sayohat, ziyorat turizmi.
- v) Qo'msash va gastronomic turizm
- g) Alohida muhofaza etiladigan tabiat hududlarga sayohat.

55. Ekoturizm qanday tarkibiy qismlarga bo'linadi?

- a) Dengiz va okeanlar daryo va ko'llar ekoturizmi, tog', tarixiy obidalar ekoturizmi, arxeologik qazilmalar alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekoturizmi.
- b) Okeanlar daryo va ko'llar ekoturizmini.
- v) Tog', tarixiy obidalar ekoturizmi.
- g) Arxeologik qazilmalar alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ekoturizmi.

56. Ekoturizmning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?

- a) Ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik xususiyati.
- b) Tabiiy xususiyati.
- v) Iqlimiyl xususiyati.
- g) Ijtimoiy xususiyati.

57. Bugungi kunda yiliga qancha odam ziyorat maqsadida safarga chiqishadi?

- a) 200 mln dan ortiq
- b) 150 mln kishi
- v) 100 mlnga yaqin
- g) 45 mln

58. Dunyoda ziyoratning nechta makro hududi mavjud?

- a) 11 ta

- b) 10 ta
- v) 15 ta
- g) 6 ta

59. Agroturizmni qaysi turlarga ajratish mumkin?

- a) Sport, madaniy-tanishuv, fermençilik, ish yuzasidan faoliyat, ekologik.
- b) Faol agroturizm, ekologik.
- v) Ish yuzasidan agroturizm, bog'dorchilik.
- g) Ekologik va ish yuzasidan agroturizm.

60. Mutaxassis B.To'rayev fikricha mamlakatimizda qancha arxitektura yodgorliklari mavjud?

- a) 545 ta
- b) 1457 ta
- v) 1500 ta
- g) 600 ta

61. Turizm sohasidagi asosiy xizmatlarni sanab bering?

- a) Mehmonxona xizmati, ovqatlantirish xizmati, transport xizmati va gid ekskursiya xizmati.
- b) Mehmonxona xizmati, mashinalarni ijara berish xizmati
- v) Ovqatlantirish xizmati, ko'ngil ochar o'yinlar.
- g) Animatsion dasturlar.

62. Rekreatsiya deb nimaga aytildi?

- a) Insonlar sog'ligini va mehntga qobiliyatini dam olish obyektlarida qayta tiklashi sayyohlik yo'li bilan tabitning turli miskanlariga borishi
- b) Aktiv dam olish turi
- v) Passiv dam olish turi
- g) Piyoda yurish turizmi bilan bog'liq

63. Rekreatsiya samaradorligini aniqlashda nimalarni hisobga olish zarur?

- a) Tadbirlar maqsadi, ijtimoiy standartlar, tadbirlar natijasi, resurslar xarajati, tabiiy resurslar
- b) Tadbirlar maqsadi va natijasi
- v) Turizm infratuzilmasi holati
- g) Hududiy rekreatsion tizimning qabul qilish darajasi.

64. Rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy xususiyatlari nima bilan bog'liq?

- a) Mavjud resurslar asosida dam olish, sog'lemolashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratish
- b) Davolash ishlarini yo'lga qo'yish
- v) Ijtimoiy infratuzilmani barpo etish
- g) Xizmat ko'rsatish sifatini optimallashtirish

65. Geologik- geomorfologik yodgorliklari tarkibiga nimalar kiradi?

- a) Nodir geologik tog' jinslari,, karst voronkalari, relyef shakllari, g'orlar, issiq suvli mineral buloqlar.
- b) Yuz yillik daraxtlar, yo'qolib ketayotgan relikt o'simliklar
- v) Toshga aylangan organizmlar va qirilib ketgn hayvon izlari qolgan joylar
- g) Yirik meteoritlar tushib izi qolgan joylar kiradi

66. Botanik yodgorliklarga nimalar kiradi?

- a) Yuz yillik daraxtlar, yo'qolib ketayotgan relikt o'simliklar
- b) Nodir geologik tog' jinslari,, karst voronkalari, relyef shakllari, g'orlar, issiq suvli mineral buloqlar,
- v) Yirik meteoritlar tushib izi qolgan joylar
- g) Toshga aylangan organizmlar va qirilib ketgn hayvon izlari qolgan joylar

67. Paleontologik yodgorliklarga nimalar kiradi?

- a) Toshga aylangan organizmlar va qirilib ketgn hayvon izlari qolgan joylar
- b) Nodir geologik tog' jinslari,, karst voronkalari, relyef shakllari, g'orlar, issiq suvli mineral buloqlar.
- v) Yirik meteoritlar tushib izi qolgan joylar

68. Landshaft yodgorliklariiga nimalar kiradi?

- a) Ajoyib qoyalar, sharsharalar, daralar, ajoyib buloqlar, xushmanzara joylar kiradi.
- b) Toshga aylangan organizmlar va qirilib ketgn hayvon izlari qolgan joylar
- v) Yuz yillik daraxtlar, yo'qolib ketayotgan relikt o'simliklar
- g) Nodir geologik tog' jinslari,, karst voronkalari, relyef shakllari, g'orlar, issiq suvli mineral buloqlar

69. Astronomik tabiat yodgorliklariiga nimalar kiradi?

- a) Yirik meteoritlar tushib izi qolgan joylar
- b) Yuz yillik daraxtlar, yo'qolib ketayotgan relikt o'simliklar
- v) Tarixiy madaniy yodgorliklar
- g) Ajoyib qoyalar, sharsharalar, daralar, ajoyib buloqlar, xushmanzara joylar kiradi

70. Omonqo'ton o'rmon xo'jaligining tashkil etilishi qachondan boshlangan?

- a) 1887 yildan
- b) 1890 yildan
- v) 1965 yildan
- g) 1991 yildan

71. O'zbekistonning rekreatsiya resurslariga boy mintaqalariga qaysilar kiradi?

- a) Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon, Sangzor, Ohangaron
- b) Toshkent, Buxoro, Zarafshon
- v) Sangzor, Ohangaron, Samarcand, Navoiy

g) Qashqadaryo, Surxondaryo Samarqand Xiva

72.Jaxon madaniyati va turistik faoliyatda qaysi tashkilotlar muhim o'rinnegallaydi?

a) YUNESKO va BTT

b) Butunjaxon savdo tashkilotlari

v) Xalqaro valyuta fondi

g) BMT

73.Hududiy rekreatsiya tizimlari asosiy vazifasiga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?

a) Ijtimoiy, tibbiy- biologik

b) Tabiiy va antropogen

v) Ekologik va iqtisodiy

g) Ijtimoiy iqtisodiy

74.Hududiy rekreatsiya tizimlari qanday gurublardan tashkil topgan?

a) Davolanish, sog'lomlashtirish, sport, tanishuv

b) Davolanish, tanishuv, ziyyarat

v) Aktiv dam olish, sport bn shug'ullanish

g) Ishbilarmonlik turizmi, davolanish-sog'lomlashtirish

75.Rekreatsiya majmularining nechta tipi mavjud?

a) 5 ta

b) 6 ta

v) 4 ta

g) 2 ta

76.Bugungi kunda mamlakatimiz hududi nechta ekoturistik rayonga ajratilgan?

a) 14 ta

b) 15 ta

v) 10 ta

g) 12 ta

77.Ustyurt ekoturistik rayoning maydonini aniqlang?

a) 200 ming km kv

b) 17.8 ming km kv

v) 53.7 ming ga

g) 21.73 ming ga

78.Zomin milliy bog'i qachon tashkil etilgan?

a) 1978 yilda

b) 1980 yilda

v) 1986 yilda

g) 1991 yilda

79.Turkiston ekoturistik rayoni qachon tashkil etilgan?

- a) 1959 yilda
- b) 1965 yilda
- v) 1972 yilda
- g) 1989 yilda

80.Ekoturistik rayonlar nechta mintaqaga ajratiladi?

- a) 4 ta
- b) 5 ta
- v) 6 ta
- g) 3 ta

81.“Maydon karst g’ori” qaysi ekoturistik rayonda joylashgan?

- a) Nurota ekoturistik rayonida
- b) Amudaryo ekoturistik rayonida
- v) Ustyurt ekoturistik rayonida
- g) Orol va orolbo’yi ekoturistik rayonida

82.Ustyurt ekoturistik rayonining mashxur obyektni aniqlang?

- a) Davolash xususiyatiga ega bo’lgan tuzli “Borsakelmas sho’rxoxi”
- b) Badayto’qay qo’riqxonasi
- v) Xorazm buyurtmaxonasi
- g) Zomin milliy bog’i

83.Toshkent shaxri nechanchi yilda “Islam madaniyati poytaxti” deb e’lon qilindi?

- a) 2007 yilda
- b) 2006 yilda
- v) 2010 yilda
- g) 1998 yilda

84.Ekoturistik rayonlar qanday mintaqalarga ajratiladi?

- a) Cho’llar mintaqasi, to’qay, adir mintaqasi, tog’lar mintqasi
- b) To’qay, adir mintaqasi
- v) Cho’llar mintaqasi
- g) Tog’lar mintqasi

85.Cho’llar mintaqasi dengiz sathidan qancha balandlikdagı joylarni o’z ichiga oladi?

- a) 400-500 m
- b) 1000-1200 m
- v) 800-1000 m
- g) 1400-2500 m

86.O’zbekiston flora dunyosida qancha o’simlik turi mavjud?

- a) 4100 dan ortiq

b) 2000 ga yaqin

v) 3080 ta

g) 5000 dan ortiq

87. MDH davlatlari ichid yagona bo'lgan "Kitob davlat geologiya qo'riqxona"si qaysi ekoturistik rayonda joylashgan?

a) Qashqadaryo ekoturistik rayonida

b) Amudaryo ekoturistik rayonida

v) Surxondaryo ekoturistik rayonida

g) Ustyurt ekoturistik rayonida

88. MDH davlatlari ichid yagona bo'lgan "Kitob davlat geologiya qo'riqxona"si nechanchi yil tashkil etilgan?

a) 1979 yilda

b) 1992 yilda

v) 1985 yilda

g) 1960 yilda

89. Ismoil Somoni maqbarasi nechanchi asrlarga oid?

a) IX-X asrlarga

b) V-VI asrlarga

v) XII-XIII asrlarga

v) VII-VIII asrlarga

90. Mag'oki Attori masjidi qayerda joylashgan?

a) Buxoroda

b) Samarcandda

v) Xivada

g) Toshkentda

91. Bibixonim jom'e masjidi qachon qurilgan?

a) 1399-1404 yillar

b) 1390-1398 yillar

v) 1400-1406 yillar

g) 1402-1403 yillar.

92. Said Alouddin maqbarasi qaysi viloyatda joylashgan?

a) Xorazm viloyatida

b) Buxoro viloyatida

v) Samarcand viloyatida

v) Toshkent viloyatida

93. Yunusxon maqbarasi nechanchi asrlarga oid yodgorlik?

a) XVI asr

b) XV asr

v) XII asr

g) IX asr

94. Shohizinda majmuasida qancha obyektlar (maqbara, masjid, xonaqoh...) mavjud?

- a) 20 dan ortiq
- b) 15 ta
- v) 30 ta
- g) 10 ta

95. Husam ota majmuasi qayerda joylashgan?

- a) Qashqadaryoda
- b) Surxondaryoda
- g) Navoiyda
- v) Toshkentda

96. "O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasi BTT ga qachon a'zo bo'ldi?

- a) 1993 yil BTT ning 10-sessiyasida
- b) 1995 yil BTTning 13-sessiyasida
- g) 1999-yil BTT ning 31-sessiyasida
- v) 2014 yil BTTning 99-sessiyasida

97. Mamlaktimizda mavjuda resusrslarning qanchast arxeologik ahamiyatga ega?

- a) 5500 tasi
- b) 5000 tasi
- g) 4500 tasi
- v) 3460 tasi

98. Al-Motrudiy maqbarasi qayerda joylashgan?

- a) Samarqand shaxri
- b) Urgut tumani
- g) Ishtixon tumani
- v) Payariq tumani

99. Nazrati Dovud ziyoratgoh g'ori qayerda joylashgan?

- a) Nurobod tumani
- b) Payariq tumani
- g) Paxtachi tumani
- v) Oqdaryo tumani

100. Markaziy Osiyodagi eng baland arxitektura yodgorligi bo'lgan "Minorai Kalon" qayerda joylashgan?

- a) Buxoro
- b) Xiva
- v) Samarqand
- g) Toshkent

MUNDARIJA	3
KIRISH	
1-MAVZU. MINTAQAVIY TURIZM FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI	
1.1. Mintaqaviy turizm fanining turizm sohasini rivojlantirishdagi o'rnii	6
1.2. Fanning maqsadi va vazifalari	8
1.3. Fanning boshqa fanlar tizimida tutgan o'rnii	9
1.4. O'zbekiston mustaqillikka erishgach turizm sohasida amalga oshirilgan islohotlar	14
2-MAVZU. MINTAQAVIY TURIZMNING IJTIMOIY – IQTISODIY MAZMUNI VA UNING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	
2.1. Mintaqaviy turizmning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiyotdagi ahamiyati	21
2.2. Mintaqaviy turizmning ijtimoiy mazmuni va uning jamiyatdagi o'rnii	23
2.3. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida mintaqaviy turizmning ahamiyati	24
3-MAVZU. MINTAQAVIY TURIZMDAN FOYDALANISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	
3.1. Mintaqaviy turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish ahamiyati	28
3.2. Turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi barqaror omillar va ularning turlari	30
3.3. Turistik resurslardan foydalanishga ta'sir etuvchi o'zgaruvchi omillar	32
4-MAVZU. MINTAQALARNING TURISTIK RESURLARI TASNIFI	
4.1. Turistik resurslar tushunchasining mohiyati, ahamiyati va o'ziga xos xususiyallari	35
4.2. Turistik resurslar tasnifi va unga nisbatdan yondoshuvlar	39
4.3. Turistik resurslarning turlari	42
5-MAVZU. MINTAQALARNING TURISTIK RESURSLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	
5.1. Turistik – rekreatsiya resurslari va ularni belgilari	49
5.2. Turistik resurslarni baholashni turizmdagi ahamiyati	50
5.3. Turistik resurslarni miqdor va sifat jihatdan baholash	52
6-MAVZU. MINTAQALARDA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH	
6.1. Mintaqalarda ekoturizmning tutgan o'rnii va roli	56
6.2. O'zbekiston turistik mintaqalarining ekoturistik salohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari	60
6.3. Ekoturizmni rivojlantirishda tabiat alohida muhofaza qilinadigan	64

6.4	hududlarning o'rni Mintaqalarda joylashgan qo'riqxonalar va ularidan ekoturizmda foydalanish imkoniyatlari	66
6.5	O'zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari	69
	7-MAVZU. ZIYORAT TURIZMI MARKAZLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH RESURSLARI	
7.1	Ziyorat turizmi tushunchasi	73
7.2	Mintaqadagi muqaddas ziyoratgohlar	76
7.3	Islom dini ziyoratgoh markazlari	77
7.4	Diniy turizm geografiyasi	78
	8-MAVZU. MINTAQALARDA QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISH RESURSLARI	
8.1	Qishloq turizmi tushunchasi va turlari	86
8.2	Qishloq turizmini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	89
8.3	O'zbekistonda qishloq turizmi resurslari va imkoniyatlari	90
	9-MAVZU. MINTAQAVIY TURIZMDA REKREATSIYA RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK-IQTISODIY XUSUSIYATLARI	
9.1	Mintaqaviy rekreatsiya resurslarining ijtimoiy ahamiyati	95
9.2	Rekreatsiya resurslaridan foydalishning iqtisodiy xususiyatlari	96
9.3	Noyob tabiat yodgorliklaridan foydalish va muhofaza etish	99
	10-MAVZU. TURIZM INDUSTRIYASIDA RAQOBATBARDOSH OMILLAR ASOSIDA BUYUK IPAK YO'LIDAVLATLARINING GURUHLANISHI	
10.1	Buyuk Ipak yo'lining rivojlanish tarixi	101
10.2	Qadimda sharq bilan g'arbni bog'lab turgan savdo yo'li	104
10.3	Buyuk Ipak yo'li va unda turizmni rivojlantirishning ahamiyati	106
	11-MAVZU. MARKAZIY OSIYO TURIZMI IMKONIYATLARINI TADQIQ QILISH	
11.1	Markaziy Osiyo mamlakatlarining geografik xususiyatlari	110
11.2	Qirg'iziston Respublikasi turizmi	113
11.3	Turkmaniston Respublikasi turizmi	114
11.4	Qozog'iziston Respublikasi turizmi	115
11.5	Tojikiston Respublikasi turizmi	117
11.6	O'zbekiston Respublikasi turizmi	118
	12-MAVZU. O'ZBEKISTONNI TURISTIK RAYONLASHTIRISH XUSUSIYATLARI	
12.1	Hududiy rekreatsion tizimlari (X.T.M.) rekreatsiya maqsadida rayonlashtirish	123
12.2	Turistik – rekreatsiya jihatdan rayonlashtirishning belgilari va xususiyatlari	124
12.3	O'zbekistonda turistik rayonlashtirishda yondoshuvlar va ekoturistik rayonlashtirish	125
12.4	O'zbekistonda ekoturistik rayonlashtirish	135

13-MAVZU. TOSHKENT TURISTIK MINTAQASI		
13.1	Toshkent turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni	141
13.2	Mintaqaning turistik resurslari salohiyati	146
13.3	Toshkent viloyati va Toshkent shahrining tarixiy-arkitektura yodgorliklari ekskursiya ob'ektlari sifatida	148
14-MAVZU. SAMARQAND TURISTIK MINTAQASI		
14.1	Samarqand turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni	153
14.2	Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiyalari	157
14.3	Mintaqaning turistik resurslari salohiyati	166
15-MAVZU. BUXORO-NAVOIY TURISTIK MINTAQASI		
15.1	Buxoro-Navoiy turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni	178
15.2	Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiyalari	182
15.3	Mintaqaning turistik resurslari salohiyati	184
16-MAVZU. XORAZM TURISTIK MINTAQASI		
16.1	Xorazm turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni	212
16.2	Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiyalari	214
16.3	Mintaqaning turistik resurslari salohiyati	217
17-MAVZU. FARG'ONA TURISTIK MINTAQASI		
17.1	Farg'ona turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni	225
17.2	Farg'ona turistik mintaqasida turizmning rivojlanish tendensiyalari	227
17.3	Mintaqaning turistik resurslari salohiyati	234
18-MAVZU. JIZZAX – SIRDARYO TURISTIK MINTAQASI		
18.1	Jizzax viloyatining madaniy-tarixiy turistik resurslari salohiyatidan foydalananish imkoniyatlari	260
18.2	Jizzax viloyatining ekoturistik resurslari va ularidan samarali foydalananish	265
18.3	Sirdaryo viloyatining umumiy tafsifi	265
18.4	Sirdaryo viloyatining turistik resurslari va turizmnii rivojlantirishdagi o'rni	274
19-MAVZU. O'ZBEKISTONNING JANUBIY TURISTIK MINTAQASI		
19.1	O'zbekistonning janubiy turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni	276
19.2	Mintaqada turizmning rivojlanish tendensiyalari	280
19.3	Mintaqaning turistik resurslari salohiyati	286
20-MAVZU. QORAQOLPOG'ISTON TURISTIK MINTAQASI		
20.1	Qoraqolpog'iston turistik mintaqasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rni	301

20.2	Mintaqada turizmning rivojlanishi tendensiyalari	304
20.3	Mintaqaning turistik resurslari saloliyati	304
21-MAVZU: MINTAQAVIY TURIZM INFRARUZILMALARINI TAKOMILLAHTIRISH YOLLARI		
21.1	Mintaqalarning turistik resurslaridan samarali foydalanishda infratuzilmaning o'rni	311
21.2	Mintaqalarning turizm infratuzilmasi holati	313
21.3	Mintaqalarda turizm infratuzilmasini rivojlanitirish chora tadbirlari	318
22-MAVZU. MINTAQALARNING MADANIY-TARIXIY MEROSI, ULARDAN FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISH		
22.1	Jahon madaniy-tarixiy merosini saqlashda Yunesko va Butunjahon turistik tashkilotining (BTI) o'rni	324
22.2	O'zbekiston shaharlarining arxitektura yodgorliklari va ulardan foydalanish	325
22.3	Mintaqalardagi madaniy merosda etnografiya, urf-odatlar va an'analarni tutgan o'rni	327
22.4	Mintaqalarda mavjud muzeylar va ulardan foydalanish	328
23-MAVZU. MINTAQAVIY TURISTIK RESURSLAR ASOSIDA EKSKURSIYA XIZMATLARINI TASHKIL ETISH		
23.1	Turistik-ekskursiya xizmatlarining asoslari va huquqiy me'yorlari	330
23.2	Ekskursiya xizmatini tayyorlash texnologiyasi	333
23.3	Ekskursiya xizmati marshrutini tuzish va sinov ekskursiyasini o'tkazish tartibi	336
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI		
ILOVALAR		
		338
		341

**N.E.Ibadullayev, M.X.Xamitov, S.A.Abduxamidov,
M.I.Daminov**

MINTAQAVIY TURIZM
O'quv qo'llanma

Адади 6 нусха. Когоз бичими 60x84_{1/32}.
Нашр босма табоби 10,75.

Самарканд иктисодиёт ва сервис институти босмахонаси.
Манзил: Самарканд ш, Амир Темур кўчаси, 9 уй.

